TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YUSUF SAMADO‘G‘LI

67



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YUSUF SAMADO‘G‘LI





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84 (5Ozar)
Yu 91

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Muhiddin Rahim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-4-6

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

BOBO KO'HO NIDOSI

Ozarbayjonning shimoli-g'arbida asosiy hududi tog'lardan iborat bo'lgan va bag'ridan ko'plab soylar oqib o'tadigan Qazax deb ataluvchi ajoyib ko'hna qasaba bor. Bir tomoni Gurjiston, boshqa tomoni Armanistonga tutash bu zamin ozar xalqiga uch asrlik tarixga ega Vakilovlar sulolasini tortiq etgani bilan ham mashhur. Atoqli sarkardalar, pedagog-u shifokorlar, adabiyot-u san'at namoyandalarini voyaga yetkazgan ushbu sulolaning barcha xizmatlarini sanab adog'iga yetish mushkul. Shu bois Vakilovlarning ozar adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasiga doir ikki misol bilan kifoyalanamiz. Bu o'rinda so'z Qorabog' hukmdori Ibrohim Xalilxonning dono vaziri sifatida ham shuhrat qozongan mumtoz shoir Mulla Panoh Voqif (1719–1797) va Ozarbayjon SSRning birinchi xalq shoiri Samad Vurg'un (1906–1956) haqida bormoqdaki, ular she'riyati mangu bezavol qolishiga shubha yo'q.

Ne ajabki, Samad Vurg'unning ikki o'g'li — Yusuf va Voqif ham Vakilovlar sulolasi adabiy an'analari davomchisi bo'ldi. Yusuf Samado'g'li (1935–1998) Ozarbayjon xalq yozuvchisi, Voqif Samad o'g'li (1939–2015)esa Ozarbayjon xalq shoiri unvonlariga loyiq ko'rildi. Yusuf Samado'g'li o'zining bosh asari — "Qatl kuni" romani bilan butun insoniyatni, "qabohatdan tiyiling, zero, qasos muqarrar", deya kuyunib ogohlantirsa, ilk mashqlaridayoq "Mening unvonim — benihoyalik..." deya bong urgan Voqif Samado'g'li esa o'z she'riyati bilan inson qalbi, darhaqiqat, koinotdek cheksiz ekanini tasdiqladi.

Ushbu jildda asosiy asarlari jamlangan Yusuf Samado'g'li hali Bakudagi 44-o'rta maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq kelajakda yozuvchi bo'lishiga aslo shubha qilmasdi. Shu bois u 1953-yili o'rta maktabni oltin medal bilan tugallab, Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga o'qishga kiradi. Toleni qarangki, Yusufning bu nufuzli adabiy oliygohdagi talabalik yillari Xrushchev boshqaruvining iliqlik davriga to'g'ri keldi. Bu yerda u

o‘sha davrning erkinlik ruhini butun ijodi mobaynida saqlab qolgan bo‘lg‘usi mashhur shoir va adiblar — Yevgeniy Yevtushenko, Bella Ahmadullina, Robert Rojdestvenskiy, Vasiliy Aksyonov, Nikolay Kuznetsovlar bilan bir kursda tahsil ko‘rdi. Yana bir omadi, lirik-romantik uslubi bilan XX asr rus adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan mashhur yozuvchi Konstantin Paustovskiy sinfida saboq oldi. Bu murabbiy haqida buyuk turk shoiri Nozim Hikmat: “Agar halollik va adabiy iste’dod bir siymoda jamlansa, buni — Konstantin Paustovskiy, deyavering”, deb ayni haqiqatni aytgan edi.

Yosh Yusuf 1956-yilda otasi — Samad Vurg‘un qo‘qqis vafot etgach, tahsilni Bokuda, Ozarbayjon davlat universiteti filologiya fakultetida yakunlashga majbur bo‘lsa-da, Adabiyot institutida ruhiga ko‘chgan hurfikrlilikka so‘nggi nafasigacha sodiq qoldi. U Brejnev boshqaruvining turg‘unlik yillarida ham inson erki, or-nomusi va qadr-qimmati uchun o‘z qalami, haq so‘zi bilan murosasiz kurashdi. Yusuf Samado‘g‘lining shu davrda yaratilib, ozar hikoyachiligining durdonalari deya tan olingan “Galaktika”, “Sovuq tosh”, “Foto-fantaziya”, “Ostona”, “Bayoti Sheroz”, “Injadarasida bahor chog‘i” asarlarida hukmron Sovet mafkurasi to‘siqlari jasorat-la buzib o‘tiladi. Ushbu hikoyalarning ayrimlarida chin hayot yo‘lidan adashgan kimsalar chigal ruhiy kechinmalar qurshovida tasvirlanadiki, ular bu kechinmalar osha ko‘pincha, garchi iztirobli bo‘lsa-da, muhim hayotiy xulosalarga keladi. Masalan, “Galaktika” hikoyasi qahramoni — o‘z azaliy milliy tomirlaridan uzilgan Karim muallim bemorlik kunlarida butun hayot yo‘lini taftish qilib, quyidagi achchiq xulosaga keladi: “O‘ttiz yil aqalli bir marta poyezdga o‘tirib, ota-bobolarim yurtiga bormadim... Nega men yildan-yilga, kunba-kun o‘zgara-o‘zgara, ruhan yo‘qsil bir kimsaga aylandim? Bilaturib o‘zimni shu tuproqdan qo‘pordim-u, sarg‘ayib so‘ldimmi? Bu dalalar-u tog‘larga nega xiyonat qildim, birodar?”

Karim muallim-ku, garchi umr adog‘ida bo‘lsa-da, chin hayot ma’nosini topishga muvaffaq bo‘ladi. Jillaqursa, unda tovba qilish, istig‘for aytish imkoni bor. Lekin muallif tayinli bir nom qo‘yishni ham lozim topmay, U deya atab qo‘ya qolgan “Ostona” hikoyasi qahramoni-chi? Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq, naqli-

ga binoan yashab, jinoiy to'daga qo'shilib ketgan bu kimsa hatto shu imkoniyatdan ham mahrum. Oqibatda u vallamati Karimov ortidan hibs etilishdan qochib Gobiston tog'lariga boradi-da, shu serzarda so'zlarni telbavor qaytargancha, o'z joniga qasd qiladi: "Meni qo'lga olmoqchi bo'ldingizmi? Olib bo'psiz!" Muallif uning hayotida ham garchi. tansiq esa-da, yorug' onlar bo'lganini yodga oladi va buni Mustafo tog'aning mehmonga kelish epizodlari orqali tasvirlaydi: "Qani edi Mustafo tog'asi ularga xurjun to'la yegulik olib kelgan, ertaklar aytib bergan o'sha kunlarga qaytsa. Qanday zavqli damlar edi-ya... Hech qanaqa tashvish yo'q, g'am-g'ussa, qo'rquv, hadik yo'q..." Aslida-ku, shunday birgina totli, nurli xotiraning o'zi insonni, u har qancha adashib, uloqib ketgan bo'lsada, chin hayotga qaytara olishi mumkin. Biroq, taassufki, u avvalgi hayotiga shu qadar bog'langanki, undan voz kechsib, yangi hayot boshlashni hatto xayoliga-da keltirolmaydi. Shu ikki misolning o'ziyoq Yusuf Samado'g'li hikoyalarining yetakchi xususiyati teran psixologik tahlil orqali abadiy falsafiy savollarni o'rtaga qo'yish ekanidan guvohlik beradi.

Adib 80-yillar boshida "Qatl kuni" romanini yozdi. Unda muallif uslubining favqulodda yangi qirralari yaqqol yuz ko'rsatdi. Ozar adabiyotshunoslari mazkur romanni fusunkor realizm namunasi sifatida baholadilar. Darhaqiqat, asarda ushbu oqim uchun xos bo'lgan hayotiy va xayoliy voqelikning o'zaro tabiiy chatishib ketishi kuzatiladi. Ayrim tadqiqotlarda Yusuf Samad o'g'li hatto ulug' rus yozuvchisi Mixail Bulgakov bilan yonma-yon qo'yilib, "Qatl kuni" bu - ozar tilidagi "Usta va Margarita", deya ta'riflar ham berildi. Xuddi "Usta va Margarita" kabi roman ichida roman usulida yaratilgan bu asarda markaziy syujet chizig'ini muallif shartli ravishda Bemor deb nom bergan haqgo'y, subutli, halol adabiyotshunos xastalik kunlarida o'z boshidan kechirgan voqealar tashkil etadi. Stalincha qatag'on qurboni — atoqli adib Sa'di Afandi haqidagi yagona monografiya muallifi bo'lmish bu olim o'zi o'rganayotgan qalamkashning hibsga olinish tafsilotlarini to'laroq bilishga, uning dom-daraksiz yo'qolgan so'nggi romani qo'lyozmasini topishga intiladi. U ko'p mashaqqatlardan so'ng, Sa'di Afandining qizi Salimaxonim yordamida, avval adibning qatag'on yillari

kundaligi, keyin esa so‘nggi romani qo‘lyozmasini qo‘lga kiritadi. Sa’di Afandining kundaligi roman ichidagi bir roman bo‘lsa, uning so‘nggi asari esa roman ichidagi yana bir romandir. Xullas, uch syujet chizig‘ida ham bir muammo — Hokimiyat va Ijodkor munosabati badiiy tadqiq etiladi. Adib bu o‘zaro qarama-qarshi qutblar kurashi orqali ezgulik va yovuzlik, adolat va burch singari abadiy muammolarni yana o‘rtaga qo‘yadi.

Darvoqe, Sa’di Afandining O‘rta asrlar Hukmdori va Shoiri o‘rtasidagi ziddiyat ustiga qurilgan romani ham “Qatl kuni” deb nomlanadi... Yusuf Samado‘g‘li fikricha, Hokimiyat Ijodkor boshi uzra oybolta ko‘targan kun — Yovuzlik Ezgulikka suiqasd qilgan mudhish qora kundir. Bunday qabohatni balki olomon gung-soqov tomoshabin bo‘lib kuzata olar, lekin Olam, Koinot bunga toqat qilishi dushvor. U Bobo Koho (Shamol g‘ori) bo‘lib, shunday nido qiladiki, bu nido yuksakdan pastga otilib, o‘z yo‘lida uchragan barcha narsa, hatto uryon qoyalarni-da parcha-parcha qilib irg‘itadi. Bu faryod odamzod vahshiyligidan chekilgan ohmi yoki unga o‘qilgan la’natmi: “Naslingiz qirilsin sizning, ey ikki oyoqli maxluqlar!”

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani bilan qariyb bir paytda yaratilgan va badiiy falsafasiga ko‘ra unga hamohang bo‘lgan bu asarda insoniyat o‘z yovuz qilmishlari uchun bir kun beshafqat tovon to‘laydi, degan ogohlikka chorlovchi dardli g‘oya ilgari suriladi. Xulosa o‘rnida shuni aytmoq joizki, “Qatl kuni”ning Ozarbayjon romanchiligida tutgan alohida o‘rnini 2014-yil adiblar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra u XX asrdagi eng yaxshi ozar romani deb topilgani ham tasdiqlaydi.

Yusuf Samado‘g‘li Gorbachyov boshqvaruvining qayta qurish yillarida milliy mustaqillik harakati liderlaridan biriga aylandi. Ozarbayjon tarixiga Qora yoxud Qonli Yanvar nomi bilan kirgan 1990-yil 20-yanvarda Sovet Armiyasi askarlari Bokuda siyosiy muxolifatni beayov bostirib, yuzdan ortiq tinch aholi o‘limiga sabab bo‘lganda Yusuf Samado‘g‘li “Ozodlik” radiosi orqali butun dunyoga jar solib, ushbu xunrezlikni g‘azab-la qoraladi.

Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anar, Yusuf Samado‘g‘li vafoti munosabati bilan yozgan xotiralarida, do‘sti umrining so‘nggi yillarida yangi roman ustida ishlaganidan so‘zlaydi. U shu roman orqali

90-yillar voqeligiga o‘z munosabatini bildirmoqchi, ko‘nglidagi bor dardini biryo‘la to‘kib solmoqchi edi, deya ta’kidlaydi Anar. Yusuf Samado‘g‘lidan har gal: “Xo‘sh, romanning yozilishi qanday ketyapti?” deb so‘rashganda, u: “Ishlayapman, ishlayapman, jiddiy ishlayapman, Xudo xohlasa...” deb mubham javob berardi. Afsuski, adibning bevaqt o‘limi sabab so‘nggi roman 85-sahifasidayoq uzilib qoldi...

Yusuf Samado‘g‘lining ilk o‘zbek tarjimoni – ajoyib shoir va dramaturg Usmon Qo‘chqor (1953–2017) edi. U “Qatl kuni” romanini 80-yillar oxirida o‘zbekchaga o‘girib, “Yoshlik” jurnalining 1991-yil 2-, 3- va 4-sonlarida davomli e’lon qildirdi. Roman uning tarjimasida Cho‘lpon nashriyotida alohida kitob holida ham chop etildi. O‘zbek kitobxoni Yusuf Samado‘g‘li ijodi haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilishi uchun biz ushbu jildga “Qatl kuni” romani bilan birga uning o‘nga yaqin hikoyalarini ham kiritdik. Ushbu hikoyalar tarjimasiga Mamatqul Hazratqulov, Nodira Afoqova, Shohsanam So‘fiyeva kabi tajribali mutarjimlar jalb etildiki, ular ozar adibining har bir asarini o‘zbek tilida xuddi asliyatdagidek ijodiy qayta yaratishga intildilar.

Muhiddin Rahim,
adabiyotshunos

QATL KUNI

Roman

Ko'zimning oq-u qorasi bo'lgan ikki qizimga – Mehribon va Humoyga.

– Yo'l bo'lsin, og'a?
– So'ngi manzil sari, singlim.
(Bir bemorning qulog'iga chalingan gaplardan)

Dard ham og'riq kabi bir kelsa botmonlab kelur.

Hali yulduzlar juda siyrak edi, bo'z samoda za'faron shu'la bor edi, bu shu'la goh so'nib borayotgandek xira tortar, goh par-par yona boshlardi. Hali shamol emas, har zamonda qo'shaloq zarangning tepasida qirg'oqqa urilgan to'lqin sasiga o'xshash bir sas qo'par, go'yo shu atrofda dengiz bor deb o'ylardi kishi, ammo bu sas odamni dahshatga solardi. Kimda-kim bu yerda bo'lsa, bilardiki, juda-juda uzoqlarda, qaydadir dunyoning narigi boshida bir shamol yotog'idan bosh ko'tarmoqda, u Bobo Ko'ho g'orining zulmatli og'ushida uriladi, u yerdan chiqib, og'ir-og'ir, surina-surina zalvorli langari bilan tuproqdan chuqur darzlar ochadi, tog'-toshlarda shovqin sola-sola bu balokash dunyoni jangga chorlaydi. Kimda-kim bu yerda bo'lsa, hali juda uzoq-uzoqlarda hamlaga shaylanayotgan shamolning qarg'ishini eshitardi: ey ikki oyoqli maxluqlar, naslingiz qirilsin sizning!

Insonlar shamoldan bezgan edi, shamol esa insonlardan.

Qo'shaloq zarangdan uzoqlarda, tog' bag'ridan boshlangan o'rmonning siyrak etagida, daraxtlar orasida bir qari bo'ri quloqlarini ding qilib turar, uning sezgir tumshug'i hid olgan edi – temir hidi, qon hidi. Ammo bo'ri ham qo'rquv ichida, nedandir qattiq bezovta edi, u ikki oyoqli maxluqlar qo'nalg'a tutgan joyga yaqin bormaslik lozimligini yaxshi bilardi: u tomondan qorishiq ovozlar eshitilar, kimdir zindonda bolg'a urayotgani yo bo'lmasa otga taqa qoqayotgani kabi temirlar jarangi yangrar, ammo bu saslarda allaqanday vahima va tahdid bor edi – na bo'ri, na ayiq va na hatto qushning bugun u tomonga yaqinlashmagani yaxshi edi, chunki bu-

gun Bobo Ko'honing zulmatli og'ushida qandaydir boshqa bir hol ro'y bergulik edi – butun olamning, tosh-u tuproqlarning, osmonlarning, yulduzlarning g'azabini o'zida jam etgan shamol dunyoning ikki oyoqli maxluqlariga: "Boryapman!" deya tahdid yo'llardi. Hisob-kitob qilgani boryapman, temir libosli, nayza-qalqonli, oylab suv yuzini ko'rmagan, kir-qasmoqdan basharasi qorayib misga aylangan bu ikki oyoqli shaytonlarning nega buncha quturganliklarini bilish uchun boryapman! Uyqusiz ko'zlaridagi kin va g'azabning sababidan ogoh bo'lish, po'rsildoq lablari orasidan chiqayotgan tupukli so'kishlarning ma'nosini anglash, kuzak izg'irinida yelkama-yelka tayangan, chodirlar atrofida davra qurib o'tirgan, horg'inlikdan suv qaynatishga ham qurbi qolmagan, go'shtni xomligicha yegan, so'ngra qonga bulangan lunjlarining selini yuzlariga surtgan ikki oyoqli maxluqlar bu balokash dunyodan ne istashlarini bilmoq uchun boryapman! Qo'nalg'aning yonginasida murdalarni ustma-ust qalashtirib tashlagan, chirigan jasadlarning badbo'yini his etmagan, jangchi birodarlarini ko'mishga ham madorlari qolmagan, quyosh shu'lalaridan berkingan bu ikki oyoqli qanotsiz ko'rshapalaklar qachon qondan to'yajaklarini bilmoq uchun boryapman!...

Ammo hali shamol keladigan fursat uzoq edi. Shamolning yo'li uzun edi. Bo'rining burun parraklari titrar, jonivor qon hidini olgan edi, ammo bu hidda tag'in boshqa nimadir bor bo'lib, u ochiqqan hayvonning ishtahasini bo'g'ib qo'ygan edi. Jonivor tilsimlangan kabi turgan yeridan qimirlay olmas, yungi to'kilib tikrayib qolgan dumini chotiga qisganicha atrofga mot-maattal boqar, ortidagi o'rmon og'ushida shamol ko'tarayotgan girdibodni tinglar ekan, bir narsani zo'r berib eslashga urinardi: bu qorishiq, ammo tanish ovozlarni qayerda va qachon eshitgan edi? Bu hiddan nega boshi aylanmoqda?...

Bo'ri anchayin yon-veriga alanglab boqqan edi, uchlari sarg'aygan maysalar orasida uymalashayotgan qumursqalarga, tag'in bir o'lik chayonga ko'zi tushdi. Qumursqalar chayonning qorniga yopirilishgandi. Bo'ri yoqimliroq bir narsani eslashga urindi. Yetti kun avval ko'ksidan yaralangan durrojni burdalab yegani yodiga tushdi.... Voh-voh-voh! Xudoyim, o'sha qushni naqadar lazzat bilan, qo'rqmasdan, chayir jag'larida ezib-ezib, bamaylixotir yegan edi!

Chunki yetti kun avval bu ulkan o'rmonda Yaratganning shu bo'ridan bo'lak deyarli biron-bir jonivori qolmagan edi – temir libosli ikki oyoqli maxluqlar bu yerlarni makon tutganidan so'ng ayiqlar, shoqollar, bo'rivachchalar o'rmonni tark etishgan edi. Ushbu kuz oqshomi sarg'ayib-so'layotgan o'rmonda, qo'nalg'aning yaqinida endilikda faqat mana shu qari bo'ri qolgandi, xolos. Bugun u o'rmonning yagona xojasi edi. Bobo Ko'hodan yopirilib kelayotgan tahdid bo'lmasaydi – bo'ri tez-tez olisdagi qo'shaloq zarangga qo'rqa-pisa qarab qo'yardi – ortidagi o'rmondan vahimali shovqin-suronlar eshitilmasaydi – bo'ri ana shunday uzuq-yuluq xayollarga tolgan edi – balki tangrining rahmi kelib, bilib bo'ladimi bu dunyoning ishlarini, unga bir dona durroj in'om etarmidi? Bo'riga haftada bir marta qorinni to'ydirish va jon farog'atidan bo'lak nima ham kerak o'zi?..

Qorni ochning tinchi yo'q. Bu jihatdan ikki oyoqli maxluqlarning omadi kelgan: och qolganlarida bir-birlariga shirin hikoyatlar so'ylaydilar. Xususan, ularning podsholari – oriq, ko'rimsiz, ko'zlaridan chayon zahri yog'ilib turgan, tishlari kemshik bir kimsa zarbof chakmoniga o'ranib chodiridan chiqqanida och sarbozlariga shunaqangi ajoyib shirin kalomlar aytadiki! "Sabr eting, qornimiz och bo'lsa-da, tepamizda Olloh bor, a'molimiz barhaq, mana shu so'nggi mashaqqatga ham chidab bersak, yemagingiz shu qadar mo'l bo'ladiki, shu qadar bo'kib yeysizki, hali hech bandasi bunaqasini ko'rmagan. Go'shtingiz mo'l-ko'l, libosingiz siym-u zar bo'ladi, dunyoning eng go'zal ayollarini quchog'ingizga solib qo'yaman!.."

Chindan ham, bu ikki oyoqli maxluqlarda sehrli bir hikmat bor: shirin so'z eshitganda qorinlari to'yadi, ochlikdan ortiq shikoyat qilmay qo'yadilar. Bir yerga yig'ilib, podsholarini davraga olib qichqiradilar: ofarin, ofarin! So'ngra tiz cho'kib Yaratganga yolvoradilar: Xudoyim, sen bizning umrimizdan kesib hukmdorning umriga qo'shgaysan!...

Bo'ri tag'in qumursqalar tomonga boqdi. Hasharotlar sevinchdan ko'kning yettinchi qavatida, qorinni to'ydirish bilan mashg'ul edilar. Bo'rining kallasiga favqulodda bir fikr keldi: ajabo, chayonning o'zi o'lganmikan yoki qumursqalar uni bir yoqlik qilishganmikan?.. Chunki bu zamondan har narsani kutish mumkin. Bu ilkis fikrdan uning eti jimirlab ketdi, ding quloqlari osilib tushdi. Bir

tomondan, o‘rmondagi shovqin-suron. Ikkinchi tomondan esa bu g‘alati qon hidi.

Samo battarroq bo‘zargan, go‘yo yulduzlarninig soni ham ortgan, ularning har biri olmadek-olmadek kelardi. Qandaydir karvon-karvon, shakli-shamoyili o‘takani yorgudek g‘alati-g‘alati bulutlar oqib kelardi – ajdaho karvoni, chayonlar qatori singari bulutlar. Ular yulduzlarning quyisida, juda pastlab mag‘rib sari vazmin-vazmin suzib borardi. Qushlar tovushi ham tingan. Tun cho‘ka boshlagan bir payt. Havoda hamon temir va qon hidi anqirdi...

Qo‘nalg‘ada gulxanlar yoqa boshladilar. Bir-ikki gulxan atrofida ot tezagi uyib qo‘yilgan edi – qorong‘ulik cho‘kkandan so‘ng ularni gulxanga tashlardilar. Kuz bo‘lishiga qaramasdan, bu yerdagi har bir otpashshaday keladigan qora chivin dastidan tinchib bo‘lmasdi.

Nayzali-qalqonli kimsalar yoyilib yotgan qo‘nalg‘aning turli tomonlaridan ikkovlon-uchovlon bo‘lib gulxan sari chiqib kelardilar, ular gulxanga yaqinlashganda to‘xtab qolar, olisdagi shovqin-suronga quloq tutardilar. Bu nayzali, qalqonli kimsalar dunyoning barcha mashaqqatlariga chidash uchun tayyor edilar – chivinga, otpashshaga, ilon-chayonga – hammasiga g‘ing demay ko‘nardilar. Faqat o‘sha shamol qo‘pmasa bo‘lgani edi. O‘tgan safar, bundan ikki yil avval, xuddi shu yerga qo‘nalg‘a solib, yurish tadorigini ko‘rayotganlarida Bobo Ko‘hodan bir shamol kuch yig‘a-yig‘a chunonam yopirilib kelgan ediki, Xudoyim, o‘zing madadkor bo‘lgaysan, ojiz bandalaringni bu musibatdan o‘zing asragaysan! Ofat yopirilib kelgan edi o‘shanda – favqulodda chaqnagan chaqmoq kabi, yonartog‘ purkagan o‘t kabi, orqadan kurak o‘rtasiga sanchilgan nayza og‘rig‘i kabi yopirilib kelgan edi, havoni ayovsiz qamchilaganicha, yugan-suvliqlarini chaynab og‘zi ko‘pikka to‘lgan otlarni ko‘klarga sapchitganicha, zilzilavor suronlar solib, tuproqdan ochgan chuqur darzlarga sarbozlarni qurol-yarog‘i bilan ko‘mib yuborganicha, ko‘kdagi qushlarning qanotlarini sindirib tashlaganicha yopirilib kelgan edi bu shamol. O‘shanda bosh munajjim hukmdorning chodirida, tuya junidan to‘qilgan gilam ustiga tiz cho‘kib, boshini yerga ura-ura qichqirgan edi:

“Hukmdor, amr et, amr et, o‘rdu ortga qaytsin, Tangrining bizdan g‘azabi kelgan!” Qo‘rquvdan ko‘zlari olayib, tishlari takillayotgan

munajjimni bu holda ko'rib, shohning o'zi ham vahmga tushgan edi. Buning ustiga, chodirning shamol hamlalariga uzoq dosh bera olmasligidan qo'rqib, jon talvasasida tashqariga otilgan, tashqariga chiqqan zahoti qulab tushmaslik uchun kattakon daraxtni mahkam quchoqlab olgan edi. Oyoqda zo'rg'a turgan bir necha sarboz hukmdorni bu vaziyatda ko'rib, darhol uni qurshab olishgan edi:

"Bu Tangrining g'azabi emas, shaytonning amalidir!" Ammo bu so'zlarni na uning o'zi eshitgan edi, na uni qurshab turgan sarbozlari... Ancha fursat o'tgach, tunning qop-qora zulmati qo'nalg'ani o'z og'ushiga olgandan keyin, shamol shashtidan tushib, Bobo Ko'hodagi yotog'iga chekingandan so'ng podsho shosha-pisha yangidan yoqilgan gulxanlar shu'lasida bir-biriga qalashib yotgan odam va ot jasadlarini ko'rgan edi. Otlarning ham, odamlarning ham og'zidan yashil ko'pik oqardi, otlarning ham, odamlarning ham ko'zlari ochiq qolgan edi va bu ko'zlarning har birida olmaday keladigan yulduz aksi porlab yonardi. Ko'kda esa bironta ham yulduz qolmagandi.

Munajjim yerga yiqilib, hukmdorning oyoqlarini quchoqlab olgan, ho'ng-ho'ng yig'lar edi.

Dard ham og'riq kabi bir kelsa botmonlab keladi, singlim!..

Hukmdorning chodiridan jussador bir sarboz chiqib, keshikchilardan[1] biriga nimadir dedi. Keshikchi o'rnidan turib, boshqa chodir tomon borib, ichkariga kirib ketdi. Bir ozdan so'ng qo'nalg'ada, hukmdor cho'milishga hozirlanmoqda, degan ovoza tarqaldi. Xoja[2] Anvarni o'rnidan turg'izdilar.

Ikki katta gulxanga yetadigan o'tin uyib qo'yildi. Nayzali, qalqonli odamlar ikki dastaga bo'lindi - har dastada o'ntadan kishi. Har dasta qo'nalg'aning quyisidan, g'alla va oziq-ovqat saqlanadigan joydan sudray-sudray ikkita jom keltirib, gulxannning ustiga o'rnatishdi, yerga ko'milgan ustunlarga jomlarning yirik temir ilgaklarini ilishdi. So'ngra suv tashib, jomlarni to'ldirishgach, gulxanga o't qo'yildi. Quruq o'tin olovga mahtal turgandek lov etib yona ketdi, alanga ikki boshli ulkan ajdahoning tili singari bilanglagancha yuqoriga o'rlab, jomlarning ostini yalay boshladi...

[1] **K e sh i k ch i** - posbon (tarj.)

[2] **X o j a** - bichilgan kishi (tarj.)

Bir ozdan so‘ng, suv qaynagach, uni mis ko‘zalarda hukmdorning chodiriga tashib, u yerdagi uchinchi jomni qaynoq suv bilan to‘ldirardilar. Shundan so‘ng chodirda faqat hukmdor bilan Xoja Anvar qolardi. Garchi hukmdorning aybidan hamma xabardor bo‘lsa ham, g‘usl marosimida u chodirda faqat Xoja Anvarni olib qolardi. Avvalo shuning uchunki, Xoja Anvar uni cho‘miltirardi, ikkinchidan esa, issiq suvga kirgandan so‘ng hukmdor axta joyidan qo‘zg‘algan og‘riqqa chiday olmaganidan ingrashga tushardi. U Yaratganning Xoja Anvardan bo‘lak biron-bir bandasi hukmdorni bunday ahvolda ko‘rishini istamasdi.

Dard jonidan o‘tib, chotidan boshlangan og‘riq umurtqasi bo‘ylab a’zoyi badaniga yoyilganida hukmdor Xoja Anvar oldida ko‘z yoshlari to‘kishdan ham imtino etmasdi. Shunda Xoja Anvar hukmdorga tasalli bera boshlardi... Yillar bo‘yi davom etib kelgan bu marosim, keksa va sodiq navkarning tasallisi yo shu so‘zlar bilan boshlanar, yo shunday tugardi: “Odil hukmdor, musulmon olamining yarmi axtadir, yuragingni keng tut. Bu musibat emas, ulug‘ Tangri sen bilan menga baxsh etgan ulkan baxtdir. Dardingni olay, hukmdorim, yuragingni keng tut!”

Hukmdor tomirlari qavarib chiqqan, oriq mushaklari tarang tortilgan qo‘lini issiq suvga tiqib chotiga olib borar, kichrayib, qo‘lga zo‘rg‘a ilinadigan bo‘lib qolgan olatini topib qattiq-qattiq siqar – bu bilan go‘yo u og‘riqni shu yerda tutib turishni, uni bo‘g‘ib o‘ldirishni istardi. Xoja Anvar esa oyoqlari ostida turgan yirik ko‘zadan saroy luqmoni ming bir atirli giyohlardan, chechaklardan tayyorlagan ko‘pikli suvni hukmdorning boshidan hovuchlab sochar, so‘ng bosh barmoqlari bilan hukmdorning po‘latday tarang mushaklarini kuchanib ezar ekan, lazzatdan o‘zi ham “voh-hey” deb qo‘yardi.

* * *

Kim aytsa ham topib aytgan, balki otalar so‘zidir bu: dard botmonlab keladi, misqollab chiqadi. Ha to‘g‘ri, otalar so‘zi bu, Abulqosim to‘plagan kitobda ham bor. Xotinimning qo‘li bo‘shagan zahoti aytaman unga, o‘sha kitobni keltirsin, yana bir ko‘ray. Ajoyib gaplar bor unda. Xotinim hozir oshxonada, menga – ya’ni derazasiga yashil parda tutilgan bu kichik xobxonada ikki oydan

beri cho'zilib yotgan bemorga – g'arg'ara uchun cho'l yalpizi qaynatyapti. O'tgan kun kelgan hakimning ko'rsatmasi edi bu.

Bemor og'irmi, yengilmi, buning farqi yo'q – baribir bemor. Oilaning halovatini buzadi, yillar bo'yi vujudga kelgan, rosa maromiga tushgan turmush qonun-qoidalariga, donolar aytgani kabi, raxna soladi, bola-chaqa bemorning turmush tarziga moslashishga majbur bo'ladi. Avval bolalar tungi soat ikkigacha magnitofonni tinchitmagan bo'lsalar, endi uzog'i bilan o'n ikkida uning ovozini o'chirishga majburdirlar. Kunora yuqori qavatdan tushib kelib o'rtog'iga qo'ng'iroq qiladigan qo'shnining ham endi qadami tortilgan, har zamonda bir kiradi. Kirganda ham, telefon qilishim juda zarur bo'lib qoldi, yo'qsa bezovta qilmagan bo'lar edim, deya yuz martalab uzrxohlik qiladi. Uning zarur gapi ham shuki (men xobxonadan aniq eshitib yotaman), bu kelishgan, yoshi o'ttizlarga borib qolgan, uch bolaning, bir erning sohibasi dastakni ko'tarib, raqamlarni tergan zahoti so'raydi:

– Uydamisan!... Men ham... Yaxshi... Zavtra kak vsegda. Xoroshmok?

Xotinimga necha martalab, uni yo'latma, ustomonlik bilan bu uyga qadam bosmaydigan qil, deganman. Chunki ishonchli joylardan olgan ma'lumotimga qaraganda, bu uch bolali onaning yoshgina, mo'ylovdor xushtori bo'lib, qaydadir yog'liroq yerda ishlar ekan. Qo'shnimiz, Xirdabonu, biznikiga kelganda ham o'sha o'ynashining uydami yoki yo'qligini bilish uchun, ham ertaga qayerda va qachon uchrashishlarini kelishib olish uchun qo'ng'iroq qiladi. "Xoroshmok" degani ham, ayonki, "xorosho" degani, qisqasi, Xirdabonu bu so'zga "mok" qo'shish bilan o'zicha bir nav hazil qilgan bo'ladi. Go'yo hech kimning hech narsadan xabari yo'q. Qing'ir ishning qirq yilda ham qiyig'i chiqadi, deb o'ylamaydi. Aytmoqchi, bu maqol ham Abulqosimning kitobida bo'lsa kerak. Yo'q, bu gap unda yo'q...

Xotinimni esa tushuna olmayman. Har gal Xirdabonu chiqib ketgandan so'ng men asabiylikdan o'zimni qo'ygani joy topolmay qolganimda, xotinim: "Hoy odam, sizga nima! Qo'ng'iroq qilgan men emas-ku, axir!" deydi... So'ng darhol gapni boshqa yoqqa buradi (qoyilman xotinlarning gapni favqulodda ustomonlik bilan

burib yuborish qobilyatlariga): "Uyda pishloq tugab qoldi, ertaga bolalar maktabga borsa, nima berib yuborishimni ham bilmayman". Bolaligimda mening ham maktabda ponchik yeganlarim yodimga tushadi. Bolalardan birini chaqirib so'rayman: "Menga qara, maktablaringizda bufet bormi?" "Bor". "Xo'sh, unda ponchik sotishadimi?" "Ponchik nima?" "Voy! Xamirdan yumaloqlab qilinadi-ku, ichida murabbosi ham bor. Sotishmaydimi?" "Yo'q". Shunda maorif mudiridan tortib maktab direktorigacha birma-bir barchasining yetti pushtini "shod" qilib chiqardim... Nihoyat, bolalar uxlagach, xotin bilan ikkimiz oshxonaga chiqib, yangi damlangan choydan icha-icha mayda-chuydalardan laqillashar, maktabda ponchik yegan kunlarimizni eslab o'tirardik.

Evoh, yana menga o'z oyoqlarim bilan torgina oshxonamga yurib borish nasib qilarmikin?

Bu tor-tang xobxonada dori-darmon hididan bemor u yoqda tursin, sog'lom kishining ham boshi aylanib ketardi. Odam ham ikki oy ko'rpa-to'shak qilib yotadimi? Nega yotmas ekan, hatto o'lib qolishi ham hech gap emas. Shunaqa ekan falakning ishlari. Bundan atigi o'n kun avval bu la'nati hidni haydash uchun derazaning kichik darchasini ochish kifoya edi. Bergman ta'tildan qaytib kelgach, bu darcha ham go'yo bir umrga bekitib qo'yildi. U kelib uydagilarga "shamollatib qo'ymang" deyishi bilan go'yo eshik-derazalarga hukm o'qidi. Faqat pishirilayotgan ovqat hidi bemorning ko'nglini behuzur qilmay, tashqarigi chiqib ketsin deya, har zamonda oshxona derazasini jinday ochib qo'yardilar. Ammo menga shunday tuyuladiki, derazalarning hammasini lang ochib qo'ysalar ham, bu yerga metrolarda ishlatiladigan kuchli havoso'rg'ichlarni o'rnatsalar ham endi bu hid chiqib ketmaydi: dori hidi xonaning devorlariga bir umrga singib ketgan. Uyga kim kirib kelsa, burnini jiyirib, boshini liqillatardi. To'g'ri, begona kimsa kelganda dastavval o'z bezovtaligini bildirmas, bemordan hol-ahvol so'rab bo'lgach, dahlizga chiqib, xonadon sohibasiga, "sog'lom odamni bu xonaga kiritsang kasal bo'lib qoladi, bemorning tuzalib ketmayotganiga sabab ana shu og'ir havo-ku, singlim, nafas olib bo'lmaydi-ku" va hokazo deya qayta-qayta ta'kidlardi. Xonadon sohibasi ham, xobxonada yotgan bemor ham bunday so'zlarga ko'nikib qolgan, bunaqangi maslahatlarni kamida yuz marta eshitgan edilar.

Uyga kelib-ketadiganlar bu fikrni turli-tuman yo'sinlarda ifodalardilar. Avvallari hech bo'lmaganda tasalli beruvchilar zamonaviy davolash usullaridan gap ochishar, odob bilan bemorning yoniga o'tirib, hatto bir piyola choy ham ichib chiqib ketardilar. Ammo endilikda go'yo bu dori hidi hammaning asabiga tegardi, ba'zilarning kelganiga pushaymon ekanini shundoq basharasidan ko'rib turardim. Xotinim aytganidek, yaxshiki, hech bo'lmasa ular qup-quruq, so'ppayib kelishmaydi. Hol so'ragani kelgan odam chiqib ketishi bilanoq, u nima keltiribdi, deya xotinidan so'rash bemorning bir nav odatiga aylanib qolgan edi. Javoblar esa odatda bir xil bo'lardi: olma, anor, mandarin, ayrim hollarda esa yarim kiloli bankada uyda tayyorlangan zo'g'ol yoki malina murabbosi. Ammo bir gal Rasul domla, umridan baraka topsin, qo'yning nimta go'shtini olib kelgan edi. Rahmat shunaqangi mehmonga, savob ish deb ana shuni aytadilar!...

Men dastlabki kundanoq shuni his qildimki, hol so'ragani keladiganlarning aksariyati oddiy bir bemorni ko'rish uchun emas, balki falon domlani ko'rish, falo-o-on domlaga taskin-tasalli berish uchun kelardilar. Karavotning yonida yarim doira shaklida qo'yilgan kursilarga o'tirib ko'ngil so'rar, turli-tuman maslahatlar berar, bemorning ruhi ko'tarilsin deya hazil-huzul qilar, qiziq hangomalardan so'zlab berardilar. Ammo, negadir, keladiganlarning saxovati bir xil emas edi.

Bundan uch-to'rt kun oldin bir professor ko'rgani... ikkita limon ko'tarib kelibdi. Mayli, boshi omon bo'lsin, gap limonda emas. U shu qadar uzoq laqillab o'tirdiki! Bunday kimsalarning jag'ini shifokorlik institutining talabalariga ko'rgazma qilib ko'rsatsa bo'ladi, chunki bu jag', shubhasiz, judayam noyob bo'lib, chindan ham insonning maymundan tarqaganini tasdiqlovchi ajoyib, ishonchli dalildir. U bemorning o'zidan va uning xotinidan ezmalanib butun kasallik tarixini o'rgandi, qon va siydikning analizlarini, rentgenchilarning fikrini, tavsiya etilgan dorilar nomi va qaysi mamlakatda tayyorlanishini bilimdon hakim singari sinchiklab surishtirdi, so'ng oxirida boshini qashlab-qashlab o'z mulohazalarini aytdi. Uning gapiga qaraganda, bu kasallik yer kurrasida asosan Afrikada, bushmenlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ular Bergman-merg-

man degan hakimni tanimasalar-da, shod-xurram yashar ekanlar. Ammo bir narsaga qat'iy amal qilish lozim, dedi u: yotishdan avval, davolovchi hakim buyurgan kabi qatiq emas, to'ldirib ikki qoshiq asal tanovul qilish kerak. Asal bo'lganda ham albatta Kalbajarning falon qishlog'idagi falonchi kimsaning asalidan bo'lsin. "Xo'sh, Afrikadagi bushmenlar bu asalni qayerdan topadilar, kelib Kalbajardan olib ketadilarmi?" deb bir so'ramoqchi bo'ldim, biroq professor ranjib qolmasin deb andisha qildim. Chunki professor kalbajarlik, agar xato qilmasam, o'sha mo'jiza asalning maskani bo'lmish qishloqdan edi. "Juda dono, oqilona maslahat berdingiz, ertadan boshlaboq o'sha asalni topish harakatiga tushaman, qatiqni esa illo-billo og'zimga olmayman", dedim.

Falon domlani ko'rgani keladigan bunday mehmonlar oz emasdi. Xususan, avvallari. Ammo gap shundaki, bemorning ko'ngliga yaqin do'stlari, tanishlari so'nggi paytlarda kamnamo bo'lib qolgan edilar. Keyingi paytlarda telefon qo'ng'iroqlari ham kamayib qolgan, endilikda bemor narigi xonada xotinining ko'ngil so'rab telefon qiluvchilarga minnatdorchilik bildirayotgan ovozini ahyon-ahyonda bir eshitib qolardi. Sababi ma'lum bo'lmagan g'alati ahvol ro'y bergan edi: do'stlari tamaki tutuni kabi asta-sekin tarqab ketmoqda edilar. U ana shundan gina qilib qolganida, xotini: "Har kishining o'z tashvishi, ming bir dardi bor, hamisha kelishga fursat topavermaydi, qolaversa, sen unaqangi jiddiy yotganing yo'q-ku olomon bu yerga oqib kelaversa", derdi...

Bu zamonda jiddiy kasallik deb nimani aytadilar o'zi?.. Albatta, birinchi navbatda saraton, undan keyin infarkt. Hali men vabo, o'latlarni aytmayapman. Bu kasalliklarning bashariyatga tahdidi hali oldinda. Ammo kasalliklar ro'yxatida asosiy o'rinlardan birini egallaydigan yana bir xastalik bor. Qisqasi, uning tibbiy nomini hali hech kim kashf etgani yo'q. Har bir bemor bu kasallikni faqat eng yaqin mahramiga ayta oladi, aytganda ham pichirlab aytadi. Balandroq aytsang, miyasi aynigan deb, jinnixonaga eltib qo'yishlari ham hech gap emas. Bu kasallikka chalinganda juda ehtiyotkor bo'lishing, o'zingni dushman ichida ish olib borayotgan josus kabi tutishing lozim. Bu xastalikning nomi marhumlarni tushda ko'rishdir. Umr poyoniga yetib qolganida, qo'qqisdan ajal eshigi ochilganda odam-

zot ana shu kasallikka chalinadi. Har kecha azizlardan biri tushlaringga kira boshlaydi. Tushingga buving kiradi: boshida hamishagi qora ipak ro'moli, hamishagi kabi yilning oxirgi chorshanba[1] oqshomi. Popukli dasturxon yozilgan dumaloq stolga tirsak tirab o'tirgan yoshgina o'g'lon shakarqatlama qilayotgan kampirga boqadi, kampir ham unga tikiladi, biroq hech nima demaydi. Xonada lazzatli bir hid anqiydi, tashqarida xazri[2] esadi, stol ustidagi undirilgan maysa rang-barang shamlar shu'lasida yashil olov yanglig' lovullab tovlanadi. Nimadir demoqchi bo'lasan, ammo lablaring ochilmaydi, chunki bu kichik, ozg'in o'g'lon kim ekanini bilmaysan. Uyqudan cho'chib uyg'onib, yuraging gupillab urishini tinglagan ko'yi qopqorong'i shiftga tikilib yotar ekansan, qo'qqisdan bu ozg'in o'g'lon sening o'zing ekaning yodingga tushadi, sen va buvingdan bo'lak u xonada hech kimsa bo'lishi mumkin emasdi. Qirq yildan beri buvimni tushimda ko'rmagan edim, endi nega ko'rdim ekan, balki yana o'pkamdan qon kelar, deb o'ylay boshlaysan...

Qattiq yo'tal tutadi, ko'ksing portlagudek, yuraging uzilib tushgudek bo'ladi, biroq o'pkangdan qon kelmaydi. Tushimda buvimni ko'rsam, ishim o'ng keladi, shekilli. Buvijon, aytganlaringiz esingizdami? "Bolam, non yeganda albatta avval bismilloh degin". Unutganman, buvijon, anchadan beri bismillohni tilga olmay qo'yganman...

Erkak kishi yig'lamaydi deb qaysi gumroh aytgan! Yaxshiki, xotinim uxlab yotibdi. Na yuragimning gupillashini eshitadi – yo'talimga qarshi unda shartli refleks paydo bo'lgan, uyg'onmaydi – na ko'z yoshlarimni ko'radi. Ko'rsa tag'in menga "psixsan" derdi... "Psix"lik masalasida, rostini aytsam, xotinim haq emas: qirq yoshdan o'tgach, bu dunyoda ba'zi narsalarni asta-sekin anglab, idrok etgandan keyin, o'ta darajada emas, ozgina bo'lsa ham "psix"lik kasaliga yo'liqmaydigan odam bormi o'zi?..

Men faqat bir toifani – ertaga non topish qayg'usini chekmaydigan boqibeg'am toifani tan olaman. Qolganlardan kimni aytsang ayt, sekin savolga tutsang, rahmatli Zulfiqor amakim aytgani kabi, albatta ohidan tutun chiqadi... Men ilgari – "ilgari" deganda ikki yil

[1] Navro'z arafasidagi chorshanba nazarda tutilyapti (tarj.)

[2] **X a z r i** – shimoldan esadigan sovuq shamol (tarj.)

narini nazarda tutyapman – tunda ko'rgan tushlarimni xotinimga ayta boshlasam, u qattiq asabiylashardi. Chunki u bir necha bor sinab ko'rgan edi: men tushda biron-bir marhumni ko'rdimmi, tamom, ertasiga albatta biron-bir falokat sodir bo'lardi. Yo xotinim trolleybusning tiqilinchida pulini o'g'irlatar, yo avtobusdan tushayotib qaynimning oyog'i lat yer, yoxud qaynisinglimning uyidagi gaz kolonkasi portlardi.

Bir safar judayam g'alati bo'ldi: men nonushta ustida xotinimga tushimda tag'in Zulfiqor amakini ko'rganimni aytdim, bu suhbatdan rosa ikki soat keyin rayondan qo'ng'iroq qilib, xotinimning xolavachchasi mashina halokatiga uchrab halok bo'lganini aytdilar. O'shandan beri oradan ancha vaqt o'tdi, biroq men hamon tushlarimni xotinimga aytmayman, hatto ularni o'zim ham tezroq unutishga harakat qilaman. Chunki, Xudo haqqi, chindan ham bu tushlarning ba'zan o'ng kelishi bor.

To'shakda yotib qolishimdan ilgari, oxirgi kunlarni aytyapman, mundoq ma'nili bir tush ko'rmay qo'ygan edim. Ko'rganda ham betayin narsalarni: yo yozda ko'chamizda sut sotadigan, ko'kraklari sigirning yelinidek keladigan Aidani, yoki italyan aktrisalaridan birini, yoxud o'rtoq Falonchiyevni ko'rardim. Falonchiyevni hatto tushda ko'rganimda ham, o'zing asragaysan Xudoyim, o'takam yorilgudek bo'lardi. Shar[1] demasang, xayr kelmas. Bemorligimning menga bir xayri shu bo'ldiki, endi meni o'rtoq Falonchiyevning huzurida tez-tez o'tkaziladigan majlislarga chaqirmay qo'ydilar. Dori-darmonlarimni ichaman-da, to'shagimga cho'zilaman. Na meni yo'qlaydilar, na men ularga qo'ng'iroq qilaman. Jon rohatidan ham bo'lak yaxshiroq narsa bormikan dunyoda?

Rahmatlik Zulfiqor amakim bir paytlar qishloqdan har oyda bir marotaba biznikiga kelganida, chubug'ini tutata-tutata: "Hoy bola, tezroq pensiyaga chiqish harakatini qil", deb o'git berardi. Mening taajjub bilan tikilganimni ko'rib, ilova qilardi: "Qulog'ing tinch, joning rohatda bo'ladi. Na ularning senga ishi tushadi, na sening ularga". Zulfiqor amakim vafot etganida janazaga boray desam, ishdan ruxsat berishmadi. Havo buzilib turgan, sovuq-izg'irinli kunlar edi, men ham, bormaganim bir tomondan yaxshi bo'ldi, shamollab qo-

[1] **Shar** – yomon (tarj.)

lishim mumkin edi, deb o'yladim. Qishloqda motam marosimida xaloyiq chodirda o'tiradi, rutubat, shamol, qor-yomg'ir urib turadi. Zulfiqor amakimning qiziga telegramma urib, hamdardlik bildirdim, dafn marosimiga ketgan qarindoshlarimdan biri orqali yuz so'm pul ham jo'natdim.

Xotinim, menikilar o'lsa hech vaqo bermaysiz-a, deb g'ingshidi. Avvaliga indamadim. So'ng o'zimni tuta olmay, men o'lsam, qarindoshlaring ham hech narsa bermay qo'yaqolsin, dedim. Shu gapdan so'ng oradan o'n kun ham o'tmagan ediki, qishloqda feldsher bo'lib ishlaydigan uzoq bir qarindoshim keldi. U Zulfiqor otaning o'limi tafsilotini gapirib berdi, mening biroz kayfiyatim buzildi, shu kecha uxlab tush ko'rdimmi, yoki feldsher Mahmud aytib bergan voqea tag'in ko'z o'ngimdan o'tdimi, anig'i yodimda yo'q, ammo ertalab uyqudan uyg'onganimda hushim joyida emas edi.

* * *

Qishloqda xaloyiq bezovta yotib, bezovta turardi. Bir haftadan beri, osmonning tagi teshilgandek, tinimsiz shivillab yomg'ir yog'ardi. Kattadan-kichik hamma, Kur[1] bevaqt toshmasaydi, degan xavotirda edi. Yomg'ir yog'ib turgan bo'lsa-da, havoda bir dimlik hokim, go'yo tuproqdan bug' chiqayotgandek edi. Agar yomg'ir yana bir-ikki kun shu zayilda davom etsa, havo shu dimligicha qolsa, ham Kur toshardi, ham tog'dan sel kelishi mumkin edi. Jamoat neki ekib-tikkan bo'lsa, barchasi yakson bo'lardi. Hali bog'-u chorbog' u yoqda tursin, bu yerlarning seli xaloyiqning uy-joyini ham yuvib ketishi hech gap emasdi. Balki qishloq sho'rosi raisining eshigiga borib, undan taxta-yog'och so'rab ko'r, dersiz. Berib bo'pti!..

Shu kecha hamma bezovta yotdi, uyqusi qochib ketgan kishilarning ko'zi derazada, tiq etsa ogoh edi. Mish-mishlarga qaraganda, har uydan pul yig'ib, qo'shni shia qishlog'ining mullasiga, balo-ofatni bartaraf etsin, deya nazr ham qilgan emishlar...

Mahmuddan boshqa hamma bezovta edi. Rayon markazidan hozirgina qaytgan Mahmud poyabzalini yechib, boya o'zi tamaddi qilgan kabobxonadan olib kelgan borjomdan ichardi. U yerda juda ko'p ichib yuborishdi. Ichganda ham hukumat arog'idan emas,

[1] K u r – daryoning nomi (tarj.)

bolalardan birini mashinada Grigor armaninikiga jo‘natib, u yerdan uch-to‘rt shisha tut arog‘i oldirishdi. Feldsher Mahmud bilan Salim raypo ikkalasi uch shisha aroq ichishdi. Hozir gugurt yoqib og‘zimga tutsam, nafasim lov etib yonib ketadi-yov, deb o‘ylardi Mahmud. Iyagini mushtiga tiraganicha, burnini torta-torta, “shoyad bir mo‘jiza ro‘y berib, shu payt Moskva mehmonxonalaridan biriga borib qolsam, vannani sovunli ko‘pikka to‘ldirib, ichiga kirib olardim, voh-voh-voh”, deb xayol surardi. Na yomg‘ir bo‘lardi u yerda, na tuman, na tut arog‘i. Hammasining padariga la’nat. Vannadan chiqib, qalin sochiq bilan yaxshilab artingach, qo‘ltiqlari ostiga atir-upa sepib, kraxmal hidi anqib turgan oppoq ko‘rpa-to‘shakka cho‘zilgan bo‘lur edi. Istasang telefonni ko‘tar, qo‘ng‘iroq qil, senga yangi damlangan choy olib kelishsin, istasang, biroz uzangach, turib kiyin, restoranga tush, ofitsiantni chaqirib muzqaymoq bilan konyak buyur, musiqaga quloq sol, raqs qilib sakrayotgan jamoatni tamosha qil. Ofitsiant ayol moyil bo‘lsa, “poydyom so mnoy” degin unga. Rozi bo‘lsa bo‘lsin, bo‘lmasa jahannamga!.. Konyakni ich, muzqaymoqni ye, liftga minib o‘z xonangga chiq, yot to‘shakka uzala tushib.

Mahmud kayf qilganida hamisha yodiga yo Moskva, yo Kiyev tushardi. Chunki qanday lazzatli kunlarni boshidan o‘tkazgan bo‘lsa, shu ikki shaharda o‘tkazgan edi. Qayg‘usiz, baxtiyor kunlar edi u kunlar. Yil bo‘yi topgan-tutganini bir oylik ta’tilda ana shu shaharlardan birida yelga sovurardi. Ammo uch-to‘rt kun mehmonxonada yotgach, tushiga qishlog‘i kira boshlardi. O‘n kun o‘tgach esa mana shu yomg‘ir, tuman, Grigor armanining a’zoyi badanga o‘t qo‘yadigan arog‘i ko‘z oldidan o‘taverardi. Har safar, nega bu shaharlarga yolg‘iz kelaman, nega teng-to‘shlarimdan birini ko‘ndirib olib kelmayman, deya afsus qilardi... Harqalay, bir amallab ta’tilni o‘tkazib, qishlog‘iga qaytib kelardi. Biroq ikki kun o‘tgach tag‘in Moskva, Kiyev mehmonxonalarini sog‘ina boshlardi. Shunda asabiylashar, bemorlarni naridan-beri ko‘rib jo‘natib yuborar, yillar bo‘yi ko‘nikib qolgan hayot tarziga go‘yo yangidan moslashishi lozim edi. O‘n-o‘n besh kun o‘tgach, odatdagi Mahmudga aylanardi-qolardi. Kimning qorni sanchib, kimning boshi og‘rib qolsa, tunning qaysi mahali bo‘lmasin, Mahmud dori-darmon solingan xaltasini olib yo‘lga tushardi...

Mana hozir ichidagi alangani so'ndirish uchun borjom shishalarini ketma-ket ochganicha Moskvani, ko'pikli vannani orzu qilayotgan bo'lsa-da, yozda u yoqqa borsa tag'in zerikishini, yolg'iz kelgani uchun yana o'zini so'kishini, kechalari yotganda tushida yo jizzali non yegani, yo qaydadir qishloqlarning biridagi o'tovda yarim tun mahali bir cho'pon og'aynisi bilan dunyoning o'tgan-ketganidan suhbatlashib yotgani tushlariga kirishini, ertalab uyg'onganida esa og'zida kechasi tushida yegan qo'y pishlog'ining ta'mini his etishini bilib turardi...

Mahmud soatiga qaradi, ikki-uch daqiqa kam o'n edi. Erina-erina turib televizorni qo'ydi. Bu rangli televizordan qishloqda atigi uch kishida bor edi, biri raisda, ikkinchisi qishloq sho'rosining kotibida – qurmag'ur yoshgina qiz edi, sollanib yurishlari odamning jonini olardi – yana biri esa Mahmudda. Boku uzoq bo'lgani uchun ranglar u qadar tiniq ko'rinmas, goh sarig'i ko'payib ketar, goh qizili kamayib qolardi. Shuning uchun ham jamoat qiziqarli rangli ko'rsatuvlar berilganda televizorni Tbilisiga ulab qo'yardi. Mahmud ham, biron zarur ishi chiqib qolmasa, har oqshom "Vremya"ni ko'rardi. "Vremya"ni Boku ham ko'rsatardi, Tbilisi ham. Mahmud ovora bo'lib yurmaslik uchun bir yo'la Tbilisini ulab qo'ydi. Diktor ekranda paydo bo'lishi bilan Mahmud baland ovozda dedi: "Qurmag'ur yana qizil ko'ylak kiyib olibdi-da, a, ofarin, bo'yingdan akang aylansin, ofatijon!" Qoni junbushga kelganda, kayfi baland bo'lganda uning uyda baland-baland gapiradigan odati bor edi. Bo'ydoqlikning shu jihati yaxshi, uyda o'tir, televizor qo'y, istasang shikasta[1] o'qi, istasang devonalar kabi o'z-o'zing bilan baqirib gaplash, kimning nima ishi bor! Biron-bir mo'min bandasi, hoy Mahmud, nega haddingdan oshyapsan, demaydi.

Mahmud ko'rsatuvlarni o'n-o'n besh daqiqa diqqat bilan tomosha qildi, Magnitogorsk metallurglari qanaqadir "pochin"ga qo'shilib, rejani bir yuz nechadir foiz qilib bajarganliklarini bilib oldi. So'ng ko'rsatuvlarning davomini ko'rar ekan, "pochin" nima ekanini, ozarbayjoncha ma'nosini rosa o'yladi, ammo topa olmadi. Ertaga maktabning rus tili o'qituvchisidan so'rayman, deya ko'ngliga tugib qo'ydi.

[1] **Shikasta** – Sharqning hazin kuy-qo'shiq turi (tarj.).

"Vremya" xalqaro voqealarni bera boshlaganda tag'in bir stakan borjomni dast ko'tarib bo'shatdi, uning diqqati butunlay bo'lindi. Yana dunyoning har yerida otishma. Ko'pincha zanjilarni, arablarni ko'rsatishardi. Har qaysinisining qo'lida avtomat. Mahmud yana o'zini tuta olmay bor ovozda dedi: "Tavba, bu xumparlar bunday zo'r avtomatlarni qayerdan topishadi, ajabo, bu Amerika degani qanaqangi dog'uli hukumat, naqadar ko'p qurol-yarog'i bor? Padariga la'nat bunaqa zamonning!.." "Vremya"ning oxirlarida Budapeshtda bo'lib o'tgan xalqaro moda festivali ko'rsatildi. Zo'r-zo'r manekenchi qizlar ekranda paydo bo'lganida Mahmud jilmayib hushtak chalgan ko'yi "Arshin mololon"dan bir qo'shiqni rus tilida ayta boshladi: "Ax ti, moya dorogaya, ax ti moya zolotaya!" So'ng shu kuyni boshqa so'zlarga almashtirib kuylay boshladi: "Grigor arman, uying kuysin, Grigor arman, uying kuysin!.."

Chunki tut arog'ining alangasi tag'in ichidan yuqoriga ko'tarilib, halqumlarini kuydirib yuborayotgan edi. Mahmud, agar borjom bo'lmaganda, ertalabgacha tirik qolmagan bo'lur edim, deb o'yladi. Va tag'in ichida o'zini so'ka boshladi: "Axir shu zahri qotilni ichma, ichganda ham mundoq odamga o'xshab yuz gramm, nari borsa ikki yuz gramm ich, deb necha marta aytishdi!" Ammo boya kabobxonada yegan cho'pon qovurdog'ini, sarimsoqli qatiqni xotirlaganda angladiki, bunaqangi o'tirishlarda yuz-ikki yuz gramm bilan ish bitmaydi. Kabobpaz Xalil tog'aga rahmat, haqiqiy erkak-da o'ziyam!..

"Vremya"da sport xabarlari ko'rsatila boshlanganda Mahmud televizorni o'chirdi. Televizor olayotganida usta unga, ehtiyot bo'l, ko'p ishlatma, bu narsani oz-ozdan ko'radilar, otliqqa ham yo'q bunaqangi televizor, degandi. Mahmud televizor ustidagi movut parcha bilan ekranni artdi, so'ng pastga egilib, balandposhna tuflilarini juftladi va hafsala bilan karavotning tagiga tiqib qo'ydi. Bir-ikki marta kerishdi, tag'in bir stakan muzday borjom ichib, kekirish uchun rosa urindi, biroq ichidan hech narsa chiqmagach, tag'in baland ovozda, "yaxshisi, yotaman, balki uxlab ochilarman", dedi. Qayishini yechmoqchi bo'lgan edi, shu payt darvoza qattiq taqillab qoldi va tashqaridan o'smir bolaning ovozi eshitildi:

– Mahmud do'xtir, hoy Mahmud do'xtir!

Mahmud bolaning ovozini tanidi, bu – Zulfiqor otaning nevarasi Moshuning ovozi edi. Mahmud shahd bilan derazaning bir tavaqasini ochib boshini chiqardi:

– Ha, Moshu, senmisan?

Deraza oldida bir sharpa paydo bo'ldi.

– Ha, men.

– Tinchilikmi o'zi?

– Zulfiqor buvamning mazasi qochib qoldi, tezda Mahmud do'xtirni olib kelinglar, deyapti.

– Nima qipti, tag'in yuragimi?

– Yo'q... Rang-ro'yi oppoq oqargan. Bu kechadan o'tmayman, deyapti. Tushida uryadnikni ko'rgan emish.

Mahmud kuldi.

– Qanaqa uryadnik, hoy bola, esing joyidami o'zi, balki prokurorni aytgandir?

– Yo'q, og'a... Negadir ahvoli juda og'ir. Bo'la qol, jon og'a, tezroq boraylik, – Moshuning ovozi titrar edi. – Temir totorning qayig'i bilan keldik. Bizni Qoyategida kutib turibdi.

– Hozir, ukajon, hozir, bormasdan bo'ladimi axir! – Ammo har ehtimolga qarshi so'radi: – Kur toshib ketmaganmi? Temirning qaysi qayig'i bilan keldinglar?

– Motorlisi bilan.

– Ha, unda kutib tur, men hozir.

Mahmud shosha-pisha yo'l tadorigini ko'rdi, askarcha etiklarini, paxtali kamzulini kiyib, yoqasini tugmaladi, boshiga quloqchin bostirib oldi. Xaltasini ko'tarib uydan chiqqach, Moshuga dedi:

– Meni shunaqangi shoshirib qo'ydingki, seni uyga ham taklif etmabman, yomg'irda ivib ketgandirsan.

– Nima qipti, og'a, yomg'irni endi ko'ribmizmi!

Qishloq uyquda edi. Ko'kdan quyilayotgan yomg'ir og'ushida u yer-bu yerda shu'lalar yaltirab ko'rinar, goh-goh itlar hurib qo'yardi. Asfalt yo'ldan chiqib, kolxoz idorasi yonidan so'lga burildilar, suyuq balchiq kechib Kur tomon yurdilar. Shalop-shalop, shalop-shalop... Balchiqdan yo'sin hidi anqirdi.

– Hoy, Moshu, sel kelishidan Xudo saqlasin. Oqib ketamiz-a! – dedi Mahmud.

– Kelmay bo‘pti! Havoni ko‘rmaysanmi?! Osmonga har kuni bitta kosmonavt uchaverganidan keyin, tag‘in nima bo‘lsin!

Moshu o‘n olti-o‘n yetti yoshlarda bo‘lib, bu yil o‘ninchini bitirayotgan edi. Ammo yoshidan farqli o‘laroq, kattalar bilan ko‘p o‘tirib-turgani uchun, o‘zini tutishi, gap-so‘zlari boshqacha, go‘yo ancha yoshga borib qolgan kishilarning gap-so‘zlariga o‘xshar edi. Mahmudning eshitishiga qaraganda, ba’zan aroq-paroq ham ichib turar ekan. “Zamonning bolasi-da, – deb o‘yladi Mahmud, – bir tomondan shunisi ham yaxshi. Hozirgi zamonda laqma bo‘lganing – ado bo‘lganing”.

– Zulfiqor buvang keyingi paytlar juda injiq bo‘lib qoldi. Avvallari do‘xtir-po‘xtir deb o‘tirmasdi.

– Avvallari temirday baquvvat edi. Bir qo‘li bilan kamarimdan ushlab, meni boshiga azot ko‘tarardi. Keyingi ikki oyda tamom bo‘ldi. – Moshuning ovozi yana titradi. – Bilmayman, sho‘rlikka nima qildi.

Mahmud yo‘talib, yutindi, bo‘g‘zi juda taxir edi.

– Necha yoshga kirgan o‘zi? – deb so‘radi u esnab.

– Oyimning aytishicha, to‘qsonlarni urib qo‘ygan.

– Bo‘pti-da. Nima, dunyoga ustun bo‘lmoqchimi?

– Xudo haqqi, Mahmud do‘xtir, unaqa dema... Uni judayam yaxshi ko‘raman. – Moshu zulmat og‘ushida o‘zi bilan yonma-yon ketayotgan Mahmudga qaradi.

– Men yomon ko‘ramanmi?.. Qani endi unaqangi mard kishilar? – dedi Mahmud. – Dunyoning xayr-u barakoti o‘shalar bilan emasmi? Men uni naq ming yil yashasin deyman... Lokigin hozir u shunchaki shaytonlik qilayotgan bo‘lsa kerak. Hali uning yuragi po‘latday mustahkam.

Mahmud yolg‘on aytdi. Moshuga anchayin dalda bermoqchi bo‘ldi. O‘tgan safar u Zulfiqor otani ko‘rgani borganida toj tomirini topa olmagan, o‘shandayoq ko‘ngli nimanidir sezgan edi. Moshu bu daldadan quvonib ketdi:

– Men ham xuddi shuni aytaman-da! Buvajon, senga hech narsa qilgani yo‘q, agar istasang, Tbilisiga olib borib, naq akademiklarning o‘ziga ko‘rsataylik, deyman. U bo‘lsa, yo‘q, tushimga uryadnik kirdi, hoynahoy, o‘lsam kerak, deydi.

– Hoy tentak, qanaqangi uryadnikni aytyapsan?

– Men qayerdan bilay. Buvam menga mundoq yuragini ochmasa!

– Buvangning esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgandir, sharmanda bo'p qolmaylik tag'in? – deya tashvishlanib so'radi Mahmud.

Moshu boshini sarak-sarak qildi:

– Yo'q, og'a. Aqli-hushi joyida. Gap-so'zlari, o'zini tutishi xuddi avvalgidek, – Moshu yana Mahmudga qarab, ovozini pasaytirib so'radi: –Mahmud do'xtir, jinni bo'lgan kishi odamni tishlaydi, deydilar, rostmi shu?

– Albatta! Tishlashi ham gapmi! Odamning bo'g'ziga yopishib, kekirdagini uzib oladi.

– E, yo'q... Buvam tuppa-tuzuk choy ichdi, bir burda non ham yedi. Oyim uning oyoqlarini yuvdi. Yo'q, jinni bo'lganga o'xshamaydi.

– Aytyapman-ku, axir, ayyorlik qilyapti deb! Sizlarga erkalik qiladi-da. Sen tashvish tortma. Bitta igna urishim bilanoq otday bo'lib ketadi. Bunaqasini endi ko'ribmanmi?!

Ikkalasi ham jim qolishdi. Mahmud, sumkamda kamfara bormikan, deb o'yladi. Yo'q bo'lsa ham, novokomoid bilan dimedrol kifoya. O'tgan safar faqat novokomoid bilan turib ketgan edi, shekilli. Yo'q, venasiga dimedrol ham urgan edim...

Ular keng yo'lakdan har qadamda g'oyat ehtiyotkorlik bilan pastga enib, Kurning sohiliga, Qoyategi deb ataladigan joyga yetib bordilar. Temir totorning qayig'ida shu'la ko'rindi. Mahmud Temir totor temiryo'lchilarning qo'shko'z fonusini ko'tarib olganini angladi, ha, uning bu boradagi pishiqligiga gap yo'q edi. Mahmud Kurning ushbu zaif shu'la yoritib turgan qismini aniq-ravshan ko'rdi: to'lqinlar mag'zava singari ko'piklanib yotardi. Demak, keyingi ikki-uch kun ichida suv yuqori ko'tarilgan, bu ko'pik esa tog'lardagi muddatidan ilgari erigan qorning toza, yumshoq suvi bo'lib, bu suvning bo'tana suvlarga qorishuvi oqibatida ko'pik paydo bo'lgan edi. Kuchli sel ildiz-pildizi bilan qo'porgan kattakon darxtlar muttasil oqib kelar, mabodo bunday daraxtlardan biri qayiqqa ilashib qolgudek bo'lsa, bu sovuqda, qattiq yomg'ir ostida narigi qirg'oqqa chiqib olish gumon edi. Juda ehtiyot bo'lib suzish lozim edi. Mahmud bunday ishlarda Temirning tajribasi zo'rligini yaxshi bilardi, ammo koshki endi u ichib olmagan bo'lsa!

– Salomatmisan, Temir? – Mahmud jala ostida bir sakrab qayiqqa chiqib oldi. Qayiq qattiq chayqalib ketdi. Brezent yomg'irpo'sh kiygan Temir uning tirsagidan tutib qoldi. Moshu esa, Mahmuddan farqli o'laroq, qayiqqa bamaylixotir chiqib oldi. Diydirab turgan Mahmudning ovozi bo'g'ilib chiqdi:

– Temir, bugun ham rosa tarangmisan?

– Yuk.

– Nahotki?

– Yuk.

– Bizni tezroq naryoqqa o'tkazib qo'y. Zulfiqor otaning ahvoli chatoq emish.

– Bilaman, – Temirning kayfiyati buzuqligi, laqillashgudek holi yo'qligi ko'rinib turardi. Bularga orqa o'girib olganicha osma motorning qayerinidir kovlashtirardi.

– Zormandang ishlamayapti shekilli, birodar? – Mahmud qayiqning old tomoniga o'tirib, chuqur xo'rsindi va oyoqlarini cho'zdi. Moshu hamon tik turardi. – O'tirsang-chi, bolakay. Buning motori ham o'ziga o'xshaydi... Nimalar qilyapsan o'zi, hoy Temir?

– Senga nima?

– I-ye! Bu nima deganing? Kayf-safo qilgani emas, bemor ko'rgani boryapman, birodar!

Temir ortiga qaramasdan:

– Bilaman, – dedi, – kayf-safo qilgani bormayapsan. Lekin kayf-safo qilib kelyapsan.

– Qayerdan bila qolding?

– O'libdimi Temir Grigor armani tayyorlagan tut arog'ining hidini bilmay! – deya maroq bilan kuldi u.

– Voy pandavaqi-ey! Xudo haqqi, totorlarning hammasi shpiyon bo'ladi! – Mahmud tizzasiga mushtladi. – Shunday yog'in-sochinda buning burni tozining tumshug'iday muncha tez hid olmasa, hoy Moshu?.. Temir, ertaga ertalab meni eson-omon uyimga keltirib qo'ysang, seni burningdan chiqquncha ziyofat qilish mening bo'ynimda.

Temir motorning chilvirini tortdi, biroq motor ishlamadi: qayiqda badbo'y yermoyining hidi anqidi. Temir jahl bilan suvga tupurdi.

– Birodar, menga sening ziyofating kerak emas. Poyluning bufetiga olib kirsang bo‘lgani! – Temir burnini arta-arta chilvirni tag‘in o‘ray boshladi.

– Yo‘q, Xudo haqqi, ziyofat qilaman! Dod-voyingga qaramay seni Xalil tog‘aning kabobxonasiga sudrab boraman. Bo‘kkaningcha yedirib-ichiraman. Xarajati mening bo‘ynimda.

Temir motorning chilvirini tag‘in jahd bilan o‘zi tomon tortdi, motor bir-ikki paq-puq qildi-yu, biroq baribir o‘t olmadi. Mahmud asabiylasha boshladi.

– Hoy, Temir, yarim dunyoni to‘rt yuz yil zir titratgan siz totorlar emasmi, axir? Nahotki endi bitta motorning uddasidan chiqolmasang?

– Hozir tuzukroq bir motor sotadilarmi! Vashu matlar! Qolaversa, Mahmud, bilib qo‘yki, sen aytayotgan gaplar uchun odamlarning boshiga ne-ne kunlar tushmagan!

– Voy-bo‘-o‘! – Mahmud qo‘l siltadi. – Tavba, kelib-kelib bu menga siyosiy saboq bermoqchi! Mening aytganlarim barcha tarix kitoblarida bor, nega endi kekirdagingni cho‘zasan, a, slushay?

– Bir aytdim-qo‘ydim-da. Ollohdan barakat, prokurordan harakat.

– Bu nima deganing?

– Yangi pesnya, Temir totor o‘ylab topgan, – deya u uchinchi marta chilvirni tortgan edi, motor sharaq-shuruq qilib o‘t oldi. Parrak sachratgan tomchilar Mahmud bilan Moshuning yuziga pitra kabi urilib, qattiq og‘ritdi. So‘ngra Temir atayin rulni ilkis so‘lga burgan edi, qayiq turgan yerida shiddat bilan gir aylandi, Mahmudning o‘ngga og‘ib, Moshuning ustiga yiqilishi bilan baqirib yuborishi bir bo‘ldi:

– Sekinroq, uying kuygur, bizni cho‘ktirib yuborasan-ku!

– Qo‘rqma, Temir totor bor joyda hali bironta musulmon cho‘kkani yuk. – U rulni o‘nglab oldi, qayiqni Kurning o‘rtasiga olib chiqib oqimga qarshi hayday ketdi.

– Yigirma minutda, samiy-samiy bolshe yarim soatda yetib boramiz, inshoolloh. Ha-a, vashu matlar! – U gaz berdi, qayiqning tezligi oshdi. Sovuq shamoldan Mahmudning gardani go‘yo muzlab qolgandek bo‘ldi. U shoshib telpagining quloqlarini tushirar

ekan, koshki bir kor-u hol ro‘y bermay manzilga yetib olsaydik, deb o‘yladi, bunday ob-havoda, tunning bu mahalida Kurdan o‘tish har qanday mardning ham qo‘lidan kelavermasdi. Uning ko‘nglidan “tavakkali Xudo” degan fikr kechdi.

Moshu pinakka keta boshlagan edi. Temir totorning oyoqlari ostidagi fonus yorug‘ida Mahmud Moshuning qoshlari uyulib, ko‘zlari yumilib-yumilib ketayotganini ko‘rdi.

– Bugun televizor ko‘rdilaringmi? – Bu savol Moshudan ko‘ra ko‘proq Temirga taalluqli edi. Qayiq izga tushib olgandan so‘ng Temir tezlikni pasaytirib, rulni tirsaklari bilan tutganicha boyadan beri zo‘g‘ol yog‘ochidan yasalgan mushtugini chizimcha bilan tozalab kelardi. Chizimchani oxirgi marta mushtukning teshigiga solib tortdi, so‘ng mushtukni og‘ziga tutib, bir-ikki pufladi, nihoyat odatdagi bamaylixotirligi bilan doim chekadigan “Avrora”sidan bittasini mushtukka joyladi. Yomg‘irpo‘shining cho‘ntagidan to‘pponchaday keladigan qo‘lbola o‘toldirgich chiqardi. Uni xuddi to‘pponcha kabi tepkisini bosib yoqdi. Mushtukni yutoqib-yutoqib tortar ekan, Mahmudga, Moshuni-ku bilmayman, ammo men televizor ko‘rmayman, qarasam boshim og‘riydi, dedi.

– Eh Temir, dunyo juda alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketdi. Hamma joyda urush boryapti.

– Menga nima?

– Hoy jinni, odamzot qirilib ketyapti, axir!

– Biz qirilmayapmiz-ku, – sigaretdan so‘ng Temirning ovozi bo‘g‘iqroq chiqa boshlagan edi.

– Nima, bizning ham qirilib ketishimizni istaysanmi? – Mahmud kuldi.

– Men unaqangi qirg‘inlarni juda ko‘p ko‘rganman, birodar. Xudo hech kimning boshiga solmasin, voy-voy-voy!

Mahmud uning ohangidan tushundiki, bir gapga tushib ketsa, tinmaydi, rosti, urushdan so‘z ochganiga pushaymon bo‘ldi. Temir kamida ming marta takror-takror aytib bergan voqealarni yana boshidan boshlaydi, urushdan qaytib kelganida xotini Tamaraning yonida yoshgina rus yigiti yotganini yonib-kuyib so‘zlaydi, so‘ng dunyodagi barcha ayollarni onasi qolmay, singlisi qolmay so‘ka boshlaydi, oxirida “voy vashu matlar, nashu matlar” deya tizzlarini mushtlash-

ga tushadi... Ammo bu gal unday bo'lmadi. Temir o'z boshiga tushgan bu musibatni hamisha ham so'zlayvermas, to'g'rirog'i, hushyor paytlarida bu voqea haqida churq etmas, urushdan, askarlikdan so'z-suhbat ochilib qolsa, bir chekkada indamay turaverardi. Ammo stansiyaning bufetida shirin vinodan bir-ikki stakan ichib olishi bilanoq, tanish odam topa olmasa, yo'lovchilardan duch kelgan biriga yelimday yopishib olardi. So'zlab-so'zlab yuragini bo'shatar ekan, har zamonda ko'zlaridan milt-milt yosh oqardi. Nima ham qilsin sho'rlik! U chekkan musibat boshqaning boshiga tushsa, Xudo haqqi, jinni bo'lib qolar edi... Yaxshiyamki, bu chidagan...

Mahmud uning bunday mast bo'lib yurganlarini ozmuncha ko'rmagan edi. Ko'pincha bozor kunlari, vokzal tirband bo'ladigan paytlarda Temir o'zi yashaydigan yunon qishlog'idan stansiyaga tushib kelardi. Vokzalda uni hatto relslar orasida izg'ib yuradigan qo'tir itlar ham tanirdi. Yoz paytlari, egnida qip-qizil satin ko'ylak, belida tarang tortilgan ingichka charm qayish, oyoqlarida yaltirab turgan qo'njli botinka, sochlarini hafsala bilan yaltillatgan, ozoda, atir hidlariga burkangan holda stansiyaning pashshalar g'ujg'on o'ynagan, havosi og'ir bufetiga kirib kelardi. Karim bufetchi – juda qattiq hazillar qilardi u – Temirni ko'rishi bilanoq, totor tilida Temirning o'zidan o'rgangan ba'zi so'zlarni aytar, odatda, so'kinardi. Ammo bu so'zlarga bufetda Temirdan boshqa hech kim tushunmasdi. Temir kular, qonsiz yupqa lablari orasidan ko'rinib turgan kemshik, sarg'ayib ketgan tishlari kuldon ichida yotgan sigaret qoldiqlariga o'xshardi. Kichik qiyg'och ko'zlari suzilib, yuzidagi ajinlar orasida yitib ketardi. Temir Karim bufetchiga, "Sen o'zi totor bo'lib tug'ilishing kerak edi, Xudo haqqi, bu tilni mendan yaxshi bilasan", derdi. Eng oxirida uning o'zi ham "vashu matlar!" deb qo'yardi. Bu – navbat vinoga keldi, quy, degani edi...

Karim, bir necha yilki, Temirdan pul olmasdi. Temir dunyoning Sibir degan joylarida uzoq tentirab, o'ziga hech yerdan panoh topa olmay, nihoyat, kelib-kelib Kur qirg'og'idagi bu qadim yunon qishlog'ida bir umrlik maskan tutganidan keyin (avvalari bu yerlarda bir-ikki yil tentirab yurib, so'ng, Tangrim madad bersa, ehtimol, ota-bobolarimning yurtiga qaytib ketarman, degan fikrda yurdi, biroq qaytib ketmadi, oylar, yillar o'tdi, Temirning nazdida

bu dunyoyi dun o'zgardi, ammo Tamara bilan soldat o'zgarmay qoldi) va kunlarning birida boshiga tushgan musibatlarni hali qorin bog'lab og'irlashib qolmagan, dumbulgina bir yigitcha bo'lgan Karimga ilk bor gapirib berganida, Karimning unga rahmi kelgan edi, uning bu tarahhumi stansiya bufetining chor atrofida, relslar orasida, axlat uyumlari yonida izg'ib yurgan itlarga qilinadigan rahm-shafqatga o'xshardi.

Temirning boshidan kechirganlarini u o'sha kuni ishdan so'ng onasiga so'zlab berganida, onasi, bolam, u Temirmi, boshqami, harqalay, Ollohning bir yetim bandasi ekan, qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil unga, savob bo'ladi, degan edi. Ertasi kuni Karim ham Temirga, "Hoy birodar, endi sendan pul oladigan tentak yo'q, xurmachang to'lgunicha ich, boridan ye, menga sening sariq chaqang kerak emas", degan edi. "Odam odamga qaysi kunda yaraydi, axir?"

Bu gapdan Temirning ko'ngli fayziyob bo'lib, go'yo ko'ksida madda bog'lab yotgan bir narsa yorilgandek, tomirlaridagi qon ham tiniq tortib qolgandek bo'ldi: u shosha-pisha tashqariga qushdek otilib chiqib, bufetning ortidagi xilvat joyda rosa yig'lagan, keyinroq o'zi aytgani kabi, kamida ikki chelak ko'z yoshi to'kkan edi. Chunki bu balokash dunyoning na yorug' kunlariga, na zulmatiga umidi qolmagan bir banda uchun Ollohning bundan ham ortiq inoyati bo'ladimi, axir?..

– Hoy, Temir, ichmasang mundoq chehrang ham ochilmaydi. Basharangga qarab, Hazrat Abbos haqqi, mening yig'lagim keladi! – Mahmud, aftidan, Temirni hol-joniga qo'ymoqchi emas, jahli chiqayotganidanmi, uyqusi kelayotganidanmi, harqalay, Temirning jig'iga tegishni, uni quyushqondan chiqarishni istardi. – Odam deganning mundoq chehrasi ochilib yuradi. Sen esa kunduzi bir odam bo'lasan, kechqurun mutlaqo boshqa odam. Seni kunduzi ko'rgan kishi, bu odam payg'ambar bo'lsa kerak, deb o'ylaydi.

– Na men payg'ambar bo'la olaman, na sen. Ikkimiz ham bo'zdan chiqqan bir bachkimiz. – Temir sigaretni yutoqib tortar ekan, bir-ikki marta bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'talgach, davom etdi: – Hoy Mahmud, – negadir u ovozini balandlatdi. – Sen dunyoning hamma joyida odamzot bir-birini qirib yotibdi, deysan. Men esa, qirsa jahannamga, deyman. Ya'ni aytmoqchimanki, bu dunyoning

dard-u g‘ami menga qolibdimi? Xo‘sh, azizim, mening fahmim yetgan narsa shuki, oxir-oqibat Temirning ham boshiga yetishadi, ertami-kechmi, hamma bir-birini qirib bitiradi. Sababini aytaymi? Odam avvalo odam bo‘lishi kerak. Bizning esa hammamiz – kattadan to kichik – barchamiz odamgarchilikdan chiqib ketdik. Aytmoqchimanki, hamma vahshiylashib ketdi.

Moshu hushyor tortdi, ko‘zlarini ochib, piq-piq kuldi.

– Kulma, Moshu, kulma. Temir totorga nima bo‘pti, Temir totorning ham kallasi bor.

– Bor, birodar, bor! – Mahmud Moshuning biqiniga turtib qo‘ydi. – Nega bo‘lmasin ekan, kallang naq otning kallasiday keladi. Ammo shu vino sening miyangni suyultirib yubormasa, uyingni kuydirmasa deb qo‘rqaman. – Mahmud Moshuga qo‘shilib qahqah urib kuldi. U amin ediki, endi bu so‘zlardan keyin Temir quyushqondan chiqadi, hamisha bo‘lganidek yo ruschalab, yo totorchalab albatta boloxonador qilib so‘kina boshlaydi. Moshu ham, Mahmud ham bunaqangi so‘kishlarni kamida ming marotaba eshitgan edilar. Ammo bu gal Temir na quyushqondan chiqdi, na so‘kindi. Lommim demadi. Biroz sukutga ketgach, yana tilga kirib:

– E-voh, Mahmud! – dedi. – O‘qimishli odamsan, ofarin senga, el-yurt orasida feldsher degan ot chiqargansan, Xudo haqqi, bir rayko‘mchalik obro‘ying bor... Kimning boshi yostiqqa yetsa, seni chaqiradi. Ammo safsatabozsan. Bilasanmi nega? – Temirning ovozi tag‘in pasayib, motor shovqinida qariyb eshtilmay qoldi.

– Xo‘sh, nega? – Bu gal Mahmud jahldan o‘zini zo‘rg‘a bosib qoldi.

– Chunki dard ko‘rmagansan!

– Voy! Buni qaranglar! – Mahmud o‘girilib Moshuga boqdi. – Birodarlar, men besh-olti yoshlarimda ota-onasiz qolganman. Onam yodimga tushsa, hali-hali jigar-bag‘rim o‘t olib yonadi. Xo‘sh, bu dard bo‘lmay nima?

– Keyin-chi?

– Keyin nima bo‘lardi? Gapini qaranglar? Nima, mening qarindosh-urug‘im yo‘q deb o‘ylaysanmi? Xolam asrab oldi meni, yedirib-ichirdi, kiyintirdi. Go‘ri nurga to‘lsin... Hozirgacha kimga qanaqa yomonlik qilibman, birodar? – Mahmud ranjigan, ovozida zarda bor edi.

Temir kulib:

– Yana gapimga tushunmading! Uy-uy-uy! – dedi.– Men boshqa narsani aytyapman, Mahmud. Odam borki, bu dunyoga kelganida dard bilan keladi, odam borki, tug‘ilganidan boshlab hech qachon o‘ziga suv yuqtirmaydi. Sen keyingi toifadansan.

– Xo‘sh, nima bo‘pti? Kelib-kelib zanjilar bir-birini qirib yotgani uchun yig‘lashim kerakmi? Bugun televizorda ko‘rsatishdi, yo tavba!

– Ana, ko‘rdingmi! – Temir bosh tebratdi. – Men ham shuni aytyapman-da! Qoralar qoralarni qirmoqda, oqlar oqlarni. Chunki, og‘ayni, men aytgan o‘sha gap: odamlar odamgarchilikdan chiqishdi, vahshiylashib ketishdi!

Mahmudning boshiga og‘riq kirdi. U suhbatning bu yo‘singa burilib ketishini kutmagan edi. Temirning mantiqiga ham chiday olmas, uning “dard ko‘rmagansan” deganiga biroz asabi buzilgan edi. Bu zamonda hech kimsaga “dard ko‘rmagansan” deb bo‘ladimi. Bu g‘irt tuhmat-ku, axir, har bir odamning yelkasida tog‘day dardi bor, kimdir bu yukdan egilib qoladi, to‘rt oyoqlab uvlay-uvlay tog‘-toshlarga bosh olib ketadi. Mahmud urush yillarida kolxoz omborchisi Muso Qaychilining xaloyiqqa ulashgan kunjaralarini xotirladi: bolakaylar, qizaloqlar birma-bir ko‘z o‘ngidan o‘ta boshladi: qora uylarda, chiroqning xira yorug‘ida qator o‘tirib, katta-kichik barchaning kunjara yegani esiga tushdi. Bu dard bo‘lmay nima, axir?..

Temirga nimadir demoqchi bo‘ldi, ammo tilining uchida turgan bu gapni aytmadi, negadir shaharda bemor yotgan qarindoshi yodiga tushdi. Tun zulmatimi, yoki motor shovqinimi sabab bo‘lib, bemorning chuqur botgan ko‘zlari, aynan kunjara rangidagi chehrasi shundoq qarshisiga keldi-turdi: go‘yo nigohlari oldida tutilgan oy turar, bu oy qora bulutlar ortida so‘nib borayotgandek edi. Bu ne hol bo‘ldi? Nega Temir totorning ikki og‘iz gapi uni mutaassir qildi, harchand urinsa-da, buning boisini anglay olmadi... Va qo‘qqisdan Mahmudning miyasiga bir fikr keldi: odamlarni bir-biriga bog‘lagan narsa – darddir. Na oy shu’lasi, na havo, na tuproq, yo‘q, bularning hech biri emas – dard, faqat dard, xolos. Dard shunday uzun bir arqonki, u dunyoning belini kamar kabi tortib turibdi, hamma ana shu kamarga yopishib bir-biriga jipslasha boradi...

Moshu ularni murosaga keltirdi, Mahmudning ham, Temirning ham jim qolganini ko'rib, tag'in boyagi suhbatga qaytdi.

– Hammasiga sabab shuki, – dedi u, – mamlakatimizning barcha tinchliksevarlik tashabbuslarini imperialistlar rad etyaptilar. – Uning ovozida diktor ovoziga o'xshash keskin bir ohang bor edi. Dastavval Mahmudga go'yo qayiqda televizor qo'yib qo'yilgandek tuyuldi. So'ng nimadir yodiga tushib, baqirib yubordi:

– Ana, topdim! Xudo haqqi, topdim, hoy Temir! "Pochin" – tashabbus degani. – Moshu tomonga burildi. – Ofarin senga, Moshu polvon! Magnitogorsk metallurglariga ham ofarin! – Mahmud hamma narsani unutdi.

Shu mahal bir hodisa ro'y berdiki, ularning hech biri nima bo'layotganini anglay olmay qolishdi: qayiq qo'qqisdan chapga yonboshlab qoldi, ichi yo'lovchilarning tizzasi qadar ko'pikli suv bilan to'ldi, ayni paytda kuchli bir guvillash boshlandi, favqulodda turgan shamol ulkan darra kabi boshlari ustida shuvillab, Mahmudning quloqchinini yulqib suvga otdi; odamning suyak-suyagidan o'tib ketadigan izg'irin uchalasini ham muzlatib qo'ydi, uchalasining ham tishlari takillab, so'ngaklari qaqshay boshladi. So'ng hamma yoq tinchib qoldi, to'g'rirog'i, boshlanmay turib tindi. Chunki qayiq shu daqiqadayoq o'nglanib, atrofdagi hamma narsa o'z maromiga tushdi. Motor tarillab ishlar, Temir totorning qayig'i manzil sari suzib borardi.

– Tavba, bu qanday balo bo'ldi? – Mahmud oyoqlari ostiga, qayiqqa to'lib qolgan suvga tikildi. Temir totorning fonusi suv ichida ishdan chiqqan, o'chib qolgan edi.

Moshu Mahmudning pinjiga kirib ketdi.

– Naq boshimizning ustidan tayyora uchib o'tganday bo'ldi. – Moshuning ovozi titrab zo'rg'a chiqdi.

Mahmudning bosh og'rig'i yuragiga ko'chib o'tdi: u lablarini bazo'r ochib, faqat shu jumlani ayta oldi:

– O'zing asragaysan, Xudoyim...

So'ng uchalasi ham bulutlar orasida suzib borayotgan oyga boqdi. So'l qirg'oqda, tepaliklar ostida qadimiy qabristonning qabr toshlari qorayib ko'rinardi.

Nihoyat, Temir ham tilga kirdi.

– O‘zing asragaysan, Xudoyim, – dedi u va yum-yum yig‘ladi.

Bu rutubatli, yomg‘irli va bezovta havoda uchalasi ham yolg‘iz bir narsadan bexabar edi. O‘ng qirg‘oqdagi tepaliklardan narida yastanib yotgan qorli tog‘larning eng tepasida, cho‘ng qoyalarning muz bog‘lab yotgan toshlari orasida bir ko‘ho[1] bor ediki, kimgadir, qayerdandir bu ko‘honing nomi ayon edi: Bobo Ko‘ho edi bu g‘orning nomi...

Moshuning onasi – Zulfiqor otaning o‘rtancha qizi Salotin hovlidan kelayotgan gangir-gungur ovozlarni eshitib ko‘nglida “shukur” deb qo‘ydi: chunki u anchadan beri Moshudan tashvishda edi, bunday havoda Yaratganning bir daydi va benavo bandasiga – Temir totorga yosh bolani ishonganidan, buning ustiga, narigi qirg‘oqqa jo‘natganidan yuragi notinch edi. Ayol, Moshu ketgandan beri, derazadan hovliga, hovlidan tashqariga – darvoza ortida qishloqning siyrak chiroqlari shu’lasida bo‘zarib yotgan loy-balchiqli yo‘lga qayta-qayta tikilgan, baland tog‘lar tomondan to‘p-to‘p bo‘lib oqib kelayotgan bulutlar orasida suzib yurgan oy shu’lasida qorayib ko‘rinayotgan olis o‘rmonlarga takror-takror boqqan va har safar, koshki Temirning kayfi bo‘lmasa edi – iloyo bu zormanda aroqni, vinoni chiqarganni yer yutsin – bolani eson-omon uyga qaytarib olib kelsa edi, deya ko‘nglida necha bor Xudoga, barcha aziz-avliyolarga iltijo qilgan edi.

Moshu ketgandan keyin Salotin otasining qistovi bilan chirigan zinapoyalardan pastga tushib, tovuq katagi bilan yonma-yon, havosi xiyla og‘ir xonadan qadimiy mis samovarni inqillab-sinqillab yuqori qavatga olib chiqdi, so‘ngra yana pastga tushib, selpodan olgan qog‘oz xaltalaridan birini ko‘mirga to‘ldirib chiqdi va oynavand ayvonda choy qaynatdi. Zulfiqor otaning bir odati bor edi: uyiga qay mahal biror kimsa kelib qolsa, achchiq qilib damlangan choy quyib bermasdan chiqarib yubormas edi. Keladigan kishi hurmatli odam, do‘xtir yo feldsher bo‘lsa-ku, aytmay qo‘ya qolaylik.

– Shukur, kelishdi! – dedi Salotin yuzini deraza oynasiga bosib; rutubatli havo shishani muzga aylantirib qo‘ygan edi. Tashqariga sinchkov boqar ekan, Moshu, Mahmud va Temir totorning qorasini ko‘rdi – uchalasi hovlidagi tutning ostida turib olib nimalarnidir gaplashar edilar.

[1] **K o‘h o** – g‘or, mag‘ora (tarj.)

– Hoy tentaklar, laqillashib o‘tiradigan paytmi hozir! – Bir xayoli oynani taqillatmoqchi bo‘ldi, ammo pastdagilar buni eshitmasligini anglab, bu fikridan qaytdi. Ortiga qaytib, ko‘rpani iyagigacha tortib yotgan, og‘ir-og‘ir nafas olayotgan Zulfiqor otaga tikildi: uning yuzlari so‘lib qolgan, yonoqlari sarg‘aygan, kipriklari pir-pir titrardi.

– Voy, ularga nima bo‘ldi, nega chiqishmayapti ekan? – Salotin bezovta bo‘la boshladi.

Zulfiqor ota ko‘zlarini ochib:

– Kelishdimi? – deb so‘radi.

– Ha.

– Samovar nima bo‘ldi?

– Nima bo‘lardi, anchadan beri shaqillab qaynab yotibdi.

Temir totor ichkari kirishi bilan brezent yomg‘irpo‘shini bir chekkaga uloqtirdi. Salotin bilan bosh irg‘ab salomlashdi, so‘ng burnini bir-ikki tortib, eshik oldida tiz cho‘kdi. Moshu hali tashqarida, darvozani berkitish bilan ovora edi. Mahmud ovozini baralla qo‘yib:

– Ha, Zulfiqor ota, qachon bu shaytonligingni tashlaysan?! – deya karavotga yaqinlashdi, ko‘rpa ostidan Zulfiqor otaning oriq qo‘lini topib, tomirini ushlab ko‘rdi: uning tomir urishi yaxshi edi, hatto dastlab Mahmud, chol chindan ham shaytonlik qilyapti, deb o‘yladi... Ammo bemorning sarg‘aygan peshonasiga, ko‘zlari atrofidagi ko‘kimtir dog‘larga qarab bu fikridan qaytdi. Salotin Temirning yonboshidagi chamadonni Mahmudning yoniga olib borganida Zulfiqor ota ko‘zini ochdi, Mahmudga qattiq tikilib dedi:

– Oxiri ketar bo‘ldim, Mahmud... Bu dard avvalgi dardlardan emas, dardingni olay.

– Qo‘ysangiz-chi, hoy ada, arvohlar haqqi, ko‘nglimizni buzmang, gunoh bo‘ladi. Nima bo‘pti sizga? – Salotin jahl bilan to‘ng‘illadi, bu bilan go‘yo u Moshuni Mahmudga jo‘natgandan beri yuragida yig‘ilib yotgan zardobini bir yo‘la to‘kib soldi.

Zulfiqor ota yana Mahmudga tikildi: uning oppoq o‘siq qoshlari qanshariga uyuldi, oqargan ko‘zlari Mahmudga boqsa-da, go‘yo hech narsani ko‘rmasdi.

– Xudo haqqi, bu Salotin meni o‘ldiradi... Xuddi itday qopadi meni, – dedi u.

Salotin yig'lagudek bo'ldi:

– Voy, hoy ada, dardingizni olay, men axir sizga nima qildim?

Mahmud Salotinga qarab, jim bo'l, ahmoqlik qilma, keksa kishi bilan bahslashmaydilar, degan ma'noda ko'z qisdi.

– Zulfiqor ota, – dedi Mahmud, – sen hech narsadan bezovta bo'lma. Yuragingga qoyil, xuddi motorday ishlab turibdi. Issiq jonning isitmasi bo'ladi-da, axir!..

– Yo'q, bolam, Saricha o'g'li Muhammad izimdan tushdi.

– U kim bo'ldi? – tashvishlanib so'radi Mahmud.

– Paykonlining uryadnigi.

Bu safar Salotin shunday baqirib berdiki, Mahmudning quloqlari jaranglab ketdi.

– Voy jahannamda kuyib kul bo'lgur! Voy qora tuproqda suyaklari irib-chirib ketgur! Padariga ming la'nat o'shaning, buni jinni qilib qo'ydi u!

Mahmud g'alati bo'lib ketdi, aniqrog'i, Salotinning gaplaridan hech narsa tushunmadi, qo'rquvga tushdi, go'yo bu gaplarni karavot quyisiga suyanib, otasiga g'azab bilan boqayotgan Salotin emas, boshqa birov aytgandek tuyuldi unga. Chunki, Mahmudning nazarida, odamlarning bu ohangda gapirishi mumkin emas edi. Uryadnik kim bo'ldi ekan?

Mahmud o'girilib, boyadan beri it kabi g'ujanak bo'lib eshik oldida o'tirgan Temir totorga najot tilagandek iltijoli boqdi. Boshi osilib qolgan Temir mudrar, hozir dunyoni suv bossa, uning to'pig'iga chiqmas edi. Moshu ham hovlidagi ishini bitirib, yuqoriga chiqqan, bir burchakda o'tirib olib, choyshab bilan oyoqlarini artardi. Mahmud chamadonini ochib, ichidan yaltiroq quti oldi, ampulalardan birini sindirib, shpritsga dori tortdi, so'ng uni yoruqqa tutib, asta-sekin havosini chiqardi.

– Salotin, – dedi u, – hadeb vaysayverma. Kel, menga yordam qil.

Zulfiqor ota:

– Nima uryapsan, dardingni olay? – deb so'radi.

– Kardiaminus jartes!

– Yaxshi dorimi o'zi, biznikimi yoki chetniki? – deya Salotin Mahmuddan so'radi. Keyingi besh-olti yil ichida Salotin otasining kasaliga ham, o'z dardiga ham (uning oyoqlari shishar, tez-tez na-

fasi siqardi) faqat chetning dorisini davo deb bilardi. Zig'irday bosh og'riq dorisini ko'rganda ham darhol qayerniki ekanini surishtirardi.

Zulfiqor ota pixillab, oriq tomog'idagi liqildog'ini o'ynatib kula boshladi. Chunki u ham, Mahmud kabi, "jartes"ning ma'nosini bilardi, bu so'z armani tilida "yiqildi", "o'ldi" degan ma'noni bildirardi.

– Dardingni olay, – dedi Zulfiqor ota o'zini tiya olmay, – o'sha jartesingdan bittasini Salotingayam ur! Xo-xo-xo... hi-hi...

Mahmud Zulfiqor otaning bu hazilini tushunib, qahqaha urdi. Salotin taajjub bilan goh otasiga, goh Mahmudga qaradi, yelkalarini qisganicha o'girilib o'g'li Moshuga boqdi. Moshu ham gap nima haqida ketayotganini tushunib, jilmayib turardi, onasi o'ziga qaraganini ko'rib, dedi:

– Bu... dorining oti-da, oyi! Nima, sen do'xtirmisanki, muncha surishtirasan?

– So'rasam nima qipti, hoy zumrasha? Vaqtida o'qigan bo'lsaydim, endi kulgi bo'lib o'tirmasdim! – deya Salotin ham jilmaydi, lekin hech narsaning farqiga bormadi, chunki gapirsa tag'in kulgi bo'lishini bilardi, qisqasi, azaldan bu uyning taomillari ichida shunday bir qoida bor ediki, Salotin hamisha ana shu qoidaga amal qilardi, ya'ni bu uyda hazildan, kulgidan hech kim xafa bo'lmas, aslini olganda, bu uyning but-omonligini, xayr-barakotini saqlab kelayotgan omillardan biri ham ana shu hazil-huzul, yaxshi, shirin so'z edi.

Mahmud igna urganidan so'ng Zulfiqor otaning qo'lini ohista ko'rpa ustiga qo'ydi, har ehtimolga qarshi issig'i bormi-yo'q degan fikrda kaftining orqasini cholning peshonasiga bosdi. Biroq cholning peshonasidagi sovuqlik, to'g'rirog'i, qo'llariga chippa yopishgan muz uning yuragini g'ash qildi. "Bu tag'in nimasi?" – deya ko'nglidan o'tkazdi va negadir boya bu yerga kelayotganlarida qayiqda ro'y bergan voqeani esladi: go'yo Zulfiqor otaning peshonasidagi sovuqlik haligi qo'qqisdan turgan shamolning sovuqligiga o'xshardi. Zulfiqor ota tag'in ko'zlarini ochib, bir-ikki marta yutindi, chuqur ko'zlari yanada ichkari botdi, halqumi bir qalqib tushdi.

– Hoy, Salotin, – dedi u, – anavi yetim qani, Temir totorni aytyapman.

Salotin qo'li bilan Temir totor tiz cho'kkan tomonni ko'rsatib:

– Ana u, –dedi, – maza qilib uxlayapti!

– Uni pastga olib tush, joy solib ber. Yegulik biror narsa ham ber, qorni ochdir. Oldiga bitta aroq ham ochib qo‘y.

– Mast bo‘lib olib, yana daraxtga tarmashsin deysizmi?

– Yo‘q, bunday qilmaydi. Tunning bu mahalida qayoqqa ham borardi? Gum-gurs bo‘lib yotadi... Qaytishda aroqdan bizga ham olib kel, do‘xtir bilan yuzta-yuzta qilaylik.

Salotinning ko‘zlarida tag‘in g‘azab chaqnadi:

– Voy?! Hozirgina igna urmadimi sizga?

Mahmud devorga tirab qo‘yilgan kursilardan birini tortib o‘tirdi. Qo‘lini yuqori ko‘tarib, Salotinning gapini bo‘ldi:

– Bo‘ladi, yuz gramm mumkin. Sen odamni butunlay chalajonga chiqarib qo‘yma. Bor, aroqni olib kel.

Salotin Temir totorning yoniga borib, uning qo‘lidan tutganicha silkita boshladi:

– Temir, hoy Temir!

Temir cho‘chib ko‘zlarini ochdi. Uning ko‘zlari qizarib ketgan edi.

– Ha?!

– Tur, hoy yetim, pastga tushamiz. Senga aroq beraman.

Temir totor “yo Olloh” deb o‘rnidan turdi, bir muddat uyqusirigan ko‘yi hayron bo‘lib xonaning u yoq-bu yog‘iga ko‘z yugurtirdi: go‘yo u bu keng, ustunli xonani, shiftdagi oq zo‘g‘ataga o‘tkazilgan charog‘on elektr chiroqni, derazadan ancha narida eshik bilan yuzma-yuz qo‘yilgan nikel karavotni, hatto bu karavotda ko‘rpaga o‘ranganicha uzanib yotgan Zulfiqor otani, qolaversa, Mahmudni, Salotin va Moshuni ilk bor ko‘rayotgandek edi. Temir totor Salotinning og‘zidan chiqqan “aroq” so‘zini yaxshi eshitmadi, deb o‘yladi Mahmud, chunki uning charchoq va uyqusizlikdan siniqqan, pastki labi osilib tushgan yuzida biron-bir o‘zgarish sodir bo‘lmadi; zero, Temir totor Temir totor emas ediki, aroq so‘zini eshitganda qirg‘iy kabi javlon urmasa!.. Xullas, zo‘rg‘a oyoqqa qalqqan Temir totor bu xonaga kirib kelganidan beri ilk bor tilga kirdi:

– Xayrli tun, Zulfiqor ota!

Zulfiqor ota o‘rniga Salotin javob qildi:

– Xayr, xayr, hoy Temir... Yura qol, pastga tushaylik, joy qilib beraman, damingni ol!

Ular xonadan chiqib ketgandan so‘ng – Temir tashqarida zinapoyalardan yo‘tala-yo‘tala tushib borardi – Zulfiqor ota Mahmudga dedi:

– Dardingni olay, Mahmud, seni keyingi paytlar ko‘p bezovta qilyapman. Na iloj, qarilikning kuni qursin... Olloh odamzotga bitta jon berar ekan, ming bir dard... Ammo, Xudo haqqi, rost aytyapman, bu dard avvalgilaridan emas. – Qariya zo‘rg‘a gapirar, nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qolar, asabiy odamlar kabi so‘zlarni zarb bilan aytardi. Yostiq ustida Zulfiqor otaning boshi tuxumday kichrayib qolgan edi.

– Hoy buva, arvohlar haqqi, senga hech nima bo‘lgani yo‘q. Xudo xohlasa, ertalab turib olib men bilan aroq ham ichasan hali! – Mahmud chindan ham ana shu fikrda edi, chunki Zulfiqor otaning ko‘rinishida tashvish qilgulik biron o‘zgarish yo‘q edi. Mahmudni esankiratib qo‘ygan narsa faqat cholning peshanasidagi sovuqlik edi. Uning o‘ng qo‘lidan hamon o‘sha sovuqlik ketmagan, go‘yo qo‘lini muzday suvga botirib olgandek edi.

– Nohaq... nohaq o‘ldirdim Saricha o‘g‘li Muhammadni.

Mahmud o‘tirgan yerida qaddini rostladi, boshini norozilik bilan tebratib qo‘ygan Moshuga qarab, shaytonning a’moliga la’nat o‘qidi, nihoyat, bu uryadnik voqeasini Zulfiqor otadan so‘rashga qaror qildi.

– Kimni o‘ldirgansan, buva, qachon o‘ldirgansan?! – dedi asabiylik bilan u.

– Yigirma birinchi yilda, dardingni olay. Paykonlining uryadnigi Saricha o‘g‘li Muhammadni.

– Buva, hozir jamoat har kuni bir-birini o‘ldiradi, tag‘in hech narsa ko‘rmagandek qalpog‘ini dol qo‘yib yuradi. U voqea qaydan ham sening yodingga tushdi, he salomat bo‘lgaysan!.. – Mahmud o‘rnidan turib, gilamning ustida devorga yelka tirab o‘tirgan Moshu tomon yurdi, so‘ng tag‘in ortiga qaytdi. – Uryadnikmi, pristavmi, boshqami, kitoblardan o‘qiganmiz, ularni o‘ldirganlar, itday qirib tashlaganlar. Xo‘sh, nima qipti?

– Polnomochniy. Bokudan kelgan edi, o‘sha buyurdi, men o‘ldirdim.

– Ana, ana! Hozir menga prokuror, bor, falonchini o‘ldir desa, men o‘ldirmaymanmi? Hukumat odamining bir gapini ikki qilib bo‘larkanmi, o‘zing dunyo ko‘rgan odamsan-ku, axir! – Mahmud suhbatni

chalkashtirmoqchi, hazilga burib yubormoqchi bo'ldi, ammo o'ziga tikilgan bir juft ko'zdagi, o'siq, uyilgan qoshlar ostidan boqayotgan xira, nursiz nigohlardagi qo'rquv va talvasani, muhimi, umidsizlikni ko'rib, balki chindan ham bu dard avvalgilaridan emasdir, degan fikrga bordi. Bu dunyoda g'alati, aqlga sig'maydigan hodisalar ozmi, axir?.. O'zing asragaysan, Xudoyim! Bu qanday be'mani suhbat bo'ldi? Yigirma birinchi yilda ajali yetgan bir bandaning bugungi oqshomga, bu uyga, bu shu'laga nima daxli bor, tavba? Chol shu ahvolda ketaversa, ham o'zi jinni bo'ladi, ham uydagilarning o'takasini yoradi.

Uyqudori bersammikan, ertalabgacha xurrak otib uxlar edi? Ammo bu fikridan voz kechdi. Chunki Zulfiqor ota keyingi besh-o'n kun ichida xiyla zaiflashib qolgan, bu ahvolda unaqangi dorilar yo xastaning ko'nglini behuzur qilishi, yo boshini aylantirishi mumkin edi.

Mahmud dedi:

– Zulfiqor ota, sen bemalol uxla. Tunning savobidan kunduzning gunohi yaxshi, deydilar. Ertalab rosa ezmalashamiz, o'sha uryadnik voqeasini aytib berasan, biz Moshu bilan eshitib o'tiramiz.

– Qonli Chanoq[1]ning etagida tutib oldim uni... – Zulfiqor ota ko'zlarini yumdi, uyquga ketganga o'xshasa-da, gapini uzmay davom etdi. – Sho'rlik meni ko'rishi bilanoq tiz cho'kdi, hoy Zulfiqor, o'ldirma meni, bolalarimga javr bo'ladi, dedi... Yuz-ko'zlarini tuk bosib ketgan, zanjiday qop-qora kishi edi rahmatlik, ko'rsang, ola-bo'jimi bu deb qo'rqib ketarding... "Hoy Muhammad, Bokudan polnomochiy kelgan. Salohov Odil Qambarovich. Uning aytishicha, sen xalqqa ko'p azob bergan emishsan, sinfiy dushman ekansan, men sening jasadingni eltib uning oyoqlari ostiga tashlamasam, o'zimni surgun qiladi. Sibirning muzlarida, bir shaxtada chirib o'lib ketaman", dedim... O'ldirma, deb yolvordi u tag'in. Yo'q, dedim. O'ldirma, dedi yana iltijo qilib. Yonida bir yassi tosh turgan edi, boshini o'sha toshga qo'yib yig'ladi. – Zulfiqor ota ko'zlarini ochib Mahmudga tikildi va so'radi: – Mahmud, umringda hech yig'lagan odamni ko'rganmisan, bolam?

Mahmud tag'in suhbatni chalg'itmoqchi, o'rtadagi taranglikni yumshatmoqchi bo'lib, hazil qildi:

[1] **Qonli Chanoq** – tog' nomi (tarj.)

– Nega ko'rmagan ekanman, Temir totor ikki stakan vino ichib olgach, Tamarani eslab yig'lagani-yig'lagan-ku!

Zulfiqor ota:

– Uyi kuysin Temirning, – dedi. – Men unaqangi yig'lashni aytmayapman, bolam. Men boshqacha yig'lashdan gapiryapman... – Chol yana ko'zlarini yumdi, uning kipriklari devorga qo'nib turgan, kuchli chiroq shu'lasidan cho'chiyotgan kapalak qanotlari yanglig' titrar edi.

Chol anchagacha jim yotdi. Mahmud qo'llarini ko'kragiga chalishtarib esnadi, har holda, ham toliqqan, ham allamahal bo'lib qolgan, uyqu bosib kelmoqda edi. Moshu uni olib kelish uchun borgandayoq, hozir borib xastaga nina sanchaman yoki darmondori beraman-da, qo'shni xonadagi Salotin solgan to'shakda ertalabgacha mazza qilib uxlayman, deb o'ylagan edi. Bunday havoda uyqudan yaxshiroq nima bor, yo'lda etini uvishtirib, suyaklarini qaqshatib yuborgan rutubat hamon a'zoyi badanidan tarqamagan edi. Bu Salotin deganlari qayerlarda yuribdi ekan, aroq-paroq olib kelsa, ichib olib, ham biroz qizishgan, ham bu qariyaning safsatalarini unutgan bo'lur edi...

Mahmud Zulfiqor otaga tag'in sinchiklab tikildi... Yo'q, rostdan ham ahvoli unaqangi og'irga o'xshamaydi, tomir urishi yaxshi, qon bosimi ham joyida, na yuzida isitma bor, na bosh og'rig'idan shikoyat qiladi. Aftidan, bosinqirab, tushida o'sha uryadnik-puryadnigini ko'rib, ishtonini ho'l qilib qo'ygan bo'lsa kerak. Evoh, la'nati keksalik!.. Na mundoq odamday yashagani qo'yadi, na bu dunyoning achchiq-chuchugidan bir yo'la joningni qutqazib ketishing uchun oson o'lim beradi. Vaqt-soati yetganda odam omonatini osongina topshirgani yaxshi. Bu dunyoda uzoq yashab, ushlanib qolganlarning qismati bir xil: qora tuproq bag'riga borishdan avval behisob azob-aziyatlar chekadilar. O'tgan yillarini bir-bir eslaydilar, ana shunda ularning xotiralaridan bir chirmovuq o'sib chiqib, bu chirmovuq ularning yuraklarini, miyalarini asta-sekin yemira boshlaydi...

Mahmud, Zulfiqor ota uxlab qoldi, deb o'yladi. Chunki past ovozda uni bir-ikki chaqirib ko'rgan edi, qariya javob bermadi. Ammo Zulfiqor ota uxlamagan edi. U ushbu balokash dunyoning

ikki haqiqati o'rtasidagi vaqt sarhadidan narigi tomonga – Qonli Chanoqning tosh-tuproqli etagi tarafga, yuksakda savlat to'kib turgan cho'ng qoyalarning olachalpoq soyalari tomonga, qorli tog'lar boshidan esayotgan muz nafasli bir shamolning shundoq qarshisiga sakrab o'tgan edi. U manzilda yoshgina bir yigit qo'lbola papirosini qalin, habashi lablari orasiga mahkam qimtib, ketma-ket yutoqib tutun so'rganicha, chap qo'lida beshotarni hozirlab turardi: qora o'siq qoshlari ostidagi o'tkir nigohi atrofdagi toshlar, qoyalar orasidan kimningdir sharpasini axtarardi.

Miltiqli kishi bu yerga, osmonning yettinchi qavatiga ko'tarilishidan oldin bir necha kecha qora uyda, chiroq yog'dusida o'tirib olib, qo'lbola papirosini tutata-tutata juda ko'p narsalarni chamalab ko'rgan, hammasini qayta-qayta taroziga solgan, uyiga sig'may tashqariga chiqqan, sukutga cho'mgan samoning qoq o'rtasidagi oy shu'lalar sepib yotgan Kur daryosining shoshqin suvlariga termulgan, atrof-javonibdagi sehrli shitirlashlarga quloq solgan, nihoyat, yog'langan miltig'ining tepkisini o'rnatib, yopinchiqqa o'ranganicha sahar mardonlab, hali qushlar ham uyg'onmagan bir mahalda Qonli Chanoq sari o'rlab ketgan so'qmoqdan yo'lga tushgan edi. Endi bu miltiqli kishi u yerdan so'ppayib qaytishi mumkin emas edi, dunyo to'ntarilsa ham, qorli tog'lar, muz bog'lab yotgan qoyalar uning ustiga ag'darilsa ham, miltiqning tepkisi albatta bosilishi, bu tog'lar, daralarga vahima solishi muhaqqaq edi. Boshqa najot yo'q edi: odam peshanasiga bitilganini ko'radi. Har kimning bu dunyoda o'z qismati bor. Taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi.

"Tovarish Salaxov, budet sdelano!"

So'ngra Saricha o'g'li Muhammadning jasadini chalqancha qilib otga o'ngarganida, tog'lar tomondan kuchli, guvillagan bir shamol esa boshlaganida u miltig'ini yelkasiga osar ekan, ko'zlarini qisib atrofga uzoq termulgan edi: otilgan bir juft o'q ovozi va uning ortidan Saricha o'g'li Muhammadning yo'lbarsdek o'kirib yiqilganini aytmaganda, bu joylarga dunyo yaralgandan beri hech bir ins-jinsning qadami tegmagan deb o'ylash mumkin edi. Sillasi qurib, qon hidi olganidan suvlig'ini chaynab-chaynab og'zi ko'pikka to'lgan otga qaragani ham majoli qolmay, devona kabi faryod solgan edi:

– Kuydim, kul bo'ldim, ey tog'lar!..

Salotin qaytib keldi, Moshu oynavand ayvonda oyisining qadam tovushlarini eshitib, ko'zlarini ishqalay-ishqalay o'rnidan turdi va borib eshikni ochdi. Salotin hansiraganicha biroz gandiraklab ichkari kirdi: qo'lidagi kattakon patnisda bir shisha aroq, yaxna tovuq, qatlama, har xil ko'k-ko'katlar bor edi. Aroqni ko'rib Mahmudning ko'ksi bir qalqib tushdi, ko'ngli ag'darilib keldi, ammo bu hol juda tez o'tib ketdi: Xalil kabobpazning dim kabobxonasida Salim bilan ichishgan tut arog'ini, so'ng ko'p ichib qo'yganidan uyida o'tirgani joy topolmay qolganlarini esladi va hozir ichmasam bo'larmidi, degan fikr ko'nglidan kechdi. Ammo shu zahotiyoq bu fikrning o'rnini boshqa bir fikr, Mahmudning o'z ta'biri bilan aytganda, mantiqsiz va favqulodda bir fikr egallab oldi: yo'q, albatta ichishi kerak, hech bo'lmaganda yuz gramm otmasa, charchog'i chiqmaydi.

Zulfiqor ota shivir-shivirlarni eshitib ko'zini ochdi va qizidan so'radi:

– Temir nima bo'ldi?

Salotin patnisda keltirgan narsalarini Moshu yordamida karavotning bosh tomonidagi stol ustiga terib chiqdi, so'ng boyagi kabi hansiraganicha:

– Iloyo o'lsin, – deb kuldi, – atigi bir burda non yeb, aroqning yarmini bo'shatdi. Tamaraning ota-onasi go'riga g'isht qalab, so'kina-so'kina yiqilib qoldi.

Mahmud so'radi:

– Yig'lamadimi?

– Yo'-o'-o'q!.. Birpasda kayfi oshib qoldi... Ammo, Mahmud do'xtir! – Salotin orqaga chekinib, kuchli chiroq shu'lasida tomirchalari resha-resha qizargan ko'zlarini unga tikdi. – Yuragi shu qadar yumshoq, shu qadar muloyimki... Koshki dunyoda shunaqa odamlar ko'p bo'lsa. Xudo haqqi, o'shanda yomonlikdan asar ham qolmasdi.

– Unda hammamiz piyanistaga aylanib, Temir kabi bufetdan chiqmasligimiz kerak ekan-da! – dedi Mahmud.

Mahmudga Zulfiqor ota javob qildi:

– Xudo haqqi, bu zamonda piyanistalikdan yaxshiroq narsa yo'q. – Qizining o'ziga biroz taajjub bilan tersayib qaraganini ko'rib dedi: – Xo'sh, nima, yolg'on aytyapmanmi?.. Eshshaklik yaxshimi yoki piyanistalik?

Salotin iyagini ushlab, bosh tebratganicha:

– Bas, hoy ada, bas, – dedi, – murosaga kelib turganimizda bizni sharmanda qilmang!

Mahmud Zulfiqor ota qizishib, qiziga og'irroq gap qilib yuborishiga yo'l qo'ymaslik lozimligini angladi, aks holda biron janjal chiqib, u noiloj ota-yu qizni tinchitish uchun o'rtaga tushishiga to'g'ri kelardi. Shuning uchun darhol suhbatga aralashib:

– Hoy, to'xtanglar! – deya shosha-pisha stakanlarga aroq quydi, o'ziga ko'proq suzdi, darhol tovuqni parchalab, qatlamani ham ikkiga bo'ldi. – Qani, Salotin, menga yordamlashib yubor-chi! – deya karavotga yaqinlashdi. Salotin bilan birgalashib Zulfiqor otaning yostig'ini ko'tardilar, so'ng Mahmud qo'llarini Zulfiqor otaning qo'ltig'idan o'tkazib, uni ko'tardi va yostiqqa yonboshlatib qo'ydi. Stoldan qadahni olib Zulfiqor otaga uzatdi.

– Qani, manavini otib yubor-chi!

– Mahmud do'xtir, dardingni olay, cholni xarob qilasan-ku! – dedi tashvishlanib Salotin.

Bu safar Zulfiqor ota Mahmudning og'zini ochirmadi:

– Ahmoqona gaplarni qo'y, hoy qizim! – uning ovozidagi tetiklik Mahmudga yoqib tushdi. – Ichaman, xuddi Temirday ichaman! – deya ko'zlarini yumdi, so'ng aroqni qultillatib oxirgi tomchisigacha ichdi, Salotin uzatgan yumshoq tovuq go'shtini og'ziga soldi va lazzat bilan chaynar ekan, qo'shib qo'ydi: voh-hey, ha nomardning chiqargan arog'i!

Mahmud o'ylaganining aksi o'laroq (boya aroqni stakanlarga quyganida ko'ngli ag'darilib kelgan edi) aroq bo'g'zidan simob kabi osongina o'tib ketdi – na yuragi ag'darildi, na afti burishdi. Ammo, har ehtimolga qarshi, darhol qatlama orasiga ko'katlardan bosib og'ziga tiqdi, birpasdan so'ng ichgan arog'ining havosi miyasiga ko'tarildi, chakkalaridagi og'riq tarqadi va u asta-sekin uvishib qolgan oyoqlari yoyilib, a'zoyi badanining qizib borayotganini his etdi. Bu harorat ta'sirida ovozini baralla qo'yib negadir o'z-o'zidan sevinib xitob qildi:

– Qurboning bo'lay, Zulfiqor ota!

– Xudo saqlasin, bolam... – deb javob berdi u. – Yo sening dori-darmoning meni tiriltirdi, yo bu aroq... Xudo haqqi, rost aytyapman.

Mahmud Zulfiqor otaning rang-ro'yiga razm soldi: rostdan ham cholning chehrasi ancha ochilgan, tirish yuzlariga qon yugurgan edi, bilinar-bilinmas bu nash'a uning ko'zlariga ham yoyilgan, bu ko'zlarda endi na qo'rquv bor edi, na boya Mahmudni qattiq vahimaga solgan umidsizlik. Endilikda bu ko'zlar hali ajali yetmagan qariyaning odatiy ko'zlariga aylanib qolgan edi. Mahmudning ko'nglidan: "Bergan kuningga shukur, aftidan, bu safar ham xatardan o'tib oldik", degan fikr kechdi. Salotin ham otasining o'ziga kelganini ko'rib, bir burchakda qunishib o'tirganicha Mahmudga minnatdorchilik bilan tikilar, go'yo Mahmudning ko'nglidan kechayotgan fikrlarni uqib turgandek, rizolik alomati ila bosh silkib qo'yardi.

Mahmud tag'in o'ziga yarim stakan aroq suzdi, tovuqning sonini oldiga tortib, kaftlarini bir-biriga ishqaganicha, bu safar shoshmasdan, ko'ngli ag'darilib kelishidan tashvish tortmay, emin-erkin ko'tardi, aroqni qultillatib ichib bo'lgach, ishtaha bilan tovuq yeyishga tushdi. Og'zidagi luqmani chaynar ekan:

– Salotin, – dedi. – Moshuning nomiga qasam ichamanki, men ham qayta tirildim. Sizning xonadoningizning xayr-u barakoti, Xudo haqqi, butunlay boshqacha. Chunki bunda hamma narsa halol...

Mahmud qirq besh yillik umrida, aqlini taniganidan beri necha bor sinagan ediki, hamisha biron-bir voqea ro'y berganida, to'g'rirog'i, insonni bezovta qiladigan, uni jahl otiga mindiradigan hodisalar sodir bo'lganida, ko'pincha bu voqea-hodisalar, shubhasiz, osudalik bilan yakun topar edi. Bu osudalik hamisha shodlik, baxtiyorlik degani emas edi, albatta. Bu osudalik, uning fikricha, nimaningdir intihosi, nimaningdir hududi edi. Dunyoda har narsaning intihosi, hududi bo'lgani kabi, odamzotga bunday bezovtalik, tahlika olib keladigan voqea-hodisalarning ham oqibat-natijada bir intihosi, hududi bo'lar edi.

Kur toshishidan ilgari butun jamoat – kattadan tortib kichik – hamma (buni Mahmud juda ko'p ko'rgan edi) bezovta yotib, bezovta turardi. Xaloyiq, barcha narsa o'z joyidami, Xudoning bu balosi qishloqni yer yuzidan yuvib tashlamabdimi, balki bu toshqin eng so'nggi toshqindir, bundan boshqasini ko'rish bizga nasib etmagandir, degan vahima bilan bog'-u chorvoqqa qo'rqa-pisa tikilar, ammo yana hamma narsa o'z maromiga tushardi: Kur o'z

sohillaridan toshib chiqar, qirg'oqqa yaqin hovlilarning devorlarini, ekin-tikin, bog'-u rog'ini yuvib ketar, shu bilan hammasi tugardi. Mahmud Olloh bandalariga yuborgan azob-aziyatlarning oxirida bir hudud borligini, chumoli iziday uzundan-uzoq jumlaning ham oxiriga nuqta qo'yilgani kabi, bu azob-uqubatlarga, dunyoning ko'pdan-ko'p hodisotlariga oxir-oqibat nuqta qo'yilishini, hammasi yo u yoqlik, yo bu yoqlik bo'lishini yaxshi bilardi. Agar dunyoda hudud degan narsa bo'lmasa, ehtimol arz-u zaminda na o't bitardi, na daraxt, na biron-bir hasharot yashardi, na inson. Chunki hudud degan narsa bo'lmasa, yaralgan zahotiyoq barcha maxluqotning yuragi yorilib, halok bo'lardi.

Shukurlarkim, bugun ham yomon bo'lmadi, hammasi osudalik bilan tugadi. Aksincha bo'lganida, agar Mahmud tunning ushbu mahalida bundoq havoda bu yerga kelib, Zulfiqor otaning dardiga biron chora topa olmaganida, ehtimol, na ushbu kecha tinch-osuda uxlay olar, na qolgan kechalardan rohat-farog'at topa olardi.

Zulfiqor ota yotgan xona bilan yonma-yon mehmonxonada, yig'ma divan ustiga Mahmud uchun joy hozirlandi... Mahmud bu xonadonga yuz martalab mehmon bo'lgan edi. Bundan besh-o'n yil ilgari rayon markazidan, Bokuning o'zidan Zulfiqor otaning mo'tabar mehmonlari kelishganida o'tirishlar, Zulfiqor otaning o'zi aytganidek, "bazmi jamshid"lar shu xonada tashkil qilinar – hovlida gulxan yoqilib, hozirgina so'yilgan qo'chqor go'shtidan kaboblar pishirilar, zo'g'ol arog'i, tut arog'i ikkovlon-uchovlonga bir shishadan dasturxonga tortilar, yog'i oqib, jizillab turgan kaboblar sixi bilan olib kelinar, xonaning o'rtasida, kattakon gilam uzra qo'yilgan keng xontaxtaning ustida dekchadan toshgan sut kabi noz-ne'matlar oshib-toshib ketardi; ketma-ket qadah so'zlari aytilar, hazil-huzullar yangrar, nihoyat, mehmonlarning a'zoyi badanini yondirib yuborayotgan aroqning hovrini tushiradigan go'jaga navbat yetganida, pastda kabob tayyorlash uchun kuymanib yurgan Temir totorni chaqirib, stolning bir chetiga o'tqazardilar-da, aroq ichirardilar. Mehmonlardan biri cho'ntagini kovlab, yo yigirma beshtalik, yo elliktalik chiqarib Temirga berar, u esa bolalikdan eslab qolgan totorcha qo'shiqlardan birini chinqiroq ovozda, kuchanganidan ko'zlariga yosh qalqib ayta boshlardi. Temir totorning

og‘zidan chiqayotgan so‘zlar dasturxon atrofida o‘tirganlarni shu holga solardiki, qaldiroqdek kulgu sadolaridan xonaning devorlari qulab tushmasaydi, deb o‘ylardi kishi...

Bu xonaning barcha jihozlari, gilam-u ustunlari, kattakon derazalaridagi qizil pardalari, qisqasi, hamma-hammasi uzoq yillardan beri avvalgi holicha qolgan edi. Faqat divanning ustida devorga ilingan Stalinning surati yo‘q edi. Salotinning Mahmudga aytishicha, bundan uch-to‘rt yil ilgari, kunlarning birida Zulfiqor ota yarim tunda bu xonaga kirib chiroqni yoqqan, suratga biroz tikilib turgan, so‘ng jimgina, hech kimga hech narsa demay, uni devordan ko‘chirib olgan, quyidagi qorong‘i xonalardan biriga olib tushib, bir burchakka yuzini devorga qaratib qo‘ygan ekan. Endilikda o‘sha surat o‘rnida Zulfiqor otaning ko‘kragi ordenlar bilan to‘la harbiy gimnastyorkada tushgan sûrati osilib turardi.

Ana shunaqa gaplar, qurboni bo‘laver shaytonga ishton tikkan bunday dunyoning!

Mahmudning suyaklari qiziy boshladi; zaharni zahar kesadi, deydilar: u ham bu namxush havoning suyak-suyagidan o‘tib ketgan, a’zoyi badanini uvishtirib qo‘ygan rutubatini boya Salotin keltirgan aroq bilan quvib yuborgan edi. U o‘ng qo‘lini boshi ostiga bukib qo‘yganicha shiftga tikilib yotar, tashqaridan tushayotgan tund yog‘du shiftni yog‘ish arafasidagi bo‘zimtir samoga mengzatib qo‘ygan edi. Mahmud hozir bu uyda hamma – Salotin, Moshu, Zulfiqor ota shirin uxlab yotganini bilardi... Chunki vaqt allamahal bo‘lib qolgan, butun jamoat uyquga ketgan bir payt edi; bu yerning jamoati ming, million yillardan beri o‘rganib, odatlanib qolgan: kun botib, qushlar sasi tinishi bilanoq hamma ko‘rpa-to‘shagiga kirib, kalima o‘girganicha ko‘zlarini yumar, minglab daf’a ko‘z ochib ko‘rgani saharga yetish, yangi tongni qarshilash umidida uyquga ketar edi.

Mahmud jilmaydi: odamzodning tunda ko‘rgan tushlaridan butun boshli kitob yozsa bo‘ladi!.. Ammo Zulfiqor otaning alahsirashga o‘xshagan tushlaridan Xudo saqlasin. Mahmudning bunaqangi narsalarga tobi yo‘q, hamisha bunaqangi narsalardan gap ochilsa, uning asablari o‘ynay boshlar, shu qadar jahli chiqib ketardiki, o‘zini qo‘ygani joy topa olmay qolardi. O‘lik ham tushga kiradimi, hoy yaxshilar?! Uryadnik voqeasini negadir u sira unuta olmas, boyadan beri bu voqea uni hol-joniga qo‘ymasdi.

Salotin o'zi keltirgan noz-ne'matlarning qolgan-qutganini yig'ishtirib pastga olib ketganidan so'ng Zulfiqor amaki Mahmudga batafsil gapirib bergan o'sha uryadnik voqeasining vahimasimi, azobimi – buni Mahmudning o'zi ham bilmasdi – hech miyasidan chiqib ketmas, o'sha manzara ko'z o'ngida qayta-qayta jonlanar edi. Har holda, bu juda g'alati bir voqea, kajraftor bir tarix edi. Zulfiqor ota zo'g'ol arog'idan yarim stakan otib olib, biroz o'ziga kelgan bo'lsada, biroq nimadandir iztirobga tushib, dumaloq, qip-qizarib ketgan ko'zlarini Mahmudga tikkanicha, mayin, uzuq-yuluq ovozda o'sha olis o'tmishda qolib ketgan voqeani ikkinchimi yoki uchinchi marta qayta so'zlay boshlagani Mahmudning yodiga tushdi.

Bu voqeani takror-takror eshitar ekan, Mahmudning asablari chatnab ketgan, Salotinga qo'shilib uryadnikning go'riga g'isht qalagan, nihoyat, u, "He, katta xolangni!..", deya Zulfiqor amakining so'zini bo'lib, o'sha uryadnik degani kimga nima yomonlik qilgan ediki, sho'rlikni so'rab-surishtirmasdan otib tashlading, deb so'ragan edi. Zulfiqor ota biroz sukutga ketib, peshanasini tirishtirganicha Mahmudga lol-u hayron tikilib qolgan, so'ng chiyildoq bir ovozda: "Tovarish Salaxov, budet sdelano!" – degan, ma'nosini hech kim tushunmaydigan bu g'alati so'zlarni aytib bo'lishi bilanoq qahqaha tortib yuborgan edi. Voy sening faloningdan-ey, shaytonga ishton tikkan bunaqangi dunyo!..

Mahmud ko'zlarini yumdi, u devor ortidan so'nggi marta eshitgan sas – Zulfiqor otaning tortgan ohi bo'ldi. Ota uyqusida shunaqangi bir oh urdiki, Mahmudning a'zoyi badaniga qaytadan titroq kirdi, bir xayoli, bemordan xabar olmoqchi bo'ldi, biroq qattiq toliqqanidan ko'zlarini ocha bilmadi...

Zulfiqor ota ikkinchi marta oh chekkanida Mahmud hech narsani eshitmay qo'ygan edi... Zulfiqor ota ko'zlarini ochdi, yuztuban yotgan holda ko'rpa ostidan qornini qashladi, ammo xuddi shu daqiqada bir sas eshitildiki, bu sasdan u na titradi, na qo'rquvga tushdi. O'rnidan turib o'tirdi. O'zi yotgan xonaning ensiz derazasi ortidan kelgan ovoz unga ham bir qadar tanish, ham begona edi. Kim bo'ldiykin bu kelgan?..

U chidab turolmadi, karavotdan tushib kovushlarini kiydi, oq ko'ylak-ishtonda asta-sekin deraza oldiga borib, tashqariga qaradi.

Hovlidagi tutning ostida bir sharpa ko'rdi, ammo bu sharpaning kimligini taniy olmadi. Ko'k gumbazining qoq o'rtasidagi oy xuddi quyosh kabi porlar, havoda bulutdan asar ham yo'q, biroq sharpaning yuzi ko'rinmasdi. Chol avval karavotning yonida – yerda yotgan qizi Salotinni turg'izmoqchi bo'ldi, ammo negadir bu fikridan voz kechdi, yuragining zarblarini tinglagan ko'yi ilkis bir harakat bilan shosha-pisha derazani lang ochib, boshini tashqariga chiqardi va ovozining o'ktamligidan o'zi ham taajjubga tushib, sharpadan so'radi:

– Kimsan, hoy birodar?

– Menman, Zulfiqor, Saricha o'g'li Muhammadman.

Agar Zulfiqor otadan, umringning qaysi paytida, qaysi daqiqalarida chin ma'noda baxtiyor bo'lgansan, azob-aziyatlardan, dard-g'amlardan, afsus-nadomatlardan mutlaq xalos bo'lib, o'zingni qachon arsh-u a'loda his etgansan, deb so'rasalar, u hech ikkilanmay, o'ylab o'tirmay, hozir, manavi derazani ochib, kim kelganini so'ragan daqiqalarimda, Saricha o'g'li Muhammadning ovozini eshitgan daqiqalarimda, deb javob bergan bo'lur edi. Go'yo Zulfiqor otaga dunyoni baxsh etganday bo'ldilar, go'yo Zulfiqor otaning qo'lidan dunyoni oldilar: tog'lar, daralar, o'rmonlar, yo'rgakda eshitgani quyosh shu'lasi yanglig' iliq alla, bola-chaqa mehri, xonadonga, el-yurtga bog'lab turgan rishta – hamma-hammasi Saricha o'g'li Muhammadning otini tilga olgan zahoti, uning ovozini eshitgan zahoti Zulfiqor otaning qo'lidan ketdi va ayni zamonda qo'lidan ketgan narsalarning hammasi hozirgacha u to'ymagan, idrok etmagan yangicha bir yurak zarblari kabi, tomirlarida gupurgan yangi qon kabi qayta uyg'ondi. Bergan kuningga shukur, yo Tangrim!

– Boryapman, dardingni olay, boryapman! – Zulfiqor ota qariyb baqirib yubordi. Biroq uyda hech kim uyg'onmadi, hatto egasining yo'taliga ham hurib beradigan hovlidagi it-da damini chiqarmadi, faqat ko'k gumbazining qoq o'rtasida quyosh kabi porlayotgan oy shu'lalari kuchayib borardi. Bu shu'la Zulfiqor otaning ko'zlarini to'ldirib, ichiga oqdi, yuragidagi muzlarni eritib yubordi.

– Hozir, dardingni olay, boryapman, – deya Zulfiqor ota yig'ladi, yomon yig'ladi. Shoshganicha ortiga qaytib, yuztuban yotgan qizi Salotinga boqdi, ammo bu ayol kimligini tanimadi, xonaga nazar soldi, karavotga tikildi, harchand urinsa-da, qayerda tur-

ganini anglay olmadi. Shu alpozda, oyoqlarida kovush, egnida oppoq ko‘ylak-ishton, eshikni ochib, zinapoya sari yurdi, hovliga tushib, tut daraxti ostiga keldi, ammo Saricha o‘g‘li Muhammad u yerda yo‘q edi.

– Men bundaman, Zulfiqor, bu yoqqa tush!

– Boryapman, dardingni olay, – Zulfiqor ota darvozani ochib, hovlidan chiqdi. Kurning sohiliga yetganda to‘xtab qoldi.

Saricha o‘g‘li Muhammad quyida, oy shu’lasi kumush rangga bo‘yagan cho‘ng toshlar orasida turardi. Kurning qovjirab, qop-qora arqonlarga o‘xshab qolgan o‘t-o‘lanlari, yo‘sinlari toshlar, qoyalar ustida uyilib yotardi.

Zulfiqor ota so‘radi:

– I-ye, Kurning suvi qani, axir?

Saricha o‘g‘li Muhammad kuldi:

– Qanaqa suv, baraka topkur, suv qolibdimi endi?.. Tez bo‘l, paysallama, manzilimiz juda olis.

– Boryapman, dardingni olay, boryapman, – deya Zulfiqor ota chaqqonlik bilan, xuddi zinapoyalardan tushayotgani kabi, toshlar, qoyalar orasidan quyi enib, Saricha o‘g‘li Muhammadning yoniga, Kurning qurib qolgan o‘zaniga tushdi. Saricha o‘g‘li Muhammadga yuzma-yuz turib, diqqat bilan unga tikildi, ammo tag‘in uning yuzini tuzukroq ko‘ra olmadi, nigohlari uning qorniga borib to‘xtadi. Qonli Chanoqda u beshotarini Saricha o‘g‘li Muhammadning qorniga bo‘shatgan edi: endi o‘sha yerda o‘pqonday bir teshik bo‘lib, uning ichi tuproqqa to‘lib qolgan edi. Zulfiqor ota xo‘rsinib, hazin ovozda so‘radi:

– Og‘riydimi?

– Endi og‘rig‘i qolibdimi? – deya Saricha o‘g‘li Muhammad qo‘llarini cho‘zib, Zulfiqor otaning bilagidan ushladi:

– O‘liming muborak, Zulfiqor.

– O‘lim barhaq, Saricha o‘g‘li Muhammad.

– Ketdikmi?

– Ketdik.

Ikki sharpa qo‘lni qo‘lga berib, toshlar ustidan Kurning qurib taram-taram yorilib yotgan o‘zani bo‘ylab shimol tomondagi olis tog‘lar sari yurib ketdi. Ulardan biroz oldinda ikki qizaloq – ik-

kalasining ham yelkalariga sochilib yotgan oppoq sochlari harir parda kabi yellanar, ikkalasi ham etagi uzun ko‘ylak kiyib olgan, ikkalasining ham tovonlari taram-taram yorilib ketgan edi – xuddi Zulfiqor bilan Saricha o‘g‘li Muhammad kabi qo‘lni qo‘lga berib o‘sha tomonga borar edilar.

– Senikilarmi, hoy Muhammad? – so‘radi Zulfiqor ota.

– Ha.

– Axir...

– Sen meni otganingdan ikki oy keyin ular ham xazon bo‘ldilar.

– Kuydim, kul bo‘ldim, ey tog‘lar!

– Birining oti – Qaranfil, ikkinchisi – Yosuman.

Zulfiqor ota Saricha o‘g‘li Muhammadning qo‘lini qattiq-qattiq siqib qo‘ydi.

So‘ngra Kurning qurib qolgan o‘zanidan borayotgan bu ikki sharpa yuksak bir qoyaning boshida turgan uchinchi sharpani ko‘rdi. Qoya boshida turgan temir dubulg‘ali sarbozning kuragi o‘rtasiga nayza sanchilgan, jarohatidan oqqan qon atrofdagi toshlarning ustiga yoyilib ketgan edi. Sarboz ularni ko‘rib, so‘radi:

– Yo‘l bo‘lsin, birodarlar?

Saricha o‘g‘li Muhammad javob berdi:

– Bobo Ko‘ho sari, birodar.

Sarboz ko‘z ochib yumguncha pastga tushib keldi.

– O‘limingiz muborak.

– O‘lim barhaq.

Oldinda Qaranfil bilan Yosuman, orqada Zulfiqor amaki, Saricha o‘g‘li Muhammad va yurishlardan olib kelgan bir tarso qiz tufayli o‘z tug‘ishgan akasi kuragiga sanchgan nayzadan halok bo‘lgan sarboz bir-birlariga lom-mim demay asta-sekin Bobo Ko‘ho sari chiqib borardilar.

Oy ko‘k gumbazining qoq o‘rtasida porlab turar, Kurning qurib qolgan o‘zanida toshlar oy shu’lasidan o‘t olib yonib yotardi...

* * *

Tongda Zulfiqor otaning jasadini Kurning sohilidan, u osuda, qayg‘usiz kunlarida bemalol, qalyonini tutata-tutata, xirgoyi qilganicha ba’zan soatlab daryoni tomosha qilib o‘tiradigan yassi

toshning yonidan topdilar. Bu xabarni Mahmudga hammadan erta uyg'ongan Temir totor yetkazdi: Temir tong qorong'usida turib, esnay-esnay, kerisha-kerisha, tomirlari shishib, lo'qillab ketayotgan chakkalarini uqalaganicha – o'tgan kungi tut arog'idan beri boshi zilday og'ir edi – ham sovuq suvda yaxshilab yuvinib o'ziga kelish, ham qayig'iga bir qur nazar tashlash uchun Kur sohiliga tushgan edi, chunki bir piyola choy ichib olgach, yo'lga tushishi, Mahmudni uyiga eltib qo'yishi lozim edi. Uzoqda oppoq ko'ylak-ishtonda nam tuproq ustida yuztuban yotgan kimsani ko'rgan zahoti Temir totor bu sho'rlik banda Zulfiqor ota ekanligini angladi. Temir mushukning big'illashiga o'xshash bir nido chekib, ikki qo'lini tizzalariga urdi-yu, ortiga burildi, yugurganicha hovliga kirib keldi, ko'z ochib-yumguncha zinapoyalardan ko'tarilib, murdadek qotib yotgan Salotinni uyg'otmasdan, Mahmud yotgan xonaga otilib kirdi.

Mahmud qanday turib, qanday kiyinganini, Temir totor bilan qanday uydan chiqib, Kur sohiliga qanday yetib borganini o'zi ham bilmaydi. Egilib, yuztuban yotgan jasadni o'ngladi, bilagiga yopishib, tomirini ushlab ko'rdi, aqldan ozib qolgan kishi singari boshini tebrata-tebrata Zulfiqor otaning ochiq qolgan ko'zlariga tikildi. Temir totor bukilib, qo'llarini tizzasiga tiragan ko'yi, jag'lari titrab, Mahmudga sabrsizlik bilan boqar, go'yo undan favqulodda bir mo'jiza kutardi. Mahmud esa qo'rquvga tushgan, tepa sochi tikka bo'lib ketgan, a'zoyi badanini sovuq ter bosgan edi. U darhol qo'llarini cho'zib Zulfiqor otaning ko'zlarini yumib qo'ydi, Xudo haqqi, shunday qilmaganida ehtimol chindan ham u aqldan ozib qolardi: Mahmud bu ko'zlarda har biri olmadek keladigan yulduz ko'rgan bo'lib, ular xuddi muz parchasi kabi yaltirar edi. Mahmudning bo'g'zidan xirildoq bir tovush chiqdi:

– Yo Rabbim, o'zing madadkor bo'l!

– Mahmud, balki hali jon bermagandir?

– Bas qil, hoy! – Mahmudning tovushi battar xirillab chiqdi. – Jon bergan, allaqachon tamom bo'lgan. Tarashaday qotib qolibdi... Joying jannatda bo'lsin, Zulfiqor ota!

Oradan biroz o'tgach Salotinning uyquli, bo'g'iq ovozi olamni tutdi:

– Yetim boshim, vo-o-oy!..

...Bu yerda, Kur sohilidagi ushbu qadimiy qishloqda navbatdagi motam marosimi ana shunday boshlandi. Zudlik bilan rayon markaziga qo'ng'iroq qilib, bu xabarni ma'sul o'rtoqlarga yetkazsin deya Moshuni pochtaga jo'natdilar. Hazili yo'q, bu muzofotning, bu yurtning keksa bolsheviklaridan biri, ehtimol, eng oxirgisi qazo qilgan va buni kerakli o'rtoqlar albatta bilishi lozim edi. Salotinning qistovi bilan Temir totor qo'shni shia qishlog'iga mulla olib kelgani ketdi: mullani kelgan-ketgan ko'rmasligi uchun pastdagi xonalarning biriga joylashtirishni, u o'sha xilvatda past ovozda Qur'onu Yosin o'qishini Mahmud bilan kelishib oldilar. Chunki Zulfiqor ota keksa bolshevik sanalsa-da, yoshligida atrofdagi masjidlarni bekitib qo'yish bilan nom chiqargan bo'lsa-da, hamisha gapini Ollohdan boshlab, Olloh bilan tugatar edi.

Bu xabar juda tez tarqaldi: Zulfiqor otaning jasadini Kur sohilidan uyga olib kelgunga qadar hovli qishloqning katta-kichigi bilan to'lib ketdi: Salotinga, Moshuga, hatto Mahmudning o'ziga ham hamdardlik bildirdilar, taskin-tasalli berdilar, neki aytish lozim bo'lsa, hammasini aytdilar. Keldi-ketdi siyraklashgach, jasadni Berzin qishlog'idagi yagona masjidda yuvib keltirib, Mahmud tunab qolgan mehmonxonadagi kattakon stol ustiga yuzini qiblaga qaratib yotqizganlaridan keyin bu marosim ishtirokchilaridan uch kishi – Mahmud, Temir va Moshu sekin uyning orqa tomonidagi xilvatga, qalin daraxtlar orasiga o'tishdi. Mahmud negadir asabiylashib Moshuga:

– Bor, anavi aroqlardan bittasini olib kel, ammo hazir bo'l, hech kim ko'rmasin, – dedi.

Moshu borib bir aroq o'rniga ikkitasini, kechadan qolgan yaxna tovuq va pishloq, ko'katlar o'ralgan kichkina tuguncha ko'tarib keldi. Shimining kissasidan ikkita stakan ham chiqardi.

Mahmud boshini ko'tarib, suv tortib kurtak yoza boshlagan ulkan daraxtlarning shoxlari orasidan ko'kka boqdi: qo'rg'oshin tusli samo bor zalvori bilan uning yelkalaridan bosgan kabi umurtqalari zirqirab, boshi yengilgina aylana boshladi. "Yo qudratingdan, bunisi tag'in nima bo'ldi?" – deya o'yladi u. Mahmud hamon o'ziga kela olmagan edi: boya Zulfiqor otaning ko'zlaridagi yulduzni aniq-ravshan ko'rgan, bunga shak-shubha yo'q edi. Xo'sh, buni kimga

aytsin, qanday qilib aytsin? Hoy bola, otingni do‘xtir deydilar, bor, miyangga bir duo yozdirib ol, deya birinchi bo‘lib Temir totor masxara qilmaydimi uni? Astag‘furulloh, boshim qotib qoldi!..

– Hoy Temir, quy!

– Hozir, dardingni olay, hozir! – Temir shu qadar yumshagan, shu qadar some bo‘lib qolgan ediki, go‘yo bir imo qilinsa, dum chiqarib likillatishga ham tayyor edi.

Temir ikki stakanga yarimlatib aroq quydi, o‘zi uchun bir burda non sindirib oldi. Har ikkisi – Mahmud ham, Temir ham stakanlarni bir ko‘tarishda bo‘shatdilar. Moshu bir chekkada ularga tikilib o‘tirardi.

– Xudo rahmat qilsin otani! – dedi Mahmud.

Temir ham unga qo‘shildi:

– Go‘ri nurga to‘lsin... Hey attang...

Moshu sassiz-sadosiz yig‘ladi. Mahmud qoshlarini chimirib unga ta’naomuz boqdi va bosh tebratib:

– Hoy bola, qo‘y endi... – dedi. – Kap-katta yigitsan, erkak kishi ham yig‘laydimi? – Ammo uning o‘zi ham qalqib ketdi, tomog‘iga tiqilgan faryodni zo‘rg‘a ichiga yutdi.

Temir og‘zidagi luqmani tishi to‘kilib bo‘lgan keksalar kabi zo‘rg‘a chaynar erkan, Mahmudga boqib:

– Tushim o‘ng chiqdi, Mahmud! – dedi.

– Qanaqa tush tag‘in?.. Qo‘y, tinchgina o‘tiraylik, Xudo xayringni bersin! – dedi. U “tush” so‘zidan bezillab qolgan edi.

– Ha, bo‘pti! – Temir totor bosh silkidi, ammo jim bo‘lmadi, aroqning ta’siridanmi, yo boya kechasi o‘zi tunagan xonaning bir kunjiga bekinib olib yuragi bo‘shaguncha yig‘laganidanmi, qizargan ko‘zlarini Mahmudga tikib davom etdi. – Bu kecha, iloyo oxiri baxayr bo‘lsin, alg‘ov-dalg‘ov tushlar ko‘rib chiqdim... Tushim o‘ng chiqar ekan-da.

Mahmud tag‘in unga ters-ters boqib:

– Xo‘sh, notavon, sen ham tushingda uryadnikni ko‘rdingmi? – dedi.

– Yo‘q, bo‘rini ko‘rdim.

Mahmud ko‘z qirini tashlab, Moshuning jilmayganini ko‘rdi, o‘zining ham og‘zining tanobi qochdi.

– Xo‘sh, seni yedimi bo‘ri?

Temir totor bu gapga parvo qilmay, stakanlarga yangidan aroq suzib, bittasini Mahmudga uzatdi.

Mahmud, aftini burishtirsa-da, aroqni oldi. Ichishdi.

– Qarasam, hoy Mahmud, o‘zimizning Qorayoziq kabi bir o‘rmonda emishman. Xudo haqqi, rost. Qarasam, bir qo‘tir bo‘ri, kinolarda ko‘rsatadigan qalqonlar bor-ku, o‘shalardan birining ustida cho‘nqayib o‘tirganicha men tomonga boqar emish, ko‘zlarida esa, o‘lay agar, katta-katta yulduzlar yonar emish...

Mahmud cho‘nqayib o‘tirib, tirsaklarini tizzalariga qo‘yganicha boshini changalladi, biroq hech narsa demadi.

Zulfiqor otaning uyidan tag‘in yig‘i-sig‘i eshtildi. Moshu qayrilib, qo‘rqa-pisa yig‘i kelayotgan tomonga boqdi. Mahmud boshini ko‘tardi.

– Temir, u aroqniyam och... Quy, hoy yetim, quy, ichaylik, zora dardimiz sal yengillashsa.

* * *

Yolg‘iz men emasman tushlarga ishonadigan. Har holda, juda ko‘pchilik ishonadi, ammo bundan gap ochilganda xuddi o‘zlarini ishonmaydigandek tutishadi, ya’ni tushni ham, ro‘yoni ham aniq-ravshan izohlanadigan masalalar deb hisoblaydilar, yo bo‘lmasam tan olishga uyaladilar. Esimda, avvallari uyalib-netib o‘tirmasdilar... Ammo men bo‘ynimga olamanki, tushga ilgari ham ishonar edim, hozir ham ishonaman – harqalay, e’tirof etishim lozim – ilgari juda qattiq ishonardim, chunki u paytlar umidlarim ham juda ko‘p edi. Umid bilan tush esa xuddi siyom egizaklariga o‘xshaydi – biri o‘lsa, ikkinchisi ham tirik qolmaydi.

Buvim, suv – oydinlik, ot – janjal-to‘polon, ilon – mol-dunyo, der edi. Qolganlari yodimdan chiqqan. Buvim mening tushlarimni, faqat menikinigina emas, barcha qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnilarning tushlarini teskari talqin etardi. Uning yoniga kelib, mayda chuydalardan gapirib o‘tirishgach, qarabsanki, har qaysisi o‘z tushini ayta boshlardi. Buvim diqqat bilan eshitar, so‘ngra, aftidan, ularning yuragiga vahima solmaslik, jahlini chiqarmaslik, umidlaridan ayirmaslik uchun tushlarini teskari talqin qila boshlardi. Bizning

xonadondan hech kim norozi, xayr-duosiz chiqib ketmasdi. Xususan, urush yillari tushlarni teskari talqin etish odatiy bir hol edi.

Bir ola mushugimiz bo'lguvchi edi, u buvimning ovozini eshitgan zahoti yugurib kelib, uning oldida turib olganicha palosni tirnay boshlardi. Hamon shu ikki sas quloqlarim ostida yangraydi: payg'ambarlik qilayotgan buvimning horg'in, bezovta ovozi va mushuk tirnoqlarining sasi.

Bolalikdan tush ko'rishga odatlangan edim. Hozir ham har kecha to'shakka kirib, ko'rpani ustimga tortishim bilanoq – shaytonning qulog'i kar bo'lsin – bu kecha albatta tush ko'raman deya o'zimni tilsimlayman va chindan ham tush ko'raman... Albatta, ertalab xotinimga bu tushni aytmayman. Tush ko'rishga-ku ko'raman, ammo shuni ham unutmaslik kerakki, har tunning bir tongi bor, uyg'onib, ko'z ochadigan daqiqalaring bor.

Tongda, olato'ronlikda to'shak uzra qimirlamasdan, mushtlaringni mahkam qisib, ko'zlaringni bir nuqtaga qadagancha tushingni bir-bir eslay boshlaysan. Uzun zinapoyaning quyisiga suyangan ko'yi yuqoriga tikilib turganing yodingga tushadi. U yerda, yuqorida bir shu'la porlardi. Har bir kishining tushida ko'rinadigan o'z betakror shu'lasi bo'ladi. Mening shu'lam tumanli kunda zo'rg'a, qizarib-bo'zarib yongan fonus shu'lasiga o'xshaydi...

Hech qachon bu shu'la yuzini ko'rmagan, uning ovozini eshitmagan bo'lsang-da, aminsanki, u albatta ko'rinadi, chunki boshqacha bo'lishi mumkin emas – shu'la bekor-behuda yonmaydi, axir, u nigoronchilikka, intizorlikka chek qo'yish uchun, senga bir lahzalik musaffo nafas berish uchun albatta kelishi shart...

Kelib zinapoyaning tepasida to'xtaydi, quyiga boqadi, seni ko'rib, yuzida taajjub, ko'zlarida hayrat, sekin pastga tusha boshlaydi. Sen ham asta-sekin yuqoriga ko'tarilasan, zinapoyaning o'rtasida ro'baro' kelasiz. Uning uzun, tong shabnamining hidi anqib turgan oppoq sochlarini silaysan, yuzingni iliq ko'kraklariga bosasan, so'ng ko'zlaridan o'pa boshlaysan. Shundan keyin esa yuraging nimanidir sezadi, lablaringni zo'rg'a ochib, faqat bitta so'zni ayta olasan: ketma... Vassalom. So'ng yolg'iz qolasan, o'sha zaif shu'laning sarg'ish, bo'zimtir, qizg'ish tumani og'ushida toq-tanho. Agar dunyoda ming xil tanholik bo'lsa, bu tanholik ming birinchisi bo'ladi.

Turib oshxonaga borasan, jo'mrakni ochib, bir piyola sovuq suvni bir nafasda ichib tugatasan. Tamom-vassalom. Qaytib to'shakka cho'zilganingdan so'ng, Xudoga ishonmasang-da, koshki o'sha tushning davomini, hech bo'lmasa, o'shaning o'zini takror ko'rsaydim, deya Yaratganga yolvora boshlaysan. Ammo ko'zing uyquga ketgach, endi hech narsani ko'rmaysan, balki tushingda ilon, kaltakesaklarni ko'rarsan – bu esa hisobga kirmaydi. Yana bir karra tamom-vassalom.

Men bir narsaga mutloq aminmanki, besh yilmi, o'n yilmi, boringki, rosa ellik yilmi keyin – bu toleyingga bog'liq – umr bo'yi ko'rgan tushlaring bir-bir orqaga qayta boshlaydi. Buni men bir necha daf'a sinaganman. Kunlarning birida, ertalab uyqudan uyg'onasan, qarabsanki, sababsiz, o'z-o'zidan bolaligingning yoki yigitligingda bo'lib o'tgan bir voqea yodingga tushib ketadi, butunlay unutganing, yillarning zulmatli og'ushida erib yo'q bo'lib ketgan bir hodisa, bir nigoh, bir sas, bir so'zni aniq-ravshan xotirlaysan. Shunda tag'in kechasi tushingda tarvuz yeganing, kimningdir ovozini eshtiganing esingga keladi, demak, miyangda qulflog'liq yotgan eshiklardan birini ochgan ham ana shu tarvuzning ta'mi, eshitganing ana shu sas ekan. Mening eng sevgan narsam – ana shu qabildagi tushlar. Oramizdagi o'zaro gap, o'tmishga qaytishni, yangidan yashashni kim ham orzu qilmaydi deysiz?..

Hovlimizda, bir mayka va ishtonchada, oyoqyalang, boshyalang, qo'limdagi nordon olmani kars-kars tishlab Sayfulla amakini kuzataman. Sayfulla amaki kun bo'yi hovlimizni, binomizning atrofini supuradi, oqshomgacha tinmaydi, hali qorong'ulik tushmagan bir paytda, oq peshbandini yechib, qasmoq bog'lab qorayib ketgan chelagi bilan uzun cho'ltoq supurgisini yerto'laga yashirib, urush tugagandan bir oy keyin olgan "Kavkaz mudofaasi uchun" medalini ko'kragiga taqib oladi-da, yerga tikilganicha muyulishdagi do'konga yo'l oladi. Bir shisha shirin vino, bir parcha pishloq olib ortiga qaytadi, hali tarqalib ketmay, hovlining bir burchida turgan biz bolalarni ko'rib, yo'g'on barmog'ini nuqib, po'pisa ohangida: "Hoy tirranchalar, tarqalinglar-da endi uy-uylaringga!", – deydi. Biz esa bu so'zlarga parvo ham qilmay, turgan yerimizdan qimirlamay, bir-birimizga ko'z qisib, imo-ishoralar qilgancha maroq bilan uni

kuzatib turamiz. Chunki Sayfulla amaki qil ko'prik kabi omonat, toshlari ko'chib yotgan zinapoyadan ikkinchi qavatga ko'tarilib, temir eshikka kirib ketganidan rosa yarim soat keyin uning baland, yoniq ovozi eshitilardi: Sayfulla amaki yoqimli bir ovoz bilan segoh ohangida tog'lar, daralar, soylar haqida kuylay boshlardi...

So'ngra atrof tundlashib, derazalarga quyoshning so'nggi zaif shu'lalari qizarib tusha boshlagan bir paytda bizning hovliga dumbul bir leytenant kirib kelardi. Kecha boshqa leytenant kelgan, undan avvalgi kuni esa mayor kelgan edi... Leytenant yaltillab turgan qo'njli botinkalarini tapillata-tapillata yonimizdan o'tib ketayotganida bizga bir qirg'iy qarash qilar, hamma narsadan boxabar biz "donishmandlar" esa o'z qadrimizni tushirmay, uning yuziga mensimay tikilishdan ham qaytmasdik. Leytenant Sayfulla amakining zinapoyalari sari yurar, lekin tepaga chiqmay, pastda Zaynabni kutib turardi. Zaynab Sayfulla amakining onadan yetim qolgan yolg'iz qizi, yengsiz chit ko'ylakda, qo'lida "trofey" sumka, Tiq-tiq xonim kabi zinapoyalardan sallamno tushib kelar, hech kimga parvo qilmasdan, go'yo hech kimni tanimaydiganday, darvoza tomon yurardi. Leytenant ham unga ergashardi. Bir ozdan so'ng Sayfulla amakining eshigi tag'in ochilib, bu safar uning o'zi gandiraklaganicha chiqib kelar, qizil burnini torta-torta bizga qichqirib berardi: "Hoy qirilgurlar, hoy falon bo'lgurning qornidan chiqqanlar! Ketsalaring bo'lmaydimi endi xarobalaringga! Nima, teatr ko'rgani kelganmisizlar?!" U tepadan turib ana shunaqangi so'zlarni aytgach, boshini egib yig'lay boshlardi.

Biz esa nuqul kulardik.

Tunda buvim menga yana joy solar, men yana buvimga dori berar, uning qo'llari titrab dori ichishini kuzatar edim, so'ng buvim ham, men ham yotar edik. Tunda tush ko'rar edim. Tushimda Sayfulla amaki zinapoyaning tepasiga suyanib menga tikilardi. Ajabo, Sayfulla amakining ko'zlari benihoya kattarib ketgan, u ko'zlarning har birida bittadan kattakon yulduz yonar, amaki nimalardir deb gapirar, ammo men uning og'zidan chiqayotgan so'zlarning hech birini eshitmas edim. Faqat yig'idan qizargan, kattalashib dum-dumaloq bo'lib qolgan ko'zlarida yongan yulduzlarning shu'lalarinini ko'rardim. Va tag'in qaydadir uzoqlarga guvillab esayotgan sha-

molning bo‘g‘iq, vahimali sasini eshitardim, xolos. Bu qorishiq voqealar orasida nega Sayfulla amaki yo‘g‘on shahodat barmog‘ini o‘ynata-o‘ynata meni yoniga chaqiryapti, deya taajjubga tushardim... Oyning parchalangan bo‘laklariga o‘xshash yulduzlarning shu’lasi tobora kuchayib borar va men olislarda esayotgan izg‘irin shamoldan titray boshlardim.

Kundalik yozadiganlarga ahyonda bir hasadim keladi. Ammo aslida buning hech qanday ahamiyati yo‘q. Chunki inson hech narsani butunlay unutib yubormaydi, zero, har qanday xotiraning o‘z muddati bor: vaqti-soati yetganda miyangning barcha qulflog‘lik eshiklari o‘z-o‘zidan ochilib ketadi. Ammo bu xotiralar qarshisida chidab tura bilmog‘ing lozim. Xotiralar ustingga yopirilib kelganida, qulflog‘liq eshiklardan biri ochilib, bo‘g‘zingdan ichingga erigan qo‘rg‘oshin quyilganida, yuragingga azob-alam chak-chak tomganida yo hushtak chalib, ko‘z qisib o‘zingni anoyilikka solishing, yo qo‘llaringni ko‘tarib taslim bo‘lishing kerak. Boshqa yo‘l yo‘q. Chunki o‘tmish hamisha pistirmada turadi, fursat kelishi bilanoq tepkini bosadi.

Bu o‘qqa uchganda holingga maymunlar yig‘laydi.

O‘lguncha yodingdan chiqmaydi bu...

Bu safar ayb Mahmuddan o‘tdi. Ehtimol u Temir totordan gap ochib meni kuldirmasaydi, Sayfulla amaki mening yodimga tushmas edi. Hozir Zaynab Bokudagi dorixonalardan birida kassir bo‘lib ishlaydi, yoshi ham, adashmasam, oltmishlardan oshib qolgan.

– Zulfiqor otaning qabri ustiga biror narsa qo‘yishdimi?

Mahmud noksimon stakanini doira stol ustiga qo‘ydi, cho‘ntagidan dastro‘mol chiqarib, peshonasini artdi.

– Rahmat, baraka topsin... Salotinni aytyapman. Jitomirdan marmar oldirdi. Usta Avanes shunaqangi ajoyib qabr toshi yasadiki, ko‘rsang payg‘ambarning qabri deysan. Hammasi yaxshi bo‘ldi, birodar, – Mahmud tag‘in stakanni olib, choydan ho‘plaganicha davom etdi. – Sen o‘zingni ehtiyot qil, azizim, hammamizning ko‘zimiz senga tikilgan. Hadeb dori-darmon ichaverma, toza havoga chiq. Sening darmoning – toza havo.

Bemor ko‘zlarini ochdi.

– Xo‘sh, kardiaminus jartes-chi?

Mahmud boshini keyinga tashlab, oppoq tishlarini ko‘rsatib chunon kuldiki, bemor cho‘chib ketdi.

– Go‘ri nurga to‘lsin, – deya Mahmud kaftining orqasi bilan kulgidan yoshlangan ko‘zlarini artdi. – Sho‘rlik ota ana shunaqangi hazillar qila-qila olamdan o‘tdi-ketdi!

Shu payt bemorning xotini, boyadan beri Mahmud keltirgan behini oshxonada archish bilan mashg‘ul bo‘lgan Zamina, egnida uzun xalat, boshida ro‘mol, ichkari kirdi. Xalatning yenglari shimarilgan, barmoqlari orasida, bilaklarida qon dog‘lari bor edi.

– Hoy Mahmud, Xudo haqqi, tez-tez kelib turing. Siz kelganda amakivachchangizning yuragi yoziladi, – dedi u.

Bemor jilmayib Mahmudga ko‘z qisdi.

– Behi olib kelganing uchun shunday deyapti... O‘sha kardiaminus jartesdan bizning xotinga ham urish kerak, vaqti yetdi.

Mahmud qahqaha otdi, bemor ham kuldi, ayni paytda uning yo‘tali tutdi, biroq yo‘tali ancha yumshoqligidan sevindi: quruq yo‘tal oxirgi vaqtlarda ko‘ksini shu qadar og‘ritardiki, ko‘z oldi qorong‘ilashib ketardi.

Zamina erining oyoqlari uchiga, karavot ustiga o‘tirdi, kula-kula, qo‘llarini o‘ynata-o‘ynata Mahmudga nimadir dedi, shunda ma’lum bo‘ldiki, u, Salotindan farqli o‘laroq, “jartes”ning ma’nosini bilar ekan... Mahmud boya bemorga hikoya qilib bergan voqealarni – Zulfiqor ota bilan Salotinning bo‘lmag‘ur narsalar ustida g‘ijillashib qolishlari, Temir totor, uning qayig‘i, Tamara haqida qaytadan Zaminaga gapirib bera boshladi. Bemor ularga quloq solmay qo‘ydi, ko‘zlarini yarim yumganicha, yuzlarida boyagi kulishdan qolgan mas’ud tabassum, chap qo‘lini uzatib, karavot yonidagi g‘aladon ustidan sigaret olib tutatdi, bir-ikki marta yutoqib so‘rganidan keyin o‘zini juda yaxshi his qildi: Zamina haq ekan. Mahmud har safar ularnikiga kelganda go‘yo o‘zi bilan Kur sohillarining sehrli ob-havosini, yengilligini va rohat-farog‘atini olib kelardi. Mahmud ularnikiga kelganda bemorning hayotga ilinji ortar, so‘nggi ikki oyda tez-tez yodiga tushadigan bema’ni voqealar, ta’bini tirriq qiladigan xotiralar, garchi qisqa muddatga bo‘lsa-da, esidan chiqar, navbatini kutib turgan qulflog‘lik eshiklar qulflog‘ligicha qolardi: bu eshiklar go‘yo Mahmudning xayrlashib chiqib ketishini kutardi...

Ammo hozir, sigaretni tutatganicha Mahmud bilan xotinining suhbatiga quloq solmay qo'ygan bemor faqat bir narsa ustida bosh qotirardi: hali Mahmud Zulfiqor otaning o'limi haqida gapira turib bir ismi sharifni tilga oldi, Salohov dedi, shekilli... Odil Falonchiyevich. Balki bu ikkinchi yo'lakdagi Salohovdir. Chunki uning ham yoshi to'qsondan oshib qolgan, yigirma yildan beri hukumatdan faxriy nafaqa olar, oqshom chog'lari xiyobonni aylangani chiqar, aytishlariga qaraganda, hamisha katta vazifalarda ishlab kelgan odam ekan.

Eh, faqat tezroq sog'ayib ketsaydi, hovliga chiqib, qo'shnilardan bu masalani oydinlashtirib olardi. Gap uryadnik voqeasiga ko'chib o'tdi: bemor bu nomni ham qachondir, qaerdadir eshitganiga amin edi, bunga hech shak-shubha yo'q edi. Ammo qayerda eshitgan? Bu safar bemor qanchalik jahd qilmasin, qulflog'lik eshiklardan hech biri ochilmadi. Bu uryadnik ham o'sha qulflog'lik eshiklar ortiga yashirinib, o'z navbatini kutayotganligiga bemor yuz foiz ishonar edi...

Salohovning oriq, uzun gavdasi, sarg'imtil yuzi, biroz qiyshiq og'zi – aytishlariga qaraganda, u bir safar yengilgina falaj bo'lgan ekan – bo'rtib chiqqan yonog'i va mo'g'ullarnikiday qisiq ko'zlari bemorning qarshisida namoyon bo'ldi, ko'z o'ngida Salohovning qiyofasi, nimdosh paltosi, kumush bilan qoplangan qadimiy hassasi xuddi hozir Mahmudni ko'rib turgani kabi aniq-taniq jonlandi. Bemorning yuragi nimanidir sezdi: Xudo haqqi, bu o'sha Salohov bo'lishi kerak!

Mahmud bemorga tikilganicha Zaminadan so'radi:

– Xo'sh, shaharlik do'xtirlaringiz nima deyapti, singlim?

– E, har qaysinisi har narsa deydi. Biri surunkali zotiljam asorati, shuning uchun tez-tez issig'i chiqadi, desa, ikkinchisi zotiljamga kamqonlik ham qo'shilgan deydi. Men tushunmasam! – Ayol qo'l siltadi. – Ammo, Mahmud, o'zlarini hech asramaydilar sizning og'ayningiz, hamma ayb u kishining o'zlarida. Har narsani ko'ngillariga olaveradilar, go'yo butun dunyoning dard-qayg'usi shu kishiga qolgan. Dori yozib berishadi, bu kishi ikki-uch kun ichgach, tashlab yuboradilar.

– Xudo haqqi, to'g'ri qiladi! – Mahmud dumaloq stol ustidagi choynakdan yana o'ziga choy quydi, kallaqandlardan birini og'-

ziga solib, shu qadar kurtillatib chaynay boshladiki, bemorning eti jimirlab ketdi, Mahmud og'zini to'ldirib choyni xo'rillatib, gapida davom etdi: - Menga ishonaver, singlim, bunaqa ishlarda mening tajribam juda katta. Biz tomonlarda professor-mrofessor deganidan nishon ham yo'q. Mana mening o'zim kun bo'yi qishloqma-qishloq yurib, har xil kasallarni ko'raman... Doridan bema'ni narsaning o'zi yo'q, iloji boricha yaqiningizga yo'latmang.

Zamina past ovozda ma'yuslik bilan dedi:

- Dorisiz ham bo'lmaydi-da, axir...

- E-e! Nega bo'lmas ekan, judayam bo'ladi-da! Sen buni yog'u qaymoqqa tut. Men olib kelgan behini yoqqa qovurib ber, yesin. Xudo haqqi, o'n kunda turib ketmasa, men kafil!

Bemor jilmaydi. Mahmudning ko'zi uning sarg'aygan tishlariga tushdi, ko'zlari ostidagi chuqur ajinlarga ichikib tikildi. Bemor shuning uchun jilmaygan ediki, aftidan, yog', qaymoq, qo'yning toza go'shti, dumba degan narsalarni topish masalasidan Mahmudning xabari yo'q. Bemorning qishloqda yashaydigan barcha qarindosh-urug'lari, shahar joyida oz-moz hurmat qozongan kishining pichog'i, shubhasiz, moy ustida bo'ladi, bunday kishi yotib qolganida ham, rahmatlik Zulfiqor ota aytganidek, hamma uning oldida "slushu" deb tayyor turadi, deya o'ylar edilar...

Zamina choyni yangilash uchun xonadan chiqib ketgach, ikkalasi - bemor va Mahmud negadir bir-birlariga sinchkovlik bilan tikilib qoldilar, aftidan, har qaysisi o'z ko'nglida qandaydir zarur bir narsani o'ylardi. Buni Mahmud ham, bemor ham ayni bir paytda his qilishdi: ikkisining ham lablarida hazin bir tabassum jilvalandi, ikkalasi ham go'yo bir-biridan uyaldi. Agar hozir xonada uchinchi bir odam bo'lsa va albatta bu uchinchi odam serfahm bo'lsa edi, bu ikki odamning boqishlaridan juda ko'p narsalarni bilib olardi.

Mahmudning bemor qarindoshiga rahmi kelar, boyadan beri kulib, qiziq-qiziq voqealardan so'zlab, hazil-huzul bilan xonadon egalarining ko'nglini ovlab o'tirgan bo'lsa-da, shu narsaga amin ediki, qarindoshining dardi o'tkichi dardlardan emas, bu qandaydir jiddiy dard, faryod solib olamni oyoqqa turg'azish lozim bo'lgan dard edi. Ammo, tabiiyki, buni Mahmud na bemorning o'ziga ayta olardi, na uning xotiniga. Bunday gaplarni hech kimga aytib

bo‘lmasdi: umidning etaklariga yopishib bir-ikki yil yashashning o‘zi ham katta gap edi. Mahmud bunday vaziyatlarga tushib qolganida, ya’ni yuragi sezgan narsaning haqiqat ekanligiga ishonganida hamisha o‘zini yo‘qotib qo‘yar, qo‘llarini qayerga yashirishni, kimdan imdod tilashni, najot so‘rab kimlarga borishni bilmasdi. Shunday paytlarda faqat Yaratganga yolvorar, ichidan toshib kelayotgan faryod, uning o‘zidan boshqa hech kim eshitmaydigan bir munojot go‘yo miyasini, yuragini, badanining har bir hujayrasini kuydirib yuborar, irodasini mahv etardi. “Yo Tangrim, o‘zing madadkor bo‘l!” Ammo so‘nggi istakning faryodiga Tangri hozirgacha quloq solgani yo‘q edi. Tangrining ko‘zlari ko‘radi, yuragi sezadi, ammo quloqlari eshitmaydi, deb o‘ylardi ba’zida Mahmud. Chunki uning qulog‘i eshitsa, dunyoni milyon-milyon balolardan asrab qolgan bo‘lur edi.

Bemor esa Mahmuddan shuning uchun ham uyalgan, shuning uchun ham uning ko‘zlariga boqa olmas ediki, u yolg‘on gapirishi lozim edi. Mahmudga biron-bir uydirmani vaj qilib, undan pul so‘rashi kerak edi. Chunki uyda hammasi bo‘lib yigirma to‘rt so‘m qolgan, kasallik varaqasi uchun olinadigan maoshga esa hali o‘n besh kun bor edi... Bemor hayajonini bosib, o‘zini jilmayishga majbur etib, Mahmudga dedi:

– Mahmud, keyin esimdan chiqib qolishi mumkin. Aksiga olib, pullarning hammasini omonat kassaga o‘z nomimga qo‘ygan ekanman, bolalar borib olisholmayapti. Yoningda pul bormi? – Bemorning ovozi shu qadar g‘arib chiqdiki, go‘yo qayerdadir mushuk miyovlagandek yoki kuchuk g‘ingshigandek bo‘ldi.

Mahmud o‘rnidan sapchib turdi, qo‘lini shimining orqa kissasiga tiqib, pul chiqardi, ikkita yigirma beshtalikni ajratib cho‘ntagiga soldi, qolganini bemorning yostig‘i ostiga tiqib, sevinch bilan dedi:

– Dardingni olay, besh yuz so‘m. Yetadimi?

Bemor quloqlariga ishonmadi.

– Ko‘p-ku!

– Qo‘ysang-chi, nimasi ko‘p besh yuz so‘mning? – deya chindan taajjublandi Mahmud.

Bemor ko‘zlarida yosh aylanganini his etdi va buni Mahmuddan yashirmadi.

– Yana og‘riyaptimi? – deya tashvishlanib so‘radi Mahmud.

– Ha jinday... Hechqisi yo‘q, hozir o‘tib ketadi... Oyoqqa turishim bilanoq kassadan olib jo‘nataman. – So‘ngra gapini hazilga burdi. – Qazo qilsam, bolalar uzishadi!

– Bas, hoy, Xudo saqlasin!.. Sen g‘irt Zulfiqor buvamga o‘xshaysan, meni aytdi dersan, rosa to‘qson oltiga kirasan! – Mahmud fotiha tortdi. Kursini ilgari surib bemorga yaqin o‘tirdi, yangi choy damlab kelgan Zaminaga ko‘z qirini tashlab dedi:

– Menga qara, hoy Zamina! Xudo haqqi, buning xayol surishiga yo‘l qo‘yma! Ziyolilarning kallasi biroz kirdi-chiqdi bo‘ladi! – Mahmud tag‘in xonani boshiga ko‘tarib qahqaha urdi.

Mahmud odati bo‘yicha yeldek kelib, seldek ketdi. Ketayotganida qarindoshining yuzidan qattiq-qattiq o‘pdi, Zaminaga u-bu maslahat berdi, olib kelgan ko‘katlarining sog‘liqqa katta foydasi borligini ta’kidladi. Zaminanning ham qo‘lidan o‘pib, ushbu xonadonga bir umrlik sihat-salomatlik, xayr-barakot tilab chiqib ketdi: o‘zining aytishicha, kechquringi poyezdga patta olgan, hali shaharda bitirishi lozim bo‘lgan mayda-chuyda ishlari bor ekan. Kelgusi oyning boshlarida tag‘in to‘lib-toshib kelishga va’da berdi. U ketgach, bemor bilan xotini sekin oh chekishdi, kayfiyatlari biroz buzildi, chunki bemorning yonida uch soatcha o‘tirgan Mahmud go‘yo bu uyning havosini, ziyosini, ruhiyatini o‘zgartirib yuborgan edi. Bu xonadonga mo‘jaz bir sevinch, ko‘tarinkilik baxsh etgan edi...

Bemor xotiniga dedi:

– Yostiqning ostiga bir nima suqdi, pul edi, shekilli, qarab ko‘r-chi.

Ayol yostiq ostidan pullarni olib sanab ko‘rdi, kipriklarini pirpiratganicha so‘radi:

– Besh yuz so‘m ekan... Nega berganini aytmadimi?

– Mahmudni bilmaysanmi?! Xudo haqqi, og‘zimni ham ochirmadi.

– Hechqisi yo‘q, asta-sekin uzarmiz.

Bemor bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Yo‘q... U menga bergan pulini sirayam qaytib olmaydi. O‘rniga kastum-pastum sovg‘a qilarmiz. Omonlik bo‘lsa...

Bemor xotinining ko‘zlariga boqib, Mahmud bergan besh yuz so‘m mo‘jiza yaratganini payqadi: bu ko‘zlarda qayg‘uga begona,

bolalarga xos bir sevinch, shodlik porlardi. Bemor bilardiki, bu besh yuz so'm ikki oy, hech bo'lmaganda bir yarim oy ro'zg'orni o'z maromiga soladi, endi ertalab va kechqurunlari bu xonadonda er bilan xotin bir-birlarining yuzlariga mung'ayib, intizorlik va iltijo bilan boqmaydilar... Ikki oy, hech bo'lmaganda bir yarim oy...

* * *

Xoja Anvar kichkina otashkurak bilan uzun chilimining sarxonasiga cho'g'langan taryok qo'yib, yutoqib-yutoqib so'rdi, ko'zlarini yumganicha tutunni biroz o'pkasida tutib turdi, so'ng sekin do'rdoq, qip-qizil lablarini ochib, lablari orasidan, burnidan chiqara boshladi: nasha dastlab uning qovoqlaridagi og'irlikni, charchoqni tarqatib yubordi, so'ng iliq havo kabi miyasiga yoyildi va oyoqlarini karaxt qilib qo'ydi. Xoja Anvarga oyoqlari qattiq azob berardi: ko'kimtir qurt singari qavarib chiqqan tomirlari boldirlaridan suv yig'ilib shishib ketgan tizzalarigacha cho'zilib ketgan bo'lib, irigan barmoqlaridagi og'riqni, azobni butun badaniga yoyardi. Xoja Anvar shu fikrda ediki, Olloh unga dunyoning eng og'ir dardini, xususan, kechalari dunyoning butun maxluqoti orom og'ushiga kirgandan so'ng, havo sarinlashgandan keyin rosa xuruj qilib, yoshli ko'zlariga qop-qora tuman olib keladigan, a'zoyi badanini naq bo'g'ziga qadar chulg'ab oladigan jahannam azobiga chidamoq balosini bergan: Xudovandi karim hech bir itga, hech bir maxluqqa ravo ko'rmagan azobini Xoja Anvarning peshonasiga yozgan va unga, to so'nggi nafasinggacha, joning og'zingdan "puf" deb chiqqunga qadar bu azobdan boshing chiqmasin va ayni paytda seni inson qilib yaratganimga shukur qil, deya amr etgan.

Xoja Anvar bu safar kumush qutidan taryokning eng katta bo'lagini olib sarxonaga qo'ygan, ushbu oqshom u idrokini batamom zaiflashtirish, Olloh madadi bilan bu azob-aziyatdan batamom xalos bo'lish orzusida edi: chunki birozdan so'ng, qo'nalg'ada gulxanlar yoqilganda u hukmdorning chodiriga borishi lozim edi, boya vazir lashkar bosib olishga hozirlanayotgan qal'adan ikkita saroy shoiri chiqib kelganini, ular o'zlari bilan juda muhim xabar olib kelganini aytgan edi...

Buning ustiga, ushbu qo‘nalg‘ada hukmdorning shunchaki dag‘dag‘asidan qo‘rqib vahimaga tushgan sarbozlardan biri bir tarso qiz ustida o‘z tug‘ishgan akasini o‘ldirib qo‘ygan, endi, aftidan, hukmdor bu sarbozning etini qiyma-qiyma qilib tashlar edi; hali Xoja Anvar o‘z chodiriga kelayotganida qizil libos kiygan jallodni ko‘rgan edi. Demak, yarim tunga qadar Xoja Anvarni yotgani qo‘ymaydilar, yarim tunga qadar u hukmdor huzurida tik turganicha oyog‘ining og‘riqlariga chidab berishi lozim... “Yo Xudovandi karim, ojiz bandangga rahming kelsin. Yetkazgan kuningga shukur!”

Kumush qutidan olingan kattakon munchoqdek hind taryoki Anvarning baxtiga juda zo‘r chiqqan edi: asta-sekin miyasini tuman qoplab, mushaklari bo‘shashib borar, muhimi, oyoqlari tobora karaxt tortib, og‘riq susayib qolgan edi. Yurish arafasida hukmdor na sarkardalariga, na sarbozlariga taryok chekish uchun ruxsat bermasdi – bu qatag‘on hamma uchun Qur’on kabi muqaddas edi – chunki yurish oldidan hukmdorga po‘latday qattiq mushaklar va g‘oyat o‘tkir idrok lozim edi. Bu qatag‘onning yolg‘iz Xoja Anvarga daxli yo‘q edi. Chunki hukmdor Xoja Anvarning dardi osmon qulab tushsa ham taryokni tark eta olmaydigan dard ekanligini yaxshi bilardi. Agar u taryokni tark etsa, qo‘qqisdan o‘lib qolishi aniq edi, hukmdor esa uzoq yillardan beri it kabi vafodor navkariga chin yurakdan bog‘lanib qolgan, u – buyuk mamlakatning buyuk hukmdori – ushbu mamlakatda, nainki mamlakatda, balki butun arz-u zaminda hammadan ko‘proq Xoja Anvarga ishonar edi.

Mana hozir Xoja Anvar peshonasiga tepchigan iliq, yopishqoq terni kaftining orqasi bilan artganicha gilam ustida ipak yostiqlarga yonboshlab yotar, oyoqlarini uzatganicha, tashqaridan kelayotgan aralash-quralash ovozlarni tinglagan ko‘yi – bu ovozlarda, hamishaki kabi, dahshat va falokat vahmi bor edi – ko‘nglida o‘zini yaratgan Olloh va o‘ziga shunday bir umr baxsh etgan hukmdor sha’niga hamd-u sano o‘qirdi. Xoja Anvarning oltmish yillik umrida chiqargan eng muhim xulosasi shundan iborat edi: hukmdorning salomatligi – uning salomatligi, hukmdorning o‘limi esa – uning o‘limi! Ularni Tangri bir-biriga zanjirlab bog‘lab qo‘ygan, hatto yurak zarblarini ham bitta maromga solgan edi. Xoja Anvarning

o‘zi, hukmdor bilan men aslida ikki tanga bo‘lingan bitta jonmiz, degan fikrda edi...

Gulxanlarning, shuningdek, yerga ko‘milgan daroz ustunlarning tepasidagi moyli idishlarda yonayotgan mash’alalarning alangasi shu’la sochib, hukmdorning chodiri oldidagi kattakon sahnni yarim doira shaklida yoritib turardi. Qurol-yarog‘li sarkardalar va sarbozlar chodir oldida tizzalari barobar qalqon tutganlaricha hukmdorning chiqib kelishini kutardilar: birozdan so‘ng hukmdor chodiridan chiqib kelishi kerak, hozir esa u chodir ichida vazir va qozikalon bilan mashvarat olib bormoqda edi.

Akasini o‘ldirgan sarboz esa qo‘l-oyoqlari bog‘langan holda tuproq ustida, qovjirab, sarg‘ayib qolgan maysalar orasida yuztuban yotardi, hukmdorning amri ila, hali hukm o‘qilishidan oldin, jallod uning ikki qulog‘ini kesib olib, yarasiga kul bosgan edi: endilikda sarbozning silliq va quloqsiz boshi uzoqdan dumaloq, qizg‘ish g‘o‘laga o‘xshab ko‘rinardi.

Ichkarida vazir va qozikalondan tashqari Xoja Anvar ham bor edi, u chodirning bir kunjiga tayanib, butun vujudi quloqqa aylanib, hukmdorning fikrini tinglar edi. Hukmdor dushman qal’asidan chiqib kelgan shoirlarni qabul qilish niyatida emasdi, chunki ular o‘zlari olib kelgan xabarni lashkarboshiga yetkazishgan, oqshom payti hukmdor lashkarboshining izohini eshitgandan so‘ng, endi ortiqcha suhbatga, ortiqcha savol-javobga ehtiyoj yo‘q, bemalol yurish boshlayversa bo‘ladi degan fikrda edi. Endi qa’la hukmdorning qo‘lida edi. Hukmdorning fikricha, bu Ollohning bir mo‘jizasi, Xudovandi karim ko‘rsatgan marhamat nishonasi edi. Tangri hukmdor tomonida edi...

Xoja Anvar qo‘llarini orqasiga qilib, oyoqlarida jun paypoq, gilamlarning, paloslarning ustida u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotgan, Xoja Anvarning nazdida juda kamdan-kam paytlardagina ro‘y beradigan bir holni – hukmdorning jilmayganini ko‘rib, bugun nechanchi daf’a ediki, “shukur, shukur” deb qo‘yardi. Faqat vazirning so‘nggi so‘zlarini eshitgan hukmdor qo‘qqisdan to‘xtadi, qoshlarini uyib, taajjub bilan og‘ir-og‘ir bosh tebratdi.

– Nechun? – deya sekin so‘radi hukmdor. Uning ovozidagi zahardan Xoja Anvarning etlari jimirlab ketdi.

Vazir bosh egib dedi:

– Shundoq, odil hukmdor, – uning jag‘lari titradi. – Shoirlar in’omdan voz kechishdi.

– Sabab?

Vazir bir qadam ilgari chiqib, endi butunlay ikki bukildi:

– Qal’ada mashhur bir shoir bor emish, sendan o‘shaning boshini talab qilmoqdalar, ulug‘ hukmdor.

Hukmdor Xoja Anvarga yaqinlashib, temir kabi og‘ir va sovuq qo‘lini uning yelkasiga qo‘ydi.

– Demak, har biri yulduzday keladigan dur-gavharni rad etmoqdalar. Hind feruzasini olmayaptilar... Evaziga mendan qal’adagi shoirning boshini talab qilmoqdalar. – Hukmdor bu so‘zlarni aytgach, sukutga ketdi, so‘ng dahani qochib, kula boshladi. Hamma, chodirda kim bo‘lsa, barcha, shu jumladan Xoja Anvar ham hukmdorning kulgisiga qo‘shilishdi... Birozdan so‘ng hukmdor qo‘lini ko‘targan edi, kulgilar qo‘qqisdan bosildi.

– Bunday mamlakatning bitta qal’asini emas, jam’iki qal’alarini olish mumkin. Bunday mamlakatni yer bilan yakson qilsa bo‘ladi.

Hukmdor chodirning o‘rtasiga bordi, taxtga o‘tirib, boshini quyi soldi.

– Shoirlarga ayting, men roziman, – dedi u. So‘ng boshini ko‘tarib, terisi burishib qolgan halqumini o‘ynatganicha, yuzidan zahar-zaqqum yog‘ilib, horg‘in va kinoyali tabassum bilan davom etdi: – Men juda ko‘p mamlakatlarni ko‘rdim, ammo shoiri shoirining boshini talab qilgan mamlakatni ko‘rmagan edim... Yetkazgan kuningga shukur, Xudoyim, buni ham ko‘rdik.

Hammaning yelkasidan tog‘ ag‘darildi, hamma forig‘, yengil nafas oldi, hammaning yuragi avvalgi maromiga tushdi: hukmdorning in’omidan shoirlar voz kechganligi haqidagi xabarni unga aytish bu yerdagi har bir kimsaning boshi bilan teng edi... Bunaqangi mashvaratlar mahali qizil libos kiyib olgan jallod hamisha eshik oldida amrga muntazir turardi...

So‘ng hukmdor chodirdan chiqdi, chiqqanda ham doimiy odatiga xilof o‘laroq hammadan oldin chiqdi. O‘ng qo‘li bilan yuzini silab jallodga boqdi: jallodning qip-qizil libosidan qamashgan kabi ko‘zlari qisildi. Jallod ilgari yurdi va basavlat gavdasini egib, yerda yuztuban yotgan, quloqlari kesib olingan sarbozning yelkalariga

ikki qo'li bilan chang solganicha uni o'rnidan turg'azdi. Qon tutganidanmi, ajalga butunlay taslim bo'lganidanmi, sarboz nigohini ko'tarib hukmdorga boqa bilmadi: devor nuqsi urgan basharasi ma'nosiz, unda na kin, na qo'rquv va na iltijo bor edi. Uning basharasi tosh kabi jonsiz va, aftidan, tosh kabi sovuq edi.

Hukmdor lashkarboshi ko'tarib chiqqan taxtga o'tirib, qo'llarini taxtning suyanchiqlariga qo'ydi va yuzidagi bor zahr-u qahr mujassamlashgan ko'zlarini chaqchaytirib baqirdi:

– Olib keling u manjalaqini!

Tarso qizni olib kelishdi. Qizning sochlari tillarang bo'lib, bu sochlar shu qadar afif va ko'rkam ediki, atrofdagi hech bir narsaga uyg'unlashmay turardi. Hatto dastlab hukmdor qizning boshidagi soch ekanligini ham payqamadi, unga go'yo qiz boshiga harir hind durrasini o'rab olgandek tuyuldi. Faqat qizning bedorlik va dahshatdan qizarib ketgan loqayd ko'zlariga tikilgandan keyingina hukmdor uning boshidagi ro'mol emas, Tangrining bir mo'jizasi ekanligini angladi. Bu sochlarda ne-ne iforlar bor, Xudoyim! Olloh bularni qay qudrat ila yaratgan?.. Hukmdorning o'ng ko'zidan sizib chiqqan bir tomchi yosh yuzidagi ajinlarga ilashib, uzoq muddat qurimasdan yaltirab turdi. Tarso qiz bu yosh tomchisini muz parchasiga o'xshatdi.

– Bu notavonning oti Salimmi?

Sarboz o'z otini eshitgach, ko'zlarini ochib hukmdorga boqdi. Majol topib hukmdordan imdod tilamoqchi bo'ldi, ammo do'rdoq lablari ochilmadi, sarbozning bo'g'zidan nolaga o'xshash bir ingroq chiqdi. Hukmdor sarbozning murda nuqsi urgan basharasiga xuddi ilonga, kaltakesakka boqqan kabi jirkanib ko'z qirini tashladi, negadir dimog'iga sarimsoqpiyoz hidi urildi. Sarkardalar, sarbozlar, vazir – hamma bu devon marosimining qanday tugashini oldindan bilishardi: yurish oldidan biron-bir sarboz, biron-bir sarkardaning nomahramga qo'l tekkizish ixtiyori yo'q, bu qatag'onni buzganlarning holi ma'lum edi – qip-qizil libos kiyib olgan jallodning o'tkir oyboltasi kecha-kunduz qonsirab turar, bu oyboltaning yonidan o'tayotgan kimsaning dami ichiga tushib ketardi. Hukmdorning bu taqiqiga qarshi chiqish Ollohning amriga qarshi chiqish demak edi.

Endi Salim ismli sarbozning qismati hech kimni qiziqtirmay qo'ygan edi. Salim bir tarso qizni deb tug'ishgan akasini o'ldirib qo'yganligi haqidagi xabarni eshitgan hukmdorning basharasi sirka ichgan kabi burishib ketgan, vazirning yelkasiga musht tushirgan, biroq g'azabi bosilmay, sho'rlik vazirning soqoliga yopishib, undan bir tutamini yulib olgan edi. So'ng bo'shashib, o'ziga kelib taxtga o'tirgan, kaftlarini tizzasiga qo'yganicha horg'in-horg'in bunday degan edi: "Olloyi taolo joningizni olsin... Siz mamlakatni adoyi tamom qilasiz!"

Endilikda hamma bolalarga xos qiziqish bilan tarso qizning qismati nima bo'lishiga qiziqardi. Hukmdorning bu boradagi fikrini hech kim bilmas, agar istasa u tarso qizni sarbozlaridan biriga in'om etishi, istasa boshini tanidan judo qilishi, istasa ikki qo'li va ikki oyog'ini chormixga tortib o'ldirishi mumkin edi. Endi har bir narsa faqat hukmdorning irodasiga, uning kayfiyatiga bog'liq edi...

Hukmdor qo'l ko'tarib, jallodga imo qildi. Jallod joni chiqib, quruq jasadi qolgan sarbozni qatlgohga sudrab chiqdi va sovuqqonlik bilan o'z vazifasini nihoyasiga yetkazdi – ko'z ochib-yumguncha chopilgan bosh qovjiroq o'tlar ustiga dumalab ketdi. Hamma ko'nikib qolgan bu sukunat og'ushida faqat bolta jarangi-yu, tarso qizning yuragidan otilib chiqqan bir faryod yangradi, xolos. Ammo tarso qizga hech kim jur'at etib qaray olmadi, yolg'iz hukmdor salobat bilan burilib, ko'zlarini qisib, avval tarso qizning luchchak oyoqlariga, kir tirnoqlariga boqdi, so'ng uning nigohi tag'in qizning tillarang sochlariga qadalib qoldi. Bu rang hukmdorning qorayib ketgan yuzidagi ajinlarga ko'chib o'tdi, uning yuzida oniy bir nur jilvalandi, biroq bu nurni hech kim payqamadi. Bu nurni yolg'iz Tangrining o'zi ko'rdi.

– Vazir!

Hukmdor oyoqqa qalqdi. Hamma uning amriga muntazir ikki bukildi.

– Bu mochag'arning xaltasiga non solib beringlar. O'z mamlakatiga qaytib ketsin.

Hukmdor chodir tomon o'girilar ekan, davom etdi:

– Qal'ani olgunga qadar, qal'adagi erkaklarni qonga g'arq etgunga qadar Salim sarbozning boshini nayzaga ilib, qurtlab ketgunicha ko'tarib yuring!..

Shu kecha hukmdor tushida kumush bir shu'la ko'rdi va bu kumush shu'la og'ushida ayol allasini eshitdi: bu – onasining ovozi edi.

Shu kecha qo'nalg'adan olis-olislarda, ins-u jinslar qadami yetmagan qadimiy o'rmonda, ko'piklanib oqqan ulkan soyning sohilida yalangoyoq tarso qiz eman daraxtiga suyanib oyoqlari ostida cho'nqayib o'tirgan qari bo'riga xaltasidan non olib yedirardi. Nonning bir burdasini o'zi yeb, bir burdasini bo'riga berib, sovuq va dahshatdan titrab-qaqshab, olislardagi shamolning guvillashini tinglagan ko'yi, qop-qora, rutubatli tunning yulduzlari kattalasha-kattalasha olmadek bo'lgan bir paytda uyquga ketdi. Tarso qiz ham bir tush ko'rdi: tushida boshi uzra qizarib yotgan tuman og'ushida bir chiroq yonib turgan emish, o'zi esa uzun bir zinapoyaning eng tepasida emish. Bu uzun zinapoyaning quyisida suyanib turgan, beli jinday bukilgan, yuzlari sarg'ayib ketgan bir bemor qo'llarini oldinga cho'zib, unga "ketma" der emish... Tarso qizning yuragi o'ynab ketdi, ko'z yoshlari ichiga oqdi...

* * *

Kunlarning birida bemor, hali yotib qolishidan ancha ilgari, qo'lida chelak, hushtak chalganicha axlat tashlab kelish uchun hovliga tushganida, tavaqalari askarlar kabi yelkama-yelka turgan axlatxona eshigi oldida g'alati bir kalamushga duch kelgan edi: mushukdek keladigan kulrang, siyrak tuklari tikrayib turgan bu kalamush chelak ko'tarib axlatxonaga kirgan bo'lg'usi bemorni ko'rib ko'zlari yonib ketgan, bir-ikki yo'talib olgach, yutinib, kamoli ehtirom bilan shunday degan edi:

– Salom, hoy qo'shni!

Bo'lg'usi bemor o'rnida boshqa kishi bo'lganida, ehtimol, baqirib-chaqirib kalamushni tepkilagan, yo bo'lmasam, chelakni tashlaganicha ortiga qaramay qochib qolgan bo'lardi. Chunki, barchaga ma'lumki, bu zamonda hamma gapiradi, uzundan-uzoq ma'ruzalar o'qishadi, og'iz ko'pirtirib vaysashadi, ammo kalamushning gapirishi, tag'in kechasi soat o'n ikki yarimda soddadil bir sho'roviy vatandoshining qarshisida turib olib, unga "salom" deyishi, Xudo haqqi, har qanday kishining esxonasini chiqarib yuborishi tabiiy edi.

Biroq bo‘lg‘usi bemor bunday narsalardan qo‘rqadiganlar toifasidan emasdi. Chindan ham, ertami-kechmi xuddi shunday voqealar, balki bundan ham battarroqlari juda ko‘p kimsalarning boshiga tushadi, ammo buni hech kim tan olgisi kelmaydi, chunki tan olganlarning hammasi endilikda jinnixonalarda shiftga termulganicha yotibdi. Rostini aytganda, kalamushdan bu so‘zlarini eshitgach, bo‘lg‘usi bemorning a’zoyi badaniga yengil bir titroq kirdi, sekin yutinib qo‘ydi, biroq qo‘rquvga tushmadi, chelakni axlat qutilaridan biriga bo‘shatgach, o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslikka urinib so‘radi:

– Xo‘sh, sen o‘zing kimsan... qo‘shni? – uning ovozi juda g‘arib chiqdi.

– Kirlikir.

Kalamush chap ko‘zini qisib, suhbatdoshiga bir ko‘zi bilan tikilganicha izoh berdi:

– Ya’ni kirlilarning kirlisi. O‘ta irkit. Chidab bo‘lmas darajada isqirt. Sasib-jiyib ketgan va hokazo... Lekin, qo‘shni, bu dunyoda mendan pokizasi yo‘q. Qaysi a’zoyimni hidlasang hidlab ko‘r, mening top-toza ekanligimga amin bo‘lasan. – Uning ovozida qandaydir o‘kinch bor edi. – Oramizda bir-ikkita ifloslar bor, bu otni menga o‘shalar taqishgan. Hechqisi yo‘q. Qolaversa, hoy qo‘shni, bizning zamonamizda kimni ham, nima uchun ham otiga qarab hurmat qiladilar deysan? Bu dunyoda uch yuz ellik yildan beri yashayman, sizlarning ta’biringiz bilan aytganda, bir nav qariya kalamushman. Ehtimol, bu mamlakatning eng keksa kalamushidirman. Qo‘limdan hamma narsa keladi... Xohlasang seni Koptorginterlyuksning raisi qilib qo‘yaman!

Bo‘lg‘usi bemor hayratlanib boshini sarak-sarak qilganicha qo‘l siltadi:

– Men qayerdan bilay, Xudo haqqi...

Kirlikir bu safar o‘ng ko‘zini qisdi va tag‘in suhbatdoshiga bir ko‘zi bilan tikilganicha davom etdi:

– Istasang, seni ko‘z ochib yumguncha Angliyaning lordi qilib qo‘yaman, a nima deding? – u rosa qizishdi, orqa oyoqlarida turib, oldingi oyoqlari bilan qornini qashiganicha axlat qutilari orasida u yoqdan bu yoqqa borib-kela boshladi. – Yo agar istasang, bilaman, bu narsa ko‘nglingdan o‘tmagan bo‘lishi mumkin emas, seni

bosh munajjim qilib qo'yaman, haligi ajoyib joyga, a, bratishka? – Bo'lg'usi bemorning o'ziga o'ta hayrat va ishonchsizlik bilan boqayotganini ko'rib, u qo'qqisdan to'xtab qoldi va so'radi:

– Ha, qo'shni, menga ishonmayapsanmi?

Bo'lg'usi bemor chelakni yerga qo'yib, kaftining orqasi bilan manglayiga tepchigan terni artdi: go'yo peshonasiga yarim shisha yelim to'kilgandek tuyuldi unga. Yuzlari lovullab, boshi aylana boshladi. "Obbo!" deya ko'nglidan o'tkazdi u.

– Qo'rqma, qo'rqma! – dedi Kirlikir uning fikrlarini uqib turgan kabi. – Esing og'ib qolgani yo'q. Psixikang ham o'z joyida. Ko'ngling tinch bo'laversin!.. Sen mendan qo'rqmadingmi, demak, hushyor odamsan. Ba'zi narsalarni anglab yetgan kishisan. O'z qadringni bil, joningni asra, sigaret chekma, har yozda putyovka to'g'irlab sanatoriyga borish harakatini qil. – U yugurib kelib, suhbatdoshining qarshisiga cho'nqaydi. Donishmandona bir ohangda gapira boshladi: – Har kecha xotinning yoniga kirma, bu mendan senga bir nasihat. Xotinlarni yomon o'rgatib qo'ymaslik kerak, azizim!.. Bilasanmi, xonadoningni nima barbod qiladi?

– Men qayerdan bilay, Xudo haqqi!

– Xotinlar va har kuni radioda, televizorda chalinadigan darang-durunglar! Har qalay, illo-billo, darang-durunglarga quloq solmaslik kerak, qachongacha odam "Ey mening jonim, ey mening falonim" degan gaplarni eshita oladi?.. O'tirsang-chi mundoq. – Kirlikir chelakka ishora qildi. Bo'lg'usi bemor tarang tortilgan mushaklarini zo'rg'a yengib, chelakni to'ntarib qo'ydi va ustiga o'tirdi. Kirlikir ham uning qarshisiga cho'nqaydi, u orqa oyoqlarida chordona qurib o'tirar ekan, chelak ustida o'tirgan bo'lg'usi bemor o'zini tuta olmay jilmayib qo'ydi, chunki Kirlikir chordona qurganida koptokchaday keladigan dum-dumaloq qorni do'ppayib chiqqan edi.

– Ofarin, shunaqa gaplar... Yodingda tut, qo'shni, kalamush ham gapira biladi, ham chordona qurib o'tira oladi. Qorin esa... – o'zi ham kuldi. – Yosh qaytgan sari kattalashib ketyapti, la'nati. Bularning hech birida sir-mo'jiza yo'q. Bilasanmi, asl mo'jiza nima?

– Nima? – bo'lg'usi bemor yelkalarini qisdi.

– Sizlarning uchinchi yo'lakdagi Samandarov. – Kirlikir gapini tugatmay, ikkala ko'zlarni yumganicha bir muddat xayolga toldi,

so‘ng dedi: – Qo‘shni, juda ichkim kelyapti... Bilaman, uyingda arog‘ing bor. Kel, bunday qilaylik. Uyga borib, biroz kolbasa, nonpon, keyin o‘sha aroqni olib kel. Bemalol o‘tirib bir otamlashaylik. Buning ustiga xotin, bola-chaqang ham uyda emas. Davay, dorogoy! – so‘ng ko‘zlarini ochib ilova qildi: – Tavba, nega endi men ruscha valdirab qoldim?..

Bo‘lg‘usi bemor o‘rnidan turib, kula-kula axlatxonadan chiqdi. Besh daqiqa o‘tar-o‘tmas Kirlikir aytgan narsalarning barchasini olib keldi. Axlatxonaga kirib, turgan joyida qotib qoldi: Kirlikirning oldida ohorli oppoq dasturxon yozig‘liq edi. Ha, chindan ham yap-yangi dasturxon! Kirlikir yana bir bor uni ogohlantirdi:

– Bu ham mo‘jiza emas, bu – oddiy ko‘zboyloqchilik. Judayam oson. Vaqti kelganda senga ham o‘rgatib qo‘yaman. O‘tir.

Bo‘lg‘usi bemor uydan keltirgan narsalarini – kolbasa, non va aroqni dasturxonga qo‘ydi. Kirliklar stakanning ikkita ekanligini ko‘rib bosh tebratdi:

– Men aroq ichmayman, faqat sen ichasan. Ya’ni, to‘g‘rirog‘i, men ham ichaman, ammo senga o‘xshab emas. – U yuzlarini burishtirib yo‘taldi. – Agar men ham sen kabi ichsam, o‘t pufagim yorilib, shu zahotiyoq o‘lib qolaman, qo‘shni. Sen chelakni biroz o‘ngga surib, mana bundoq o‘tir. – Bo‘lg‘usi bemor Kirlikir aytganday chelakni o‘ngga surdi. – Ha, balli, endi o‘tir. Ofarin. Ko‘ryapsanmi, qo‘shni, ikkalamiz ham yuzma-yuz o‘tiribmiz, ham yonma-yon. To‘g‘rirog‘i, oramizda... – U tag‘in ko‘zini yumdi. – Ha, oramizda rosa oltmish uch gradusli uchburchak tekislik vujudga keldi. Demak, sen aroq ichayotganingda, men o‘zimga kerakli alkoloidlarni havodan so‘rib olaman... – Bo‘lg‘usi bemor Kirlikirga oshkora hayrat bilan boqardi. – Buning sirini senga tushuntirib berishim mumkin edi, biroq, qo‘shni, rostini aytsam, birinchidan, hozir bunga hafsalam yo‘q, ikkinchidan esa... bunaqangi narsalarni anglash senga biroz og‘irlik qiladi. Yo‘q, bu na telekinez, na parapsixologiya. Makonning to‘rtinchi vektorida gravitatsiyaning boshqa bir xususiyati ham namoyon bo‘ladi... Qo‘shni, ko‘zlaringdan ko‘rib turibmanki, bu fikrlar yetti uxlab tushingga ham kirmagan. – Bo‘lg‘usi bemorning haqiqatan ham ko‘zlari kattalashib, har biri olxo‘riday bo‘lib ketgan edi. – Seni-ku qo‘ya turaylik! Sizlarning

haligi mashhur olimlaringiz bor-ku, fizik, haligi-chi, yaqinda xotini o‘z singlisi bilan ikkalasini ushlab olgan edi-ku, ha-ha, o‘shani aytyapman... I-ye, bundan xabaring yo‘qmi? Obbo, qo‘shni, sen g‘irt dunyobexabar ekansan-ku! Butun shaharda duv-duv gap-ku... Men o‘shaning tushiga kirdim. Gravitatsiya haqida oddiy bir savol bergan edim, Xudo haqqi, javob bera olmadi. Kimsan – mashhur akademik, ko‘ksi to‘la orden! Qara, ne kunlarga qoldik!..

Bo‘lg‘usi bemor qo‘qqisdan uyqudan uyg‘onib ketgandek bo‘ldi: bu hodisa, uning axlat qutilari orasida, havosi og‘ir axlatxonada Kirlikir bilan yuzma-yuz turib suhbatlashishi, u kechiryotgan bu hislar, bu tuyg‘ular qachon ro‘y bergan edi, ancha ilgarimi yoki shu yaqin oradami – buni aytib bera olmas, ammo bu voqea aniq sodir bo‘lgan edi. Hatto u axlatxonaga kiraverishdagi simyog‘ochda yonib turgan, zaif shu’lasi axlatxona eshiklarini sarg‘ish rangga bo‘yagan chiroqni ham xotirladi. Bu chiroq shu’lasini u o‘z tushlarida tez-tez ko‘radigan olis, kishini to‘lqinlatirib yuboradigan bir chiroq shu’lasiga o‘xshatdi: o‘sha chiroq shu’lalari xotirida aniq-ravshan namoyon bo‘ldi va shunda uning yuragi dukullab ura boshladi. “Tavba, – deya o‘yladi u, – qachon ko‘rgan edim men bu chiroqni?” Ko‘zlari qarshisida oppoq bir rang paydo bo‘ldi – titrab turgan, umid dengizi kabi musaffo va oppoq bir rang. Va shu payt juda uzoqlarda, bu axlatxonadan tasavvurga sig‘mas darajada olis bir yerda, ehtimol, dunyoning narigi chekkasida esa boshlagan shamolning guvillashini eshitdi. Bo‘lg‘usi bemor ko‘zlarini yumdi.

Kirlikir:

– Juda teranlashib ketma! – dedi.

Bo‘lg‘usi bemor sekin ko‘zlarini ochdi.

– Chin so‘zim, – deya davom etdi Kirlikir, ammo bu safar uning ovozida avvalgi qat’iyat yo‘q edi: – Har narsani yuragingga olaverma, – deya u boshini quyi solib, qornini qashiy boshladi, – Ko‘p teranlashib ketsang, o‘zingni adoyi tamom qilasan... Shu’la, shamol, falon-piston, bularning barchasiga bu zamonda qo‘l siltash kerak, yo‘qsa ishing pachava bo‘ladi. Kel, qo‘ya turaylik bu gaplarni! O‘tir, qo‘shni, jinday otaylik.

Bo‘lg‘usi bemor chelak ustiga Kirlikir bilan yuzma-yuz o‘tirdi va aroqni ochib quydi. Kirlikir parrak qilib to‘g‘ralgan kolbasadan

bir bo‘lak olib bo‘lg‘usi bemorga boqdi. Bemor aroqni bir ko‘targanda bo‘shatdi. Kirlikir kolbasa bo‘lagini og‘zigi solib, shosha-pisha chaynay boshladi.

– Ko‘p bo‘lib ketibdi, qo‘shni, – dedi, – yarim-yarim qilib quy.

Bo‘lg‘usi bemor jinday gazak qilib, bu safar stakanni yarimlatib suzdi.

Kirlikir yana bir bo‘lak kolbasa olib dedi:

– Qo‘shni, bir qadah so‘zi aytmoqchiman, biroq kulmaysan. – U burnini tortib qo‘ydi. – Chunki ushbu qadah so‘zi bu kunning eng dono so‘zi bo‘ladi. E’tirozing yo‘qmi?

Bo‘lg‘usi bemorning birinchi qadahdan so‘ng qulfi dili ochilib ketgan edi.

– Qanaqa e’tiroz bo‘lishi mumkin, hoy birodar, qani, eshitaylik!

Kirlikir tumshug‘ini bo‘lg‘usi bemor tomonga qadadi.

– Shuning uchun ichaylikki, eng yomon kunimiz ana shunday bo‘lsin!

Bemor bu safar ham qadahni bir ko‘targanda bo‘shatdi. Chindan ham juda dono va oqilona qadah so‘zi aytilgan edi.

Kirlikir kolbasasini yeb bo‘lgach, o‘ng qo‘li bilan tikraygan mo‘ylovlarini siladi.

– Xo‘sh, – dedi u, – endi bitta sigaret tutat. Xumori tutdi.

– Sen sigaret ham chekasanmi?

– Har doim emas. Ichgandan keyin bir dona bo‘lsa yomon bo‘lmaydi.

Bo‘lg‘usi bemor shimining kissasiga qo‘l suqib, o‘sha paytlarda urf bo‘lgan, qutisi ezilgan “Avrora” chiqardi. Bitta sigaret tutatib, birinchi so‘rimni ichiga yutmay, Kirlikir maza qilsin deya havoga pufladi. Kirlikir minnatdorchilik bilan bosh silkidi, biroq qattiq yo‘tala boshladi.

– Bularning topgan hunariga la’nat, – deya to‘ng‘illadi u. – Tamakiga shunchalik ko‘p zahar qo‘shadilarki, odamning jigarini teshib yuboradi... Bilasanmi, bu kimning ishi?

– Kimning?

– Boya men senga aytgan dunyoning mo‘jizasi Samandarovning ishi!

– Nahotki?

– Men o‘zim bilmagan narsani gapirmayman, buni o‘la-o‘lguncha yodingda tut. – Aroqdan so‘ng Kirlikir ancha biyronlashib qolgan, to‘g‘rirog‘i, go‘yo suhbat tobora qizib, oradagi begonalik yo‘qolgan sari u jasurlashib borardi: boya, qo‘shnisi bilan tanishgan ilk daqiqalarda uning ovozida jinday hadik va ehtiyotkorlik bo‘lib, buni bo‘lg‘usi bemor ham sezgan edi. Ammo endilikda Kirlikir suhbatning, o‘tirishining jilovini o‘z qo‘liga olgan, rosmana soqiylik qilar, qo‘shnisidan esa ko‘ngli to‘q, tepki tushishidan cho‘chimas edi. Bu zamonda esa kalamush atalgan bir maxluqqa bundan ortiq nima kerak?.. O‘tirib bemalol kolbasa yesang, mayin-mayin aroq ichsang, muhimi, boshingga, biqinlaringga hech kim tepmasa, bunga shukur qilmay bo‘ladimi? Bo‘lg‘usi bemorning miyasida bir-ikki so‘z gugurtning siri kabi chirsillab yondi. “Tepkisi nima, nega bu tepkidan qo‘rqadi?” – deya o‘kinch bilan o‘yladi u va shu ondayoq o‘zi ham Kirlikirning ba’zi fikrlarini uqib ola boshlaganini angladi.

– Biroq faqat men ijozat bersam, qo‘shni. Agar men ijozat bermasam, miyamdagi birorta harfni ham o‘qiy olmaysan! – Kirlikir o‘ng qo‘lidagi qiyshiq tirnoqlaridan birini to‘g‘rilab ko‘kka o‘qtaldi. – Hozircha mening qo‘limdan intellektning evolutsiyasini tezlashtirish, unga ta’sir etishgina kelmaydi, xolos, azizim.

Bo‘lg‘usi bemor rizolik alomati ila bosh tebratdi, Kirlikir ham uzunchoq boshini silkitib, uning bu harakatiga qo‘shildi va dedi:

– Yana ellikta suz!

– Bosh ustiga! Sening sog‘iliging uchun, Kirlikir! – U stakanni yuqori ko‘tarib, aroqni bo‘g‘ziga otdi va “qult” etib bir yutum qildi. Kirlikir “uf, uf” deganicha katta bir bo‘lak kolbasani shosha-pisha og‘ziga solib, dedi:

– Yaxshi so‘z ekan, “otmoq!” Ofarin, bilmas ekanman. Ichmoq, yutmoq va otmoq. Aftidan, bu so‘zlarni sizning davralaringizda ko‘p ishlatsalar kerak, xo‘sh, nima deding, dardingni olay?

Bo‘lg‘usi bemor cho‘chib ketdi, yon-veriga qarab chiqdi, chunki bu so‘zlarni go‘yo Kirlikir emas, Mahmud aytgandek bo‘ldi. Tabiiyki, feldsher Mahmud hozir bu yerdan juda olislarda bo‘lib, Kirlikir xuddi uning gapirish ohangida, eng nozik jihatlarini ham Mahmudning ovoziga o‘xshatib gapirdi, gapirganda ham, aftidan, hazillashish uchun gapirgani yo‘q edi. Ha, chindan ham u hazil-

lashgani yo‘q, bu bilan Kirlikir o‘zining bu dunyodagi barcha narsani biladigan va hamma narsaga qodir yagona mavjudot ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi edi. Kirlikir bu safar dovdirab qolgan bo‘lg‘usi bemorga tasalli berib o‘tirmay, dedi:

– Darvoqe, boyadan beri senga uchinchi yo‘lakda yashaydigan Samandarov haqida gapirib bermoqchi bo‘laman, sen esa nuqul mayda-chuydalar bilan meni chalg‘itib qo‘yyapsan. Bir burda non yeb olsang-chi! Yo‘qsa kayfing oshib qoladi.

Bo‘lg‘usi bemor non va bir bo‘lak kolbasa olib chaynay boshladi. Kirlikir esa bir ko‘zini yumganicha davom etdi:

– Bundan uch kun ilgari Samandarovning o‘n ikki barmoqli ichagining pastki qismida, shilliq pardasida no‘xatday shish paydo bo‘ldi... U qovoqboshining esa hali bundan xabari yo‘q. – Kirlikir yumuq ko‘zini ham ochib, suhbatdoshiga ikki ko‘zlab tikildi, bo‘lg‘usi xasta bu qarashlarda qandaydir mazammat borligini sezdi. – Men kimni qovoqbosh, kimni aqlli deyishini yaxshi bilaman. Bundan bezovta bo‘lmay qo‘yaqol. Sen, masalan, u qadar aqlli bo‘lmasang-da, har holda, yaxshi odamsan. Samandarov esa qovoqboshning o‘zginasi. Otasi ham qovoqbosh, o‘zi ham... Nega? Bu yog‘ini eshit... Samandarovning uyida yangi pul bilan sakkiz yuz ming bor, hali men tilla, gavharlarni hisoblaganim yo‘q, ularni Og‘domdagi otasinikiga eltib yashirib qo‘ygan. Bularning hammasini, aytish mumkinki, tamaki fabrikasida ana shu “Avrora” hisobiga topgan. Zahar hisobiga. Xaloyiqni zaharlay-zaharlay topgan... Iltimos, meni to‘g‘ri tushun. Eplagan qandini ursin!.. Odamlar sex ochishadi, pora olib, pora berishadi. Ular bilan mening bir pullik ishim yo‘q. Takror aytamanki, eplagan qandini ursin! Zamonaning o‘zi shunaqa. Axir, hamma ham sen kabi laqma emas-da! Sen o‘zingga mundoq eplab bitta shim ola bilmaysan. Mayli, shim masalasini qo‘ya turaylik, iflos har yozda kissasiga o‘ttiz mingni urib ketadi Sochi-yu Kislovodskka, nima gap, yuragining mazasi yo‘q emish. O‘n besh-o‘n olti yoshli qizchalarni rasvo qilib, ko‘rdingmi pulning kuchini, qaytib kelgach xotinining ustiga o‘ligini tashlab oladi. Necha marta tushlariga kirganman, mening ham jonim jon, temir emas, axir, hoy iflos, odam bo‘l, yoshgina qizaloqlarni badbaxt qilma, ertami yo kech o‘zingga qaytishi bor, deya

aytganman, qo'rqitib ham ko'rganman. Hay-hay, hech parvosiga kelmaydi. Bilasanmi tushida u menga nima deydi? "Bema'ni gapni qo'y, meni laqillata olmaysan, sen Shaumyan rayonining obexesisan, mendan gap olgani kelgansan", deydi. Hoy qo'shni, bunday to'nkadan nimani kutasan?! Xo'sh, oqibati nima bo'ldi? No'xatday keladigan shish olti oydan so'ng kattarib tuxumday bo'ladi, metastazalar qornini qoplab oladi, so'ng asta-sekin jigariga o'tib, butun a'zoyi badaniga tarqab ketadi. Yo'q yerdan falokat kelib chiqadi. Ollohu akbar!.. Quysang-chi, tag'in jahlim chiqa boshladi. – Kirlikir asabiy tomoq qirishga tushdi.

Bo'lg'usi bemor esa quloqlariga ishonmas, bu tafsilotni Kirlikirdan emas, boshqa birovdan eshitganida, ehtimol ishonmagan, Samandarovga bo'hton qilyaptilar deb o'ylagan bo'lardi. Chunki bu binoda yashaydigan Samandarov, bo'lg'usi bemorning fikricha, dunyoning eng kamtarin va hurmatli odamlaridan biri edi. Voy padaringga la'nat, sakkiz yuz ming-a! Bo'lg'usi bemorning ichini it tirnagandek, kirpini yutib yuborgandek bo'ldi. U stakanga aroq quydi, oshkora havas bilan oh urib Kirlikirga qaradi va Kirlikirning endigina kurtakdan chiqqan tut yaprog'i kabi yashil ko'zlariga, siyrak tuk qoplagan sarg'ish qorniga boqar ekan, bunday maxluq yolg'on gapira olmasligini, uning Samandarov borasida eshitganlari haqiqat ekanligini batamom tushunib yetdi.

– Haqiqat bo'lganida ham inkor etib bo'lmaydigan muqaddas haqiqat!.. Qo'shni, buni ham sening sog'lig'ing uchun ichaylik! – Kirlikir tag'in tumshug'ini inson qo'lidagi stakan tomon o'girdi. – Baxtli bo'l!

Dunyoning ikki jonzoti – bir inson va bir kalamush – yilning yumshoq bir faslida, yulduzlar par-par yonayotgan bir mahalda bir shisha aroqni yarimlatib, hatto yarmidan ham kamaytirib qo'yishgan edi. Bo'lg'usi bemor, aftidan, zo'r kayf qilgan, bo'shashib, bir mesh havoga aylanib qolgandek edi: agar hozir shamol essa, meni ko'tarib ketadi, deb o'ylardi u. Ammo o'zidagi bu holat faqat aroqninggina ta'siridan emasligiga amin edi. Bu g'ayrioddiy uchrashuv, bu suhbat go'yo uni odamlikdan chiqargan edi. U endi axlatxonaning ufunatini his qilmay qo'ygandi, holbuki, avvallari bu yerga kelganida aksar hollarda burnini qo'llari bilan bekitib, atrofga irganib boqqanicha

chelagini qutilardan biriga ag'darardi-da, shosha-pisha tashqariga qochib chiqardi. Ammo endilikda go'yo axlatxonaning hidi butunlay tarqab ketib, uning o'rnini hidi-ta'mi yo'q bir havo to'ldirgan, ham iliq, ham sarin bu havo kishiga rohat baxsh etardi. Bo'lg'usi bemor amin ediki, ushbu havoni bu yerga Kirlikir olib kirgan, ufunatni ham bu yerdan o'sha haydab chiqargan edi.

– Men aytmoqchimanki... – Kirlikir tumshug'ini qashidi. – Sen ma'rifatli, juda ko'p narsalarni idrok etadigan kishisan. Ammo hayotiy masalalarda... – U qo'llarini yozib, yelka qisdi. – Laqmasan! Ming afsus...

– Nega laqma bo'larkanman?! O'z nonimni o'zim topsam, bola-chaqani eplab turgan bo'lsam!

– Eplashga-ku eplaysan! Ammo gap bunda emas. Gap shundaki, boshingda tegirmon toshlari aylanishi hali oldinda. O'z joningni asra. Har yozda sanatoriylarga borib tur.

Bo'lg'usi bemor joniga tahdid solayotgan xavfdan qo'rqib, asabiylashdi va norozi bir ohangda so'radi: – Xo'sh, mening qayerimda no'xatday shish paydo bo'ladi?

Kirlikir boshini orqaga tashlab, tumshug'ini simyog'ochda osilib turgan chiroqqa qadaganicha qornini qashlab kula boshladi. Shu qadar miriqib kuldiki, bo'lg'usi bemorning jahli chiqdi, qoshlarini uyib, bola kabi burnini tortib qo'ydi.

– Jahling chiqmasin, qo'shni, odamning har narsadan jahli chiqavermaydi. – Kirlikir yoshlangan ko'zlarini sildi. – Sening hech qayeringda na no'xatday, na tuxumday shish paydo bo'lmaydi. Yuragingni keng tut. Ammo... – Kirlikir qo'qqisidan to'xtalib, quloqlarini ding qildi, basharasi o'zgarib, mo'ylovlari pir-pir uchar ekan, burun parraklaridan simbog'ichi yechilgan shampan shishasining vishillashiga o'xshash bir tovush chiqa boshladi. – Jim bo'l... Mening o'ljam kelyapti.

– Qanaqa o'ljang? – bo'lg'usi bemor shivirlab so'radi.

Kirlikir turib, axlatxonaning teshik-tirqish eshigi sari yurdi, ichkari tushayotgan shu'ladan yashirinib, o'zini qorong'ulikka tortdi.

– Xuddi o'zi... Salohov Odil Qambarovich.

Bo'lg'usi bemor bu ismi sharifni ilk bor eshitishi edi. Kirlikir turgan yerida pishillaganicha qo'l silkib uni yoniga chaqirdi:

– Beri kel, ts-s-s...

Bo'lg'usi bemor o'rnidan turib, oyoq uchida unga yaqinlashdi. Hovlining o'rtasida qo'lida hassali bir kishi turardi. Aftidan, u tunning musaffo havosidan nafas olgani chiqqan edi. Hovlining olisdan kema machtasiga o'xshaydigan temir ustuni tepasidagi charog'on chiroq hassali kishini projektor shu'lasi kabi yoritib turardi. Bu ularning yangi qo'shnisi bo'lib, bundan bir haftacha burun ikkinchi yo'lakdagi ikki xonali uyga ko'chib kelgan edi. Qo'shnilarning aytishicha, u ilgari juda katta odam bo'lgan, hozir nafaqada, o'ziyam juda alomat kishilar toifasidan ekan.

Kirlikir pichirladi:

– He, alomatligidan o'rgildim! Bu – mening odamim. Nima desamikin, ma'lum ma'noda mening shikorim hisoblanadi... Sen uning gavdasiga, mo'ylovlariga uchma! Umrida xotinning yuzini ko'rmagan. Onadan tug'ma erkakligi yo'q edi marazning! Voy sening o'sha mo'ylovlaringdan!

Hovlida sekin-sekin, keksalarga xos ehtiyotkorlik bilan u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan hassali kishining chindan ham oppoq mo'ylovlari bo'lib, bu mo'ylovlar kuchli chiroq shu'lasida tish do'xtirlari ishlatadigan paxta tamponlariga o'xshardi.

Kirlikir asabiylik bilan ko'kragini, qornini qashidi, uch-to'rt marta pishillganicha og'ir-og'ir nafas oldi va axlatxonadan chiqdi. To'rt oyoqlab, mushuk sichqonni poylab borgani kabi pusganicha asta-sekin hassali odamga yaqinlashdi. Uning shundoq qarshisiga borgach, ikki oldingi oyog'ini ko'targanicha chiyildoq tovush bilan qichqirdi:

– Budet sdelano, tovarish Salaxov!

Shu so'zlarni aytgandan so'ng Kirlikir pirildoq kabi turgan yerida gir-gir aylanib, to'zon ko'tardi va orqaga burilib, yashin tezligida o'zini axlatxona tomon otdi. Hassali kishi chiyildoq ovozi bilan hovlini boshiga ko'tardi:

– Tfu, la'nati! Qanaqa muttahamxona ekan bu hovli! Boshdan oxiri antisanitariya. Svolochi! – U har ehtimolga qarshi hassasini bir-ikki marta g'azab bilan yerga urdi, qizig'i shu bo'ldiki, uning qo'rquvdan ko'ksidan otilib chiqqudek o'ynoqlayotgan yuragining dukillashini axlatxonada bekinib o'tirgan, endilikda Kirlikir bilan

jipslashib ketgan bo'lg'usi bemor xuddi o'z yuragining dukillashi kabi aniq-ravshan eshitdi: yurakning bunaqangi o'ynoqlashida hech bir jonzot tirik qolmaydigandek, bunday yurak yuz bo'lakka parcha-parcha bo'lib ketadigandek tuyuldi unga. Ammo hassali kishi na o'ldi, na yiqilib qoldi, u hassasini yerga ura-ura shosha-pisha yo'lakning eshigidan ichkari kirib, qorong'ulik og'ushida ko'zdan g'oyib bo'ldi. U yerdan, kimsasiz qorong'ulik og'ushidan uning ingichka, xotinchalish ovozi eshtildi:

– Svolochi!

Kirlikir dasturxon oldida yerga yonboshlab olib, qornini qashiganicha mamnun bir holda dedi:

– Xudo haqqi, sening qadaming qutlug' keldi, qo'shni. Ko'pdan beri bunchalik lazzatlanmagan edim. Buning sharafiga ham ellikta ichishimiz kerak. Quy, o'rgulay, quy!

Ajoyibotlarga to'la dunyo bugun bo'lg'usi bemorni aqlga sig'maydigan bir mo'jizaga duch qilgan edi: yillarning bir maromdagi oqimi buzilgan, ko'hna soatning millari qandaydir sehr kasb etib, vaqtni ters oqishgami yoinki ilgarilab ketishgami majbur qilgan edi. Bo'lg'usi bemor boyadan beri o'zini tutib, irodasini, shuurini, asablarini jilovlab, bir nuqtaga jamlab o'tirgan bo'lsa-da, ko'nglida, bu voqealarning hammasi, Kirlikir bilan bu uchrashuv uyquda sodir bo'lyapti, degan bir shubha bor edi, hozir u ko'zlarini ochadi va shunda bularning barchasi oddiy tush ekanligini ayon bo'ladi. Odamzot ozmuncha ajoyib-g'aroyib tushlar ko'radimi, axir? Biroq agar bular haqiqat bo'lsa, unda...

– Unda judayam ajoyib bo'ladi!.. – Kirlikir unga iltijo bilan boqdi. – Bilaman, – dedi u, – bunaqa narsalarga ishonish har bir mardning ishi emas, sening o'rningda boshqa birov bo'lganida, aqldan ozib qolardi... Salohov, misol uchun, ishonmaydi, sirayam ishonmaydi. Salohov, he uning o'sha axta bo'yini qora yerga tiqay, o'zidan bo'lak hech kimga ishonmaydi, faqat bir kishiga ishonardi, uni ham to'ng'iz qo'pdi. – Kirlikir juda qattiq ranjidi. – Menga nima o'zi? Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin. Xudo haqqi, menga nima daxli bor? Jamoatga elanishim kerakmi!

– Salohovning o'zi kim axir? – hayratlanib so'radi bemor.

Kirlikir bo'lg'usi bemor ko'zlarining ich-ichiga tikildi.

– Salohov, – dedi u, – bu dunyoning balosi. Bu dunyoning eng katta falokati. – Biroz sukutdan so‘ng. – Hukmdorning to‘ramasi, – dedi, – zaraza!

– Kimning?

– Hukmdorning... Senga nima degan bo‘lsam, hammasini unutishing mumkin, bu – sening ishing. Faqat Salohovni unutma. O‘la-o‘lguncha yodingda tut!..

Kirlikirning kayfi oshib qoldi, deb o‘yladi bo‘lg‘usi bemor, chunki u ayqash-uyqash, almoyi-aljoyi gaplarni ayta boshlagan edi: hukmdorning to‘ramasi?.. Kirlikir tag‘in axlat qutilari orasida keza boshladi, so‘ng qo‘qqisdan to‘xtab, sinchkovlik bilan unga tikildi.

– E! – alam bilan qo‘l silkidi u. – Ordona qolsin bunday hayot. Tupurging keladi bunday hayotga, ey qo‘shni. – Kirlikir ko‘zlarini qisdi, bo‘lg‘usi bemorning jismi-u joniga o‘t tushib, a’zoyi badani dazmol bosilgandek yona boshladi. – Ishongan tog‘da kiyik yotmas ekan. Ishonmading-a?

Bo‘lg‘usi bemor bir qadam ortga chekinib:

– Men qayerdan bilay, Xudo haqi?.. – dedi.

Kirlikir o‘zining barcha urinishlari behuda ketganini tushundi, bo‘lg‘usi bemor miyasining o‘ng yarim sharidagi chuqur darzda neyronlar mushak kabi uchqun sachratib, uch karra aytilgan “ishonmayman” so‘zini tasdiqladi: Kirlikir ikkala ko‘zini ham yumganicha o‘zini zulmat og‘ushiga otdi: uzun umrida, uch yuz ellik yillik hayotida inson bolasi bilan bu navbatdagi uchrashuvda ham u tag‘in mag‘lub bo‘lgan, inson bolasini tag‘in ishontira olmagan edi.

...Zamina eshikni ochib, erini ko‘rgan zahoti, uning qizargan ko‘zlariga, osilib tushgan pastki labiga boqqan zahoti erining kayfi borligini payqadi.

– Qayerdan otib oldingiz? – deb so‘radi jilmayib.

– Tez menga bir piyola achchiq choy ber!

Zamina umrida hali erini bu qadar xursand, bu qadar baxtiyor holda ko‘rmaganligiga ont ichish uchun tayyor edi, erining yuz-ko‘zlaridan nur yog‘ilardi.

– Bosh ustiga! – Zamina jilmayganicha oshxona tomon yurdi.

U choy ko‘tarib ovqat yeyiladigan xonaga kirganida eri oromkursiga yaslanib, ko‘ylagining tugmalarini yechib tashlab, lazzat bilan, huzur qilib qornini qashirdi.

– Yo tavba, nega qorningizni qashiyapsiz?

– Xudo haqqi, bu dunyo, darhaqiqat, ham go‘zal, ham iflos bir dunyo ekan. – U chap qo‘li bilan piyolani olib, choydan bir qultum ho‘pladi. – Kirlikirday bir maxluq... – u lablarini chapillatib qo‘ydi. – Kirlikir – bu mening inim bo‘ladi! – deya baqirdi.

Zamina hech narsaga tushunmasa ham:

– To‘ppa-to‘g‘ri, – deb qo‘ydi. U Kirlikirni kiragir deb eshitgan edi. – Tuppa-tuzuksiz, Xudo haqqi. Ko‘z tegmasin.

– Endi tuppa-tuzukman, Xudoga shukur, otdayman, ammo hozirga qadar sening ering itning orqa oyog‘i bo‘lib yurgan ekan!

– Nega endi?

– Chunki bu dunyoda qorin qashlashdan boshqa yaxshiroq narsa yo‘q ekan, o‘lay agar, – deya bir ko‘zini qisib, xotiniga bir ko‘zlab boqdi.

Boyadan beri bu suhbatni jilmayganicha maroq bilan eshitib turgan o‘g‘li otasiga yaqinlashib, uning qorniga tikildi.

– Mama, – dedi u, – buni qara, papamning qorniga g‘alati mayin tuklar chiqibdi.

Zamina yaqin keldi.

– Vo-o-oy o‘la-ay! – dedi u hayratlanib.

– Hali bu nima bo‘pti! Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin!

Bo‘lg‘usi bemor qo‘llarini yuqori ko‘tardi.

* * *

“Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin!..”

Mahmud chiqib ketganidan so‘ng Zamina karavotning quyisiga o‘tirib, eriga hayron-hayron qarab qo‘yganicha pullarni sanayotgan, o‘z xayolida nimalarnidir hisob-kitob qilayotgan bir paytda bemor shu jumlani, qaydadir, kimdandir eshitgani shu jumlani ko‘nglida yana bir bor takrorladi. Qayerda eshitgan edi buni, kimdan eshitgan edi va agar chindan ham eshitgan bo‘lsa, nega endi kelib-kelib hozir yodiga tushib qoldi: ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin. Tavba, naqadar sirli so‘zlar! Bu o‘tkinchi taranglik, bu so‘zlarni yodga solmoq jahdi, har qalay, o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi, negadir uning qoni qaynadi, peshonasiga ter tepchidi va oyoqlari

muzlab borayotganini his qildi. U har qancha jahd qilsa ham, boshini devorlarga ursa ham, hozir hech narsa yodiga tushmasligini angladi. Tabiiyki, u sirli, Ollohning vahiysi kabi mavhum bu so'zlarni eshitishga eshitgan edi. Ammo qayerda, qay mahalda?... Yo'q, buni eslab bo'lmaydi: qulflog'liq eshiklarni falak shu qadar mahkam bekitgan ediki, ular istalgan paytda osonlik bilan ochilib ketavermas edi!

– Jahlingiz chiqavermasin, – dedi Zamina eriga ginali boqib. – Mahmud o'zimizniki-ku, bersa pul beribdi-da, turib ketganingizdan so'ng, Xudo xohlasa, qaytararmiz. Qiyomat-qoyim bo'layotgani yo'q-ku!

Bemor beparvolik bilan:

– Albatta, – dedi, – qaytarmay nima qilamiz... Hech bo'lmasa Salima xonimdan olib turarmiz. Qolaversa, Mahmud ham qarzini qistab kelishiga ishonmayman.

"Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin". Bemor jilmaydi, yuqori labi chirik rezina kabi ikki yoniga cho'zildi, chakkalaridagi ko'kimtir tomirlarga qon quyilib kelgandek bo'ldi, quloq pardalari jaranglay boshladi. Astag'furulloh, bu ne sinoat bo'ldi?.. Ammo, Xudo haqqi, chindan ham juda topib aytilgan gap bu! Gardishi dun aslida shundan iborat – ishongan ishonadi, ishonmagan ishonmaydi. So'ng u xotiniga kutilmagan bir savol berdi:

– Uydagi axlatlarni kim tashlab keladi?

– Voy, qiziq ekansiz-ku, nega endi axlat tavishga tushib qoldingiz, tavba? Nima, uyda sizdan boshqa kishi yo'qmi?.. Bolalar tashlab kelishadi.

Bemor boshini silkib qo'ydi, xotiniga jilmayib minnatdorchilik bilan boqdi: o'zining bu savoliga ana shunday oddiygina javob eshitmaganida, ehtimol, uning miyasiga qon quyilishi turgan gap edi, chunki chakka tomirlari yorilib ketgudek urar, go'yo qulflog'liq eshiklardan qaysinisidir g'irchillab ochilishni istardi. Bemor hovlidagi axlatxonaga kiraverishdagi simyog'ochda osilib turgan elektr chirog'ining shu'lalarini esladi, bu shu'lalar uning ko'zlari oldida olisdagi sariq dog' yang'lig' dumaloq halqalariga aylandi, bemorning yuragi siqildi. Bir oppoq rang ko'zlarining ichiga oqib kirdi.

– Anavi derazalarni ochib yubor. Yuragim yorilib ketay deyapti. Mundoq bir toza hova ham olaylik, axir, – dedi.

Xotini unga norozilik bilan qaradi.

– Qo‘ysangiz-chi, Xudo haqqi, tinch o‘tiraylik. Kecha Mark Georgiyevich boraman deb so‘z bergan edi. Kelib ko‘rsin-chi, nima deydi, derazalarni ochish qochib ketmas.

* * *

Doktor Mark Bergman taxminan o‘ttizinchi yillarda ota-bobolarining yurti Jitomirdan bosh olib ketib, Bokuga kelib qolgan, shaharning o‘sha paytda “ Bondarniy” deb ataladigan mahallasiga joylashgan edi.

U-ku ko‘chib kelgan, ammo buning aniq sababini biladiganlar kam, deyarli yo‘q edi. Har holda, doktorning o‘zi bu shoshilinch, notinch va tahlikali ko‘chish sababidan gap ochishni yoqtirmas, bundan ne-ne zamonlar ilgari sodir bo‘lgan bu ko‘ngilsiz voqeani go‘yo u butunlay unutib yuborgan, yozuv stoli ustidagi changni nam latta bilan artib tashlagan kabi, Jitomir – Boku voqeasini ham u xotirasidan mutlaq o‘chirib tashlagan edi. Uning o‘ziga ham ahyonda, xususan, so‘nggi ikki-uch yilda shunday tuyulardiki, go‘yo u hech qachon Jitomirda bo‘lmagan, go‘yo o‘sha yerda tug‘ilmagan, go‘yo ota-onasining qabri ham u yerda emas, go‘yo Mark Bergman Bokuda tug‘ilib, Bokuda voyaga yetgan, shunda ham uni onasi Dora Solomonovna tug‘gan emas, qandaydir mo‘jiza ro‘y berib, u menzurkaga o‘xshash bir idishning ichida bunyod bo‘lgan. Bir bandayi beozorning qayerda tug‘ilgani, qaysi qorindan chiqqan. ligining bu dunyoga, bu kunga, bu oqshomga nima daxli bor?..

Har safar bozor kuni, qishning sovug‘ida, yozning issig‘ida uyida asraydigan baliqlari uchun xo‘rak olgani Boyil bozoriga yo‘l olganida u bu fikrning haq ekanligiga tobora qattiq ishona boshlardi. Boyil bozoriga borish uchun taksi to‘xtatib yurmasdi. Butun yo‘lni yayov bosib borar ekan, atrof-javonibga suqlanib boqar, tongning goh iliq, goh sovuq havosidan joni rohat olar, dunyoga beradiganini berib, oladiganini olgan bu keksa yahudiy har soniya, har daqiqaning arzimas, o‘tkinchi saodatidan lazzatlanar, ko‘ngli fayzlarga to‘lardi. Darhaqiqat, insonning baxtiyor bo‘lishi uchun ko‘p narsa kerak emas: bir lahzalik saodatning sahar epkini kabi iliq bir iltifoti kifoya! Boshqa narsa shart emas. Yurakni siqadigan, qonni

qaynatadigan voqealarning hammasi esa ana shu saodat shu'lasida uzayib-qisqarib yotgan soyalardan boshqa narsa emas, bu soyalarga e'tibor bermaslik, ular bilan hisoblashmaslik lozim, ular bilan hisoblashsang, ularga e'tibor bersang, soyalarning o'ziga chalishib qulab tushishing mumkin: chalib yiqitishda bu dunyoda soyaga teng keladigani yo'q...

Bugun u uyiga qaytar ekan, biroz hansirab qolgan bo'lsa-da, har holda, yetmishdan oshgandi, boshi osmonda edi. Enli zinapoyalardan – bu bino Bokuning inqilobdan avval qurilgan binolaridan edi – xirgoyi qilganicha yuqoriga ko'tarilib, ikkinchi qavatda to'xtadi, og'zi berk bankani pastga, oyoqlari ostiga qo'ydi, qo'lini shimining cho'ntagiga suqib, og'ir kalitlarni chiqardi va temir eshigining ikki qulfini ochdi. Chekkadan kuzatgan kishi uning chehrasidaga shodlik, ko'zlaridagi nurni ko'rib, aftidan, u hozirgina uy vasiqasi olgan, shuning uchun boshi osmonda deb o'ylashi mumkin edi. Ichkariga kirgach, har ikki devorda shift barobar ustma-ust taxlangan jiloli tokchalardagi kitoblarga qarab burnini tortib qo'ydi, tuflilarini yechib, tartib bilan juftladi va bir chetga surib qo'ydi, so'ng rangi uniqqan, tovonlari yeyilib ketgan yashil movut shippagini kiyib, xonaga kirdi. Yozuv stolining yonida ingichka temir quvurchalardan yasalib, devorga parchinlangan taglik ustiga o'rnatilgan ikki yirik akvariumga yaqin bordi. Baliqlar sharpani sezib qimirlab qolishdi, bemalol suzib yurganlari tumshug'ini shishaga qadaganicha yuqori chiqib, pastga tusha boshladi, tez suzib yurganlari esa damsoz suvga urib turgan havo oqimida chirpirak bo'lib ketishdi: baliqlar, aftidan, bugun o'zlariga toza xo'rak berilishini, egalari bozordan qaytganini, u suvning ichida kulcha bo'lib yotgan mayda, qip-qizil chuvalchanglar olib kelganini sezgan edilar. Mark Georgiyevich jilmaydi, xuddi bolalarday sevinib, kaftining orqasi bilan akvarium oynasini silar ekan, g'alati bir ovozda: "guli, guli vi moi!" – deb qo'ydi. So'ng u ayvonga chiqdi, bankadagi xo'rakni suvi bilan to'rtburchak idishga ag'dardi: bozordan keltirilgan xo'rakni darhol baliqlarga berib bo'lmasdi, keyin Mark Georgiyevich lupa orqali chuvalchanglarni diqqat bilan nazardan o'tkazar, baliqlar uchun zararli ba'zi bir hasharotlarni qisqich bilan ushlab, hojatxonaga tashlab yuborardi...

Mark Georgiyevich xonaga kirib, eshikni berkitdi, oshxonaga borib gazni yoqdi va choy qo'ydi. So'ng tag'in kabinetga qaytdi, akvariumlarga ko'z qirini tashlab, kursiga o'tirdi va telefon apparatini oldiga tortib, dastakni qulog'iga tutmasdan, ko'pdan yodiga o'rnashib qolgan raqamlarni tera boshladi.

– Zamina xonim? Salomatmisan? – Mark Georgiyevich Ozarbayjonda yashagan yillari mobaynida bu tilni puxta o'rganib olgan edi. – Katta rahmat, mening nomimdan ham salom ayt... Tak... gemoglobinning hech qanday zarari yo'q, bezovta bo'lma. – U rus tilida gapira boshladi. – Ti, radi boga, ne bespokoysya. Poka ya ne viju veskix prichin dlya gospitalizatsii. Vse svyazano s gormonalnimi izmeneniyami; i pritom neznachitelnimi. – Yana ozarbayjonchaga ko'chdi: – To'g'ri, to'g'ri, qornini tuk bosishi ham, asablarining chatoqligi ham, hammasi faqat gormonal o'zgarishlar bilan bog'liq. Sira bezovta bo'lma. Ertaga sakkizlardan keyin boraman. Mening nomimdan ko'pdan-ko'p salom ayt. Hozircha xayr. – Dastakni apparat ustiga qo'ydi, bir nafas nimalarnidir o'ylaganicha dastak bilan apparatni bog'lab turgan burama yelim simga tikilib qoldi.

Oshxonada chovgum hushtak chalgunga qadar shu alpozda o'tirdi. Chovgum hushtak chalib, "qaynadim, portlayman" degandan keyingina o'rnidan turdi, qotib qolgan umurtqasining zirqirab og'rishiga parvo ham qilmay oshxona tomon yurdi, dahlizdan chiqayotganida jinday oqsoqlanayotganini his etdi – og'riq hamisha o'ng oyog'iga azob berardi – hushtak chalganicha oshxonada bir stakan achchiq choy quyib, ichiga qand tashladi, piyonista vinoni qultumlab ichgani kabi (miyasiga kelgan bu muqoyasadan kulib qo'ydi) u ham choyni shoshmasdan, ta'mi-yu, harorati a'zoyi badaniga lazzat baxsh etayotganini his etgan holda ho'plab-ho'plab icha boshladi.

Boya telefonda gaplashganidan beri miyasida bir fikr charx urardi: bemorning barcha analizlari, shuningdek, umumiy klinik ahvoli uning diagnozi to'g'ri ekanligini har taraflama tasdiqlardi, ammo ayni paytda bemorning qorniga nima sababdan tuk chiqqanligini hech izohlab bo'lmasdi. Va rostini aytganda, Bokuda Mark Georgiyevichning bu borada maslahat oladigan bironta ham kishisi qolmagan edi. Mark Georgiyevichning ko'hna do'sti, shaharning

eng kuchli endikrinologi hisoblangan professor Qosimbeyli o'tgan yili vafot etgan edi. Qolganlari, ochig'ini aytganda, u qadar kuchli mutaxassislar emas edi, yosh doktorlarning esa aksariyati chalasavod bo'lib, ular bilan ro'baro' kelganda Mark Georgiyevichning tepa sochi tikka bo'lib ketardi...

Bergman bu bemorni davolashda, shubhasiz, to'g'ri yo'lni tanlagan, biroq muolaja paytida qandaydir xatolikka yo'l qo'ygan edi. Chindan ham xato qildimikan?... Har holda, Mark Georgiyevichning o'zi xato qilganiga hech ishonmas edi. Hatto ahyon-ahyonda uning miyasidan, agar uyidagi barcha kitoblarni, tabiiyki, tibbiy kitoblarni titkilab, qayta boshdan betma-bet diqqat bilan o'qib chiqsam ham, bu savolga javob topolmay, tag'in chalkashib ketaman, degan fikr kechar edi. Bu yerda qandaydir boshqa bir sir bor, bu metamorfozaning ildizi, aftidan, nainki tibbiy, hatto irsiy muammolar bilan ham aloqador emas edi. Balki Yaratganning o'zi bemor falon yoshga yetganida qornini tuk bossin, buni ko'rgan Mark Georgiyevich, yoshi bir joyga borib, salomatligi haminqadar bo'lib qolganida muvozanatdan chiqsin, oromi buzilsin, deya amr etgandir?... U o'zining bu fikridan kuldi, boshini tebratib hali yarimdan baland stakaniga qaynoq suv quydi va tag'in boyagi alpozda o'tirib, miyasini g'ovlatib yuborgan savollarga javob topa olmay, choy ho'play boshladi.

Qayrilib oshxonaning keng derazasidan tashqariga boqdi va bo'zimtir-moviy samoning qoq o'rtasida futbol koptogidek keladigan dumaloq bulutga ko'zi tushdi. Bu bulut parchasi shunchaki taxminiy emas, balki aniq dum-dumaloq, xuddi pargor bilan chizib olinib, samo yuzasiga yopishtirib qo'yilgandek edi. Ayni shu daqiqadan, bulutni ko'rgan soniyadan boshlab Mark Georgiyevich hamma narsani – bemorni ham, boya telefondagi suhbatni ham, taraddudlanib qolganini ham unutdi. O'sha tutun kabi tund bulut parchasi og'ushida barcha narsalar mum kabi erib, xotira charxpalagining parraklaridan oqa-oqa g'aybga ketdi. Ammo bu parraklarning birida, aylana-aylana xotira qudug'ining eng tubiga tushgan parrakning uchida, uning eng quyisida bir bulut, oq matoga tomgan siyoh tomchisi yang'lig' bir bulut Mark Georgiyevichning miyasini tumanday qoplab oldi: bu bulut uning derazadan ko'rgan bulutidan

ancha tund va qoramtir bulut edi – bundan ne-ne zamonlar ilgari, bu yerdan juda olis-olislarda, Mark Georgiyevich tug'ilgan joylarda, quyuq o'rmonda, daraxtlar orasida chalqancha yotganicha qo'rqib, titrab-qaqshab ko'kka boqqan o'smir bola o'zining yagona ilinji, yomg'ir rutubatidan to'yinib og'irlashgan, kattakon kazak papog'iga o'xshash ana shu yagona bulut bilan qolgan edi. Ana o'shanda, o'shal olis yillarda ushbu o'smir bolaning Xudodan tilagan yagona tilagi shu ediki, koshki shu bulut yerga enib uni, daraxtlar orasidan yuragi o'ynab, titrab-qaqshab yotgan bu o'smir bolani qalin ko'rpa kabi qoplab olsa, otlarning toptashi va qilichlarning sermashidan asrab qolsa! Koshki uning quloqlari "jidovskoye otrodye" so'zlarini eshitmay qolsa. Chunki bu so'zlarni eshitganda uning bola dimoqlariga uyugan qon hidi urilardi.

Jitomir poyezd g'ildiraklarining taraqa-turuq sadolari og'ushida yitib ketgan, vaqt o'tib Mark Georgiyevich asta-sekin hamma narsani esdan chiqargan, ammo, aftidan, faqat ana shu bulut parchasini unutgani yo'q edi... Mark Georgiyevich stakanni oshxona stoli ustiga qo'yib, sudda hukmi o'qilgan jinoyatchi kabi boshini quyi egdi va negadir yozuv stolining o'rta g'aladonida, uning eng to'rida necha yillardan beri ko'z qorachig'i kabi asrab kelayotgan to'pponchasi esiga tushdi. Bu to'pponchaning bitta-yu bitta o'qi bor edi. Mark Georgiyevichning so'nggi umidi, so'nggi ilinji edi bu o'q.

"Dunyoda akvarium baliqlaridan ko'ra yaxshiroq nima bor o'zi?" Mark Georgiyevich jilmayib qo'ydi.

* * *

Margo oshxonadan qaytib chiqdi. Uning kulgisini eshitib ko'zlarimni ochdim, bildimki, u choy qo'yib keldi. Margo esnaganicha:

– Choy biroz dam olsin, – dedi.

Men indamay ko'zlarimni yumdim.

– Tursang-chi, nega yotibsan?

Senga nima? Nega yotibsan, emish. Daf bo'l boshimdan, demoqchi bo'ldim. Ammo og'zimdan boshqa so'zlar chiqdi:

– Choyni achchiq qilib damla. Ikki dona qand ham solib yubor, issiq-issiq choy ichgim kelyapti.

Margo uyqusirab:

– Bu farmonlari ham bosh ustiga! – dedi.

Kipriklarimni zo‘rg‘a ochdim: bedor tunning horg‘inligi go‘yo har bir kiprigimda qo‘rg‘oshin kabi osilib turardi. Go‘zallarning holiga uyqudan turganida boq, deb to‘g‘ri aytgan ekanlar. Ixtiyor menda bo‘lsaydi, butun ayollarga kechasi uxlashni taqiqlab qo‘ygan bo‘lur edim. Tongda uyg‘ongach, chit ro‘mol kabi ezilib, g‘ijimlanib ketgan ayolning aft-angorini ko‘rish – xuddi och qoringa sirka ichishday bir gap. Margo bilan tanishganim o‘sha olis kuz oqshomini esladim.

Izg‘irin shamol esar, juda qattiq sovuq edi. Daraxtlarning yaprog‘i sarg‘ayib-so‘lgan kezlar. Daf’atan tushgan Boku kuzining zerikarli, izg‘irinli, chang-to‘zonli oqshomlaridan biri bo‘lib, shahar go‘zalligini bu chang-to‘zon bir pul qilgan edi. Bokuning kuzi ham qo‘qqisdan boshlanadi, yozi va qishi ham... Dumaloq ko‘cha chiroqlari tinimsiz tebranar, asfalt yo‘llarda, yo‘lkalarda uzun-qisqa, egri-bugri soyalar ilon o‘rmalagandek o‘tib borardi.

Men uyga qaytishim kerak edi, ammo poyezd jo‘nab ketgach, perrondan vokzal oldidagi xiyobonga chiqqanimdan so‘ng qo‘llarimni yomg‘irpo‘shimning cho‘ntaklariga tiqqanimcha qaqqayib qolgan edim. Qaygadir, kimgadir qo‘ng‘iroq qilishim kerak edi. Biroq kimga, qayerga? Harchand tirishsam-da, eslay olmasdim. Bu shamol, bu chang-to‘zon go‘yo miyamni falaj qilib qo‘ygan edi.

Buvim telvaserak derdi bunaqa hollarni...

Shunda men uni ko‘rib qoldim. U o‘n-o‘n besh qadam narida, berk suv do‘konchasining yonida turganicha menga tikilardi. Sababini-ku bilmayman, ammo uni ko‘rganim zahoti qaysi oshyonning qushi ekanligini darhol angladim. Va shu lahzadayoq ushbu o‘n-o‘n besh qadamlik masofadan turib ayol vujudining haroratini his qila boshladim. Dunyoda katta mo‘jizalar yo‘q, ammo ahyon-ahyonda ba’zi baxtiyor degulik emas, qayg‘usiz, oddiy odamlarning hayotida ayrim kichik mo‘jizalar sodir bo‘lib turadi. Bu ham ana shunday kichik mo‘jizalarning biri edi...

Margo choy keltirdi. Choy xuddi mening ko‘nglimdagidek – quyuq, shirin, issiq edi. Bunday damlangan choy nainki bir kishining, bemalol o‘n kishining tungi charchog‘ini yozib yuborardi. U o‘ziga noksimon stakanga choy quydi. Ikkimiz ham choyni ichib bo‘lguncha lom-mim demadik.

O‘sha olis, chang-to‘zonli kuz oqshomidan so‘ng mening bo‘ydoq hayotimda mitti yulduz paydo bo‘lgan edi. Bu yulduzning shu’lasi juda zaif, harorati esa yo‘q hisobi edi. Biroq har holda u yulduz, yulduz bo‘lganida ham mening yulduzim edi (Tag‘in bemorning dahani qochdi, labi yengilgina titradi: “Nega endi uni yulduz deyapman, yo tavba?” – degan fikr kechdi xayolidan).

Ilk tanishgan kunlarimizda, kechalari u boshini ko‘kragimga qo‘yib yotganicha g‘aroyib narsalardan so‘z ochardi.

– Bobomning bir qilichi bor edi, – der edi u, – uzun, shop qilich edi. Bobom, bu – ming yillik qilich, toshga ursang ikkiga bo‘lib yuboradi, derdi. Buvimning ikki ming yillik bozbandi bor edi. U paytlar bizning erkaklar uyda o‘tirmas, tez-tez jang qilgani ketar ekanlar. Ayollarimiz to erkaklar qaytib kelguncha qora kiyib, bozband taqib aza tutar ekanlar. Har uyda ulkan dumaloq nog‘ora bo‘larkan. Erkaklar jangga ketishlari bilanoq qora kiyib, bozband taqib olgan ayollar nog‘ora chala boshlar ekanlar. Hatto yuz yil o‘tsa ham, qosh qoraya boshlashi bilan ayollar bir yerga yig‘ilib olib yarim kechagacha nog‘ora chalaverar ekanlar... Buvimning aytishicha, qaysi ayol nog‘ora chalmasa, eri jangdan qaytgach uni o‘ldirar ekan...

Men so‘rab qolardim:

– Buvingning ham nog‘orasi bormidi?

– Yo‘g‘-ey... Bu ikki-uch ming yil ilgarigi gap.

...Choy meni qayta tiriltirdi. Kipriklarimdagi qo‘rg‘oshin og‘irligi chekinib, vujudimdagi horg‘inlik asta-sekin tarqay boshladi: go‘yo mushaklarimda tiqilib yotgan xilt chiqib ketgandek xiyla yengil tortdim. Choydan so‘ng Margo ham mening ko‘zlarimga bundan o‘n besh daqiqa ilgarigi kabi tarovatsiz, qarimsiq emas, ancha latofatli ko‘rina boshladi.

Bir gal undan:

– Margo, sening millating nima? – deb so‘ragan edim, u yelkalarini qisib:

– Bilmasam, – dedi.

– Xudoga ishonasanmi?

– Yo‘q.

Hovliga ochiladigan ikki tavaqali derazadan tashqariga boqqanimda hamisha parashyut minorasiga ko‘zim tushardi. U paytlar

parashut minorasining ustida dirijabl bo'lguchi edi, u patlar hali Margo yo'q edi, dirijablning tepasida samo, samoning tepasida "Xudoning uyi" bor edi. Chunki tongda buvim duo o'qiyotganida o'sha tomonga yuzlanardi. U yerda nima bor, deb so'rardim men, u tomon qibla deb javob berardi buvim. Men qibla "Xudoning uyi" bo'lsa kerak, deb o'ylar edim.

Tunda parashut minorasi ko'rinmasdi. Tomlarning ustida, parashut minorasi tomondagi tubsiz zulmat og'ushida, dirijbal osilib turgan nuqtada, har tarafda yulduzlar porlardi. Bokuning xo'rozqand kabi yulduzlari.

Tun ko'pincha o'zi bilan shamolni olib kelardi. Dastlab tomlar, yo'lkalar uzra shitirlab suringan sarin shabada asta-sekin zo'rayib, eshik-derazalarni qo'porib yuborgudek xazriga aylanardi. Men harchand sinchiklab tikilsam-da, bulutlarni ko'ra olmasdim, shu bois yulduzlarni ikki-uchtalab o'chirayotgan qudrat – Xudo bo'lsa kerak deb o'ylardim. Qaydadir o'qiganmanmi, eshitganmanmi, anig'i esimda yo'q, har qalay har bir odamning, u hayotmi yoki o'lib ketganmi – bundan qat'i nazar, o'z yo'li bor – xuddi o'rta maktabning hisob darsliklaridagi kabi "A" bekatidan chiqib "B" bekati sari ketayotgan yo'li. Hamma o'zining "A" bekatidan chiqib "B" bekati sari, xo'sh, ko'raylik-chi, "B" bekatining u yog'ida nima bor ekan, degan bir xayol bilan ketadi, chindan ham olamda balki shunaqangi g'aroyib narsalar borki, ularning izohini, ma'nosini nainki hisob darsliklaridan, hatto dunyoning eng purmazmun kitoblaridan ham topa olmaysan. Xususan, Margoga bergan oddiy savollarimga ba'zan mavhum javoblar olganimda menga shunday tuyulardiki, Margo va unga o'xshagan boshqa ayollar "B" bekatidan chiqib bu tomonga – "A" bekatida turgan biz kabi kimsalarga kichik bir mo'jiza baxsh etish, bir nafaslik musaffo havo berish, qo'llarimizdan ushlab, qaddimizni rostlab, "Xudo haqqi, quyoshga tikilish qo'rqinchli emas, cho'chimang, siz axir ko'r emassiz", deyish uchun keladilar.

– Hoy qiz, odam axir o'zining qaysi millatdan ekanligini bilmasligi mumkin emas.

– Nega endi?

Tavba, Margoning chunon go'zallashib, inson aqlini shoshirib qo'yadigan paytlari bo'lardiki, shunda u bilan bir yostiqqa bosh

qo‘yganingga ham ishonmay qolarding. Bug‘doyrang chehrasidagi tubsiz ko‘zlari bilan odamga qiyg‘och tikilganida, yo qudratingdan, bu osmondan tushgan farishta bo‘lsa kerak, deb o‘ylar, go‘yo ins-u jinslardan xoli bir chamanzorga kirib qolgandek, senga hali bani odam nazari tushmagandek his qilarding o‘zingni... Ba’zan u menga boqqanida yoxud yonimda uzanib, boshini ko‘ksimga qo‘yganicha beg‘am-beparvo yotganida, men yuragimni kuydirib yuborayotgan intihosiz g‘ussaning sababini anglay olmay, ne baxtki, bu dunyoda Margo bor, ne baxtki, dunyoda shunaqangi ehtirosli ayol dudoqlari bor, xullas, ne baxtki, endi men yolg‘iz emasman, bu behudud olamda men hozir yolg‘iz bo‘lganimda, ehtimol jinni bo‘lib qolardim, deya o‘ylardim. Jinni bo‘lib qolganlarning aksariyati, ehtimolki, hammasi, “A” bekatidan chiqib “B” bekati sari yo‘l olgan, ammo ne sababdandir Margoga duch kelmay qolgan kimsalar edi.

...Bemorning qulog‘iga bir tovush chalindi, olis-olisdan, zo‘r berib guvillayotgan shamol og‘ushidan Zulfiqor otaning ovozi eshitildi:

– Hoy, bola, har gapni o‘zingga olaverma...

Shu gapni aytgach, Zulfiqor ota jilmaydi, o‘siq qoshlari kipriklari bilan qorishib ketdi, chubug‘ini tutata-tutata bemor ko‘zlarining ich-ichiga tikildi. Biroq bemor Zulfiqor ota bilan o‘zi orasidagi qop-qora zulmat sarhadini va Zulfiqor otaning boshi uzra yuksalib turgan muz qoyalarni ko‘rmadi. U ko‘zlarini chirt yumib, ortiq hech bir narsani ko‘rmaslik va hech bir narsani eshitmaslik uchun o‘zini qorong‘ulik og‘ushiga otdi. Yolg‘iz yurakka qisqa bir daqiqa ichida shuncha xotira sig‘adimi, axir!..

Bizning keng, yorug‘ hovlimizda mart oxirlaridan boshlab hayot o‘zgarib ketadi. Kuz va qishda qor, yomg‘ir yog‘averib, hamma yoqni zax va rutubat anqib turgan ko‘lmakchalar bosib ketganida hovlining fayzi qolmaydi. Tund, yurakni siqib yuboruvchi, qariyaning yuz yillab sandiqda yotgan ko‘ylagiga o‘xshash bir tusga kiradiki, bu yerga yo‘ling tushganida yon-veringga boqishdan ham cho‘chiysan. Agar tasqara devlarning borligi rost bo‘lsa, ular qish oylari kelib bizning hovlimizda yashasa kerak...

Ammo ko‘klam boshlanib, burchak-burchaklarda qimtinib turgan daraxtlar kurtak yozishi bilanoq uy boshqaruvchimizning ish-

lari qozonda qaynayotgan suv kabi to'lib-toshib ketadi. U yer-bu yerda qalashib yotgan quvur parchalari, eski chelaklar, latta-putta, yog'och bo'laklari yuk mashinalariga ortilib, hovlidan olib chiqib ketiladi, asfaltga suv sepiladi, stollar, o'rindiqlar bo'yaladi, xullasi kalom, uy boshqaruvchimizning o'zi aytganidek, hovlimiz "lyuks" bo'lib qoladi. Yuqori labidagi qo'ng'iz mo'ylovini shahodat barmog'i bilan silaganicha hovlida u yoqdan bu yoqqa borib-kelib, ishchilarga, farroshlarga ko'rsatma berayotgan uy boshqaruvchimizning guldurak ovozi yangraydi: "G'ayrat qilinglar, yo'qsa, Xudo haqqi, demagoglarning ta'nasidan qutula olmaymiz. O'sha taxtalarni ham yo'qot! E, barakalla! Gurgen, stolni qizilga bo'ya, mavhum bo'lgani yaxshi. Bo'yoqni ayama, hukumatniki. Qizxonim singlim, sen ham baraka top!"

Qizxonim – hovlimizning farroshi. Mana, mening bu binoga ko'chib kelganimga necha yillar bo'ldiki, har kun ertalab soat oltida uning hovli supurib yurganini ko'raman. Bizda bir narsa odat bo'lib qolgan: kechasi soat o'n ikkidan so'ng besh qavatli binoning hovliga qaragan ayvonlaridagi eshiklar birin-ketin ochila boshlaydi – kimdir hovliga kuldonini to'kadi, kimdir g'ajilgan suyaklarni otadi... Ertalabga borib hovlimiz kattakon axlatxonining o'zi bo'lib qoladi. Qizxonim sopi uzun supurgisini ishga solishdan avval tepaga boqib, Yaratganga faryod qilgan kabi, diydiyosini boshlab yuboradi: "Odamlarda odamgarchilik degan narsa qolmadi! Kechasi to ertalabgacha ishlari achoq-quchoq, muchchi-muchchi! Ha, ordona qolgurlar, tag'in erkak emish bular. Hoy noinsof, axlatni hovliga otganni qayerda ko'rgansan?! Iloyo onaginang, opaginang men tushgan kunlarga tushsin!" Birdan nutqining avj pardasida Qizxonim qo'qqisidan jimib, axlat uyumi orasidagi allanimaga egilgan ko'yi diqqat bilan tikilib qoladi. Bu "allanima" shunaqangi narsaki, Qizxonim uning nomini tilga ola bilmaydi. Qomatini tiklab, qars etib qo'lini qo'liga uradi, afti bujmayib ketadi: "Yo tavba!.. Qani nomus, qani hayo! Bunaqa tarbiya bergan ota-onaning padariga ming la'nat. Bu tariqa dunyoga kelgan boladan nima kutib bo'ladi, axir?"

Hovlida zog' ko'rinmaydi. Soat oltida boshlanib, yetti yarimgacha davom etadigan bu qora qarg'ishlarni, do'q-po'pisalarini, aftidan, faqat men eshitib turaman. Margo yonimda qolganida bu

binoda hammadan erta turadigani o'zim. Havo yaxshi bo'lsa, ayvonga chiqib, beshinchi qavatning derazasidan boshimni chiqarib Qizxonimga salom beraman. Qizxonim ovozimni eshitishi bilanoq tepaga qaraydi, supurgisini nayza kabi tik tutganicha, go'yo boyagi bolaxonador gaplarni illo-billo og'ziga olmaganday, butunlay boshqacha ohang, boshqacha tovushda javob beradi:

– O'zing yaxshi yotib turdingmi, yigit... Bugun magazinga toza go'sht keltirishadi, xohlasang, senga bir kilo olib kelay. Tushda tuxum ham bo'ladi, deyishyapti, parhezchasidan.

Men Qizxonimning yuqoridan juda kichik ko'rinadigan semiz, dumaloq gavdasiga, o'zidan uzun supurgisiga, qora kalishlariga tikilsam-da, xayollarim butunlay tarqamagan, boyadan beri Qizxonimning qarg'ishini, endi esa go'sht, tuxum haqidagi xabarlarini eshitib tursam-da, negadir bir gap topib aytishga hafsalam bo'lmaydi. Qo'qqisdan miyaga shunday fikr keladi: "Qizxonimga bir million bersang ne holga tusharkin?"

Qo'shnilarning aytishicha, Qizxonimning yolg'iz o'g'li urushdan qaytmagan ekan, ayolning qo'lida boquvchisini yo'qotganligi uchun nafaqa daftarchasiga bo'lsa-da, unga keladigan pulni olmas, o'g'limning qon puliga non sotib olmayman, der emish. Trolleybusda pattachi bo'lib ishlaydigan olti bolali qizi bilan shu hovlining chekkasida, eski uylardagi bir xonali kvartirada turar, olti nevarasiga ham buvilik qilardi, ham onalik...

Bemor ko'pdan beri Qizxonimning ovozini eshitmay qo'ygan edi. Chunki endi uydagi barcha derazalar mahkam bekitib qo'yilgan edi. Bundan ancha ilgari bemor yo'lakdagi bir xonali kvartirasidan kimdir bo'shatgan uch xonali kvartiraga ko'chib o'tgach, to'y qilib uylangan paytlarida, kunlarning birida yo'lakka kiraverishda Qizxonimga ro'baro' kelgan edi. Qizxonim uni tabriklagan, bemor o'sha paytda darhol unutib yuborgan, mana endilikda yodiga tushib turgan ushbu so'zlarni aytgan edi:

– Xafa bo'lma, yigit... Ammo Margo senga judayam loyiq qiz edi. Uvol bo'ldi...

O'shanda, bu so'zlar aytilgan paytda Bokuga tag'in kuz tushgan, havo sovuq edi. Qizxonim katak jun ro'molni boshiga solib, uchlarini bo'ynining tagidan tortib bog'lab olgan, tinimsiz burun

tortardi. Bu ham bemorning ko'z oldida aniq-ravshan namoyon bo'ldi. Qizxonim Margoning nomini tilga olishi bilanoq go'yo kuz sovug'i bu ismni muz parchasiga do'ndirib bemorning bo'g'ziga joyladi, halqumidan ichiga qandaydir sovuq bir narsa oqib tushganday bo'ldi. Bemor yelkalarini qisdi, bosh tebratdi, ammo og'iz ochib biron narsa deyishga majol topmadi.

Uvol bo'ldi...

Bemorni militsiya bo'limiga chaqirishganida uning hali hech narsadan xabari yo'q edi. Yoshgina leytenantning kabinetida eshitgan gaplardan so'ng u dastlab o'zini yo'qotib qo'ydi, leytenantning sirli va biroz takabburlik bilan jilmayganini ko'rib, jahli chiqib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, Margo Bokuning qaysidir mehmonxonasida rayondan kelagan mas'ul bir xodimning xonasida qo'lga tushibdi. Tug'ilgan kunidan beri odob-axloq qoidalari nima ekanligini bilmaydigan leytenant jinoyatning mag'zini juda yalang'och izohladi, hatto, buning ustiga ba'zi voqealarni juda beparda qilib tasvirladi. Shundan ma'lum bo'ldiki, qonunga ko'ra tergov tugaguncha har bir shaxs Margoni o'z kafilligiga olishi mumkin ekan va hech kimi bo'lmagani uchun Margo uning nomini tilga olibdi.

– Mening nomimni?

– Ha-da, sening nomingni! – leytenant kuldi.

So'ng suhbat cho'zilgandan-cho'zildi, leytenant portfelidan kattakon bir termos chiqarib, ikki qalin stakanga choy quydi – xonada zang hidi anqib ketdi – kirlanib ketgan bir hovuch qandni gazeta parchasiga solib uning oldiga qo'ydi. Choy ustida suhbatni davom ettirdilar, leytenant ba'zi bir sirlarni ochdi va bu gaplarni boshqalarga aytish zinhor mumkin emas, deya uni ogohlantirib qo'ydi. Bemorning anglashicha, chekka rayondan yig'ilishga kelgan odamlarning pulini shilish maqsadida shaharda butun boshli bir to'da tashkil topgan emish va bu to'daning – xuddi shunday dedi – "bu to'daning eng faol a'zolaridan biri Margo Falonchiyevna ekan". Birozdan so'ng leytenant o'z qarshisida o'tirgan, yuzlari so'lib qolgan bu kimsaning mashhur qarindoshlarining nomini tilga oldi va qo'shib qo'ydiki, agar ana shu nozik jihati bo'lmaganda, u bunaqangi suhbatga behuda vaqt sarflab, gapni cho'zib o'tirmagan bo'lar ekan. "Yaxshi emas, og'ayni, o'rtada ana shunday kishilar

turibdi". Bu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini ham leytenantning o'zi ko'rsatdi.

– Hammamiz ham yigitmiz, – dedi u, – ba'zan aqlsizlik qilib qo'yamiz, bo'ladi-da endi. Ammo... bu ish unaqangi mayda ishlardan emas.

Leytenant ko'zlari qo'ng'ir, yelkalari keng, umuman, juda jussador yigit edi. Har nafas olganida burun parraklari shu qadar kengayib ketardiki, go'yo hozir bu parraklardan bug' chiqadi-yu, xonani parovozning chinqirig'i tutib ketadi, deb o'ylardi kishi. Bunaqangilar, shubhasiz, ayollar masalasida muhtojlik chekmaydilar.

U oqshom g'ira-shiraligida leytenant huzuridan chiqqach, yurgani majol topmadi, militsiya idorasining orqa tomonidagi ko'chaning xilvat burchagida turgan telefon budkalaridan biriga kirib, eshikka orqa qilib turganicha yig'lab yubordi. Chunki u bundan atigi uch daqiqa ilgari leytenant bergan oppoq qog'ozga bunday deb yozgan edi: "Men Margo Falonchiyeva bilan tanish emasman". Shu so'zlarni yozib, ostiga imzo ham chekkan edi.

* * *

Bergman qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Zamina shosha-pisha ochgan eshikdan ichkari kirar ekan, dastlab dori hidini sezmadi, oshxonadan kelayotgan qovurmaning hidi gup etib uning dimog'iga urildi. Qo'ltig'idagi bog'langan paketni nikelli kiyimilgichning ustiga qo'yib, Zamina bilan salomlashdi. Ayolning qo'li sovuq, dahliz esa iliq edi – oshxonada pishayotgan taomning hovuri dahlizni tutib ketgan edi – Bergmanning ko'zlari achishdi. Zamina kelib-ketguvchi kishilardan ming martalab eshitgan so'zlarni Bergman ham takrorladi:

– Xonangizning havosi juda og'ir.

– Uyni shamollatishga qo'rqamiz.

– Nega?

– O'zingiz o'tgan safar, sovuqdan asrang... bronxlarini, degandingiz-ku, axir. – Zaminaning ko'zlari qizargan edi. – Men bilmasam...

Bergman jilmaydi, kumush gardishli ko'zoynagi tagidagi qordek oppoq kipriklari pirpiradi.

– Meni to‘g‘ri tushunmabsan, singlim... Xonaning havosi juda og‘ir. Nafas olib bo‘lmaydi, – dedi va tomoq qirib bemor yotgan xonaga kirmoqchi bo‘lgan edi, Zamina uni to‘xtatib qoldi, sekin tirsaklaridan ushlab:

– Asablari joyida emas, – dedi, – xuddi yosh boladay bo‘lib qolgan.

– Masalan?

– Tunov kuni qishloqdan holvaytar qilib yuborishgan ekan. Oldiga olib kirgan edim, bir qoshiq yeb, rosa yig‘ladi.

– Ishtahasi qalay?

Zamina bosh silkidi.

– Ishtahasi yomon emas. Ammo o‘zi judayam g‘alati bo‘lib qolgan. Bir qarasang, bekordan bekorga ko‘zlari yoshlanadi, bir qarasang, bolalarni urishib beradi. Asablari tamom bo‘lgan, professor.

Bergman ayolning qo‘lidan tutdi.

– Hammasi o‘tib ketadi. Qo‘rqadigan joyi yo‘q... Har holda, mening fikrim shunday. Qolaversa, men hali professor emasman, balki biron o‘ttiz yillardan keyin omadim kelsa, professor bo‘lib qolarman. Hozircha do‘xtirman, – deya kuldi, shu qadar bemalol kuldiki, Zaminaning butun shubha-yu, xavotirlari tarqab ketdi, ayol ko‘ksini to‘ldirib yengil nafas oldi. “Odamzot degani nega uylanadi o‘zi?” – degan fikr kechdi Mark Georgiyevichning xayolidan.

– O‘zi qayerda? – so‘radi u.

– Katta xonada.

Ular yemakxona sari yurdilar. Bemor yelkasiga xotinining jun ro‘molini tashlaganicha oromkursida televizor tomosha qilib o‘tirar, ekranda ko‘ksi ordenlarga to‘la bir kishi nimalarnidir gapirmoqda edi. Ostonadan ichkari kirayotgan Bergman ekranning zangori rangini akvariumning suviga o‘xshatdi. Qadam tovushlarini eshitgan bemor ortiga o‘girildi, Bergmanni ko‘rib o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, yuzining mushaklari o‘ynab chiqdi, biroq Bergman qo‘l ishorati bilan uni turgani qo‘ymadi, yaqiniga borib qo‘l uzatdi.

– Xo‘sh, qalay?

– Bir nav. Endi kechalari issig‘im chiqmayapti. – Bu gapning chinligini tasdiqlatish uchun xotiniga ilinj bilan tikildi. Zamina ham bosh silkib uni tasdiqladi.

– Shukur, – dedi ayol, – ikki kundan beri issig'i yo'q. – So'ng oromkursining suyanchig'idan qo'shqo'llab tutganicha biroz ilgari surdi va doktorni o'tirishga taklif qildi. Bergman kursiga o'tirdi, bemorning ozg'in qo'lini tutib, tomirini topdi va chap qo'lidagi soatni ko'ziga yaqin olib kelib, biroz tikilib turgach rizolik ila bosh silkidi:

– Xo'-o'sh.. Taxikardiya yo'q.

– Do'xtir, sizga bir stakan choy olib kelay, a? – Zaminaning ovozi shu qadar iltijoli chiqdiki, Bergmanning yuragi orziqib ketdi.

– Albatta, – dedi u, – o'tgan galgi malina murabbosidan bo'lsa, yanada zo'r bo'lardi.

– Bo'lmasam-chi! – Zaminaning ko'zlarida shu'la porlab, yuzlariga qizillik yugurdi, sevinganicha choy olib kelgani oshxona tomon ketdi. U xonadan chiqqach, Bergman bemorga bir-ikki savol berdi, dorilarni muntazam ichyapsanmi yoki yo'qmi deb so'radi, Zamina stol ustiga qo'ygan analiz natijalarini olib birma-bir ko'zdan kechirdi, bemorning javoblarini diqqat bilan tinglagan ko'yi, hamishaki kabi, bemorni har safar ko'rganida o'zicha mushohadalar yuritadigan bir alpozda, rozilik alomati bilan vazmin bosh silkiganicha uning yuzlariga, uzoq davom etgan isitmadan so'ng po'rsildoq boylagan lablariga, nihoyat, qisilib, kichrayib qolgan ko'zlariga tikilar ekan, o'ziga umid bilan boqib turgan bu ko'zlarning tub-tubidagi qo'rquv, vahimaning sababi nima bo'ldiykin, deya o'ylanib qoldi.

– Juda yaxshi. Antibiotiklarni kamaytirsa bo'ladi. Modomiki isitma yo'q ekan, shunday qilish lozim. – Bergman analiz natijalarini stol ustiga tashladi va negadir yon-veriga bir qarab olib dedi: – Qani, ko'ylagingni ko'tar-chi.

Bemor sekin ko'ylagini ko'tardi, botib ketgan qornini, qovurg'alari mana men deb turgan ko'kragini uyala-uyala doktorga ko'rsatdi. Ko'ylagining oldini ochib, maykasini yuqori ko'tarar ekan, shu arzimas harakatdan, jinday zo'rga tushganidan peshonasiga ter tepchidi, qo'llarining salqi tortib qolgan mushaklari titradi. Bergman qo'lini bemorning qorniga qo'yib, mayin tuklarni siladi, go'yo noxosdan daydi itga tegib ketgan kabi kaftlarida yoqimsiz bir tuyg'u paydo bo'ldi. So'ng so'l cho'ntagidan xanjarning damiday

yaltirab turgan kichkina bir bolg'acha chiqarib, uning dastasi bilan bemorning ko'kragiga xochsimon ikki chiziq tortdi: deyarli hech qanday refleks yo'q edi.

– Belingda og'riq yo'qmi? – deb so'raganda, doktor nimani nazarda tutayotganini anglagan bemor shosha-pisha javob qildi:

– Yo'q, yo'q, hech qanday og'riq yo'q!

Bergman bolg'achani cho'ntagiga soldi.

– Meditsinadan xabardor odamni davolashdan yomoni yo'q, – dedi u. – Biron narsa so'raganingga ham pushaymon bo'lasan kishi. – Bergman jilmayib, qo'lini do'stona bir tarzda bemorning yelkasiga qo'ydi.

Bemor ham jilmaydi, Bergmanning gap ohangidagi samimiyat va iliqlikka taqlid qilgan holda:

– Shu qadar ko'p tibbiy jurnal, risola chiqarasizlarki, hamma narsani o'zimiz o'qib-o'rganib olamiz-da, – dedi.

– Menga qolsaydi, unaqangi kitob va jurnallar chop etishni butunlay taqiqlab qo'ygan bo'lur edim.

– Nega endi?

– Chunki siz ularni o'qib bilimdon bo'lib ketasiz, bizning esa qo'shimcha adabiyotlarni o'qishga vaqtimiz yetmaydi. – Bemor uning gaplarini maroq bilan tinglayotganini ko'rib, tajribali va hassos hakim sifatida bemor boya o'zi kirib kelgan paytidagi bezovtalikdan, asabiy kayfiyatidan ancha xalos bo'lganini, shuning uchun ham suhbatni xuddi shu tarzda – yarim hazil, yarim chin qabilida davom ettirish lozimligini angladi. – Sizlarnikiga kelishdan avval Salima xonimnikiga kirib chiqdim. Aytgancha, sen bilan Zaminaga ko'pdan-ko'p salom aytdi.

– Salomat bo'lsin. – Bemorning chehrasi ochilib ketgan, ko'zlari osoyishtalanib qolgan edi.

– Ha, aytmoqchi, Salima xonim gipertonik krizisning barcha simptomlarini menga birma-bir sanab berdi. Seni ishontirib aytamanki, hatto tibbiyot institutini bitirgan talaba ham uning bilganlarini bilmaydi. Butun fikr-u zikri qon bosimida, juda qattiq shubha changalida qolganki, undan qutula olmaydi... Shunchalik ko'p dorilar nomini, mashhur nevropatologlarning oti, familiyasini, qaysi kilinikada ishlashini, yangi davolash usullarini biladiki, Xudo haq-

qi, ularning ko'pchiligini mening o'zim ham bilmayman, nima ham derdim, u ayolning bilmaydigan narsasi yo'q. Qanday dorini yozib bersam, qalin bir kitobi bor – dorilar qomusi – avval o'shani varaqlab ko'radi, so'ng bu dorini ichish mumkinmi yoki yo'qligini aytadi. – Bergman qars etib kaftini kaftiga urdi, bemorning kulganini ko'rib unga qo'shildi, so'ng ko'zoynagini olib, oynalariga uh-uhlab dam urdi, dastro'moli bilan yaxshilab artgach, tag'in taqib oldi. – Hazil o'z yo'liga, keling, endi siz mening maslahatimga ko'ning.

– Nimani aytyapsiz?

Bergman kursida bir to'lg'anib qo'ygach, oyoqlarini ilgari uzatdi, elektr quvvat maromlatgichi g'o'ng'illaganicha nimanidir ko'rsatayotgan televizor ekraniga tikilsa-da, xayoli boshqa yoqda bo'lganidan hech narsani ko'rmadi.

– Boya Salima xonimga ham aytgan edim, endi senga ham aytaman, – deya u ortiga burilib, xonaning berk eshigiga qarab qo'ydi, go'yo u bu suhbat ustiga Zaminaning kirib qolishidan cho'chirdi. – Haligi Karimli masalasini bas qilinglar endi.

– Nega? – bemorning ko'zlari kattalashib ketdi.

– U paytlar kim kimga donos yozgan, kim kimni tutib bergan, endilikda bularni kovlab yurishning nima ma'nosi bor, azizim?

Bemor Bergmanning bu so'zlariga dastlab taajjublandi, chunki uning – Bergmanning gap nishabini nega qo'qqisdan bu tomonga burib yuborganini anglamadi. Tag'in shuning uchun ham taajjublandiki, uzoq yillardan beri – qirq-ellik yillardan beri, ushbu bemorning hali kichkina bola bo'lgan paytlaridan beri – bu ikki oilaning – Salima xonim bilan bemor oilasining qadrdoni, og'ir kunlarda eng sinalgan do'sti sanalgan doktor Bergman hamisha ba'zi nozik masalalardan gap ochilganda o'zini olib qochar, hazil-huzul qilib suhbatni chalg'itishga urinar, o'rnidan turib ketib, oppoq kipriklarini pirpiratganicha xona bo'ylab u yoqdan bu yoqqa bezovta yura boshlardi. Endi esa uning o'zi bu masaladan gap ochishi chindan ham taajjubli hol edi. Chunki Mark Georgiyevich Bergman Karimlini ham yaxshi tanir, o'sha olis yillarda Salima xonimning otasi boshiga tushgan musibatdan ham yaxshi xabardor edi. Bemor negadir qo'qqisdan o'tirishlarda biroz ichib olgach, yuzlari go'dak yonoqlari kabi qizaradigan Mark Georgiyevichning tez-tez

takrorlaydigan so'zlarini esladi: "Mening bu yurishimga parvo qilmang! Agar dunyoda ikkita ayyor odam bo'lsa, bittasi men bo'laman!" Balki Mark Bergman biron narsani sezib qolgan bo'lsa, endi bizni ogohlantirmoqchi bo'layotgandir?.. Karimli bilan hazillashib bo'ladimi? Oldindan choralar ko'rib qo'yishda bu o'lkada u shu qadar nom chiqarganki, uning dastidan shaytonga dars beradiganlarning ham dami bir umr ichiga tushib ketgan.

Bemor Bergmanning oppoq, uzun kipriklariga tikildi: shiftning o'rtasida osilib turgan qandildan – Zaminaning sepi edi bu – doktorning kumush gardishli ko'zoynagi o'ng ko'zining qoq o'rtasiga tushayotgan mosh kattaligiday shu'la aksi olmosday tovlanib ko'zni qamashtirardi... Bergman bemorning nimaga bu qadar diqqat bilan tikilib turganini sezgan kabi va uni bu zavqdan mahrum etmoqchidek boshini biroz yonga burdi: shu zahoti porlab turgan olmos shu'la yassi oynak sathidan yashin tezligida g'oyib bo'ldi.

Shu asno bir muddat bir-birlariga tikilganlaricha jim qoldilar, bemor angladiki, Bergmanning yuragi to'lib turibdi, u nimanidir biladi-yu, biroq aytishni istamayapti, doktor yuzidagi keskinlik endi ikkilanish va taraddud bilan almashgan edi – bemor buni yaqqol sezdi... Biroz sukutdan so'ng Bergman dedi:

– Boshqani bilmayman, ammo sen menga ishonishing kerak. – "Sen" kalomini ayricha ta'kid bilan, cho'zibroq aytdi. – Sen, azizim, endi faqat tuzalib ketishingni o'ylashing lozim. Boshqa hammasi jahannamga ketsin, sen aslo e'tibor berma. Hamma o'z jonini deydi. Meni aytdi dersan! Umr odamga bir marta beriladi. Agar umr ikki marta berilsaydi, mayli derdik, bittasini adolat tantanasi uchun kurashga sarflay qolay, xaloyiq yig'ilib bizga chapak chalsin. "Suronli olqishlar va hamma o'rnidan turadi". – Bergmanning aft-basharasi burishib ketdi. – Bularning hammasi bo'lmag'ur narsalar! Umr ikki marta berilsaydi, – deya yana takrorladi u.

Bemor ham eshikka qarab qo'ydi. Eshik berk edi.

Agar Zamina kelib bu suhbatni eshitsaydi, tabiiyki, u ham Bergmanning yonini olgan bo'lardi.

– Xudo haqqi, – dedi bemor, – goh-goh menga shunday tuyuladiki, Olloh bizga besh umr bersaydi, Mark Georgiyevich, siz aytgan adolat tantanasi uchun kurashga ana shu besh umr ham yetmas-

di... Rostini aytsam, men adolat tantanasi uchun kurash olib borish fikrida ham emasman. Mening bir orzuyim bor: talablarim orasida besh-oltitasi borki, men darsga kirganimda o'shalarning ko'ziga tik boqa olishini istayman.

– Be'mani gap. – Mark Georgiyevich asabiylik bilan tomog'ini qashidi. – Buning masalaga hech aloqasi yo'q. Men chindan ham seni tushunolmayman. Bizning ulkan mamlakatimizda Karimliga o'xshaganlar itning tukidan ham ko'p, eh-he, ularni sanab ado qilolmaysan. Unaqalar bor edi, hozir ham bor, bundan keyin ham bo'laveradi!..

Eshik ochilib, patnis ko'targan Zamina kirib keldi.

Patnisni stol ustiga qo'yib, undagi narsalarni – katta choynakni, murabbo solingan billur vazani, noksimon stakanlarni bir-bir dasturxonga terib chiqdi. So'ng stakanga choy quyib, birini Bergmanning, ikkinchisini erining oldiga qo'ydi. O'zi devor bo'ylab terib qo'yilgan, kanop jildlar kiydirilgan kursilardan birini tortib, erining yoniga, Bergman bilan yuzma-yuz o'tirdi. Xontaxta past bo'lganligidan Zaminaning tizzalari stol chetiga tiralib qoldi, u shoshganicha bir qo'li bilan xalatining tugmalarini o'tkazdi, ikkinchi qo'li bilan etagini tortib tizzalarini bekitdi. Bergman stakanning qirg'og'idan ushlab burniga olib keldi va choyni hidlarkan, dedi:

– Voh-voh! Mana buni choy deydilar. Ajoyib! Xudo haqqi, juda ko'p joylarda choy ichganman, ammo Zamina xonim damlagan choydaqa choy ko'rmaganman. Har kun menga shunday choy damlab bersalar, bir umr kasallik nimaligini bilmay o'tardim.

Zamina jilmayib erining yelkasiga qo'lini qo'ydi:

– Bu gapni manavi qarshingizda o'tirgan odamga ayting. Hech mening qadrimga yetmaydi.

Bemor ham hazilga qo'shildi:

– Qadringga yetmasaydim, – dedi u, – allaqachon haydab yuborgan bo'lardim. – U Zaminaning kirib kelganidan juda xursand edi, chunki Bergman bilan suhbatni davom ettirish ra'yi yo'q edi. Zero, u amin ediki, harchand urinishsa-da, na u Bergmanni ishontira olardi, na Bergman uni. Aftidan, Bergman ham xuddi shu fikrda edi, u bemalol o'tirib olib murabboli choy icha boshladi. O'rtada bo'lib o'tgan boyagi suhbatni hisobga olmaganda, bu kimsa bemor bola-

lik chog'laridanoq taniydigan o'sha Mark Georgiyevich Bergman – umrida ehtimol hamma narsadan ko'ra zo'r qilib damlangan choy bilan murabboni afzal ko'radigan dunyoning loqayd va faqir bir bandasi edi. Bu banda choqqina likopchadagi murabboni qoshiq-qoshiq og'ziga solib, lablarini chapillatganicha lazzatlanib choy ho'plash bilan mashg'ul edi: hozir xonada bomba portlasa ham, Bergman stakanni qo'lidan qo'ymasa kerak, deb o'yladi bemor,

– Doktor, tag'in choy quyib beraymi? – so'radi Zamina.

Bergman kumush qoshiqning orqasini yalaganicha:

– Albatta, – dedi. – Bunday narsalarni so'rab o'tirmaydilar, singlim! – U bemorga qarab ko'z qisib qo'ydi.

Zamina turib Bergmanning stakaniga yangidan choy quydi va uning likopchasini tag'in murabboga limmo-lim to'ldirib qo'ydi. So'ngra Bergman nimadir dedi va bemor bilan Zaminaning bundan yigirma besh yil avval bo'lib o'tgan to'yidan gap ochilib ketdi... Yigirma besh yil!... Uchalasi ham baravariga bosh tebratdi, bu voqeadan, to'y marosimidan, o'sha baxtiyor, qayg'usiz, kuy-qo'shiqqa, o'yin-kulgiga g'arq oqshomdan so'ng... oradan yigirma besh yil o'tib ketganiga uchalasining ham ishongisi kelmasdi, bundan ortiq shafqatsizlik bo'lmas, deb o'ylardi uchalasi ham, chunki o'sha to'yning mayda-chuyda har bir tafsiloti uchalasining ham hali-hamon yodida edi...

– Nega endi yigirma besh yil bo'larkan, singlim? – Bergman tag'in boshini sarak-sarak qilib, dastro'moli bilan peshonasidagi terni artdi. – Kechagina edi-ku, axir! – Uchalasi ham jilmaydi... Bemorning rahmatlik otasining yaqin do'sti Mark Georgiyevich Bergman o'sha to'yda eng aziz mehmon sifatida ishtirok etgan, o'tirish ayni qizib, mehmonlarning kayfi bir joyga borib qolganida u to'yboshidan so'z so'rab, ikki yoshni tabriklagan edi. Doktor Bergman sof ozarbayjon tilida gapira boshlaganida to'yda o'tirganlarning barchasi, xususan, mezbonning qishloqdan kelgan qarindoshlari hayratdan chapak chalib yuborishgan edi. Yana shu narsa bemorning yodidaki, Zulfiqor ota bemorga qarab baland ovozda bunday degan edi: "Yo tavba, bu bizning tilimizni Temir totordan ham yaxshi bilar ekan-ku!". Mahmud esa, Bergman so'zini tugatib, o'tirganidan so'ng uning yoniga borib, bag'riga bosganicha

yuz-ko‘zlaridan o‘pgan, so‘ng bemordan: “Bu ham musulmonmi?” – deb so‘ragan edi.

Doktor bilan Zamina xayolan o‘sha olis yillarda, yanvarning izg‘irinli sovug‘ida bo‘lib o‘tgan to‘yga qaytdilar, qaytganda ham ko‘ngillari surur va farahlarga to‘lib qaytdilar. Chunki har ikkalasi ham o‘sha to‘ydan rozi edi, to‘yning yugur-yugurlari, o‘yin-kulgi, surnay sadolari ularni toliqtirmagan edi: biri hali yoshgina qiz bo‘lib, kelinlik libosiga burkanganicha hayajondan gupillab urayotgan yurak zarblarini tinglagan ko‘yi sevgilisining yonida bosh egib o‘tirardi, ikkinchisi esa yaxshigina otib olgan, xususan, aytgan tabrigidan so‘ng qariyb o‘tirishning qahramoniga aylangan edi, olis-yaqinda o‘tirganlar qadahlarini ko‘targancha imo qilib, uning sharafiga ichishar, u esa bu ajoyib, shod-xurram o‘tayotgan tantananing iloji boricha uzoqroq, nainki uzoqroq, balki intihosiz davom etishini istardi, chunki bu tumanli, sarxush olamdan o‘z uyiga, tanholik og‘ushiga qaytishni xohlamas, o‘zgalar saodatidan tilanchi kabi bir chimdim tilanib olib, o‘z umriga ulash orzusida edi. Bemor esa Zulfiqor otaning doktor Bergman haqida aytgan so‘zlarini xotirlar ekan, yosh kelinchakning atir hidi anqib turgan vujudini, qiz yuragining intizor dukillashlarini, tabrik so‘zlarini, umuman, bu tantanani unutib qo‘ydi, o‘siq qoshli, pahlavon kelbatli bir kimsaning tilsimiga bandi bo‘ldi, xayolida turli fikrlar, uzuq-yuluq so‘zlar, baland-past tog‘lar, daralar, o‘rmonlarning manzaralari jonlandi, mana, u kelib-kelib kattakon bir daryo qirg‘og‘idan chiqib qoldi, unda cho‘milib, ko‘pirib yotgan suvdan yuziga, boshiga hovuchlab sochdi: suvning musaffoligi va bu suv, bu tog‘, bu o‘rmonlar tepasidagi samoning chidab bo‘lmas darajadagi moviyligi uning vujudiga singdi, jon-u jahonini to‘ldirdi. U yolg‘iz, toq-tanho qolishni istadi. Agar u hozir yolg‘iz qola bilsa, ya’ni shunday bir mo‘jiza ro‘y bersa, go‘yo qulflog‘liq eshiklardan o‘ziga keragini bemalol ocha biladigandek, shu bilan juda ko‘p savollarga javob topa oladigandek tuyuldi...

Insonning qo‘lidan hamma narsani tortib olish mumkin, biroq uning qo‘lidan yolg‘iz qolish huquqi tortib olinsa, u qafasga tushgan qush kabi potirlay boshlaydi: chunki u samoni ko‘rib, havoni his qilib turadi va sevinib, chappor urib uchmoq istaydi, ammo harchand urinmasin, tor qafasdan qutulib ketolmaydi. Chunki u

ushbu qafasning temir panjaralarini ko‘ra olmaydi. Bundan ming yillar ilgari temir panjarani kashf etgan noma’lum ustaga ofarin!

Bemor buvisini xotirladi. Bu xotira qulflog‘liq eshiklar ortida o‘z navbatini kutib turgan xotiralardan emas edi, bu, sohil yaqinidagi yuzi ko‘piklanib turadigan girdob kabi, juda yuzada qalqib yurgan, shu’lasi hech qachon so‘nmaydigan, hech qachon xira tortmaydigan xotira edi. Bu xotira – besh qavatli uyning uzun zinapoyalaridan inqillab-sinqillab chiqqan, nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qolgan, eshikning kalitini topa olmaganidan jahli chiqib, shahar solgan, besh qavatli binolar qurgan kishilarni yuragi bo‘shalguncha qarg‘agan, yolg‘iz qizidan ajrab qolgan soltob bir ayolning – uni kampir deb bo‘lmasdi, har holda bemorning o‘zi uni hech qachon kampir deb atay olmasdi – siymosi xuddi kechagiday ko‘z oldiga turgan xotira edi. “Hoy aylanaylar! Hammaga payok beradilar, lekin bizning laqmaga hech narsa bermaydilar!” “Laqma” – bemorning otasi edi. Urush paytida ular yashaydigan binodagilarning hammasi payok olar, faqat bemorning otasi bundan mustasno edi. Bemorning otasi kallayi saharlab ishga jo‘nardi, u paytlar hali kichik, oriqqina bola bo‘lgan bemor ba’zan uyg‘onib ketar, karavot ustida cho‘kkalab o‘tirganicha ko‘zlarini uqalay-uqalay tashqariga boqar, g‘ira-shira shahar tepasida qalin ko‘rpa kabi uyilib turgan qop-qora bulutlarga tikilar ekan, odamlar nega bu mahalda mazza qilib uxlab yotmasdan, turib ishga ketishlarini hech tushuna olmasdi.

Nihoyat, buvisi kalitni topardi, ma’lum bo‘lishicha, kalit ne-ne zamonlarni ko‘raverib sarg‘ayib ketgan charm xaltaning tagida, yarim chirik kartoshkaning ostida qolgan ekan. Ko‘cha eshigi ochilganda oshiq-moshiqlari shunaqangi qattiq g‘irchillab ketardiki, kinoda ko‘rgan tankalari beixtiyor bolaning yodiga tushardi. Sovuq ko‘chaga nisbatan biroz iliqroq bo‘lgan uyga kirib kelgan buvisi dastlab salavot o‘qir, so‘ng hansiraganicha oshxonaga yo‘l olardi, ko‘pincha oshxonaga borishdan avval xobxonaga kirib, ko‘zining oq-u qorasi bo‘lgan yolg‘iz nevarasining ustini yopib qo‘yar, yo‘g‘on gavdasini zo‘rg‘a egib, uning yuzidan o‘par, “uxla, hoy yetimcha, uxla” deb qo‘yardi...

Buvisi hammadan barvaqt, hatto bemorning otasidan ham erta turib suv qaynatar, oshxonadagi kerosin piltani taraqlatganicha

rosa qarg‘anardi. Chunki urushdan ancha oldin Ko‘mir maydonida bir miskardan olingan bu “Sankt-Peterburg” piltasi – bu pilta hozir ham bemorning Shuvalondagi bog‘ida, yerto‘laning bir kunjida yotibdi – Bokuning kerosinida ishlamasdi. “Boshqalarning piltasi ajalning o‘qiday yonib turadi, ordona qolgur bu piltani esa yoqquningcha ko‘zing sitilib oqadi!..” “Hoy buvi, sen nega nuqul chinqirib gapirasan? Chinqirmasang bo‘lmaydimi?” “Hoy yetim, chinqirmay bo‘ladimi, axir?” Ayol nevarasini quchib bag‘riga bosar, sochlarini silar, harorat bilan bolanining yuz-ko‘zlaridan o‘pib, shu qadar go‘zal, shu qadar shirin so‘zlar aytardiki, o‘sha olis yillardagi ushoqqina, kamqonlikdan rang-ro‘yi somondek sarg‘aygan bolakayning yuragi sevinchlarga to‘lib ketardi: endi hech qachon qaytib kelmaydigan bu sevinchda buvisining ko‘ylagidan, boshidagi shol ro‘molidan anqib turadigan kerosin hidi bor edi.

Agar inson o‘zi istagan paytda yolg‘iz qola bilsa, ehtimol, umrini uzaytiradigan juda ko‘p ishlar qilgan bo‘lur edi!.. Masalan, mashinaga o‘tirib, naq yarim tunda Bokudan o‘ttiz-qirq chaqirim narida joylashgan, devorlari buzilib yotgan bog‘ning havosi og‘ir, pastakkina yerto‘lasiga kirib borgan, sham yoqib, hech kimga darkor bo‘lmay qolgan qadimiy pilta yonida boshini tizzalari ustiga qo‘yib o‘tirgan va balki ushbu sham shu’lalari ostida bir mo‘jiza ro‘y berib, yerto‘laning taxtasi chirik eshigini ochganicha ichkariga bir ayol kirib kelib, pilta yonida o‘tirgan, sochlari oqara boshlagan bu kimsaning boshini silaganicha atigi ikki-uch kalima aytgan bo‘lur edi: “Tur, hoy yetim, borib uxla!” Uyquda emas, isitma elitganida emas, zulmat beshigida tebranayotgan tunning bedor og‘ushida bu so‘zlarni eshitmoq uchun inson faqat yolg‘iz qolishi lozim edi. Biroq o‘sha paytlar, ya’ni hali buvisi tirik ekanligida, otasi ishdan kech qaytadigan paytlarda Bokuning o‘sha ko‘hna, tomi tep-tekis uylaridan birida yashaydigan ozg‘ingina bolakay yolg‘iz qolishdan juda qo‘rqar edi. Darvoqe, u paytlar hech kim yolg‘iz qolishni istamas, chunki qattiq urush borar, o‘sha davrning barcha kunduzlari va barcha kechalari sovuq, izg‘irinli edi; urush yillarining bahorlari, yozlari haqida esa bemor hech narsani eslay olmasdi. Faqat urush yillarida qor hozirgiga qaraganda juda ko‘p yog‘ardi... Ammo o‘sha yillardagi nonning, taxir choyning ta’mi hozirga qadar bemorning og‘zidan ketmasdi.

Bemor boya, bundan ikki-uch daqiqa avval, xotini unga murabbo solib bermoqchi bo'lganida, kerak emas, shirinlik yesam ko'nglim ayniydi, degan edi. Bergman unga taajjub bilan qarab:

– Aksincha, ko'proq shirinlik yeyish kerak, – degan edi. – Gemoglobinni normaga solib olsak, ishlarimiz jo'nashib ketadi!..

U paytlar ushbu tomi tep-tekis binoda yashovchi "payok" oladigan qo'shnilarning ba'zilari har zamonda bemorning buvisiga "qo'shni tovoq" chiqarishardi. Tunuka tovoqlarda olib chiqilgan sariq, qizil, yashil obakilar ham shirin, ham nordon bo'lardi. Buvisi bu obakilarni yemas, tovoq ichida ularni birma-bir sanab ikki qismga ajratar, ko'proq qismini bemorning otasiga asrab qo'yardi. "Chunki u laqma sho'rlik ishlaydi, zora bu jinday mador bo'lsa!" O'zi esa hamisha shakardan pishirgan sarg'imtil qandidan yer, tunuka sarxumda bug'lanib turgan, rangi zo'rg'a chiqqan choydan issiq-issiq ho'plar ekan, tez-tez kaftini yalab qo'yardi. Chunki boya u sarg'imtil qandning kichkinagina bo'lagini biroz kaftida tutib turgan, endi kaftida qolgan shirani ham zoye qilgisi kelmasdi. "Molim chiqquncha jonim chiqsin!" – derdi u kulib. Har ikki-uch oyda ulardan ikki qavat pastda yashaydigan Falonchiyev shunaqangi bir "qo'shni tovoq" chiqarardiki, sevinganidan buvisining ko'zlari chaqnab ketardi. Bu "qo'shni tovoq"ni ertalab darhol bozorga eltib bir buxanka oq nonga almashtirib kelardi. Bemorning otasi na aroq ichardi, na konyak.

Keyinchalik, oradan ancha zamonlar o'tib, bemorning buvisi vafot etganidan keyin ota va o'g'il uzun yoz kechalarida yuzma-yuz o'tirib olib suhbat qurganlarida otasi avvallari aroq ham, pivo ham ichganligini aytardi. Ichishni urushdan avval, ba'zi bir voqealarning shohidi bo'lganidan so'ng tashlab yuborgan ekan. Ba'zi qo'niqo'shnilarning, mahram odamlarning o'zaro suhbatiga qaraganda, u paytlar ozodlikda yurgani, qamalmay qolgani uchun ichkilik ichishga, papiros chekishga odatlanib qolgan kishilarning oxir-oqibat holi voy bo'lar ekan. Kishilar yarim stakan aroq uchun bir-birlarini qonga bo'yar ekanlar... O'sha oydin yoz tunlaridan bemorning yodiga qattiq muhrlanib qolgan narsa – otasining ko'mirdek qorayib ketgan rang-ro'yi edi. Otasi hamisha urushdan avvalgi voqealarni xotirlar ekan, basharasi ko'mirdek qorayib, ovozi qo'rg'oshindek og'irlashib ketardi: "Suf sening sir-ru savdoyingga, hoy dunyo!.." O'sha

qayg‘usiz yoz tunlarida otasining gaplariga diqqat bilan quloq solib o‘tirgan bolakayning dunyo va uning sir-ru savdosiga, umuman juda ko‘p narsalarga hali aqli yetmasdi. Uning fahmlagani, ehtimol, faqat shu ediki, o‘zidan olis-olislarda dunyo deb ataladigan bir joy bor – dunyo bolakayning tasavvurida bog‘laridagi quduqqa o‘xshardi – bu dunyoga tushganlar aslo ortga qaytmaydilar, sir-ru savdo degan joyda tutqun bo‘lib, bir umr o‘sha yerda qoladilar...

U paytlar kechalari elektr chiroqlari tok quvvati pastligidan tez-tez xiralashib turar, charaqlab turgan oppoq shu’la qo‘qqisdan qizarib qolar, bu qizg‘ish shu’la og‘ushida chakka sochlari, soqolmo‘ylovi muddatidan ilgari oqargan otasining ko‘mirdek yuzi tashqaridagi zulmatning aksiga o‘xshab ketardi. Go‘yo o‘sha og‘ir, hazin zulmatning bir parchasi yirtilib, derazadan yopirilib kirib, otasining yuzini qoplab olgandek edi.

“Suf sening sir-ru savdoyingga, ey dunyo!”

...Mark Georgiyevich Zamina bilan shiringina suhbatlashib o‘tirar, aftidan, u bolalar haqida nelarnidir so‘ramoqda edi. Mark Georgiyevichning ovozi, garchi ular yuzma-yuz o‘tirgan bo‘lsalar-da, juda olislardan kelayotgandek tuyular, go‘yo bu ovoz ana shu qisqa masofaning qaysidir nuqtasidagi ko‘rinmas g‘ovga to‘qinib pasayib ketardi. Bu ovozning ohangi negadir bemor o‘sha olis yillarda eshitgan va hozir yodiga tushgan, olis yillar g‘oviga to‘qinib pasayib qolgan boshqa bir so‘zlar ohangiga o‘xshab ketardi: “Jalloddan to‘ragan jallod, qirib tamom qildi mamlakatni!” Narigi xonadan buvisining hadikli ovozi eshitilardi: “Voy tavba, tag‘in so‘kdilar!” Sho‘rlik ayol nima qilsin, oxirgi paytlarda “Jalloddan to‘ragan jallod”ni so‘kkanlar nonsiz qolmoqda edi...

* * *

Dunyoda eng qo‘rqadigan narsam – xususan shu kunlarda – tungi telefon qo‘ng‘iroqlaridir. Chunki so‘nggi paytlarda, Xudo haqqi, bir og‘iz shirin so‘zga, bir quvonchli xabarga zorman. Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin!

Mark Georgiyevich ketgandan so‘ng xiyla vaqt o‘tgach, bolalar qo‘shnimiz Xirdabonularnikidan chiqib kelib, shirin choy ichib, pishloq va non yeb, uxlab qolganlaridan keyin men malikayi dilozorning ijozatlari bilan miriqib bir dona sigaret chekdim.

So‘ng bir stakan nimtatir choy ichdim, biroq choy sigaretchalik lazzat bermadi. Oshxonada idish-tovoqlarni yuvib bo‘lgan xotinim xonaga kirib keldi va bufet ustidagi termometrni olib, lom-mim demay menga uzatdi. Men ham hech narsa demay uni qo‘ltig‘imga suqdim. Rosa uch daqiqa o‘tgach, men boyagidek lom-mim demay termometrni olib xotinimga uzatdim. Chunki xotin mening o‘zimni termometr ko‘rgani qo‘ymas, sening qo‘ling og‘ir, der edi. U termometrga ko‘zlarini biroz qisib tikilar ekan:

– Shukur! – dedi. – O‘ttiz olti-yu yetti.

U bu so‘zlarni shunday ohangda aytdiki, o‘zimga o‘zimning rahmim kelib ketdi: go‘yo issig‘im o‘ttiz olti-yu yetti emas, o‘ttiz yetti bo‘lib qolsa, shu zahoti cho‘zilib jon beradigandek edim.

Burchakdagi soat – bu ham xotinimning sepi edi – kechasi o‘n ikki yarimga zang urganida telefon shunaqangi qattiq jiringladiki, yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Xotinim meni har qancha avaylab-asrasa-da, harchand ehtiyot qilsa-da, dastakni ko‘tarishga jur’at eta olmadi. Men cho‘zilib dastakni oldim, telefonda Mark Georgiyevichning xishilloq ovozi eshitildi:

– Hali senga aytish yodimdan ko‘tarilibdi. Dahlizdagi kiyimilgich ustiga Salima xonim berib yuborgan bir paket qo‘ygan edim. Aftidan, otasining kundaligi bo‘lsa kerak. Xayr. Yaxshi yotib tur.

Vassalom.

– Kim ekan u?!

– Ha, Mark Georgiyevich!.. Baraka topkur taskin berdi. – Qo‘lim bilan dahlizga ishora qildim. – Anavi yerda paket bor ekan, menga keltirib ber. – Xotinim o‘rnidan turib istar-istamas eshik tomon yurganida uni to‘xtatdim.

– Yana bir xayrli ish qil, bir qadah konyak ham ber. – Xotinim menga o‘qrayib qaradi, ammo hech narsa demadi, paketni olib kelishdan avval bufetning oynavand eshigini ochib, arman konyagidan bir qadah quyib berdi. Men konyakni bir ko‘tarishda bo‘shatdim.

* * *

Quyosh muzli qoyalar uzra, shamsiya yanglig‘ ko‘k gumbazining qoq o‘rtasida ulkan sarig‘ dog‘ kabi qotib qolgan edi. Bu ulkan sarig‘ dog‘ g‘alati sariq shu’la sochardi: bu og‘ir shu’ladan tog‘-

tosh ingranib yotar, bu shu'la muz kabi sovuq edi. Oppoq muzliklarga bir sariq rang singib ketgan. Ufqlar qadar uzanib yotgan bu muzli qoyalarning tosh-u tuprog'ini ana shu sariq quyoshning ohi qotirib tashlaganidan hech bir kimsaning xabari yo'q edi. Bundan ne-ne zamonlar oldin quyosh shunday bir o'tli oh chekkan ediki, bu ohdan dunyoning suvlari qurib, yaproqlari qovjirab qolgan edi: bir ko'r oshiq[1] soch-soqolini silar ekan, jism-u jonini to'ldirgan muzlik barobarida soch-soqolida bir dona ham qora tuk qolmaganini his qilgan edi. Oshiq ho'ng-ho'ng yig'lagan, ko'zlaridan yosh o'rniga dum-dumaloq muz parchalari to'kilgan edi. Keyin u majol topib, dunyoning so'nggi bayotini[2] aytgan, bu so'nggi bayotining so'zlari havoda muzga aylanib, jaranglay-jaranglay olamni qoplab olgan, sariq rang og'ushida bir faryodga aylangan edi: Bobo Ko'ho, mardumlaringdan adolatingni darig' tutma!

– Naslingiz qirilsin sizning, ey ikki oyoqli maxluqlar!

Bobo Ko'honing zulmatdan boshlanib zulmat sari ketgan, dunyoning barcha – oq, qizil, yashil ranglarini eritib tim qora rangga aylantirib yuborgan qa'ridan bir hansirash eshtilardi. Bu qa'rning bir uchi mag'ribda edi, bir uchi mashriqda, bu qa'r dunyoning qoq mehvaridan o'tardi. Bobo Ko'honing hansirashidan million-million yorug'lik yili qadar olisdagi ulkan yulduzlarning shu'lasi sarob kabi jimirlar, ko'zi yo'lga intizor qolganlarning umidini yo'qqa chiqarib, birini mard qilardi, birini nomard. Bobo Ko'honing tubsiz og'ushidan bir shamol bosh ko'tarmoqda edi, bu shamolning mag'ribdagi hansirashidan mashriqda bo'ronlar paydo bo'lar, yashnab turgan daraxtlar ildiz-pildizi bilan qo'porilib ketardi; bu to'fondan dunyoni qo'lida sopqondek o'ynatganlarning yuragi yorilgudek bo'lar, joni bo'g'ziga kelganlarning esa ko'zlarida umid yona boshlardi... Bu tahdidli girdibod, bu falokatli guvullash yotog'idan bosh ko'tarib hamlaga shaylanayotgan shamolninig hali oddiy bir xo'rsinishi edi, xolos.

Dard ham og'riq kabi bir kelsa botmonlab keladi, singlim!

Hukmdorning ustiga ikkita ko'rpa tashlangan bo'lsa-da, biroq uning isitma aralash qalt-qalt titrashi bosilmas edi. Xoja Anvar enli

[1] **O s h i q** – baxshi (tarj.)

[2] **B a y o t i** – xalq og'zaki ijodida to'rt satrli she'r (tarj.)

taxtning quyisida, gilam ustida itday g'ujanak bo'lib yotardi. U tush ko'rar, tushida xo'roz go'shti yer edi. Agar hukmdor bundan xabar topsa, ya'ni sodiq navkarining tushda xo'roz go'shti yeganidan ogoh bo'lsa, ehtimol, darhol uning boshini tanidan judo qilgan bo'lur edi. Chunki hukmdor ikki kundan beri bir parcha nonga mahtal yotar, tomog'idan suv ham o'tmasdi. Bu dard unga qayerdan ilashdi, yo Tangrim?.. Nahotki hukmdor qal'ani ololmay, hirs-u hikkasini qondirolmay, o'z mamlakatidan olisda, cho'l-biyobonda qora bezgakdan itday o'lib ketaversa, nahotki Xudovandi karimning unga rahmi kelmasa? Axir u, buyuk mamlakatning buyuk hukmdori, kimga nima yomonlik qilgan ekan? Nahotki, kelib-kelib Tangri unga ana shunday adolatsizlikni ravo ko'rsa?..

Hukmdor zaiflik va isitma og'ushida og'ir-og'ir, qisqa-qisqa nafas olarkan, ko'zlarini zo'rg'a ochib, qoq o'rtasiga hafsala bilan yo'nib silliqlangan ustun o'rnatilgan chodirning uchburchak shiftiga tikilardi: chodirning bu qabariq uchburchak shifti isitmalab yotgan hukmdor nazdida ko'k gumbaziga o'xshab ketardi. Hukmdorning ichiga go'yo cho'g'lanib turgan kosov tiqilgandek, a'zoyi badani yonib borar, ammo peshonasi muzday sovuq edi: u har zamonda ko'rpa ostidan oriq qo'lini chiqarib peshonasiga qo'yar, manglayidagi sovuqlik asta-sekin kaftiga, barmoqlariga, butun vujudiga tarqar va tomirlarida qaynab yotgan qon biroz sokinlashgandek bo'lardi. Shunda hukmdor o'z-o'zicha botiniy bir rohat bilan "voh-ey!" deb qo'yardi. Aslida hukmdorni yoqib-yondirgan, andazadan chiqargan narsa yolg'iz bu isitma emas, yana qandaydir boshqa bir sabab ham bor edi, biroq hukmdor uning nima ekanligini hech anglay olmasdi... U tag'in ko'zlarini ochdi, Xoja Anvarning bir necha bor xo'rsinib qo'yganini eshitib yotgach, tilga kirdi:

– Anvar, hoy Anvar!

Xoja Anvarning quloqlari titradi, semiz, miqti gavdasini gilamdan ko'tarib, sapchib turdi:

– Dard-u baloyingni olayin, nima gap?

Begonalar, shohidlar bo'lmagan bunday paytlarda hukmdor o'z navkarini zahrli atamalar bilan emas, balki otini tutib chaqirar, bunday paytlarda sodiq navkar ham o'z hukmdorini payg'ambar

buyurgan kabi "odil hukmdor" deb atamas, mehrbonchiligini ona o'z bolasiga murojaat qilgani kabi juda oddiy va shirin so'zlar bilan izhor etardi:

– Nima gap, qurboning bo'lay, tinchlikmi?

Xoja Anvar taxtning bosh tomoniga yaqinlashib, ko'zlarini qisganicha hukmdorning olxo'riqoqiday bujmaygan yuzlariga tikildi: bu yuzlardagi bit ko'zlarning ich-ichida chaqnab turgan uchqunlarni ko'rib sevinchlarga to'ldi... Xoja Anvarning mudroq shuuriga, xo'roz go'shti yeb chiqqan totli tushidan so'ng uyg'ongach, og'irlashgan, lanj vujudiga lazzat yoyildi: boya hali falokat dorimagan, tutilgan oy sarg'imtir ufqda qotib turgan bir mahalda qo'nalg'ani larzaga solgan xunuk xabar – hukmdorning og'rib qolgani, ehtimol, hammadan ko'ra ko'proq Xoja Anvarni gangitib qo'ygan edi. U hovliqqanicha chodirga otilib kirib, hukmdorning vazir-u vuzarolar, sarkarda-yu sarbozlar qurshovida taxtga cho'zilganicha ingrab yotganini ko'rganda yuragi qinidan chiqib ketayozdi. Ichida faqat shunday deya oldi, xolos: "Yo Xudovandi karim, agar uning jonini olar bo'lsang, avval menikini ol!.." Boya hukmdorning ko'zlari bo'g'izlangan qo'y ko'zlari kabi jonsiz va sovuq edi, hali falokat dorishidan avval, hukmdorning yuziga o'lim o'zining qora sharpasini solgan, hukmdorning chodirida, ehtimol, sovuq ajal alomatini ham barchadan oldin Xoja Anvar ochiq-oshkor his qilgan edi.

Endi esa u hukmdorning ko'zlarida chaqnayotgan qahrli uchqunlarni ko'rgach, bu balokash dunyoda hatto o'lim ham hamisha o'z istagiga erishavermasligini, ajal bilan yuzma-yuz olishuvda o'zining, ya'ni Xoja Anvarning hamda buyuk bir mamlakat hukmdorining g'olib chiqqanligini angladi...

– Qurboning bo'lay, balki choy icharsan? – Xoja Anvar egilib, dumaloq, do'rdoq lablarini hukmdorning peshonasiga bosdi. – Issig'ing tushibdi, – dedi u. – Payg'ambarning inoyatidan aylanay, bergan kuningga shukur, yo Xudovandi olam! – Xoja Anvar qad rostlab, qo'llarini iltijo bilan ko'kka cho'zdi.

– Yo'q, – dedi u, – choy kerakmas. Hech narsa kerakmas. – Biroz sukutdan so'ng: – Qaydadir guvullab bir shamol esmoqda, Anvar! – dedi. – Bu tag'in Xudoyimning ne sir-ru asrori bo'ldi ekan?.. Balki folbinni chaqirish lozimdir?!

Xoja Anvar tevarak-atrofga alangladi, burchakda lip-lip yonayotgan chiroqning zaif shu'lasi ostida palosga tushayotgan ko'lkalarga bezovtalanib tikildi.

– Darmonsizlikdan bu, baloyingni olay. Shamoldan asar ham yo'q, – dedi va shu zahoti uning vujudiga bir titroq kirib, eti jimirlab ketdi. – Senga shunday tuyulyapti. – U hukmdorning ochiq ko'zlariga tikilganicha davom etdi: – Ertalab, Xudo xohlasa, iliq biya suti beraman senga, otday bo'lib ketasan.

Hukmdor ko'zlarini yumdi. Hatto u Xoja Anvarga yostiq ustidagi boshini rizolik ishorati bilan astagina silkib qo'ygandek tuyuldi. Hukmdor, ko'zlari yumuq, qisqa-qisqa nafas olganicha dedi:

– Yo'q, Anvar, yo'q... Esmoqda, Anvar, esmoqda. Bir shamol guvullab biz tomon kelayotir. – Tag'in ko'zlarini ochdi, Xoja Anvar hukmdorning nigohlarida zaif umidsizlik alomatini ko'rdi. – Koshki qal'ani olsaydik, so'ng nima bo'lsa bo'lsin edi. Har holda, Ollohning amri shu! – hukmdor oh chekdi.

– Ollohga ham qurbon bo'layin, uning amriga ham! Sen yuragingni keng tut. Falakda Olloh bor, yerda esa sen. Ollohning amri – sening amring... Uxlashga harakat qil. Uxla, hukmdorim. Barcha dardlarning darmoni – uyqu.

Bu so'zlarni eshitgan hukmdor ortiq ko'zlarini ochmay, qoshiq kabi uchburchak iyagi dir-dir titrab yotaverdi.

– Qal'ani olmoq shart, Anvar. Men mamlakatimga tulki kabi qayta bilmayman. Men payg'ambar huzurida badnom bo'la olmayman.

So'ng hukmdorni ter bosdi. Tirish peshonasiga tepchigan reza-reza ter tomchilarga aylanib yuz-ko'zlariga oqdi. Xoja Anvar sochiq olib, hukmdorning yuzlarini artdi, qup-quruq sochiq darhol islanib nam bo'ldi, biroq bu sovuq nam emas, qandaydir issiq nam edi: hukmdorning vujudidagi alanga ter bilan tashqariga chiqmoqda edi. Xoja Anvarning sevinchdan ko'zlari yoshlandi. U kalima o'girdi, hukmdorning terdan so'ng yengil tortib mudray boshlaganini, yengil-yengil nafas olayotganini ko'rib, Xoja Anvar ham ko'ksini to'ldirib nafas oldi, yoshlangan ko'zlarini kaftining orqasi bilan silib, bir-ikki qadam ortga chekindi, boya yotgan yerida, gilam ustiga chordona qurib o'tirdi. Hukmdorning terini artgan sochiqni tizzalari ustiga qo'yib, boshini horg'in-horg'in quyi egar

ekan, nimagadir ko‘zi tushib, butun vujudini qo‘rquv aralash hayrat qoplab oldi: boyagi iliq va nam sochiqning mayin tuklari orasida mayda muz parchalari xuddi shisha siniqlari kabi yaltirab turardi. Xoja Anvar dastlab, bular chindan ham shisha siniqlari bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Ulardan birini ehtiyotkorlik bilan qo‘liga olar ekan, muz parchasi barmoqlari orasida erib suvga aylandi va xuddi shu lahzada Xoja Anvarga olisdan, juda-juda olisdan guvullab kelayotgan bir shamol sasi eshtildi – go‘yo qaydadir o‘rmon tomonda qari bir bo‘ri bo‘g‘iq ovozda uvladi – Xoja Anvar qinidan chuqqudek potirlayotgan yuragining dukillashlarini tinglagan ko‘yi boshini ko‘tarib, shirin mudrab yotgan hukmdorning yuziga tikildi: hukmdorning peshonasi muz bog‘lagan edi, chodirning bir kunjidagi chiroq shu’lalarida yal-yal tovlanayotgan bu muz parchasidan Xoja Anvarning ko‘zlariga bir sovuqlik oqib kira boshladi, uning oyoqlari, qorni uvishib, bo‘g‘ziga qadar butun vujudi muz bilan to‘ldi. Xoja Anvar qimirlashga, og‘iz ochishga majol topmay o‘tirar ekan, yuragida bir faryod qo‘pdi: “Ey ulug‘ Tangrim, ey arz-u samoni yaratgan qudrat egasi, ey ushbu tunning sohibi, sen mening umrimdan kesib hukmdorimning umriga qo‘shgaysan! Agar uning jonini olar bo‘lsang, avval mening jonimni ol. Meni jahannamga solsang ham, uni jannati qil!” So‘ng u tag‘in boshini sekin-asta quyi solib, sassiz-sadosiz yig‘ladi.

Tashqarida tong otib kelar, chodirga alvon-alvon shu’lalar oqib kirmoqda edi.

* * *

Xotinim qo‘limdan tutib silkaladi, ko‘zlarimni ochib qarasam, u yonimda Bergman olib kelgan oq paketni menga cho‘zib turardi.

– Konyak mazangizni qochirib qo‘ydi, shekilli? – dedi u. Uning boqishlarida tag‘in xavotir, vahima bor edi. Xotinimning ko‘zlarida o‘rinli-o‘rinsiz paydo bo‘ladigan bu xavotir so‘nggi paytlarda mening asabimni buza boshlagan edi... Men “xavotir olma” degan ma’noda bosh tebratib, paketni oldim, kutganimning aksi o‘laroq, paket yupqa va yengil edi. Aftidan, Salima xonim kundalikni to‘laligicha berib yubormaganga o‘xshaydi. Salima xonim otasining – Sa’di Afandining ne-ne ro‘zg‘or mashaqqatlariga chi-

dab, avaylab-asrab kelayotgan kundaligini menga berishni necha yillardan beri kamida ming marta va'da qilgan edi. Va har safar yon-veriga hadiksirab qarab qo'yar ekan, ovozini pasaytirib ayni bir jumlani takrorlardi: "Ammo hech kimga zinhor-bazinhor og'iz ochmaysan!" Albatta, deb javob berardim men, bu haqda umrbod hech kimga lom-mim demayman.

Men Salima xonimdan bu kundalik hozirga qadar saqlanib qolganini, to's-to'polonlarda yo'qolib ketmaganini ilk daf'a eshitganimda, chindan ham sevinchdan boshim osmonga yetgan edi, chunki Sa'di Afandi qo'lyozmalaridan juda oz narsa saqlanib qolganini, o'zi tirik ekanligida atigi uchta kitobi chiqqanini bilardim... Ammo oylar, yillar o'tib borar, xotinim bilan ikkimiz hol-ahvol so'ragani Salima xonimnikiga borganimizda u aksar hollarda bu mavzudan gap ochmas, o'zini go'yo bu kundalik yo'q va bo'lmagan kabi tutardi. Men ham so'ragani tortinar edim. Biroq, qarasangki, kunlarning birida yo sahar mardonlab, yo yarim tunda u qo'qqisdan biznikiga telefon qilib qolardi.

– Avtomatdan gapiryapman.

– Telefoningiz ishlamayaptimi?

– Ts-s-s...

Bu "ts-s-s" dan anglardimki, Salima xonim – uning yoshi ellikdan oshganiga ancha bo'lgan edi – tag'in boshiga zar ro'mol tashlab, to'liq, lorsillab turgan gavdasiga xuddi boshidagi ro'mol kabi yaltirab ko'zni qamashtiradigan zarbof xalat kiyib olgan va buning ustiga... yalangoyoq holida shunday bemahalda beshinchi qavatdan pastga tushib, xilvat ko'chalarning biridagi avtomat budkadan menga telafon qilayotgan bo'lardi. Uni bunday qiyofada ko'rganlar kula-kula bu g'alati ayolga takror-takror burilib boqar, ehtimol, har xil xayollarga ham borar edilar.

– Bir-ikki kun ichida kundalikni senga yetkazaman. Bo'ptimi? – go'yo u iltijo qilar, telefondan eshitilayotgan ovoz shu qadar hazin chiqardiki, odamning ko'ngli buzilib ketardi. – O'zim olib borsam ham bo'lardi, – derdi, – biroq shu kunlarda meni sizlarning uyingizda ko'rmaganlari yaxshi.

– Nega endi, Salima xonim? – Men unga dalda berishga urinardim. – Biz axir necha yillardan beri oilaviy do'stmiz-ku. Bir tomondan, Sa'di Afandining yubileyi arafasida...

– Ha-da!.. – gapimni bo‘lardi u. – Xuddi ana shu yubiley arafasida ko‘rmaganlari yaxshi. – So‘ng dastakdan eshtilayotgan hazin tovush o‘rnini hadiksirayotgan, shoshilinch ovoz egallardi: – Bu yerda shubhali odamlar yuribdi, meni kuzatishyapti. Xayr. Hech kimga zinhor-bazinhor og‘iz ochmaysan!

Salima xonim chalingan kasalning nomini Bergman juda uzun va mavhum qilib aytardi. Ayolga bu dard ilashganiga uch-to‘rt yilcha bo‘lgan, aftidan, uning davosi yo‘q edi. Qo‘ni-qo‘shni, tanishbilishlar undan o‘zlarini olib qochishardi. Otasining hurmati uchun ba’zi doiradagi kishilar u ruhiy xastaliklar kasalxonasiga tushib qolmasligi uchun rosa kuyinib-pishishardi. Buning sababi oydin edi: xaloyiqning, Sa’di Afandining birdan-bir qizi bor edi, u ham yoshi bir joyga borib qolganida jinnixonaga tushdi, degan malomati yomon edi. Aslida biz – Salima xonimning yaqin kishilari ham ana shunday vaziyatlarda, uning kasalligi takrorlangan paytlarda u bilan ko‘rishishdan, tasodifan ro‘baro‘ kelib qolishdan cho‘chirdik. Hatto mening o‘zim ham shunday damlarda o‘zimni yo‘qotib qo‘yardim, qo‘l-oyoqlarim og‘irlashib, gavdamga ortiqcha yuk kabi tuyula boshlardi. Yo gapni hazilga burar, yoki vajsiz-sababsiz o‘ta jiddiylashib qolardim, shunda almoyi-aljoyi valdirab qo‘yganimni, Salima xonim ham xuddi shu sababli mendan ranjiganini keyinroq anglab yetardim.

Salima xonimning upa-elik surtilgan yuziga ham, bu yuzlarga ancha keyin o‘rnatilgan kabi tuyuladigan qop-qora ko‘zlariga ham tik qaray olmasdim. Menga shunday tuyulardiki, Salima xonim bu dunyoda naqadar yomonlik ko‘rgan bo‘lsa, go‘yo hammasiga men, mening xotinim, bola-chaqalarim aybdordek edi. Bolalarim unga “kuldi-yig‘ladi” xola deb nom qo‘ygan edilar. Chindan ham uning qachon kulib, qachon yig‘layotganini bilib bo‘lmasdi. Sigaretga sigaretni ulab chekar ekan, goh ko‘zlariga yosh to‘lar, goh nikotinga to‘lib ketgan o‘pkasi xirqirab, bor ovozi bilan kula boshlardi...

– Oching, ko‘raylik-chi, nima bor ekan u yerda. – Zamina hamon yonimda jilmayib turar, aftidan u, Sa’di Afandining kundaligi ham Salimaxonim kabi kulgili bir narsa bo‘lsa kerak, deb o‘ylardi.

– Yaxshisi, sen choy qo‘yib kel, – dedim. Xotinim xonadan chiqqach, hafsala bilan bog‘langan paketni ochib, ichidan uchta

yupqa, muqovasi, sahifalari sarg‘ayib mog‘or bosgan daftar chiqardim. Shu zahoti dimog‘imga qandaydir yoqimsiz bir hid urildi va hovlimizdagi axlatxonaning yozgi hidi yodimga tushdi. Daftarlarning yuziga qizil siyoh bilan I, II, III degan rim raqamlari yozilgan, buni, shubhasiz, Salima xonim yozgan, chunki siyoh yap-yangi edi. Shu payt xotinim choy olib kirdi, men choydan bir qultum ho‘plab – konyakdan so‘ng biroz madorga kirgan edim – birinchi daftarni ochdim va dastlabki sahifada eski alifboda yozilgan ilk so‘zlarni o‘qidim: “Suf sening sir-ru savdolaringga, ey dunyo!”

Men qilaman o‘ttiz, falak qiladi to‘qqiz, deb to‘g‘ri aytgan ekanlar! Abulqosimga ofarin, yaqin orada uning kitobida bu dono maqolga yana ko‘zim tushib qolgan edi, mana, Sa’di Afandining sahifalari xazonday shaldirab qolgan birinchi daftarining ilk sahifalarida ushbu maqolga duch kelganimda g‘alati ahvolga tushib qoldim, gap shundaki, nigohlarim satrlar uzra o‘ngdan chapga sirg‘alib, harflarni hijjalay boshlaganimda quloqlarim ostida tanish, olislarda qolib ketgan bir ovoz yangradi – otamning ovozi.

– Sizga nima bo‘ldi? – deb so‘radi Zamina.

Men boshimni ko‘tarib:

– Hech narsa, – dedim. – Bundan so‘ng endi meni hech balo urmaydi.

– Xudo haqqi, balandroq o‘qing, men ham eshitay, – dedi lablarini chapillatganicha choy ichib, pirog yeyayotgan Zamina. Bergman ketganidan so‘ng, aftidan, malikayi dilozorning ishtahalari ochilib ketgan edi.

– Xatini yaxshi o‘qiy olmayapman, – yolg‘onladim men. Chunki, negadir, otamning ovozini esga solib yuborgan bu so‘zlardan so‘ng daftarga yozilgan narsalarni dunyoda mendan bo‘lak hech bir kimsa bilmasligi kerak, degan fikrga kelgan edim. – Yaxshisi, sen borib uxla, men hijjalab ko‘ray-chi, nimalar yozilgan ekan. Xati ham juda xunuk ekan rahmatlining.

– Uxla deganingiz nimasi, jonim? – Xotinim finjonini taqsimchaning ustiga qo‘ydi. – Men borib uxlay, siz esa ertalab soat oltigacha o‘tiring ekan-da? Tag‘in o‘pkangizdan qon kelishini istayapsizmi?

– Qanaqasiga oltigacha, azizim... Uzog‘i bilan bir soat ichida o‘qib tugataman uchalasiniyam. – Men daftarlarni ochiq konvert ustidan olib Zaminaga ko‘rsatdim.

Zamina norozi qiyofada bosh tebratdi, biroq og'iz ochib hech narsa demadi. Turib boya qiya ochib qo'ygan darchani bekitdi, keyin yonimga kelib, bilimdon hakim qiyofasida, xuddi Bergman singari, bilagimdan tutib tomirimni ushlab ko'rdi. So'ng:

– Shukur, – deya yuzimdan o'pib eshik sari yurdi. Ostonada to'xtab, dedi: – Ikkidan uzoq o'tirmang.

– Bosh ustiga, – dedim men.

Zamina xonadan chiqib sekingina eshikni bekitganida qadimiy soatimiz tungi bir boshlanganligini ko'rsatib zang urdi. Men daftar sari egildim.

* * *

"...endi men ne qilay, bu voqeotdan so'ng, hoy yaxshilar, kimning yonig'a borib, kimlarga arzi hol etmagimni ham, Xudo haqqi, bilmay qoldim. Hushimni shul qadar yo'qotib qo'ydimkim, tez orada telba bo'lib qolmasam deb qo'rqamen. Muxtor Karimlining huzurindan chiqqonimda jun bo'yinbog'im uning la'nati kabinetinda qolib ketibdir. Ul bo'yinbog'ni mundin yetti yil avval "torgsin"dan olib erdim. Hayf ketding, ey jun bo'yinbog'. Mana kimga nasib qilg'on ekansan.

Kechqurun ayolim o'moch pishirg'on ekan, bir-ikki qoshiq toting'on bo'ldim, ishtaham bo'g'ildi, o'zga narsalar ila chalg'imak uchun yozuv ustalimg'a borib o'tirdim, davot-qalamni hozirlab, durustroq qog'oz qolmag'onidan maktab daftarlarindin birini ochib oldimg'a qo'ydim.

– Nelar bitmakdasiz, adasi? – deb so'rdi ayolim. Bir ayolimg'a boqdim, bir qarshimdag'i daftarg'a, harchand o'zimni tutmakka harakat qildim, taassufkim, shaytoni lain tilimni qichitmakdin qo'ymadi. "Jahanamg'a bir arzi hol bitib jo'natmak taraddudindamen, tokim do'zaxdin kim birov kelib manim jonimni bul qiyomat-qoyimdin xalos etsin", – dedim. Ayolim yig'ladi. Darhaqiqat, endi men na qilayin, hoy yaxshilar?! Ko'chada Muxtor Karimli chaqirib hol-jonimg'a qo'ymaydi, uyda esa ayolim yig'lab yuragimni ezadir! Manim bu g'avg'olarga aslo tob-u toqatim qolmadi! Xullasi kalom, o'rnimdan turib borg'onim asno ayolimni quchdim, ancha taskinlar berg'on bo'ldim va "Onasi, mundin avval manim

yozg'on-chizg'onim ila zinhor parvoying bo'lmasdi, nechun endi so'rab-surishtirmakni odat qilding, baxayr?", deb so'radim. Ayolim, avval neki bitgan bo'lsangiz, shul o'zi bizg'a kifoyat, Xudo haqqi, endi zinhor hech narsa yozmangiz, dedi. Suhbat ushbu asnosig'a yetg'onida men xayolga toldim, so'ng tag'in qo'llarimni ayolimning yelkasig'a qo'yib dedim:

– Onasi, sen-da Muxtor Karimli aytg'on gaplarini takror etmakdasen.

– Muxtor Karimli ne deydir, adasi? – deb so'radi ayolim.

Bizim ayol, nainki bizim ayol, shahardag'i jam'i ayollar endilikda, bilmadim bu ne sir-ru savdo, Muxtor Karimlining otini eshitg'onda go'yo olabo'jining otini eshitg'on kabi bo'ladirlar. Nechundir men ham kul titkilab o'tirmakni istamadim, to'g'risi, ayolimning ba'zi bir nozik masalalardan ogoh bo'lmagini xohlamas erdim, nevchunkim, aning yuragi bir qadar zaif erdi, "Yaxshisi, zo'r bir choy damlag'il, manim bul yozg'onlarim na ro'mon, na drama, shunchaki bir kundalik bitmakdamen, ya'ni har ko'rg'on-kechirg'onlarimni muxtasar qoralab qo'ymakdamen, ma'lumingkim, xotiram bir qadar zaif tortg'on, bu voqeotlar mutloq yodimdin chiqib ketmasin deyman, chunki bu charxi kajraftorning ishlarig'a tushunib bo'lmag'ay, balkim vaqt-soati yetib bir kun bular-da asqotib qolg'usi", dedim. Ayolim surur ila yuzlarimdan siladi, "xo'b", degan ko'yi choy qo'yg'ali chiqib ketdi...

Bu kun – to'rtinchi yanvar kechasidir. Bokuda ajib bir shamol esmakda, go'yo bul shamol kurrayi arzni mehvaridan chiqarib, qayg'adir tubsiz bir quduqning komig'a eltib tiqadirg'onga o'xshaydir. Ammo na iloj!... Ming la'nat shaytonning a'molig'a, hoy yaxshilar, bul shamol biz faqir-u fuqarolardin ne istaydir, o'zi? Ayolim tunuka finjondin choy simirg'on ko'yi bezovtalik ila eshik-derazalarg'a boqadir, so'ng devor yoninda is bosib qorayg'an pechning lip-lip qilib behol yonib turg'on olovig'a tikilar ekan, ilkisdan, adasi, bul shamol xuddi siz tasvir qilg'on o'shal shamolg'a o'xshaydir, siz shul qadar bashorat etg'on ekansizkim, oxir-oqibat ul o'z boshimizg'a tushdi, dedi. Vo ajab! Xudo haqqi, umrimda mundoq ochilib kulmag'on erdim, andoq miriqib kuldimkim, bor xijillig'im tarqab ketdi, ayolimning ko'zlarig'a boqib, xotirim jam bo'ldi. Mashaolloh, er vaziri – xotin, ro'zg'or og'iri – o'tin, deb rost aytibdirlar!..

Alqissa, ayol ila biroz ezmalandik, o'tg'on-ketg'ondan laqmalashib o'tirdik, ayolim, "Xudoy xohlasa, kelgusi oyning yigirma birinda Salima yetti yoshni to'ldiradir, qo'ni-qo'shnilarni chorlamak lozim, har holda, bolaning ko'ngli yoziladi, oxirgi vaqtlarda qizimizning rang-ro'yi bir qadar so'liqib qoldi, do'xtirlarning fikriga qarag'onda, bul o'zgarish asabdin emish", dedi. Men ham qizalog'imizning asablari durust emasligini sezg'on erdim, bul gapdan so'ng tabim xiyla xira tortdi, onasi, qizimizni tez-tez ko'chaga chiqmasiga izn ber, pioner bolalar ila o'ynab-kulsin, ko'ngli ochilsin, dedim. Ayolim, har narsani hazil sori burmang, jamoat oldida sharmanda bo'lmaylik, dedi... Biroq men unga, qiz bola qiz bola-da, yetti yoshda bo'lsa ne qipti, yigit-qizlarg'a xiyobong'a chiqib, panjarali bog'da baraban chalishni kim qo'yibdir, deya bilmadim... Bola deg'oni uyda o'ltirib, dars qilmog'i, ota-onasi bilan mehmong'a bormog'i lozim, shirinkulcha, qand-qurs yeb, so'ng to'shaginda gum-gurs yotmog'i ravodir. Illo, bu gapni ham, dilimdagi shul yanglig' bo'lak juda ko'p so'zlarni ham ayolimg'a ayta olmadim...

Zero, ayolimg'a bugun ertalab men Muxtor Karimlining huzuriga yo'l olg'animda biz ila bir hovlida istiqomat qiladirg'on Akop Mirzayan qarshimg'a ko'ndalang bo'lib, kayfi bisyor balanlig'i bois menga, "Mirza, ti julik", deganini qay til ila ayta olar edim?.. Hoy itdan tarqag'on, nechun meni julik deysan, senga ne yomonlig'im o'tibdir, dedim. Ul esa ko'zlarini lo'q qilib, tishlarini tirjaytirg'on ko'yi, sen julik bo'lg'oning uchun ham yuribsan, aslinda seni fosh etmak lozim, dedi, bul ham kamlik qilg'ondek, sen andoq-mundoq julik emassan, burjuy juligisan, dedi, bul "burjuy" nomini menga taqqanning padarig'a ming la'nat! Karimli, avvalambor sening padaringg'a la'nat, illo jami' fatvolar sendan kelayotir! Bul gaplarni men ayolimg'a qay til ili aytamen, axir, bul so'zlarni, tag'in bul kabi ne-ne narsalarni atayin hazilg'a burmakdin o'zga na ilojim bor? Xudoyim, aslida butun bul qiyomat-qoyimlar hazilga o'xshash qaltis bir narsa edikim, ajal sharpasi yanglig' boshimiz uzra muallaq turardi. Hoy Akop, padaringg'a la'nat sening!.. Qo'ygin-da endi, men ham birpas nafasimni rostlab olay, mundoq bemolol yozayin, axir, shundoq ham yozg'onim sori bo'lg'onimcha bo'lmakdamen...

Birozdan so‘ng ayolim yotmak uchun ketdi, men pechkaga bir-ikki o‘tin qaladim. Shamol borho kuchaygandan-kuchayar, eshik-derazani qo‘porib otgudek edi. Birpas nafas rostlamak maqsadinda maktab daftarimni bekitdim, ustalimning g‘aladonini tortib, baxtiyor va osuda damlarimda yozg‘onim... ismini ne deb atashni-da bilmaymen, ro‘monmi, ulkan hikoyatmi, harqalay, aytaylik, yozg‘on yoziqlarimni olib, tag‘in bir bor nazardin o‘tkazdim, ayolim ushbu xonada yo‘qlig‘i bois o‘zimni tuta olmadim, ko‘nglim andoq buzildikim, ko‘zlarimg‘a yosh keldi. Bu shundoq bir ahvolot edikim, ushmundoq narsalarni hazilg‘a burib bo‘lmag‘ay, ushmundoq narsani hazilg‘a bursang, Ollohning qahri kelg‘ay. Birpas yozg‘onlarimning ul yer-bul yeridin titkiladim, o‘n besh-yigirma sahifa o‘qidim va Xudo haqqi, yozg‘onlarim o‘zimg‘a xush keldi. Manim bitg‘onlarim Karimlig‘a ma’qul bo‘lmasa – jahannamg‘a, ammo o‘zimg‘a bisyor maqbuldir, na iloj?! Hali omon bo‘lsak, ne degan odam bo‘lg‘oningni ko‘rgaymiz, hoy Karimli! Qandog‘ falokat ro‘y berib shundoq bir g‘amxo‘r-mehribon hukumatimizning ko‘zig‘a xas bo‘lib tushdi ekan asti bu la’nati?! Negadir yozg‘on yoziqlarimni qaytadin g‘aladong‘a qo‘ydim, g‘aladonni qulflab, kalidini cho‘ntagimg‘a soldim va xiyla o‘ylanib qoldim. Endi bu yozg‘onlarimni qayerda saqlasam ekan, deya xayolga cho‘mdim... “Tutdim ro‘zani men ramazonda, mullam uradir yozuv yozonda”[1]

... Yozuvlarni bekitadirg‘on zamon ham yetib kelg‘onga o‘xshaydir, hoy yaxshilar!”

Bu so‘nggi so‘zlarning ostiga ham qizil siyoh bilan qalin bir chiziq tortilgan edi, bemor bu chiziqni ham Salima xonim o‘z qo‘li bilan tortib qo‘yganini angladi. U boshini ko‘tarib, pardalar orasidan deraza ortidagi zulmatga tikildi. Uning yuragi bilinar-bilinmas sanchayotgan edi. Bemor Zamina yotgani ketayotib stol ustiga, uning shundoq yoniga qo‘yib ketgan dorini olib tilining ostiga tashladi va shima boshladi. “Demak, bu Salima xonimning safsatasi emas ekan-da, haqiqatan ham Sa’di Afandining so‘nggi romani bor ekanda?” Bu fikr go‘yo qaydandir tashqaridan oqib kirib, bemorning quloqlariga quyildi. So‘ng soatga qaradi, biroq dastavval tunchiroqning xira yog‘dusida soat millarini yaxshi farqlay olmadi, faqat

[1] Ozarbayjon shoiri Mirza Aliakbar Sobirning misrasi (tarj.).

biroz muddat o'tib, ko'zi olato'ronlikka ko'nikkandan keyingina birdan yigirma daqiqa o'tganini ko'rdi, demak, hali o'qisa bo'ladi. Egilib, oromkursining ostidan boya Zaminadan yashirib qolgan ikki dona sigaretdan birini oldi va eshikka yaqin borib, dahlizga quloq solganicha tutatdi.

"18-yanvar, qish kechasi.

Bokuda avval mundog' qor kelg'onini eslay olmaymen. Shukurkim, shamolning dami kesildi. Bugun upravdomg'a o'n sakkiz so'm berib, ancha-muncha o'tin oldim, Olloh yetti pushtini rahmat qilsin, o'zi juda yaxshi kishi, menga quruq o'tin berdi. Mana, endi temir pechka andoq gurlab, uyni andoq isitmoqdakim, go'yo o'zingni "Fantoziyo" hammomining avvallari Mirzaquli savdogar cho'miladirg'on xosxonalarindan birida o'ltirg'ondek his etasen. Ikki kundirkim, A. G.dan dom-darak yo'q, sho'rlik ayoli sarson-sargardon bo'lib, qay eshikka bosh urib bormasin, kutgin, senga o'zimiz xabarini yetkazurmiz, degan javobni eshitadir. Bugun oqshom kelib bizdan besh so'm qarz so'radi, uning zulukday sochlarig'a ancha-muncha oq oralag'onini, aft-angori ham oqarinqirag'onini ko'rdim, men o'n so'm chiqarib berdim, shul asno oyoqlarig'a qora qalish ilib olg'onig'a ko'zim tushdi va bul qora kalishlar manim hafsalamni pir qildi, bizim ayolning-da ko'ngli buzilib ketdi. Ul ketg'ondan so'ng ayolim menga ne dedi deng, hoy adasi, Xudo haqqi, endi yozmakni bas qiling, yozadirg'on bo'lsangiz, mayli, M. Karimli nimani buyursa, shuni yozing, dedi. Bul daf'a men ayolimg'a hech narsa demadim, maktab daftarini bog'lab bir kanorg'a qo'ydim va mundin so'ng zinhor kechalari yozadurmen, tokim ayolim ko'rmasin, deya qat'iy ahd etdim. Xo'sh, yozg'onda nelarni yozurmen, axir?.. O'zim uchun shunchaki bir mashg'ulot, bekorlig'dan bezorlig'ning bahonasi-ku.

21-yanvar, qish kechasi.

Navro'zg'a ham oz qoldi. Kichik chilladin ham bir amallab chiqib olsak, fahmimcha, Xudo xohlasa, ishlar jo'nashib ketadir, jo'nashmag'onda ne g'am! Yaratg'onning o'zig'a shukur, yemakka bir burda nonimiz, turmakka yopig'liq tomimiz bor, Salima qizim esa salomat, kunduzlari hovlida qorto'p o'ynaydir. Faqat men o'zimni hovliga chiqmakdin ehtiyot etamen, muxtasari kalom, Akop Mirzayanga rost kelmakdin qo'rqamen.

Omad degani bir qaytsa qaytaverar ekan. Keyingi vaqtlarda yuragim manim tinka-madorimni quritdi, ahyon-ahyonda andoq og'riqlar ruju qiladirkim, paymonam to'lg'ong'a, kalimayi shahodatni o'qimak muddati yetg'onga o'xshaydir, degan xayollarg'a boramen. Bandasini o'z kulbasida orom o'tirib, topg'oni bir burda nonini bahuzur yemakka qo'ysaydilar, Tangri shohid, hech bir mo'ming'a xastaliq yaqin yo'lamas erdi.

Ertalab to'qqizlar chamasinda menga zang urib, bugun yo ertan Karimlining huzurig'a bormog'ing vojibdir, ul zot majlis qiladir, bul majlisda sening ishtirok etmaging beistisno shartdir, dedilar. Qattiq dilgir bo'ldim, hayot-umrim qurib qoldi, ammo na iloj, "bosh ustig'a" deb javob qildim telefondin. Ayolim ham xiyla tashvishga tushib, telefonni kashf etg'onning yetti pushtig'a la'nat o'qidi. Men ayolimg'a taskin bermak niyatinda, qo'rqib-netib yurmag'il, bul shunchaki bir majlisdir-da, o'zingg'a ma'lumdirkim, ular majlissiz tura olmaydilar, majlis chaqirib turmasa Muxtor Karimlining nafasi qaytib o'ladir, dedim. Alhol, soch-soqolimni tarab-taroshladim, Karimlining qasdig'a eng yaxshi kamzulimni kiyib, boshimg'a ham, dag'i ul nokasg'a achchig'ma-achchiq, buxori papog'imni qo'ndirdim va o'n birlar chamasinda uydin chiqib, qorda tiyg'anib yiqilmaslik maqsadinda asta-sekin yo'lni yuqori mahalladin soldim. Olginskiy sori chiqib, bir muddatdan so'ng Karimlining boyqush xarobotig'a doxil bo'ldim. Vazgen otlig' garderobchidan, baxayr, qahratonning bu ahvolotinda ne maqsadda chaqirishdi, deb so'rag'on edim, Vazgen, buni hech kimsa bilmaydir, yolg'iz ul zotning o'zig'a ayon, deb javob qildi. Men ortig' bir so'z aytmay, ikkinchi qabatg'a ko'tarilib zalg'a kirdim va hamishag'i o'tirdig'im joyg'a, oxirgi qatorning o'ng tomonig'a o'rnashdim. Zalg'a xiyla jamoat yig'ilg'on bo'lib, mendin bo'lak hamma boshyalang erdi. Darvoqe, men qishning qirchillama chog'inda, alalxusus, bundoq sovuq bir yerda zinhor papoqsiz o'ltira bilmas, papoqsiz o'ltirsam xastalanib qolar erdim. Karimli esa mening xasta bo'lmagimni Ollohdan so'raydir. Majlisg'a uch-to'rt javon shoir ham kelg'on bo'lib, ular oyna rafiga tayangan ko'yi uzun papiros chekishar, orqag'a o'girilib, menga ters-ters qarab qo'ymakda edilar. Men alarg'a parvo qilmay, papog'imni biroz qiyshaytirib qo'ydim va sho'rlik A.G.

ham bul jamoatning orasinda bormikan, agar bo'lsa, ayolimg'a zang uray, ayolim A.G.ning xotinidan suyunchi olsin, degan ilinj birla tag'in zalg'a ko'z yugurtirdim. Ko'p izladim, ko'p sincha soldim, taassufkim, birodarimni bunda ko'rmadim va yuragim xiyla siqilib, og'riq ruju qildi. Ul sho'rlik ko'kka uchdimi, yerg'a kirdimi – bunisi yolg'iz Ollohga ayon!.. Alqissa, yarim soatlardan so'ng, jamoat sovuqdan qunishib, tizzalarini uqalamakka tushg'onida Karimli qabatinda uch-to'rt shotiri birlan orqa eshikdin kirib keldi va sahnaga qo'yilg'on ustalg'a borib o'ltirishdi. Qurbaqazor ko'lg'a tosh otilgan kabi barchaning dami ichig'a tushdi. Majlis asnosinda shul narsa ayon bo'ldikim, jumhuriyatimizning bir qancha qishloqlarinda norasida bola-baqralar traxoma xastalig'iga duchor bo'libdirlar va hukumat mazkur xastalig'ni ildizi birlan mahv etmak borasinda qaror qabul qilibdir. Jamoatg'a bu xabarni e'lon etmaklik uchun M.Karimli bir dasta qog'ozni qo'ltiqlag'on holinda o'rnidin turib, minbarg'a o'tdi, uning xiyla uzoq qilg'on ma'ruzasidan ayon bo'ldikim, bolalarimizg'a ozor berg'on bul traxoma xastalig'i faqat Ollohning ofati emas, binobarin, manfur sinfiy dushmanlarning yaramas kirdikorlarindan biri ermish. Va mundin so'ng bizning barchamiz o'bdon hushyor bo'lmog'imiz, kecha-yu kunduz siyosiy savodimizni oshirmog'imiz lozim erkan. Ul o'z ma'ruzasining adog'inda, biz qalam ahllari ajoyib asarlar yozmagimiz, go'zal she'rlar, hikoyalar yaratmagimiz lozimkim, bizning norasida bola-baqralarimiz bul asarlarni o'qib fayziyob bo'lsinlar, dedi. Oqilona so'zg'a taraf yo'q, bul so'zlar Karimlidan chiqsa ne tong.

Hamma chapak chaldi, shu jumladan, jamoatga qo'shilib men ham chaldim. O'ltirg'on yerindan "ofarin!" deb qichqirg'onlar ham bo'ldi. Andin so'ng qalam ahli navbat ila ma'ruza qila boshladi. Lokigin gap shunda erdikim, bul ma'ruzalarning matlabindan mening murodim hosil bo'lmadi. Traxoma xastalig'i bir kanorda qolg'oni holda, ma'ruzaga chiqqan har bir kimsa, vaziyatimiz nihoyatda mushkuldir, bul manfur sinfiy dushmanlarning dastindan ne etmagimizni-da bilmay qoldik, alar hammomda, do'konda, xullas, duch kelg'on joyda og'izlarig'a to'g'ri kelg'onni qaytarmaydirlar, der edi, hatto ulardan biri, alar odam emas, svolochdirlar, alarning-da ildizini traxoma xastalig'i kabi tag-tubindan quritmak

lozim, dedi. Zalda andoq chapakbozlig‘ bo‘ldikim, men, bu go‘zal binoning zarrin naqshlari boshimizg‘a qulab tushmasa yaxshi erdi, deb qo‘rquvga tushdim. Hali bular ham halvo ekan! Karimlining qabatinda o‘ltirg‘on bir yosh shoir, sahv etmasam, ismi Qodir Pinhon edi, ha, o‘sha, o‘rnindan turib, men uch kun ichinda bir poema yozib, taraqqiyotimizg‘a g‘ov bo‘lg‘onlarning hammasini mahv etmakka so‘z berurmen, dedi. Bul izdihomda, hoy baloyingni olay, bul gaplarning hammasi xo‘b yaxshi, biroq ushbu majlisning traxoma xastalig‘i ila og‘rig‘on bolalarg‘a ne daxli bor, deb so‘raydirg‘on kimsa yo‘q erdi. Men o‘ltirg‘on yerimdin bir luqma so‘qmoqchi bo‘ldim, ammo xotinimning suvrati keldi-turdi ko‘z oldimg‘a, Karimlining zahil basharasi keldi-turdi ko‘z oldimg‘a, hirsimni bosdim, damimni ichimg‘a yutdim, gapirmadim, gung bo‘ldim...

Shul asno Karimlining ovozi chiqib qoldi. Ul zot men o‘ltirg‘on tomon bo‘ylanib, xo‘sh, bugun bizning majlisimizda oqsoqol yozg‘uvchilarimizdan o‘rtoq Sa’di ishtirok etmakda, ul ham bir-ikki kalima so‘z aytsa yaxshi bo‘lur edi, ko‘raylik-chi, ul nimalar der ekan, dedi. Voy sening padaringg‘a lan’at, voy ilonning moyini yalag‘on battol!.. Na iloj, o‘rnimdan turib, kichik pillapoyalarni bir-bir bosib mınbarg‘a chiqdim. Minbarg‘a chiqqan har bir ma’ruzachig‘a chapak chalguchi edilar, illo men sahnag‘a chiqqanimda hech kimsa chapak chalmadi, bil’aks, jamoatning men sori ters-ters boqmagini ko‘rdim. E-voh, deb o‘yladim, bir boshg‘a bir o‘lim bor ekan, bul boshni egib ming‘irlamakdin ne foyda. Chapak chalmasangiz, jahannamg‘a!.. Bunda ma’ruza qilg‘on o‘rtoqlar ko‘p oqilona so‘zlarni, bisyor foydali fikrlarni aytdilar, dedim men, zero, barcha bolalar bizning bolalarimizdir, ularning sog‘lomlig‘i millatning sog‘lomlig‘i demakdir, bunga shak-shubha yo‘qdir. Ammo, manim fikrimcha, biz bir savob ish ham qilmog‘imiz lozim, bul savob ish shundan iboratkim, barchamiz pul yig‘ib, iona to‘plab komxozg‘a beraylik, komxozlar ham hakimlarning maoshini oshirsinlar, ham ko‘prak dori-darmon olib, traxoma xastalig‘i birlan og‘rig‘on bolalarimizg‘a bersinlar. Bul gapdan so‘ng zalda o‘ltirg‘onlarning bir-ikki nafari chapak chaldi, bir-ikki nafari yo‘talib qo‘ydi, ammo Karimli o‘rnidan turarak, avval “ah-ha” deya menga qaradi, so‘ng zalg‘a taraf yuz burdi. Endi aning shalloqilig‘ini ko‘ring! Siyosiy

besavodlig'ning eng ashaddiy namunasi – bu o'rtoq Sa'didir, dedi u. Nega endi hakimlarimizning maoshini oshirmak lozim ekan, nima, bizning hakimlarimiz ochdin o'lmak darajasinda ekanlarmi, nima, hukumat alarg'a pul bermas ekanmi? Hozir aynan ne degani yodimda yo'q, illo ul kas og'ziga kelg'onini qaytarmadi.

Zalda chunon kulgi qo'pdikim, papog'im boshimdin uchib tushgudek bo'ldi. Astag'furulloh, toza balog'a qoldim-ku! Ko'zlarimni jovdiratib, minbarg'a suyandim, chunki tilim kalimag'a aylanmay qolg'on erdi, zero, gapirg'onimda ham bul shovqin-suronda, ehtimol, meni tinglaydirg'on kimsa yo'q edi. Xaloyiq xiyla sokinlashgandin so'ng Karimli takror men sori burilib, xo'sh, ijodiy plonlaring qanday, ya'ni bul majlisdan chiqib uyingga borg'ach nelarni yozmak niyatidasan, deb so'radi. Men ortiq o'zimni tuta bilmadim, odamning sabr kosasi to'lg'onda quyushqondin chiqib ketadir. Karimlig'a boqib, ovozimning boricha, men hali har majlisdan so'ng uyg'a borib qo'limg'a qalam olmakni, asar yozmakni odat qilg'onim yo'q, odamda bir qadar ma'rifat bo'lmog'i lozim, ne boisdan shundog' bir jamoat oldida sen menga besavod deysan, besavodning eng kattasi o'zingsan, bo'g'zimizg'a tiqilib qolg'on tug'i la'natsan, deb baqirdim...

Manim bul javobim qurbaqazor ko'lg'a ulkandan-ulkan bir tosh otilg'on kabi bo'ldi. Zal misoli o'likxonag'a aylandi. O'likdan bir sado chiqmag'ondek, jamoatning ham dami ichiga tushib ketdi.

Sahnadin qandoq tushib, zaldin qandoq chiqqonim, qonim qaynab ketg'onidin o'zimni so'ka-so'ka Vazgendin – rang-ro'yimni ko'rib ul ham xiyla pajmurda bo'ldi – po'stinimni qandoq olg'onim yolg'iz Ollohga ayon. Ko'chag'a chiqib qarasam, tag'in qor yog'moqda, ammo bu nam qor edi, yuz-ko'zlarim ho'l bo'ldi... Uyda ham muxtasar dilgirlik sodir bo'ldi. Ayolim mendan, baxayr, adasi, nima masala ekan, sizni Muxtor Karimlining huzurig'a ne maqsad ila chaqirishg'on ekan, deb so'rg'on edi, men o'zimni tuta bilmay, bor ovozim ila, meni sahnaga maymun kabi o'ynatmak uchun chaqirishg'on ekan, jamoat jirtak chaldi, men esa boshimg'a buxori papog'imni dol qo'yib xiyla o'ying'a tushdim, barcha yig'ilg'onlar fayziyob bo'lishdi, deb qichqirdim... Bu gaplarni Salima qizim ham eshitib turg'on ekan, lazzatlanib, o'bdon qiqirlab kuldi. Kulmay

ne qilsin, bola degani kuladirg'on narsalarg'a kuladi-da! Qizimg'a qo'shilib mening ham kulg'onimni ko'rgach, ayolimning-da chehrasi yorishdi va shul bahona, xo'sh, jun bo'yinbog' nima bo'ldi, Karimli uni sizga qaytarib bermadimi, deb so'radi. U qaytarmoqchi bo'lg'on edi, men bo'yinbog'ni unga in'om etdim, deb javob qildim. So'ng xayolimg'a, koshki bir qadar osoyishtalik bo'lsa erdi, men ham o'ltirib bir hikoya bitar erdim, degan fikr keldi.

Ammo afsus, ming afsuskim..."

"31-yanvar, hamon sovuq qish kechalarindan biri.

Soat tungi bir yarim, uydag'ilar uxlab yotibdir, faqat men moychiroq yog'dusinda mayda-chuydalar borasinda xayol surmakdamen. Elektr chirog'i yonmaydir, upravdomning aytishig'a ko'ra qaydadir simlarni yildirim uribdir. Zinhor manim qo'llarim titramas erdi, ajabo, endi nega tiraydir? Xo'sh, men shul qadar yuraksiz, shul qadar qo'rqoq ekanmenmi?.. Nima bo'lg'onda ham, har holda, yozmog'im vojibdir, yozmas bo'lsam ko'p tafsilotlar yodimdan faromush bo'ladir, degan hadikdamen.

Ertalab qayg'a borishimni ayolimg'a aytmadim, undan pinhon tutdim, nevchunkim, uning yuragi og'rir edi. Yo Olloh, sen mening umrimdan olib, ayolimning umrig'a qo'shgil, zero, qiz bolag'a ona lozimdir, zinhor sen mening Salima qizimni onasiz qoldirmagil, yo Rabbim!..

Meni chaqirishg'oni idorag'a kelib, eshikni ochib ichkari kirdim, peshtaxta yanglig' bir nimarsaning ortinda bir kimsa o'ltiribdir, "Assalomu alaykum!" dedim, u ham men sori boqib bosh silkidi, avzoyidan bir so'z aytadirg'onga o'xshamaydir. Soat nechada chaqirg'on bo'lsalar, ayni muddatinda kelg'on erdim. Devordag'i to'garak soat roppa-rosa o'n bo'lg'onini ko'rsatur edi. Nihoyat, boyagi kimsa ismi sharifimni so'radi, pasportimni olib o'qidi, so'ng xiyla muddat pasportdagi suvratimg'a, xiyla muddat manim yuzimg'a tikildi. Avval, ehtimol, shoshg'onim bois uydin o'z pasportim evazig'a ayolimning pasportini ko'tarib kelg'ong'a o'xshaymen, degan xayolda xiyla sarosimag'a tushdim. Ammo, Xudoga shukur, sarosimag'a tushmagim behuda ekan, ul kimsa, o'tavergil, po'stin-u papog'ingni yechib, ikkinchi qabatg'a chiqqil,

ul yerda sening qaysi xonaga kirmog'ing lozimlig'ini aytadirlar, dedi, po'stin ila papog'imni ilmoqlardan birig'a ilg'onim asno ul kimsa qayg'adir zang urib, manim ismi sharifimni aytdi. Garderobdan chiqib ikkinchi qabatg'a ko'tarildim, unda uzundan-uzun bir dahliz bo'lib, bul dahlizning shift qadar eshiklari bor va bul eshiklarning hammasi berk erdi. Mundin ko'nglimda bir g'ashlik paydo bo'ldi, chunki kecha tunda tushimg'a kirg'on vagon yodimg'a tushdi. Bilonihoya bema'ni bir tush erdi, bandasi ushmundoq tushlarni ko'rmag'oni yaxshi, nechunkim, bul taxlit ro'yolar ertami-kechmi odamni andozadan chiqaradir. Tushimda bir vagonning tor-u tang dahlizinda suyalib turg'on emishman, jami' bo'lmalarning eshigi mahkam berk emish va bul qulflog'liq eshiklardin qaysi biriningdir ichkarisinda bir erkak betinim yig'lar, bir ayol esa unga, qo'ying, begim, yig'lamangiz, Xudo xohlasa, hamma narsa o'z izig'a tushib ketadir, der ermish. Men ersam, harchand orqaga burilib qaramak istasam-da, zinhor burila olmas emishman; nigohim qarshimdag'i qop-qorong'u oynag'a mixlanib qolg'on emish...

Bul tushim nechun endi ilkis yodimg'a tushg'onini o'zim ham bilmayman. Alqissa, dahlizdan kiraverishda ustal ortinda o'zga bir kimsa o'ltirar, ul ham xuddi meni quyida kutib olg'on kimsag'a o'xshardi, men dastavval bul ikkisi og'a-inidir, degan o'yg'a bordim. Ikkisining ham egnida qora kamzul bor erdi, ikkisi ham oq ko'ylak kiyib, bo'ynig'a qora bo'yinbog' taqqan erdi. Bul ham mening ismi sharifimni surishtirdi, bul ham mening pasportimni olib, xiyla vaqt goh suvratimg'a, goh yuzimg'a tikildi, so'ng quyidag'i kimsa berg'on bir parcha qog'ozni ustal ustig'a qo'yib, pasportni o'zimg'a qaytardi va, o'ttiz uchinchi xonaga kirmaging lozim, o'zlari chorlaydir, hozircha o'tib manov kursilarning birinda o'ltirg'in, dedi. Men o'tib, devor bo'ylab terilg'on kursilarning birinda tizimg'a tirsaklarimni tirab o'ltirg'on kuyi nafasimni rostladim va shunda boya tushimni xotirlag'ondan beri hushim joyida emaslig'ini, shul bois yuragim qinidan chiqquday dukullab urmakka boshlag'onini his etdim, Salima qizimning suvrati keldi-turdi ko'z oldimg'a. Oyog'im ostinda qiyalatib terilg'on antiqa parketlarni so'ldan o'ng sori, o'ngdan so'l sori birma-bir sanamakka tushdim, o'ngdan so'l sori sanag'onimda, bilmadim nechundir, aksig'a

olg‘on kabi, ikki donasi ortiq chiqdi va bul ham meni xiyla dilgir etdi. Yonimda o‘ltirg‘on kimsa sezmasin deya ohista bosh silkidim. Qulog‘ig‘a suv kirg‘on odam o‘zini naqadar bezovta his qilsa, men ham hozir quloqlarimni teshgudek bu jarangos sasdan shul qadar bezovta, o‘zimni qo‘yg‘ali joy topmas erdim. Bul tush qaydin ham manim xotiramg‘a tushdi, ey Xudoyim? Tomdin tushg‘on tarashadek bul tushg‘a balo bormi edi?..

Shul alpozda bir yarim soat o‘tdi va bul bir yarim soat mobaynida ushbu eshiklari berk uzun dahlizda hatto pashsha-da par urmadi, na mendan bir sado chiqdi, na qora kamzulli kimsadan. Nihoyat ul kimsa o‘ltirg‘on ustal ustindagi telefon mayin zang urdi, ul kimsa darhol dastakni ko‘tarib, bir muddat quloq tutib turg‘ach, “budet sdelano, tovarish Salaxov!” dedi. So‘ng dastakni joyig‘a qo‘yib, o‘rnidin turdi, menga yovuq kelib, tur, ketdik, seni o‘ttiz uchinchi xonaga eltaman, ul yerda seni kutmakdalar, dedi. Ko‘nglimda “Bismilloh!” deya o‘rnimdan turib, ul kimsaning ortig‘a tushdim. O‘ttiz uchinchi xonag‘a yetg‘onimizda ul kimsa to‘xtadi, boshini sarak-sarak qilib kulimsindi va eshikni ochib, “proydite” dedi.

Men bul xonag‘a, ya’ni o‘ttiz uchinchi xonag‘a kirmak taraddudinda ekanman, o‘zimni bir qadar dadil, bardam tutsam yaxshi bo‘lg‘ay, degan xayolg‘a bordim. Ammo o‘zimni naqadar dadil, bardam tutmakka jahd etmayin, foydasi bo‘lmadi. Ichkari kirib, Rustami Zolg‘a o‘xshag‘on kelbatli, sersavlat bir kimsani ko‘rg‘on asno damim ichimg‘a tushib ketdi va xiyla sust tortib qoldim. Bul kimsa ham basavlat edi, bundaylarni biz taraflarda haybat der erdilar, ham mandin ancha yosh erdi... Negadir bul kimsa meni ko‘rgani hamono go‘yo aziz birodarig‘a duch kelg‘on kabi, shod-xurram kulib o‘rnidan turmakka chog‘landi. Hozir, hoynahoy, boshi shiftga tegadir, deb o‘yladim men. So‘ng qo‘llarini xo‘roz qanotlari yanglig‘ ochdi, meni og‘ushlamak istaydir, degan xayolg‘a bordim. Ul kimsa qiyqirib yubordi, ovozi g‘oyat nozik, ko‘prak zaifalarning ovozig‘a mengzar edi:

– Iy-ye, Sa’di Afandi, ajoyib, g‘oyat ajoyib!..

Xudo haqqi, bu so‘zlarni andoq ohangda aytdikim, menga juda yoqib tushdi va behad mamnun bo‘ldim. So‘ng ul kimsa ustalning ortindan aylanib o‘tib, manim yonimg‘a keldi va qo‘l uzatdi, bir

muddat qo'llarimni silkilab turdi. Sa'di Afandi, dedi, sizni bul qadar uzoq kuttirib, ranjitib qo'yg'onim uchun ming bor uzr, Xudo shohid, yumushim shul qadar ko'pkim, tasavvur etmak qiyin, shundan so'ng tag'in u, bugun manim eng baxtiyor kunim ekan, chunki Sa'di Afandi kabi xalqimizning faxri bo'lg'on bir inson ila tanishmak sharafig'a noil bo'ldim, dedi. Bul so'zlar menga lazzat baxsh etmadi, desam, noinsoflik bo'ladir. Ammo tag'in bir tomondin o'yladimki, xo'sh, magarkim bul kimsa men bilan tanishmak niyatinda ekan, ne boisdan meni bul yerg'a chaqirib yuribdir, ne uchun uyimg'a bormaydir yoinkim majlis-ma'ruzalarda tanishib olmaydir? Biroq bu borada bosh qotirib o'tirmadim, ul mendan hol-ahvol so'rdi, men esa undan, so'ng esa uning ismi sharifini so'radim, Salohov Odil Qambarovich, dedi u va shu zahoti, meni shunchaki Odil deb aytavering, nechunkim, men sizdan kichikman, deya ilova qildi. Yaxshi, dedim men, "ajoyib, samimiy, ma'rifatli kimsalar har jihatdin hurmat-ehtiromg'a loyiqdirlar". Bu gaplarni men balandlab aytmadim, shunchaki ko'nglimdan kechdi. Salohov manim qo'limdan tutib, o'z qarshisig'a o'tqazdi, shu soniya eshik ochilib, qo'lig'a mo'jazgina patnis ko'targ'on ayol kirib keldi va patnisdagi chinni choynak, ajoyib, naqshli istakonlarni, shuningdek manim Salima qizim juda xush ko'radirg'on usti chakichli dumaloq pechenyelarni ustal ustig'a qo'ydi. Salohov manim bul pechenyelarga suq ila boqmagimni payqadi, shekilli, Sa'di Afandi, nega bul qadar diqqat ila tikilib qoldingiz, deb so'rdi. Ochig'i, uyalib ketdim, kulimsingan asno, avvallari bu pechenyelar do'konlarda mo'l bo'lguvchi edi, endi negadir chiqmay qo'ydi, manim bir qizalog'im bor, o'shal buni bag'oyat xush ko'radir, dedim. Salohov buni eshitg'on zahoti, shundog'mi, deya o'rnidan turib, eshik oldinda amrg'a muntazir turg'on ayolg'a nimarsadir deb pichirladi, tag'in pechenyelar olib kelmakni buyurmakda, degan xayolda men, shul o'zi kifoyatdir, qornim och emas, dedim. Salohov qo'lini siltab, men boshqa narsa borasinda gaplashdim, siz zinhor bezovta bo'lmang, dedi. So'ng qaytib o'z o'rnig'a o'ltirdi va bilmadim ne sababdin bir muddat ko'zlarimning ich-ichig'a tikilib turdi, tikilg'onda ham go'yo hakim bemorg'a tikilg'on kabi zehn ila tikildi, so'ng jilmaygan asno choynakni olib istakonlarg'a choy quydi va, Sa'di Afandi,

keling, choy ichib bir gurunglashaylik, ko'raylik-chi, boshimizg'a qandoq fikrlar kelar ekan, dedi.

Bag'oyat ajoyib fikr, dedim men, chunki tashqari juda qattig' sovuq bo'lib, bul yerg'a kelmak mobaynida etim uvishib qolg'on erdi.

Ushbu soniyada, kundaligimg'a bul so'zlarni yozmak barobarinda nuqul bir narsani o'ylamakdaman va harchand o'ylamayin, bul mushkul jumboqqa bir oqilona javob topa olmay hayronmen: ajabo, Salohov bul qish kuninda nega meni o'z huzurig'a chorladi ekan, Yaratganning ne sir-asrori bo'ldi bul, zero, bo'ynimg'a olmog'im lozimki, manim kutg'onimning aksi o'laroq, bul kimsa menga ma'ruflig' va nazokat ne ekanlig'ini ochig'-oydin namoyish etmakda erdi.

Istakonlarimizg'a ikkinchi marotaba choy quyilg'onda Salohov manim oxirg'i ro'monimdin so'z ochdi va men bul kimsa ul ro'monni o'qib chiqqonini, o'qig'onda ham diqqat ila o'qig'onini, asarimni unga o'qimak uchun, shubhasiz, Muxtor Karimli berg'onini angladim.

Bul asarni Salohovga undan bo'lak hech kimsa berishi mumkin emas erdi. Chunki men dastxatni hali yangi alifboda mashinkalatmag'on edim, uni ne-ne mashaqqatlar ila, tunlari bedor o'ltirib, Ko'mir maydoninda bir juhuddan tilla bahosida olg'onim oppoq qog'ozlarg'a eski alifboda ko'chirib chiqqon va chop ettirmak maqsadinda Karimlig'a o'qib chiqsin uchun berg'on edim. Chunki yangi taomilg'a ko'ra mundin so'ng e'tiboran kim yozg'onini chop ettirmak istasa, dastavval shaytonlar piri bo'lmish Muxtor Karimlig'a bermagi shart, ul kimsa o'qib chiqib, imzo qo'yg'onidan so'ng asarni noshir va muharrirg'a topshirmak mumkin edi. Negadir men kulni kovlab o'ltirmadim, ya'nikim Salohovdan, hoy odam, Karimli manim asarimni nega senga o'qimak uchun berdi, mundin u ne maqsadni ko'zda tutdi ekan, deb so'rmadim. Zero, manim bul asarimda na bolshevoy bor edi, na musavotchi[1] va na anarxiyachi. Yuragimni yoqib-yondirg'on, mamlakatning olis kechmishindan bahs etguvchi bir tarixiy voqeani qalamg'a olg'on edim. Ammo gap shunda edikim, Karimlidan farqli o'laroq, Salohov manim bul yozdig'im asarni xiyla ta'rif-tavsif ayladi, bul ta'riflar jonimg'a

[1] **Musovotchi** – Ozarbayjonda 1912-yilda vujudga kelib, 1920-yilda tugatilgan milliyatchi partiyaning a'zosi (tarj.)

moy kabi yoqdi, Olloh yetti pushtingni shohistayi jannat qilsin, hoy Salohov, seni tuqqan volidangga rahmat, dedim ichimda... Chunki manim bul asarim Karimlining ko'nglig'a o'tirmag'on, nainki ko'nglig'a o'tirmag'on, har bir majlisda ul o'rnindan turib bul asar borasinda og'zig'a kelg'on noma'qulni demakdin toymas, jamoat orasinda mening obro'yimni to'kmagini qo'ymas erdi. Uning mulohazalari ham asosan mundin iborat edikim, go'yo men safsatag'a mengzar bir nimarsa yozg'on emishman, aning na boshi bor emish, na falon yeri, ajoyib, go'zal mavzular turgani bir holda men bir tarixi nodirg'a yopishib olg'on emishman va bul tarixi nodirg'a manim munosabatim sinfiy munosabat emas, juda ablah bir sinfning munosabati ermish. Shul sababdin, tabiiykim, asarni chop etmak borasinda so'z bo'luvi mumkin emas va hokazo-hokazo deya qonni qaynatadirg'on, ko'ngilni aynitadirg'on gaplarni aytar edi. Ushbu boisdan ham Salohovning aytg'on fikrlari meni bir qadar shoshtirib qo'ydi, andoq shoshtirdikim, boshimg'a og'riq kirdi. Salohov mening yozg'onim borasinda uzundan-uzoq, mayda-chuyda tafsilotlari birlan gapirg'ondin so'ng, nihoyat, suhbatimizning adog'inda, Muxtor Karimli ham asaringizni o'qib xiyla fayziyob bo'libdir, bul yuksak fikrni uning o'zi menga aytdi, dedi. Shul gapni aytg'ondan so'ng Salohov ichig'a o't ketg'on kimsa yanglig' choydin katta bir qultum ho'pladikim, istakon yarimlab qoldi, ul tag'in boyagi kabi ko'zlarimning ich-ichig'a tikildi. Agar mundin so'ng kimda-kim menga, bul zamona odamlarining fe'l-u atvorig'a, kor-u amalig'a tushunamen, desa, men ul kimsani masxara qilib kulamen. Hoy yaxshilar, nahotkim manim asarim Muxtor Karimlining ko'nglig'a o'tiribdir va ul zot bu fikrini Salohovga aytibdir?! Shaytonning amalig'a ming la'nat, yaxshikim, Salohov choy keltirg'izg'on edi, magarkim manov choynak bo'lmag'onida va suhbat ushbu maromig'a yetg'on mahalinda men choy ichib o'zimni chalg'itmag'onimda telba bo'lmagim tayin erdi. Bunchalar hiyla-nayrang, bunchalar qaltis o'yin bo'ladimi, axir? Evoh, nahot bul qadar riyokorlig', bul qadar hayosizlig'!

Mundog' hayosizlig', mundog' riyokorlig' hatto shaytonga ham yuk bo'lmag'aymi? Vo ajab, biz yashag'onimiz, umrguzaronlik qilg'onimiz bu ne dunyoyi dun bo'ldi o'zi? Boyadin beri o'zimni

naqadar ehtiyotkor, naqadar hushyor tutib kelg'on, aytg'onim har so'zni ming o'lchab-bichg'on bo'lsam-da, suhbat bul maqomig'a yetg'onida o'zimni tuta bilmadim, axir, biron-bir majlis, biron-bir mashvarat yo'qkim, unda o'rtoq Muxtor Karimli manim asarimni tanqid qilmag'on, o'zimni haqorat qilmag'on bo'lsin, dedim. Salohov mening so'zlarimg'a tuzatish kiritdi, tanqid qilar erdi, so'kar erdi, ya'ni bularning hammasi o'tg'on zamonda bo'lg'on, ammo mundin so'ng zinhor bunday bo'lmayajak, dedi. Biz unga aytdik, uning ham ro'mong'a munosabati bir taraflama ekanlig'ini, ba'zi qarashlari yanglish ekanlig'ini tushuntirdik, binobarin, biz Sa'di Afandi kabi millatimizning faxri bo'lg'on bir insonning boshig'a juz'iy ikir-chikirlar bois turfa savdolar tushmagig'a izn bermayajakmiz, dedi. Shunday deya Salohov menga tag'in bir istakon choy quydi va qarshimdog'i talinkaga ikki-uch dona usti chakichlang'on totli pechenyedan qo'ydi. Men ulardin birini olib yedim. Salohov manim pechenyeni yeb tugatmagimni kutdi, shekilli, tag'in manim asarimg'a qaytdi, ro'monda bir masxara bor, Uflama Qosim degan, ul suvratni yaratg'onda kimni nazarda tutib edingiz, deb so'radi. Astag'furulloh, dedim ichimda, o'z-o'zimni ogoh etib dedimki, hoy odam, hushyor bo'l, asardagi barcha voqealar bir kanorda qolib, nega bu faqat Uflama Qosimni so'rayotir, balki meni tilimdin ilintirmak istaydir? O'zimni yo'qotib qo'ymadim, ya'ni Salohov manim sarosimag'a tushib qolg'onimni sezmasin degan maqsad ila pechenyelardan tag'in birini olib tishladim, choydan ham bir ho'plam ichg'onimdan so'ng, hech kimni nazarda tutg'onim yo'q, Sho'rodin avval Istanbulg'a borg'onimda ul yerda lozim qadar tarixiy manbalarni ko'rib chiqqon erdim, ularda qayd etilishicha, chindan ham mamlakat xonining Uflama Qosim otlig' bir masxarasi bo'lg'on ekan, dedim. So'ng Salohov, Istanbul juda go'zal shahar deb aytadirlar, shul rostmi, deb so'rg'on erdi, men, haqiqatan ham go'zal shahardir, zotan, dunyoda ne-ne go'zal shaharlar bor, Istanbul-da, shubhasiz, alarning biridir, deb javob berdim. Mundin so'ng Salohov men bilan ortiq ro'baro' o'ltirmadi, o'rnidin turib, xona bo'ylab u yondin bu yong'a yurmakka boshladi, bir ozdan so'ng borib o'zining ustalig'a o'ltirdi, ustalg'a tirsaklarini tirab, tag'in uchinchi daf'a ko'zlarimning ich-ichig'a tikildi va men hali

o‘zimni bosib olg‘uncha bo‘lmay, xo‘sh, Sa’di Afandi, sizning A. G. haqinda fikringiz qandoq, ul qandog‘ odam, deb so‘radi... Mana gapning indallosi qayda, hoy g‘ofil Sa’di, ko‘pni ko‘rg‘on bir odam bo‘lg‘oning holda seni bul joyg‘a ne maqsad ila chaqirg‘onlarini nechuk payqamading?! Ofarin senga! Ro‘mon andog‘ emish, Uflama Qosim undog‘ emish, Karimli bundog‘ emish! Endi o‘zingni qo‘lg‘a ol, mardlik fursati kelib yetg‘onga o‘xshaydir, hazilingni bir kanorg‘a qo‘y, endi nomus ila vijdonni namoyon etmak muddati keldi, dedim ko‘nglimda. A. G. mamlakatimizning, go‘zal, farovon jumhuriyatimizning eng nomusli, pokiza va fidoyi vatandoshlaridan biridir, men ul zot haqinda faqat yaxshi so‘zlar aytmog‘im mumkin, bizning mamlakatda A. G. kabi savodli, iste’dodli boshqa bir ziyolini topmak mushkuldir, dedim. Bul so‘zlarni aytmak asnosinda bisyor g‘azabga mindim, uchinchi pechenyeni olib og‘zimg‘a soldim, go‘yo tishlarim ostinda pechenyeni emas, Salohovning o‘zini ezib chaynamakda edim va mundin ruhi jahonimg‘a bir rohat taralar erdi, nechunkim, men yuragimni bo‘shatib olg‘on, ayni lozim paytida hushyor tortg‘on edim. Sichqon bir teshik topib, mushukning changalidan ozod bo‘lg‘oni kabi, men-da endi qopqong‘a qayta tushadirg‘on laqma emas erdim. Hatto o‘z farosatimg‘a qoyil qolib, ko‘nglimda “borakalloh!” deb qo‘ydim. Salohov manim aytg‘on so‘zlarimdan xiyla kuldi, tag‘in takror-takror uzrxohlik qildi, ma’zur tutg‘aysiz, dedi ul, vaqtingizni olmakdaman, biroq na iloj, har kimsaning o‘z vazifasi bor va har kimsa o‘zining bul vazifasini halol ado etmog‘i lozim. Albatta, dedim men, ushmundoq oqilona so‘zg‘a e’tiroz yo‘q! So‘ngra Salohov, gap A. G. ning savodli yoxud savodsizlig‘i borasinda emas, gap shul haqindakim, A. G. og‘zig‘a kuchi yetmasdin duch kelg‘on yerda huda-behuda valdirab yuribdir, dedi. Birodar, dedim men, uni men necha yillardin beri bilurmen, ayollarimiz ham bir-biri ila egachi-singillardek yaqindir, biroq bul davr mobaynida men uning ortiqcha ul-bul gap aytg‘onini eshitg‘on emasmen, hamisha boshini egib, o‘zi yozuv-chizuvi birlan mashg‘ul bo‘ladir, zinhor bir kimsag‘a, ko‘zing ustinda qoshing bor, deb aytg‘on odam emas! Salohov taajjubg‘a tushg‘on kabi bo‘ldi, bir qoshi yuqori ko‘tarildi, bir qoshi quyi tushdi, men sizlarning do‘st ekanlig‘ingizni bilmas ekanmen, dedi u va ilova qil-

di: "afsus". Tag'in bir muddat o'tg'ach ul, xo'sh, nahotki ul kimsa bir bor bo'lsa-da og'zindan gullab qo'ymag'on, deb so'radi. Yo'q, biror marta, hatto yarim marotaba ham behuda gap aytg'oni yo'q, shohid sifatinda ont ham ichmagim mumkin, dedim men, qo'lig'a tushg'on pullarning yarmini yetim-yesirlarg'a, faqir-fuqarolarg'a bo'lib berardi.

Salohov tag'in menga kaminani ilk bor ko'rib turg'oni kabi diqqat ila boqdi va andoq qiyqirib kuldikim, go'yo yuz xo'roz bir yerg'a yig'ilib, baravarig'a qichqirg'on kabi bo'ldi. Men, ochig'i, bul alfozda kulg'on kimsani ko'rmag'on edim, bul kimsa ne boisdan kuldi, manim qaysi gapimg'a kuldi, deb hayron bo'ldim. Harchand o'ylamayin, zinhor buni fahmlay olmadim. Nechundir bu qiyqiriq kulgudan so'ng Salohov bo'lak mavzug'a ko'chdi, ob-havodin, kanorda yog'ayotgan qordin gap ochdi va mundoq havoda uyinda bo'lmag'onlarning holig'a voy, mundoq havoda o'z uyingda o'ltirib choy ichmakka ne yetsin, dedi. So'ng ustalning yonidagi tugmani bosdi. Eshik ochilib, boya choy olib kirg'on ayol qo'linda bir boylam narsa ila ichkari kirdi va ul boylamni mening yonimg'a keltirib qo'ydi. Bul boyagi pechenyelardan, dedi Salohov, bizning qizaloqqa eltib bergaysiz, maza qilib yeb, Odil amakisindan minnatdor bo'lsin. Xudo haqqi, ovora bo'lmang, dedim men, o'zim topib olaman. Ovoragarchilig'i bor ekanmi, dedi ul, pechenye degani ne bo'libdirkim, o'lkaning buyuk bir yozg'uvchisi uni izlab do'kon-ma-do'kon sarson bo'lsin va hokazo-hokazo. So'ng qo'lining ostindagi qog'ozlardan birini olib menga uzatdi va, Sa'di Afandi, sizdan bir o'tinchim bor, bul o'tinch shundan iboratkim, hozir A. G. haqinda nimaiki aytg'on bo'lsangiz, barchasini ushbu qog'ozg'a biting, dedi. Axir nimani bitamen, ul sho'rlik haqinda nima dedim o'zi, deya tashvish ila so'radim men... Bul daf'a yuz xo'roz emas, ming xo'roz bir yerg'a yig'ilib, baravarig'a qichqirg'on kabi bo'ldi, quloqlarim teshilmagiga bir baxya qoldi. Neki aytg'on bo'lsangiz, shuni yozing, dedi ul. Ya'ni ul kimsa manim eng yaqin do'stimdir, necha yillar mobaynida o'zimiz va ayollarimiz bordi-keldi qilurmiz, ko'p marotaba birg'a bo'lg'onmiz va ul zot hech qachon, hech joyda behuda, bo'lar-bo'lmas gaplarni valdirag'on emas, deb yozing. Atigi shu kifoyatmi, so'rdim men. Bo'lmasam-chi!

Hoy yaxshilar, bul kasning niyatig'a boqing, bir juft ko'z, biroq, biri g'ilay, biri sog'! Qog'ozni oldimg'a olib, dovotni siyohga botirdim va Salohov ne aytg'on bo'lsa, barchasini yozdim. Ostig'a imzo chekdim va sanani ham bitib qo'ydim. Andin so'ng Salohov qo'lini cho'zib qog'ozni oldi, o'qib chiqqach, "ko'p yaxshi" dedi, men nihoyat ketmak fursati yetg'onini anglab o'rnimdan turdim, Salohov ila qo'l siqishib xayrlashdik, ul meni ostonag'a qadar kuzatib qo'ydi, men shod-xurram dahlizg'a chiqib, qora kamzulli kimsadin haligi bir parcha qog'ozni olib quyig'a tushdim. Quyida o'ltirg'on kimsa, qo'ltig'imdag'i boylamg'a ko'zi tushib, so'radi: "Chto eto?". "Eto yest pechenye, kotoroye podaril mne tovarish Salaxov", – dedim men. Ul kimsa jilmayg'on erdi, men-da jilmaydim...

Soat tungi uch yarim, moychiroq lipillab yonadir, men maktab daftarig'a bul kun boshimg'a tushg'on g'alati voqeotni yozmakdamen va nechun bul haybatli kimsaning sasi ko'nglimg'a botmag'oni haqinda o'ylamakdamen. Ko'nglimg'a botmadi degonim shul boisdankim, ul kimsaning sasi juda nozik, haddin ortiq ingichka erdi. Agar ko'zlaringni yumsang, go'yokim erkak emas, zaifa zoti gapirmakda, degan xayolg'a borar erding. Odamning qitig'i kelardi bul sasdan. Endi bir muddat nafas rostlamak lozimdir, hovlig'a chiqmagim ma'qul, nechunkim, havosiz xonada bo'g'ilib o'ltirmakdin yomoni yo'q, buning ustig'a ko'nglim ham bir qadar bezovta, bilmayman menga ne kori hol bo'ldi o'zi?.. Balkim bul ahvolot sevinganim vajindandir. Zero, men ul qog'ozg'a boyagi so'zlarni yozg'onim bois, ehtimol A. G. qay yerda bo'lmasin, inshoolloh, uyig'a chiqib keladir. Ey Xudovandoyi olam, yetkazg'on kuningga shukur!"

"Agar tungi ikki yarimda, ahli shahar shirin uyquda yotg'on bir mahalda men hovlida Akop Mirzayang'a rost kelmagimni bilsam erdim, zinhor o'rnimdan jilmag'on bo'lur erdim. Har holda, qattiq horg'onim bois, turib po'stinimni, papog'imni kiydim va biroz musaffo nafas olg'och, qaytib kelib gum-gurs yotmak niyatinda hovlig'a tushdim.

Xullasi kalom, hovlig'a chiqdim, oy shu'lasinda maftunkor jimirlab yotg'on qordin fayziyob bo'lib, muzdek havodin yutoqib-yutoqib simirdim. Naqadar go'zal kecha erdi bul, Xudo-

yim! Yashamak na buyuk ne'matdir, bul dunyo boshingda ne-ne tegirmonlar yurgizsa-da, faqat ushmundoq kechaning, ushmundoq qorning evazig'a yashamak sururig'a ne yetg'ay! Hovli sahni bo'ylab goh ul sori, goh bul sorig'a yurdim, poyimda g'ichirlag'on qor ko'nglimg'a olam-olam surur soldi; shul asno ortimdan ilkis bir sas eshitildi. Mirza, tuning xayrli bo'lsin, dedi kimdir. Bildimki, bul Akop Mirzayanning sasidir, ul shaytoni lainning sasini tanimag'onning padarig'a la'nat! Ortimg'a burilmakdin avval, magarkim bul daf'a ham ul betavfiq nodurust gaplar aytar bo'lsa, bir kalla qo'yib og'zi-burnini qora qong'a bo'yagayman, degan fikr ko'chdi ko'nglimdin. Ortimg'a burilib, darhaqiqat, Akop Mirzayanni ko'rdim, ul g'oyat yupun kiyinib olg'on, aftidan, hovlidag'i hojatxonadin qaytib kelmakda edi, nechunkim, o'ng qo'linda oftoba bor edi. Armanining qo'linda bul oftobani ko'rib, "borakalloh" dedim ichimda. Akop Mirzayang'a nisbatan hurmatim bir qadar ortdi. Xayrli tun, Akop, dedim men, tinchlikmi? Tinchlik, dedi ul, sendan bir o'tinchim bor, arvohlarning haqqi-hurmati, so'zimni yerda qoldirmag'il. Arvohlar haqqi-hurmati, ont ichamankim, so'zingni yerda qoldirmaslikka harakat qilamen, dedim men. Akop bir-ikki yo'talib olg'och, birpas bizning uyga kiraylik, Xudo haqqi, yo'q demagil, dedi. Hoy odamzod, dedim men, soat uch bo'lib qoldi, ayoling, bola-baqralaring uxlamakdadir, men sening uyingg'a kirib, ularning uyqusini parokanda etmagim hech insofdan bo'lurmi? Akop bir odim ilgari yurdi, tag'in yo'talib olg'och, bolalar ichkari xonada yoturlar, biz esa oynavand ayvonda o'ltirurmiz, agar manim bul o'tinchimni yerda qoldirsang, Xudo haqqi, ushbu tunda yuragim siqilib o'laman, deya yolbormakka boshladi. Uning bul so'zlarindin keyin manim bo'lak vaj-korson topmakka ilojim qolmadi, bir poyimdag'i qorg'a, bir osmondag'i oyg'a, bir esa qo'linda oftoba ko'tarib olg'on Akopg'a boqdim va, ixtiyoring, bormoq vojib ekan, boraylik, dedim".

Qadimiy soat tungi ikkiga zang urdi, bemor Sa'di Afandining eski alifboda chiroyli qilib yozilgan kundaligidan bosh ko'tardi. Soat tungi ikkiga zang chalmaganda ham, bemor mutolaa orasida jinday tanaffus qilib olmoqchi, Sa'di Afandi aytganidek, "nafas rostlamakchi" edi, chunki u negadir Sa'di Afandini qorli kechaning

naq o‘sha qattiq sovug‘i og‘ushida, qo‘liga oftoba ko‘tarib olgan Akop Mirzayan bilan yuzma-yuz qoldirmoq, vaqtni o‘sha maqomda to‘xtatib qo‘ymoq istagida edi. Zero, bemor o‘sha qorli kecha ehtimol Sa’di Afandi hayotidagi eng baxtiyor, eng fayziyob kechalardan biri bo‘lganini his etar, kundalikning davomini o‘qishga tutinsa, Sa’di Afandini o‘sha sohir tundan, g‘archillab turgan qordan, shu’lalari ila olamni hazin bir rangga bo‘yab yotgan kumush oydan ajratib qo‘yishiga imoni komil edi... Bemor daftarni stol ustiga qo‘ydi va vaqt ham shu asnoda to‘xtab qoldi: Sa’di Afandi bilan Akop Mirzayan qorli tunda, oy shu’lalari qo‘ynida haykaldek qotib qoldilar. Bemor sekin o‘rnidan turdi, zaifligi va uzoq muddat bir joyda o‘ltirgani uchun uning boshi yengilgina aylanardi, lekin baribir qaytib o‘tirmadi, uch-to‘rt odim otib deraza oldiga bordi, pardalarni ayirib, o‘ng kaftini deraza shishasiga bosgan edi, eti junjikib ketdi: shisha muzdek bo‘lib, bemorning kaftiga xuddi bir bo‘lak yax yopishgandek bo‘ldi, ko‘ksini yoqimli bir sarinlik to‘ldirdi, go‘yo qandaydir mo‘jiza ro‘y berdi-yu, bu issiq, dimiqqan xonadan chiqib, baland-baland tog‘lar tepasiga borib qolgandek, musaffo havodan bag‘rini to‘ldirib-to‘ldirib nafas olgandek his qildi o‘zini. Salohov Odil Qambarovich... Bu o‘sha Mahmud aytgan, Zulfiqor amakining g‘animi bo‘lmish Salohov emasmikan, axir ikkinchi yo‘lakda yashaydigan mo‘ylovdor kimsaning ham familiyasi Salohov emasmidi?.. Voy sho‘rlik Sa’di Afandi. Axir odam ko‘ra-bila turib ham o‘zini o‘tga otadimi?.. Bemor oh chekkanicha barmoqlarini juftlab, ko‘zlarini uqaladi. Zero, Salohovga Sa’di Afandi yozib bergan o‘sha uch-to‘rt jumladan bo‘lak narsa kerak emas edi, bu bemorga besh barmoqdek ayon edi. Zotan, A. G. bilan uzoq yillardan beri do‘st ekaningni, tez-tez ko‘rishib turganingni e’tirof etdingmi, demak, uchrashganlaringizda eski qadrdonlar kabi nimalar borasida gaplashganlaringizni, bir-birlaringizga nimalar deganingizni fahmlab olish qiyin emas. Bemor Sa’di Afandi ko‘rgan tushni esladi. Ko‘z oldida mo‘ltir-mo‘ltir yig‘layotgan bir kimsa namoyon bo‘ldi, hatto bu kimsa qop-qora deraza ortidan o‘girilib unga qo‘l ham silkidi va bir muddatdan so‘ng shu’lasiz, havosiz bir bo‘shliqqa singib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

Xonaning eshigi ochilib, Zaminaning uyquli va biroz jahldor ovozi eshitildi:

– Hoy adasi, bu qanday bema'nilik? – Zamina diqqat bilan soatga tikildi.

Bemor ortiga o'girilib, ichko'ylakda, oyoqyalang holda ostonada turgan xotiniga qarab, qomatini rostladi, imkoni qadar tetik, xushchaqchah ohangda:

– Xotin, ko'z tegmasin, otdayman. Butunlay sog'ayib ketganga o'xshayman, – dedi.

Zamina boshini sarak-sarak qilganicha sekin eriga yaqin kelib, kaftining orqasini bemorning peshonasiga bosdi.

– Issig'ingiz yo'q, yo'q, – dedi u. – Qarasangiz-chi, soat necha bo'libdi. Qani, darhol yoting. – Zamina esnadi va qo'llari bilan to'zib ketgan sochlarini silab, o'zini tartibga solgan bo'ldi.

– Xudo haqqi, – dedi bemor, – sen bemalol uxlayver, nari borsa yarim soatlik ishim qoldi. – U boshi bilan stol ustidagi daftarga ishora qildi. – O'qib bo'lishim bilanoq yotaman.

Shunday deya u xotinining uyquli, biroq shirin uyqudan so'ng tiniqqan ol yonoqlariga, yirik ko'zlariga, bodom qovoqlariga, uzun kipriklariga, egnidagi qora ichko'ylagiga va to'la-to'q bilaklariga boqdi, ne sababdandir o'z-o'zidan ko'ngli to'lib keldi, biroz egilib Zaminaning qo'lini kaftlari orasiga oldi va uzundan-uzoq uning kaftlaridan o'pdi. Ayol qo'lining harorati uning tomirlariga, miyasiga, yuragiga oqib o'tdi. Zamina ham erining boshini siladi, ikkinchi qo'li bilan uning oqara boshlagan sochlarini tarar ekan, erining boshi xiyla kichrayib, bolalarning boshi kabi bo'lib qolgandek tuyuldi. Zamina:

– Sizning shu ayyorligingiz bo'lmasaydi, o'lay agar, nima qilishimni o'zim bilardim, – dedi. Bemor jilmayib xotinining ko'zlarining ich-ichiga tikildi.

– Bo'pti, – dedi Zamina. – Siz aytgancha bo'la qolsin. O'qiy qoling, biroq uzoq o'tirib qolmang, jillaqursa, o'zingizga rahmingiz kelsin. – Shunday deya u erining yuzidan o'pib, qanday kelgan bo'lsa xuddi shunday – mayin-mayin yurib xonadan chiqdi va eshikni ortidan bekitdi. U ketgandan so'ng xonada yumshoq va yoqimli bir hid qoldi: go'yo shu atrofda ikki-uch dona ifori nozik gul ochilgandek edi.

Bemor qaytib oromkursiga cho'kdi, burilib, har ehtimolga qarshi eshikka tikildi va dahlizdagi sukunatga quloq tutdi. Zaminaning

haqiqatan borib yotganiga imoni komil bo'lgandan keyingina egilib, oromkursining ostiga qo'ygan ikkinchi sigaretini olib tutatdi.

"Qo'linda oftoba tutgan Akop oldinda, men, egnimda jun po'stin, boshimda buxori papog', uning ortig'a tushdim va ikkimiz Akopning birinchi qabatdag'i oynaband ayvonig'a kirib bordik. Men umrimda Akopning uyinda bo'lmag'on, nafaqat Akopnikinda, bul mahallag'a ko'chib kelg'onimdan buyon biron-bir qo'shnining uyig'a chiqmag'on erdim. Mundoq bir mo'jazgina ayvonning bul qadar saranjom-sarishta bo'lmagi, bul qadar ko'p gul-giyoh borlig'i yetti uxlab tushimg'a kirmag'on edi. Akop Mirzayanning ayvoninda bamisoli fasli yoz erdi, devorlarning boshdan-adog'inda, deraza raflarinda gul-u chechaklar andoq ko'p edikim, go'yo jannat go'shasig'a kirib qoldim desam, zinhor yonglishmayman. Ofarin bul saranjomlik va bul qadar did-u farosatg'a! Manim bul gullarg'a hayrat ila boqmagimni ko'rib, Akop bisyor mamnun bo'ldi va egnimdan po'stinimni yechib olarkan, ha, Mirza, buning ham ayricha lazzati bor-da, dedi. Albatta, dedim men, buni eplamak uchun ham alohida qobiliyat lozimdir, ushmundoq ish har kimsaning-da qo'lindan kelavermagay. Bul aytg'onlarim Akopga g'oyat zo'r surur baxsh etdi, ul po'stinimni devorg'a ilib, qo'limdan tutg'oni holda meni issiq ayvonning devorig'a taqab qo'yilg'on oq dasturxon yozig'liq to'garak ustal qabatindagi kursig'a o'tqazdi. Darvoqe, mundin avval ul xonadin bir yassi yostiq olib chiqib, yumshoq bo'lmagi va men o'zimni yaxshi his etmagim uchun bul yostiqni kursi ustig'a qo'ydi... Xudo haqqi, hoy yaxshilar, bul dunyoning mehvarindan chiqib ketmagig'a yo'l qo'ymaydirg'on ko'plab sabablardan biri, hech shubhasiz, bu dunyoning mo'jizalaridir. Zero, bul dunyoning mo'jizalari bo'lmag'onda erdi, ehtimol, taqdir bul kun meni Akop Mirzayang'a duch qilmas erdi. Ul kimsa menga andoq jonfishonlig' aylar edikim, ish shul asnoda davom qilsa, sho'rlikning yuragi yorilib o'ladirkim, boshim balolarg'a qolg'usi, degan xayolda erdim...

Meni o'tqazib ko'p tavoze'lar ko'rsatg'ondin so'ng, ayvon o'rtasinda qo'yilg'on javonning ortig'a o'tdi va ul tarafdin suvning shildirag'oni eshitildi, men aning jo'mrakni ochib, qo'l yuvg'onini fahmladim. Shul borada ul andak sahvg'a yo'l qo'yg'on erdi, ul

avvalo qo‘lini yuvib, andin so‘ng manim po‘stinimni olg‘oni, qo‘ltig‘img‘a kirib tavoze’ ko‘rsatg‘oni maqbul erdi. Qo‘llarini hafsala ila yuvib-artg‘ondin so‘ng javon ortindan chiqib, tag‘in bir daqiqa ma’zur tutg‘aysan, dedi, men gul-giyohlarg‘a boqqan ko‘yi ani kuta boshladim. Bir ozdin so‘ng Akop javon ortindan patnis ko‘tarib chiqdi, bul kun manim omadim kelg‘on erdi, patnisda turfa ko‘k-u ko‘kat, taboqchada yaxna etga o‘xshash bir nimarsa va bir shisha aroq bor edi. Balki bolalarindan birining tavallud kunidir va shul bois bisyor seving‘onidin meni ham mehmon qilayotir, degan fikr kechdi xayolimdin. Baxayr, Akop, bularning barchasi nening sharafig‘a, so‘rdim men. Surishtirmak na hojat, dedi ul, na sening uyqung keladir, na mening, tong esa hali olis, kel, bir armani ila bir musulmon o‘ltirib tut arag‘indan no‘sh etsinlar, savob bo‘ladi, so‘ng tag‘in u ilova qildi: mundoq kori xayr, shubhasiz, boshimiz ustindagi yakka-yu yagona Ollohga ham xush keladir. Men miriqib kuldim, juda ajoyib fikr, dedim, biroq eting to‘ng‘izning eti bo‘lsa-chi? Umrimda musulmon zoti oldig‘a to‘ng‘iz eti qo‘yg‘on odam emasmen, buzoqning toza yaxna eti, ko‘ngling to‘q bo‘lsin, deya Akop Olloh nomig‘a ont ichdi. Yaxshi, dedim men, biroq aroq shishasig‘a boqib tag‘in biroz sarosimag‘a tushdim, mundoq ajoyib o‘ltirishdan so‘ng bul shaytoni lainning kayfi oshib qolg‘och, og‘zig‘a kelg‘onni qaytarmay, yegon-ichg‘onimni burnimdan chiqarmasmu, degan ishtibohga bordim. Chunki, har holda, Akop Mirzayan andoq kishilar toifasindan erdikim, alarning sovunig‘a kir yuvmag‘on ma’qul erdi. Ammo endi manim turib chiqib ketmagim ham, shubhasiz, odobdan emas, manim sha’nimg‘a yarashmas erdi. Ne bo‘lsa – bo‘ldi, jahannamg‘a, dedim ko‘nglimda, bul kun Salohovning shotirlari qo‘lindan eson-omon uyga qaytib, xasta ayolimni sog‘-salomat ko‘rdimkim, mundoq baxtiyor kunni xursandlig‘ ila yakunlamak ravodir. Akop nonni hafsala ila burdalab, ko‘k-u ko‘katlarni joy-joyig‘a qo‘yg‘och, olib kelgan ikki sanchqidan birini sochiq ila artib mening tabog‘img‘a qo‘ydi. So‘ng, Mirza, sen avval ichib, so‘ng taom yeysanmi yoxud avval yeb, so‘ng ichasanmi, deb so‘radi va diqqat ila yuzimg‘a tikildi. Xo‘sh, o‘zing-chi, so‘rdim undin. Men yarim istakon ichib olmasam, bo‘g‘zimdan hech narsa o‘tmaydi, deb javob qildi u. Men ham

xuddi sening kabi, dedim men, ichmasam bo‘g‘zimdan suv ham o‘tmaydi. Akop g‘oyat xursand bo‘ldi, hozir yosh bolalar yanglig‘ o‘rnidan sapchib turib o‘ying‘a tushmasa erdi, degon xayolg‘a bordim. Men yil mobaynida ko‘pi ila bir yoki ikki marotaba, unda ham kayfiyatim ko‘targ‘onda ichmagimdan sho‘rlikning xabari yo‘q edi. Ammo hozir Akop ila barobar ichaman, degan qarorga keldim, chunki armani millatining yaxshi fazilatlarindan biri shulkim, alar g‘azabdan o‘zini qo‘yarg‘a joy topmasa yoxud boshig‘a bir musibat tushsa, bir-ikki qadah aroq ichmak ila asl holig‘a qaytadir. Biz esa hayotning ushmundoq savdolarinda, borib nazir qilg‘il, duo o‘qitg‘il, deya ayolimizni masjidg‘a yo‘llaymiz...

Akop hamon tik turg‘oni holda aroqni ochib, ikkimizg‘a qo‘yg‘ondin so‘ng mendan o‘tirmakka izn so‘radi. Men uning mehmonnavozlig‘ig‘a mot-maattal qoldim, bul ne deganing, hoy Akop birodar, albatta o‘tirg‘il, men sening qo‘nog‘ingmen, sen uy sohibisan, ikkimiz ro‘baro‘ o‘ltirmog‘imiz vojib-ku, dedim. Akop masrur bir holda o‘ltirdi, manim sanchqimni olib, tavoze’ ila etning yaxna bir bo‘lagig‘a sanchib, mening tabog‘img‘a qo‘ydi. So‘ng bodasini ko‘tardi, hozir uzundan-uzoq qadah so‘zi aytadur, deb o‘yladim men, chunki gurjilar kabi uzundan-uzoq qadah so‘zlari aytadirg‘on armanilarni bisyor ko‘rib edim, ammo Akop atigi ikki-uch kalima qadah so‘z aytdi, xolos, Mirza, kel, shuning uchun ichaylikkim, eng yomon kunimiz ushmundoq bo‘lsin, dedi. Xudo haqqi, bul so‘zlarni eshitg‘onda, alalxusus, Akopning og‘zindan eshitg‘onda g‘oyat mutaassir bo‘ldim, chunki ushbu zamonda eng aqlli, farosatli odamlar aytadirg‘on qadah so‘zi edi bul. Ofarin, mingga kir, Akop, dedim men, sen haqiqatan ham ajoyib insonsan, bag‘oyat odamoxun qo‘shnisan, men sening, ayolingning, bolalaringning sog‘lig‘i uchun ichaman, dedim, ul esa, har tarozuning o‘z toshi bor, Mirza, bul qadahni men aytg‘on so‘zlar uchun ichaylik, so‘ng sen aytg‘oning bolalar sog‘lig‘iga ichaylik, dedi. Tut arog‘i ko‘z yosh singori tip-tiniq, darhaqiqat yaxshi soling‘on erdi, mundoq toza aroqni men yoshligimda, Tiflisdag‘i bir gurji birodarimning uyinda ichg‘on erdim. Akop qadahni bir ko‘targ‘onda bo‘shatdi, men atigi yarmini zo‘rg‘a ichdim, chunki la’nati andoq baland edikim, ichimg‘a o‘t ketg‘on kabi bo‘ldi. Darhol bir burda non, bir bo‘lak pishloq olib

yedim, hali o'zimni rostlab olg'oncha fursat o'tmay, Akop tag'in qadahlarimizni limmo-lim qilib to'ldirdi, ichkilik borasinda zo'rlamak bo'lmas, dedi u, sen ko'nglingga qarab ichavergil, ammo men bul kecha to'yib ichmog'im kerak, chunki ikki kundirkim, arog'im tugab qolib, og'zimga bir tomchi ham olg'onim yo'q edi va shul boisdan o'zimni ko'p yomon his etmakdamen.

Shul o'rinda men bir narsani qayd etib o'tmak istaymen. Akop bizning tilda besavodlarg'a xos so'zlaydir, desam to'g'ri bo'lmas, har holda Muxtor Karimlidin yomon so'zlamas erdi, xullas, ba'zi tovushlarni to'g'ri ayta olmas va orag'a tez-tez "ara", "elli" so'zlarini tiqishtirar, shul sababdin ham uning gaplari bir qadar kulgilik chiqar erdi. Bu ham menga xiyla zavq berar, men tez-tez kulib qo'yar edim... Ikkinchi qadahlarni men aytg'on so'zlar uchun ichg'ondin so'ng biroz kayfim ortg'onini, boshim aylanmagini his qildim-da, yaxna et yemakka kirishdim, darhaqiqat, et to'ng'izniki emas, balki buzoq eti erdi, uning tuzi, ziravori me'yorinda bo'lib, so'ng paytlarda bul qadar totli et yemag'on erdim. Akop manim ishtaha birla et yemagimni ko'rib, osh bo'lsin, dedi va tag'in qadahlarimizni to'lg'azg'ondin so'ng, Mirza, sening oldingda men yuzi qaroman, dedi. Dushmaningni yuzi qaro bo'lsin, nega bunday deysan, dedim men. Bir-ikki daf'a senga achchiq gaplar aytg'onmen, bul zahri qotilni ko'proq ichib qo'yg'ondin so'ng quyushqondan chiqib, tilimni tiya olmayman, dedi. Hoy, Akop, dedim men, menga achchiq-tiziq gaplar aytg'oningni hech eslay olmaydirman, axir. Rostdanmi, so'radi ul. Albatta rost, dedim men. Shul o'rinda Akop xiyla xayolg'a cho'mdi, ul manglayini uqalagan holda nenidir xotirig'a keltirmak istar erdi. Uning uzoq xayol surmagiga imkon bermay, rost aytmakdamen, sen bilan biz ko'rishg'onimizda zinhor bir-birimizg'a xijillig' gap aytg'on emasmiz, dedim men. Xudo haqqi, shul gaplaring chinmi, deb so'radi Akop yuzlarimg'a tikilib. Vijdonim haqqi, rost, dedim men.

Men bul so'zlarni aytg'onimdan keyin Akop bisyor sevindi, rang-ro'yig'a qon yugurdi, qo'lini qo'lig'a ishqab, kim ne desa deyaversin, Mirza, ammo men senga umrimda yomon so'z ayta olmayman, chunki men seni ayricha hurmat qilaman, sen hovlimizning oqsoqolisan, qo'shnilar ham sen uchun qurbon bo'lmakka

hozirdirlar, dedi. So'ng manim boshimdag'i buxori papoqqa boqdi, bul antiqa papoq senga juda yarashig'liq, ani qaydin olg'onsen, deb so'radi. Buning terisini menga atay Samarqanddin keltirishg'on, papoqning o'zini esa, Bazarniyda Avanes otlig' ko'p ajoyib qalpoqdo'z bor, o'shal tikkan, dedim. Akopg'a bahona topildi, qadahini ko'tarib, kel, buni o'shal Avanesning sog'lig'i uchun ichaylik, madomiki ul shundoq papoq tikkan ekan, demak, dunyoning eng yaxshi kishilarindan biridir, biz-ku bul joyda ishrat ila mashg'ulmiz, ul sho'rlik uyida yolg'iz yotg'ondir. Kel, uning sharafig'a ichaylik, mundin so'ng ham uning joni sog'-salomat bo'lsin va ushmundoq papoqlarning ko'p-ko'pini tiksin, chunki erkak kishining ko'rki papog'idir, papoqsiz kishining jahannamg'a ketg'oni yaxshidir, dedi. Ichdik. Bul uchinchi qadahdin so'ng boshimning aylanmagi qolib, kayfim tarqag'on kabi bo'ldi, mutloq hushyor tortdim, desam to'g'ri bo'lmas, xullas, andoq me'yorg'a yettimki, undan ortiq kayfim oshmadi. Hamma narsani tuppa-tuzuk idrok etmak darajasinda edim. Akop ham biroz tanaffus qilib, etning ul yer-bul yeridan chimchib toting'on bo'ldi, men ayvondag'i gul-giyohlarg'a boqib, ko'nglimda Akopg'a tahsinlar o'qidim, chunki qishning mundoq bir pallasinda mundoq nabototni tomosha qilmak, darhaqiqat, odamni behad masrur aylardi...

Birozdan so'ng Akop, hoy Mirza, oxirg'i paytlar ko'zimg'a bir qadar o'zgacha ko'rinursen, mabodo betob emasmisan, deb so'radi. Dastavval Akopg'a ishtiboh ila boqdim, ko'nglimdin, balki bul nokas ham mendan gap olmak istaydir, deg'on fikr kechdi, ammo Akopning xumorli qo'y ko'zlarig'a tikilar ekanman, g'oyibdan mundoq ko'zlarning sohibi umrinda donosbozlig' qila olmag'ay va hech kimni hech yerda sotmag'ay, degan bir sas keldi ko'nglimg'a. Do'stim Akop, dedim men, sog'lig'im juda yaxshi, desam yolg'on bo'ladir, chunki gohi-gohida yuragim sanchadir va uyqusizliq tinka-madorimni quritadir. Ammo gapning indallosi bundakim, ishlarim ravon ketmayotir, oxirg'i vaqtlarda ayrim nokaslar mana ko'z ochirg'oni qo'ymaslar.

Akop yirik panjasini ustalg'a urdi, qoshlari uyulib, ko'zlari g'azab ila chaqnag'on bir ahvolda, sen ul nokaslarni menga ko'rsat, qolg'oni menga tan, kekirdaklarini uzib oyoqlaring ostig'a tash-

layman, dedi. Shul alfozda menga ne bo‘ldi, Olloh taolo qolg‘onqutg‘on aqlimdin ajratdimu, yoxud tut arog‘i rasvoyi jahon qilib, boru yo‘q hushimdin ayirdimu, bilmayman, har qalay, bul kun boshimg‘a tushg‘on voqeotni Akopg‘a birma-bir aytib berdim. Endi bul gaplarni eshitg‘ondin keyin Akop menga taskin-tasalli bermakka tushadir, hech qo‘rqqulik joyi yo‘q, Ollohning karami keng, Xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo‘lib ketadir, deya ko‘nglimni ko‘taradir, deb o‘yladim men. Ammo Akop hech narsa demadi, qo‘lini cho‘zib manim qo‘limdan tutdi va o‘pdi, so‘ng boshini ustal ustig‘a qo‘ygan asno bola yanglig‘ ho‘ngir-ho‘ngir yig‘lamakka tushdi. Men o‘zimni g‘oyatda yo‘qotib qo‘ydim, bul sho‘rlik ne uchun bu ko‘yg‘a tushdi, hamma qusur manim o‘zimdin o‘tdi, bo‘lar-bo‘lmas har gapni aytib, uning ko‘nglini o‘ksitib qo‘ydim. Sekin qo‘limni uzantirib, uning tikanak sochlarindan siladim, hoy Akop birodar, dedim men, Xudo haqqi, bul gaplarg‘a parvo qilmag‘il, o‘zingni qo‘lg‘a ol, bilsam erdi, senga hech narsa demas erdim, inshoolloh, har ish o‘z izig‘a tushib ketgusidir, ko‘rib turibsankim, sog‘-salomat kelib yoningda o‘ltiribman. Birozdin so‘ng Akop boshini ko‘tardi, ko‘z yoshlarini artib, ara, yig‘lamagimning boisini bilursanmi, deya gap boshladi. Xo‘sh, nega, so‘radim men. Sen boya ul voqealarni menga gapirg‘oningda sho‘rlik akam yodimg‘a tushdi, dedi u. Uning ham oti Salax edi, Xudo rahmat qilsin. Akop qadahini qo‘lig‘a oldi, qo‘rqib-netib yurmag‘il, Mirza, dedi ul, toshdin bardosh qattig‘, senga hech kimsa qo‘l tekkiza olmag‘ay, mabodo hol-joningg‘a qo‘ymas bo‘lsalar, Maskovg‘a bir dilgirom jo‘nataman, andin so‘ng bularning holig‘a maymunlar yig‘laydir. Sening Sa’di Afandi oting bor, qayg‘a bormay, ko‘cha-ko‘yda sening nomingni tilg‘a olg‘on asno hamma taniydir, hamma sening haqingga duo qiladir, chunki sen ko‘p faqir-fuqarolarning boshini silagansan. Mirza, dedi so‘ng ul, Olloh hech kimning boshig‘a yomon kun solmasin, ammo bul charxi davronning ishlarini bilib bo‘lmag‘ay, nogoh bir kori hol ro‘y bergudek bo‘lsa, zinhor bir narsa esingdan chiqmasin. Shuni unutmag‘ilki, bul maskunda, ushbu hovlida sening birodardan ham ortiqroq bir qo‘shning bor, uning oti Akopdir, familiyasi – Mirzayan. Biz seni Mirza deb ataydirmiz, manim familiyam esa Mirzayandir. Manim

sendan faqat "yan"im ortiqdir. Biz tug'ishg'on birodarlar kabi yaqinmiz. Ne darding bo'lsa, qo'rqib-netib yurmag'il, ortingda mana men bor, nainki Salohov, naq dajjolning o'zi bo'lg'onda ham kekirdagini uzib oyoqlaring ostig'a tashlaymen... Shul soniyada, ya'ni suhbatimiz shul maqomg'a yetg'onda, Akop birodarimning og'zindan chiqqan bul so'nggi so'zlarni eshitg'onda, angladimki, yo sho'rlikning kayfi oshib qoldi, yoxud kayfi benihoya oshadirg'on bir arafadadir. Akopning boyagi xumor-xumor suzilg'an qo'y ko'zlari endi andoq g'azabnok boqardikim, ularda sokinlig' va xayrixohlig'dan asar-alomat ham qolmag'on, go'yo hozir uning qo'lig'a bir yot kimsa tushgudek bo'lsa, chindan ham kekirdagini uzib oladir, deb o'ylardir kishi. Shul boisdan ham men taraddudg'a tushib qoldim, hatto bir ko'nglim, o'rnimdan turib, xayr-ma'zur qilaman-u, yotg'oni uyimg'a ketamen, deb o'yladim, biroq Akop birodarim manim bul fikrimdan xabar topdi, shekilli, Xudo haqqi, sen ketmakka shoshmag'il, hali ul yerda tag'in bir shisha arog'im bor, deya hovlidag'i yanglig' elanib-yolvormakka boshladi. Yo'q, oshna, shul o'zi kifoyatdir, dedim men, mundin ortiq icha olmayman, ichsam shul zahoti yiqilib o'lmagim tayin. Xo'p, yaxshi, dedi Akop, kel, unda ushbu qadahni shaxsan sening sog'lig'ing uchun ichaylik, Olloh senga uzoq umr bersin, butun dushmanlaringni yer yuzindan yo'q qilsin! Ichdik, bul daf'a ham Akop birodarim o'z qadahini oxirig'a qadar ko'tardi, men esa tag'in yarmini ichdim. Yoshligimdanoq manim sarmast kimsalardin achchig'im chiqar va shul boisdan kayfim oshg'oni bir holda ayolim yonig'a borib yiqilmakni ravo bilmas erdim. Bul fikrlar ko'nglimdin kechdi, albatta. So'ng Akop birodarim menga, sen hikoya qilg'on bul mahzun voqeotdan so'ng senga bir armani qo'shig'i aytib bermak istayman, bul qo'shiq "Go'zal qiz" deb ataladir, dedi. Qo'shiq aytsang, uydagilar bezovta bo'ladir, dedim men. Men qo'shiq aytganda hech biri uyg'onmaydi, chunki o'rganib qolishg'on, dedi Akop. Mabodo xotinim ul-bul deydirg'on bo'lsa, Qoraboqqa, otasinikig'a jo'natib yuboraman, deb ilova qildi ul. Xo'p, ayta qol, dedim men... Akop ustalg'a tirsak tirab, qo'lini qulog'i orqasiga qo'yg'on bir alfozda ko'zlarini yumg'on ko'yi asta-sekin mayin ovoz ila qo'shiq ayta boshladi.

Men qo‘shiq aytg‘onlarni ko‘p ko‘rg‘on, Bokuda, Qorabog‘da, Tiflisda ne-ne ajoyib xonandalarning qo‘shiqlarini eshitg‘on erdim, mamnun va osuda damlarimda ularni mehmon ham qilg‘on erdim, ammo, Kalomulloh haqqi, hali Akop kabi qo‘shiqchini uchratmag‘on edim. Undan ham yaxshi aytadirg‘onlar va musiqani undan-da yaxshi biladirg‘onlar yo‘q emas edi, albatta. Biroq gap shundakim, avvalo, bul qadar yonib, bul qadar yurakdin qaynab chiqqan ovozni, darhaqiqat, eshitmag‘on, qolaversa, odamning bag‘rini bul qadar o‘rtab yuboradirg‘on qo‘shiq ham tinglamag‘on erdim. Andoq pajmurdahol bo‘ldimkim, ko‘zlarimg‘a yosh to‘lib keldi, o‘zimni zo‘rg‘a qo‘lg‘a oldim. Akopning qo‘shig‘ini tinglar ekanman, mundoq qo‘shiq zinhor-bazinhor aysh-ishratlarda, to‘y-tantanalarda dunyog‘a kelmag‘ay, mundoq qo‘shiq faqat musibatdin tug‘ilg‘ay, Akop bul qo‘shiqni ushbu yerda emas, balki tog‘ zirvalarida kuylasa erdi, Xudo haqqi, tog‘-u tosh sel bo‘lib oqur edi, deb o‘yladim men. Akop birodarim mening bul so‘zlarimdan bag‘oyat mamnun bo‘ldi, hatto bir qadar uyaldi, biroq bir so‘z aytmay o‘rnidan turdi va kelib manim yuzimdin o‘pdi. Men ham uning yuzidin o‘pdim, so‘ng, kech bo‘lib qoldi, endi men uyimg‘a keta qolay, sen ham uxlag‘il, Xudo xohlasa, ertalab tag‘in ko‘rishajakmiz, dedim men. Ul po‘stinimni tutdi, men kiyindim, Akopni hovlig‘a chiqmakka qo‘ymadim, ostonada qo‘l siqishib xayrlashdik va bir-birimizg‘a xayrli tunlar tilab ajrashdik, hovlig‘a chiqqonimdan so‘ng birpas toza havo olsam yomon bo‘lmas, degan fikr kechdi ko‘nglimdan. Xudoyim, naqadar ajoyib tun edi bu! Berg‘on kuningg‘a shukur, ushmundoq kechag‘a shukur, bul oppoq qorg‘a, boshim uzra parpar shu’la sochg‘on bul oyg‘a shukur. Ming qatla shukur!”

Bu satrlardan so‘ng kimdir uchinchi daftarning o‘rtasidan bir necha varag‘ini qo‘porib olgan, varaqlarning choklari o‘rnida mayda qog‘oz parchalari qolgan edi. Tabiiyki, bularni yo Sa’di Afandining o‘zi qo‘porgan, yoki bu Salima xonimning ishi edi. Salima xonim allaqanday mulohazalar ishtibohi ila daftarni to‘laligicha bermagani bemorning o‘ziga ham ayon edi. Bemor Salima xonimning upa-elikli yuzini, hamma narsaga shubha bilan boqadigan tim qora ko‘zlarini, goh kulib, goh yig‘laydigan xirildoq ovozini esladi va sekin xo‘rsinib qo‘ydi. Bu uchinchi daftarning eng oxirida

yarim sahifacha yozuv bor edi. Bu yozuvni bemor atigi ikki-uch daqiqa avval ikki marotaba rosa diqqat bilan o'qib chiqqan bo'lsada, harchand urinmasin, tayin bir ma'ni chiqara olmadi, chunki bu qaydlarning avvalgi fikrlar bilan hech qanday mantiqiy aloqasi yo'q edi, hatto boya bemor, o'sha sovuq, qorli yilning yanvar oyida balki asabiy charchoqdan Sa'di Afandining eski kirdi-chiqdi bo'lib qolgandir, degan fikrga ham borgan edi...

Bemor soatga qaramay qo'ydi, shundoq ham bu kecha rejim demagani izdan chiqib ketgan, endi yarim soat ortiq yoki yarim soat kam o'tirishning hech qanaqa ahamiyati yo'q edi. Zamina ham hali-veri uyg'onmasa kerak, chunki tunning bu mahali – sahar arafasining uyqusi g'oyat shirin bo'ladi. U tag'in daftarga egilib, o'zi mantiqsiz, bemorlarga xos shuur ila yozilgan deb hisoblagan qaydlarni o'qishga tutindi.

"...yuzimg'a andoq tikiladirkim, hoy yaxshilar, jinni bo'lib qolmagim tayin, deb o'yladim. Tuklari tikrayg'on, kelbati ham ulkan mushukdek kelardi. Ming la'nat mundoq zamonag'a, bul maxluq, otini boya Kirlikir deb aytg'on edi, menga andoq aqlli so'zlar aytdikim, qornini qashiy-qashiy meni andoq ma'nilardin ogoh ayladikim, bul maxluq darhaqiqat ulkan aql sohibi ekanlig'ig'a menda ortiq shubha qolmadi. G'ofil bo'lmag'il, dedi ul, sen kabilarning uyini g'ofillig' vayron qiladir, tag'in seni Salohovning yoxud Muxtor Karimlining huzurig'a chaqirsalar, sen zinhor etagingni tutqizmag'il, chunki sening bor musibatlaring hali oldindadir, joningning g'amida bo'l, bir farangi dorusi bor, Kirlikir doruxonaning raqamini ham aytdi, borib ul dorudan mo'l-ko'l olg'il, chunki ul senga lozim bo'ladir. So'ng axlat qutilari orasinda goh ul sori, goh bul sori yurmakka boshladi, keyin bir ko'zini yumib, menga bir ko'z ila boqqan ko'yi, ul yozg'on yoziqlaringni ham bir pinhon joyg'a yashirg'il, uvol bo'lmasin, vaqt-soati yetg'onda ro'yobg'a chiqarurlar, dedi. Men endi qo'rquvni ul yong'a, boshim uzra muallaq turg'on falokatni bul yong'a qo'yib, Kirlikir birodar, sen bir kalamush bo'lg'oning holda qandog' qilib bizning tilimizni bul qadar yaxshi bilursen va bizning ahvolimizdin bul qadar mufassal xabardorsen, deb so'rdim. Ul tag'in qornini qashig'on ko'yi, men nafaqat sizning tilingizda, balkim jami tillarda so'zlay bilurman, chunki men bul

mamlakatning eng keksa kalamushidirman va yaxshi odamlarg‘a baholi qudrat yordam bermak tashvishidaman, zero, yaxshi odamlar o‘lib keturlar, yomonlar esa uzoq yashaydirlar, deb javob qildi. Ammo taassufkim, dedi ul, ko‘p yaxshi kimsalar meni ko‘rgan asno yo chinqirib uylari sori qochadirlar, yoxud oyoqlari ostig‘a olib tepkilamakka tushadirlar, yoinkim manim aytg‘on so‘zlarimga ishonmaydirlar. Mendan qo‘rqib-netib yurmag‘il, Kirlikir birodar, dedim men, umrimda chumolig‘a ham ozor berg‘on banda emasmen, chunki manim Ollohning jami maxluqlarig‘a rahmim keladir, boz ustig‘a, sening barcha aytg‘onlaringg‘a ham ishonurman. Bul so‘zlar Kirlikirga maqbul bo‘ldi, bu daf’a o‘ng ko‘zini yumib, so‘l ko‘zini ochdi, qizg‘imtir qornini qashig‘on ko‘yi menga “borakalloh”, dedi, sen o‘limdan qo‘rqmasliging lozim, deb ilova qildi ul, chunki odamning o‘lg‘onidan keyingina o‘limdan qo‘rqmaslik lozimlig‘ig‘a imoni komil bo‘ladir.

Bul so‘zlarni eshtig‘onim asno yuragimg‘a nashtar sanchilg‘on kabi bo‘ldi, ayolim ila Salima qizim keldi-turdi ko‘zlarim oldig‘a, Kirlikir ham bir o‘tli oh chekdi, hoy jannatining farzandi, dedi ul, sen o‘z joningning g‘amida bo‘l, xotin, bola-baqra bir kunini ko‘rib ketadir, sen ertagayoq falon raqamli doruxonag‘a borib, men aytg‘on farangi dorusindan mo‘l-ko‘l ol, yaqin orada safaring ko‘p olis joylarg‘a tushadir, chunki, mening bilishimcha, xufiyaxonalarda tag‘in bisyor gaplar bo‘lib o‘tg‘on va allaqachon hamma ishing hal etilg‘on. So‘ng ul g‘oyat beodoblig‘ ila so‘kindi va “budet sdelano, tovarish Salaxov!” deya chinqirdi. Shul asno manim qornimg‘a bir og‘riq kirdi. Kirlikir boshini ko‘tarib oyg‘a boqdi, men ham oy sori tikildim. Oy kichrayib olma qadar bo‘lib qolg‘on erdikim, men ani yulduz deb xayol qildim. Rosti, qattiq qo‘rquvg‘a tushdim. Endi men ketadirg‘on bo‘ldim, dedi Kirlikir, chunki meni chorlamakdalar. Salomat qolg‘il, dedi ul va men kalimag‘a og‘iz ochib ulgurmag‘on erdimki, ul axlat qutilari orasig‘a kirib g‘oyib bo‘ldi. Men tag‘in ko‘kka tikildim, biroq bul daf’a oyni ko‘rmadim, ko‘k yuzinda har biri olmaday keladirg‘on yirik-yirik yulduzlar yonmakda, ul yulduzlardan manim boshimg‘a izg‘irin sovuq oqmakda va bul sovuqdan muzlab qolayozg‘on erdim, darhol ortimg‘a burilib, uyg‘a sori ravona bo‘ldim”.

Vassalom. Bemor daftarni yopib stol ustiga qo'ydi, kuldondan boya yarmini chekib o'chirib quygan sigaretni olib tutatdi va yutoqib so'rdi.

Tag'in Salima xonimni esladi, uning kasalini ne sababdandir Sa'di Afandining kalamush borasida yozganlari bilan bog'lamoqchi bo'ldi: endi hech qanday shubhaga o'rin yo'q edi, Bergmanning Salima xonimning kasalligi haqida aytgan mulohazalarini tag'in bir bor xotiridan o'tkazar ekan, hakimning genetik farazlari mutlaqo to'g'ri ekanligiga uning yana bir karra ishonchi komil bo'ldi. Bemor ruhiy noto'kislik irsiyat bilan bog'liq ekanligini angladi, u Sa'di Afandiga juda achinib ketdi, kundalikni o'qib tugatgandan so'ng ko'krak qafasida ulkan shish kabi bir og'ir o'kinch paydo bo'lganini his qildi. Tag'in oromkursidan turib, deraza oldiga bordi, olisda, ufqning shundoq ustida yarqirab turgan oy gardishini tomosha qilar ekan, jilmaydi, so'ng samoga boqdi, harchand sinchkovlik bilan tikilsa-da, bitta ham yulduzni ko'rmadi. Ortidagi qadimiy soat tungi to'rt bo'lganidan darak berib zang urdi. Ko'pdan beri toblanmagani uchun soatning murvatlari bo'shab qolgan edi, shu sababdan ham xona sokinligida zang tovushi bo'g'iq va vahimali yangradi.

* * *

Ertalab uyg'ongan bemor o'ng tomoniga qarab, xotini o'rnida yo'qligini ko'rdi, aftidan, u bolalarni maktabga kuzatib qo'ygach, oshxonada yuv-yig'ishtirga tushib ketgan bo'lsa kerak. Chap qo'lini uzatib, g'aladon ustida turgan soatini olib qaradi – o'n yarim bo'libdi. O'rnidan turib, kecha karavot yonidagi kursining suyanchig'iga uloqtirgan xalatini kiydi va xobxonadan chiqib, oshxonaga o'tdi. Zamina oshxona stolida o'tirganicha gazetalarni titkilardi, kulgi ovozini eshitib boshini ko'tardi va uyquli ko'zlari bilan o'ziga tikilib turgan erini ko'rdi.

– Rostini ayting, ertalab nechada yotdingiz? – so'radi u.

– Sen ketganingdan so'ng yigirma minut o'tar-o'tmas yotdim. – Bemor yolg'onladi va ilgari yurdi-da, pastak kursichani tagiga tortib, xotini bilan yuzma-yuz o'tirdi. Oshxonaning havosi toza, hamishaki kabi dog'langan ovqat hidi yo'q, aftidan, Zamina derazani ochib, oshxonani shamollatib qo'ygan edi. Gaz plitasida pastlab

yonayotgan o‘t bir chekkasini yalayotgan chovgum jizillab turardi. Zamina o‘rnidan turib, deraza yonidagi muzxona ustidan dumaloq talinkani olib kelib erining oldiga qo‘ydi: talinkada kaftdek keladigan qatlama – bemor har kun ertalab yeydigan oddiy qatlama bor edi. Kasalga chalinganidan beri go‘yo me’dasi biroz toraygan kabi ishtahasi bo‘g‘ilib qolgan edi. Zamina eriga bir stakan shirin choy qilib berdi va tag‘in o‘z joyiga o‘tirdi.

Bemor yeb-ichib bo‘lgach, gazetalardan birini ko‘tarib hojatxona tomon yurdi. Ishini bitkazib, qo‘l-yuzini yuvib bo‘lgach, ko‘zguga tikildi, kaftining orqasini yuziga tortib, soqolni chamalab ko‘rdi, bugun qirtishlash kerak ekan-u, ertaga ola qolarman, degan qarorga keldi u. Yaxshilab artingach, vannadan chiqib, mehmonxonaga kirdi. Kecha stol ustida qoldirgan daftarlarni u yer-bu yeridan varaqlab, ora-sirasidan bir-ikki joyini takror o‘qidi, Kirlikir voqeasidan ham uch-to‘rt jumla o‘qigach, esnab, boshini sarak-sarak qildi va ko‘nglida “Hey attang, Sa’di Afandi” deb qo‘ydi. Mana endi, uyqudan turganidan so‘ng, hushyor paytida, tunning asabiy charchoqlaridan keyin tiniqqan shuurida shubhali bir fikr paydo bo‘ldi: agar Karimli ushbu arafada, ustiga-ustak, Sa’di Afandi ahvoli ruhiyasining me’yorida bo‘lmaganligidan xabar topib qolsa, Salima xonimning barcha tahlikalari to‘g‘ri bo‘lib chiqar edi. “Bu kundalikni hozircha, yubiley tantanalari o‘tib bo‘lgunga qadar zinhor hech kimga ko‘rsatmaslik lozimligini xotinimga tayinlab qo‘yishim kerak...” Bemor oromkursiga o‘tirib, daftarlarni hafsala bilan tartib raqamiga ko‘ra ustma-ust taxladi va ularni paketga solib, paketni ham hafsala bilan qattiq siqib bog‘ladi. So‘ng eshik tomon o‘girilib, baland ovozda dedi:

– Zamina, telefonni olib kel!

Oshxonadan xotinining ovozi eshtildi:

– Nima?

– Telefonni keltir menga!

Zamina simi uzun telefonni keltirib erining oldiga, stol ustiga qo‘ydi, so‘ng deraza oldiga borib, darchani ochdi, eri shosha-pisha yoqasini o‘ray boshlaganini ko‘rib, dedi:

– Qo‘rqmang, hech narsa qilmaydi. Kecha Mark Georgiyevich, endi hech narsadan qo‘rqmasa bo‘laveradi, xonalarni shamollatib

turing, dedi. Xudoga shukur. – U erining yoniga kelib, biroz egilgan ko‘yi uning yuzidan o‘pdi. – Siz hakimlarning aytganiga quloq solganingizda edi, allaqachon otdek bo‘lib ketardingiz. – So‘ng erining tizzasidagi paketga tikildi. – Xo‘sh, Salima xonim haqida ham biror narsa yozilgan ekanmi u yerda?

Bemor xotinining yuziga tikilib jilmaydi.

– Sen hozir taniydigan Salima xonim haqida hech narsa yo‘q, – dedi u. – Yetti yoshli Salima haqida yozgan, o‘ziyam har ikki gapining birida, mening Salima qizim, deb yozibdi.

– Voy, shunaqami! – Ayolning masrur ko‘zlarida o‘tkinchi bir g‘ussa namoyon bo‘ldi, aftidan, Zamina ham hozir o‘zi taniydigan Salima xonim bir paytlar darhaqiqat Salima otli jajji qizaloq bo‘lganini anglab yetgan edi.

Zamina xonadan chiqayotganida bemor so‘rab qoldi:

– Demak, sog‘ayib qolibmanda-a?

Zamina ortga o‘girilib, boshini sarak-sarak qildi.

– Nima, tag‘in sigaret so‘ramoqchimisiz?

– Ha... Atigi bir dona, ertalab cheksam hech narsa qilmas!

– Uf-f! – Zamina ko‘zlarini ola-kula qildi. – Judayam ayyorsiz-da. Ha, mayli. – U javon yoniga borib xalatining cho‘ntagidan bir dasta kalit chiqardi va javonning o‘rta eshigini ochdi. Qo‘lini g‘aladonning to‘riga tiqib, u yerdan bir dona sigaret qutisini oldi va turgan joyidan eriga ko‘rsatib: – Bu – enze,[1] – dedi. – Bemor “Malboro” sigaretini ko‘rib rosa sevinib ketdi, chunki ikki oy edikim, kamxarjlikning uyi kuysin, bunday sigaretlarga zoriqib qolgan edi.

– Qoyil senga, xotin!

U sigaret tutatdi, Zamina eshikni yopib chiqib ketgach, bemor ko‘ksini to‘ldirgan lazzatdan go‘yo o‘zini ko‘kning yettinchi qavatida his qildi. Tutunni yutoqib tortib, bir muddat nafas chiqarmay turdi, nikotin, xuddi a’lo navli konyak kabi, avval asta-sekin boshini aylantirdi, so‘ng mushaklarini bo‘shatdi va bemor darhaqiqat butunlay tuzalib ketganiga ishondi. Inson baxtiyor bo‘lmog‘i uchun u qadar ko‘p narsa lozim emas, deb to‘g‘ri aytganlar. Kaftdek qatlama yo bo‘lmasam bir dona sigaret bo‘lsa kifoya, shuning o‘zi dunyoga tatiydi, sarin shamol esib, dimlikni haydab yuborgani

[1] NZ – neprikosnovenniy zapas (rus. – daxlsiz zaxira – tarj.)

kabi, goho arzimagan bir narsa butun dard-u alamingni, asabiy charchoqlaringni tarqatib yuboradi.

Bemor telefonni olib tizzasiga qo'ydi va Salima xonimning raqamlarini tergan ko'yi soatiga qaradi. O'n birdan besh daqiqa o'tgan edi.

– Allo? – Salima xonimning uyquli, yo'g'on ovozi eshtildi, aftidan, uning og'zida sigaret bor edi.

– Xayrli tong, Salima xonim.

– Voy, rahmat! – Salima xonim sevinganidan qichqirib yuborgudek bo'ldi. – Dorogoy moy, o'qib chiqdingmi?

– O'qib chiqdim, Salima xonim, zo'r mamnuniyat bilan o'qib chiqdim, aytmoqchimanki...

– Epikrizni aytmoqchimisan? – Salima xonim uning gapini qo'qqisdan kesib qo'ydi, bemor uning bu shoshilinch savolidan so'ng konspiratsiyaga o'tish lozimligini angladi. Bemorning kulgisi qistadi, o'zini zo'rg'a bosib:

– Albatta, epikrizni aytyapman, – dedi ovoziga jiddiylik berib.

– Nu kak?

– Nima desam ekan, Xudo haqqi... Joyi jannatda bo'lsin u kishining, go'ri nurga to'lsin... Siz bilan bir ko'rishsak yaxshi bo'lar edi. Bir-ikki joyini men yaxshi tushunolmadim. To'g'rirog'i, menga jinday ilova berishingizga to'g'ri keladi... Uchrashsakmi, degandim.

– Qayerda?

– O'zingizga ma'lumki, hali-veri hakimlar meni uydan chiqishga qo'ymaydilar. Siz biznikiga kela qolsangiz, degan edim.

Salima xonim bir muddat sukutga ketdi, negadir telefon dastagidan shamolning guvillashiga o'xshash bir tovush eshtildi, bemor ajablanib deraza tomon boqdi, yo'q, shamoldan asar ham yo'q, havo osoyishta edi, nogoh telefonda Salima xonimning ho'ngrab yuborgani eshitildi. Bemor o'zini yo'qotib qo'ydi.

– Salima xonim, Xudo haqqi, asabiylashmang, iltimos qilaman.

– Ko'rdingmi, – dedi Salima xonim. – Sho'rlikning boshiga ne savdolar solishganini ko'rdingmi? – U qanday favqulodda yig'lagan bo'lsa, shunday favqulodda kulib yubordi. – Ammo endi Karimli boshini yuz devorga ursa ham, qo'lidan hech narsa kelmaydi.

– Albatta! Albatta!

– Biznikiga keling, deysanmi?

– Salima xonim, Xudo haqqi, rost aytyapman, hech narsadan qo‘rqqulik joyi yo‘q. Bizning binoga har kuni kelib-ketadiganlarning sanab adog‘iga yetish qiyin. Kimning ishi bor deysiz, xonim, keling, achchiq choy ichib bir hasratlashaylik. Nima deysiz?

– Bo‘pti, o‘zimni mundoq bir tartibga solib olay, keyin boraman. – Kulgidan uning dami ichiga tushib ketdi... – Ayol kishi yoshi o‘tgan sari vosvos bo‘lib qolar ekan, minglab ko‘z senga tikiladi, yasan-tusan qilmasang, bo‘lmaydi. Do‘st bor, dushman bor.

– Albatta, albatta... Demak, sizni kutaman.

– So‘zsiz, boraman.

Salima xonim xayrlashmay qo‘qqisdan dastakni qo‘yib qo‘ydi. Bemor bir muddat uzoq-yuluq signallarni tinglab turdi-da, so‘ngra dastakni sekin qulog‘idan olib, apparatning ustiga qo‘yar ekan, kaftida yoqimsiz bir haroratni his qildi: uning kafti terlagan edi, bu ter bo‘lganda ham sovuq ter bo‘lib, bundan bir necha oy avval issig‘i ko‘tarilib yotganida peshonasiga tepchiydigan, ba’zan esa a’zoyi badaniga sizib chiqadigan o‘sha quyuq, yelim kabi yopishqoq terga o‘xshardi. Bemor shosha-pisha ochiq darchaga boqdi, darhol xalatining tugmalarini qadab o‘rnidan turdi va javon sari yurdi. Balki Zamina sigaret olib bergach, javonni qulflashni unutib qo‘ygandir, degan ilinjda edi u. Gumoni to‘g‘ri chiqdi: Zamina javonning eshigini qulflashni unutgan edi. Bemor shoshganicha g‘aladonga qo‘l suqib, “Malboro” sigaretidan ikki dona oldi, birini kissasiga solgach, qaytib o‘rniga o‘tirdi, chekib turgan sigaretini kuldonga bosib o‘chirdi va qoldig‘ini xalatining narigi cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Eshikka tikilgan ko‘yi yangi sigaret tutatdi, tutunni lazzat bilan ichiga tortgan ham ediki, eshik ochilib, Zamina kirib keldi. U erining barmoqlari orasidagi sigaretga e’tibor qilmadi, stolga yaqinlashib, kuldonga ko‘z qirini tashladi, biroq, aftidan, hech narsaga tushunmadi.

Bemor unga dedi:

– Birpasdan so‘ng Salima xonim keladi, choy-poy tayyorlab qo‘y.

– Vo-o-oy! – dedi Zamina norozi ohangda. – Tag‘in hol-jonimizga qo‘ymas ekan-da!

– Na iloj... Men telefon qilib, birovni jo‘nating, paketni berib yuboraman, dedim, u esa, hozir o‘zim yetib boraman, Zaminani ham sog‘inib qoldim, dedi.

– Voy-voy, mening u bilan o‘tiradigan holim yo‘q-ku. Non yopishim kerak. Ikkida bolalar maktabdan kelib qolishadi.

Bemor:

– Birpas o‘tirib, so‘ng o‘z ishingni qilaverasan. U men bilan suhbatlashmoqchi, – dedi.

– Sizni ham ming maqomga soladi, – dedi Zamina, so‘ng nimalarnidir o‘ylab, qo‘shimcha qildi: – Ehtiyot bo‘ling, Xudo haqqi, zinhor asabiylashmang. Kelib bor-yo‘q dardini to‘kib soladi sizga. Falon bo‘ldi, piston bo‘ldi, Muxtor Karimli undoq dedi, mundoq dedi, deb ko‘zingizni ochirmaydi. – Zamina jinday sukutdan so‘ng davom etdi. – Bolalarning haqqi-hurmati, hech narsaga aralashmang. O‘zlarining intrigalari, qo‘ying, o‘zlari hal qilishsin. Sizning boshingizga bir musibat tushsa, hech kim kelib mening bolalarimdan hol so‘ramaydi.

Bemor ham taajjublangan, ham biroz asabiylashgan holda xotinining yuziga tikildi.

– Nimalar deb aljirayapsan o‘zi? – dedi. – Mening boshimga qanday musibat tushishi mumkin!..

Zamina qo‘l siltadi.

– Sizning har narsaga asabiylashaverishingizni men istamayman. Endi tuzalib kelyapsiz, uyda o‘tirib, o‘z joningizning g‘amini yeng. Mark Georgiyevich, o‘zini ehtiyot qilishi kerak, dedi.

Bemor gap mavzuini o‘zgartirish lozimligini payqadi, erini sevadigan va unga o‘z shaxsiy mulki kabi qaraydigan bir ayolni oddiy turmush, bola-chaqa, uy-ro‘zg‘or tashvishlaridan xalos etish uchun hozircha asosli omillar kashf qilinganicha yo‘q. Shuningdek, Zaminaning so‘nggi oylar ichida ne-ne tashvishlar chekkanini esdan chiqarmaslik kerak: sho‘rlikning ko‘zlari ostida ko‘m-ko‘k dog‘lar paydo bo‘ldi, qattiq asabiylashganida, bezovta bo‘lganida qo‘llari ham titray boshlaydi.

– Mark Georgiyevich tag‘in nima dedi? – so‘radi bemor.

– Nima derdi! Xudoga shukur, hammasi o‘tib ketdi, dedi. Hadeb uyda o‘tiravermasin, bir-ikki kun issig‘ini o‘lchab turing, ko‘taril-

masa, sekin-asta toza havoga chiqsin, ko'proq harakat qilsin, dedi. – Zamina erining orqasiga o'tib, uning boshini siladi. – Siz mening aytganlarimni qilsangiz, hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

Bemor xotinining qo'llarini ushlab, lablariga olib keldi va tag'in kaftidan o'pdi: dimog'iga piyoz hidi urildi. So'ng boshini burib hamon orqasida jilmayib tik turgan Zaminaga boshdan oyoq razm solib chiqib:

– Unda, kel, yana bir yaxshilik qil, – dedi.

– Bosh ustiga!

– Haligi eski albomimizni olib kel.

Zamina kitob javonlaridan birining yoniga borib, pastki g'aladonni ochdi va kattakon, uzun albomni olib, xalatining yengi bilan alvon baxmal yuzidagi changni artdi-da, keltirib erining tizzasiga qo'ydi. So'ng xonadan chiqib, oshxona tomon ketdi.

Bemor albomni varaqlab, o'z suratlariga, Zaminaning, bolalarining, qarindosh-urug'lari va boshqa tanish-bilishlarning suratlariga shoshqin bir nigoh bilan ko'z qirini tashlab borar ekan, nihoyat, Sa'di Afandining qog'ozi sarg'ayib ketgan eski suratini topdi. Boshida buxori papoq, egnida qalin po'stin, bo'ynida ingichka galstuk va tizzasi ustiga qo'ygan o'ng qo'lining nomsiz barmog'ida yaraqlab turgan yirik marvarid ko'zli uzuk. Eng muhimi, kishiga sinchkovlik bilan tikilib turgan, biroz tabassumli, biroz g'ussali san'atkor, shoir ko'zlari. Bu tabassumli, yoqimli chehraning oniy bir lahzadagi holati, necha yillarkim, o'zgarmay kelmoqda va bundan keyin ham, to qiyomatga qadar shundoq o'zgarmay qolaveradi; xuddi dunyoning tog'lari, ummonlari o'zgarmay qolgani kabi, azalul-abad muhabbat va nafrat o'zgarmay qolgani kabi...

Bemor albomni bekitdi, nechundir Sa'di Afandining ko'zlarini ko'rgandan so'ng o'rtandi, shu qadar o'rtanib ketdiki, yangidan sigaret chekmoqchi bo'ldi, ammo o'zini bosib oldi: uning esiga g'alati bir narsa tushdi: bundan taxminan uch-to'rt kun avval kechqurun soat o'n birda uyqudori ichib, uyquga ketgan edi, bir payt qo'qqisdan uyg'onib soatiga qarasa, uxlaganiga hali yarim soat ham bo'lgani yo'q. Doridan gir-gir aylanib turgan boshi tinimsiz g'uvillar edi. U tushida keksa bir jonivorni ko'rgan edi, na qush, na ot, na it, ya'ni hayotda ming martalab uchratadigan va ko'rgan zahoti

qanday maxluq ekanini darrov ajratib oladigan jonivorlaridan biri emas, nihoyatda g'ayritabiiy keksa bir jonivor tushiga kirgan edi. Bir paytlar u, hali bolalari juda kichkina bo'lgan vaqtlarda, bozor kuni ularni hayvonot bog'iga olib borgan edi, u yerda dunyoning g'alati-g'alati hayvonlarini tomosha qilgan, ulardan miriqib kulgan, hayratlangan edilar, biroq negadir qafaslardan biri bo'sh edi. Bemor hayvonot bog'i xizmatchilaridan birini to'xtatib, yo'g'on simlari zang bosgan bu qafasning ne sababdan bo'sh yotganligi bilan qiziqqan edi. Xizmatchi bir so'zga o'n so'z bilan javob beradigan odamlar toifasidan bo'lib, qafasning bo'shab qolgani tarixini bemorga uzundan-uzoq hikoya qilib bergan edi. "Ag'oyni, munda bir qari qo'tir jonivor boriydi. Voh, desam, qo'rqqanidan qapasning kunjagiga borib qisilaydi. Ovqot ham yemaydi. Bir telva xotin boriydi, har kun kelib munga ovqot yegizaydi. Xudoy ursin, ag'oyni, bu hayvon boyanagi telva xotinni ko'rganda bir qiliq chiqardiki, xuddi onasini ko'rib qoldi, deysan... Xotin telva bo'lganda ham o'taketgan telva edi! Qaddi-qomati yomonmasiydi. Eshitgan bo'lsang kerak, Jebi laqqa degan mashhur odam boriydi, o'zi milyarder, yolg'on aytganning gunohi o'z bo'yniga, go'yo o'sha bu xotinni o'ynash qilib olib yurar ekan, so'ng ketiga tepgan, bu esa shu ko'yda telva bo'lib qolgan, man eshitganimni deyman-da, yolg'on aytganning gunohi o'z bo'yniga. Xullas, ag'oyni, yaqinda o'sha xotin o'ldi. Jonivor ham telva bo'lib qoldi. Hech narsa yemasdan, kechalari yulduzlarga qarab uliy boshladi. Quturdi-da! Boshimni og'ritib yuramanmi, igna urib o'ldirdik. Munday hayvonni saqlab bo'ladimi, nima deding?"

So'ng bemor Mahmud aytib bergan voqeani esladi, Zulfiqor ota o'lgan kecha Temir totor ko'rgan tushni xotirladi va ehtimol, mening tushimga kirgan bu jonivor Temir totorning o'sha jonivori bo'lsa kerak, deb o'yladi... Yo'q, ertadan boshlab toza havoga chiqmasa bo'lmaydi, kun bo'yi kursida o'tirib, sigaret chekkan ko'yi bo'lmag'ur narsalarni eslashdan ko'ra ochiq havoga chiqib, xiyobonlarni sayr etish ming karra avlo! Odamning tushiga har xil jonivor ham kiradi, jin-ajina ham, ularni ta'birlab ezilib o'tirishdan ne foyda?

Xudo haqqi, kimda-kim ikki bolaning soch-soqoliga oq tushgan otasi ish-u tashvishini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, uzzukun

uyda o'tirgan ko'yi tunda ko'rgan tushlarini ta'birlash bilan mashg'ul ekanini eshitib qolsa, bu odam jinni bo'lib qolibdi, deb o'ylaydi. Bemor stol ustidagi albomni biroz nari surib, hech narsani o'ylamaslik maqsadida eshik tomon o'girilib qichqirdi:

– Menga bir piyola achchiq choy keltir, hoy xonim!

Oshxonadan ovoz keldi:

– Nima?

– Choy, choy, choy!..

* * *

Salima xonim kelib ketgandan so'ng xonada ham og'ir atir va upa-elik hidi qoldi, ham quloqlarimiz ostida uning xirqiroq, goh kulib, goh yig'lagan ovozi. Biz xotin bilan bir-birimizning yuzimizga boqib yengil nafas oldik, Zamina "Xudoga shukur" ham deb qo'ydi, so'ng stol ustidagi stakanlarni, murabboni va kechadan qolgan pirogni patnisga yig'ar ekan, ilova qildi:

– Sizni-ku bilmayman, ammo bu biznikiga kelib ketganidan so'ng men ikki kun o'zimga kelolmay yuraman.

– Qo'yaver, na iloj, – dedim va dimog'im qichishib, bir-ikki marta chuchkirdim. Salima xonim shunchalik ko'p chekkan ediki, uni kuzatib qo'ygandan keyin Zamina jun ro'molini mening yelkamga soldi va ayvonning eshigini lang ochib qo'ydi.

– Yashshamagur shunaqangi yutoqib tortadiki! – Zamina norozi ohangda g'ingshidi. – Ayol zoti ham shunaqa sigaret chekadimi? Uyda bemor bor ham demaydi... Na iloj, kelbatini ko'rdingizmi, siz bilan menga uchta keladi...

Men ochiq derazadan tashqariga tikildim, havo sokin, quyosh charaqlab turardi. Qo'qqisdan ko'nglimga kelgan fikrdan o'zim ham sevinib ketdim.

– Zamina, – dedim men, – shayton dilimga, yotavermay turib kiyin, kun ham ochilib ketdi, hovliga chiqib mundoq toza havo ol, deb qutqu solyapti. Nima deysan?

Zamina patnisini stol ustiga qo'yib, yuzimga tikildi:

– Qo'ysangiz-chi hazilingizni!

– O'lay agar, rost aytyapman. Uch kundan beri issig'im ham yo'qmi? Yo'q. Mark Georgiyevich senga nima degandi? Uyda o'tiravermay, toza havoga chiqsin, ko'proq harakat qilsin, demabmidi?

Zamina bir muddat jilmaygan ko'yi hech nima deya olmay turdi, tili tutilib qoldi, men buni uning ko'zlaridan sezib turdim, so'ng stolni aylanib o'tib qarshimdagi kursiga o'tirdi va mening haqiqatan ham sog'ayib ketganimga faqat endigina ishongan kabi qo'llarimni ushlab qattiq-qattiq siqdi.

– Ey Xudoyim, o'zingga shukur! – dedi. – Ammo yarim soatdan ortiq yurmaysiz. Bo'ptimi!.. Men ham ayvondan qarab turaman.

Men rozilik ila bosh silkidim. Zamina darhol narigi xonaga chiqib, ilgakka osilgan kastumimni, jun sviterimni olib keldi. Men ham o'rnimdan turib, xalatimni yechdim va shimimni, sviter hamda kamzulimni kiyib, Zamina bilan birga dahlizga chiqdim, kula-kula, sevina-sevina poyabzalimni kiydim, Zamina ilgakdan plashchimni olib yelkamga tutdi. Men hali umrimda Zaminani bu qadar masrur, bu qadar baxtiyor ko'rmagan edim. Menga shunday mulozamat qilardiki, go'yo men hovliga sayr qilgani emas, bir million pul topib kelgani ketayotgan edim.

Zamina ortimdan ko'cha eshigini yopgan zahoti bildimki, u darhol yugurib ayvonga chiqadi va mening zinapoyalardan tushib, yo'lak eshigidan hovliga chiqishimni kuta boshlaydi. Men sekinasta, ehtiyotkorlik bilan zinalardan pastga tusha boshladim, tizzalarim zaiflikdan dir-dir titrar edi. Ko'pdan beri unutib qo'yganim hovli hidi, xuddi mog'orlagan karam hidi kabi, ikki oylik tanaffusdan so'ng tag'in gup etib dimog'imga urildi va e'tirof etishim lozimki, ushbu ham yangi, ham tanish tuyg'udan biroz o'rtanib ketdim, chunki inson o'z uyiga, chirog'iga, karavotiga odatlangani kabi hidlarga, iforlarga ham odatlanib qoladi. Uchinchi qavatdagi zinapoya maydonchasida bir bo'zimtir mushukka duch keldim: u ham devorlarni hidlaganicha, quloqlarini osiltirib, sertuk dumini dikkaytirib pastga tushib borardi. Sa'di Afandining Kirlikiri yodimga tushib ketdi.

Binoning eshigidan hovliga chiqqanim zahoti bir-ikki odim ilgari yurib, yuqoriga qaradim va beshinchi qavatning ayvoniga suyangan ko'yi sevina-sevina menga qo'l silkib turgan Zaminani ko'rdim. Men ham qo'limni plashchimning kissasidan chiqarib, unga qo'l silkidim, Zamina pastga egilib:

– Urra! – deya qichqirdi.

Men ham quvonch bilan unga javob qildim:

– Urra! – Yaxshiki, hovlida bizning bu g‘alati “urra”larimizni eshitadigan hech jonzot yo‘q edi. – Uyga kirgin, yo‘qsa shamollab qolasan!

Zamina tag‘in qichqirdi:

– Ko‘p uzoq qolib ketmang! Uyga chiqayotganda zinalardan sekin-sekin ko‘tariling! – So‘ng u qo‘li bilan yuragiga ishora qildi.

Xavotir olma, degan ma’noda bosh silkidim. Zamina ayvondan g‘oyib bo‘lib, ichkari kirib ketganidan so‘ng xiyla vaqt tik turganimcha ko‘zlarimni yumib, yuzimga tushayotgan quyosh shu’lalaridan, yonoqlarimni siypalayotgan sarin havodan rohatlanar ekanman, hech narsa borasida o‘ylamaslikka harakat qildim, o‘zimni butunlay quyosh va sarin havo ixtiyoriga topshirdim. Quyosh sut kabi iliq, havodan esa asal hidi anqirdi. Birozdan so‘ng boshim aylanayotganini his qildim, yo tavba, Ollohning beminnat havosidan ham begonalashib ketgan edim. Ko‘zlarimni ochib, hovlini aylana boshladim, so‘ng keksa tut tagidagi yozda uy boshqaruvchisi tomonidan yashilga bo‘yalgan, endilikda esa rangi uniqib ketgan o‘rindiqqa cho‘kdim. Chap tomondagi tomi o‘pirilib tushgan axlatxona hidi dimog‘imga urildi, birpasdan so‘ng bu hidga ham ko‘nikdim: kasallikdan so‘ng vujudimda asta-sekin shartli reflekslar uyg‘onib kelmoqda edi...

Boya Salima xonim ham sigaretni sigaretga ulab chekar ekan, shartli reflekslar haqida ma’ruzaga o‘xshash allanarsalarni uzoq gapirdi, men hech biriga tushunmaganim uchun uning gapini bo‘lib, yolg‘ondakam bir familiyani aytdim va o‘shaning kitobidan bu gaplarning hammasini o‘qiganman, dedim.

Salima xonim bu mashhur olimning nomini ilk daf’a eshitib turganidan biroz taajjubga tushdi, sumkachasini ochib, yon daftarchasini chiqardi-da, haligi olimning nomini yozib qo‘ydi va menga minnatdorchilik bildirdi...

Zamina biz bilan birpas o‘tirgach, menga ko‘zini qisib, bolalarga ovqat tayyorlashim kerak, sizlar bemalol suhbatlashaveringlar, men oshxonaga chiqa qolay, deya Salima xonimdan uzr so‘radi. Zamina xonadan chiqib ketgach, men Salima xonimdan Sa’di Afandi haqida ba’zi narsalarni so‘rashga tushdim. Dastlab A. G.ning kimligi bilan

qiziqdim. Bu borada men ham aniq bir gap aytolmayman, dedi Salima xonim, chunki u paytlarda men kichkintoy qizaloq edim, o'sha baxtiyor kunlarda Yuqori Tog'liq ko'chasidagi uyimizga juda ko'p kishi kelib-ketardi, keyinchalik barchasining qadami kesildi, ehtimol, A.G. ham o'shalarning biridir. So'ng menga tag'in shu narsa ma'lum bo'ldiki, Sa'di Afandi yozgan kundaliklardan atigi mana shu uchta daftar qolgan ekan, Salima xonim Qozog'istondan qaytib kelgach, uzoq-yaqin barcha qarindosh-urug'larinikiga birma-bir kirib surishtiribdi, biroq hech kimdan hech narsa topa olmabdi. Xo'sh, roman-chi?.. Salima xonim yana sigaret tutatdi, eshikka o'g'rincha nigoh tashlab oldi-da, upa-elikli yuzida ikki qora teshikka o'xshab turgan ko'zlarini menga tikkan holda ovozini pasaytirib, "eto sekret!", dedi. So'ng lablarini qimtib kuldi, go'shtdor, salqi yonoqlari titrab ketdi, yuzidagi upasining mayin kukuni qora nimchasining oldiga, ko'kragiga to'kildi, u yon-veriga olazarak qarab olgach, shahodat barmog'ini lablariga bosdi: "Ts-s-s...". Uning ko'zlari to'lib keldi, shosha-pisha sumkachasini ochib, dastro'molini chiqardi-da, ko'z yoshlari kipriklaridagi surmani chaplab yubormasin uchun navbat ila ko'zlarini artdi. "Erta emas, indin yo'lga chiqaman, ketganda ham ancha olisga ketyapman, agar bu safar ham otam yozgan romanning qo'lyozmasini topa olmasam, undan bir umr umidni uzishga to'g'ri keladi, chunki boshqa gumon qiladigan joyning o'zi qolmadi", dedi u.

Salima xonimning aytganlaridan bir ish chiqishiga ko'zim yetmay qoldi, axir, mana, necha yillardirki, men bu roman haqida har xil gaplar eshitardim, Salima xonimnikiga borganimda, u bilan telefonda gaplashganlarimda u hamisha xirqirab, asabiylasha-asabiylasha romanni izlab yurganini aytar edi, biroq oylar, yillar o'tib borar, romandan esa hamon darak yo'q edi...

Sa'di Afandining kundaligini o'qib chiqqunga qadar, ochig'i, roman haqidagi bu gap-so'zlar esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgan, butun dunyodan bezgan kinli-g'azabli bir ayolning navbatdagi xulyolaridan bo'lak narsa emas, degan fikrda edim. Bu yillar mobaynida Salima xonim, Maskovdan Falonchiyev zang urib, falonchilarga alohida topshiriq berdi, bu topshiriqdan so'ng Muxtor Karimlining ham, Salohovning ham holiga maymunlar yig'laydi va hokazo-ho-

kazo deya kamida yuz marta takrorlagan edi... Ammo kecha Sa'di Afandining "maktab" daftarini o'qib, o'rtanib ketgan bo'lsam-da, bu o'rtanish hissi hamon yuragimda bir parcha cho'g'dek jizillab turardi, ayni paytda quvongan ham edim: Sa'di Afandining so'nggi romani bor ekanligiga amin bo'ldim, agar uning qo'lyozmasi alg'ov-dalg'ovlarda, o'sha musibatli yillarda yo'qolib ketmagan bo'lsa, bu balki ham Salima xonimning, ham mening so'nggi sevinchimiz bo'lgan bo'lur edi. Shaxsan men uchun bu so'nggi roman – qanoti qirqilgan umidning so'nggi parvozi demak edi. Va ehtimol, xuddi ana shu so'nggi parvoz arafasida mening albatta sog'ayishim lozim edi: shubham yo'q ediki, agar bu roman topilgudek bo'lsa, uzoq yillardan so'ng uning ilk o'quvchisi o'zim bo'laman va bu "yozilg'on yoziq" yuzaga chiqqandan so'ng balki necha-necha kishining tili tanglayiga yopishib qoladi, ne-ne kishilar o'zini ko'rshapalak kabi g'orlarga uradi. Koshki Salima xonim bu romanni topa olsaydi; axir inson umr bo'yi yutqazib o'tishi mumkin emas-ku, hech bo'lmasa bir marta uning oshig'i olchi turishi kerak-ku!..

Men, Salima xonim ranjib qolmasin, deya ustomonlik bilan kundalikdan o'qiganim Kirlikir voqeasidan ham so'z ochdim va shu o'rinda xayolimga kelgan tasodifiy fikrni aytdim: aftidan, bu kalamush voqeasi o'sha romanning bir parchasi bo'lsa kerak, yo'qsa, bu parchani sira izohlab bo'lmaydi, dedim. Salima xonim boshini sarak-sarak qilib, yo'q, men bu fikrga qo'shilmayman, dedi... So'ngra shunday bir o'tli oh chekdiki, mening etim jimirlab ketdi; e-voh, sho'rlik, dedi u, boshiga tushgan bu savdolardan keyin vosvos bo'lib qolganga o'xshaydi.

"Bechora, bechora otam!"

Men o'rindiqdan turdim, endi boshim aylanmasdi, yoz tugagandan so'ng asta- sekin xarobotga aylana boshlagan hovlimizga razm solib, taxta bo'laklarini, zang bosgan temir qutilarni, axlatxona eshigi oldida uyum-uyum yig'ilib qolgan karton qutilarni ko'rib, negadir hovlimizning farroshi Qizxonim yodimga tushdi. Ajabo, anchadan beri na uning o'zi ko'rinadi, na ovozi eshtiladi. Balki qazo qilgandir?.. Qazo qilgan bo'lsa, go'ri nurga to'lsin, tirik yurgan bo'lsa, mingga kirsin.

Birozdan so‘ng havo aynab, quyoshning ravshan nurlari xira tortdi, ko‘k yuzida g‘alati-g‘alati bulutlar paydo bo‘lib, shimoldan sovuq shamol esa boshladi; men darhol plashchimning yoqasini ko‘tarib, qo‘limni cho‘ntagimga tiqqan ham edimki, shu payt yuqoridan Zaminaning ovozi yangrab qoldi:

– Endi uyga chiqing, shuncha yurganingiz bas! – Zamina ayvonda yolg‘iz emas edi. Maktabdan qaytgan bolalarim uning yonida turib olib qichqirganlaricha menga qo‘l silkirdilar. Yetkazgan kuningga shukur, Xudoyim!..

...Kunduz kuni uxlashning, xususan, sarimsoqli qatiq bilan cho‘pon qaynatmasini ichgandan so‘ng – otasiga rahmat Mahmudning, bundan ikki kun avval u yana bir qo‘y so‘yib jo‘natgan edi – top-toza ko‘rpa-to‘shakka kirib kunduzi uxlashning rohatiga ne yetsin! Garchi xotinim, kunduzlari uxlamaslikka harakat qiling, yo‘qsa kechasi ikkigacha o‘tirib chiqasiz, uyqungiz kelmaydi, shuning uchun nuqul uyqudori ichasiz, ertalab boshingiz og‘rib turasiz, nima deganingizni ham mundoq tushunib bo‘lmaydi, uyqudorining kasofatidan kun bo‘yi bangiga o‘xshab yurasiz, desa-da, baribir har kuni soat uch-uch yarimlarda ko‘rpa ostiga kirib bir-bir yarim soat mizg‘ib olishning savobiga yetadigan narsa yo‘q. Uyqung kelavermasa, Grigor armanining arog‘idan yarim stakan otib olsang, to‘shakka uzala tushib ertalabgacha bahuzur yotasan, deguvchi edi Mahmud, afsuski, bunga hakimlar ijozat bermaydilar. Xotin ham tut aroqlarini shunaqangi joylarga bekitib tashlaganki, minatopqich bilan axtarsang ham topa olmaysan. Yaxshiyamki, har ikki-uch kunda kichik bir qadah konyak ichishga ruxsat beradi.

Eshik ochilib, Zaminaning boshi ko‘rindi:

– Uxlab qolmaslikka harakat qiling. Istasangiz, achchiq choy keltirib beray. – U, aftidan, mening uyquli ko‘zlarimni, hadeb esnayverganimni ko‘rib kulib yubordi. – Mayli, yota qoling! Tuzalib qolganga o‘xshaysiz.

Men unga ko‘z qisdim.

– Ammo uzoq yotishingizga qo‘ymayman. Bir soatdan so‘ng uyg‘otaman, eshityapsizmi? – dedi va eshikni yopdi.

Men bulutlar orasidan tirqish topib, derazadan ichkariga qiyalab tushayotgan quyosh shu’lalarida mayda hasharotlar kabi uchib

yurgan chang zarrachalariga tikildim, shu payt quloqlarim ostida uchib ketayotgan qushning shuvillashga o'xshash bir sas paydo bo'ldi: go'yo endigina tayyoradan tushgandim-u, oyoqlarimni yerga bosishim bilan tom bitgan quloqlarim ochilib ketgandek edi – boyadan beri miyamda g'uvillayotgan tovush tinib qoldi. Uzoq davom etgan kasallikdan so'ng – bu jumlani ijod etgan kimsaga ofarin – ilk daf'a hovliga tushib toza havo olganim, keyin esa uyga chiqib, bir kosa cho'pon qaynatmasini zo'r ishtaha bilan ichganim sababli qo'rg'oshinday og'irlashib qolgan edim va bu lanjlik meni uyqu deb ataladigan quduqning eng tubiga olib ketayotganini angladim. Ko'zlarimni yumdimmi yoki ochiq qoldimi – bunisi esimda yo'q.

* * *

Dard ham og'riq kabi bir kelsa botmonlab keladi, singlim!..

Ishg'ol etilgan qal'ada qon daryodek oqardi.

Tun og'ib, yulduzlar shu'lasi ufqning alvon rangi ila qorishib ketgan bir mahalda qo'nalg'a sassiz-sadosiz taraddudga tushgan edi: o'rmonda boshini panjalariga qo'yib mizg'iyotgan bo'ri ham o'rdu o'rnidan qo'zg'alib, yurish boshlaganidan bexabar qoldi. Qari bo'ri yirik-yirik sariq yaproqlarni tush ko'rardi, bu yirik sariq yaproqlar orasidan uning ko'zlariga oppoq sochlarga o'xshash musaffo, iliq quyosh nurlari tushardi: quyosh nurlarining ham oppoq sochlar atriga o'xshash ifori bor edi, uxlab yotgan bo'rining yuragi hasrat bilan ura boshladi.

Bunday bir mamlakatning qal'asini egallash nima bo'pti?..

Xoja Anvar ishg'ol etilgan qal'aning oppoq soqolli, pahlavonkelbat xoniga mansub bo'lgan hashamdor yuz xonali saroyidagi devorlari miyno va tilla suvi bilan bezatilgan, kattakon derazalariga naqshlar solingan dabdabali xonalaridan biriga kirib, oyoqlarini ming mashaqqat bilan sudray-sudray, o'zini zarbof baxmal bolishlarga tashladi; tunda boshlanib, tong otganda nihoyasiga yetgan jang, garchi hukmdorning qo'shini uchun juda oson g'alaba ila yakunlangan bo'lsa-da, bedorlik va tumanli rutubat uning og'riqlarini qo'zib yuborgan edi. Xonni qatl qilishgandan keyin, oppoq soqolli boshini nayzaga sanchib sarbozlarning ot kishnashiga o'xshash hayqiriqlari ostida baland bir tepalikka qadab qo'yishgan-

dan so‘ng hukmdor atrofdagi qishloqlarga o‘t qo‘yishni amr etgan, qasabalarga o‘t qo‘yilgach, ko‘chaga otilib chiqqanlar – keksalar, go‘daklar birma-bir qilichdan o‘tkazilib, qirg‘in qilingandan so‘ng hukmdor Xoja Anvarga, bor endi, bemalol orom olib, taryokingni chekaver, degan edi. Xoja Anvar dimog‘i va ko‘zlarini achishtirayotgan quyuq tutundan bo‘g‘ilib yo‘talgan ko‘yi egilib, hukmdorning ko‘m-ko‘k tomirlari qavarib chiqqan qo‘lini o‘pgan edi. U orqasida yangrayotgan urho-ur shovqinlarni tinglagancha, mag‘ribdan mashriqqa qadar ulkan ustunlar yanglig‘ arz-u samoga o‘rlab chiqayotgan qop-qora tutunlarga qaray-qaray saroy tomon yurar ekan, ko‘nglida bu adolatli g‘alaba uchun ham o‘z nomidan, ham hukmdor nomidan Tangriga shukronalar bildirgan edi.

Xonning boshini tanidan judo qilishgach, birinchi bo‘lib Xoja Anvar oldinga chiqib, qizil libosli novcha mushakdor jallod oyoqlari ostida, kuzning sarg‘imtir maysalari orasida yotgan soqoli oppoq, yuzlariga qon sachragan boshni murdor qildi. So‘ng sarkarda va sarbozlar kula-kula, qiyqira-qiyqira o‘rtaga chiqib, navbat bilan Xoja Anvarning qilmishini takrorladilar. Undan so‘ng qaysidir bir sarkarda saroyning xilvat xonalaridan topib chiqqan xonning katta xotinini, hukmdorning amri ila, Sodiq Birko‘z otlig‘ qilichning bir hamlasi bilan odamni ikkiga bo‘lib yuboridigan baquvvat sarbozga berdilar. Sodiq Birko‘z ayg‘ir kabi qiyqirib, ayolning uzun sochlarini o‘ng bilagiga o‘raganicha tepaliklardan birining yonbag‘ridagi butazorga sudrab ketdi...

Xudoyim, sen mening umrimdan kesib, hukmdorimning umriga qo‘shgaysan!..

Xoja Anvar yonboshladi, yumshoq va sarin duxoba yostiqqa yuz bosdi, ikki marta yutoqib-yutoqib so‘rgan chilimini yoniga, gilam ustiga qo‘ydi. Taryokning kayfi miyasidan oyoqlari tomon oqdi, avvaliga og‘riq rosa ruju qildi, so‘ng asta-sekin bosila boshladi, Xoja Anvar go‘yo yuksak tog‘ tepasiga chiqib qolgandek, o‘t-alangadan, hatto ko‘nikib qolgani qon hididan xalos bo‘lib, qandaydir ins-jinslar qadami yetmaydigan bir ajoyib go‘shaga tushib qolgandek his qildi o‘zini, shunday yutoqib nafas oldiki, ko‘zlari chaqnab ketdi.

Zero, Xudovandi karim uning hukmdorini qora bezgakning changalidan eson-omon olib chiqqan ekan, hukmdoriga ushbu qal’ani

shu qadar osonlik bilan ishg'ol etishni ravo ko'rib, uning hirs-u g'azabini qondirgan ekan va nihoyat, bu buyuk shodiyona kunlarda Xoja Anvarning ham azob-og'riqlarini bir qadar bosgan ekan, demak, kecha kechqurun anavi qari qarg'aning – miyasi aynib, burnidan narini ko'rmay qolgan saroy munajjimining uydirmalari behuda ekan-da!

Kecha, yurish boshlanishidan oldin, hukmdor sarkardalari bilan oxirgi mashvaratni o'tkazib bo'lgandan keyin, o'sha qari qarg'a izn so'rab, hukmdorning chodiriga kirib kelgan va, orqaga qaytishimiz lozim, yulduzlarning vaziyati falokatdan xabar bermoqda, degan edi. Agar munajjimning yoshi bir joyga borib qolmaganida, agar boshi qaltirab, kipriklari pirpirab turmaganida edi, ehtimol, hukmdorning o'zi qilichini sug'urib uning boshini tanidan judo qilgan bo'lur edi. Ammo hukmdorning munajjimga rahmi keldi, unga yaqin bordi-da, qo'l cho'zib siyrak soqolidan bir tutamini shart yulib oldi, munajjimning iyagidan tomchi-tomchi qon dumaladi...

Xoja Anvar jilmaydi, chunki shu voqeadan so'ng munajjim yum-yum yig'lagan, uning bu holati hukmdorga shu qadar lazzat bergan ediki, u qo'llarini beliga tiragan ko'yi rosa miriqib kulgan edi...

Xoja Anvar tashqarida davom etayotgan talon-toroj dastidan ko'kka o'rlayotgan oh-faryodlarni bu xilvat go'shada ham eshitib o'ltirar edi, ammo saroyning qalin tosh devorlari qorishib ketgan hayqiriq, oh-voh, yig'i-sig'i sadolarini bir qadar to'sar, bu sadolar Xoja Anvar cho'zilgan ko'yi xumorini bosayotgan saroy go'shasiga quduqdan chiqayotgan aks sado yanglig' bo'g'iq eshitilar edi.

Xoja Anvar ko'z ochib hukmdorini tanigan kundan beri quyosh shu'lalariga, izg'irin sovuqqa, jazirama issiqqa ko'nikib qolgani kabi, har safargi yurishdan, har galga g'alabadan so'ng ko'kka o'rlaydigan bu nola-faryodlarga ham ko'nikib qolgan edi. Faqat Xoja Anvar ko'nika olmagan bir narsa – bu keyingi ikki yilda orttirgan, Xudo yuborgan jazo yanglig' chidab bo'lmaydigan og'riqlar edi: keyingi vaqtlarda u kechalari o'likdek qotib uxlashdan oldin kichkina kumush qutichani yostig'ining yoniga, qo'lining ostiga qo'yib qo'yar, uzun, sarxonasi katta chilimini esa, ona o'z bolasini quchib yotgani kabi, bag'riga bosib yotar edi...

Xoja Anvar tag'in qo'l cho'zib chilimini oldi-da, do'rdoq lablari orasiga qo'yib, uzundan-uzoq yutoqib tortdi va hozircha, balki kech-

qurungacha shu chekishning o'zi yetar, deb o'yladi, chunki og'riqlari bosilgan, xira ko'zlariga tag'in nur qaytib, qorachiqlari chaqnay boshlagan, ana-mana to'xtab qolayotgandek tuyulgan yurak urishi tag'in me'yoriga tushgan edi. Yetkazgan kuningga shukur, ulug' Tangrim! Xoja Anvar bu dardiga bir chora topmasa, kechqurun bo'ladigan ikkinchi qatl marosimiga ishtirok eta olmasdi: bundan bir necha kun avval qal'adan chiqib hukmdorning huzuriga kelgan va o'zlari bilan juda muhim ma'lumotlar keltirgan ikki saroy shoirining talay in'om-ehsonlardan, oltin-kumushlardan voz kechib, evaziga hukmdordan talab qilganlari qatl marosimining muddati yetib kelgan edi. Bugun oqshom, kunbotar paytda hukmdor ishtirokida va butun xalqning ko'z oldida ushbu mamlakatning buyuk shoiri qatl etilib, uning boshi ana shu ikki shoirga berilishi kerak edi. Bunga hukmdor allaqachon rozi bo'lgan; darvoqe, u hech qachon bergan va'dasidan qaytgan emasdi. Endilikda o'sha ikki saroy shoiri – boya Xoja Anvar ularni ko'rgan edi – sevinchlaridan yuzma-yuz o'tirib olib nard o'ynash bilan mashg'ul edilar... Hukmdorning marhamati soyasidan har bir kimsa – ikki oydan ortiq cho'l-biyobonning o'rtasida, qalin o'rmon yoqasida ochlik, bezgak, so'naday-so'naday keladigan chivinlarning azob-uqubatiga ming mashaqqat ila chidagan mard sarbozlar, vazir-u vuzarolar qatori bu ikki saroy shoiri ham endi o'z niyatiga yetsin – Xudovandi karimning amri shu edi, bu kun hech bir kimsaning yuragida armon qolmasligi kerak edi, shu boisdan ham hukmdor barcha taqiq-qatag'onlarni hozircha, yangi yurish boshlagunga qadar bekor qilgan edi...

Hind taryoki ta'sirida Xoja Anvarning a'zoyi badanidagi og'riqlar butunlay tarqab, qo'rg'oshinday og'ir jasadini qushday yengil his qilib turgan bir paytda uni hukmdorning huzuriga chaqirib qoldilar. Xoja Anvar yarim yumuq ko'zlarini ochib, nayza-qalqoni bilan ichkariga kirib kelgan barzangi keshikchidan so'radi:

– Nima gap, o'g'lon?

– Hukmdor mashvarat qilmoqchi, – dedi u.

Anvar o'rnidan turib, qiblaga yuz burib salavot chevirdi va ahvoli ancha yengillashgani uchun tag'in Tangriga tashakkur bildirdi, so'ng hamon turgan yeridan jilmay, uning iznini kutib turgan qorasoqol, qoramo'ylov keshikchidan butunlay boshqa narsani so'radi:

– Xo‘sh, senga talondan ne tushdi, o‘g‘lon?

– Yuz tilla, tag‘in bir tul xotin.

– Xo‘sh, yigit, rozimisan? – Xoja Anvar kulgan edi, yog‘ bosgan kattakon qorni selkillab ketdi.

– Menga shu kifoya, og‘a! Hukmdorning marhamatidan ulug‘roq inoyat yo‘q!

– Barakalla, o‘g‘lon, barakalla. Tasanno senga!

...Hukmdor o‘zining zarbof bayram libosida, qimmatli la’l-marvaridlar bilan bezatilgan enli tilla kamarini beliga bog‘lab, boshiga tilla tojini kiygan ko‘yi, hozircha hech kimni huzuriga yo‘latmay, saroyning elchilari xonasida tanho Xoja Anvarni kutib o‘tirar edi. Devorlar bo‘ylab aylanasiga qator qo‘yilgan mis chiroqdonlarda yonayotgan chiroqlar shu’lasidan saroydagi elchilar xonasining miyno, oltin, kumush suvi bilan bezatilgan naqshin shifti, katta-kichik derazalarning yashil, sariq, qizil oynalar solingan go‘zal ko‘zlari charag‘on ziyo sochar va bu ziyo horg‘in hukmdorni negadir asabiylashtirardi: garchi bunday hashamlarga, dabdabaga, bunaqangi shu’lalarga o‘rganib qolgan bo‘lsa-da, biroq bundoq sharoitga tushib qolganda, nechundir, lo‘li o‘z chodirini sog‘ingani kabi, u ham qaydadir cho‘lning o‘rtasida yoki qop-qora o‘rmonda tikiladigan jang chodirining sirli sarinligini qo‘msab qolar edi.

Albatta, agar hukmdor istasa, bir amr bilan mis chiroqdonlarda charaqlab turgan chiroqlarning hammasini o‘chirishi mumkin edi, chunki hali tashqari yorug‘, kanordan rang-barang oynalar orqali tushayotgan yorug‘lik saroyni kifoyat qadar yoritib turardi. Lekin bugun bayram bo‘lgani uchun va bunday bayram kunlarida, ko‘pdan beri davom etib kelayotgan an’anaga ko‘ra, saroyning barcha chiroqlari yonib turishi, hukmdorning o‘zi, vazir-u vuzarolar, qozikalon va sarkardalar – hamma-hamma bayram libosini kiyishi lozim edi. Hatto jallod ham bunday qatl kunlarida qizil libosi ustidan kumush kamar bog‘lab, boshiga nayzador misriy dubulg‘a kiyib olardi. Bunday kunlarda, lekin faqat kamdan kam hollarda, hukmdorning kayfiyati nihoyatda zo‘r bo‘lgan paytlarda saroy musiqachilari ham chaqirilar, boshqa hollarda ud va kamoncha sadosidan ko‘ngli ayniydigan hukmdor besh-o‘n daqiqa musiqa ham tinglar edi...

Xudovandi karim hukmdorning axta bo‘lishini ravo ko‘rgan va taqdir bu amrni bajo keltirgan edi: bundan necha-necha yillar ol-

din, bundan juda olislardagi bir mamlakat saroyning yerto'lasida boshi tap-taqir kal, shalpangquloq, ko'zlari quzg'un ko'zlari kabi kipriksiz bir kimsa, kimningdir amrini bajo keltirib, besh yoshli go'dakni chirqirata-chirqirata axta qilgan, qonni esa go'dakning yuziga surtgan edi. Xudoning amri ila kimdir kimdandir o'z qasdini ana shu usulda olgan edi: bu qonning hidi to hamon hukmdorning dimog'idan ketmas edi. Ammo bir zamonlar kimningdir kimdandir olgan bu qasdi evaziga ne-ne qonlar to'ksa-da, hamon hukmdorning ko'ngli taskin topgani yo'q edi. Necha yillardan beri u mamlakatma-mamlakat kezar, qo'nalg'alar tikar, kesilgan boshlardan minoralar qurib, ne-ne shahar-qishloqlarning kulini ko'kka sovurar, shu zaylda bir paytlar saroy yerto'lasida chinqirgan go'dak yuragidagi o't-olovni so'ndirmoq istar, biroq hamon bu istagiga noil bo'lgani yo'q edi; yillar o'tib borar, ammo bu kin-g'azab alangasi haliveri so'nishini istamas, telbavor og'riq azobi zim-ziyo kechaning zulmati kabi ko'zlari oldidan ketmas edi. Bu alangani so'ndirmoq uchun, qachonlardir kimningdir kimdandir olgan qasdi evaziga qasd olish vazifasini payg'ambar oldidagi muqaddas burch kabi o'tamoq uchun hukmdor, agar o'z boshi uzra porlab turgan quyoshga qilich solish lozim bo'lsa, buni ham qilishga tayyor edi; faqat koshki ajal bunga muhlat bersa edi, koshki karami keng Tangri o'z marhamatini undan darig' tutmasa edi...

Xoja Anvar hukmdorning huzuriga kelganida uning yonida hech kim yo'q, hukmdor elchilar xonasida, saroy xonining taxtida qo'llarini tizzalari ustiga qo'yib yolg'iz o'tirar edi. Xoja Anvar hukmdorning yoniga borib egildi va uning qo'lini o'pdi. Hukmdor boshi bilan bilinar-bilinmas ishora qilib, uning o'tirishiga izn berdi: Xoja Anvar hukmdorning oyoqlari ostiga, gilam ustiga chordona qurib o'tirdi. Hukmdor hech vaqt navkaridan hol-ahvol so'rab o'tirmas, uning yuziga boqib, yoshli ko'zlaridan Xoja Anvar taryok chekkan-chekmaganini, og'riqlari bosilgan-bosilmaganini bilib olardi. Bu yoshlanib turadigan sadoqatli ko'zlarning faqat hukmdorgina payqay oladigan nurlari xira torta boshlaganda, u navkarini rohat-farog'at og'ushiga yo'llar, bor, yotib olib taryokingni chek, derdi.

– Anvar, – dedi hukmdor, Xoja Anvar boshini ko'tarib, hukmdorning yuziga tikildi, olxo'riqoqiga o'xshab burishib ketgan bu

yuzlarda ushbu xonaning marmar ustunlariga xos bir sovuqlik bor edi. – Anvar, negadir yuragim bezovta!

Xoja Anvarning jonfig'on ovozi yangradi:

– Isitmaning ta'siri bu, qurboning bo'lay. Madorsizlikdan. O'tib ketadi. – Hukmdor hamon Xoja Anvarning yuziga boqmas, nigohi elchilar xonasining noma'lum bir nuqtasiga, qandaydir bir bo'shliqqa qadalgan edi. – O'tib ketmasligi mumkin emas. Kecha saroy tabibi ham shunday dedi.

Hukmdor qo'lini yuziga olib borib, ko'zlarini asta uqaladi, go'-yo u birdaniga juda qattiq toliqib qolgandek edi.

– Iloyo, aytganing kelsin, – dedi. – Ollohning o'zi rahmimizni yesin. – U qo'lini Xoja Anvarning araqchinli boshiga qo'ydi. – Bu joylarda uzoq tutilib qolmasak degandim. Xo'sh?

– Maslahat – Ollohdan, amr – sendan.

– Voliyni tayin etsak-da, mamlakatga qaytsak, deyman. Qarshimizdan qish kelayotir.

– Bu mamlakatga kimni voliy qilib tayinlaysan?

Hukmdor qoshlarini uyib, nimanidir eslamoqchi bo'ldi, so'ng so'rab qoldi:

– Qarindosh-urug'dan martabasiz qolgani bormi?

– Yo'q, ko'zimning nuri. – Hukmdorning qo'li hamon Xoja Anvarning boshida edi. Xoja Anvar boshini nayzadek tik tutganicha qotib turar, qimir etgani qo'rqar edi. – Har biri bittadan mamlakatning voliysidir, hukmdorim.

– Undoq bo'lsa, bu vazifani vazirning zimmasiga yuklaymiz, voliyni vazir tayin eta qolsin.

– Maslahat – Ollohdan, amr – sendan, hukmdorim.

Hukmdor Xoja Anvarning boshidan qo'lini olib, tag'in tizzalari ustiga qo'ydi, Xoja Anvar yengil nafas olib, yog'ochday qotib qolgan bo'ynini sekin burib ko'rdi.

Hukmdor gapida davom etdi:

– Ha, Anvar, bu yerda tutilib qolmasligimiz lozim. Zinhor! – U qisqagina sukut qilgach, boshqa mavzuga ko'chdi: – Shoir nima bo'ldi? – Uning ovozidagi tanish g'azabdan hamishaki kabi bu gal ham Xoja Anvarning a'zoyi badaniga titroq kirdi.

– Topishdi, – dedi Xoja Anvar. – Xonning jallodi bilan birga g'orga bekinib olgan ekan... – Hukmdorning hech nima dema-

ganini ko'rib davom etdi: – Jallod taslim bo'lmagan ekan, it kabi azoblab o'ldirishibdi. Shoirni esa kunbotarda qatl etamiz. Unutibsan, shekilli?

– Ha, ajib bir qatl bo'ladi... – Hukmdor o'rnidan turgan edi, Xoja Anvar ham sapchib turdi.

– Mashvaratni boshlaymiz! – dedi hukmdor.

Xoja Anvar bir-ikki qars urgan edi, jang libosida – boshida dubulg'a, chap qo'lida qalqon, temirlarini jaranglatib yasovulboshi kirib keldi. Xoja Anvar hukmdorga boqdi, chunki uning yasovulboshiga amr etish ixtiyori yo'q edi. Hukmdor:

– Ayt, kirishsin! – dedi.

Yasovulboshi ikki bukilib ta'zim qilganicha chiqib ketdi, bir daqiqa o'tar-o'tmas bayram libosini kiyib olgan vazir-u vuzarolar, a'yonlar, sarkardalar saroyning elchilar xonasiga kirib keldilar, ular egnidagi liboslarning rang-barang tovlanishi, zarbof to'nlarning, chakmonlarning yalt-yult yonishi elchilar xonasidagi shu'lani yanada orttirib yuborgandek bo'ldi, ahli saroy devorlar ostiga tizilib, o'z o'rinlarini egallaganlarida Xoja Anvarga xonaning havosi kamayib qolgandek tuyuldi. "Bu itdan tarqaganlar ne uchun ham nafas oladilar-a?" – degan norozi bir o'yda ehtiyotkorlik bilan hukmdorning yuziga tikildi: bujmaygan basharadan, qiyiq ko'zlardan tag'in zahar yog'ilardi. Xoja Anvarga g'alati bir mo'jiza ro'y bergandek – hukmdor bu yerdan, ushbu shu'lavor xonadan chiqib, tag'in boshiga dubulg'a qo'ndirganicha ot ustiga minib olgandek tuyuldi.

– Vazir! – Bu dahshatli, qo'rg'oshinday og'ir ovoz barchaning vujudiga titroq soldi.

Vazir bosh egib, qo'llarini ko'ksiga qovushtirgan ko'yi ikki-uch odim ilgari chiqib, Xoja Anvarning yoniga kelib turdi.

– Mamlakatning voliysini tayin et! Ixtiyor senda!

Vazir tag'in ikki bukilib:

– Amring vojib, ulug' hukmdor! – dedi.

– Ertaga mamlakatga qaytamiz! – Hukmdor o'ng qo'lini yuqori ko'tardi. Qaror qat'iy, ushbu qarorni Ollohning o'zi ham buzolmaydi, degan ishora edi bu. Yig'ilganlar sevinchdan ko'kning yettinchi qatida his qilishdi o'zlarini, hamma baravariga qichqirdi:

– Qiblayi olamga ofarin!

Chunki hamma toliqqan, keksa-yu yosh barcha mamlakatga qaytib, qishning qahraton sovuq-izg'irinlarini o'z xonadonida o't-kazish orzusida edi, vazir ta'zim qilib, so'z aytmoqqa izn so'radi.

– Gapir!

– Olloh bizning umrimizdan kesib, sening umringga qo'shgay, ulug' hukmdor! – dedi vazir.

– Omin yo Rabbilolamin! – deb qo'shildi hamma.

Vazir gapida davom etar ekan, hayajondan oppoq cho'qqi soqoli dir-dir titrar edi.

– Kechga yaqin, qorong'i tushmay turib, ulug' hukmdor, sening muqaddas amringni bajo keltiramiz, bugun tush mahali qo'lga olganimiz shoirning boshini tanidan judo qilamiz.

– Inshoollloh, – dedi hukmdor. – Bundan xabarim bor, qariya! – hukmdor bezovta bo'lganida, asabiylashganida vazirni "qariya" deb atar edi. – Bularning barchasini menga qayta gapirib, boshimni og'ritmakdan maqsading ne? – Xoja Anvar hukmdorning dahshatli boqishlarini ko'rib, o'z yelkasiga nihoyatda og'ir bir yuk tushgandek, go'yo hozir umurtqasi mo'rt yog'och kabi o'rtasidan sinib ketadigandek his qildi o'zini. Vazir tag'in ikki bukildi.

– Shoirni jamoatning ko'z oldida qatl etmaganimiz ma'qul, deb o'ylayman.

– Nega? Sabab? Bu yana qanday qiliq?!

– Mamlakat ahli shoirni juda yaxshi ko'radi, ulug' hukmdor, arz-u zaminni yaratgan haqqi, yaxshi-yomon gap aytadiganlar chiqib qolmasa, deb qo'rqayotirmiz.

– Kim qo'rqayotir, qariya?! – Hukmdor taxtidan turdi-da, qo'llarini orqasiga qilgan ko'yi, qo'rquvdan nafas olishga ham yuragi betlamay serrayib qolgan a'yonlar, sarkardalarning basharasiga ijirg'anib, jirkanch bir nazar tashlaganicha eshik tomon borib, tag'in ortiga qaytdi. – Kim qo'rqsa, hozir aytsin! – U vazirni gapirgani qo'ymay, o'ng qo'lini yuqori ko'tardi.

– Quloq soling menga! – dedi u. – Bu mamlakatni olgan men bo'laman, bu mamlakatning qal'asini yer bilan yakson qilgan men bo'laman va mening mard sarbozlarim bo'ladi! Bu mamlakatning xonini qatl etdik, shahar-qishloqlariga o't qo'ydik, yarog' ushlashga qodir erkaklarining barini qilich damidan o'tkazib, qoniga g'arq

qildik, biroq hech kim qo‘rqmadi yoki yerli aholidan hech bir kimsa og‘iz ochib bir gap aytishga botinolmadi. Endi arzimas bir shoir uchun men zabt etgan mamlakat aholisi o‘zining ulug‘ hukmdoriga bir so‘z aytmakka botina olar ekanmi?! – Olqish sadolari elchilar xonasining marmar ustunlarida, naqshin devorlarida aks sado berib ko‘kka o‘rladi: jimjimador derazalardagi oynalar zirillab ketdi. Hukmdor tag‘in qo‘lini yuqori ko‘tardi va qunishib mushtday bo‘lib qolgan, Xoja Anvarning yonida boshi, soqoli dir-dir titrayotgan vazirga shunday tikildiki, vazir kuchuk kabi chingillab yubordi. – Yo‘qoling, daf bo‘ling! – qichqirdi hukmdor. – Shoir kunbotar payti, men aytgan joyda, xaloyiqning ko‘z oldida qatl etiladi. Uning boshini tilla tovoqqa solib, mamlakatning anavi arzimas ikki shoiriga beramiz. Daf bo‘linglar!.. .

...Xoja Anvar elchilar xonasidan chiqqach, o‘z go‘shasiga ketmay, saroyning marmar zinalaridan enib, kuz faslining za’faron og‘ushiga g‘arq bo‘lgan ajoyib bir boqqa chiqdi, yurakni siqib yuboruvchi xazonlardan ko‘z uzib, osmonga tikildi: samo ko‘m-ko‘k va juda tiniq edi. Qandaydir bir ezgu narsa yodiga tushgandek, Xoja Anvar chuqur oh tortdi, ammo bu qanday xotira ekanini uning o‘zi ham anglay olmadi, chunki taryokning ta’siridan uning miyasida quyuq bir tuman paydo bo‘lgan, bu tumandan kechib o‘tmishga o‘tish mumkin emas edi. U birpas bog‘ni aylandi, irodasiga zo‘r berib, uzoqlardan kelayotgan oh-faryodlarni eshitmaslikka harakat qildi, bog‘ning adog‘iga yetganda to‘xtab, quyiga, dara tubanidagi yo‘lga tikildi: uzun arqon kabi burala-burala o‘rmon ichiga kirib ketadigan bu tuproq yo‘l ustida bir arava turardi. Kimning, qaysi benavoning aravasi ekan bu?.. Ushbu savol qaydan ham xayoliga kelganini tushunmay, o‘z-o‘zidan taajjublanganicha yelkasini qisib qo‘ydi.

* * *

Jar ustida turgan, Xoja Anvarga qora nuqta kabi ko‘ringan bu arava saroy xonining masxarasi Uflama Qosimning aravasi edi. Sahari mardonda, qal’a olingandan so‘ng, Uflama Qosim xonning qatl etilish xabarini eshitib, ho‘ng-ho‘ng yig‘lab yuragini bo‘shatgandan keyin kiyimlarini almashtirib, yirtiq-yamoq, kir-chir bir qishloqcha chakmon kiyib olgan va yashirinib yotgan yerto‘lasidan tashqari

chiqqan edi. Uning maqsadi – mamlakatning holiga so'nggi marta boqish, yonib yotgan qishloqlardan ko'kka o'rlayotgan qop-qora tutunlarni oxirgi bora ko'rish edi. Chunki masxara ortiq bu yerlarda qololmasdi. U ushbu tog'larga, o'rmonlarga, bu yerlarning bahoriga, yoziga, kuziga, qishiga, tuprog'u suvlariga so'nggi marta alvido aytib, bu mamlakatdan bir umr bosh olib ketmoqchi edi. Og'zidan so'lagi oqqan sarbozlar eshikma-eshik, uyma-uy izg'ib axtarayotgan shoirning qo'lyozmalari falakning bu to'fonlarida yo'q bo'lib ketmasin uchun, bu yozmalarni qaygadir uzoq-uzoqlarga, issiq mamlakatlarning biriga eltib yashirish uchun bosh olib ketishga ahd qilgan edi. Masxara o'z shoirini jonidan ham ortiqroq yaxshi ko'rar, shoirning qismati esa unga ma'lum edi: ko'zlaridan chayon zahri tomib turgan hukmdorning quturgan sarbozlari, shubhasiz, shoirni topib olishlari, agar shoir qanot chiqarib osmonga uchsa ham, sarbozlar quzg'unga aylanib unga chang solishlari aniq edi. Uflama Qosim saharlab, hali talon-toroj boshlanishidan avval, har qadamda o'lim bilan yuzma-yuz kelgan holda shoirning kimsasiz uyiga kirib, u yerdan topgan dasta-dasta qo'lyozmalarni ko'zdan pinhon bir xilvatdagi aravasiga batartib yig'ib qo'ygan, ustidan o't-alaf to'shagan, bir lazgindan uch kumush tangaga sotib olgan, oyoqlari baquvvat, gardani mushakdor xachirni aravaga qo'shib ham qo'ygan edi. Kun botib, qosh qorayganda yo'lga tushmoqchi edi. Dunyoning eng savob ishini qilish uchun, bugun alangali yuragi jallod qilichining bir hamlasi bilan abadiy to'xtab qoladigan shoirning oppoq qog'ozlar timsolidagi xush kalomlarini bu mamlakatdan bir umrga olib chiqib ketib, qaydadir dunyoning narigi chekkasida yangidan ro'yobga chiqarish uchun olis safarga otlanish niyatida edi... Ko'zlaring oqib tushsin, falak!..

Jar tepasidagi aravasi yonida ivirsigan ko'yi o'q-yoyini yana bir bor tekshirib ko'rib, belini ko'targanida Qosimning ham saroy bog'i adog'idagi bir sharpaga ko'zi tushdi: quyosh ko'zini qamashtirib turgani uchun u Xoja Anvarni dastavval kattakon quzg'un deb o'yladi, so'ng uning odam ekanini, hukmdorning a'yonlaridan biri ekanini angladi: masxara tayin bir qarg'ishni bilmasdi, chunki u umr bo'yi masxarabozlik qilib, kulgili-kulgili so'zlar bilan kishilarning ko'nglini ovlab kelgan edi, shuning uchun u birpas o'ylanib qoldi,

so‘ng yuragida buruqsib yotgan dard-alam bilan qo‘qqisdan og‘ziga kelgan qarg‘ishni aytib yubordi:

– Iloyo, og‘ang kabi sening ham axta bo‘lib, anor mammalarga zor-zor qolganlaringni ko‘rayin, he, o‘sha jigarlaring suv bo‘lib oqsin!

Maxsara bu so‘zlarni bor ovozi bilan aytdi, chunki ora olis, bu qarg‘ish o‘z egasiga yetib bormas edi. So‘ng u sapchib o‘t-alaf ustiga chiqib oldi, qo‘lini chakmonining yoqasidan ichkari tiqib, yuragi ustiga qo‘ydi va:

– Ulug‘ Tangrim, hali bu yurakka to‘zim ber, shoirga rahming kelsin! – deya Xudoga iltijo qildi, so‘ng boshini ko‘ksiga egib ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi.

* * *

...Shoirni zindondan chiqarib, qatlgoh tomon olib borishayotganida alvon quyosh tog‘larning ustida qonli bosh kabi osilib turardi. Shoir bo‘g‘zida, iyagida, ko‘zlariga qadar butun yuzida pichoq sanchgan kabi og‘riyotgan azobning zo‘ridan ingrab yubordi, qo‘llari ko‘n qayish bilan orqasiga chandib bog‘lagani uchun ham, har yili xazonrezlik boshlaganda, g‘urub mahali quyoshni bu yanglig‘ qip-qizil ko‘rganda hamisha takrorlaydigan odatini ado eta olmadi: shoir yuziga fotiha totmoqchi bo‘ldi, ammo buning imkoni yo‘q edi. Ey Xudo, bu ne azob o‘zi?..

U tag‘in quyoshga boqdi, alvon quyoshning qip-qizil shu’lasi azobdan o‘rtanayotgan shoirning yuzlarini chiroq kabi yoritib yubordi, bu shu’ladan uning yuz-ko‘zlariga bir sarinlik urilgandek bo‘ldi... Vazir, qozikalon va bir necha sarkarda qatl marosimidan oldin hukmdordan pinhona bir mashvarat qilib, shoirning boshini tanidan judo qilishdan avval uning tilini kesish lozim, tokim u qatl marosimi paytida bu xaroba mamlakatning vaziri, qozisi hukmdorga aytgan haqoratli, achchiq so‘zlarni ayta olmasin, degan qarorga kelgan edilar. O‘limi oldidan shoirlarning tili bu qadar achchiq bo‘lishini vazir umrida tasavvur qila olmasdi. Bugun hukmdorning ulkan bayramlaridan biri bo‘lib, shundoq bir tantananing ko‘ngilsizlik bilan tugashi vazir hamda qozining boshiga ko‘p falokatlar olib kelishi mumkin edi. Vazir ham, qozikalon ham doimo qizil

libosli jallodning o'tkir boltasi havoga qalqishidan avval o'limga mahkum etilganlarning barchasi hukmdorning poyiga tiz cho'kib, undan imdod tilashganining shohidi bo'lgan edilar. Bu shoir esa hech kimdan imdod tilamasligini, og'ziga kelganni qaytarmay, ulkan bayramni ulkan motamga aylantirajagini vazir ham, qozikalon ham yaxshi bilar edilar. Shu boisdan ham xufiyona ish bitirib, shoirning tilini kestirgan edilar...

Shoir esa garchi boya qorindor, og'zida tishdan asar ham qolmagan bir kimsaning qo'lida bir parcha qip-qizil etni ko'rgan bo'lsa-da, endilikda tili kesilganini his etmas, aksincha, go'yo tili og'zida shishib ketgan-u, chidab bo'lmas bu og'riq o'sha shishning og'rig'i edi. Bir yondan esa g'urubga botib borayotgan quyoshning bu qip-qizil musibati!

Orqadan kimdir uni turtdi, nayza-qalqonli ikki posbon oldinga o'tdi, tili kesilib, og'riq azobi shoirni holdan toydirgandan beri u dunyoning butun hidu iforlaridan mahrum bo'lgan edi. Ammo bu ikki sarboz oldinga tushgandan so'ng anqib ketgan achchiq ter hidi uning dimog'iga urilib, go'yo og'riqlarini battar kuchaytirib yuborgandek bo'ldi. Qatlgoh tomon borar ekan, ko'zlarini qoplab olgan tuman orasidan daraxtlarga, xazonrezgining sap-sariq, qip-qizil yaproqlariga termular va ko'nglida, ey Xudo, bu dunyoning yashil yaproqlari qani, axir, bemahal kelgan ajal nega so'nggi nafasimda meni yashil yaproqlarga zor etdi, deb o'kinar edi...

Shoir olisdan, tag'in og'riq-azobning zo'ridan ko'zlari oldida paydo bo'lgan siyrak tuman og'ushida oq saroyni ko'rgach, qatl saroyning oldida bo'lajagini, ya'ni bu ham qatl, ham tomosha ekanligini angladi... U axta hukmdorni hech qachon ko'rmagan, ammo negadir uning yuzini xayolan olxo'riqoqiga o'xshatar edi. Shoirga quyoshning bugungi qizilligi, g'urubning bugungi alvonligi mamlakatda to'kilgan qonning hovuridan paydo bo'lgandek tuyuldi. Tilsiz og'iz so'z aytmoq istar, ammo og'riqlar qilich yalang'ochlab, tilsiz og'zini ochilmoqqa qo'ymas edi. Shoir shundan so'ng to qatlgohga borguncha ko'zlarini ol quyoshdan uzmadi. Shoirning ko'zidan bir tomchi yosh yonoqlariga dumalab tushdi, bu tomchi oq emas, qip-qizil edi...

Shoirni qatlgohga olib chiqdilar. U ko'zlarini qisib dastavval quyida, maydonchaning o'rtasidagi taxtda o'tirgan hukmdorni

ko‘rdi va shoirning ko‘zlari qah-qah urib kulib yubordi: axta xonning basharasi olxo‘riqoqidan ham battar burishiq va kallasi go‘dakning boshidan ham kichik edi. So‘ngra shoir boshini og‘ir-og‘ir burib sarbozlarga tikildi: sarbozlardan tezak hidi anqirdi. O‘ng tomonda tik turgan ko‘yi dahshat ichra shoirning qatlini tomosha qilayotgan o‘z hamshaharlarini – keksalarni, yosh-yosh o‘g‘lonlarni va nihoyat, o‘zi umr bo‘yi sarv qomatlarini, qaro ko‘zlarini vasf etgani ayollarni, qizlarni ko‘rganda ko‘zidan tag‘in bir tomchi yosh oqdi: bu tomchi ham oq emas, bu tomchi ham qip-qizil edi. Chunki shoirning yuragi o‘t olib yonar, qora sochlari yelkalariga sochilib, malul-malul boqayotgan, ko‘z yoshlari qurib qolgan bu ayollarning, bu qizlarning har birining qornida endi necha-necha sarboz urug‘i borligini u anglab yetgan edi.

Ko‘zlaridan qip-qizil yosh sizildi, u o‘z hamshaharlari bilan ich-ichidan vidolashdi. So‘ng shoir hammadan oldinda qunishib turgan bir qishloqi cholni ko‘rdi: uning egnida juldur kir-chir chakmon, boshida qo‘y terisidan tikilgan papoq bor edi. Shoir uni tanidi. Aqlli masxarani tanimay bo‘ladimi?.. Masxaraning tabassumli ko‘zlari shoirga qadalgan, ammo yuzlari yig‘lar edi, masxaraning bu tabassumli ko‘zlaridan shoir nimalarnidir uqdi, shekilli, qomatini rostladi, ko‘ksi bepoyon dalalarning sarin havolari bilan to‘ldi: shoir masxaraning ko‘zlari aytgan kalimalarni so‘zma-so‘z eshitdi.

Masxara ortiq chidab tura olmadi, chunki, avvalo, u shoirning qatliga tob bera olmasdi, ikkinchidan, shoirning yuzlarida paydo bo‘lgan tabassumdan uning ham xotirjam ekanligini angladi: shoirning o‘zi bu dunyodan ketsa-da, ammo uning yozganlari bu dunyoda qolayotgan edi. Masxara ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tiyib, ichidan qalqib kelayotgan o‘krakni bosib, ustalik bilan orqaga chekindi va izdihom orasidan chiqdi. Va faqat daraga yetgandan keyin aravasiga suyanib to‘xtadi, o‘zini tuta olmay, xachirning bo‘ynidan quchoqlaganicha to‘yib-to‘yib yig‘ladi. So‘ng aravaga mindi, xachirga qamchi bosishdan avval boshini ko‘tarib qorong‘i dara tepasidagi qip-qizil samoga boqdi va qichqirib yubordi:

– Tuf sening toj-u taxtingga, ey charxi falak!

Bu g‘azabnok sadodan so‘ng qarshidagi o‘rmonda qarg‘alarning qag‘illashi yer-u ko‘kni tutib ketdi. Arava o‘rnidan jildi, g‘ildirak-

lar g'ichirladi, bir ozdan so'ng Uflama Qosimning aravasi tuproq yo'ldan chiqib, o'rmonga kirdi. O'rmonning qorong'uligi – uning ko'ziga daraxtlar qop-qora, g'alati ko'rinar edi – xazonlarning shitirlashi va tag'in atrof-jovonibning vahimali sukunati masxarani yo'ldan qaytara olmadi: boshqa payt bo'lganida bunday bemahalda masxara zinhor-bazinhor bu o'rmonga kirgani jur'at qila olmas edi. Ammo hozir u na orqaga qayta bilar, na aravani to'xtata olardi. Masxara tezda bu mamlakatdan chiqib ketishi lozim edi.

Arava vahimali g'ichirlagan ko'yi ichkari kirib borgani sayin, o'rmon tobora quyuqlashgani sayin atrof qorayib, zulmatlashib borardi. Dastlab Uflama Qosim o'rmonning bu zulmatiga e'tibor bermadi, endi oldindagi yo'lni ham topa olmasam kerak, deb o'ylardi u, chunki nigohlari oldidan boyagi joy, oq saroy oldidagi maydoncha ketmas, ko'zlari ajalga taslim bo'lgan shoirning sarg'aygan siynasiga tikilgan ko'yi qotib qolgan edi.

Ko'zlaring oqib tushsin, falak!..

Yangi egasining ko'nglida aytgan bu afg'onli qarg'ishini go'yo xachir ham eshitgandek, to'xtamoqchi bo'ldi, Uflama Qosim buni sezib, xachirni bor kuchi bilan savalashga tushdi: jonivorning sag'riniga shartillab tushayotgan qamchi ovozi Ufalama Qosimni o'ziga keltirdi, uning ko'zlari asil holiga qaytdi. U o'rmonga tikildi. Daraga nisbatan o'rmonning havosi biroz salqindek tuyuldi unga, xachir aravani ichkari tortib borgani sayin bu sarinlik kuchayib borardi, ahvol shunday davom etaversa, ikki-uch soatdan so'ng qorli bir diyordan chiqib qolaman, deb o'yladi u.

Masxara xachirning jilovini tortdi, arava to'xtadi. U yerga tushdi, g'ichirlash tingandan so'ng sarin havo kabi quloqlarini to'ldirgan sokinlikdan yayrab ketdi. Qo'lini o't-alaf orasiga suqib, u yerga bekitgan narsasini bugun nechanchi marotabaki, tag'in bir tekshirib ko'rdi. So'ng yirik bir xaltani ochib yo'lga olgan ozig'ini ham ko'zdan kechirdi, yumshoq nonini, pishlog'ini, ko'katlarini anchaga yetishiga yana bir bor ishongach, qaytadan aravaga minmoqchi bo'lgan ham ediki, qo'qqisdan eshitilgan ovozdan tuklari tikkayib ketdi: qaydadir bir go'dak o'ksib-o'ksib yig'lar edi: u diqqat bilan quloq soldi, go'yo bir emas, bir necha go'dak yig'lar erdi. Xayoliga juda ko'p eshitgani bir rivoyat tushdi: alvasti o'rmondan, sahro-

dan o‘tib qolgan yolg‘iz yo‘lovchilarni avrash uchun go‘daklarga o‘xshab yig‘lar, so‘ngra ularni ushlab olib, uzun sochlarini ularning tomog‘iga o‘rab bo‘g‘ar ekan.

Parvardigor, o‘zing madad ber! Uflama Qosim a’zoyi badani muzlab qolganini his qildi, yig‘ining tinmaganini ko‘rib, sekin xachirning bo‘ynidan quchdi. Umrida bunday marhamat ko‘rmagan xachir yayrab ketib, boshini silkalaganicha bir-ikki pishqirib qo‘ydi. Bu ovoz, o‘ksik-o‘ksik go‘dak yig‘isi juda yaqindan, Uflama Qosimning qarshisida ko‘kka bo‘y cho‘zib turgan ulkan daraxtlarning shundoq ortidan kelardi. Yo Tangrim, qanday joyga kelib qoldim o‘zi?..

Ammo u ortiq chidab turolmadi, agar bu qadar o‘ksib-o‘ksib yig‘layotgan chindan ham alvasti bo‘lsa, mayli, bo‘g‘ib o‘ldira qolsin, peshonaga yozganidan qochib qayga boraman?.. Ko‘zlaring oqib tushsin falak, bu qanday o‘ksik yig‘i bo‘ldi ekan?!

Uflama Qosim o‘rnidan qo‘zg‘alib, daraxtlar orasiga kirdi, qalin qichitqonlar orasidan bir amallab o‘tib, sayhonlikka o‘xshash bir joyda qarag‘ay daraxtiga taqab qurilgan kichkina chaylachaga ko‘zi tushgach, yig‘i ovozi o‘sha yerdan eshitilayotganini angladi.

– Hoy bola, kimsan, hoy, kim bor? – Uning shundoq boshi ustida, daraxtlarning ingichka-yo‘g‘on shoxlari orasida bir qarg‘a qag‘illadi, Uflama Qosim yuqoriga boqdi, go‘yo bu qag‘illash qorong‘ulik og‘ushiga cho‘mgan bo‘z samoning o‘rtasida yaraqlab turgan yulduzdan kelayotgandek tuyuldi unga. Uning poyma-poy savolidan so‘ng yig‘i ovozi yanada kuchaydi, Uflama Qosimning yuragi qinidan chiqib ketgudek bo‘ldi.

– Hoy bola! – qichqirdi u. – Hoy, jim bo‘l! – Biroq ilgari yurgani jur’at qila olmadi. Chaylaning torgina eshigidan o‘n ikki-o‘n uch yoshlar chamasidagi qizaloq chiqdi va qo‘rquvdan kattarib ketgan ko‘zlarini Uflama Qosimga tikkanicha qotib qoldi.

– Hoy bola, kimsan?

Qizaloq javob bermadi, qovog‘ini uyib, tag‘in Uflama Qosimga qo‘rqa-pisa boqqanicha orqasiga yashirib turgan o‘ng qo‘lini asta-sekin yoniga tushirdi: oqshomning g‘ira-shiraligada qizning qo‘lidagi tig‘dor qiya xanjar yaltirab ketdi. Hayratdan Uflama Qosimning ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi.

– Hoy qizaloq, qo‘rqma. Kimning qizisan?

Nihoyat, qiz tilga kirdi:

– O‘tinchi Bahlulning bolalarimiz... amaki.

– Amaki degan tilingga qurbon bo‘lay, bolam. Xo‘sh, ota-onang qani?

– Sarbozlar avval otamni o‘ldirdilar, keyin onamni. – Qizning boshi ko‘ksiga osilib tushdi, bu so‘zlardan so‘ng chaylaning ichidagi yig‘i shunaqangi bir dod-faryodga aylandiki, Uflama Qosim ortiq o‘zini tuta olmay, ilgari otilganicha qizning yonidan o‘tib chayla yoniga bordi va ichkariga bosh suqdi: qop-qorong‘i, havosi rutubatli chaylada necha jon borligini tuzukroq farqlay olmadi.

– Hoy bola, tashqariga chiq, bu yoqqa chiqinglar, yo‘qsa kasal bo‘lib qolasiz! – dedi.

Chayladan bir-biridan kichik to‘rt qizaloq, besh o‘g‘il chiqdi. Uflama Qosim o‘tinchi Bahlulning besh o‘g‘il, besh qizi kimsasiz yetim qolib, bu balokash dunyoning darbadarlari safiga qo‘shilganini angladi. Ko‘kka boqib, mana, bugun nechanchi borki, baqirib yubordi:

– Ko‘zlaring oqib tushsin, falak!

Bolalar katta opalarining pinjiga suqilib, qo‘zichoqlar kabi boshlarini boshlariga suyab turardilar. Uflama Qosim bir-bir ularning yuzidan o‘pib chiqdi, kir sochlarini siladi, oqib turgan burunlarini chakmonining etagiga artdi.

– Shu yerda turinglar, men hozir kelaman, – deya kelgan yeriga qaytib, aravaga chiqdi, daraxtlar orasidan kengroq joy topib, xachirni chayla tomon haydadi. Aravani chayladan biroz narida to‘xtatib, sakrab yerga tushdi, oziq xaltasini ko‘tarib yerga qo‘ydi, shosha-pisha, hansiragan ko‘yi xaltaning bog‘ini yechib, hamon qo‘rqa-pisa o‘ziga tikilib turgan go‘daklarga dedi:

– Qani yaqinroq kelinglar-chi, qo‘zichoqlarim!

Opasining qo‘lidan ushlab, boshini uning qorniga qo‘yib turgan kenjatoy sekin so‘radi:

– Opa, u bizni yeb qo‘ymaydimi?

– Yemaydi, jonim, yemaydi. – Qiz kichkintoy ukasining qo‘lidan tutib, dadillik bilan ilgari, Uflama Qosim tomon yurdi, qolgan bolalar ham katta opalariga ergashdilar. Uflama Qosim xaltadan chiqar-

gan nonini, pishlog'ini, yo'lga nimaiki yegulik olib chiqqan bo'lsa, hammasini aravadagi o't-alaf ustiga yoyilgan chorsi bo'z dasturxonga qo'ydi, bolalarga boqib, darhol nonni ushatdi, pishloqni ham qo'llari bilan uqalab maydaladi. Katta bir parcha non orasiga pishloq bo'lagidan, ko'katdan qo'yib dastlab kenjatoyga uzatdi:

– Ol, qo'zim, ye!

Bola opasining qo'llariga yopishdi. Qiz nonni Ufalama Qosimning qo'lidan olib kenjatoyga berdi, shundan keyingina o'g'il-qizlarning hammasi nozik qo'lchalarini dasturxonga cho'zishdi. Bu kuz oqshomining salqin sokinligi og'ushida non chaynayotgan lablarning chilp-chilp ovozini tinglab, yutinayotgan nozik bo'yinchalarga tikilib turar ekan, Uflama Qosimning hayot-madori qurib qoldi: bu go'daklar boshiga qanday falokat tushganini u endi anglab yetdi go'yo. Ey Parvardigor, bularning holi endi ne kechadi? Xudoyim, ko'zing qanday qiydi bularni?

Bolalar o'z ulushlarini yeb bo'lishdi, ochiqqan ko'zlar, pirpirab turgan ma'yus nigohlar tag'in dasturxonga qadaldi. Uflama Qosimning a'zoyi badaniga o't ketdi, egilib kenjatoyni o'z og'ushiga oldi, issiq, nozik lablaridan o'pdi.

– Hoy bolam, ona qizim, – deya katta qizga murojaat qildi. – Hammasi sizniki, bolalarim, tortinmay olaveringlar.

Bu gal bolalar juda yaqin keldilar, inida bir-biriga qorishib ketgan bolarilar kabi, baravariga, bu safar shubhalanib, qo'rqib-pisib emas, dadil qo'l cho'zib, nondan, pishloqdan oldilar va tag'in lablarini chilpillata-chilpillata yeyishga tushdilar. Uflama Qosim bu yerda ortiq chidab tura olmadi, og'ushidagi go'dakni yerga qo'yib, ulardan uzoqlashdi, chaylaning orqasiga o'tib, sassiz-sadosiz yig'ladi. Chunki Uflama Qosim endi yig'lamay, ko'ksidagi dard-alamni ko'zyoshlarga qo'shib to'kolmay tura olmasdi, yurak degani tosh emas-ku, axir!

Ortiga qaytgach, dasturxonga boqib jilmaydi: dasturxonda nima qo'yilgan bo'lsa, hammasini pok-pokiza yeb qo'ygan edilar, bo'z qiyiq shu qadar toza ediki, go'yo uni silkib, qaytadan o't-alaf ustiga yoygan edilar.

Masxara bolalarga qaradi: endi aravaning atrofini davra olib, jimgina, hamon ko'zlaridagi qo'rquvni yashira olmay, bir qadar

ishonchsiz, biroz hayajon bilan o'ziga tikilib turgan bolalarning chehrasi ochilgan, kenjatoyning yuziga esa qon yugurgan edi. Katta qiz ularning orasida yo'q edi. Uflama Qosim xas-xazonlarning shitirlashini eshitib, ortiga o'girilib qaragan edi, qo'lida kattakon mis ko'za tutganicha daraxtlar orasidan chiqib kelayotgan qizga ko'zi tushdi.

– Shu yaqinda buloq bor, suv olib kelyapman, amaki! – deya u idishni Uflama Qosimga uzatdi.

Uflama Qosim ko'zani lablariga olib borib, muzdek suvning sarinligini his qilgandan keyingina chanqaganidan tili tanglayiga yopishib qolganini sezdi. Idishdagi suvni so'nggi tomchisigacha lazzat bilan simirdi, uning ko'zlariga nur keldi va faqat endigina bugun sahari mardon turib, tahlikali ishini o'rinlatib, lazgindan olgan xachirni aravaga qo'shgandan beri og'ziga bir qatra ham suv tegmaganini angladi. Idishni qizga qaytarar ekan, hushi o'ziga qaytgandek bo'ldi.

– Hoy qizim, o'zlaring ichmaysanmi?

Qiz jilmayib javob berdi:

– Biz ichib oldik, amaki.

– Sening amaki degan tilingga qurbon bo'lay, jayron bolam! – shunday deya Uflama Qosim qo'lini chakmonining yoqasidan ichkari suqib, qo'yniga tiqib qo'ygan baxmal hamyonini bugun ilk bora ushlab ko'rdi: oltin va kumushlar joyida edi. Kecha kech-qurun bor-yo'q dunyosini shu hamyonga joylab, ota-onadan yetim qolgan Uflama Qosim nainki bir oyog'i, balki ikkala oyog'i ham go'rda bo'lgan keksa buvisining oq tushgan ko'zlaridan o'pib uydan chiqqan edi.

Farosatingga balli, ey Qosim!.. Bolalarga termulib, ularga jilmaygan ko'yi xayolan endi qilinajak xarajatlarini hisobladi: to manzilga yetib borguncha yo'l-yo'lakay uchragan qishloqlardan bolalarga oziq-ovqat, o'n juft poyabzal olish uchun bu pullar bemalol yetar edi. U boshini ko'tarib, bo'zrang samo o'rtasidagi dum-dumaloq oyga, oyning atrofidagi ushbu yetimlarning ko'zlari kabi chaqnab turgan yulduzlarga tikildi va umrida ilk bor sidqidildan "Xudoga shukur" dedi... Shu payt kenjatoyning yig'lamsirigan ovozi eshitildi:

– Opay, meni uyga olib bor.

Katta qiz uni og‘ushiga olib, yuz-ko‘zlaridan o‘pdi. Boshqa yetimlar bu hazin ovozni eshitib boshlarini quyi soldilar, Ufalama Qosim xayoliga kelgan fikrdan sevinib ketib, dedi:

– Sizning qora ko‘zlaringizga qurbon bo‘lay, bolajonlarim! Hech xafa bo‘lmanglar. Hozir men sizlarga ajoyib bir tomosha ko‘rsataman! – u oldinga chiqdi. – Qani, hammangiz orqaroq borib, yuzingizni chaylaga burib turing.

Bolalar asta-sekin chayla tomon yurib, tag‘in bir-birlariga qo‘rqa-pisa boqqan ko‘yi Uflama Qosimga teskari qarab turdilar. Masxara kula-kula, sevina-sevina arava yoniga borib, o‘t-alaflar orasidan poychalari keng zar sholvor olib kiydi, so‘ng uchiga qo‘ng‘iroqcha qadalgan kattakon kulohini boshiga qo‘ndirdi. Qaytib chaylaning oldiga keldi va ingichka ovozda qichqirdi:

– Hazrati oliylari, men tayyorman!

Bu ingichka va kulgili ovozni eshitib ortiga burilgan bolalar chaylaning o‘rtasida, oy shu’lalari og‘ushida Uflama Qosimni ushbu ahvolda ko‘rib, hayratdan qiyqirib yubordilar. O‘n juft ko‘z hayrat aralash maroq bilan Uflama Qosimga tikildi. U gapida davom etdi:

– Og‘alar, beklar, xon saroyining muhtaram mehmonlari!.. Bugun xonning oshpazi guruchni xom pishirgani uchun Uflama Qosim bir qorin og‘rig‘iga mubtalo bo‘ldiki, kun bo‘yi qo‘tir xo‘roz kabi qichqiryapti! – Masxara qo‘llarini karnay qilib og‘ziga tutdi va aynan xo‘roz kabi qichqirdi: – Qu-qu-qu-qu-qu!

Bolalar kula-kula chug‘urlashib uning yoniga keldilar, Uflama Qosim tomoshasini boshladi: avval sakradi, qo‘llariga tayangan ko‘yi boshi bilan muallaq turib, oyoqlarini havoda qaychi qilib o‘ynatdi, so‘ngra yana xo‘roz kabi qichqira-qichqira o‘mbaloq oshdi, maysa ustiga sirg‘anib tushib, oyoqlarini kerib o‘tirdi, keyin tag‘in xo‘roz kabi qanot qoqdi va yana o‘mbaloq oshdi, qo‘qqisdan yiqilib tushgan bo‘lib, boshini changallagan ko‘yi “voy, voy, o‘ldim, tamom bo‘ldim” dedi va tag‘in ko‘p hunarlar ko‘rsatdi!..

Oy shu’lalari og‘ushida, sarg‘aygan kuzgi maysalar ustida o‘n yetim dunyoning eng maroqli, eng kulgili tomoshasiga boqqan ko‘yi qo‘zichoqlar yanglig‘ boshlarini boshlariga suyab yaqin keldilar, endilikda chordona qurib o‘tirgan, boshini bor kuchi bilan

silkib, qalin kulohidagi qo'ng'iroqchani tinimsiz jiringlatayotgan Uflama Qosimning atrofini o'rab, unga qo'shilib nafaslari ichga tushib ketguncha kuldilar. Kenjatoy esa juda yaqin kelib, Uflama Qosimning tizzalari ustiga o'tirdi va boshini uning ko'ksiga qo'ydi: masxaraning yuziga uning iliq nafasi urildi, masxara uni mahkam quchoqlab, o't hidi anqib turgan sochlaridan o'par ekan, dedi:

– Sizning shu yalang oyoqlaringizga qurbon bo'lay, bolajonlarim!.. Demak, bu kecha shu yerda tunab qolamiz, ertalab, kun chiqqandan keyin, Xudo xohlasa, bir arava bo'lib yo'lga tushamiz. To'g'rimi amakining gapi?

Bolalarning hech biri qayoqqa deb so'ramadi. Yetimlar xursand bo'lib chapak chaldilar, kenjatoy esa Uflama Qosimning jinday ter anqib turgan og'ushida uxlab qoldi...

O'rmonda o'qtin-o'qtin boyqushlar ovozi eshitila boshlaganda, oy va yulduzlarning shu'lasi ortib, zulmatni daraxtlar ostiga, pana-pastqamlarga quvgan bir pallada o'tinchi Bahlulning o'rmonda tunab qolish maqsadida qurgan kichkina chaylasidan uning katta qizi yamoqli choqqina palos, shu palos kabi yamoqli, rangi uniqib ketgan ko'rpa olib chiqdi, bolalar atrof-javonibdan o't-maysa yulib keldilar va palos ustiga yotish uchun joy hozirladilar: Uflama Qosim o'rtaga cho'zildi, besh o'g'il uning o'ng tomonida, besh qizaloq chap tomonida chuqur va lazzatli uyquga cho'mdilar.

Masxaraning horg'in vujudi tosh kabi og'ir edi. Uflama Qosim ham, bolalar ham uyquga ketishdan avval boshlari ustidagi samoda par-par yonayotgan, kattarib, har biri olmaday-olmaday bo'lgan yulduzlarga boqdilar: Uflama Qosim tag'in "Xudoga shukur" deb qo'ydi. Bolalar ko'zlarini yumganlari zahoti oy shu'lalari tilsimiga tushib, tushlarida sehrli qo'ng'iroq ovozlarini eshitdilar, o'n yetimning yuziga oy, yulduzlar shu'lasidan to'kilgan mayin tabassum qo'ndi. Uflama Qosim esa bolalarning tushiga kirgan qo'ng'iroq sadolarini eshitmadi, chunki u juda toliqqan edi. Qo'ng'iroq sadolaridan bexabar qolgani kabi o'zi bir umrga tark etgan, endi olislarda qolgan mamlkatining so'nggi qiyomat kunidan ham bexabar qoldi...

Bugungi kunda dunyoning eng savob ishini qilgan masxara, shoirning qo'lyozmalarini asrab qolib, ming bir tahlikada yo'lga

tushgan masxara qo‘rg‘oshin kabi og‘ir bo‘lgan bugungi kunning g‘urub chog‘ida taqdir taqozosiga ko‘ra besh o‘g‘il va besh qizning otasi bo‘lib qolgan edi: endi u toshdek qotib uxlab, jism-u jonidagi charchoqni haydab chiqarmog‘i va ertalab bardam bo‘lib uyg‘onmog‘i lozim edi, chunki hali manzil juda olis va bu balokash dunyoda endi u yolg‘iz emas edi.

...Qatldan keyin, shoirning boshi tanasidan judo qilingandan so‘ng, qizil libosli jallod og‘ir boltasini asta-sekin oyoqlari ostiga qo‘ygach, hukmdorning sarbozlari tag‘in otlar kishnashiga o‘xshab qiyqirib yubordilar, olomondan esa sado chiqmadi: na keksa bir so‘z dedi, na yosh, na ayol bir so‘z dedi, na qiz. Zabardast yigitlardan omon qolganlari esa, qo‘rqoq bo‘lganlari uchun, jallod “yo Olloh!” deya hayqirib boltasini yuqori ko‘targanda izdihomdan sekin ortga surilib chiqdilar. Hukmdor o‘rnidan turdi.

– Vazir! – dedi u. – Shoir og‘zini ochib, kalimayi shahodat ham o‘girmadi-ku!

– Qo‘rquvdan tili tanglayiga yopishib qoldi shekilli kofirning! – deya vazir ikki bukildi va jilmayib soqolini siladi.

Hukmdorning yodiga tag‘in nimadir tushib ketdi, shekilli, qoshlarini uydi, basharasidagi burishlar bir-biriga qorishib ketdi.

– Qariya! – deya yana vaziriga murojaat qildi u. – Ko‘rdingmi?!

– Nimani, qiblayi olam?! – Qo‘rquvdan vazirning ko‘zlari olakula bo‘lib ketdi.

– Olomonni aytyapman, qariya!.. Qara, hech kim damini chiqarmadi, ko‘rdingmi?! – Hukmdor kuldi, sarkarda-sarbozlariga yuzlanib, baland ovozda dedi. – Mening jasur o‘g‘lonlarim! Shuni biling va yodda tuting! Toki bashar avlodining yuragida qo‘rquv azobi, dilida shuhrat dardi bor ekan, bir kunda yuz shoirning boshi kesilsa ham hech kimsa hech qachon hukmdorning yuziga tik boqib bir gap aytolmagay!

– Ofarin! Ofarin! Ofarin!

U yer-bu yerdan yangragan bu olqish sadolari, atrofda yonib yotgan olov ustunlari kabi ko‘kka o‘rlab, to‘p-to‘p oppoq bulutlarga yetdi: uzoq yo‘l bosib horigandan tepada muallaq qolgan bulutlar ushbu sadolar ostida vujudga kelgan shamoldan harakatga kelib, qorli tog‘lar, muz qoyalar tomon oqib ketdilar...

Ammo baribir vazirning aytgani bo‘lmadi, ishga shayton aralashib, shoir istagan voqea ro‘y berdi: bu ulkan bayramning oxiri ko‘ngilsizlik bilan yakun topdi.

Qatldan keyin, shoirning boshini tilla tovoqqa solib, saroy shoirlarining poyiga qo‘yganlaridan so‘ng hukmdor barcha a’yonlari, sarkardalarini to‘plab, olaquroq bayram liboslari kiyib olgan bu amir-umaro davrasida, jang libosida bo‘lganlari uchun ulkan qovoqarilarni eslatadigan posbonlar muhofazasida barqut etiklari bilan xazonlarni bir-bir bosib asta-sekin saroy tomon yo‘l oldi, oshpazlar tayyorlagan bayram taomlarining hidi olisdan dimog‘iga urilib, aftini burishtirdi: necha kun ediki, isitmadan so‘ng hukmdorning ishtahasi hamon asl holiga qaytgani yo‘q, taom hidi dimog‘iga urilganda ko‘ngli aynardi.

Elchilar xonasida tashkil etilgan ulkan ziyofatda, garchi hukmdorning o‘zi ichmasa-da, an’anaga ko‘ra, ko‘ngli istaganlarning sharob ichishiga ruxsat berdi: ushbu zabt etilgan mamlakatda yashaydigan, aytishlariga ko‘ra, ajoyib sharob tayyorlashda shuhrati uzoq-uzoq diyorlarga tarqagan bir tarsoning omboridan olib kelingan qonday qip-qizil, sirka kabi o‘tkir sharob qadahlarga to‘ldirilib, ahli anjumanga tortildi. Boda tutgan har bir kimsa, hukmdorning o‘ziga nafrat bilan tikilib turganini his etganidan a’zoyi badani muzlab qolsa-da, sharobni oxirigacha simirib, so‘ng taom yeyishga tutindi. Barcha salavot aytib, bu mamlakatning eng lazzatli taomi hisoblanmish behi bostirilgan qirg‘ovul palovga intildi; qo‘llar gumbazday uyulgan laganlarga cho‘zildi, avval panjalar, bir ozdan so‘ng soqol-mo‘ylovlar jiqqa moyga botdi.

Hukmdor taxtda o‘tirar, hali tuz ham totmagan edi, shu sababdan Xoja Anvar unga o‘qtin-o‘qtin norozi qarab qo‘yardi. Hukmdor qo‘lini ikkinchi marta yuqori ko‘targan edi, soqiy qadahlarni yangidan to‘ldirib chiqdi: mayli, ichishsin, bugungi bayramdan rozi bo‘lishsin, do‘zax olovida men emas, manavilar yonadi...

Ahli anjuman gumbaz laganlarni, qirg‘ovul, kaklik solingan tovoqlarni bo‘shatib, kuzning totli mevalariga qo‘l cho‘zgan bir paytda vazir-u vuzarolar, a’yon-u sarkardalarning hozirga qadar bunaqangi bayram o‘tirishlarida ko‘rmaganlari bir hodisa ro‘y berdi: hukmdor qo‘lini uchinchi daf’a yuqori ko‘tarib, uchinchi marta

ichishga ruxsat berdi va qizlar kabi nozik soqiy yigitcha dumbalarini o'ynata-o'ynata, nozlana-nozlana anjumanni aylanib, tag'in qadahlarni to'ldirib chiqdi...

Birozdan so'ng hukmdor ovqatdan bo'kib og'irlashib qolgan, yuzlari tarso sharobining ta'siridan xumor-xumor suzilayotgan a'yonlarga boqib, ularning lom-mim demay serrayib turganlarini ko'rgach – ulardan uch-to'rttasi hamon qo'y kabi kavshanar edi – tag'in uning ko'ngli aynidi va endi anjumanni yakunlash lozimligini, birpas tashqarida toza havo olib, xonalardagi chiroqlarni o'chirib, lazzatli uyquga ketish muddati yetganini angladi. Hukmdor o'rnidan turdi.

Bu ajoyib bayram anjumanining oxirida ishga shayton aralashdi, jahannamga vosil bo'lgan shoirning nahs niyati amalga oshdi, saroy bog'ida, sokin va yulduzli kuz oqshomining salqinida kezib yurgan hukmdorga noxush bir xabarni yetkazish bilan vazirning yegan-ichganini burnidan chiqarishdi, buning ustiga hozir saroyning eng yuqorisida joylashgan xilvat xobxonada, berk eshik ichkarisida posbonlardan birining nazoratida qolgan, mushk-anbarlar solingan issiq suvda cho'miltirilib, atirlar sepilgan, oppoq ko'rpa-to'shakda pishgan jo'ja kabi hovurlanib yotgan o'n besh yoshli qiz ham qo'ldan chiqishiga oz qoldi: bunday ko'ngilsizlikdan so'ng vazirda erkaklik mayli qolmasdi. Keksa vazirning g'azabdan yuragi o'ynab, a'zoyi badani dir-dir titradi.

– Nima?! – deb so'radi hukmdor. A'yonlaridan biri keltirgan xabarni u yaxshi eshitmagan edi.

Semiz a'yon tag'in qo'l qovushtirib, ikki bukildi.

– Munajjim o'z joniga qasd qilibdi, o'zini osib qo'yibdi, odil hukmdor!

Mana bugun nechanchi daf'aki, hukmdorning tag'in ko'ngli aynab, vazmin-vazmin ortiga burildi va o'zidan biroz orqada qotib qolgan, oy yorug'ida qo'rquvdan soqoli lattaday osilib tushgan vazirga tikildi, vazir yana o'zini tuta olmay, kuchukday chingsab yubordi:

– Sabab?!

Hukmdor kaftini vazir tomon cho'zib, barmoqlarini bukib ochdi, vazirga go'yo havoda ko'rshapalak o'ynagandek tuyuldi. Xoja

Anvar uning turgan joyida tamom bo‘lganini ko‘rib, asabiy holda yelkasidan ilgari itardi.

– Xo‘sh, qariya, sababi ne?!

Vazir hukmdorning poyiga tiz cho‘kib, uning oyoqlarini mahkam quchoqlab oldi.

– Ollohning nomiga qasam ichaman, Xudo haqqi, mening hech narsadan xabarim yo‘q! – deya o‘ksib-o‘ksib yig‘ladi.

– Ammo men bilaman! – hukmdor vazirini tepib yubordi, vazir tag‘in xuddi tepki yegan kuchukdek ingilladi. – Men bilaman u kofirning niyatini! – deb davom etdi hukmdor. – Oxiri istaganini qildi ilon inidan chiqqan qari chayon! Mening bayramimni motamga aylantirdi, hukmdorning ovqatiga zahar qotdi, jahannamda bu zahar ko‘zlariga to‘kilsin uning!

So‘ng hukmdor sukutga ketdi. Hamma ikki bukilib qolgan edi: hukmdorga dastlab go‘yo barcha a’yonlarini, sarkardalarini, atrofida kimki bo‘lsa, hammasini kimdir ko‘rinmas qilich bilan qoq belidan ikkiga bo‘lib yuborgandek tuyuldi. Hukmdorning ko‘ngli ag‘darilib, ichak-chavog‘i bo‘g‘ziga kelib tiqilganday bo‘ldi, o‘zini shu qadar yomon his etdiki, Xoja Anvarni yoniga chaqirishni istadi: yonartog‘ning vulqoni kabi ilkis paydo bo‘lgan g‘azab alangasi gup etib miyasiga urildi, bundan uch-to‘rt kun avvalgi isitmadan yonib chiqqan kechalarini esladi, yarasiga tuz sepgan ba’zi mayda-chuyda tafsilotlar yodiga tushdi va bir lahzaning ichida shu qadar majolsizlandiki, vazir-u vuzaro, qozi, a’yon-u sarkardalari oldida qulab tushishiga sal qoldi. Xoja Anvar nimanidir his etdi, shekilli, amr kutib o‘tirmay hukmdorning yoniga kelib turdi. Xuddi shu payt hukmdor, Xoja Anvar, vazir, qozikalon kechki sayr uchun saroy bog‘iga chiqqan a’yonlar, sarkardalar qulog‘iga qaydandir bir ayol faryodi eshtildi.

– Bu nimasi tag‘in?

Sarkardalardan biri nola kelayotgan tomonga yugurib ketib, bir ozdan so‘ng qaytdi:

– Odil hukmdor, bir kampir shoirning jasadi ustida aytib yig‘-layapti.

Hukmdor ingrab yubordi va:

– O‘chiring uning ovozini! – deya amr etdi-da, qo‘llarini orqasiga qilganicha to‘g‘ri saroyning ulkan darvozasi tomon yo‘l oldi. Xoja Anvar unga ergashdi.

...Yelkador, qoshlari tutash, mushaklari po'latdek baquvvat o'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi bir sarkarda qaytadan saroy bog'idan chiqib, saroy maydonini kesib o'tdi va kechqurun qatl marosimi o'tkazilgan joyning orqasidagi tepaliklar tomon yurdi. Oy bu joyga shu qadar ko'p shu'lalar to'kkan ediki, daf'atan bu yerga kelib qolgan kishi kuppa-kunduz deb o'ylar edi. Qunishib mushtdekkina bo'lib qolgan bir kampir boshsiz jasadning yonida tiz cho'kib, tebrangan ko'yi marsiya aytmoqda edi. Sarkarda kampirning boshiga yopirilib bordi.

– Hoy kampir! – deb baqirdi u. – Tur, daf bo'l vayronangga!

Kampir boshini ko'tardi, biroq qarshisidagi sharpani tuzukroq farqlay olmay:

– Hoy bolam, – dedi go'rdan chiqqandek bir ovozda. – Meni o'z holimga qo'y. Jinday yuragimni bo'shatib olay, savob bo'ladi.

Sarkarda jilmaydi, qayishi o'ynab turgan qamchisini ko'tarib, bor kuchi bilan emas, shunchaki jonidan o'tsin deya uning oriq kuragiga bir tushirdi. Biroq bu qoqsuyak badanda et degan narsa qolmaganidan sarkardaning xabari yo'q edi, shoirning jasadi ustida dunyoning eng hazin, eng yoniq marsiyasini aytib o'tirgan kampir – Uflama Qosimning ikki oyog'i ham go'rda bo'lgan, ko'zlariga oq tushgan buvisi bu yengil qamchi zarbidan yonboshiga shilq etib tushdi-da, shu zahoti jon berdi.

Bo'lar ish bo'lgan edi, na jallod boltasi, na ushbu sarbozning qamchisi endi bu kampirni hech nima qila olmas edi. Mamalakatning eng keksa go'yandasi aytgan so'nggi marsiya – so'nggi alla asta-sekin uzayib, shu'la kabi ingichka ipga aylanib, cho'zila-cho'zila tog'lar oshib, o'rmonlarni kechib, oxiri Bobo Ko'ho atrofidagi toshlardan biriga ilashdi va xuddi shu payt bu toshdan shunday bir oh qo'pdiki, bu ohdan so'ng Bobo Ko'honing qa'ridan guldirab chiqqan bir nido dunyoni larzaga soldi:

– Naslingiz qirilsin sizning, ey ikki oyoqli maxluqlar!

...Dard ham og'riq kabi bir kelsa botmonlab keladi, singlim!

Bobo Ko'honing qa'ridan chiqqan nido oppoq tumanga aylanib, atrofga yoyildi, ko'kka o'rlab, yulduzlarni o'z og'ushiga oldi, to'nglab yotgan qoyalarning boshida erib, ulkan muz bo'laklariga aylangan ko'yi yuksaklikdan pastga otilib, o'z yo'lidagi

qaqshab-chatnab yotgan toshlarni, darz ketgan qoyalarni parchalab tashlay boshladi: bu tosh, bu qoyalardan bo'g'iq bir na'ra otilib chiqdi, bu – chekilgan ohmidi, o'qilgan la'natmidi, anglab bo'lmasdi. Ayni shu lahza har bir qoyaning, har bir toshning yorig'idan, chatnagan joylaridan arqon kabi buralib-buralib, muz nafasli gulduraklar solib mum kabi quyuq bir narsa oqib chiqa boshladi. Hali dunyoda biron-bir kimsa, biron-bir jonivor bunday zil qora rangni ko'rmagan edi. Million-million yillardan beri oysiz va yulduzsiz tunlarning zulmatini o'z jismiga joylab kelgan bu sobit qoyalar, bu cho'ng toshlar dunyoning sovuq zulmatini tag'in uning o'ziga qaytarmoqda edi. Bobo Ko'ho qa'ridan yangrayotgan na'ra hamon tinmas, buralib-buralib chiqayotgan karvon-karvon oppoq tuman gumbaz kabi to'nglab yotgan muz qoyalarni eritib, yax bo'laklariga aylantirar va ular do'ldek pastga otilar, uryon toshlarni, qoyalarni parcha-parcha qilib – bu guldurak sadolaridan atrof-javonibdagi hamma narsa ingrab yotardi – pastga surib ketmoqda edi: qop-qora tunlarning zulmati endi arqon kabi buralib-buralib emas, enli-enli shalolalarga o'xshab oqib chiqar va yo'l-yo'lakay cho'ng qoyalar zulmati bilan qorishib, to'ppa-to'g'ri quyiga – balokash bir mamlakat tomon yopirilib bormoqda edi. Orqadan, Bobo Ko'honing qa'ridan guvillab chiqayotgan shamol shu qadar kuchli ediki, bu zil qora va sovuq mumning sur'atiga hatto nur ham yeta olmas edi.

– Naslingiz qirilsin sizning, ey ikki oyoqli maxluqlar!

...Tashqarida guvillash kuchayib, deraza shishalari muzlab, qizil, yashil, sariq oynalar zil qora rangga qorishib ketganda saroyning elchilar xonasiga shunday bir sovuq yopirilib kirdiki, hukmdor taxtidan sapchib turmoqchi bo'ldi, lekin tura olmadi, egilib, hamon poyida o'tirgan Xoja Anvarning qo'llariga yopishdi.

– Bu ne balo o'zi, Anvar?! – Hukmdor bo'g'zi yirtilib ketgudek qichqirib yubordi. Biroq tashqaridagi na'ralardan, guvillagan ko'yi saroyning poydevorlarigacha titroq solayotgan shamolning zo'ridan Xoja Anvar hech narsani eshitmadi.

– Dardingni olay, hukmdor, nima deding?

Hukmdor ham Xoja Anvarning ovozini eshitmadi, Xoja Anvar o'rnidan turib uni quchoqladi, boshini o'z ko'ksiga bosdi: hukmdorning peshonasidagi sovuqlik Xoja Anvarning ko'ksiga oqib o'tib,

a'zoyi badanini muz bilan to'ldirdi. Hukmdor qo'lini devorlarga cho'zdi va hayratdan shu qadar qattiq qichqirib yubordiki, tashqaridagi vahimali gulduraklarga qaramay, bu gal Xoja Anvar uning ovozini yaqqol eshitdi. U sekin hukmdordan uzoqlashib, oyoqlarining og'rig'ini ham unutib, miyno, tilla va kumush suvlari bilan bezatilgan saroy devorlaridan biri tomon yurdi, qadam-baqadam devorga yaqinlashgan sayin hayrat va vahmi orta bordi, ko'zlari olayib-kulayib, soqqasidan chiqib ketgudek bo'ldi: Xoja Anvarning shundoq ko'zlari oldida ajoyib, yaraqlab turgan naqshlar bir-bir g'oyib bo'lar, devorlar oppoq bir rangga belanib bormoqda edi. U qo'lini qarshisidagi devorga tekkizib ko'rdi: devor muz bog'lagan edi. Xoja Anvar endi hammasini tushunib, qichqirib yubordi va tashqaridagi guvillash rosa kuchayib, eng shiddatli nuqtasiga yetgan mahalda ushbu so'zlarni aytdiki, uni na hukmdor eshitdi, na uning o'zi:

– Xudovandi olam, agar uning jonini olar bo'lsang, avval menikini ol!

So'ng u tag'in hukmdorning yoniga qaytdi, hech nima demasdan uning qo'lidan tutib, qoqila-suqila elchilar xonasining orqa eshigi tomon yetaklab bordi. Bu og'ir temir eshikni ochib, hukmdorni qaygadir quyiga tushib ketadigan uzun, ensiz zinaga boshlab keldi. Hukmdor tag'in qichqirdi:

– Meni qayga olib ketyapsan, birodar?!

– Bu yerda qola olmaymiz, dardingni olay, pastga tushamiz, saroy yerto'lasiga!

Ammo yana na Xoja Anvar hukmdorning gapini eshitdi, na hukmdor Xoja Anvarning. Hukmdor sodiq navkarining yoshlanib turgan ko'zlariga boqib, o'zini bu musibatdan faqat mana shu navkari xalos eta olishini angaladi: bundan bir necha yil avval, bu yerdan olislarda, qo'nalg'a tikilgan joyda tarashadek qotib qolgan, har birining ko'zida olmaday-olmaday yulduzlar yonib yotgan ot va inson jasadlari hamon hukmdorning yodidan chiqmagan edi.

U rozilik alomati ila bosh silkidi. Xoja Anvar oldinga tushdi, hukmdor uzun zinapoyalardan enib, nihoyat, eng pastda tag'in bir temir eshikni ko'rgach, Xoja Anvar uni saroy yerto'lasiga boshlab tushganini fahmladi. Va hukmdor umrida ilk marotaba Xoja Anvarning oldida o'zining juda qattiq vahmga tushganini yashira olmay, unga iltijo qildi:

– Meni yerto‘laga olib tushma, Anvar!

Yuqorida go‘yo tog‘ tog‘ga, qoya qoyaga urilgan kabi nimadir gumburlab ketdi, guvillab-chiyillab kelayotgan sadolar hukmdorning quloqlarini, miyalarini zirqiratib yubordi va har ikkalasi ham bu gumburlash shamol hamlalariga ortiq bardosh bera olmay qulab tushgan, yer bilan yakson bo‘lgan saroy devorlarining sadosi ekanligini anglashdi. Hukmdor hech nima demadi, Xoja Anvarning yonida uning ilk bor ko‘zlariga yosh to‘lib keldi, Xoja Anvar uning qo‘llaridan o‘pdi.

– Yurgin, dardingni olay, bu musibat tugamaguncha boshqa yashirinadigan joyimiz yo‘q.

Hukmdor boshini quyi solib, Xoja Anvarga tobe bo‘ldi va o‘zining butun inon-ixtiyorini unga topshirdi. Xoja Anvar yerto‘laning og‘ir eshigini ochdi va hukmdor ichkarida, zulmat og‘ushida tik qotib turgan, boshi tap-taqir kal, shalpangquloq, ko‘zlari qizg‘un ko‘zlari kabi kipriksiz bir kimsani ko‘rdi. Va hukmdor qo‘lini ko‘tarib, bu kimsa qachonlardir besh yashar go‘dakning yuziga surtgan qonni artmoqchi bo‘ldi. Biroq uning qo‘l ko‘targulik majoli qolmagan edi, u o‘zidan ilgari ichkari kirib, chaqmoqtosh chaqa-chaqa yerto‘la chirog‘ini axtarib yurgan Xoja Anvarni kutib turdi. Birozdan keyin Xoja Anvar ostonada paydo bo‘ldi, hukmdorning qorday oqarib ketgan rang-ro‘yini ko‘rib, yig‘lab yuborishiga oz qoldi, hukmdorga ikki qo‘llab yopishganicha uni ichkari tortdi va temir eshikni bekitdi. Tashqaridagi guldurak, talotumdan so‘ng bu sokin maskanga kirgach, har ikkisi ham chuqur bir quduqning tubiga tushib qolgandek his qildi o‘zini. Hukmdor burchakdagi mis chiroqdonda yonib turgan chiroqni ko‘rib biroz taskin topdi, ammo muz bog‘lagan devorlarga ko‘zi tushib, Anvarning pinjiga suqildi va qo‘rquvdanmi, sovuqdanmi dir-dir titrab so‘radi:

– Bu ne musibat o‘zi, Anvar?

– Shaytonning amalidan bo‘lak hech narsa emas! – Xoja Anvarning ovozi bo‘g‘zidan chiqqanga o‘xshamas, go‘yo bu ovoz tilining uchida ingichka ip kabi osilib turardi. – O‘sha la’nati shamol bu, huv o‘sha la’nati shamol, hozir o‘tib ketadi. Qo‘rqma, qo‘rqma...

– Men sovqotyapman, birodar! – Hukmdor qo‘llarini qo‘yniga tiqib olgan, butun vujudi, boshi dir-dir titrar edi. Xoja Anvar hukm-

dorning yuziga, ko‘zlariga tikilar ekan, “Xudoyim, uni jannati qil!” dedi ko‘nglida, chunki endi hukmdorning yuzlaridan g‘azab yog‘ilmas, ko‘zlarida chayon zahri yo‘q, bu ko‘zlar besh yashar go‘dak ko‘zlaridek musaffo edi.

– Men sovqotyapman, birodar! – Hukmdor xazon yaprog‘i kabi titrab-qaqshab yig‘lardi.

– Hozir, dardingni olay, men hozir! – deya Xoja Anvar hukmdorning qo‘ltig‘iga kirib, uni yerto‘laning chiroq yonayotgan kunjida turgan pastak taxta yoniga olib bordi.

– Sen yot, yota qol. – U hukmdorni yostiqsiz-to‘shaksiz taxtaga yotqizib, to‘nining ustidan bog‘lab olgan enli qiyig‘ini yechdi va dumaloq qilib, yostiq o‘rnida hukmdorning boshi ostiga qo‘ydi, so‘ng to‘nini ham yechib, hukmdorning ustiga yopdi, o‘zi ham uning yoniga cho‘zilib, yonboshiga o‘girildi, Xudoga, aziz-anbiyolarga iltijo qilib, badanidagi bor-yo‘q haroratni hukmdorning vujudiga o‘tkazdi, biroq buning ham foydasi bo‘lmadi, hukmdor tag‘in nola qildi:

– Bu qanday sovuq o‘zi, Xudoyim!

– Uxla... uxla... uxla... – Xoja Anvarning nafasi ichida muzlab borardi.

– Oyoqlarimni tebrata olmayapman, o‘n pud tosh osib qo‘yilgandek oyoqlarimga, Xudoyim!

Xoja Anvar ham oyoqlarini qimirlata olmas edi, shuning uchun ham ming azobda boshini zo‘rg‘a ko‘tardi: har ikkisining ham tizdan quyisi muz bog‘lagan edi. Boshlari ustidagi mis chiroqdondan taralayotgan zaif shu’la ostida devorlardagi muz qatlamlari ham, har ikkisining tizdan quyisini qoplab olgan muz ham qizg‘imtir tovlanardi. Bu qizg‘imtir muz ularning vujudi bo‘ylab asta-sekin suv kabi yuqori ko‘tarilib, bo‘g‘izlariga yetib kelganda, hukmdor hech narsani ko‘rmay qoldi.

– O‘liming muborak, Anvar! – dedi u.

Xoja Anvarning ko‘zlari ochiq qolgan edi:

– O‘lim barhaq, hukmdor...

Nihoyat, yerto‘lada, to‘nglab qolgan mis chiroqdonda yonib turgan chiroqning alangasi ham muzga aylandi: qip-qizil muz alanga bo‘g‘zidan sinib, pastdagi muzlik ustiga tushdi va chil-chil sindi...

Tashqarida esa sukunat og‘ushiga cho‘mgan, qalin muz qatlamlari ostida qolgan bir mamlakat bor edi.

Quyoshning zarrin ranglariga belangan bu ulkan muzliklar diyorining qaysidir bir nuqtasida, o'limning sovuq sukutida, tilla tovoq ichida shoirning ochiq qolgan bir juft ko'zi bu balokash dunyoni tomosha qilib turardi.

* * *

Darhaqiqat, kunduzning uyqusi ham shirin, ham osoyishta bo'ladi: oxirgi paytlarda, eh-he, qachonlardan beri bunday osoyishta va qattiq uxlaganini eslay olmaydi: Mark Georgiyevichning yetti pushtiga rahmat! Gapining ustidan chiqdi, qisqa muddat ichida bemorni haddan ziyod ko'tarilib ketgan isitmadan xalos etib, oyoqqa turg'azib yubordi...

Bemor ko'zlarini ochib, tepasidagi shiftga boqqan ko'yi maza qilib esnadi va o'zini so'zning asl ma'nosida baxtiyor deb hisobladi. Inson hamisha umidning etagidan tutib, hamisha ertani, kelajakni o'ylab yashamog'i lozim, kechagi kun bilan, o'tmish bilan yashash juda qimmatga tushadi, chunki insonning faqat buguni va kelajagi bor, uning o'tmishi yo'q: vaqt muttasil, bir lahza ham to'xtamay faqat oldinga oqadi, inson esa hamisha, qanday sharoitda bo'lmasin, sog'ligida ham, bemorligida ham vaqtning bir tomonlama yo'nalishiga bo'ysunmog'i kerak...

Bemor jilmaydi: lazzatli cho'pon qaynatmasidan so'ng uxlab turgach, bunday donolarcha mulohaza yuritishning o'zi ham yomon narsa emas, sog'lom tanda sog' aql deb to'g'ri aytganlar. Bemor o'rnidan qo'zg'alib, oyoqlarini karavotdan osiltirganicha shippaklarini topib kiydi, so'ng kursi ustidagi xalatini kiyib, soatiga qaradi: rosa ikki yarim soat uxlabdi, ajabo, Zamina ham uni uyg'otmabdi...

U deraza oldiga bordi va pardalarni yirib tashqariga, hovliga nigoh tashladi. Havo tundlashgan, aftidan, yomg'ir yog'adigan edi, hovlining betartibligini, tomi ochilib qolgan axlatxona ichidagi og'zi quduqning og'zidek qorayib turgan axlat qutilarini, shoxlarida bitta ham yashil yaprog'i qolmagan, shapaloq-shapaloq barglari sarg'ayib, qizarib bo'lgan tut daraxtlarini mayin ter bosgan derazadan tomosha qilar ekan, eh, hozir kuz o'rnida yoz bo'lganida, nur ustiga nur bo'lardi-da, deb o'yladi. Kim nima desa deyaversin, ammo kuz kabi bema'ni fasl yo'q. Kuz yilning na u yoqlik, na bu yoqlik fasli,

u xuddi tumovga o'xshab odamni juda lanj, karaxt qilib qo'yadi. Bunday havoda yo'li cho'lga, o'rmonga tushganning holiga voy...

Ortdagi eshik g'ichirladi va Zaminaning ovozi eshitildi:

– Ha, turdingizmi? Ko'ramiz endi kechasi sizning o'rningizga kim uxlar ekan.

Zamina ichkari kirib, deraza oldida hamon mudroq bosib turgan erining biroz shishinqirgan, ammo ancha tiniqib qolgan yuziga boqdi, karavotning ustini tartibga solgach, dedi:

– Telefon qilishdi, erta tush payti Muxtor Karimlining oldiga borar ekansiz, majlis bo'lar ekan, shekilli.

Bemor Zaminaning "telefon qilishdi" degan gapidan so'ng tushida g'alati bir uzundan-uzoq qo'ng'iroq ovozini eshitganini esladi, ammo harchand urinmasin, ko'rgan tushini xotirlay olmadi: demak, bu yerda tun va kunning daxli yo'q, odam kunduzlari ham tush ko'raverar ekan-da! Lekin kunduzning tushlari xosiyatliga o'xshaydi, chunki o'z vujudidagi yengillik, harakatchanlikka, muhimi, ruhidagi osoyishtalikka boya tushida eshitgan qo'ng'iroq ovozlari sababchi ekanligiga bemorning imoni komil edi. U:

– Borishim shart ekanmi?! – deb so'radi.

– Albatta! – dedi Zamina. – Odamlar orasida ko'rinib turing, do'st bor, dushman bor. Agar betayin majlis bo'lsa, uyga qaytib kelaverasiz, – Zamina erining yuziga tikildi. – Ertalab soqolingizni olishingiz kerak, oq ko'ylagingizni dazmollab qo'ydim, yangi kastumingizni ham kiyib oling.

Bemor indamadi... Kirlikirning Sa'di Afandiga aytgan so'zlari yodiga tushdi: "Tag'in seni Salohovning yoxud Muxtor Karimlining huzurig'a chaqirsalar, etagingni tutqazmagil". Bemor jilmaydi va kerishib badanini qashladi.

* * *

...Ertasi kuni soat o'n birlar atrofida u yo'lga otlandi, ko'chaga chiqishi bilanoq jun bo'yinbog'ini tuzatib, plashchining yuqoridan quyi barcha tugmalarini qadadi va kepkasini ko'zlarigacha bostirib oldi. Qo'shnilardan biriga duch kelib qolmasam bo'lgani edi, deb o'yladi u, chunki ularni uchratib qolsa, to'xtab, kasalligi haqida uzundan-uzoq, to jag'i toliqib qolguncha ma'lumot berishga majbur edi.

Faqat uning qo'shnilari emas, aftidan, dunyodagi barcha qo'shnilar shu jihatdan bir-birlariga o'xshab ketadilar. Odamni soppa-sog' ko'rganda, tramvay, trolleybuslarda uchrashib qolganlarida shunchaki salomlashib, qisqagina hol-ahvol so'rab qo'ya qoladilar, ammo uzoq cho'zilgan xastalikdan so'ng ularning qo'liga tushib qolsang, Xudo urdi deyaver. Nima kasal bo'lding?.. Qaysi hakim davolayapti? Qanaqangi dorilarni ichyapsan? Hakimlar endi nima deyishyapti?.. Hammasiga javob berishingga, maslahatlarini boshdan oyoq eshitishingga va buning ustiga, tezroq sog'ayib ketishing haqida sidqidildan bildirilgan tilaklarini qabul qilib, har biriga o'zingning chuqur minnatdorchiligingni bildirishingga to'g'ri keladi...

Majlisdan u juda g'azablanib chiqdi, endi yo'ldan o'tayotgan yo'lovchilarga boqmay, hech narsaga e'tibor bermay, ham o'zini so'kardi, ham Salima xonimni. Bekor-behudaga Salima xonim kundalikni unga bergan ekan: yo'l bo'yi Salima xonimning upa-elikli yuzlarini tasavvur qilib borar ekan, tobora asabiylashardi, uning "kulgan-yig'lagan" ovozi quloqlari ostida jaranglar ekan, butun vujudi ko'pdan beri takrorlanmagan, ammo tanish bir bezgak titrog'iga to'lib borardi... Hoy tentak, bu qanday qahramonlik, bu ne talabgorlik, bu qanaqangi chiranish o'zi? Hoy-hoy!.. Mark Georgiyevich ham, Zamina ham payg'ambarlik qilgan ekanlar: boshingni quyi solib, bir parcha noningni topib yeganing uchun Xudoga shukur qilib yuravermaysanmi. Sa'di Afandi nima degan edi? "Bunchalar hiyla-nayrang, bunchalar qaltis o'yin bo'ladimi, axir?" Rost ekan! Padaringga ming la'nat sening, ey Karimli. Bir tomondan bu havoni-chi: sening yaproqlaring qurib ketsin, ey kuz!..

Majlis boshlangach, hamma joy-joyiga o'tirib, zaldagi g'alag'ovur tingandan so'ng Muxtor Karimli kotiba keltirib qo'ygan choydan bir qultum ichib olib, ba'zi mayda-chuyda masalalardan gap boshlaganda bemor unga sinchkov razm sola boshladi. Karimlining rang-ro'yi o'liknikiga o'xshar, yuzlaridagi dumaloq qirmizi dog'lar go'yo keyinchalik upa-elik bilan bo'yab qo'yilgandek edi. Karimli ochilib-sochilib, hazil-huzul qilib gapirmoqda edi. Biroz tashqarida kezib yurgan kuz faslidan dam urdi, buni qarangki, kuz Muxtor Karimlining eng sevimli fasli ekan, bu gaplar bemorning yodida o'sha zahoti muhrlanib qoldi: "Kuzda meva-cheva mo'l-

ko‘l bo‘ladi, men shunday bir yoshga borib qoldimki, endi menga ko‘proq vitamin kerak”. Zalda kulgi yangradi. So‘ng Karimli jiddiylashib, oldinda turgan qandaydir bir ilmiy anjuman haqida gapirdi va mehmonlarni kutib oladigan kishilarning ro‘yxatini o‘qidi, ularning har biriga maxsus topshiriq berdi, zal xiyla sovuq bo‘lgani uchun u yer-bu yerda o‘tirgan ba’zi kishilar qo‘llarini uh-uhlab isita boshladilar, bemor Karimlining qo‘llari ham titrayotganini ko‘rdi.

So‘ngra soqol-mo‘ylovlari oppoq bir kishi o‘rnidan turib, Karimlining savoliga javob berdi, aftidan, Karimli anjumandan so‘ng tashkil qilinadigan ziyofat xarjlari haqida nimanidir so‘ragan edi. Bemor endi notiqqa quloq solmay qo‘ygan edi, boya u ushbu zalga kirib, Sa’di Afandining kundaligida o‘qigan so‘zlarni eslagan, uning bunaqa majlislar paytida hamisha o‘tiradigan joyini axtarib, taxminan bo‘lsa ham topganidan so‘ng kelib orqa qatorlardan birining eng chekkasiga o‘tirgan, ichdan issiq kiyinib olgani sababli, terlamaslik uchun plashchini, bo‘yinbog‘ini yechib tizzasi ustiga qo‘ygan va so‘ng Sa’di Afandi tasvirlagan naqshinkor shiftga tikilgan edi: endi bu shift naqshinkor, gulkori emas edi, naqsh va gullar ustidan oq moybo‘yoq surilgan, endilikda bu zalning shifti kasalxonalarning shifti kabi bo‘z, tund bir rangda edi. Va nihoyat, Karimli Sa’di Afandining yubileyi haqida gapira boshlaganida bemorning yuragi dukullab ketib, hamma narsani unutib, diqqat va hayajon bilan uni tinglay boshlagan edi.

Suf sening sir-u savdolaringga, ey dunyo!..

Uyga qaytar ekan, hali yo‘lning yarmiga ham yetmagan ediki, qo‘qqisdan esiga bir narsa tushdi: axir, boya majlisda ziyofatga aloqador savolga javob bergan oq soch, nuroniysifat kishi Qodir Pinhon edi-ku! O‘z davrining yosh shoiri bo‘lgan Qodir Pinhon endi Karimlining yonida bosh maslahatchi bo‘lib ishlar edi. Qurbon bo‘lsang arziydi shaytonga ishton tikkan bunaqangi dunyoga.

Bemorning quloqlariga musiqa sadolari urildi, yoniga burilib, bu musiqa sadolari ensiz taxta eshik ustida neon chiroqlari bilan “Disko bar” deb yozilgan, yerto‘lada joylashgan, qizil, yashil, sariq ko‘zlar o‘rnatilgan derazasi yo‘ldan o‘tadigan yo‘lovchilarning tizzasidan keladigan bir yemakxonadan eshitilayotganini angladi. Hozir yuz ellik gramm otib olsa yomon bo‘lmasdi!.. Bemorning

ko‘zlari charaqlab ketdi, quyiga, barga tushishdan avval telefon budkasiga kirib, uyga qo‘ng‘iroq qildi. Telefonni Zamina oldi.

– Qalay o‘tiribsizlar?

– Qayerdan gapiryapsiz?

– Biroz aylanmoqchiman, tag‘in xavotir olib o‘tirma.

– Bo‘pti... Muxtor Karimli nima bo‘ldi?

– Juda yaxshi bo‘ldi.

– Tag‘in shamollab qolmang.

– Yo‘q, tashvish tortma.

– Hozircha xayr.

– Xayr.

Barning ichkarisi aynan o‘tmishdagi saroy xonalariga o‘xshardi: qadimiy mis shamdonlarda cho‘zinchoq chiroqlar yonib turar, devorlar zarrin naqshlar bilan bezatilgan, kattakon, baland toshlarning o‘ng va chap tomonlariga ularning bo‘yi baravar kandakori mis qalqonlar osilgan, burchakdagi hujralarning ba’zilarida esa ensiz taxtalar ustiga baxmal bolishlar, yostiqlar qo‘yilgan edi. Bemor o‘zini kinostudiyaning pavilonlaridan biriga kirib qolgandek his qildi. Ikki kishilik, to‘rt kishilik stollarning ustiga ohorli dasturxonlar yozilgan, katta-kichik rang-barang qadahlar par-par yaltirab yonardi. Kirish eshigining ro‘parasida, zalning narigi tomonida ikkita kattakon dinamik qo‘yilgan bo‘lib, ulardan shildirab oqayotgan suv ohangiga o‘xshash musiqa taralar, yuqoridagi sariq, qizil, yashil rangdagi kuchli chiroqlar bu musiqaga mos ravishda bezovta yurakning dukillashiga o‘xshab yonib-o‘chardi: bu yerga faqat raqqosalar yetishmasdi, xolos; balki kechqurunlari, kun botgandan keyin raqqosalar ham kelar...

Bemor yomg‘irpo‘sh va kepkasini bukri xizmatchiga uzatayotib, qarasa, uch-to‘rt yil avval Zamina Moskvadan, “Beryozka”dan unga olib bergan bo‘yinbog‘i yo‘q, aftidan, bo‘yinbog‘ini o‘sha joyda, Muxtor Karimlining huzurida qoldirib kelgan edi. Uning kulgisi qistadi, biroq bukri xizmatchining taajjub bilan tikilib turganini ko‘rib, o‘zini zo‘rg‘a tutib qoldi. “Hayf ketding, ey jun bo‘yinbog‘!..”

Ofitsiant uning boshiga kelib, savol ishorasi bilan qaragan edi, bemor, nimalaringiz bor, deb so‘radi. Ofitsiant mamlakatning eng lazzatli taomlarini bir-bir sanashga tushdi: chuchvara, som-

sa, qozon kabob, tokbarg do‘lmasi, qovurdoq, baliq kabobi, baliq lo‘lasi, go‘sht lo‘lasi. Ofarin bunday mamlakatga!

– Ikra-chi?

– Yo‘q, ikramiz yo‘q.

Bemorning bu yerga kirishdan maqsadi yuz ellik garmm ichib, o‘ziga kelib olish edi, ammo devorga osilgan qalqonlarni, shop qilichlarni, yerda gilamlar ustiga qo‘yilgan ajoyib sopol, mis ko‘zalarni ko‘rgach, o‘zini go‘yo G‘irotga mingan Go‘ro‘g‘li his qilib, ofitsiantga ikki yuz ellik gramm aroq, mayda-chuyda gazak, ikki dona baliq kabobi buyurdi. Ofitsiant bosh silkib ketgandan so‘ng u stolga tirsaklarini tirab, iyagini uqalar ekan, o‘zini juda noxush his qildi. Bundan ko‘ra majlisga borayotganida oyoqlari singani yaxshi edi! Go‘yo xaloyiq majlis uchun emas, ko‘ngilxushlik qilish uchun kelgan edi...

Ammo Muxtor Karimli nutqining oxirida shunday bir yolg‘onni qildiki, agar narigi dunyo bor bo‘lsa, faqat shu yolg‘oni uchun u do‘zax olovida kuyib ketishi tayin edi... Bemor uydan olib chiqqan uch sigaretdan birini tutatdi va yutoqib-yutoqib tortdi. U go‘yo boshi uzra buralib-buralib zalning eshigidan chiqib ketayotgan sigaret tutuniga qo‘shilib, o‘zi ham tag‘in ko‘chaga chiqqandek, Muxtor Karimlining Sa’di Afandi ta’riflagan “boyqush xaroboti”ga borib qolgandek his qildi.

O‘tmishda shifti bezatilgan, zarrin naqshlar solingan bu qadimiy binoning majlislar zalida, ertalab uyda yegan bir parcha nonidan so‘ng och qorniga yuz gramm aroq otib olgan bemor, Karimlining nimalar deganini ham, rang-ro‘yini ham go‘yo hozir chekayotgan sigaretining quyuq tutini ortidan g‘ira-shira ko‘rib turgandek bo‘ldi va aroqdan so‘ng biroz yumshab, g‘azabdan tushgani uchun u yerda eshitganlarini ham yaxshi eslay olmadi. Aftidan, Karimli o‘z nutqining boshida ham, oxirida ham, bu yubileyni eng yuksak darajada o‘tkazish hammaning muqaddas burchidir, dedi. So‘ng Sa’di Afandining yubileyi munosabati bilan nashriyotlardan chiqadigan asarlar ro‘yxatini o‘qidi va zalda o‘tirganlarga ko‘rilajak boshqa tadbirlar haqida axborot berdi. Shundan so‘ng u zaldagilarga murojaat qildi:

– Balki savollar bordir? – qo‘li dir-dir titrab noksimon stakandagi choydan ho‘pladi.

Bemor qo‘l ko‘tardi.

– Anavi o‘rtoqning savoli bor, shekilli. – Karimli o‘rnidan turdi.

Zalda kulgi, pichirlagan saslar eshtildi. Bemorni yaqindan taniydiganlar unga ters-ters qarab qo‘ydilar.

– Muxtor domla, Sa’di Afandining chop etilmagan bir romani bor, degan gap-so‘zlar yuradi. Balki bu haqda sizga biror narsa ma’lumdir? – Mana, qarmoq tashladim, hozir kattakon baliq ilinadi, deb o‘yladi bemor...

Muxtor Karimli jilmaydi va galstugini tuzatar ekan, so‘radi:

– Sening oting nima edi? – Aslida Karimli uning otini ham, familiyasini ham yaxshi bilardi.

Bemor ismi sharifini aytdi.

Karimli o‘ng qo‘lini yuqori ko‘tardi:

– Ha, ha, esimga tushdi, – dedi u, – haligi monografiyaning muallifi sen bo‘lasan-da?

– Shunday!

Karimli tag‘in choy ho‘pladi, yana galstugining tugunini u yonbu yonga tortib, dedi:

– Yo‘q, azizim, bu roman haqida menga hech narsa ma’lum emas. – So‘ngra nimadir esiga tushgandek kuldi. Muxtor Karimlining kulishini bir bor eshitgan kishi uni umrbod yodidan chiqarmasdi. Go‘yo kimdir qachondir “pixillab kulish” iborasini Muxtor Karimlining shu kulishini eshitgandan keyingina yaratgan edi. Bemor bir necha marta shohidi bo‘lgan bu kulgini hozir yana eshitib, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, tashvish bilan yon-veriga jovdirab boqdi. Hozir kimdir, balki uning o‘zi Muxtor Karimliga og‘iz ochib bir narsa deyishi lozimdek tuyuldi, ammo hech kim g‘ing demadi, chunki hamma bu kulgining sehrli tilsimiga tushib qolgan edi. Bemor Sa’di Afandining kundaligidan o‘qigan bir jumlani esladi: “Bul daf’a yuz xo‘roz emas, go‘yo ming xo‘roz bir yerg‘a yig‘ilib baravarig‘a qichqirg‘on kabi bo‘ldi”. Karimli gapida davom etdi: – Sho‘rlik, go‘ri nurga to‘lsin!.. Hozirgacha ko‘zlarim oldida turibdi. Juda did bilan kiyinardi rahmatli, boshida buxori papog‘i bo‘lardi, xato qilmasam, qo‘liga nozik bir uzuk ham taqib yurardi. – U tag‘in kuldi, pixillash saslari shiftga tegib, pastga to‘kilayotganga o‘xshardi. – Unga aytardikki, u paytlar biz nisbatan yosh edik, ha,

darvoqe, unga aytardikki, hoy Sa'di Afandi, yangi asar yozgansan deydilar, berib tur, biz ham bir o'qib chiqaylik; u esa bizga, hoy yaramas, Xudo haqqi, daf bo'l bu yerdan, derdi.

Zal guldirab kulib yubordi, hatto chapak chalganlar ham bo'ldi. Go'yokim janazaga kelgan xaloyiqqa o'lik tirilib ketdi degan edilar.

– Sho'rlik keyingi paytlarda juda vosvos bo'lib qolgan edi... – Karimli jiddiylashdi. – Na iloj, og'ir vaqtlar edi, o'rtoqlar, juda murakkab bir davrni boshimizdan kechirayotgan edik. Ming afsuskim, oramizda ifloslar ham oz emas edi. Har holda!.. Boshqa savollar yo'qmi?

Vassalom, boshqa yana qanday savol bo'lishi mumkin? Yubiley eng yuksak darajada o'tkaziladi, demak, Salima xonimning butun bezovtaligi, tashvishlariga chek qo'yilgan edi. Bundan keyin tag'in nima deb bo'lardi?..

Bemor boshini quyi soldi, issiq pat ko'ylagi ostida badanini ter bosgan edi, u Sa'di Afandi kundaligining tag'in bir yerini xotirladi: "Men o'ltirg'on o'rnimdan bir luqma so'qmoqchi bo'ldim, ammo xotinimning suvrati keldi-turdi ko'z oldimg'a, Muxtor Karimlining zahil basharasi keldi-turdi ko'z oldimg'a, hirsimni bosdim, damimni ichg'a yutdim, gapirmadim, gung bo'ldim". Bemorning ko'z oldida go'yo "vassalom"lardan iborat bir karvon majlisning boshidan oxirigacha oqib o'tdi. Padaringga ming la'nat, ey Muxtor Karimli! Suf sening sir-ru savdolaringga, ey dunyo!..

So'ng majlis tugab, hamma sevinib, shosha-pisha zaldan chiqayotganda – uzundan-uzoq majlislarda o'tirishga hech kimning toqati qolmagan edi – Karimli bemorni olib qoldi, qabulxonada, o'z yordamchisining ustiga dasta-dasta qog'oz uyulgan stoli yonida unga, monografiya menga juda ma'qul bo'ldi, umuman, Sa'di Afandi haqida juda ko'p yozish kerak, juda-juda afsuski, hali Sa'di Afandi o'zining haqiqiy bahosini olgani yo'q, dedi. Bemor Karimlining so'zlariga quloq solib, har bir gapida ishlatadigan "juda"laridan asabiylashgan ko'yi hech narsa demay, boshini quyi solib turaverdi. Sa'di Afandining yubileyi o'tkaziladigan bo'lingan, Sa'di Afandi haqida yozilgan eng katta monografiyani Muxtor Karimli juda o'rinlatib tar'riflagan edi – shuncha gapdan so'ng yana nima deyish mumkin?.. Aqli-hushi joyida bo'lgan odam bu gaplardan so'ng indamay qo'ya qoladi.

Keyin Karimli bemorning qo‘lini qattiq-qattiq siqib, dedi:

– Sen Salima xonim bilan yaqinsan, unga aytib qo‘y, hech bezovta bo‘lmasin. – Jilmayib bemorning ko‘zlari ichiga tikildi. – Har qanday mayda-chuyda narsalarga asabini buzavermasin. O‘zining sog‘lig‘i ham u qadar yaxshi emas, shekilli.

– Aytib qo‘yaman, Muxtor domla.

So‘ng Muxtor Karimli u bilan xayrlashdi, bemor keksalarga xos mayda qadamlar bilan ketayotgan ozg‘in, qotma kishining ortidan tikilib qoldi...

Ofitsiant baliq kabobini olib kelganida, bemorning grafindagi arog‘i tamom bo‘lgan edi.

– Singlim, – dedi bemor, – menga tag‘in yuz gramm olib kel.

– Bosh ustiga!

Tavba, Karimli bemorning Salima xonim bilan yaqin ekanligini qaydan bildi ekan?.. Ehtimol, Salima xonimning o‘zi aytgan bo‘lsa kerak. Bemorning oldida, u bilan suhbatlashganda hamisha konspiratsiyaga borib, pardali gaplarni aytadigan Salima xonim otasining yubileyi arafasida Muxtor Karimli tug‘ilgan kunda — qishning qirchillama sovug‘ida qaydadir issiqxonada o‘stirilgan gullarni tuya bahosida sotib olib, kattakon guldasta yasab, tabriklash uchun Karimlining uyiga borgani bemorning yodiga tushdi...

Aroq olib kelgan ofitsiant boshini changallab o‘tirgan bemordan so‘radi:

– Bir nima dedingizmi?

Xasta boshini ko‘tarib jilmaydi.

– Ha, suf sening sir-ru savdolaringga, ey dunyo, dedim!

Ofitsiant jilmaydi, uning to‘la, go‘shtdor yuzi tovoqdek yoyilib ketdi.

Bemor sekin so‘radi:

– Hojatxona qayerda?

Ofitsiant qo‘li bilan oshxona tomonga ishora qildi:

– Oshxona yonidagi eshikdan chiqib, zinapoyadan yuqori ko‘tarilasiz, o‘sha yerda, hovlida.

Bemor haqiqatan ham yerto‘lada o‘tirganini angladi, chunki hovliga chiqish uchun zinapoyalardan pastga tushish emas, yuqoriga ko‘tarilish kerak edi...

Bu hovli juda katta va g'alati edi. Dastlab bemor bu hovlining odamni gangitib qo'yadigan, hafsalasini pir qiladigan g'aroyib tilsimini his qilmadi. Tuyqus etini junjiktirib yuborgan sovuqdan dirdir titrab, hovlini to'rt tomondan o'rab turgan binolarni ko'rgach, u gangirab qoldi va qo'rquvga tushdi, binolardan hech birining na hovliga ochiladigan eshigi bor edi, na derazasi, bu hovliga chiqiladigan yagona yo'l – yemakxona orqali edi. Bemor o'girilib ortiga qaradi: yerto'laning hovliga ochiladigan temir eshigi mahkam berk edi. Bemorning yuragi nimanidir sezdi, devorlari marmardek silliq bo'lgan bu binolarning narigi tomondan ham eshik-derazasi bormikan, agar yo'q bo'lsa, bu eshiksiz-derazasi binolarda kimlar yashar ekan, deb o'yladi u.

Negadir bemorning o'rnidan jilgisi kelmas, hovlining o'rtasida cho'nqayib turgan taxta hojatxonaga tikilgan ko'yi qotib qolgan edi, bemor ro'parasidagi eshikni ham, ortidagi eshikni ham endi hech qachon ocha olmaydigandek his qildi o'zini. U qaltiray boshladi va xuddi shu payt qaydadir miyasida cho'g'dek issiq og'riq qo'zg'agan ko'yi g'archillab bir eshik ochildi. Bu ochilgan eshik uning miyasidagi qulflog'liq eshiklardan biri edi – taxta hojatxonaning yonida naq mushukdek keladigan bir kalamush cho'nqayib o'tirgancha bemorga tikilar edi. Bemor Kirlikirni tanidi. Ishongan ishonsin, ishonmagan ishonmasin... Va bemor hamma narsani anglab yetdi, so'ng qo'rqa-pisa ko'zlarini ochib, eshiksiz-derazasiz binolarning muz bog'lagan devorlariga boqdi...

Shu payt Zaminaning ovozi eshitildi:

– Qo'rqmang, dardingizni olayin, yana jinday issig'ingiz bor.

Bemor ikkinchi marta ko'zlarini ochganida, karavot oldida tik turgan doktor Bergmanning kumush gardishli ko'zoynagini ko'rdi.

– Men sovqotyapman, doktor!

Bu ovoz kimning ovozi edi, yo tavba?

Qaydadir olislardan qo'ng'iroq ovozi eshtildi.

– Men sovqotyapman, doktor...

Doktor Bergmanning lablari qimirlar, ammo bemor uni eshitmas edi, chunki endi qo'ng'iroq sadolari butun olamni boshiga ko'tarib jaranglar edi.

Bemor qaydadir shu yaqinda telefon jiringlayotganini angladi.

– Qayer, Tyumen? – Zamina telefonda norozi ohangda qichqirar edi. – Bizning Tyumenda hech qanaqa tanishimiz yo‘q-ku!

– Menga ber telefonni, tez bo‘l! – bemor tag‘in ko‘zlarini ochdi, oppoq tuman og‘ushida Zamina uzatgan telefon dastagini doktor Bergman uning qulog‘iga tutdi.

– Menman, men, Salimaman!

Telefon dastagida guvillab bir shamol esar edi, bemorning a’zoyi badani shunday muzlab qoldiki, tishlari takillay boshladi. U o‘z ovozini o‘zi eshitmas edi.

– Topdim, topdim!.. – Salima xonimning ovozi juda uzoqlardan, shamol guvillab esayotgan joylardan kelardi. – Esingdami, senga bir epikriz bergan edim, o‘shanda bir hakimning oti bor edi – Akop Mirzayan degan, o‘shaning o‘g‘li Sergey Mirzayanda ekan. Tushundingmi?.. Akop Mirzayanning o‘g‘li Sergey Mirzayan-da-a-a!!

Doktor Bergman suhbatni bo‘lib:

– Yetar, ko‘p uzoq gaplashma! – dedi.

Bu gal bemor o‘z ovozini o‘zi eshitdi:

– Nomi nima ekan?

– Kimning?

– Asarning... – Telefonda guvillab kelayotgan shamol hamlalari xona derazalarini do‘l kabi savalamoqda edi. – Asarning nomi nima ekan?

– Qatl kuni...

Ortdagi eshik ham, oldindagi eshik ham zich yopiq edi, faqat telefon dastagidan kelayotgan shamolning bo‘g‘iq guvillashidan na quloq quloqni eshitardi, na ko‘z ko‘zni ko‘rardi. So‘ng Bobo Ko‘ho qa’ridan ilkis otilib chiqqan shamol karvon-karvon qora bulutlarni, karvon-karvon oq bulutlarni o‘zining bo‘g‘iq oqimiga qo‘shib olib ketdi va ularni haydab eltib oddiy shamollar shahri bo‘lmish bir shahar osmoniga yig‘di, bu shamol oy va yulduzlarni yutib yubordi, so‘ng bor kuchini to‘plab, barcha yopiq eshiklarni lang ochib yubordi: otlarning kishnashi, sarbozlar qiyqirig‘i, temir va qon hidi miyaning chuqur darzlarini to‘ldirib yubordi. Va tag‘in qachondir ko‘zlari ochiq qolgan bir shoirning qaydadir ro‘yobga chiqqan qo‘lyozmasidan yarim-yorti bir misrani qop-qora bulutlar tepasida par-par yonayotgan yulduzlar shu’lasi bilan qovushtirdi: Ajaldan muhlat so‘radim, muhlatini qizg‘andi...

Zaminani narigi xonaga quvib, xobxona eshigini ichkaridan bekitgan doktor Marg Georgiyevich Bergmanning esi og'ib qolishiga bir baxya qoldi. Chunki bemorning ochiq qolgan ko'zlarida har biri olmaday keladigan bir juft yulduz yonar edi.

Doktor darhol qo'lini cho'zib, u ko'zlarni bekitdi.

* * *

Xalil amakining kabobxonasida ertalabdan kallasho'rva ichib, durustgina otib olgan, kayfi taroq bo'lgan ikki kishi endi choy ichgan ko'yi suhbatlashmoqda edilar. Ulardan biri feldsher Mahmud, ikkinchisi esa Zulfiqor otaning nevarasi Moshu edi. Zulfiqor ota qazo qilgach, qarindosh-urug', tanish-bilishlar yig'ilishib, Moshuning oliy maktabda o'qiydigan siyog'i yo'q degan qarorga kelib, uni raypoga ishga joylab qo'ygan edilar... Endilikda Moshu qo'lini cho'ntagiga solsa, kir dastro'moliga ilashib besh-oltita yigirma beshtalik chiqar edi. Mahmud unga gap uqtirmoqda edi:

– Ishonasanmi, Moshu, juda qattiq charchaganman, Xudo haqqi, bugun mana shu hosil bayramini ham amallab o'tkazib olay, rosa uch kun qimirlamay yotib uxlayman. Zulfiqor buvangning arvohi haqqi, chin so'zim! – Moshu jilmaydi, kallasho'rvadan so'ng issiq choy ichgani uchun ter tepchib chiqqan peshonasini yog'li qo'lining orqasi bilan artar ekan, dedi:

– Ko'p ichasan, Mahmud do'xtir, aroqning kasridan buning hammasi.

Mahmudning ko'zlari ola-kula bo'ldi:

– Moshu, Xudo haqqi, ichmasam o'lib qolaman, axir. Xo'sh, nima qil deysan, a? Hoy Xalil amaki! – Mahmud bo'ynini cho'zib, bufetning peshtaxtasi ortida pichoq qayrayotgan Xalil amakiga qaradi. – Menga rostini ayt, sen ko'p ichasanmi yoki men?

Xo'ppa semiz Xalil amaki kirlanib ketgan oq xalatining yoqasini ochib, kamzuli ostidan qornini qashigan ko'yi esnadi.

– Menga qara, Mahmud, – dedi u. – Hali sen bilan biz bu umrimizda juda ko'p otishamiz... Sen menga, yaxshisi, mundoq tushuntirib ayt-chi, raykom bu yilgi hosil bayramini nega bizning qishloqdan boshladi ekan-a?

Mahmud yelka qisdi.

– Nega bo‘lardi... Tog‘ni portlatmoqchilar-da!

– E, bunisini o‘zim ham bilaman! – Xalil amaki bufetdan chiqib, ularning yoniga keldi, stolga tirsagini tirab, kattakon sholg‘om burnini torta-torta ishqadi. – Xo‘sh, bir tog‘ni portlatish uchun shuncha xaloyiqni yig‘ib kelish shart ekanmi, a?

– Voy!.. Bayram bo‘ladi-da axir! Bu yerda miting qilib, tog‘ni portlatgandan so‘ng rayondagi stadionga to‘planadilar.

Suhbatga Moshu aralashdi:

– Xalil amaki to‘g‘ri aytyapti, Mahmud do‘xtir, – dedi u. – Men ham tushunmay turibman, qaysi tog‘ni portlatadilar o‘zi?

– He, o‘qimagan, – dedi Mahmud, – nimasini tushunmaysan! Huv anavi tog‘larni-da! – U burilib kabobxonaning qalin oynalaridan ko‘rinib turgan olisdagi tumanli tog‘larni ko‘rsatdi. – Ana shu tog‘larning ortida muzlab yotgan qoyalar bor, o‘sha yerga chiqib... – birdan u jimib, qoshlarini uyganicha o‘ylanib qoldi. – E, meniyam chalkashtirib yubordilaring. Xullas, bilganim shuki, o‘sha tog‘dan qayernidir portlatib, o‘rnini ko‘l qiladilar. Ko‘lning atrofida restoranlar, mehmonxonalar quriladi.

– Hoy Mahmud do‘xtir, – dedi Moshu, – buvam, u yerda kattakon g‘or bor, ichida ajdohoga o‘xshagan bir maxluq yotadi, u yerdan hatto qush ham uchib o‘tolmaydi, der edilar, shundoq joyga bular qanday chiqa oladilar ekan?

– E, buning gapini qaranglar! – deya kuldi Mahmud. – Bu hukumatning sadag‘asi ketay, uning qadami yetmaydigan joy bor ekanmi?!

Shu payt kabobxona eshigi ochilib, ustida nimdosh shinel, boshida uniqib ketgan papoq, qo‘lida kattakon jomadon, Temir totor kirib keldi. Mahmud uni ko‘rishi bilan qiyqirib yubordi:

– Voy sening haligacha chiqmagan mo‘ylovlaringdan, Temir, bormisan o‘zi?! Qanday shamol uchirdi?

Temir totor jomadonini yerga qo‘ydi, papog‘ini boshidan olib, hamma bilan birma-bir qo‘l siqib ko‘rishdi. Kabobxonaning issiq va og‘ir havosida o‘tirgan ulfatlarga hozirgina tashqaridan kelgan Temir totorning kafti muzdek sovuq tuyuldi. Mahmud unga:

– Qani, mundoq o‘tir-chi! – dedi-da, Xalil amakiga qarab ko‘z qisdi. Xalil amaki o‘rnidan turib bufet tomon yurdi va birozdan

so‘ng bitta aroq, bir tovoq qovurdoq, har xil ko‘kat keltirib stolga qo‘ydi. Mahmud aroqni ochdi, stakanlarga quyib, o‘tirganlarga uzatdi, Xalil amaki “ichmayman” degan ma’noda bosh tebratdi va turib oshxona tomon ketdi.

– Temir, xush kelibsan, – dedi Mahmud va Moshuga ko‘z qisib, qoshini uchirdi. – Qani, otib yubor-chi!

Temir totor stakanni qo‘liga olib:

– Xayrli tong! – deya aroqni qult-qult qilib ichib yubordi, so‘ng barmoqlarini labiga bosib, lazzatlanganidan “voh-hey” deb yubordi va bir bo‘lak pishloq olib og‘ziga soldi: u madori qurigan kishilardek zo‘rg‘a kavshanar edi. Mahmud bir qo‘lidagi aroqqa, bir Temir totorning qiyiq ko‘zlariga tikildi, ko‘ngli behuzur bo‘lsada, lanjlanib o‘tirmay, stakanni bir ko‘tarishda bo‘shatib, bir bo‘lak yog‘liq qovurdoq olib og‘ziga soldi va ishtaha bilan, shosha-pisha chaynab yutdi. So‘ng Temir totorning jomadoniga boqdi.

– Aytmoqchi, Temir, sahari mardonlab chamadon ko‘tarib yurganing nimasi?

Temir o‘tli bir oh chekib yubordi:

– Sen bilan, Moshu bilan xayrlashgani keldim, Mahmud.

– I-ye! Nega xayrlashasan endi? – Mahmud taajjub bilan Moshuga, Moshu Mahmudga boqdi.

– Ketyapman, – dedi Temir totor. – Vatanga qaytishga qaror qildim.

Agar Mahmud hozir bu yerda, Xalil amakining kabobxonasida, maymunga til bitib, odamday gapira boshlabdi, degan xabarni eshitganida ham bu qadar hayratga tushmagan bo‘lur edi: go‘yo uning quloqlari ostida allanarsa portlagandek bo‘ldi, nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qoldi. Moshuning ham hayratdan ko‘zlari kosasidan chiqqudek bo‘lib, og‘zi lang ochilib qolgan edi.

– Xo‘sh, Tamaraning yoniga qaytyapsanmi?

– Ha...

– Hoy tentak, senga nima bo‘ldi o‘zi? Tomdan tarasha tushgandek...

Temir totor o‘ziga aroq suzdi, bir qultum ichib, stakanni stol ustiga qo‘ydi va:

– Kechasi tushimga Tamara kiribdi... – dedi va unig ko‘zlariga yosh to‘lib keldi. – Qazo qilgan bo‘lsa kerak.

Mahmudning jahli chiqdi, Moshu esa jilmayib, boshini chetga burdi.

– Tushga kirgan har bir kishi o'laverar ekan-da, hoy jinni! Buning gapini ko'ring!

– Yuk, o'lmagan bo'lsa, tushimga kirmasdi... Ko'nglim sezib turibdi.

Mahmud Temir totorning ko'zlariga tikildi. Temir totorning bu go'shalarga kelib, stansiya bufetida tekin ichgan vinolaridan hamisha qizarib yuradigan ma'nosiz ko'zlari endilikda go'dak ko'zlaridek musaffo, buloq suvidan ham tiniq edi. Mahmud oh chekdi, Temir totorni kuzatish taraddudiga tushib qolgan Moshuni ko'rib, ko'zlarini ola-kula qilganicha:

– U yerlarda tamom bo'lasan-ku, Temir, – dedi.

– Na iloj... – deb javob berdi Temir.

Mahmud tag'in o'ziga aroq quydi. Moshuning stakanini limmo-lim ko'rib, u o'z qadahini ichmagan edi, Temir totorning qadahiga quymoqchi bo'lgandi, Temir totor kafti bilan stakan og'zini bekitib:

– Menga bas endi, Mahmud, – dedi. – Mazam qochadi.

Bu ham shaytonga ishton tikkan dunyoning ajoyibotlaridan biri edi: Temir totor aroqni rad qilmoqda edi. Tavba, bu dunyo xarob bo'lyaptimi yo tuzala boshlayaptimi, a, sadag'ang ketay? Bu qandoq charxi davron bo'ldi o'zi?

Mahmud qadah so'zi boshladi:

– Temir, safaring bexatar bo'lsin, manzilingga omon-eson yetib borgin... Biz yetimlarni ham eslab tur. Mana, sen ham yetimsan, men ham, Moshu ham yetim. Mundoq axtarsang, bu dunyoda yetim bo'lmagan kishining o'zi yo'q. Hech kim o'z nasibasidan ortig'ini yeya olmaydi. Na iloj, ketmoqchi ekansan, oq yo'l. Ammo. attang, bizning qishloq Temirsiz qoladigan bo'ldi.

Moshu bir Temir totorga boqdi, bir Mahmudga, biroq hech narsaga tushunmadi: ularning ikkalasini ham zinhor bu ahvolda ko'rmagan edi.

Ikkalasining ham ko'ngli shu qadar to'lib kelgan ediki, bir himo bilan yig'lab yuborishlari hech gap emas edi.

Temir qadahni ko'tardi:

– Xudoyim keng fe'lingga qarab bersin, Mahmud. Xudoyim senga baxt ato etsin, Moshu!.. – So'ng u ortiga burilib, kabobxonaning eshigi tomonidagi biroz ter bosgan oynalardan uzoq-uzoqlarga tikildi. – Boshingizdan oppoq tumanlaringiz arimasin, ey tog'lar! – Shunday deya aroqni so'nggi tomchisigacha ichib, gazak qilmay o'rnidan turdi. – Yo'lovchiga yo'l avlo!

Mahmud ham, Moshu ham oyoqqa qalqdilar, bir-birlariga qarab, bir-birining fikrini uqib, ikkalasi ham qo'lini cho'ntagiga suqdi va har qaysisi ellik so'mdan chiqarib Temirning kissasiga tiqishdi. Temir minnatdorchilik bilan bosh silkadi. So'ng u quloqchinini boshiga bosib, sekin jomadonini ko'tardi va har uchalasi kabobxonadan tashqariga chiqishdi. Kuzning etni junjiktiruvchi salqin havosida, sap-sariq xazonlar to'kilib yotgan daraxtlar orasida qo'l siqishib xayrlashdilar.

– Seni kuzatib qo'yaylikmi, Temir? – deb so'radi Mahmud.

– Yuk, jigarim, yuk. Yolg'iz ketganim yaxshi, – dedi u va Moshuga yuzlandi. – Salotin singlim bilan xayrlashdim, borib Zulfiqor otaning qabrini ham ziyorat qildim... Ishqilib, yigitlar, o'tganlarning go'ri nurga to'lsin, qolganlar mingga kirsin!

U ketdi. Mahmud ham, Moshu ham uning ortidan uzoq tikilib qoldilar, nimdosh shinel kiyib olgan Temirning jomadon og'irligidan o'ng tomonga xiyol egilib borayotgan gavdasi qalin daraxtlar orasida ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyingina tag'in kabobxonaga qaytdilar. Mahmud stakanga aroq to'ldirib, bir ko'tarishda bo'shatdi, biroq bu gal gazak qilmadi. Oshxonadan qaytib chiqib, peshtaxta ortiga o'tib olgan Xalil amaki so'rab qoldi:

– Hoy, u piyonista yetim qani?

Moshu jilmaydi, Mahmud esa javob bermadi...

...Ular, har ikkisi ham yomg'irpo'shda, boshlari ochiq holda kabobxonadan chiqib, katta yo'lni yoqalab miting bo'ladigan joyga – qishloq sho'rosining binosi oldidagi bog' tomon ketayotganlarida yo'lda pochtada ishlaydigan Lyudaga duch keldilar. Lyuda Mahmudni ko'rib, to'xtadi.

– Maxmud, – dedi u. – Tebe tam srochnaya telegramma lejit.

Mahmud Lyudaning semizlikdan tirsillab turgan, yog' bosgan g'o'lasimon gavdasiga boqib dedi:

– Chyort s nim! Potom pridu.

Lyuda hech narsa demadi.

Qishloq sho‘rosi oldidagi boqqa yetib kelib, yo‘l ustida qator tizilib turgan, qip-qizil shiorlar osib tashlangan avtobuslarni, yuk mashinalarini ko‘rganlaridan va rang-barang kiyinib olgan olomonga qo‘shilib ketganlaridan so‘ng Mahmudning boyagi noxushligidan asar ham qolmadi. O‘ziga alohida oro berib, bayram libosi kiyib olgan olomondan go‘yo atir hidi anqirdi. Mahmud og‘zini kappa-kappa ochib, to‘yib-to‘yib nafas oldi, bir-ikki kishi bilan salomlashdi, hol-ahvol so‘rashib, bir-birlariga “bayramingiz muborak bo‘lsin” deyishdi. Bu go‘zal bog‘ning za’far yaproqli daraxtlari orasiga, baland bir joyga o‘rnatilgan, oldiga gilamlar osilgan minbardagi odamlarni ko‘rib Mahmud uzun hushtak chalib yubordi:

– Voy-bo‘-o‘, juda zo‘r-ku!

Minbarning o‘ng va so‘l tomonida – Mahmud birma-bir sanab chiqdi – o‘n to‘rt surnaychi va o‘n to‘rt oshiq saf tortib turardi. Mahmud qishloq sho‘rosida ishlaydigan, ozg‘in, yuzlari ich-ichiga botib ketgan, bo‘yniga molning boshini kesganda bo‘g‘zida laxtalanib qoladigan qonga o‘xshash to‘q qizil galstuk taqib olgan Vohidni qo‘li bilan imlab chaqirdi.

– Menga qara, bular nega chalmayapti? – Boshi bilan cholg‘uchilarga ishora qildi u.

Vohid qo‘l soatiga qaradi va dedi:

– Mitingdan keyin. Hozir alpinistlar toqqa chiqishyapti, bir soatdan so‘ng portlatish bo‘ladi. Kotib, tog‘ portlagan zahoti “G‘o‘ro‘g‘li jangi”ni chalasizlar, deb buyurgan.

– Xo‘sh, mabodo bombalar portlamay qolsa-chi?

Vohid jilmayib Mahmudning qulog‘iga shivirladi:

– Kallayi saharlab qayerdan otib olding, birpas shumligingni qo‘yib tursang-chi! – Vohid nari ketmoqchi bo‘lgan edi, Mahmud uning qo‘lidan tutib qoldi:

– Xudo haqqi, to‘xtab tur! – deya ko‘zlarini qisib minbar tomon boqdi. – Kotibning o‘ng tarafida turgan ayol Zubayda xonim emasmi?

– Ha, xuddi o‘zi.

– Voy bo‘-o‘, Moshu, Zubayda xonim kelibdi, o-o! – Mahmud Moshuning biqiniga tirsagi bilan har qancha turtsa-da, undan sado chiqmadi. – Bugun u ham qo‘shiq aytadimi?

– Unisini bilmayman, do‘stim, – dedi Vohid.

– Anavi turgan ikki kishi kim, shlapali?

– Obbo, tanimadingmi? Bittasi Muxtor Karimli-ku!

– I-ye, axir u o‘lmaganmi?

– Jinni bo‘lganmisan, nega o‘lar ekan?

– Xo‘sh, narigisi-chi?

– Salohov Odil Qambarovich!

– Moshu! – Mahmud Moshuni qo‘ltiqlab oldi. – Bu Zulfiqor buvam aytgan o‘sha Salohov bo‘ladi, hu o‘sha polnomochniy. Voy bo‘-o‘, gavdasiga qara uning! Yangi kotibga ofarin, qara, qanday zo‘r mehmonlarni chaqirib kelibdi, tag‘in Bokuday joydan-a!..

Nihoyat, Vohid Mahmudning qo‘lidan amallab qutuldi. Shu payt kotib mikrofonga yaqin kelib, “o‘rtoqlar!” dedi, dinamiklar bu ovozni kuchaytirib, atrofdan aks sadolar yangrab ketgan bir daqiqada, tevarakdagi daraxtlar orasida o‘tirgan qarg‘alar qag‘illab yuborgan bir paytda nogoh Mahmudning qorniga xanjar sanchilgandek bo‘ldi: uning ko‘z oldi qorong‘ilashib, a’zoyi badanini sovuq ter bosdi, chapga egilib, butun og‘irligini Moshuning ustiga tashladi.

– Moshu, judayam mazam qochib qoldi...

Moshu Mahmudning bo‘zdek oqarib ketgan rang-ro‘yiga, xira tortib qolgan ko‘zlariga boqib, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– Nima bo‘ldi senga o‘zi, Mahmud do‘xtir?

– Meni bu yerdan olib ket, hech kim ko‘rmasin.

Moshu Mahmudning qo‘ltig‘iga kirdi, uni tiqilinchdan olib chiqib, chekkaroqqa, bir daraxt ostidagi sariq maysalar ustiga o‘tqazdi. Xaloyiq qarsak chaldi, qayerdandir izdihomning oldidan “ura!” sadolari eshtildi. Go‘yo Mahmudning qornidagi og‘riq xuddi shu “ura!” sadolari bilan bog‘liq kabi asta-sekin pasaya boshladi. Mahmudning rang-ro‘yi o‘ziga kelib, ko‘zlari oldidagi tuman g‘oyib bo‘ldi. U boshini ko‘tarib, o‘ziga qo‘rquv bilan tikilib turgan Moshuga qaradi.

– Bu qanday balo bo‘ldi?..

– Xudo haqqi, ko‘p ichma, Mahmud do‘xtir. – Moshu yig‘lab yuborgudek bir ahvolda edi.

– Ha, ukam, to‘g‘ri aytasan... – Mahmud Moshu yordamida oyoqqa qalqdi va og‘riq tag‘in tutib qolmasmikan, deya hadiksirab turdi.

Yo‘q, og‘riq takrorlanmadi. – Anavi tog‘ nari tursin, butun dunyoni portlatsalar ham, inim, endi men bu yerda qola olmayman. Sekin-sekin uyga ketaqolay!

– Seni kuzatib qo‘yaymi?

– Yo‘g‘-e! Ikki qadam-ku! Sen tomosha qilaver. Keyin gapirib berarsan menga.

...Mamlakatning aksar qishloqlarida bo‘lgani kabi, bu qishloqning ham bir jinnisi bor edi. G‘ulom Cho‘moq.[1]

Oti G‘ulom edi, laqabi – Cho‘moq. Qishin-yozin, erta-yu kech qo‘lida bo‘yi baravar bir so‘yil, qishloqning xilvat joylarida, o‘rmon-u dalalarda toq-tanho tentirab yurardi. Hech kim bilan ishi yo‘q edi. Undan gap olish ham har qanday mardning ishi emas edi. Qo‘qqisdan duch kelib qolganingda, harchand urinsang-da, harchand shirin so‘zlar bilan avramoqchi bo‘lsang-da, u zinhor og‘iz ochmas, na biror savolga javob berardi, na o‘zi biror narsa so‘rardi.

Bugun, ushbu g‘ala-g‘ovurda favqulodda kutilmagan hodisa ro‘y berdi. Qornini changallaganicha asta-sekin uyiga ketayotgan Mahmud xaloyiqning siyrak joyida G‘ulom Cho‘moqni ko‘rib qoldi. U avval ko‘zlariga ishonmadi. Diqqat bilan boqib, yuzlari cho‘zinchoq, qirraburun, bir ko‘ziga oq tushgan tanish basharani, tirsaklari yirtilgan eski qora kamzul va uzun so‘yilni ko‘rgandan so‘ng bu kimsa G‘ulom ekanligiga Mahmudning shubhasi qolmadi. Sevinib ketib, hazillashgan ko‘yi unga yaqinlashdi:

– I-ye, hoy G‘ulom, sening baydog‘ing qani axir?

G‘ulom Cho‘qmoq to‘xtadi, turgan yerida mixlanib, boshini quyi soldi: go‘yo bu ovoz uni dahshatga solgan edi.

– Hoy, odobing bormi o‘zi, odam odamga mundoq salom beradi, hol-ahvol so‘raydi... Xaloyiq to‘y-tantana qilyapti, shundoq kunlarda sal jilmayib yursang-chi, hoy uying kuymagur!

Shu payt birdan G‘ulom Cho‘moqning og‘zi ochildi, bunday keskin, asabiy ovozini Mahmud umrida eshitmagan edi:

– Bugun qatl kuni, Mahmud!

Mahmudning qoshlari tugildi.

– Nega endi qatl kuni bo‘lar ekan, hoy devona?

– Chunki Bobo Ko‘honi portlatadilar, Mahmud!

[1] **Cho‘moq** – kaltak, so‘yil (tarj.)

– Qayerni portlatsalar – jahannamga! Muning gapini qaranglar! O‘rnida ko‘l bo‘ladi, sen bilan men yozda borib cho‘milamiz. – Mahmud qah-qah urib kuldi.

G‘ulom hech nima demay, tag‘in boshini quyi soldi. Mahmud qo‘l siltaganicha undan uch-to‘rt qadam uzoqlashgan ham ediki, orqadan G‘ulom Cho‘moq aytgan g‘alati so‘zlarni eshitdi:

– Dard ham og‘riq kabi bir kelsa botmonlab keladi, singlim!

Mahmudni ilon chaqqandek, ichi uzilib tushgandek bo‘ldi. Yana boyagi og‘riq takrorlanib, go‘yo qorni, ichaklariga pichoq sanchildi. Qanday qilib uyiga yetib olgani yolg‘iz Tangriga ayon... Uyda borjom ochib ichishga ham majoli yetmadi, ingray-ingray zo‘rg‘a kamzulini yechdi, oyog‘idan poyabzalini chiqarib, kamarini bo‘shatdi va o‘zini karavotga tashladi. Yo Xudo, bu qanday og‘riq bo‘ldi ekan?..

U qancha yotganini bilmaydi. Ko‘zlarini ochganida uy go‘yo o‘t olib yonar, xonaning keng derazasidan nihoyatda yorqin oy shu’lalari oqib kirmoqda edi. Tashqarida kimdir uni chaqirdi. U o‘rnidan turib deraza yoniga bordi va tashqarida, oy shu’lalari ostida par-par yonayotgan tosh-kesaklarga boqar ekan, bir sharpaga ko‘zi tushdi. Sharpani taniy olmay, so‘radi:

– Kimsan, hoy birodar?

– Mahmud, bu menman.

U shaharda kasal yotgan qarindoshining ovozini tanidi. Boshini ko‘tarib ko‘kka boqdi: ko‘kda bitta ham yulduz yo‘q edi. U kattarib ketgan oydagi tog‘larni, daralarni aniq-tiniq ko‘rdi. Uning ichi muzlab qolgan edi, Mahmud bu balokash dunyoning bir oxirati ham bor ekanligini endi tushundi.

– Boryapman, dardingni olay, boryapman, – deya uydan chiqdi va qarindoshining Qoyategi degan joyda, quyida, Kurning butkul qurib qolgan o‘zanida, toshlarga, qoyalarga arqon kabi chirmashib yotgan o‘tlar, yo‘sinlar orasida turganini ko‘rdi. Quyiga, uning yoniga tushgach, so‘radi:

– Kurning suvlari qani, birodar?

– Suv qolibdimi endi, Mahmud!

Mahmud ilgari yurdi.

– O‘liming muborak, Mahmud.

– O‘lim barhaq, birodar.

– Ketdikmi?

– Ketdik.

Ular qo‘l ushlashib keta boshladilar. Ulardan oldinda oppoq sochlari yelkalariga yoyilib yotgan, uzun ko‘ylak kiyib olgan, tovonlari taram-taram yorilgan bir tarso qiz va bir qari bo‘ri borar edi.

– Senikilarmi? – so‘radi Mahmud.

– Ha, menikilar.

Mahmud qo‘llarini musht qilib, kaftiga tirnog‘ini botirib ko‘rdi, biroq hech qanday og‘riqni his etmagach, faryod chekib yubordi:

– Kuydim, kul bo‘ldim, ey tog‘lar!..

So‘ngra ular yuksak bir qoya ustida turgan to‘rt sharpani ko‘rdilar. Sahari mardonlab yo‘lga chiqqan bu to‘rt zabtkor – alpinist manzilga yetib borolmagan edi: ular yo‘lning yarmiga ham yetmaslaridanoq Bobo Ko‘honing qa’ridan yoprilib chiqqan qora tuman arqonga aylanib, to‘rtalasini ham bo‘g‘ib o‘ldirgan edi. To‘rtalasi ham baravariga so‘radi:

– Yo‘l bo‘lsin, og‘aynilar?

– Bobo Ko‘ho sari.

To‘rtalasi ham qoya ustidan qush kabi pastga uchib tushishdi.

– O‘limingiz muborak.

– O‘lim barhaq.

Kurning qurib qolgan o‘zanida toshlar oy shu’lasidan o‘t olib yonar, Bobo Ko‘ho sari odimlab borayotgan sharpalarning uzun yo‘liga kumush oy shu’lalari to‘shalib yotar edi.

* * *

Endi men hech kimning tushiga kirmayman. So‘nggi marta xotinimning tushiga kirdim, u ham yig‘ladi, men ham, u meni quchoqladi, men uni, u mening ko‘z yoshlarimni ichdi, men uning... Biroq xotinim ertalab uyg‘ongach, Salima xonimga qo‘ng‘iroq qilib, ko‘rgan tushini telefonda yig‘lay-yig‘lay aytib berdi. Ikkalasi va’dalashib, tush paytida uchrashdilar va Toza Pirga bordilar, u yerda mullaga besh so‘m berishgach, Salima xonim, bir duo o‘qib, bu yosh juvonning tushiga kirgan o‘likning xavf-xataridan uni xalos qiling dedi...

Endi men, hoy yaxshilar, bundan so‘ng hech bir kimsaning tushiga kirmayman! Ammo, ey mening sabrli o‘quvchim, falakning gardishi-da bu, shoyad tunning ro‘yosida rang-ro‘yi xazon kabi sarg‘aygan, ko‘zlari ich-ichiga botib ketgan, beli biroz egilgan bir bemorni yoxud boshida buxori papoq, egnida po‘stin, tabassumga moyil g‘ussali ko‘zlar sohibi bo‘lmish keksayibroq qolgan bir kishini ko‘rsang, unda behudaga bizdan gina qilma. Xudo haqqi, marhumlar faqat kori savob istaydilar.

Uyqungiz shirin bo‘lsin, tiriklar!

1981–1984-yillar

HIKOYALAR

220-XONA

Bu voqeani u qanday yuz bergan bo'lsa, shunday – o'zimdan hech narsa qo'shmay va hech narsa tushirib qoldirmay – boricha aytib bermoqchiman.

Moskva. Iyul oyining oxirlari.

Tor-tang xonam derazalari lang ochib qo'yilgan.

Ko'chadan ichkariga sarin yel yopriladi. Besh yil yashagan xonamni ilk bor ko'rayotgandek sinchiklab ko'zdan kechiraman.

Bu yerdagi barcha narsa – javon tokchalarida betartib qalashgan kitoblar, men yonida tunlarni bedor o'tkazgan qahvarang stol, oq nikeli to'kilib, qora tusga kirgan eski karavot – har bir jihoz, har bir buyum men uchun juda aziz!

Moskva. Iyul oyining oxirlari.

Bugun qo'limga diplom tegdi, qora muqovali diplom. Besh yillik talabalik hayotim ortda qoldi. Nahot ona Moskvada o'tgan shu besh yilni unuta olsam?! Hatto bir kunini ham-a!

Moskva. Iyul oyining oxirlari.

Kechki soat olti yarim. Shu topda juda shoshib turibman. Chunki ko'pdan buyon uchrashmagan do'stlarim oldiga ketyapman.

O'n beshta kam yettida pinjagimni kiyib, ko'chaga chiqdim...

Tramvay sakkiz qavatli tanish bino oldida to'xtaganida negadir yuragim gupillab urib ketdi. Hatto bir fursat tramvaydan tushishga ham taraddudlanib qoldim.

Binoga yaqinlashgan zahotim eshikka qoqilgan enli qora lavhaga ko'zim tushdi: "Talabalar yotoqxonasi".

Bir yil avval bu lavha yo'q edi. Do'stlarimni naq bir yil ko'rmabman.

Eshikni ochib, ichkariga kirdim.

Qari komendant cholga pasportimni uzatdim-da, o'zim kiradigan xona raqamini aytib, oltinchi qavatga ko'tarildim. Tepasiga "220" raqami yozilgan eshik oldida to'xtadim. Eshikni sekin itardim. Eshik g'iyqillab ochildi.

220-xonaga kirganim hamono ustiga aroq shishalari, konserva bankalari, qadahlar terib qo'yigan chog'roq stol ortida vilka-pichoqlarni artayotgan Elmarga ko'zim tushdi. Undan sal nariroqda, stolning bosh tarafida esa Islom qo'llarini to'lg'agancha, tor etakli yengsiz ko'ylak kiygan, siynalari yarim ochiq mallasoch qiz bilan suhbatlashib turardi.

– O'h-ho', qara, bizni kim yo'qlab keldi!.. Xush ko'rdik! Toza esdan chiqarib yubordingku! Axir, bunaqa emas-da! – Elmar shunday deya qo'lini sochiqqa artgancha, menga peshvoz yurdi va bag'riga qattiq bosib, ikki yuzimdan o'pdi. Bizdan sal narida qo'llarini cho'ntagiga tiqqancha Islom jilmayib turar, tez-tez kipriklarini pirpiratardi. Meni hamon quchib turgan Elmarning qo'llaridan arang chiqdim-da, Islomga peshvoz yurdim, qo'lini qattiq qisib, yuzidan o'pgani oldinga egildim. Islom niyatimni anglab, ortga tisarildi, kulgandi, tilla tishlari ko'rinib ketdi.

– Salom, salom! Qanday shamollar uchirdi? – dedi u va birdan jim bo'lib qoldi, so'ng bizga yaqinlashgan mallasoch qizning bilagidan tutib, go'yo maktabdosh do'stini emas, rasmiy shaxsni tanishtirayotgandek jiddiy qiyofada dedi:

– Nika, tanish. Bizning Ozarbayjondan, bo'lajak neftchi.

Nika qo'lini uzatgancha, ismini aytdi-da, mayin ovozda:

– O'zingizning ismingiz-chi? – deb so'radi va bilagidagi sumkachasidan dastro'mol chiqarib, manglay terini artdi.

Men ismimni aytdim. Nika boshqa so'z demay, jim qotdi. U Islomning yuziga boqib, negadir lablarini cho'pillatdi.

Islom qizning qo'lini kaftlari orasiga olib, u tarafga egildi-da, qulog'iga bir nima deb pichirladi. Qiz kuldi. Oraga bir necha soniyalik jimjitlik cho'kdi. So'ngra Islom qizning qo'lini qo'yib yuborib, stol ortida non kesayotgan Elmarni chaqirdi:

– Elmar, sen Nika bilan stolni bezat, biz biroz suhbatlashib olamiz.

Nika Elmar tomon yurdi.

Biz Islom bilan karavotga cho'kdik. Men unga sinchiklab razm soldim. Odam shunchalar ham semiradimi! Agar Islomni ko'chada ko'rsam, Xudo haqqi, tanimas edim. Hozir yonimda o'tirgan Islom o'sha men bilgan, biz "suyak xaltasi" deb hazillashadigan Islom emas edi!

U o‘tirgan joyida ilkis tipirchiladi, so‘ng “Yomon qizidi-ku”, deya o‘rnidan sapchib turdi. Pinjagini yechdi. Islomning biqqi tanasi shuni kutib turgandek, darrov ko‘kragi, qorni, biqinidan xiyla go‘sht ko‘pchib chiqdi – Islom yum-yumaloq allanimaga evrildi.

Mening kulgim qistadi, u nega kulganimni anglab, bosh chayqagancha:

– Bilaman, bilaman. Juda semizman. Lekin nima qilay? Nafsimni tiya olmayman. Bog dast, yozda ozaman, – dedi va yana yonimga cho‘kdi.

U hol-ahvolim qanaqaligi, o‘qishim qanday ketayotgani, onamning sog‘-salomatligini so‘radi. Institutni bitirdim, degandim, ko‘zlari katta-katta ochilib, o‘rnidan turib ketdi:

– Aldayotgan bo‘lma tag‘in?

– Nega alday, mana diplom.

Cho‘ntagimdan diplomni chiqarib, unga uzatdim. Elmar bilan Nika ham yaqin kelishdi. Uchalasi galma-gal diplomni qo‘lga olib, o‘qib chiqishdi, so‘ng bir-biriga boqishdi. Elmar lablarini qimtib, ma’nodor bosh irg‘adi-da, qo‘limni siqib:

– Tabriklayman, ming bor tabriklayman, – dedi, so‘ng stolning bosh tarafiga o‘tib, hammamizni o‘tirishga taklif qildi. Elmar qadahlarni to‘ldirdi.

– Bolalar, keling, shu qadahni do‘stimizning sog‘lig‘iga ko‘taraylik! Shunday kun kelsinki, aspiranturani ham tugatib, fan nomzodi bo‘lsin. Ura!

Mening sog‘lig‘im uchun ichishdi. Elmar chaqqonlik bilan likopchalarga sho‘r bodring qo‘ydi.

– Endi har kim o‘z-o‘ziga xizmat qilsin. Menda ortiq kuchmador qolmadi, – dedi u va yana qadahlarni to‘ldirdi. Birga-birga ichishdik. So‘ng Elmarning birdan kayfi oshdi, tili tutilib, kekirishga tushdi.

Islom sho‘r bodringdan tishlagancha, Elmarni savolga tutdi:

– Voy-bo‘y, nega ko‘zlaring buncha qizarib ketdi?

Elmar ko‘z qisgancha, yelkalari silkinib-silkinib kuldi.

– Mayliga ko‘zlarim aroqdan qizarsa!

Hammamiz kulishdik. So‘ng uchovlon – Islom, Elmar va Nika suhbat boshlashdi...

...Men esa o‘rta maktabda o‘qib yurgan yillarimizni esladim. Uchovimiz men o‘ninchi, Islom bilan Elmar to‘qqizinchi sinfda o‘qiyotganda do‘stlashgan edik. O‘shanda Islom havaskorlik to‘garagida tor chalar, Elmar esa qo‘shiq aytardi. Maktabda birorta ham konsert shu ikkovisiz o‘tmasdi.

Uchovlon ko‘p vaqtimizni kutubxonalarda o‘tkazardik. Haftada bir-ikki marta kino yoki teatrga tushardik. Islom maktabni tugatgach tarixchi, Elmar esa adabiyotchi bo‘laman, derdi. Men o‘sha paytdan, hatto undan-da avval – hali bolalikdan neftchilikka qiziqardim. Dengizdagi neft quduqlarida ishlab, yuz-qo‘lim qoramoyga belanib uyga qaytish eng katta orzuyim edi.

Oylar o‘tdi. O‘rta maktabni tugatib, Moskvaga yo‘l oldim. Neft institutiga o‘qishga kirdim. Bir yildan so‘ng Moskvada Islom bilan Elmarni qarshi oldim. Ikkovi ham Moskva universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirdi.

So‘ng bir-birini quvalab talabalik yillari o‘tdi, birga yotdik, birga turdik, uchovlon bir sigaretni bo‘lib chekdik, sahargacha birga imtihonlarga tayyorlandik. Har gal stipendiya oldik deguncha, bir joyga yig‘ilib, ziyofat boshlar, do‘stlarni jamlab, tongotargacha kayf-u safo qilardik. Oramizda mayda-chuyda ginalar ham bo‘lib turardi-yu, lekin yarim soatdan keyin yana o‘pishib, yarashib ketaverardik. Shu yillarda Islomning tori bir kun ham tinmadi, goh kuldi, goh yig‘ladi, birda segoh, birda shikasta chaldi, yuragimizni yumshatib, ko‘zimizni yoshlatdi va har safar bizga Bokuni eslatdi.

Bunday kunlarimiz ko‘p bo‘ldi. Lekin bir kun to‘satdan oramizga sovuqchilik tushdi, Islom bilan qattiq aytishib qoldik, u meni haqorat qildi, men uni.

Voqea bunday bo‘lgan edi.

O‘sha kuni yana Islomning oldiga – 220-xonaga keldim. Qish edi. Xona issiqligidan yurak behalovat bo‘lardi. Paltomni yechganim hamono Islomdan “torini ting‘illatishi”ni so‘radim. Avvaliga u bahona qidirdi, hozir chalolmayman, kayfiyatim yo‘q, dedi. Men so‘zimda turib oldim, hazillashib: “Oliftalik qilma”, dedim. U esa jahl bilan qichqirdi:

– Topib olganing shu tor, aftidan, dunyo meniki, deb o‘ylaysan. Torning, kamonchaning davri allaqachon o‘tgan.

Rosti, bu gapdan kulgim qistadi. Islomning bo‘ynidan quchib, uni savolga tutdim:

– Miyangga bu gap qayerdan keldi, Islom? Nega torning, kamonchaning vaqti o‘tar ekan?

– Hech qayerdan kelgani yo‘q! O‘z aqlimdan chiqdi, tushundingmi? – deya u meni qo‘rslik bilan turtib, karavotga cho‘zildi.

Bu gal chidolmadim, portladim. Aftidan, unga “ahmoqsan”, dedim. U esa menga “ablahsan”, dedi. Boshqa bir so‘z demay, paltomni kiydim-da, xonadan chiqdim.

O‘shandan beri har hafta ularga qo‘ng‘iroq qilib, bir-ikki og‘iz so‘z bilan hol-ahvol so‘rab turdim. Shugina, xolos.

So‘ngra mavridi yetib, institutni tugatdim. Shu orada bir yil do‘stlarimni ko‘rmadim. Chunki oramizga sovuqchilik tushgan edi. Qolaversa, ishim ham boshdan oshib yotardi. Goh imtihonlarga hozirlandim, goh diplom yozdim...

...Nihoyat, mana, do‘stlarim yonidaman. Islom semirib, Elmar oriqlabdi. Ikkovi ham Nikaning qo‘lidan tutgancha, bir-biriga gal bermay, bir nimalar deyar, qahqah otib kulishardi.

Islom menga o‘girildi-da, baqbaqasidan terni artib, kulgidan yuzlari bo‘g‘riqqancha so‘radi:

– Yo‘llanmani qayerga olding? – U shunday deb o‘rnidan turdi-yu, xonaning u boshiga qarab yurdi, devordagi toshoynaga o‘zini soldi va savolini yana qaytardi.

Men o‘rnimdan turib, Islomning oldiga keldim.

– Qayerga bo‘lardi? Bokuga-da.

– Qayerga? Bokuga? – Islom taajjubga tushgancha, Elmarga o‘girilib qichqirdi. – Hoy, eshitdingmi? Ishlagani Bokuga ketar emish.

Suhbatga sho‘ng‘ib ketgan Elmar Nikaga “kechirasan” dedi-da, bir dam bizga yuzlanib:

– Qayerga? O‘sha xarobaga-ya? – dedi ajablanib.

Men Elmarga javob bermoqchi edim. Islom so‘zimni og‘zimda qoldirdi:

– Hoy yigit, Bokuda nima bor? Esing joyidami o‘zi? Bokuga qaytsang, yana musulmonchilik ichiga, madaniyatsizlar orasiga tushib qolasan. Guldek Moskvani, restoranlar, jononlarni tashlab qayerga ketasan?

Bir so‘z deya olmadim. Elmarning “xaroba” degani ham, Islomning so‘nggi so‘zlari ham negadir o‘sha tor voqeasini yodimga soldi. Shu ikki voqeani o‘zaro bog‘lab turgan ma’no vujudimni titratdi.

– I-ya, Islom, Boku senga non berdi-ya. Bunday dema, – deya fikrimni ifodalashga munosibroq so‘z qidira boshladim-u, ammo gapimni oxiriga yetkaza olmadim. Shu payt yana Nika yonimizda paydo bo‘ldi-yu, Islomning pinjiga kirib, boyagidek lablarini cho‘pillatdi. So‘ng Islomdan so‘radi:

– Nima gap? Agar sir bo‘lmasa, biz ham eshitaylik...

Islom kuldi, kaftlarini bir-biriga urgancha, hirqiroq ovozda qizga tushuntira ketdi:

– Nika, buning nima deyayotganiga qara. Bokuga ketar emish ishlagani.

– Ah-ha, demak, patriot... Agar ixtiyor menda bo‘lsa, shu “patriot” so‘zini tilimizdan butunlay chiqarib tashlardim. O‘sha Kavkazingizdan, jonim, nima topgansiz o‘zi? Sizning Kavkaz xalqi, bizning Tambov mujiklari... Fu!.. – Nika shunday deya oh urdi va so‘zlari tasdig‘ini kutib, Islomga termuldi.

Islom ham:

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – dedi uning so‘zlarini ma’qullab. Biroq o‘zini juda sovuqqon tutdi.

Ko‘ksimda alangalangan g‘azab go‘yo til va lablarimni quritib, tanamni iskanjadek siqar edi. Negadir Islomni oyoqlarim ostiga olib ezg‘ilagim keldi. Biroq o‘zimni tutdim.

– Islom, – dedim unga, – sen erta-kech tor chalar, shikasta aytarding. Nizomiyning, Fuzuliyning, Sobirning oti tilingdan tushmasdi. Ozarbayjondan, Bakudan so‘z ochilsa, ko‘zlaringga yosh qalqardi, “Qurbon bo‘lay Vatanimga”, derding. Endi-chi? Nima bo‘ldi senga?!

Islom meni miq etmay tingladi, takabburona bosh chayqab, istehzoli kulimsirab turdi. Men jimib qolganimni ko‘rib, Nikadan nari ketdi-da, bir u yoqqa, bir bu yoqqa yurdi, so‘ng to‘xtab:

– Hm... Nizomiy, Fuzuliy... – dedi. – Hamma aytgan gaping to‘g‘ri. Rost, men Nizomiy, Fuzuliy, Sobirdan zavq olardim, ularni yarim kechagacha o‘qib chiqardim. Ha, tor ham chalar, shikasta

ham aytardim. Anavi tor hech qo'limdan tushmasdi. – U shunday deb daf'atan to'xtadi-da, devorga osilgan oq sadaf torni ko'rsatdi. Boya torga ko'zim tushmagan ekan, endi unga diqqat qildim. Torning sadafi qoraygan, ustini chang bosgandi. Demak, Islom torni qo'lga olmay qo'ygan, barmoqlari ham simlarga tegmagan. – To'g'ri, hamma aytgan gaping to'g'ri, deya davom etadi u. Biroq u vaqtlar o'tib ketdi. O'sha Nizomiy, o'sha tor, o'sha kamoncha, o'sha segoh-u zobullar endi na senga kerak va na menga.

Dunyo ko'zimga qorong'i ko'rinib ketdi. Bu nima deyapti o'zi? Nima bo'lgan Islomga? Kim uni shu ko'yga soldi? Moskvami, Moskvada olgan ta'limimi? Yo'q! Yo'q! Moskvada yuzlarcha ozarbayjonlik o'qiydi, lekin hech qaysisi bunday degani, o'z xalqi, o'z madaniyatidan yuz o'girgani yo'q!..

Nika qadahlarni birma-bir bo'shatib, allaqachon shirakayf bo'lib qolgan Elmarning yonida to'xtadi. Uning ovozi qulog'imga kirdi:

– Elmar, uxlagim kelyapti.

– Ni-ma... Ux-lagim kelyap-ti?.. – duduqlandi Elmar. – Uxlasang, o'z xohishing, lekin, qo'rqamanki, ering yana seni bu yerdan topsa... Xonamizga o't qo'yadi...

Islom miq etmay qolganimni ko'rib kuldi-da, o'zicha tasalli bergan bo'lib:

– Mendan xafa bo'lma... – dedi. – Sen hali ko'p narsani tushunmaysan. Bu asrni yigirmanchi asr deb qo'yishibdi. Bu – o'zgacha asr, azizim. Biz – yangi yoshlar maydonga chiqdik. Bizni qanday atashsa, atayverishsin. Ammo biz bormiz. To'g'ri, biz ozchilikmiz, ammo bormiz, hayotmiz... Bizga inson erki, hur fikrini bo'g'uvchi milliy tuyg'u, oila, har xil odat-an'analar butkul yot. Biz faqat yashash, lazzatlanish, bu dunyodan nima mumkin bo'lsa, barini yulib olishni xohlaymiz... Yigirmanchi asr – saksofon, truba, trombon asri. Biz lirikadan, insonni so'qir etuvchi romantik xayol, sof muhabbatga o'xshash yot hissiyotlardan uzoqmiz. Inson faqat bir marta yashaydi... Shuning uchun biz tuyg'ularni jilovlaymiz, boya aytganimdek, hayotdan nima mumkin bo'lsa, barini yulib olamiz... Sen, albatta, ichingda bizning ustimizdan kulasan. Bunga haqqing bor. Chunki sen hayotni boshqacha tushunasan. Yolg'iz sen emas, senga o'xshash millionlarning bizni ko'rarga ko'zi yo'q. Hamma

bizni o'zicha stilyaga deydi, har yerda haqorat qiladi, hatto yuzimizga tupuradi. Lekin biz mag'lub bo'lmaymiz, yashashda davom etamiz... Tushunarlimi?

Islom jimib qoldi. Soatiga boqib, kerishdi:

– O'h-ho', soat o'n ikki bo'libdi-ku!

Bu bilan u, endi ket, demoqda edi.

Tizzalarim qaltirab, ko'zlarim yoshlandi.

– Islom, axir, Ozarbayjon...

Islom dag'allik bilan gapimni bo'lib qichqirdi:

– Hoy, noinsof, nima topgansan o'zi Ozarbayjondan! Jahannamga qulasin o'sha Ozarbayjoning! Ertalabdan beri to'tiqushdek Ozarbayjon, tor, kamoncha, deb sayraysan!

Narigi yoqdan Elmarning hirqiroq ovozi eshitildi:

– Ey o'rtoq, qanaqa tor... Saksofondan gapirsang-chi!

Men yana hech nima deyaolmadim. To'qqiz oy qornida ko'tarib, ikki yil ko'krak suti bergan, beshik ustida alla aytib, ulg'aytirgach duolar qilgan onasiga oq bo'lgan o'g'ilga nima ham deyish mumkin?!

Men o'zimni eshikka otdim, ovozim g'azabdan titrardi:

– Tuf sizning yuzingizga! – Shunday deya eshikni taraqlatib yopdim. Yo'lakda ortimdan Elmarning qichqirgani eshitildi:

– Ozarbayjonga bizdan salom ayt!

Pasportimni qaytarib olayotganimda, komendant chol yuzimga diqqat bilan qaragancha so'radi:

– Xonada hech kim qolmadimi? Axir, kech bo'ldi, yotish kerak.

Es-hushim o'zimda emas edi. Bechora cholga baqirib berdim:

– Yo'q, qoldi! Bitta fohisha qoldi, yana fohishadan battar ikki qo'shmachi...

* * *

Ko'chaga chiqdim. Zim-ziyo tun edi. Miyamdagi qattiq shovqindan boshim naq yorilay derdi. Shirakayf Elmarning so'nggi so'zlari hamon quloqlarim ostida jaranglardi:

– Ozarbayjonga bizdan salom ayt!

Nima? Sizdan salom aytaymi! Ozarbayjonga-ya?! Yo'q, yo'q! Aksincha, men siz bilan oshno bo'lganim uchun Ozarbayjondan uzr so'rayman.

Erta-yu kech boshini tuman qoplagan tog'larimizdan uzr so'rayman!

Ali Asqarning, Xasta Qosimning, Abbosning o'tli sozidan uzr so'rayman!

Yoshligida beshik uzra alla aytib, qariganda xayri duolar qilgan onalarning oppoq sochlaridan uzr so'rayman!

Nihoyat, vijdonimdan, ona Ozarbayjon tuprog'idan uzr so'rayman!

Keyin...

Keyin esa Bokuda, Ozarbayjonning har bir shahar, har bir qishlog'ida har bir yo'lovchini to'xtatib, unga shu so'zlarni takrorlayman:

– Albatta ularni qidirib toping! Ular 220-xonada yashaydi! Qo'rqmay yuzlariga tupuring!

GALAKTIKA

Astrofiziklarning Qrimda o'tkazilgan ilmiy anjumanidan qaytgach, o'sha oqshom ilk daf'a ko'chaga chiqdim.

Siyrak tumanga o'xshash yengil havo pardasi shaharga yoqimli bir tus bergan, ulkan binolar yorishib turardi. Bir necha daqiqa ichida ahvol o'zgardi, yaqin va olis o'rtasidagi masofa yiroqlashdi. Unda-bunda yona boshlagan chiroqlar hali quyoshning so'nib ulgurmagan shu'larida shu qadar ma'yus nur sochardiki, ularga qarab yuraging uvishib ketardi: yorug'lik bilan zulmat shahar ustiga bir vaqtning o'zida quyilayotganga o'xshardi.

Boku qattiq uyquda tush ko'rib yotgan kabi...

Biror soatcha oldin Sudoba xonim qo'ng'iroq qilib Karimning mazasi qochganini aytmaganda, bu oqshom uydan chiqmagan bo'lardim.

Karim... so'nggi oylarda kasali tez-tez xuruj qilyapti. Darvoqe, uning yuragi xasta. Na do'xtir, na dori-darmonning nafi bo'lyapti. Davolovchi professor bilan oxirgi marta gaplashganimga ham ikki oycha bo'ldi. O'shanda u savolimga: "Qarichilik", deya g'alati javob qilgandi. Do'xtirlar, odatda, noiloj qolganida shu so'zga

yopishvolib, hazil aralash qutulib qo'yaqoladilar. Birgina so'z... hukm misol yangraydi. Shu gap endi, tayyor tur, kut, bir kuni... degani-da. E, nima bo'lsa-bo'lar! Bu na mening, na oynak taqqan professorning xohish-irodamizga bog'liq. Holingizga voy, Karim muallim!

...Eshikni Sudoba xonim ochdi.

– Tezroq bo'ling! Tezroq! – dedi u. – Achchig'lanib o'tiribdi. Qachondan beri sizni kutadi.

Men yomg'irpo'shimni yechib, o'tgan yili Sudoba xonim Marokashdan olib kelgan kiyimilgichning qayrilma shoxlaridan biriga ildim. Xonim kabinet eshigini iltifotsizlik bilan itardi.

Karim boshining ostiga ikki yostiqni qo'yib, divanda cho'zilib yotardi. Ovozlarni eshitib, ko'ziņi ochdi. Meni ko'rishi bilan avval qo'lidagi soatga qaradi, keyin kulimsirab, turmoqchi bo'lgandek tirsagiga tiraldi. Illo, Sudoba xonim shunday qaradiki, qo'zg'algan joyida qoldi.

– Professor, odam ham odamni shuncha kuttiradimi? Yo Xudo, insof-pinsof yo'q senda.

– Ma'zur tut, Karim, ishim bor edi.

– Ha, mayli, kel, o'tir. Qo'rqma, boshqa gapirmayman.

Men kursilardan birini tortib, Karimning yoniga o'tirdim.

– Choyga qalaysiz, bo'z bola?

– Bir bordoqqa yo'q demayman, murabbo bilan bo'lsa, yanayam yaxshi.

– Eski kasaling-ku bu. Bir bordoq deb o'n bordoq ichasan. – Karim shunday deya boshini burib xotiniga qaradi va: – Sudoba, bizga tezgina achchiq choy damla, yonida qizilcha murabbosi ham bo'lsin, – dedi.

Sudoba xonim kunjakda turgan usti dog'-dug' pastak stolcha chetidan kitoblarni olib, deraza rafiga qo'ydi, stolchaning o'zini esa parket polda sudragancha, yonimizga keltirdi-yu, xonadan chiqdi. Choy kelguncha ikkimiz ham indamay o'tirdik.

Karimlarnikiga kelsam, har safar ilk onlarda o'zimni juda noqulay his etaman. Bu uyning har nuqtasidan ufurib turgan saranjom-sarishtalik va hashamat ko'zlarimni qamashtiradi. Har gal Karimlarnikiga emas, teatrga kelgandek bo'laveraman; jamiyatda urf

bo‘lgan intizomni buzib, nimdosh kiyimda kelganim, kechikkanim uchun hamma menga qo‘lini bigiz qilib: “Bu qanaqa madaniyatsiz o‘zi!” deyayotgandek tuyulaveradi.

Aftidan, buni Karim ham sezar, nuqul boshini osiltirib o‘tirar, gaplarimni eshitmas, o‘zi ham miq etmasdi; menga noqulay bo‘layotganini sezib qolishi hamono esa, darhol jimlikni buzib, undan-bundan gapira ketardi. Aksaran u yozuv stolining yonida, katta qizil radiopriyomnikka taqalgan qafas ichidagi bulbullari bilan so‘zlashib o‘tirar, bir necha marotaba menga hazil aralash aytgandiki, uning mazasi qochsa, bulbullar ham qorayib ketar, kun bo‘yi sas chiqarmas ekan. Chindan ham, bulbullar shift markaziga osilgan ko‘k qalpoqli chiroq shu’lalarida rangi o‘zgargandek, moviy paxmoq bilan qoplangandek ko‘rinar, qilt etmay turishardi. Ayni vaqtda bu jajji qushlarning turishida allanechuk g‘ayrioddiy va yuqumli hazinlik bor edi. Men Karimning uyda bulbul boqishini hech-hech ma’qullamaganman. Nimaga kerak shu ish o‘zi? Allohimning til-zabonsiz bir yaratig‘i nega endi nurga zor bo‘lib, panjara ichida chirib-bitishi kerak?... Lekin bu haqda Karimning o‘ziga og‘iz juftlab bir nima demaganman.

Sudoba xonim choy olib kirdi. Billur bordoqlar-u kumush qoshiqchalarni stol ustiga terib, qizilcha murabbosini o‘rtaga qo‘ydi.

Obi-tobida damlangan xushbo‘y choydan bir-ikki qultum ichishim bilan yengil tortib, o‘zimga keldim. Uyimda bo‘lsa o‘tirgan yerimdan qo‘zg‘alib, choy damlashga hafsalam kelmaydi...

Birozdan keyin bo‘shagan bordoqni likopchaga qo‘ydim va “Ajoyib!” dedim. Sudoba xonim yana choy quydi. Karim bo‘lsa “ikkinchisi” deya sanay boshladi.

– Sana, sanayver, – dedim. – Qancha sanasang, shuncha ichaman.

Karim xaxolab kuldi.

– Ichaver, professor, – dedi. – Kuning tug‘di, ichib qol.

Karimning bu hazilida jon bor, bunday kunlar mening hayotimda ko‘p bo‘lgan emas. Lekin uning o‘zi ham dengiz sathidan uch ming sakkiz yuz metr balandlikdagi rasadxonaning sovuq devorlari orasida, tashqarida uvlagan izg‘irin sabab termos ichida ham ikki

soatda muzga aylangan zahar-zaqqum choydan bir ho‘plam ichgan emas umrida...

Sudoba xonim biz bilan uzoq o‘tirmadi.

– Biron nima kerak bo‘lib qolsa chaqirarsizlar, – deya xonadan chiqdi.

Karim choyini oxirigacha ichmadi. Yarimlagan bordoqni stol ustiga qo‘ydi. Qo‘lini idish dastagidan olar ekan, uning qonsiz uzun barmoqlari titrayotganini ko‘rdim. Buni o‘zi ham sezdi-yu, qo‘lini musht qilib, ko‘kragiga bosdi. Ko‘zlarini yumdi, birpas turib nigohlarini menga qadadi.

– Professor, bilasanmi, bugun nimani esladim.

– Yo‘q, bilmayman.

– Esingdami, o‘ttiz yil oldin sen bilan g‘aroyib bir suhbat qilgan edik.

– O‘ttiz yil?! – Men kuldim, chunki “o‘ttiz yil” degan so‘zni Karim “kechagina...” degan bir ohangda aytdi.

– Qanaqa suhbat? – dedim.

– Yulduzlar haqida... sen o‘shanda, shunday yulduzlar borki, ular materiyaning harakat qonunlarini buzib, xohlagan paytida bir galaktikadan ikkinchisiga o‘tadi, degan eding. To‘g‘rimi?

– Ha, shunday bo‘lsa kerak... taxminan...

– Taxminanmi, shunga yaqinroqmi... Buning ahamiyati yo‘q. Fazo – sening sohang. Men bunaqa ishlardan ancha uzoqman. Qani ayt-chi, endi esladingmi?

O‘ttiz yil oldingi suhbatni xotirga keltirishning o‘zi bo‘ladimi? Faqat shunisi yodimda: bundan o‘ttiz yil avval Karim ham, men ham yelkamizga miltiq osib yurar, kunimiz tog‘-u toshlarda, o‘rmonlarda o‘tardi. Banditlarga qarshi kurashardik... To‘g‘ri, o‘sha mahallarda men kosmos bilan qiziqar, bir gal komsomol tashkilotida shu mavzuda ma’ruza ham qilgandim. Ma’ruzaga rayondagi jami yosh-yalang oqib kelgandi. O‘shandan keyin Karim meni hazillashib “professor” deydigan bo‘ldi-yu, shu-shu qo‘yilgan nom qo‘yilganicha qoldi. O‘ttiz yil...

– E professor, esladingmi o‘zi? Yo yodingga tushmadimi? – dedi Karim sabrsizlik bilan.

– Karim, to‘g‘risi, eslolmayapman, jo‘ra.

– Xayoling joyidami o‘zi, yo menga ishonmayapsanmi? E, bo‘ldi-da, nimaga men eslayman-u, sen eslamaysan? A?

– Bilmayman, nimaga xotiramga kelmayapti, vallohu a’lam... bir gal rayondagi yoshlarga ma’ruza o‘qigandim. O‘shani aytyapsanmi yo?

– Yo‘-o‘q... lekin o‘sha chiqishingni yaxshi eslayman. Hatto oxirgi so‘zlaring ham shundoq yodimda. “O‘rtoqlar, kun keladiki, jahon inqilobi g‘alabasidan keyin biz Marsda ham, Venerada ham sovet hokimiyatini o‘rnatajakmiz... Yashasin proletar inqilobi!” Qarsillatib qarsaklar chalingandi. Quloqlar qomatga kelgandi. Lekin men o‘zimni tutolmay, dumalab kulgandim. Negaki, necha daf’a eshitganmanki, na Marsda hayot bo‘lishi mumkin, na Venerada. Sen bo‘lsang, jamoatni osmonning yettinchi qabatida sovet hokimiyatini o‘rnatishga chaqirib o‘tiribsan. Eh, sen professor!

Ochig‘i, biroz jahlim chiqdi:

– Karim, rostdan shunday dedimmi?

– O‘l-a, ha-da!

Karim xirgoyi qila ketdi, men ham unga jo‘r bo‘ldim.

Birozdan so‘ng:

– Karim, nima desang deyaver, lekin o‘sha davrlar davr edi, – dedim.

Karimning qoshlari chimirildi. Lablari hanuz tabassum qilarkan, birdan g‘amgin tortgan ko‘zlaridagi yolqin so‘ndi.

– Rost aytasan, professor, rost aytasan... – Karim oh chekkandek bo‘ldi. – Qanday kunlar edi! O‘zimcha o‘ylayman: o‘sha kunlar xotirasini xayolimdan olib qo‘ysalar, bir soat ham yashay olmasman...

“Kim ham yashay olardi?” deb o‘yladim. Qonli kunlar... bir parcha non, issiq ko‘rpa orzu bo‘lgan kunlar, ot ustida kechgan uyqusiz tunlar... qishda yoshu qari bir kulbaga tiqilib, “Derazada tosh uchar, oh, buna boq, buna boq”, deya ashula ayta-ayta, kula-kula, birovining buvisi, birovining onasi sandig‘idan o‘marib kelingan qizil matoga ohak bilan shior yozganlarimiz, ota-bobolardan qolgan ov miltig‘i bilan to‘qay qolmay, tog‘-u tosh qolmay tit-pitini chiqarganlarimiz, yaxshi-yomon kunda birga bo‘lgan do‘stlarni bir-bir qora tuproqqa topshirganda, otashin nutqlar irod qitlganlarimiz-u,

ketidan birov ko'rib qolmasin deya xilvatda pinhona yig'laganlarimiz... bularni unutib bo'larmidi?!

– Professor, nega jimib qolding? – Karim choybordoqni qo'liga oldi, bir qultum ichib yana stol ustiga qo'ydi. – Nimaga gapirmaysan?

– Hech... o'ylayapman.

– O'ylar, o'ylar... men ham o'ylayman, butun kunni o'ylash bilan o'tkazaman, lekin javob yo'q...

– Nimaning javobini topolmaysan, Karim?

– Sen aytgan huv o'sha – bir galaktikaga sig'may, adashgan va nimanidir axtarib yurgan yulduzlaringni.

– Yana tushunarsiz gaplar, nimalar deyapsan?..

– Tushunarsiz emas, mavhum. Chunki galaktika haqida aniq gapirib bo'lmaydi...

Karim jilmaydi. Uning bevaqt ajin tushgan chehrasida g'amgin va sovuq tabassum zohir bo'ldi. Nechundir Boku oqshomlari xotiramga keldi. Bu uzoq yillik do'stimning uyida yana siqila boshladim...

Karim hali oltmishga ham kirgani yo'g'-u, lekin qarib ketgan. Chamasi, hayot uni bukib-sindirib tashladi. Gap duv oqarib ketgan sochlari, ajin bosgan yuzida ham emas. U nihoyatda horigan, orqaga qaytib, o'zini hayot bag'riga otmoqqa kuch-quvvati qolmagandi. Karimga o'xshagan odamlar hech qachon depsinmaydilar, hamisha mag'rur odim otadilar. Lekin daf'atan yiqiladilar-u, qaytib qad rostlayolmaydilar. Mening esa Karim yiqilganiga ishongim kelmasdi. Yanayam to'g'rirog'i, ishonmaslikni xohlardim. Bu shunday bir holat ediki, sababi menga oxirigacha ayon emasdi. O'zidan so'rashga esa qo'rqaman. Chunki yuragini ochib, hammasini aytib bersa, uni abadiyga yo'qotaman...

– Professor!

– Hov!

– Nega choy ichmayapsan?

– Yetarli bo'ldi. Ko'p ichsam, kechasi uxlayolmayman.

– Qarichilik.

– Shunday.

Jimlik...

– Professor!

– Nima deysan?

– Qiziq, qishloqda eski jo‘ralarimizdan qolganmikan?

– Albatta-da.

– Ular zerikmasalar kerag-a?...

– Sen zerikasanmi?

– Yo‘q... Nimaga zerikaman?

Yana jimlik...

– Professor!

– Hov!

– O‘sha sen aytgan yulduzlar nimaga bitta galaktikada qolmaydilar?

– Buning sababi hozircha fanga ma’lum emas.

– Ulardan birortasi galaktikaning tortish kuchini yengolmay, qolib ketishi ham mumkinmi?

– Mumkin. Lekin judayam kamdan-kam hollarda. Milyard yilda bir marta.

– Kamdan-kam deysanmi?

– Ha. Nihoyatda kam.

– Demak, ayrim hollarda yulduz faqat o‘z galaktikasida aylanib yuradimi?

– Ha. Lekin ko‘p vaqt emas. Bir fursatdan so‘ng portlaydi, changga aylanib, fazoga tarqab ketadi.

– Buning sababini fan izohlaydimi?

– Ha.

– Qaysi fan?

– Astrofizika.

– Hmm... men psixologiyami debman.

Yana jimlik. Uzun va yurakni siqadigan jimlik.

...Sudoba xonim kirdi.

– Karim, tuzukmisan?

– Shukr, Sudoba. Bugun yaxshiman.

Sudoba xonim menga qarab jilmaydi.

– Professor biznikiga kelsa, doim xursand bo‘lasan.

– Qanaqasiga? – Karim shunday deya menga qaradi. – Ko‘rmayapsanmi mardumning yuzidagi shodliklarni?

Men o‘zimni siqilib ketgandek his etdim, hatto o‘yga botib qolgandek edim. Sudoba xonim guldor xalatining etagini hilpillatib oldinga o‘tdi, stolning ustiga ko‘z tashladi va taajjublangandek bo‘yalgan lablarini burdi.

– Professor, choyingizni ichmabsiz-ku.

Mening o‘rnimga Karim javob berdi:

– Ko‘p ichsa, yaxshi uxlay olmaydi. Aloq-chaloq tushlar ko‘radi.

Sudoba xonim erining oxirgi so‘zlari hazil ekanini anglamay, jiddiy so‘radi:

– Siz ham yomon tushlar ko‘rasizmi?

Karimning menga tez-tez qarab qo‘yayotganini sezib:

– Ha, shunday, Sudoba xonim, – dedim.

Ayolning to‘la yuzida ajabtavur ifoda voqe bo‘ldi. Negadir tovushini pasaytirib, so‘radi:

– Nimalarni ko‘rasiz?

– Hmm... Nimani ko‘raman? Jinlar, shaytonlarni.

– Vampirlarni ko‘radi, vampirlarni! – Karim o‘zini kulib yuborishdan zo‘rg‘a tiyib shunday qo‘shimcha qildi.

Sudoba xonimning yuzi sirli tus oldi, u sim-siyoh derazaga bir qarab olib, dedi:

– Men ham keyingi paytlarda qo‘rqinchli tushlar ko‘ryapman.

– Nimalarni ko‘rasiz?

– Nimalarni... ha, misol uchun pakana-pakana shoxi bor odamchalar uyimizga kirib, “Shalaho”[1]ga raqs tushadilar. Keyin bo‘lsa meni yeya boshlashadi... Shunaqangi qo‘rqinchliki!

Karim tuyqusdan o‘zgardi, chehrasiga ma’yus va sovuq tabassum qalqib chiqdi. U o‘ta sokin, lekin – jiddiy sababi bo‘lsa kerak – ichki bir g‘azab bilan shunday dedi:

– Balki o‘sha shoxli pakanalar bu xonadondagi odamlardan bezor bo‘lgandir.

Sudoba xonim, xayriyatki, erining gapini eshitmadi. Kim bilsin, balki o‘zini eshitmaganga solgandir. Xalatining etagini hilpillata-hilpillata yana eshikka yo‘naldi. Eshik oldida to‘xtab, orqasiga o‘girildi.

– Karim, Xudo haqqi, asabingni buzadigan gaplarni gapirma, – dedi-da, chiqib ketdi.

[1] **Shalaho** – ozar xalq raqsi.

Eshik yopilgach, Karim xuddi uzoq yo'l bosib kelgan horg'in yo'lovchidek mahzun bir ohangda:

– Professor, chekishga biron nimang bormi? – dedi.

– Bor. Nimaydi?

– Ber.

– Yo'q, Karim, senga mumkinmas.

– O'lib qolmayman, ber bitta.

– Yuzingni burishtirma, baribir bermayman, Karim.

– E, o'ldirmoqchimisan meni?

– Senga zarari bor, axir.

– Qo'rqma, bitta bilan odam o'lib qolmaydi. – Mening sigaret berishni istamayotganim va qimir etmay turganimni ko'rib, Karim bolaga o'xshab po'ng'illadi. – Chiqar, bittagina olaman, bo'ldi.

Men noiloj qoldim. Cho'ntagimdan portsigarni chiqarib, o'girilib eshikka qaradim, yopiq ekaniga amin bo'lgach, Karimga tutdim. U sigaretni labiga qistirib, chap qo'lini bolish ostiga tiqdi va gugurt chiqardi. Bir necha marta chaqib, sigaretni tutatdi-da, tutunini ochko'zlik bilan yutoqib tortdi. Papiros bir necha soniya ichida yarmigacha yonib borib, kulga aylandi. Karim so'nggi kunlarda mana shu achchiq tutunni sog'ingandi.

– Professor!

– Hov!

– Anchadan beri Bahodirdan xabar yo'q, qiziq, qaylarda yurgan ekan-a?

– Sibirda u.

– Qariganda Sibirda balo bormi?

– Katta bir qurilishning rahbari-da. Esingdami u?

– Ko'char qush-da u, qayerda ish – Bahodir o'sha yerda bosh-qosh.

Karim qo'lini divandan tushirib, sigaretning kulini burchakka qoqdi.

– Demak, endi sening navbating. – U shunday deb jim qoldi, yonib tugayotgan sigaretdan ingichka oq ipday o'rlayotgan tutunga uzoq tikildi. – Ko'char qush. O'sha paytlardayoq uni shunday derdik. Esingdami? – Men bosh irg'adim. – Komsomolsk qurilishi boshlanganda, Ozarbayjonda birinchilardan bo'lib edi, shekilli, ariza berib Sibirga ketdi. Keyin qaytib keldi, Dashqasanda ishladi.

Oxirgi vaqtlarda Mingachevirda edi. Endi bo‘lsa tag‘in Sibir!.. Eh sen ko‘char qushni qara-ya!

Menga shunday tuyuldiki, Karim bu so‘zlarni menga emas, o‘ziga aytyapti.

– Men bilmay qolibman-ku, qachon ketdi?

– Bultur yozda, sen Kislovodskda eding.

– Ha, to‘g‘ri, bultur men Kislovodskka ketgan edim. Bulturdan oldin ham, undan oldingi yil ham. Yigirma yildirki, har yili Kislovodsk, Narzan...

Shu gaplarni aytarkan, Karimning yuzi taxir hapdori ichgan kabi burishdi.

– Professor!

– Hov!

– Sen biron marta Kislovodskka borganmisan?

– Esingda yo‘qmi? Ellik oltinchi yili birga ketgan edik-ku.

– Ha, esladim. Sen oxirigacha qolmaganding.

– Havosi menga to‘g‘ri kelmagandi.

Karim ko‘zlarini qisib, yuzimga tikka qaradi. Qaradi-yu, shunday achchiq jilmaydiki, butun vujudim muzlab ketgandek bo‘ldi.

– Yolg‘on gapirma, professor, – dedi. – Sen jirkanding, shuning uchun Qozog‘iston tog‘laridagi rasadxonaga survording.

– Nimadan jirkandim, Karim?

– Ko‘p narsadan... Men o‘shanda seni ko‘z uzmay kuzatdim, sen majburlikdan menga o‘xshaganlar bilan kun o‘tkazding. Senga, Bahodirga o‘xshaganlar bizdan bezor bo‘lgansiz. Yo‘q-yo‘q, gapimni bo‘lma, men bor gapni aytyapman!.. Ma’nosiz suhbatlar, mish-mishlar, befayz ziyofatlardagi gurunglarni qancha eshitish mumkin edi? Bo‘yalgan lablar-u yog‘ bosgan qorinlarga qancha qarab o‘tirish mumkin edi? Men haqman, professor. Bizdan jirkanmaslikning iloji yo‘q edi... To‘g‘rimi gaplarim?

Men kulimsirab, yerga qaradim. Birnimalar deb hazillashmoqchi bo‘ldim. Lekin Karim otini mendan oldinroq qamchiladi.

– Ma, buni kuldonga tashla, – dedi u birdan suhbat ravishini o‘zgartirib, menga yonib bitgan sigaretini uzatgancha.

Sigaretni kuldonga tashlaganim hamono eshik ochildi-yu, Sudoba xonim kirib keldi.

U qandil atrofida hanuz pag‘a-pag‘a bo‘lib turgan tutunni ko‘rib, norozi bosh chayqadi.

– Kim chekdi?

Karim ko‘z qisib qo‘ydi.

– Men chekdim, – dedim.

– Ha, mayli unda.

Yana jim qoldik.

– Nimaga hamma narsani yuragingga olaverasan, Karim? – dedim.

– Menga baribir. O‘ylayman-da. Oldinlari ichimda o‘ylar edim, endi ovoz chiqarib o‘ylayman.

– Jahling chiqmasin, Karim.

– Asabiylashma, professor, bu endi jahlimni chiqarmaydi. Javob ber-chi, balki, asl haqiqatni aytarsan menga?

– Qaysi haqiqatni?

– Mening nima uchun bu kuyga tushganim sababini. Yo‘q-yo‘q, men yuragimni aytmayapman. Yurak nima endi – u o‘z vazifasini bajarib bo‘ldi... Sen mening bir savolimga javob ber.

Karim orqasini o‘girib, ko‘zlarini shiftga tikdi.

– O‘ttiz yil aqalli bir marta poyezdga o‘tirib, ota-bobolarim yurtini ziyorat etmadim... Aytgin-chi, buning o‘rniga har yoz Kislovodskda ovorayi sarson kezishimning sababi ne edi? Nega men yaxshi-yomon kunlarda Bahodir kabi do‘stlarimni unutdim? Nega men yildan-yilga, kunba-kun o‘zgara-o‘zgara, ruhan yo‘qsil bir kimsaga aylandim? Bilaturib o‘zimni bu tuproqdan qo‘pordim-u, sarg‘ayib so‘ldimmi? Bu dalalar-u tog‘larga nega xiyonat qildim, birodar?

Karimning ovozi bo‘g‘zidan emas, naq yuragidan chiqar edi. Bu ovoz mening ro‘paramdagi bemahal beli bukilib, oyoqdan qolgan keksa Karim muallimning ovozi emas, huv o‘sha olis yillarda boshida buxori papog‘i, yelkasida miltig‘i, bo‘z-qizg‘ish-qo‘ng‘ir otning beliga o‘tirgancha, “hay-hu”lagan komsomolchi qoraqosh, qorako‘z Karimning ovozi edi. Bu ovozda samolarning hayqirig‘i, daryolarning sharqirashi bor edi. Ay Karim-a, ay Karim! Seni ko‘rishi bilan butun qishloq o‘rnidan sakrab turgan, qochoq Nasibning butun borlig‘iga larza tushgan, quloqlar qon qusgan kunlar qay-

da qoldi? Shinelga o'rangancha, tosh-u paxsadan tiklangan sovuq kulbalarda yonma-yon yotgan tunlarimiz-chi? Qani u daryolarning shovullashi, qani u toshqinlar? Men sening savolingga javob bera olarmidim? Qaytar u kunlarni, kel, hayotimizni boshidan boshlaylik... o'shanda men ham, Bahodir ham seni xatolarga berib qo'ymasdik...

Men Karimning yana "professor, nega jim qolding?" degan savolini kutganim uchunmi va yoki hozirgina eshitganim - butun vujudimni larzaga solib, botinimda qayg'u to'la bo'shliq, nihoyasiz g'am-hasrat paydo qilgan iqror ta'siridami beixtiyor o'girilib derazaga qaradim. Deraza ortida yulduzli osmonning bir parchasi porillab turardi. Shiftdan shu'la taratgancha, bu mo'jaz xonaning har kunjida g'arib va sovuq yaxtilik paydo qilayotgan moviy chiroq olis yulduzlarning ko'lankasi kabi edi. Hatto Karimning keng ish stoli ustida turgan katta baliqqulog'i ham bir soniyaga o'sha yulduzlardan birining tasodifan shu xonaga uchib tushgan bo'lagidek tuyuldi. O'rnimdan turib uni olmoqchi, Karimga bermoqchi va "ma, buni ko'kragingga taqib ol, senga balki uzoq yillardan beri mana shu sovuq tosh bo'lagi yetmagandir?" demoqchi ham bo'ldim. Axir, bu tor qafasdagi bulbullar hech qachon senga tasalli bera olmaydilar-ku! Imkoni bo'lsaydi... Bahodirni topar edik, bo'z otni qaytadan egarlab, tog'larga ketar edik! O'sha kunlarga qaytar edik...

- Professor!
- Hov!
- Qoning quyuqmi?
- Qonim quyuq emas, boshim og'riyapti.
- Piramidon beraymi?
- Kerakmas.

Yozuv stolining orqasida turgan baland, millariga sadaf qoplangan qadimiy soatning chiq-chiqi eshitildi.

Odamlar soatni nima uchun kashf qilganlar? Vaqtni o'lchash uchunmi? Axir, Vaqt bizning istak-irodamizga bog'liq bo'lmagan holda tasavvurimiz xorijlarida so'ngsizlik qadar cheksiz cho'zilib yotadi-ku! Soat esa hukm o'qiydi: "chiq... chiq... chiq... hozirlan, senga berilgan vaqt tugadi". Karimga o'xshash odamlar faryod chekib, iltijo qiladilar: "Muhlat ber, qaytadan yashamoq istay-

man...” Soat esa deydi: “Yo‘q, birodar, men bilan hazillashma. Nima bo‘ldi, nima qo‘ydi – hammasi o‘tdi... tayyorlan, faqatgina so‘nggi manzilda, yo‘qlik va abadiyatdagina men seni o‘z holingga qo‘yaman...”

– Professor!

– Hov!

– Tur, soatning ovozini o‘chir.

– Yo‘g‘-e, buzilib qoladi.

– To‘g‘ri aytasan, qo‘y, mayli, ishlayversin.

Karim qo‘lini menga uzatdi.

– Chekishdan yana bitta ol.

Bu gal e’tiroz bildirmadim, bir so‘z demay qutini unga uzatdim. U ikkita sigaret olib, birini labiga qistirdi, birini menga berdi. Qutini esa yostig‘ining ostiga tiqib qo‘ydi.

– Ketayotganda olasan.

Ikkimiz ham bir muddat jim qoldik. Chekib o‘tiraverdik. Tegramizni tutun qopladi. Men bir-ikki yo‘taldim. Deraza yopiq bo‘lsa ham, ko‘chadan hushtak tovushi aniq eshitildi. Bu tovush o‘chishi bilan, mashina o‘tdi. Deraza qattiq zirilladi. Bu zirillash bulbullarni ham hushiga keltirdi go‘yo. Ulardan biri potirladi, qanot qoqmoqchi bo‘ldi. Men:

– Karim, bulbullaringni kayfi chog‘ bo‘ldi-yov... – dedim.

– Shunday shekilli.

– Karim, shu bulbullarni qo‘yvor... Shular nimaga kerak senga?

– Bo‘lmaydi, professor.

– Nima uchun?

– O‘lib qoladi.

– Tushunmadim?

– Bu yerda tushunmaydigan hech narsa yo‘q. Bu bulbullar faqat qafasda yashay oladi.

– Yana tushunmadim.

– Bilasanmi, bu g‘alati hol, tasavvur ham qilolmaysan. Lekin bor gap. Odamzod qushlarni tutib, tutqunlikda saqlay boshlagan davrlardan beri bulbullarning yangi turi paydo bo‘lgan. Ular faqat qafasda yashay oladi, shunga moslashgan. Qafasda tug‘iladi, qafasda katta bo‘ladi va eng qizig‘i... yo‘q-yo‘q, eng dahshatlisi shunda-

ki, faqat qafasda kuylaydi. Ularni qafasdan chiqarib yuborsang, bir soat ham yashay olmaydi. Endi tushundingmi?

– Ha, endi tushundim.

Karimning ko‘zi yoshlangandek tuyuldi menga. Chehrasida mavhum va g‘ayrioddiy ifoda paydo bo‘ldi – men oldin uni hech bunday ko‘rmaganman. U menga sin solib, uzoq qarab turdi.

– Hozir menga hamma narsa ayon bo‘ldi. – U shunday deya mendan hayo qilgan kabi ko‘zlarini quyi indirdi. Bir fursat jim turgach, nigohini yerdan olmay davom etdi: – Lekin yuragimda bir tasalli bor: bulbullarning ko‘pi o‘rmonlarda, gul-u chechaklar orasida yashaydi, qafasga tushsa halok bo‘ladi. Bahodirni, seni eslasam, qalbim yorishib ketadi...

Karim o‘chib qolgan sigaretini qayta tutatmoqchi bo‘ldi. Uning qo‘llari boyagidan ham qattiqroq titraganidan gugurt chiroqday bir yonib-o‘chdi. Boshqa gugurtcho‘p oldi va ikki barmog‘i orasida tutib, ko‘mak so‘raganday menga ma’yus termuldi. Bildimki, o‘zi yondira olmaydi. Gugurt chaqib, unga tutdim.

SOVUQ TOSH

Ustiga yorug‘lik tushsa, so‘qmoq chetida yotgan silliq tosh kumushdan quyilgandek ko‘rinadi, u bir zamonlar tog‘ tepasidan sakragan va shu joylardan oqib o‘tgan daryodan yodgorlik edi.

Havo ochiq, yomg‘ir va tumansiz bo‘lganda yigit har oqshom o‘rmonga keladi, shu toshning ustida o‘tirib papiros tutatadi, o‘yga botgancha, o‘rmonning shivirlashiga quloq tutadi.

O‘t-o‘lanlar, yaproqlar ustiga osmondan ko‘rinmas tomchilar tushayotgandek, har yoqqa sachrab, shitirlayotgandek tuyuladi unga.

Bu tovushlar tushlarida yangragan musiqani yodiga soladi. U hamisha tushida musiqa eshitadi, ajabtovur ranglarni ko‘radi. Tongda o‘sha musiqani, ranglarni xotirida tiklamoq istaydi, lekin hech eslay olmay, iztirob chekadi...

Qiz daraxtlar orasidan sassiz va mayda qadamlar-la chiqib yaqinlasharkan, u hech nima demasdan, hatto salomlashmasdan

o‘rnidan turadi va ustkiyimini yechib, qizning kiftiga soladi. Qiz har gal uning pinjagini yopinmoq uchun atay yupqa libosda keladi.

Qiz bu oqshom kechikdi, oy balandlab ketib, daraxtlarning soyasi qisqarganda keldi. Yigit o‘rnidan turdi, pinjagining tugmalarini yecha-yecha qizga yaqinlashdi... Qizning ustidagi oq jun jaketni ko‘rib, pinjagini yechmadi, nedir demoqchi bo‘ldi, lekin hech nima demasdan orqasiga qaytdi, toshning ustiga o‘tirdi. Va to‘satdan tushida ko‘rgani kabi sim-siyoh tuman daraxtlar orasidan buralib-buralib chiqayotgandek, qizni olib qochayotgandek, o‘zi esa hech bir qarshilik ko‘rsata olmay, kalovlanib joyida o‘tirib qolgandek tuyuldi.

Bir fursat vaqt o‘tdi. Qiz daraxtga suyanib, shox-novdalar orasidan ko‘kka boqdi. Yigit boshini solintirgancha, papirosini chekaverdi.

Hammayoq jimjit. Ora-sira allaqayda qurbaqalar qisqa vaqirlaydi. Oyning yog‘dulari qari emanlar oralab o‘tib, yigitning oyoqlari ostiga kumushrang to‘r-to‘r mato yoygandek bo‘ladi. Shoxdan-shoxga tez-tez uchadigan kapalaklarning qanotlari yaltiraydi. Kapalaklar oyning shu’lalaridan yasalgan va hovuch-hovuch qilib havoga sochib yuborilgan marvarid donalariga o‘xshab ko‘rinadi yigitning ko‘zlariga. Tuyqus shamol esgandek bo‘ladi, yigitning boshi ustida yaproqlar shitirlaydi. Shitirlash zumda tinadi.

Qiz pichirlaydi:

– Yulduz uchdi...

Yigit bildiki, qiz bu gapni faqat oradagi tarang va yurakni siqadigan sukunatni buzish uchun aytdi. O‘tgan kecha ham u avval yulduzlardan so‘z ochdi, lekin yigitning javob bermagani va boshini quyi solgancha chekishda davom etganini ko‘rib, hech nimadan-hech nima kuldi va ketguniga qadar mehmonlaridan gapirib o‘tirdi. Bundan besh-olti kun avval otasi Madat muallimning uzoq yillik jo‘rasining o‘g‘li ularnikiga mehmon bo‘lib kelibdi. Qizning aytishicha, mehmon yigit yaqinda dunyo bo‘ylab sayohat qilib qaytganmish. U har kuni uydagilarni atrofiga yig‘ib, ajoyib-u g‘aroyib narsalarni gapirib berarmish.

Qiz yigitga yaqin keldi va qarshisida tik turdi.

– Nega hech nima demaysan?

Yigit boshini ko‘tarib qaradi.

– O‘zim... Kel, mehmoningiz nimalar deganini aytib ber-chi...

– Ko‘p narsalarni gapirdi. Dunyoni aylanib kelibdi. Shunday narsalarni gapirdiki...

Qizning so‘zlari yigitning qulog‘iga kirmaydi, u faqat qizning ovozini eshitadi. Har safar shunday. Bu tovushga quloq sola-sola ko‘zlarini yumadi, qizning chehrasini xayolida jonlantiradi. Uning ingichka qoshlari qop-qora. Ko‘zlari har doim bir rangda bo‘lmaydi: ertalablari ruhsiz ko‘rinadi, oqshomlari esa moviy shu’la sochadi. Qizning ko‘zlari ichida birin-ketin son-sanoqsiz yulduzlar uchayotgandek tuyuladi yigitga. U gapirganda qo‘lini iyagiga tiraydi, shahodat barmog‘ini bukib, pastki labining o‘rtasiga qo‘yadi, tez-tez jilmayadi. Nima haqda gapirsa ham, hikoya aytayotgandek bo‘ladi...

– Yana meni eshitmayapsanmi? – dedi qiz.

– Qulog‘im senda. – Yigit shunday deya, ko‘zlarini ochdi. – Mehmoningiz nimalar deydi?

– Italiya haqida ko‘p gapiradi. Italiyaning qizlari juda chiroyli, xuddi farishtalarga o‘xshaydi, deydi. Uzzukun qahvaxonada o‘tirvolib, limonad ichisharkan. Aytadiki, Rimda g‘alati restoranlar bor ekan, u yerda yalang‘och xotinlar raqs tusharmish...

– Bo‘lishi mumkinmas, – dedi yigit bosh chayqab. – Mehmoningiz yolg‘on aytibdi.

Qiz ovozini ko‘tarib, negadir achchiqlanib javob berdi:

– Yolg‘on aytgan emas. Biznikiga kelganingda, o‘z qulog‘ing bilan eshitarding. Eh, xolis aytganda, gapirganlarining hammasi xuddi ertakka o‘xshaydi.

– O‘zimizning ertaklarda men na restoranlar haqida o‘qiganman, na yalang‘och ayollar haqida.

– Men umuman aytdim.

Qiz entikib-entikib nafas oldi. Yigit xayolida qizni yalang‘och holda tasavvur etmoqchi bo‘ldi. Lekin uyalganidan quloqlarining ichigacha qizarib ketdi.

Qiz:

– Sen Italiyaga borishni xohlaysanmi? – deb so‘radi.

– Italiyada nima qilaman men?

– Shunchaki. Sayohatga.

– Nimagayam istamay, yomon bo‘lmasdi.

Qiz yura boshladi. Yaproqlar qizning oyoqlari ostida ezilib shitirlashiga yaqindagi daraxt shoxlari orasidan bir qush chirqillab uchib chiqdi va shu zahoti zulmatga otilgan toshdek ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Yigit “ko‘pincha o‘zi shunaqa bo‘ladi”, deb o‘yladi. Yot bir kishi olgan nafas, tinchingni buzgan yangi bir tovush seni nogahon uyg‘otib yuboradi, shu qush singari uyangdan haydab chiqaradi, turgan shoxingdan uchasan va zulmatda g‘oyib bo‘lasan.

– Nimaga o‘tirmayapsan? – yigit shunday deya boshqa papiros yondirdi. Gugurtning zaif yog‘dusida tosh bir lahza porlab ko‘rindi. Bu sovuq porillash go‘yo yigitdan qizning o‘rni nega bo‘shligini so‘radi. Yigit qizga qaradi.

– Kel, o‘tir.

Qiz javob berdi:

– Tosh sovuq.

Yigitning xayolidan shu o‘y kechdi: qiz oldinlari boshini uning yelkasiga qo‘yib, tosh ustida soatlarcha o‘tirardi. Bu – bizning toshimiz, der edi.

– Mehmoningiz ko‘p yuradimi hali?

– Xudo biladi...

– Nimaga kelibdi o‘zi?

– Onasi deydiki, o‘g‘li uylanishga qaror qilibdi. Shu yerlardan uylanmoqchi ekan.

– Shaharda qiz qurib qolibdimi?

– Deydiki, shahardagi qizlar hali turmushga chiqmasdan ming baloga giriftor bo‘larmish.

– Tomi ketganmi uni?

– Bilmasa gapirmaydi. To‘g‘ri aytadi. – Qiz orqasiga o‘girilib, yana yura boshladi. Keyin to‘xtadi, osmonga qaradi, daraxtga suyandi va:

– Bilmadim nimaga u senga yoqmadi? – deb so‘radi.

– Menga yoqmaydi, dedimmi?

Qiz javob bermadi. Yigit papirosini yerga tashladi, oyoqlari bilan ezib o‘chirdi. Keyin so‘radi:

– Ko‘z ostiga olgani bor ekanmi?

– Xudo biladi...

Yana jim qoldilar. Oyni bir to‘sib, bulut suzib o‘tdi. Atrof qorong‘ilashdi. Emanlarning yaltirab turgan sumbati ko‘rinmay qoldi. Tuproqqa naqsh solgan yaproqlarning ko‘lkalari bug‘lanib, havoga ko‘tarilayotgandek. Yengil shabada esdi, lekin bu gal o‘tib ketmay, daraxt butoqlariga ilinib qoldi.

Havo salqinlashdi. Yigit o‘rnidan turib, pinjagini qizga bermoqchi bo‘ldi. Shu zahoti qizning egnida jun jaket borligi esiga tushdi.

– Yaxshi, mehmoningiz nima ish qiladi? – dedi birozdan keyin yigit jimlikni buzib.

– Fan nomzodi. Mashinasi ham bor.

– Kasbini so‘rayapman.

– Aytdim-ku. Fan nomzodi... – Qizning ovozi daf’atan go‘yo shu choqqacha bo‘g‘ib qo‘yilgan-u, endi ochilgan yanglig‘ o‘zgarib ketdi. U boshini ko‘tarib yana shox-novdalar orasidan osmonga qaradi, keyin davom etib dedi:

– O‘qigan mahali ko‘zoynak taqadi. Qalin-qalin kitoblarni o‘qiydi. Har kun soqolini oladi. O‘ta madaniyatli... bir gal choyxonaga ketdi, yo‘lda adashibdi. Qaytib kelganda, tumanlaringizda odamlar juda madaniyatsiz ekan, dedi. Qo‘llarini yuvmas ekanlar, hammaning qo‘li qop-qora kir, dedi...

Yigit o‘zini tuta olmay, qizning gapini og‘zidan oldi:

– Mehmoningga aytki, u qo‘llardagi kir emas, tuproqning rangi, deb ayt...

Yigit shunday derkan, o‘z ovoziga o‘zi hayron bo‘ldi. U qizga umrida bunday keskin gapirmagandi.

Qiz jim qoldi, chamasi u yigitdan qo‘rqardi. Yigit boshini yana quyi solib, yuragidagi alangani tutun bilan bostirmoqchi bo‘lgandek papirosni qattiq tortdi. Tutun tomog‘ini achishtirib, ko‘ksiga to‘ldi va o‘pkasida noxush bir otash tuydi. Nafasi siqilib yo‘taldi. Har doimgidek qizning shosha-pisha ketib qolishini kuta boshladi. Lekin qiz qimir etmadi. Bo‘g‘iq yo‘talni ham eshitmagandek edi...

Yigit kuchli bir istehzo ila so‘radi:

– Mehmoningiz papiros chekadimi?

– Yo‘q.

– Nega?

– Nega?.. Jonining qadrini biladi.

Yana jim qoldilar.

Shamol tobora kuchaydi. Yaproqlarning shitirlashi sidirg‘a shovullashga aylandi. Yigitning dimog‘iga zax va tanish hid urildi. Bu – o‘rmonning chetidan oqib o‘tadigan daryoning o‘ng sohilidagi yarmigacha suvga botgan ulkan qoyaga osilib yotgan yo‘sinlar hidi. “Ertaga yomg‘ir yog‘adi”, deb o‘yladi yigit. Negaki, bu shamol uzoq-uzoqlardan – ufq bo‘ylab cho‘zilgan qorli tog‘lar ortidan ko‘mirdek sim-siyoh ulkan bulutlarni haydab keladi, eng kamida ikki kun sharros yomg‘ir quyadi, o‘rmonning bu yeri tizza bo‘yi balchiqqa aylanadi.

Qiz uyda tag‘in shaharlik mehmonning Italiya, Yunoniston haqidagi gurunglarini eshitib o‘tiradi. Yigit bo‘lsa sahar turib, tong g‘ira-shirasida ishga ketadi; darslarini tugatib, allamahalda hamma yog‘i qaqshab, horg‘in-tolg‘in uyga qaytadi; ertalab qolib ketgan sovuq choydan bir bordoq ichib, simkaravotga cho‘ziladi. Har galgidek shamol muzdek deraza oynalariga qattiq uradigan yirik tomchilarning bo‘g‘iq tukillashini eshitib yotadi; jundor bo‘ynidagi uzun, zanglagan zanjirini xashil[1]dek yumshoq tuproq ustida ilondek sudragancha o‘zini goh toshga, goh yalog‘iga urib, uni darvoza hamda panjaraning qiyshiq mixlariga ildirib, ayanchli uvlayotgan itning tovushi asabiga tegadi. Borliqni quyuq tumanga chulg‘agan yomg‘irli havoning rutubati yigitning mo‘jazgina uyini ham to‘ldiradi, ko‘rpa-to‘shagini sovutib yuboradi, kunjakda turgan mis qozon ichidagi nonni yumshoq qilib qo‘yadi. U faqat tunda rohat topadi. Tushida yana musiqalar tinglaydi, ajoyib-u g‘aroyib ranglarni ko‘radi. Yana quyosh chiqib borliqni isitganda, yo‘llar-u so‘qmoqlarning loyi quriganda, o‘rmondan yana o‘tlarning xush bo‘yi taralganda, qiziq, ular tag‘in uchrasharmikan?..

Yigit o‘chib qolgan papirosini qayta yondirdi, gugurtcho‘pni chetga otdi. Gugurtcho‘p o‘tlar orasida yonarqurt kabi bir muddat yaltirab turdi-da, o‘chdi. Yigit o‘zicha kulimsiradi. Keyin so‘radi:

[1] **Xashil** – suvda pishirilib, yog‘ va sharbat bilan yeyiladigan xamir ovqat.

– Demak, bizning tumanimiz mehmoningizga yoqmabdi-da, a, nimaga?

– Nimaga yoqmas ekan?.. Juda bahavo joy ekan, deydi. Italiyada bir orol bor, o‘shanga o‘xshaydi, deydi.

Qiz ro‘molini boshidan olib sochlarini tuzatdi, unga oy shu’lasi tushdi. Yigitga qizning sochlariga son-sanoqsiz uchqunlar qo‘nayotgandek tuyuldi. Qiz ro‘molini qayta tang‘idi, eshitilar-eshitilmas pichirladi va keyin dedi:

– Otam, umrimda bunaqa aqlli yigit ko‘rmaganman, deb aytdi. Onam ham uni maqtagani maqtagan.

Yigit o‘rnidan turdi, bir odim otdi-yu, to‘xtab qoldi. Nedir bir kuch qizga yaqin borishiga monelik qildi.

– Senga-chi, yoqadimi? – deb so‘radi.

– Kim?

– Shaharlik bola.

– Bilmasam... – qiz daf’atan to‘xtab qoldi. Chunki shu mahal yaqin atrofda it hurdi. Yigit sezdiki, itning shu asno hurgani qiz uchun ayni muddao bo‘ldi. Orqasiga o‘girilib, qayta tosh ustiga o‘tirdi va boshini solintirdi.

Yuragi tanish bir zarb ila ura boshladi. Otasidan qora xat kelganda shunday urgandi. Lekin o‘shanda bu zarb iztirobdan, og‘ir yo‘qotishdan, bekaslikdan edi, endi-chi? Yigit hech nimani anglolmay qoldi. Faqat savqi tabiiy ila his etdiki, hozir jiddiy allanima sodir bo‘ladi va qora bulutlar tarqaydi. U boshini ko‘tarib qizga qaradi. Yuragi simillab og‘rigancha, oralarida kamida ming yillik masofa yotganini tushundi.

– Nega o‘tirmayapsan?

– Aytdim-ku. Tosh sovuq.

Yigit toshning rostanam sovuqligini endi his etdi. Bu sovuqlikdan uning borlig‘i alangayi otash bo‘lib yonardi.

Qiz yaqin keldi:

– Judayam charchadim, ketaman.

– Nimaga charchading?

Qiz nimadir dedi, yigit hech nimani eshitmadi.

Shamol daraxtlar uchida bo‘g‘iq guvilladi. “Ertaga aniq yomg‘ir yog‘adi”, deb o‘yladi yigit. Yomg‘ir tosh atrofidagi tuproqni

yumshatadi, mayda o‘t-o‘lanlarning ko‘pini ildizidan qo‘poradi, uning ham, qizning ham izlarini yuvib-o‘chirib tashlaydi. Bu tumanli-yog‘inli havoda yo‘li tasodifan o‘rmon tarafga tushgan yo‘lovchilar bu yerda bir zumga to‘xtaydilar va tosh ustiga hali hech kim o‘tirmagan deb o‘ylaydilar. Chunki haftalarcha yomg‘ir ostida qolgan tosh juda sovuq bo‘ladi.

46-YIL O‘YINLARI

Ular qurshovga tushib qoldilar. Chiqishning hech iloji yo‘q edi. Ular bosh egib o‘tirishardi. Uchovi ham o‘limga yuzma-yuz turardi. Biroq hech biri – na Siyovush, na Karim, na Nozim o‘lishni xohlamasdi. Ikki yo‘l bor edi: yo asirlik, yo o‘lim. Dushman: “Agar taslim bo‘lmasangiz, atom bombasi tashlaymiz”, deb e’lon qilgandi. Ularning esa atom bombasi yo‘q edi. Eslaridan chiqarib, uyda qoldirishgandi. Siyovush, Karim va Nozimning onasi Sakina ham shu yerda – xandaqda o‘tirardi. U jajji qo‘g‘irchog‘i – uch aka-ukaning yolg‘iz singlisi – chaqaloq Gulzorni bag‘riga bosgancha, alla aytardi:

Alla, dedim, yotgin-a,
Qizil gulga botgin-a...

– Endi akalaring jangga jo‘naydi. O‘qlar otib, dushmanlarni qiradi... Keyin qaytib keladi. Biz ham uyga qaytamiz, nanna yegani. Bilasanmi, nima yeymiz? Shirin chalpak, mana buncha... Uni o‘zim yopganman, shunaqayam mazaliki! Ammo sen onangni gapiga kirishing kerak. Agar hadeb yig‘layversang, seni ham akalaringga qo‘shib, jangga yuboraman, chalpak bermayman. Xo‘pmi?

Sakina Gulzorni turg‘izgandi, qo‘g‘irchoq ko‘zini ochdi, yotqizgan edi, yana ko‘zini yumdi.

– Eshit, qizim, – dedi Sakina uning boshini ko‘ksiga bosib. – Oqshom seni sayrga olib chiqaman, keyin cho‘miltirib qo‘yaman. Agar yig‘layversang, seni ham akalaring yoniga, jangga jo‘nataman. Chalpak ham bermayman. Xo‘pmi?

Alla, dedim, yotgin-a,
Qizil gulga botgin-a...

Sakina boshini ko'targanda, o'g'illari ko'rinmadi. Ular jangga ketgandi.

– Ana, qizim, akalaring ketibdi. Endi paq-puq miltiq otishadi. Ular qaytishi bilan uyga ketamiz. Uxla... Uxla...

Shu payt kimdir Sakinani chaqirdi:

– Hoy, Sakina!

Sakina ovoz kelgan tarafga boqdi-yu, xandaq adog'ida yotgan yashiqlar ustida uch dushmanni ko'rdi. Ulardan biri kamarining enli to'qasiga qistirilgan uzun stvolli, to'pponchadan ham ko'proq qo'ndog'i singan miltiqqa o'xshash qurolini chiqarib, Sakinaga o'qtaldi:

– Xo'sh, sen nega o'lmayapsan?

Sakina lablarini cho'chchaytirdi.

– Nega o'lar ekanman? – savolga savol bilan javob qaytardi u. – Men o'lmayman, deb oldindan kelishganmiz-ku.

Dushman kuldi. U qurolini silkita-silkita jahl bilan dedi:

– G'irromlik qilma. O'g'illaringning uchovi ham o'ldi...

Sakina yana baribir rozi bo'lmadi.

– O'lishsa nima qipti... Men o'lmayman, deb kelishganmiz. Meni otganlaring yo'q!

Dushman bu gal qah-qah otib kuldi. Boshini chayqagancha, chiyilloq ovozda dedi:

– Buni qara-ya! Biz atom bombasi tashladik! Anavi yoqqa, xandaq yoniga. Senam o'lishing kerak.

Sakinaning jahli chiqdi. Irg'ib o'rnidan turdi. Qo'g'irchog'i qo'lidan tushdi. U qo'g'irchoqni darhol ko'tardi-da, sarg'ish sochlaridan changni qoqdi.

– Yo'q, men o'lmayman, – dedi u. – Bunga oldindan kelishganmiz. Sen g'irromlik qilyapsan!

Oraga jimlik cho'kdi. Boshqa bir dushman oldinga chiqib, avtomatidan osmonga bir necha bor o'q uzdi.

– Xo'p, – dedi u. – Mayli, sen aytgandek bo'lsin. Ammo atom bombasi portlaganda radioaktiv nur chiqadi. Odamni ko'r qiladi...

Aftidan, hech kim "radioaktiv nur" nimaligini tushunmadi. Avtomatli dushman hamma o'ziga taajjub-la qarab turganini ko'rib, kipriklarini pirpiratdi-da, tutila-tutila tushuntira ketdi:

– Ha-da... Otam aytdiki, atom bombasi portlaganda radioaktiv nur chiqadi. U odamni ko'r qiladi ...

Sakina yana bosh chayqab, o'jarlarcha turib oldi.

– Yo'q, – dedi u. – G'irromlik qilmang!

Bu gal yana boshqa dushman gapga qo'shildi:

– Xo'p, xohlamasang xohlama... Ammo uch o'g'ling o'lgan. Jinni bo'lmay ilojing yo'q.

Sakina biroz ikkilangach, rozi bo'ldi. U boshidan qizil tasmani yechdi-da, sochlarini yelkasiga to'zg'itib, jinni bo'ldi.

Dushmanlar "Ura!" deb qichqirgancha, yashiqlardan yerga sakrab, qayoqqadir chopib ketdi. Bolalaridan judo bo'lgan ona esa yana alla ayta boshladi:

Alla, dedim, yotgin-a,
Qizil gulga botgin-a...

So'ngra pichirladi:

– Ana, akalaring halok bo'libdi. Ular endi uyga qaytmaydi. Atom bombasidan halok bo'libdi. Endi sen mening yolg'iz bolamsan. Mening boshqa hech kimim yo'q. Faqat bitta sen qolding. Qara, onang jinni bo'lib qoldi. Endi onangning gapiga kir... Ko'p yig'lama. Hoziroq uyga qaytamiz, senga shirin chalpak beraman. Keyin akalaringni ko'mamiz... Xo'pmi?... Mana, hoziroq ketamiz.

Sakina o'rnidan turdi, qo'g'irchog'ini ko'tardi. Lekin qo'g'irchoqning ko'zlari ochilmadi. Ichida nimadir ding'illab, uzilgandek bo'ldi. Sakina uni qattiq silkitdi, bir necha bor yotqizib turg'azdi. Lekin Gulzorning ko'zlari yopiqligicha qolaverdi. Ona o'ksib yig'ladi, qichqirdi:

– Ko'zlaringni och!

Gulzor ko'zlarini ochmadi. Uch aka-ukaning yolg'iz singlisi, Sakinaning kenjatoyi ko'r bo'lib qolgan edi.

"FOTO – FANTAZIYA"

Telegramma kelganida xotini uyda yo'q edi. Sodiq:

– Rostdan ham telegramma mening nomimga yozilganmi? – deb so'radi.

– Yo'q, yolg'ondan. Tun yarmida pochtadan shu yoqqa lo'killab sen bilan hazillashgani keldim! – dedi qariya Sodiqqa gezarib qarab. Sodiq indamadi. To'rtta zinani bitta xatlab chiqqanidan nafasi og'ziga tiqilib eshik tutqichini tutgancha suyanib, kapa-kapa nafas olayotgan pochtachini kuzatmoqchi bo'ldi. O'zi iziga qaytdi, xonaga kirib kursi suyanchig'iga tashlab qo'ygan pinjagining kissasidan sakkiz tiyin olib chiqib pochtachining cho'ntagiga tiqdi. U rahmat demadi, pillapoyalarni bir-ikki odim-la hatlab pastga tushdi, Sodiq og'zini ochib qolaverdi.

U eshikni yopib, zanjirni o'tkazdi (xotini bugun uyga kelmaydi, kasalxonada kechasi navbatchi edi). Lekin telegrammani ham darrov ochib o'qimadi. Ko'ngli nimanidir sezdi. Xonaga kirib ham telegrammani ochmadi, sun'iy mato – dasturxon yozilgan to'garak stol ustiga tashladi. Taajjub aralash qiziqish bilan telegrammaga qarab qoldi. Go'yo bir qog'oz parchasiga emas, nogohon paydo bo'lib qolgan kaltakesak bolasiga qarayotgandek.

Sodiqning yuragi siqildi. So'nggi yillar telegramma yoki biror maktub olgani yodida yo'q. Kechasi o'n ikki yarimda eshik qo'ng'irog'i chalinib, pochtachining "srochniy" deya uch marta qayta-qayta chaqirgani muammo to'la bir hodisaga aylanib ketdi.

U telegrammani qo'liga oldi. "Ammangiz to'satdan vafot etdi. Janoza to'rtinchida. Qo'shnilar".

"E, seni Xudo ko'tarsin!" Ana, hammasi ma'lum bo'ldi. Saraning – xotinining ammasi omonatini topshiribdi. Taxminan besh-olti oy avval Saraning gapi bilan ish-tashvishini tashlab, naqd uch kun Boku dorixonalarining u yog'idan kirib bu yog'idan chiqqan, qon bosimini tushiradigan noyob bir dori izlagan, lekin topolmagan edi, birdan shu yodiga tushdi. Sara eriga ishonmay, tanishlari ishlaydigan dorixonalarga o'zi birma-bir borgan, biroq oxir-oqibat u ham bo'sh qo'l bilan qaytgan edi. Saraning ammasiga bu dori hali

Bokuga kelmagan ekan deb telegramma jo‘natishgan. Vassalom... Sodiq qari pochtachini esladi. Uning ingichka ovozi, eshikni ochishi hamono ko‘zi tushgan qizil burni, yorilgan qalin labi, yoqa-yu tirsaklari oqarib ketgan eski kamzuli endi Sodiqning asabini qo‘zitdi. Hatto unga shunday tuyuldiki, boya hujjatga qo‘l qo‘yayotganida pochtachi tepasida istehzo bilan boqib turgan edi...

Sodiq bir stakan sirka ichgandek yuzini burishtirdi, bo‘shashibgina telegrammani stol ustiga tashladi-da, beixtiyor oyog‘idagi charm shippagining bir poyini yechib, xona bo‘ylab borib kela boshladi. Javon qoshida to‘xtadi. Devordagi kapgiri bir maromda tebranib turgan almisoqdan qolgan soat bilan ikki tomoniga oppoq parda ilingan plastik raf orasida tepadan pastga tushib chiqayotgan yashil pashshaga qarab qoldi. Boshqa vaqt bo‘lganida pusibgina yurib javon ustidagi eski gazetalardan birini olar va karnay qilib buklab aniq mo‘ljallab bir urardi...

Sodiq stol girdiga borib o‘tirdi va boshini changalladi. Peshona tomirlari bo‘rtib ketdi. U negadir birpasgina qimirlamay, barmoqlarini ham o‘ynatmay o‘tirishga urinib, soatning miyada aks sado berayotgan chiqillashiga quloq tutdi. “Xudo ko‘tarsin seni!” deya o‘zicha yanidi. Kimni? Saraning ammasinimi? Pochtachinimi? Yoki o‘zinimi?.. Birozdan so‘ng, bosh og‘rig‘i qolay degach, u temir tamakidonini chiqarib tamaki tutatdi. Olovni suv bilan o‘chirgan kabi achchiq tutunni yutoqib-yutoqib ichiga tortdi. Biroq shu payt ko‘ngli behuzur bo‘lganini sezdi.Tamakini kuldonga bosib, qayta-qayta yutindi. “Xudo ko‘tarsin seni!” dedi bu gal baralla ovozda.

Aslini olganda, bugun ertalabdan Sodiqning omadi chopmadi desa bo‘lardi.

Uyqusi yaxshi qonmay, esnay-esnay oyoqlarini chorpoyadan osiltirib shippaklarini kiyishi hamono shuni his etdiki, kechagi charchoqlar hali chiqmabdi. Qayerda ekanini anglab-anglamay qarshi devorga ilingan eski suratga loqayd va biroz ajablangandek boqib erinibgina joyidan qalqdi-da oshxonaga yo‘naldi. Xotini odatiga ko‘ra, ishga ketishdan avval tayyorlab stol ustiga qo‘ygan sharbatni oz-ozdan ho‘pladi. Sharbat soviy deb qolibdi, foyda sezmadi. A’zoyi badanini butkul holsizlik qamragan edi. “Doktorga

bormasam bo'lmaydi, – deb o'yladi. – Bu ketishda nima bo'ladi? Kasal ahvolda kimga ham keraksan?"

Uydan chiqqach, sal burilib katta ko'cha bo'ylab ishga ketayotganida uy boshqarmasi mudiri Subhiga duch kelib qoldi. Sodiq o'zini ko'rmaganga olib yuz o'girib o'tib ketayotgan edi Subhining avval iztehzoli kulgusini, so'ng shang'i ovozini eshitdi:

– O'rtoq Sodiq, xayrli tong!

– Salom.

Sodiq to'xtadi. Subhi mudirning oq jujuncha pinjagiga qarab qoldi. Yomg'irmi, qormi, bo'ronmi farqi yo'q, uning egnidan tushmaydi bu kamzul. Havo qattiq sovib qor yoqqanda ham shu kiyim ustida, ba'zan uch qavat jun chakmon kiyardi. Biroq Sodiq uni hali palto kiyganini ko'rmagan. Egnida doim oq jujuncha kamzul, boshida esa o'ttizinchi yillar urf bo'lgan kundalik "ispolkom" telpak... Shu boismikan mahallada yashaydigan har ikkinchi odam mudir Subhini tentak sanaydi...

– O'rtoq Sodiq, nega menga g'alati qarayapsan, a?

– Yo'g'-e, qornim og'rib turibdi, shunga, – Subhining ovozi ham jujuncha kamzuli kabi Sodiqning asabiga tega boshladi.

– O'rtoq Sodiq, menimcha sening ustingdan shikoyat qilaman, shekilli.

– Nega?

– Qonunni buzganing uchun.

– Qaysi qonunni buzibman?

– Sovet qonunini...

Ma'lum bo'lishicha, Sodiq yana uch oylik uy kirasini kechiktiribdi.

– Qo'rqma, men qonun buzadigan odam emasman. Pulni bersang, olib borib to'layman. Ko'ngilni xotirjam qilaver!

Subhi mudir Sodiqning ochiq nafrat-la qarab turganini ko'rib xoxolab kuldi. Kuldi-yu, Sodiqni battar aqldan ozdirdi.

– Menga qara, nimaga hiringlaysan? – dedi Sodiq o'zini bosishga urinib va qo'lini kissasiga tiqib pastga bosdi.

– Bilmasam, o'rtoq Sodiq, sen mendan nega buncha nafratlanasan, vallohi a'lam, hech o'ylab o'yimga yetolmayapman. – U bosh tebratdi, ro'parasida turgan bu g'azabnok odam yuziga g'alati

diqqat-la boqdi: go‘yo Sodiqning yuzini chumoli talayotgandek. – Mening nima aybim bor axir?.. Menga falonchi pulni vaqtida to‘lamayapti deyishadi, men ham borib falonchiga buyruq beraman. Nima noto‘g‘ri ish qilyapmanmi?

– To‘g‘ri qilyapsan...Biroq o‘sha falonchining cho‘ntagida sariq chaqa ham yo‘q bo‘lsa, xo‘sh, unda nima qilsin? – Sodiq ovozi muloyim chiqqaniga o‘zi ajablandi. Bu Subhi mudirning ham diqqatidan chetda qolmadi. U bir qadam olg‘a bosib, so‘zi chala qolishidan qo‘rqqan kabi shoshilib:

– Sen ham to‘g‘ri deyapsan. Haqsan. Lekin nima, mening cho‘ntagim bo‘sh emas, deb o‘ylayapsanmi?.. – dedi.

Shu bilan har kim o‘z yo‘liga ketdi. Sodiq Subhi mudirning ortidan bir dam qarab qoldi. Oq jujuncha kamzul muyulishga burilib ko‘zdan g‘oyib bo‘lganda nimagadir uning ko‘ngli buzildi. Subhi mudirga qandaydir muhim bir gapni aytishni unutgandek edi nazarida. Biroq nimani?

Sodiq shundagina qo‘llarini cho‘ntagidan chiqardi, plashchi tugmalarini yechib, mashqi tushgan ko‘yi ketdi. Ko‘chadan o‘tib, bir yo‘lakka chiqdi va uch-to‘rt odim otgandan keyin har kun ishga ketish-qaytishda to‘xtab yosh go‘dakdek tomosha qiladigan bolalar do‘koni qoshida turib qoldi. Qalin oyna ortida butkul boshqa – rang-barang bir olam bor edi. O‘yinchoqlar. Katta-kichik to‘rtburchak shisha qutilar ustiga terib qo‘yilgan o‘yinchoqlar. Kunlar sovib, yog‘in yog‘ib do‘kon oynasini yuvib turganda qutilarning burchaklari yo‘qolib bulashib-qorishib ketardi.

Bugun havo yomon emas edi. Shamol essa ham, osmonning u yer-bu yerida ora-sira to‘p-to‘p bulut suzib yursa-da, ertalabdan beri quyosh yuzi ochiq edi. Do‘kon bilan yuzma-yuz turgan osmono‘par bino oynalarida aks etgan quyosh nuri yuqoridan pastga qiya va yorqin chiziq tortib yumaloq dog‘ shaklida vitrinaga tushardi. O‘yinchoqlarning shisha ko‘zlari xuddi olmosdek yal-yal yonardi. Vitrinaning o‘ng tomonida cho‘pdek oyoqlariga tayanib, qo‘llarini ikki yonga yoygan Buratino iztehzoli kulib Sodiqqa tikilib turibdi. Bu istehzoli kulgi, bir nuqtaga tikilgan yum-yumaloq bitko‘zlar, qimtilgan yupqa dudoqlar unga negadir Subhi mudirni eslatib yubordi...

Sodiq o'zi mudir bo'lgan fotostudiyaga kelganida devordagi soat to'qqizni ko'rsatmoqda edi. U eshik og'zida to'xtab, kumushrang harflar-la "Fantaziya fotostudiyasi" degan yozuv bitilgan to'rtburchak lavhga tikilib qoldi va harflar xiralashganini ko'rib bosh chayqab qo'ydi.

Ichkari kirib to'rtta zinadan iborat pillapoyadan chiqishi hamono laboranti Jumshud oyoq uchida yurib unga yaqinlashdi va tili tutilib:

– Keldi, – dedi. Uning rangi oqarib ketgan, chap ko'zi qontalash edi.

– Kim keldi? – deya Sodiq Jumshudning bir og'iz sirli ma'lumoti-yu bu ahvolga qanday tushganini anglamay so'radi.

Jumshud ovozini pastlatib:

– Rejissor keldi. Anavi aktirasaning eriman, deydi. Rasmga tushgani kelgan aktrisa-chi...

Sodiq o'yga tolib qoldi. O'n kunlar avval rasmga tushgani kelgan o'sha go'zal va mashhur aktrisani esladi.

U jala quygan kuni kelgan edi. Sodiq stol ortida yomg'irdek simillab turgan og'riqdan shisha boshlagan chap tizzasini silab o'tirar, oldidagi buyurtma qog'ozlarini ko'zdan kechirar edi. U avvaliga yengil xushbo'y ifor tuydi. Atir isi. Butun e'tibori oldidagi qog'ozlarda bo'lgani uchun kimdir xo'rsinganini eshitsa-da darrov bosh ko'tarib qaramadi.

– Kechirasiz, fotograf sizmisiz?

Ovoz uzoqdan kelganga o'xshardi. Sodiq boshini ko'tardi. Qarshisida turgan go'zal ayolga beixtiyor hayrat bilan qarab qoldi. Xotinning moviy plashchi, boshidan yechib qo'lida tutib turgan moviy ro'moli, oyog'idagi moviy poyabzali, chap qo'lining shahodat barmog'ida yaraqlayotgan tilla uzugining moviy ko'zi avvaliga Sodiqqa g'alati ko'rindi. Keyin esa saraton jaziramasida qurib qolgan yer yoriqlaridan sizib kelayotgan suv misoli unga rohat bag'ishladi. Hatto Sodiq jonli bir insonga emas, umuman, moviy rangga boqib turgandek sezdi o'zini...

Ayol shirin jilmaydi, qop-qora ohu ko'zlarini biroz suzib, oshkorasiga odamni eritvoradigan bir samimiyat bilan Sodiqqa tikildi va qayta so'radi:

– Suratkash sizmisiz?

– Ha, menman... Keling.

– Men rasmimni oldirsam devdim.

– Marhamat qiling.

– Yechinsam bo'ladimi?

– Nima deysiz?..

Sodiq joyidan turdi va stol ortidan chiqib soddadil jilmayib turgan aktrisa tomon yurdi. Plashchini osadigan joy ko'rsatdi.

– Siz anavi filmda...

– Ha, o'sha... – dedi aktrisa uning gapini kesib. – Qayoqqa o'tay?

– Marhamat, bu yoqqa...

Keyin nima bo'ldi?.. Aktrisa pavilonga o'tib chap tarafda devorga qoqilgan yumaloq ko'zgu qarshisida sochini taradi. Nimadir so'radi, javobini kutib o'tirmay o'tib pastak, suyanchiqsiz kursiga, fotoapparat qarshisiga o'tirdi. Jumshudning negadir qo'rqa-pisa kelib aktrisaga qaragani, chiroqlarni yoqqani, Sodiqqa pichirlab gapirgani-yu qanday kelgan bo'lsa shunday – oyoq uchida yurib iziga qaytgani unchalik yodida qolmabdi. Faqat shu narsa uning yodiga aniq muhrlangan ediki, chiroqlar yonganda, fotolampalarning kuchli yorug'i aktrisani yoritib yuborganida Sodiqning o'zi ham beixtiyor vaqtni cho'zishga urindi. Bir necha daqiqa fotoapparat atrofida kuymalandi, shtativning joyini almashtirdi, kassetalarni qidirishga mashg'ul bo'ldi. Shu ishlarni qilayotganida esa aktrisadan ko'z uzmadi. Faqat oxirgi kassetani qora qutidan olib shoshilmay apparatga joylayotganida aktrisaning bezovta va birmuncha asabiy qaraganini sezib boshini quyi soldi. Yuragi urib ketdi. Bola kezlari munajjim otasi bilan Qrimga borganida o'zi teleskopda kuzatgan olisdagi moviy yulduzni esladi – go'yo uni endi ko'rib qolgandek... Keyin birdan bir haftadirki soqolini qirtishlamagani yodiga tushdi, shimi ham otam zamonidan beri dazmol ko'rmagan, tizzalari chiqib ketgan. Saraning, onkologiya dispanserida shafqat hamshirasi bo'lib ishlayotgan xotinining homiladorligini ham o'yladi. Beixtiyor qo'lini yuziga olib bordi va uzun, ozg'in barmoqlari iyagini siladi – soqoli tikandek qo'liga botdi. Sodiq birdan o'zini charchab holdan toygan qariya misoli nochor va yolg'iz sezdi: moviy yulduz sekin-asta yog'dusini yo'qota boshladi.

Xo‘sh, keyin-chi, nima bo‘ldi?.. Sodiq aktrisani suratga oldi. Aktrisa pavilondan chiqdi. Sodiq ham chiroqlarni o‘chirib, uning ortidan yurdi. Patta yozdi. Aktrisa ketaturib:

– Balki rasmlarimni olishga kelolmasman. Birortasini jo‘nataman. Maylimi? – dedi.

– Mayli.

Aktrisa ketdi. Moviy rang ham, atrining xush bo‘yi ham u bilan ketdi.

Xo‘sh, keyin, keyin nima bo‘ldi?..

Rostdan ham suratlarni olishga aktrisaning o‘zi kelmadi, odam jo‘natdi.

Sodiq yana stol ortida o‘tirgan edi.

– Rasm olgani kelgan edim.

Sodiq boshini ko‘tardi. Kelgan odam qo‘lini qora qalin paltosining ichki cho‘ntagiga tiqdi.

– Mana bu, haligi nimaydi, kvitansiya. — U Sodiqning ro‘parasiga keldi. Sodiqning dimog‘iga yana atir isi gup etib urildi: bu gal arzon odekolonning dimoqni yorgudek o‘tkir hidi.

Sodiq stol tortmasini tortib suratlar solingan katta qora konvertni oldi va unga uzatdi. U diqqat bilan, kula-kula suratlarni tomosha qilayotgan bu odamning soqoli toza kuzalgan barkashdek go‘shtdor yuziga nazar tashlab negadir o‘zini yomon his etdi. Qirmizi yonoqlar, qirmizi lab, oppoq durdek tishlar, dumaloq ola ko‘zlar, baqbaqali engak – bular Sodiqqa yoqmadi.

– Puli qancha bo‘ladi buning?

Sodiq unga pastdan yuqori qaradi. Yana tirjayib turibdi. Bu safar aftidan Sodiqning ustidan kulyapti.

– Uch manat.

– Hozir, bir daqiqa. – U shimining orqa cho‘ntagidan qahvarang hamyonini olganida Sodiq qoshlarini chimirib boshini egib oldi. Surat narxini oltmish tiyin qimmat aytgan edi.

Ko‘cha eshik taq etib yopildi. Sodiq Jumshudning ovozini eshitdi:

– Tanidingmi? – U xonaga kirmasdan laboratoriya eshigida turgancha kelgan odamni kuzatgan edi.

– Kimni aytyapsan? – dedi Sodiq boshini ko‘tarib Jumshudga qararkan.

– Hozir ketgan odamni-da.

– Yo‘q. Kim edi u?

Jumshud Sodiqqa yaqinlashdi. Xuddi muhim sirni fosh etayotgandek ajib bir jiddiyat bilan:

– Mashhur odam. Abbos zargar. Yaxshi yigit o‘zi.

Sodiq nimadir so‘ramoqchi edi-yu, stolning chap tomonidagi katta jild ustida yotgan pulga ko‘zi tushdi: ikkita o‘ntalik. Hayratdan ko‘zlari katta-katta ochildi. Jumshud ham pulni ko‘rdi. U qo‘llarini ishqalab:

– Ana, senga aytmadimmi? Abbos zargar...

– Ajabo, aktrisaning kimi ekan u?

Jumshud yelka qisdi...

Hozir ham Jumshud yelka qisgan ko‘yi Sodiqning qarshisida turibdi. Sodiq o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgandek takrorladi: “Rejissor... Aktrisaning eri...”

Rejissor kresloda o‘tirardi. Qadam tovushini eshitib ortiga o‘girilganida Sodiq 40-45 yasharlar ozg‘in, rangpar, ko‘zlari qonga to‘lgan kishini ko‘rdi.

– Usta sizmisiz?

– Ha, men.

– Marhamat, o‘tsinlar! – U o‘ng qo‘lini baland ko‘tarib stol girdidan Sodiqqa joy ko‘rsatdi. Bu qilig‘i Sodiqning jahlini chiqardi: “Artist-da, artist!”

Sodiq o‘tib o‘tirdi. Go‘yo sehrlangandek rejissorning og‘ziga qaradi. Rejissorning pastki labi qiyshayib ketdi. Birozdan so‘ng Sodiq boyagi bo‘g‘iq va hayajonli ovozni eshitdi:

– Mening sizga birgina savolim bor. Tabiiyki, izn bersangiz...

– Bemalol.

– Olgan suratlaringizni jamoatga ko‘rsatishga kim sizga ruxsat berdi?.. Javob bering!

Sodiq aktrisaning suratlarini olib ketishga kelgan Abbos zargarni esladi. Egnida ratin palto, boshida so‘nggi yillar Bokuda urf bo‘lgan “gurju” qalpoq , burqsigan odekolon...

– Uzr-ku, nima demoqchiligingizni yaxshi tushunmadim. – Sodiq oraga cho‘kkan asabiy jimlikni buzish maqsadida va savolning javobini kechiktirgani uchun shosha-pisha gapirishga majbur bo‘ldi.

Rejissor boshini yonga egdi, uning ko'zlari chaqchayib ketdi. Istehzoli ohangda, atay so'zlarni cho'zib-cho'zib:

– Taassuf, ming taassuf! Umuman olganda, oxirgi vaqtlar, ha, oxirgi vaqtlar meni ko'pchilik yaxshi tushunmayapti. Hech bokisi yo'q, ruxsat bo'lsa, men savolimni yanada aniq qilib qaytarishim mumkin. Ruxsat bo'lsa... – dedi.

U birpas miq etmay qoldi. Chuqur nafas olgachgina, so'z qotdi:

– Siz xotinimning rasmlarini, mening qonuniy xotinimning suratlarini Abbos Mirzayev degan odamga beribsiz. Kimdan so'radingiz?..

– To'g'ri, berdim, – dedi Sodiq rejissorning gugurt qutisini sindirib, yo'g'on barmoqlari orasida taqillatib asabiy tamaki tutatishidan ko'zini uzmay. – Xotiningiz ketayotganda menga, suratimni olishga o'zim kelolmayman; birortasini jo'nataman, deb aytib ketgan edi. Men suratni kvitansiya bo'yicha berib yubordim.

Rejissorning qoni qochgan yuziga tund bir qizillik yugurdi. Keyin Jumshudga qarab kuldi, to'g'rirog'i, kulishga urindi.

– Izningiz-la, men boraqolay. – dedi u Sodiqqa o'girilib. – Vaqtingizni oldim, aybga buyurmang. Bu yerga kelmasligim kerak edi, aslo. Uyat bo'ldi!..

Rejissor joyidan qo'zg'aldi. Sodiqqa shunday tuyuldiki, qattiqroq baqirsa, u yiqilib o'ladigandek.

Bugun Sodiqning hayoti g'aroyib otlarga boy bo'ldi. Boshini quyi eggan ko'yi qizil parda ortiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'lgan rejissorni Subhi mudirga o'xshatishining o'zi g'aroyib emasmi?.. Sodiq boshini changalladi.

Har kimning o'ziga yarasha dardi bor. Har bandaning. Balki kechagi kunga qadar rejissor o'zini dunyodagi eng baxtiyor odam deb sanagandir. G'alati, juda g'alati. Aktrisa, moviy yulduz va Abbos zargar... Xudo ko'tarsin sizlarni...

Jumshudning ovozi eshitildi:

– Zargar Abbosni qara...

Sodiq bosh silkidi.

– Yigirma manatni bekorga bermagan ekan-da, ablah! Sening og'zingni moylash uchun ekan. Tuf, senlarning bu iflosliklaringga... – dedi Jumshud.

Sodiqning yuragi sanchib ketdi.

– Haligi gap bor-ku, xotinning yaxshisiga ham la'nat, yomoniga ham! Pastkashlikni qarang-ey! Izningiz-la, izningiz-la... Tuf, sizlarning bema'niliklaringga!..

Pastkashlik?! Kim pastkash? Aktrisami? Abbos zargarmi? Yoki rejissorning o'zimi?..

Endi bularni o'ylab bosh og'ritgandan nima foyda? Kimdir baxtidan mosuvo bo'ldi, kimdir shu ishdan baxtiyor. Biroq... Sodiq o'sha yigirma manatni qaytarib berishi kerak.

Sodiq Suraxoni tarafdagi, neft konidan ikki yuz chaqirimlar uzoqdagi poydevor toshlari tutundan qorayib ketgan bir qavatli uylarni esladi. Uch go'dakning ovozi quloqlarini qomatga keltirdi: "Tog'am keldi...". "Tog'am menga pirog keltiribdi". "Tog'am meni yozda dengizga olib boradi..." Abbos zargar keldi, suratlarni tomosha qildi. Stol ustiga ikkita o'ntalikni qo'yib, ura ketdi. Ehtimol, u umri bino bo'lib "Tog'am menga pirog olib kelibdi" degan gapni eshitmagan hamdir.

Yana Jumshudning ovozi keldi:

– Ey, do'stim, nega siqilasan? Qurib ketmaydimi bari! Kel, nonimizni yeylik. Sharbatdan boshqa og'zingga hech vaqo olmagansan bugun.

Sodiq boshini ko'targanda Jumshud allaqachon katta yaltiroq portfelini stol ustiga qo'yib, har doimgidek ichidan yuz gramm kolbasa, yuz gramm golland pishlog'i va yarim kilo non olib dasturxon tuzagan edi.

– Sodiq, bismilloh, ol qani.

– Yemayman.

– Xato qilasan. Bu pishloqni yemabsan, bu dunyoga kelmabsan!

– Yegim kelmayapti.

Jumshud tushlikni boshlab yubordi. Yonoqlari ichiga botib ketgan ozg'in qoramag'iz yuzining mushaklari qimirlay boshladi. Sodiq aniq ko'rdiki, bir bo'lak pishloqni og'ziga solib chaynashi bilan Jumshud butun dunyoni unutdi. Birpasdan keyin u:

– Ertalab radio eshitmadingmi? – deb qoldi.

– Yo'q.

– E, dunyodan xabarim yo'q desang-chi!.. Uchta odam Marsga uchdi!

– Marsga?..

– Ha, naq Marsning kindigiga. Dunyo bir-biriga to‘qnashdi. Menga qara, azizim, manavi pishloqdan yesang-chi.

Sodiq bosh chayqadi. Beixtiyor, ammo achchiq taajjub ila esladi: “Subhi mudir, aktrisa, Abbos zargar, rejissor...” Yana “Tog‘am menga pirog olib kelibdi, ey Xudoyim...”

U qo‘l cho‘zib telegrammani oldi. Oxiridan boshiga qarab o‘qidi: “Qo‘shnilari. Janoza payshanba kuni. Ammang kutilmaganda vafot etdi.”

Ikki yil avval yozda ular qishloqqa borganda Saraning ammasi qurbonliqqa jonliq so‘ydirgan, uyida katta maraka bergan edi. Qishloq oqsoqollari kelib Sodiq bilan ko‘rishgan... Bundan ikki yil avval yoz oylarida Sodiq roppa-rosa ikki hafta umrining eng betashvish kunlarini boshdan kechirgan edi.

Bugun er-xotin qanday bo‘lmasin qishloqqa yo‘l olishi kerak. Janozaga yetib bormagan taqdirda ham uchi, beshi, qirqini o‘tkazishlari kerak. Eh, seni Xudo ko‘tarsin! Xullas, guruch, qand, yog‘ xarid qilib olishsa bo‘ldi.

Sodiq telegrammani avaylab buklab stol ustiga qo‘ydi. Borib xonadagi yagona karavotga uzandi. Birozdan keyin turib chiroqni o‘chiraman, tunlik kiyimimni kiyaman deb o‘ylagan edi. Biroq uyqu zo‘r keldi. Derazaning ochiq darchasini yopish ham esidan chiqibdi. Muzdek toza havo bilan birga ko‘chaga o‘rnatilgan radiokarnay ovozi ham xonaga baralla kirdi. Sodiqning miyasi uyqudan karaxt, “Mars” degan birgina so‘z qulog‘iga chalindi.

Tush ko‘ribdi: Oyning eski ko‘chalaridan birida yangi suratxona ochganmish. Fil suyagidan yasalgan eshigi ustiga katta tillarang harflar bilan ”Foto-fantaziya” deb yozilganmish. U o‘yinchoqlarni rasmga olarmish. Laboranti esa Subhi mudir emish.

OSTONA

Yo‘q, uni endi hech narsa bilan hayratlantirib ham, quvontirib ham bo‘lmaydi, hammasi ortda qoldi, orziqib kutishdan boshqa hech narsa, ha, hech narsa qolmadi.

Atigi bir soat ilgari quyosh tepada, zamindagi barcha mavjudotga nurini sochib, qizdirib turgan edi, endi esa, ana, qoyaning soyasi cho'zilib yotibdi. Bir soat, ehtimol, ikki soat... Vaqtni chalkashtirib yubordi: taksi uni kumush kamar kabi cho'zilib yotgan janubiy shossega tushirib ketganidan beri qancha vaqt o'tdi – vaqt tezlashib ketdimi yoki unga noma'lum bo'lgan qandaydir qonuniyat bilan kechdimi – bilolmay qoldi. U sumkasini mahkam quchoqlagancha yo'l chetida turib, mashina orqasiga qaytib ketgunicha kuzatdi. Mashina shahar tomonga yo'l oldi, u mashinaning orqa chiroqlariga termulib o'yga toldi: endi uni hech narsa – odam ham, mo'jizakor deb unga olib kelishgan bir emas, ming bir tumor ham himoya qila olmaydi. Namchil tungi salqindan boshqa hech narsa yo'q va bo'lmaydi ham.

Ikkita kichkina qizil nuqta tunda ip kabi cho'zilib ketdi va og'ir bemorning bazo'r yongan umid uchqunlari so'ngani kabi to'satdan o'chdi: qop-qora tunda ko'zlari charaqlaganini tasavvur qildi. Shu topda u yolg'izoyoq yo'l ham bo'lmagan tarafga otlandi, tobora yuqoriga ko'tarilib boraverdi, boraverdi, ustiga toshlar qulab tushishidan ehtiyot bo'lib, har qadamini dadil tashlar, bu bilan mutlaqo yopib tashlangan darvozani zabt etayotganday his etar, ahyon-ahyonda qandaydir vahimali tovushlar eshitilardi. Ammo qulog'i ostida bot-bot jaranglayotgan telefon qo'ng'irog'i oldida bular hech narsa emasdi. Hali qirq uchga ham to'lmasa-da, umuman olganda, yomon yashamadi. Birdan hammasidan ayrildi, evaziga kutish, umiddan ko'ra umidsizlik ko'proq bo'lgan kutish qoldi, xolos.

U ertalab yerto'laga o'xshash joyda, silliq toshlar ustida yotganday uyg'ondi. Bosh tomonida ikkita qirrali qoya ko'rinar, qoyalar orasidan quyosh nuri uning yuziga tushib turardi. Dengizdan chiqqan quyosh qip-qizil, yum-yumaloq edi. Qoyalar oralab bulutsiz, tip-tiniq osmon ko'rindi, quyosh ko'zga tashlanib turgan shu "darcha"dan sarg'ish nur bo'ylab qizil yo'lak paydo etdi-da, unda kecha uni mana shu qoyalar ostonasiga olib kelgan taksining faralari yondi.

U ko'zini yumdi, qandaydir qo'rquv vujudini qopladi. Bundan o'zi ham hayron bo'lib, paypaslab sumkasini qidirdi. Bu yerda uni kim olishi mumkin? Uning boshi uzra aylanib yurgan narsa nima?

Ilonmi, kaltakesakmi yoki qirg'iymi? Kulgili... Aslida, buning sira kulgili joyi yo'q. U ko'zini ochishni istamasdi, tasavvuri bo'yicha yorug'likdan uzoqlashdi, hozir unga yorug'likdan ko'ra qorong'ilik ma'qul ekanini angladi. Zero, qorong'ida hech narsani ko'rmaysan – mana bu vahimali qoyalarni ham, ularning o'tkir qirralarini ham, huv pastdagi dengizning qudratli to'lqinlarini ham ko'rmaysan. Tungi telefon qo'ng'irog'i bir zumga uni borliqdan ajratdi va mana shu kimsasiz joylarga kelib qoldi.

U kecha taksini ko'zdan g'oyib bo'lgancha kuzatib turarkan, qo'qqisdan sumkasini ochganini, kayfiyati o'zgarganini, ikki-uchta buterbrod, oddiy kran suvi solingan termosni olganini esladi. Sakkizta o'q joylangan "TT". Meni shunaqa qilib qo'lga olmoqchi bo'ldinglarmi? Olib bo'psiz! Shoshmay turinglar! Biz ham nonni nanna deydiganlardan emasmiz. Qop-qorong'i joyda ko'zi o'ynayotganini sezdi, his qildi. Hozir vujudini qoplagan g'azabning sababini anglab yetishni, uni qanday atash lozimligini o'ylay boshladi.

Keyin yo'lga tushdi, aslida, yo'l qayoqda, oddiygina yolg'izoyoq yo'l ham yo'q, yuqorilab boraverdi, boraverdi... Ammo qorong'ilik vahimali tuyuldi, qoyalarning o'pirilgan joylari yanada qo'rqinchli, go'yo birdan qulab ketayotganday ko'rinardi. Uxlama, uxlama, uxlasang keyin uyg'onolmaysan... Baribir u uxladi, xush yoquvchi tushlar ko'rdi, biroz orom olganday bo'ldi, aks holda aqldan ozib qolishi hech gap emasdi.

Kun kech bo'layotir, jazirama biroz pasaydi, ammo qip-qizil, yumaloq quyosh hamon qoyalar orasidan taftini sochib turardi. U butun vujudida bu iliqlikni tuydi. Oyog'i ostiga tushib turgan quyosh nuriga, so'ng osmonga – botayotgan quyoshga termuldi. U bunday holatni birinchi marta kuzatdi, ammo ajablanmadi, odatiy hol bu, Yaratgan butun mavjudotga o'zi ato etgan hayotni vaqti-soati kelganda qaytarib olgani kabi quyosh ham o'z tafti va nurini qaytarib olmoqda, deb o'yladi. Kimdir oldin, kimdir keyin ketadi, barchasi yolg'iz Alloh ixtiyorida. Toshlar orasidan g'alati ovozlar eshitildi, go'yo kim kimnidir chaqirayotganga yoki nimadir demoqchi bo'layotganga o'xshar, lekin inson zoti uchun tushunuksiz edi.

...Qaydadir ona bolasini emizardi, go'dak qalqib ketib, sut og'zi atrofiga oqdi.

Uning boshi og‘ridi. Og‘riq boshining ich-ichida – allaqachon unutilgan xotiralardan bo‘lak hech narsa – na umid, na sog‘inch va na-da biron bir xohish qolgan – bo‘m-bo‘sh joyda edi. Unutilgan xotiralar va og‘riq. Boshqa hech vaqo yo‘q. Og‘riq esa shu qadar qattiq va yoqimsiz ediki, sira chidash mumkin emas. U yerda – boshining ichkarisida nima borki, bu qadar qattiq og‘riydi?! U yana sumkasini ochdi, o‘ninchi, balki yuzinchi marta tekshirib ko‘rdi, sumkasi joyida turibdimi, yo‘qmi? So‘ng muzday sovuq po‘lat to‘pponchaga qo‘lini qo‘ydi va ancha payt shu tarzda o‘tirdi. “Meni shunaqa qilib qo‘lga olmoqchi bo‘ldinglarmi. Olib bo‘psiz!”. Bezgak singari titragan lablari pichirladi, ammo ovozi eshitilmadi, tovushi chiqmas edi.

U sumkasidan termosni oldi, qopqog‘ini ochdi, bir qultum sovuq suv ichdi, shunda go‘yo yonida turganday o‘n metrlik oshxonasi hidini, xotini va sakkiz yoshli o‘g‘lining bo‘yini tuydi. U o‘lguday qo‘rqib ketgan xotinining chayqalishini, to‘pponchasini olib sumkaga joylaganini titrab-qaqshab kuzatgan holda devorga suyanib qolganini, xotinining ko‘zlarida quturgan itlar ko‘zida bo‘ladigan vahimali qo‘rqinchni esladi, ko‘z oldiga keltirdi. Telefon qo‘ng‘irog‘idan keyin uyning havosi og‘irlashib qolganday, hamma yoqni ammiak hidi tutganday bo‘ldi. Bu og‘ir havo go‘yo uning o‘pkasiga o‘rnashib qolgan edi, ancha paytgacha undan qutila olmadi. Bu yerda chala yarim uyquda, tushida uning qoldiqlarini chiqarib tashlay olarmidi...

Termosni sumkaga soldi, uni yopdi va oyog‘i ostiga qo‘ydi. So‘ngra bosh og‘rig‘ini sal bosmoq uchun joyini almashtirdi – qoya soyasi qalinroq bo‘lgan o‘ng tomonga o‘tdi-da, qoyaga suyandi, sumkasini yoniga qo‘ydi, ammo bosh og‘rig‘i bosilmadi, yo‘q, zarracha ham pasaymadi. Agar migren bo‘lganida uni qanday tuzatish kerakligini bilardi: boshiga biron narsa o‘rab, peshonasini, chakkalarini uqalasa, og‘riq bir zumda bosilardi. Ammo hozirgisi juda g‘alati, tushuniksiz edi. Bunaqa og‘riq inson zotiga umri davomida ehtimol bir marta, nari borsa ikki marta kelsa kerak – o‘lim ostonasida.

Shu zahoti u aniq anglab yetdiki, endi uyiga qaytmaydi, hech qachon, ertaga ham, indin ham, hech qachon borolmaydi, shu yer-

da qolishga mahkum, o'ladi, mana shu joyda, tepasida qirg'iylar uchib yurgan qoyalar orasida o'lib ketishi tayin. Endi sira ham uyiga borolmaydi. Uni uyidan marhumni olib chiqqan kabi chiqarib yuborishdi. U o'z murdasini o'zi ko'tarib, mana shu kimsasiz xarobalarga olib keldi.

Ey, qudratli zot! Barcha bandangga qabr nasib et! Kim aytgan bu gapni? Inson yolg'iz qolganida xayoliga turli fikrlar keladi. U hozir tom ma'noda yolg'iz edi. Aslida, hech kim hech qachon mutlaqo yolg'iz qolmaydi.

Bu fikr uning dilini yoritdi, og'riq ham go'yo tark etdi – birdan bosildi. Chakkalari sovuganini va butun badani hayratli darajada yengil bo'lib qolganini his etdi. Bunday holat, kayfiyat juda murakkab to'siqlarni sakrab o'tgan va haqqoniy dam olishga borayotgan chavandozda bo'lishi mumkin.

U onasining ajin bosgan yuzini, ozg'in qo'llarini esladi. Onasi tok bargidan tugilgan issiq do'lma to'la qozonni ko'tarib, o'zi bilan o'zi gaplashgan holda har qavatda biroz nafas rostlab beshinchi qavatga chiqqanlarini xayolan tasavvur qildi. Ularning uyida lift yaxshi ishlamasdi, ba'zan umuman ishlamasdi, bir marta qavatlar orasida to'xtab qolganidan keyin onasi liftga ishonmay qo'ygan, shundan beri hansirab-hansirab bo'lsa-da, o'zi ko'tarilardi beshinchi qavatga. Onasi haftada bir-ikki marta biron tansiq ovqat pishirib shaharning u chekkasidan bu chekkasiga o'g'li, nabiralari uchun ko'tarib kelardi. U onasining zinalardan qiynalib chiqishi oqibatida o'pkasi og'ziga tiqilgudek hansirashini, kech kuzda to'kilgan xazonlar uzra yurganda eshitiladigan ovoz kabi xirillagan nafas olishini esladi. So'ng qandaydir shildiragan, tahlikali ovozni eshitdi, ammo so'zlarini tushunmadi, ibodat qilyaptimi yoki tavba-tazarrumi – bilib bo'lmasdi.

... Qayerdadir ona bolasini emizardi, bola qalqib ketdi va sut og'zi atrofida oqa boshladi...

Boshining oldin og'rigan joyida yana og'riq boshlandi, ichkarida nimadir tarang tortilganday tuyular, go'yo boshini po'lat sim o'rab olgandek edi.

Onasi beshinchi qavatga chiqib borolmadi, to'rtinchi va beshinchi qavat o'rtasidagi maydonchada tik turib qoldi. Projektorlar

o‘chdi. Tun qop-qora, vahimali edi. Ancha pastlikda dengiz tinimsiz shovullar, bu ovoz dengiz to‘lqinining qirg‘oqqa urilishi emas, million yillar ilgari yer sharining ulkan chuqurliklaridan birida to‘plangan suvlarning hayajonli, dardli ovozlari edi. Qanaqadir sovuq uning suyak-suyagigacha o‘tib ketdi. O‘zini ehtiyot qilish uchun yelkasi bilan qoyaga suyandi, kunduzgi issiqning tafti hali qoyada saqlanib qolgan, boz ustiga, qoya uni go‘yo himoya qilardi. U g‘ujanak bo‘lib uzoq o‘tirdi. Shu mahal qarshi tomondagi qoyada g‘aroyib suratlarni ko‘rdi: ibtidoiy odam qo‘lida nayza bilan bahaybat hayvon izidan borardi... Ey, Xudoyim, bu qayerda bo‘lgan?!

Asabiylashma, tinchlan, sen o‘zingni yashirish uchun izlab topganing mana shu huvillagan kimsasiz joydasan. Va anchadan beri ishlatilmay yotgan to‘pponchang ham shu yerda, ana, sumkada. Axir, sen xilvat joyga shuning uchun kelmadingmi? Nayza ham necha asrlardan beri egasini kutib yotibdi, ko‘ramiz kimga nasib etarkan...

Tun o‘ta tashvishli kechdi. Million yillar ilgari yer sharining ulkan chuqurliklaridan birida to‘plangan suvlarning dardli shovullashi shundan darak berardi. Dengizning bunaqa shovullashini umrida birinchi marta eshitayotgan edi. Balki oxirgi marta eshitayotgandir. Bir zum uning xayoli uyiga ko‘chdi: shinam oshxona, onasi pishirib kelgan do‘lmani isitib, oldiga qo‘ygan xotini ko‘z o‘ngidan o‘tdi. (Onasi olib kelgan do‘lma shu qadar mazali bo‘lardiki... Immm...).

Telefonning tahlikali qo‘ng‘irog‘idan keyin xotiniga “Iloji bo‘lsa... onamning qirqini o‘tkaz...” dedi.

“Quturgan pullar ham tugadi... Bolalarim, sabrli bo‘linglar”.

Ro‘parasida nayza, qo‘lida to‘pponcha... Aqldan ozib qolish hech gap emas. Uxlash kerak. Bu vahimali tundan faqat uxlab qutilish mumkin.

Tizzalarini bukib, sumkasini quchoqlab oldi, ko‘zlarini qattiq yumdi. Qandaydir hasharotning chirillagan ovozi va anglash qiyin bo‘lgan shitir-shitir qulog‘iga chalindi. Yuzlari, butun badanidagi toshday qotib qolgan muskullari bo‘shashib borayotganini sezdi, barcha tashvish va qo‘rquvlarni unuta boshladi. Uyqu va tushlar uni o‘z og‘ushiga olgandi.

Bu yerga yaqinroq joyda qabriston bormikan? Onamni rahmatingga ol, Allohim!

Aloq-chaloq tushlar orasida bir fikr urildi miyasiga. Hasharotning chirillashiga o'xshagan tovush o'ylarini to'zg'itib yubordi. Hammasi tugadi. Endi bu dunyoda uning uchun hech narsa – quvonchu hayrat ham, tashvishu g'am ham qolmadi, hech narsa qolmadi. Hammasini o'sha yoqqa – qayerdan kelgan bo'lsa, o'sha joyga tashlab keldi.

Ha, barcha narsani – onasining hayoti va o'limini, xotinining tomog'ini yirtgudek bo'lib baqirishini, sakkiz yoshli o'g'lining beparvoligini, yigirma beshtalik va elliktaliklar bilan liq to'la sumkasini, tillolar solingan uchinchi sumkani (uni ikki oycha ilgari xotinining qishloqda yashaydigan qarindoshiga berib kelgan edi) o'sha yoqda qoldirdi. Bularning hammasi bugun uning uchun ahamiyatsiz, bir chaqalik qimmati yo'q. Barchasini tashlab keldi u, bir umrga qoldirdi. Farishta Isrofil Ro'zi Mahsharga chorlovchi surnayini chalguncha o'sha joyda yotadi ularning barchasi. Bu yerga o'zi bilan kutishni, aqlsizlikka o'xshagan kutishni olib keldi, xolos. Bu tuyg'uni u barcha narsada ko'rardi: qoyalarda, tungi shitir-shitirlar va qushlarning qo'qqis chiyillashlarida, uzoqdagi dengiz shovullashida sezardi. Nazarida atrofidagi barcha narsalar u singari oxirgi surnay chalinishini ilhaq kutmoqda edi.

Gohida unga umid uchqunlari ko'rinardi, u goh yonib, goh o'chib turardi. Bu holat unga kecha tunda uni mana shu ovloq joyga tashlab ketgan taksining o'chib-yongan faralarini eslatardi. Ajib bir umid va ishonch qalbini zabt etdi, nazarida mo'jiza ro'y beradi-da, ertalab, ehtimol, erta oqshom ukasi uni qidirib bu yerga keladi-da, "Bo'ldi, hammasi joyiga tushdi, hech narsadan qo'rqma, qayt uyga", deydi. Uchta so'z, ha, atiga uchtagina so'z, Allohning mo'jizasiga teng keladigan uchta so'z!

Kutish uni shunday toliqtirdiki, yuragi toshdan ekan, aks holda chiday olmas, allaqachon yorilib ketardi.

Xayolini chalg'itish uchun chang bosgan tuflisiga termuldi va ipini yechdi. Tuflisi va paypog'ini yechdi-da, namchil yerga oyog'ini qo'ydi. Oyog'ining barmoqlari jimirladi, tovoni, oyog'ining ostida nimadir o'rmalaganday, tomirlari uzra chimillagan narsa yugurganday tuyuldi. Sumkasidan termosni oldi va hali isib ulgurma-

gan suvdan ikki-uch qultum ichdi. U termos qopqog'iga labini tekkizarkan, ular biroz shishganday, salgina og'riganday sezdi, bu – tungi qo'rquv va vahimaning ta'siri bo'lsa kerak, deb o'yladi. Bu yerga kelganidan beri u birinchi marta o'pkasini to'ldirib nafas oldi, chuqur xo'rsindi. Yaxshiyam chekishni tashlaganim. Aks holda bu yerda sigaretsiz rosa qiynalardim.

Bir necha yil burun qamoqdagi amakisini ko'rgani borganini esladi. Tavba, barcha qarindoshlari peshonasiga yozilgan ekanmi qamoqda yotish?!

Uchrashuvning dastlabki onlari yodida qolmagan, ikkovi ham hayajonda edi. Qalin oyna orqali gaplashishdi, telefonda gaplashgandan hech farqi yo'q edi. Amakisi qora kiyimda. Qalin qop-qora sochlari butunlay oqarib ketgan, bu oqarish yuzlari-yu qo'llarigacha ta'sirini o'tkazgan edi. U amakisiga bir blok sigaret bermoqchi bo'ldi va nazoratchidan bunga ruxsat so'radi, ammo amakisi rad etdi. "Chekishni tashladim, – dedi oyna ortidan, – yaramas odat bu. Senga ham maslahatim, chekishni tashla..."

U avvaliga amakisining gapiga e'tibor bermadi, temir darvozadan chiqayotib uni to'satdan qanaqadir qo'rquv bosdi va shu zahoti chekishni butunlay tashlashga qaror qildi. To'g'ri, birdaniga tashlay olmadi, ammo tashladi. "Quturgan pullar ham tugadi... Bolalarim, sabrli bo'linglar".

Sovuq uning a'zoyi badaniga o'tib ketdi, qamoqxonadan mehmonxonaga borguncha dublyonkasining yoqasini ko'tarib, telpagining quloqchinini tushirib oldi. Yo'lda uchraganlarga ajabsinib qarab qo'yadi: ular bu sovuqqa qanday chidar ekan-a, u bunday joylarda bir kun ham yashamasdi. Oyog'i ostida g'archillayotgan qorday sovuq fikr miyasiga urildi.

"Quturgan pullar ham tugadi. Bolalarim, sabrli bo'linglar!"

Quyosh boshi uzra nur sochib turardi, u xuddi qonga to'la tillo gardishli tog'oraga o'xshardi.

U telefon qo'ng'irog'idan keyin tezda kiyinib mikrorayondan shahar markaziga – ukasining uyiga piyoda jo'nadi. Ukasi oyoq-yalang, ichki kiyimda eshikni ochdi va shu holda turib qoldi, hali uyqusi tarqab ulgurmagandi, mast odamday chayqalib ketardi. Ukasining orqasida guldor xalatining tugmasini qadagan bo'yi ke-

lini mo‘ralab turardi. U hayajon va vahima og‘ushida, ammo o‘zini bazo‘r tiyib olgan, ko‘zlari kayfiyatining ifodasi edi. Kelinining holatiga qarab o‘zini noqulay sezdi. U tez-tez gapirib ukasiga tushuntirdi: nima qilish kerak, qanday qilish kerak, o‘zini qayerdan qidirish kerak. So‘ngra xayrlashmay chiqib ketdi. Eski, to‘kilib yotgan zinalardan tushar ekan, eshik asta yopilganini eshitdi va o‘ziga o‘zi shivirladi: “Meni qo‘lga olmoqchi bo‘ldilaringmi, olib bo‘psanlar!” Mana shu eski, to‘kilib yotgan, xira yoritilgan zinada birinchi marta shu so‘zlarni aytdi, keyin bir necha marta takrorladi. Biroq tahlikali telefon qo‘ng‘irog‘idan keyin uzil-kesil qarorga keldi va to‘pponchasini olib sumkaga joyladi, shunda xotinining ko‘ksidan ingrash otilib chiqdi. Avvaliga itning g‘ingshiganiga o‘xshash bu ovoz qayerdan kelganini anglamadi, hovlida yurgan daydi itlarning ovozidir, deb o‘yladi. To‘pponchani sumkaga joylab, xotiniga qaradi va bildiki, xotini uning qarorini ma’qullayotir, binobarin, xuddi o‘zi kabi xotini ham boshqa yo‘l ham, chora ham ko‘rmayotir. Ofarin!

Sarpoychan oyog‘ini yig‘di, qichish va zirqirab og‘rishlar bosilgan edi. Termosning qopqog‘ini yaxshilab yopdi va sumkaga joyladi. Agar ertaga ertalabgacha ukasi kelmasa donishmand qo‘shnisi Muqbil amaki aytganday “voqea sodir bo‘lgan va nihoyasiga yetgan...” Bu dunyoda hamma narsaning ibtidosi va intihosi bor – kimdadir erta, kimdadir kechroq. Muqbil amaki yaxshi ko‘radigan iboraning zamirida ana shu fikr mujassam edi. Tungi telefon qo‘ng‘irog‘ida titrab aytilgan qisqagina “Karimovni qo‘lga olishdi!” degan gapda ko‘p ma’no bor edi. Bu gapdan uning yuragi qafasdagi qushday potirlab ketgandi.

Keyingi ikki oydan buyon u tungi qo‘ng‘iroqlarga, qisqa, past ovozda aytiladigan gaplarga o‘rganib qoldi: ishlar chatoq, olishmayapti, yo qo‘rqadi, yo istamayapti, ostonadan o‘tkazishmayapti, ko‘zi tushishi bilan haydab soladi, ularni ko‘rishga toqati yo‘q... Karimovning og‘iz-burun o‘pishib yuradigan yuqori martabali do‘stlari birdaniga o‘zini tortdi, go‘yo uni tanimay qoldi, barcha eshiklar uning uchun yopildi. Avvaliga uning ishongisi kelmadi, nega bunaqa bo‘lyapti, qadrdon do‘stlari edi-ku, deb hayron bo‘ldi. Uyda xotini ularni qo‘rqoq, ikki yuzlamachi, deb haqorat qilardi. Er-xotin oshxonada tonggacha gaplashib o‘tirar, shu bilan yuragini

biroz bo‘shatar, tong yorishganda, qaylardandir xo‘roz qichqirig‘i eshitilganda uyquga yotishar edi. Xotini boshi yostiqqa tegishi hamono uxlab qolar, u anchagacha uxlayolmay yotar, derazadan tushib turgan quyoshning changli nuriga termulib xayol surardi. Mayda chang zarralari quyosh nurida xuddi raqsga tushayotganday jilvalanar, u esa butun vujudi bilan tarang tortilgan torday nurga inon-ixtiyorini topshirar, hech narsani o‘ylamaslikka harakat qilardi. Gulqog‘ozlarning sarg‘ish ranglariga termulib yotarkan, tushiyu o‘ngi aralash bir fikr uni qamrab oldi. Xudo ko‘rsatmasin, agar shunday bo‘lsa, yo‘q, O‘zi asrasin, bordi-yu shu voqea ro‘y bersa, men tiriklay o‘zimni topshirmayman. Yo‘q, sira ham, bildingmi, bunga mutlaqo yo‘l qo‘ymayman. Shu yoshimda qamoqxonaga borish, Xudo ko‘rsatmasin. Na yoshim, na sog‘ligim taqozo etadi buni! Qamoqxona-ya! Yo‘q, azizim, hazillashyapsanmi?! Shunday o‘y-xayollar og‘ushida uxlab qoldi, peshingacha tush ham ko‘rmay tinch, qotib uxladi.

Tinch uxladimi, tush ko‘rmadimi? Qayoqda. Ko‘rgan tushlarini unutdi, xolos. Bugun uyqu oldidan manavi qoyalar ichida botayotgan quyoshning qon kabi qip-qizil shafag‘iga qarab o‘tirib esladi o‘sha kunni, o‘sha tunni.

U ko‘pincha vahimali, qo‘rqinchli, shovqin-suronli tushlar ko‘rar edi. O‘sha tundagi tushi esa negadir tinch-sokin, yorqin edi. Tushida Mustafo tog‘asini ko‘rdi. Oxirgi o‘n besh yildan beri deyarli eslamasdi, hatto tog‘asi vafot etganida janozasiga bordimi-yo‘qmi esida yo‘q. Tushida tog‘asining ovozini eshitdi, rayhon hidini sezdi. Tog‘asining qalin soqoli uzra non ushoqlari ko‘kragiga tushganini aniq ko‘rdi.

Oyda bir-ikki marta Mustafo tog‘asi tog‘dan tushib kelar, ularnikida uch-to‘rt kun turib ketardi. Mustafo ularning bir qavatli uyining ostonasidan o‘tarkan, “Bolalar, tog‘dan kelayapman”, deb turli shirinliklarga to‘la xurjinini yelkasidan olardi. Ichkariga kirib xurjinini koridorning burchagiga qo‘yib, undan tandirda yopilgan non, qovurilgan no‘xat, mayiz olib ko‘zlari katta-katta bolalarga tarqatardi-da, ularga ertak ayta boshlardi.

O‘sha kuni tushga yaqin uyg‘ondi, ko‘rgan tushlarini umuman eslayolmadi, unutdi. Nima uchun shunday bo‘lganini mana bugun

tushundi. Unga tansiq taomlar bilan to'la dasturxon – nonushta muntazir edi. Ayniqsa, och qoringa ichganda sog'liqqa foyda bo'ladigan sharbat esida qolgan.

... Qani edi Mustafo tog'asi tog'dan ularga bir xurjin to'la yegulik olib kelgan, ertaklar aytib bergan kunlarga qaytsa. Qanday zavqli damlar edi-ya. Ular ikki aka-uka va singlisi mayiz, qovurilgan jo'xori va boshqa shirinliklarni to'ygunicha mazza qilib yer, sharbatlar ichar, tog'asining qo'rqinchli ertaklarini hayajon bilan tinglar edi. Onasi Mustafo tog'asi kelgan shu ikki baxtli kun tugamasin, umri oxirigacha davom etsin shu shirin lahzalar, deb Allohga iltijo qilib so'rardi. Nima uchun katta bo'ldi? O'sha ochlik yillariga qanday chidadi? Nega? Nima uchun chidadi? Mustafo tog'asi bilan tog'larga ketsa, o'sha yoqlarda qor va izg'irinli sovuqlarda yursa bo'lmasmidi? Yetimlik yillari nega tugadi? O'sha yillarda u haqiqatan ham baxtli ekan. Hech qanaqa tashvish yo'q, g'am-g'ussa, qo'rquv, hadik yo'q. Naqadar baxtiyor damlar ekan-a!.. Qani endi u kunlar! Bir lahzasini ham topib bo'lmaydi!..

O'yna, qo'lingdan kelganini qil, o'yna, taqdir nima yozgan bo'lsa, shuni ko'rasan. Onasi ham, Mustafo tog'asi ham bu gapni ko'p takrorlar edi.

Otasi qazo qilganida onasi dod-voy qilmadi, sochini yulib uvvos solib yig'lamadi. Taburetkaga boshini egib o'tirgancha, mahzun holda xasta ovozda "O'yna, qo'lingdan nima kelsa qil, taqdir nima yozgan bo'lsa, shuni ko'rasan", dedi. Keyin ta'ziyaga kelgan har bir odamga shu gaplarni takrorlab o'tirdi. Shu bois otasining vafot etgan kuni unga yig'i-sig'i bilan emas, ana shu so'zlar bilan yodida qolgan. "O'yna, qo'lingdan nima kelsa qil, taqdir nima yozgan bo'lsa, shuni ko'rasan". O'sha tunda u derazada g'alati miltillagan narsani ko'rdi, keyin ostonada Taqdir paydo bo'ldi, u oppoq kiyimda qo'lidagi sozni ko'ksiga mahkam bosib, juda mungli kuy chalar, uni eshitib beixtiyor yig'lab yuborardi kishi.

O'sha voqealarni u bugun esladi. Ular xotirasida muhrlanib qolgan.

Ey, Allohim, bu qanaqa og'riq bo'ldi-ya, bunaqa azoblar qayoqdan keldi? Bu chidab bo'lmas og'riq sabab quyosh ham qonli ko'rinmoqda, hatto qoyalarning yoriqlari ham qonga to'lganday.

Yon-atrof, butun olam qon bilan bo'yalgan, quyosh qip-qizil nur sochayotganday edi. Yo, Alloh, bu ne hol? Nazarida, u vulqon ustida o'tirganday, vulqon hozir otilib ketadi va hammayoqni uning lavalari qoplab oladiganday tuyuldi... Lavalar bilan birga barcha unutilgan, yerga ko'mib tashlangan xotiralar otilib chiqadiganday taassurot paydo bo'ldi. Chunki quyosh bekorga bunaqa qonday qip-qizil bo'lib qolmaydi. Har bir odamning o'z quyoshi bor, kimgaki quyosh shu taxlit ko'rinsa, o'sha kun uning uchun eng qayg'uli kun hisoblanadi.

"Sen taxmin qil, Alloh taqdir qiladi..."

"Quturgan pullar tugadi... Sabrli bo'l..."

"Tog'dan kelayapman, bolalar!"

"Qo'lga olishdi! Karimovni qo'lga olishdi!"

Quyoshning qonli-qizil shafaqlarida qoyalar go'yo lovullab yonardi. Bu ovloq, vahimali joyni kim o'ylab topdi ekan, qanaqadir yovuz kuch bu yerdan o'ziga najot qidirgan bo'lsa kerak. Bu yerda inson zoti aqldan ozib qolishi hech gap emas. Yaramas, yaramas Gobuston qoyalari...

Go'yo sayqallanganday silliq qoyaning ustki qismi o'rtasidan yorilgan. Bu yerga oxirgi marta quvnoq bir kompaniya bilan kelganini esladi. Ular Karimov bilan "Inturist"da juda muhim va kerakli mehmon sharafiga shohona ziyofat tashkil qilishdi. Unda yuqori martabali do'stlaridan biri ham ishtirok etdi. Qisqasi, hammasi oliy darajada uyushtirildi. Yuksak maqomdagi kayfi-safodan so'ng yarim kechasi ajrashishni xohlashmadimi yoki yana nimadir istadimi ko'ngillari, biroz shamollab kelish maqsadida Gobuston qoyalariga yo'l olishdi. Tungi osmon xuddi kechagidek yulduzlar bilan to'la, yulduzlar va oyning yorug'ida Ozarbayjonning janub tomoniga eltuvchi yo'l kumush tasmadek yaltirab yotardi.

Mehmon yilda bir-ikki marta kelar, o'n besh-yigirma kun eng yaxshi mehmonxonaning luks xonasida yashardi. U armonsiz maishat qilar, unga ko'ngli istagan narsasini muhayyo etishardi. Shu orada juda jiddiy ishlarni bajarardi. Ammo Gobustonga olib borishmagan edi. Bugun to'satdan aziz mehmonni Gobustonga olib borishga, yulduzlar va oy yorug'ida qoyalardagi rasmlarni ko'rsatishga qaror qilishdi. Mashinalarga o'tirib, yo'lga tushdilar.

Ayollarni ham olishdi, ularsiz kayf-safo tatirmidi. Baland bo‘yli, tajribali Nargiz va juda yosh, o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshlardagi qora ko‘z ham, qora qosh ham emas, bir zumda o‘zini yo‘qotib qizarib ketadigan... hah, oti nima edi-ya... qiz taniqli sozanda bilan keldi. Sozandaning qo‘lida tor emas, qadimiy musiqa asbobi – ud bor edi. Shu cholg‘uda aziz mehmon uchun ajoyib kuylar chalib berishini aytdi... Nargiz bilan oldindan gaplashib, pulini berib, mehmon uchun taklif qilishgan edi. Aslida, Nargiz Karimovning jazmani edi, ammo ularning ishqiy munosabatlari shovqini allaqachon bosilgandi. Endi u alohida sovg‘a sifatida qimmatli kiyim-kechag-u taqinchoqlar evaziga eng aziz, kerakli mehmonlarga xizmat ko‘rsatardi. O‘sha unutilmas kechada hamma narsa mehmon uchun edi: hamd-u sanolarga to‘la uzundan uzoq qadah so‘zlari ham, qo‘y qovurg‘alaridan pishirilgan kaboblar ham, fransuz konyaklari, marinovka qilingan baqlajonlar, behayo qo‘shiqlar ham mehmonga atalgan ediki, odessalik mehmon bunaqa ashulalarni xush ko‘rar, shu bois restoran orkestri qayta-qayta ijro etardi. Ana shu zavqli ashulalar asnosida Karimov qo‘lidagi Shveytsariya tilla soatini yechib mehmonning qo‘liga taqib qo‘ydi, bir blok amerika sigaretini taqdim etdi. Nihoyat, yarim yalang‘och Nargiz noz-karashma-yu ishva bilan mehmon yoniga keldi. U har qanday erkakni osongina yo‘ldan ura olar edi. Agar iloji topilsa, Nargizni ham chinni idishga yoki billur vazaga solib, mehmonning oldiga qo‘yar, bu bilan unga sadoqatini izhor etardi.

Ular mashinada bu yerga kelishdi. Kumush kamar singari yaltirab turgan yo‘l chetida to‘xtadilar. Hammasining kayfiyati chog‘, hazil-huzul, qah-qaha avjida. Ular necha kishi edi, o‘ntami? Yo‘q, ko‘proq, to‘rtta mashinada kelishdi. Yuqoriga ko‘tarila boshladilar, yozuvlar bor qoyani ko‘rmoqchi edilar, ammo qorong‘ida hech narsa ko‘rinmadi. Hammasi bir joyga to‘planib, sozandadan udda biron kuy chalib berishni iltimos qilishdi. Qoyalarda aks-sado berib, mumtoz musiqa yangradi. Kuy ularning sarmast boshini gangitib, jo‘shib turgan tuyg‘ularini sarosimaga keltirdi... Kimdir qo‘l fonarini olib, ulardan uzoqlashdi va o‘sha tomondan “topdim” deb baqirdi. O‘shanda u kulrang qoyadagi bahaybat hayvon ortidan nayza ko‘tarib ketayotgan ibtidoiy inson rasmini birinchi marta ko‘rdi.

"Iye, bu o'zimizning Samsonov-ku! Chiq bu yoqqa, Samsonov!" Ammo negadir bu hazili o'xshamadi, kulgisi kelmadi, aksincha, biroz ko'ngli g'ash bo'ldi. Musiqa tinglab o'tirgan ulfatlari sari shoshildi.

Xotini uxlamay, oshxonada choy ichib gazeta ko'rib, uni kutib o'tirdi. U tongga yaqin fransuz konyagi, turli aroqlaru turli-tuman ovqatlardan bo'kib qolish darajasida chayqalib kirib keldi. Xotini bir og'iz nolimadi, tanbeh bermadi, o'pka-gina ham qilmadi. Uzoq yillik turmushlari davomida ular bunga ko'nikkan: oilada erning o'z o'rni bor, ayolning o'z o'rni bor. Biroq o'sha kecha xotini uni bari-bir biroz ranjitdi. To'satdan onasining ahvoli og'irlashibdi – ikki oydan buyon ona sho'rlik onkologiya shifoxonasida yotipti. Xotini xabar olib turibdi, ammo onasi uni – o'g'lini ko'rishni istaydi. U esa ishim ko'p, vaqtim yo'q, deb borolmaydi. Xotini hozir shuni yuziga soldi. U boshini changallab, ko'zlarini yumdi. Shifoxonaning oppoq devorlari, oppoq xalat va oppoq qalpoq kiygan hamshiralar, oppoq ko'rpaga burkanib olgan ozg'in onasi, uning ko'kimtir lablari, ko'kragidan xirillab og'ir nafas olayotgani ko'z o'ngidan o'tdi. Vrachlar umid beradigan gap aytmadi, faqat Allohning inoyati bilan biron bir mo'jiza ro'y bersa, uning umri uzayishi mumkin, deyishdi. Xotinining javrashiga ahamiyat bermadi. Ko'zlarini yumib o'tirgancha onasi yotgan kasalxonani, unga qo'shib barcha kasalxonalarni boloxonador qilib so'kdi, do'xtirlarning hammasi yalqov, savodsiz, hech baloni bilmaydi, pul bilan ko'mib tashla – foydasi yo'q, biri biridan qimmat, topish amri mahol bo'lgan dorilarni yozib berishdan nariga o'tmaydi yaramaslar. Mo'jiza umrini uzaytirar emish! Qani o'sha mo'jiza?! Uni sotib olib bo'lmaydi-ku! Sen ojizsan, onangning hayotini saqlab qolishdan ojizsan!

To'satdan bir fikr urildi miyasiga: Xudo ko'rsatmasin shu kunlarda onam o'lib qolsa-ya. Mehmon nima bo'ladi?! U Bokuda yana o'n kunlar bo'ladi. Men bu yerda janoza, undan keyingi ma'rakalar bilan ovora bo'lsam... Istaysanmi-yo'qmi mehmonni Karimovga topshirishga majbur bo'lasan va o'yindan chiqasan. Yo'q, bu ketmaydi, bunday bo'lishi mumkin emas, sirayam mumkin emas! Buni hatto tasavvur qilish qiyin! U faqat shaxsiy manfaati uchun kun bo'yi mehmon bilan yurmaydi, soatlab shovqin-suronli restoran-

da o'tirmaydi-ku. Ish uchun, ko'pchilik uchun shularga chidaydi. Hozir ayni vaqti – bitta juda muhim ishni o'zi tomonga og'dirish, buning uchun bitta nusxaga yalinish, iltimos qilish kerak, nima qilib bo'lsa-da, u yaramasni pora olishga ko'ndirish zarur, shart! Shu ish ko'ngildagiday amalga oshsa, bir necha kishi bahramand bo'ladi, o'zining, oilasining tinchligi, xotirjamligi va baxti ham chetda qolmaydi.

Shu xayollar bilan uxlab qoldi. Xotini qanaqa qilib xobgohga olib borgan, yechintirgan, joyiga yotqizgan – birontasini eslay olmaydi.

Bir qavatli eski uyda ona bolasini emizayotir, bola qalqib ketadi va sut uning og'zi atrofida oqadi. Ertaklardagi pahlavonlarga o'xshagan sersoqol kishi yelkasida xurjini bilan o'sha uyga kirib keladi-da, "Tog'dan kelyapman, bolalar!" deydi.

U yig'ladi. Ovoz chiqarmay, g'amgin, bolalar kabi burnini tortib-tortib yig'ladi. Qirq uchinchi yilning qahraton qish kunlari Bokuning tor ko'chalarida ozib-to'zib ketgan, ustida hatto o'sha og'ir yillar uchun ham tasavvur qilish qiyin bo'lgan juldir kiyimli tilanchi yurardi. U odamlar oldiga borib xuddi bolalarday burnini tortib yig'lar, bir og'iz gapirmay biron nima bering, degan ma'noda qo'lini cho'zardi.

U sovuq va och bolalik yillarining ramzi – belgisiga aylangan tilanchini esladi. Uning ko'z o'ngida yana kechagi kun, aniqrog'i, taksidan tushib qoyaga ko'tarila boshlagan kecha namoyon bo'ldi. Fikrlari qoya toshlari uzra sirpanib ketayotganga o'xshardi. Qiyg'irlar shunday pastlab uchardiki, ularning dumidan tutib olish imkoni borday edi.

Biroq hammasiga javob oladi, ertami-kechmi albatta oladi javob. Mavhumlik bartaraf etiladi, haqiqat unga bo'y ko'rsatadi, afsus, ming afsus, bu holat kech, juda kech, balki eng so'nggida ro'y berar. Yo, Allohim, hammasi sabrimizni sinamoqchi. Darvozaning bu tomonidagilar ham, allaqachon u tomonga o'tkanlar ham. U odatiga ko'ra ko'zlarini qisib oldi, yorug'likka qarashni istamadi.

Yorug'likda umid paydo bo'ladi. Sabrsizlikdan yuragi gupillaydi. Nazarida bir mo'jiza ro'y berib, hozir, mana hozir ukasi paydo bo'ladi va uni qutqaradi. Uning barcha azoblari, qo'rquvlari,

iztiroblari vahimali tush kabi izsiz yo‘qoladi. Yo, Allohim, O‘zing panohingda asra, madad ber, yordam ber, panohingga ol!

Quyosh bota boshladi, atrof g‘ira-shira tus oldi. U ko‘zini ochdi, qorong‘ilashib borayotgan atrofga nazar soldi. Qisqa vaqtda ko‘zlari qorong‘ilikka moslashib, yorug‘likka qaray olmaydigan bo‘lib qolganday tuyuldi. Xayoliga boshqa bir fikr keldi: uning ikki juft ko‘zi bor edi go‘yo, bir jufti yorug‘likka qarardi, ular o‘sha yoqda – hamma narsa qolgan joyda qoldi, ikkinchi juft ko‘zlari faqat qorong‘ilikka moslashgan edi. Ana shu ko‘zlari butun qorong‘ilikni, uning barcha qo‘rquv va vahimasini ohanrabo singari o‘ziga tortardi. Bundan yuragi larzaga kelardi.

Unga shunday tuyuldiki, bularning bari xuddi hozirgidek qachonlardir ro‘y bergan. Gobuston qoyalariga o‘tirib, mavhumlikka termuldi. Yo‘q, shunday tuyulmadi, aslida shunaqa bo‘lgan, haha, bo‘lgan, qachonligini eslay olmaydi, ammo bo‘lgani aniq. U ko‘zlarini qattiq yumdi, tizzalarini quchdi-da, unga boshini qo‘ydi, shunda momoqaldiroq gumburlagandek ovoz eshitildi – uning yuragi gursillab urardi. Mushtdekkina, kichkina yuragi butun jismidagi hayajon-u qo‘rquvlarni ko‘tarishga ojizlik qilardi: buning ustiga biri darvozaning u tomonida, biri bu tomonida.

Ertalabgacha omon bo‘lsaydim, ukam kelgunicha chiday olsaydim... Allohim, madad ber, kuch-quvvat, sabr ber, panohingda asra, yolvoraman, yalinaman, iltijo qilaman, yordam ber! O‘ldirma meni, iltimos, o‘ldirma, rahming kelsin, shafqat qil!..

Tunda million yillar ilgari yer sharining ulkan chuqurliklaridan biriga to‘plangan suvlar yana shovulladi, vahimali, qudratli shovqini kelib turdi, barcha qushlar baravar qichqirdi, osmonga ayamay sochib tashlangan yulduzlar qoyalar singari yiriklashib ketdi, ingichka, o‘tkir nurlar pastga yirik-yirik sovuq toshlarni ota boshladi. U sumkasini quchoqlab oldi, g‘ujanak bo‘lib yotdi, go‘yo o‘zini barcha narsadan ihota qilganday. Mayda pashshalarning ko‘pligidan ko‘z o‘ngida g‘alati, qo‘rqinchli doira paydo bo‘ldi.

Kechami-kunduzmi – farqiga bormay qoldi. Diqqat bilan qaradi – qop-qora tun. Shu qorong‘ilikda Ozarbayjonning janub tomoniga ketgan yo‘l kumush kamar kabi yaltirab ko‘rindi. Qorong‘i kechada og‘ir-og‘ir nafas olayotgan onasi turardi, uning qo‘lida uzum

bargidan qilingan do'lma to'la qozon, shu qorong'ida uning uyini tintuv qilishayotir, qayerdan chiqib ketishni bilolmayotgan xotini va ukasi oshxonada yig'lab o'tiribdi...

U sira bilolmasdi – tun shuncha cho'zildimi yoki allaqachon tong otdimi. Ammo bir narsani aniq bilardi – barcha odamlar, hatto marhumlar ham Muqbil amakining yonida. Chunki bu yoqqa uni qutqarish uchun hech kim kelmadi. Aks holda barchasi joy-joyiga tushar, hammasi o'z nihoyasiga yetardi. Eh, Muqbil amaki! Yo, Allohim , barcha bandalaringga qabr nasib et.

"Quturgan pullar tugadi... Bolalarim, sabrli bo'linglar".

Onajon, men hammasini tushundim, to'g'ri, kech, haddan tashqari kech, ammo tushundim...

U sumkasidan sakkizta o'q joylangan to'pponchani oldi. Qattiq ovozda, deyarli baqirdi:

– Meni qo'lga olmoqchi bo'ldingizmi? Olib bo'psiz!

To'pponchaning uchini og'ziga soldi va tepkini bosdi. U baribir anglab yetmadi – hali tunmi yoki tong yorishdimi? To'pponcha otilgani eshitilgan zahoti ming yillardan beri o'zining vaqti-soatini kutib yotgan nayza qoyadan ajralib, atrofga shuvillagan ovoz taratib uzoq-uzoqlarga, Bokudagi musulmonlar qabristoni tomonga uchdi. U yerda oppoq kafanga o'rangan kampirning dahshatli nolasi taraldi, uning dod-faryodini qabristondagi barcha marhum va marhumalar eshitdi.

Shu mahal g'or atrofidan yarim yalang'och odamlar chiqib keldi-da, uni boshqa g'orga olib ketishdi. U yerda bir necha yarador kimsalar yotardi. Inson qoni va zamin namligidan ho'l bo'lib qolgan yaradorlar qatoriga yotqizishdi uni.

Pastda esa yer sharining ulkan chuqurligida to'plangan qora suvlardagi akulalar o'tkir tishlarini qayrab, xo'rak qidirar, dumini jahd bilan har yonga urar edi. Suv shunday qop-qora ediki, go'yo o'tgan million yillar va kelajak yillarning butun tunlari tusini o'ziga singdirib olganga o'xshardi.

U og'riq va issiq ta'sirida hushini yo'qotdi, hech narsani eslay olmadi. Bir fikr miyasida charx urardi: agar tirik qolsa, o'zining aka-ukalaridan biriga aylanadi, o'lib qolsa uni baland qoyadan dengizga uloqtirishadi. Ana dengiz, shundoqqina qoya ostonasida

chayqalib yotipti. U yerda, dengizning qop-qora suvlarida akulalar anchadan beri uning o'ljasini kutayapti.

BAYOTI SHEROZ

Sabzali tog'a shosha-pisha tovani suv oqib turgan jo'mrakka tutib yuvdi-da, bitta tuxum chaqdi (Hakim taqiqlagan: bittadan ortiq tuxum yeyish mumkin emas). Tagi qorayib o'rtasi darz ketgan tovadagi tuxumni o'zi biroz avval derazadan ko'rgan oyga o'xshatdi. Tuxum sarig'i esa ufq kanorida osilib turgan besabr oy kabi odamning yuragini siqar edi... Birdan tovaga oldin yog' solib keyin tuxum chaqish kerakligi esiga tushdi. Yog'ni butkul unutibdi. "E, jin urgur!" dedi u jahl bilan. Keyin yog' idishni olib tovaga bir qoshiq yog' soldi, olov yoqdi. Sanchqini og'ziga olib borganida bildiki, tuxumning oqi pishibdi, sarig'i esa xom. "Jin urgur!" dedi u ikkinchi marta.

Restoranga yetib kelgunicha naqd besh marta "Jin urgur!" dedi o'ziyam.

Restoranning temir sandiq qopqog'i misol og'ir eshigini ochganida yuragi dukillab urib ketdi. Chunki esida yo'q: gazni o'chirdimi, o'chirmadimi? Lekin yana "Jin urgur!" deydigan ahvolda emas edi. Ichkari kirdi, garderobning o'ng tarafiga, restoran xodimlari kiyim iladigan yoqqa o'tib, paltosini yechdi va ilgichga ildi. Dahlizda toshoyna qarshisida soch tarayotgan chiroyli ayolga mijozga qaragandek qaradi va chuqur xo'rsinib qo'ydi. Xirgoyi qila-qila ikkinchi qavatga chiqdi. Shishgan qo'llarini tizzasiga qo'yib dahlizning bir burchagida o'tirgan xizmatchi xotin Fotma xolaga ko'zi tushdi. U bilan salomlashib, soatni so'radi. Fotma xola yetti yarim bo'ldi, dedi. Hali yarim soatcha vaqti bor ekan. Shu bois chap tomonga burilib, Movses Sergeyevichning yoniga boraqoldi. Movses Sergeyevich erkaklar hojatxonasining yuz-qo'l yuvishga mo'ljallangan toshoynali, yorug', mo'jazgina xonasida devorga taqab qo'yilgan enli stol yonida o'tirardi. Stol ustida batartib taxlab qo'yilgan oppoq dastro'mollar, ikki shisha qimmatbaho odekolon va tamaki-sigaret.

Sabzali tog'a ostona hatlashi hamono Movses Sergeyevich qo'llarini dast ko'tarib:

– Xayrli oqshom, Sabzali tog'a! – dedi va uning tirsagidan tutib siltab qo'ydi. – Ahvollar yaxshimi?

– Rahmat, rahmat, – dedi Sabzali tog'a va yelka qisdi: qanday bo'lardi!

Stol yonidagi suyanchig'ining bir-ikki yeri yirtilgan charm kursiga joylashib olgach:

– Yarim soatcha avval qovurilgan tuxum yegan edim, endi jig'ildonim qaynab o'ldiryapti, – dedi u. – Bugun uyda ovqatlanib boraqolay ishga dedim-da. O'rdak tuxumimidi yoki kurkaniki, bilolmadim... Qayoqdan bilay, e, jin ursin!

– Shuniyam gap deb gapiriḅ o'tiribsanmi? Mana, mening ko'zim ostiga qara! – Sabzali tog'a qaradi: Movses Sergeyevichning ko'k ko'zlari tagi yana no'xatdek shishib chiqibdi. – Bugun kechasi it-ilon uxlagan bo'lsa uxlagandir-u, men mijja qoqmadim, – dedi Movses Sergeyevich suhbatdoshiga shikoyatomuz boqib.

– Sen-ku, hechqursa, darding nima ekanini bilasan: buyragingda tosh bor. Men-chi? Tuxum yesam *izjog (zarda)* bo'lsam, go'sht yesam *izjog* bo'lsam, Xudoning qoq-quruq nonini yesam ham *izjog!* Peshonada borini ko'ryapman-da, nimayam qilardim!

Movses Sergeyevich engashib, stolning o'rta tortmasidan bir dona filtrli sigaret olib Sabzali tog'aga uzatdi:

– Ma, chek buni, bulg'orlarniki. Asl Samsun tamakisi. Dard qo'ziganda cheksang, yengil tortasan.

Sabzali tog'a sigaretni barmoqlari orasiga olib, yarmidan ortig'ini bo'lib axlat chelakka tashladi.

– Menga ko'plik qiladi, – dedi bosh chayqab. – Yurak gup-gup urib ketyapti o'zi.

U sigaretni tutatdi-da, yutoqib torta boshladi. Yuzida ajib bir qoniqish paydo bo'ldi: go'yo totli narsa yeyayotgandek. Keyin tomdan tarasha tushgandek:

– Hoy, menga qara, bu yoz urush bo'lmasmikan, a? – deb so'radi Movses Sergeyevichga tikilib.

Aftidan, Movses Sergeyevich ham jo'rasining bunday dabdurustdan savol tashlab qolishiga o'rganib ketgan. Shu sababli xuddi

boyadan beri urush haqida gaplashib o'tirishgandek, shoshilmay javob berdi:

– Bo'lmas, inshooloh... yaponlar bezor qilmasa.

– Yo'q, bu yaponning qo'lidan keladigan ish emas. Boshlasa, amerikaliklar boshlaydi.

Movses Sergeyevich qo'l siltadi:

– Ey, dunyodan xabaring yo'q-da sening! Bularni yapon deb qo'yibdi! Betartiblik boshlanganini ko'rdi – o'zini maydonga otadi. Sen Yaponiyaning atom bombasi yo'q deb o'ylaysan, shundaymi? Otam zamonidan buyon bor! Qirq beshinchi yili amerikaliklar u yerga uchta bomba tashlagan. Ikkitasi portlagan, bittasi portlamay qolgan. O'sha bombani yaponlar darhol olimlariga bergan. Ular obdan tekshirib o'rgangan, sir-sinoatini ochgan. Men buni o'zimdan to'qib aytmayapman, bilgich bir odam bor, o'sha gapirib bergan edi.

– Bir dona bomba qancha pul bo'larkan-a, nima deb o'ylaysan? – deb so'radi Sabzali tog'a. – Atom bombani aytaman-da...

– Eski pulda naqd bir million-u ikki yuz ming!

– Tush ko'rmayapmanmi?

Movses Sergeyevich bosh chayqab qo'ydi.

Bir million-u ikki yuz ming! Sabzali tog'aning zarda-pardasi esidan chiqdi. Chamalab ko'rdi: bir million ikki yuz ming manati bo'lsa, nima qilardi? Hech nima! Shuncha pulni sarflab tugata olarmidingiz?! Iya, nega tugata olmas ekanman? Xarjlayman, o'lgunimcha sarflayman-da! Birinchi bo'lib uyimni rosa ta'mir qilaman: teshik-tuynugini yamab degandek, devorlarga mallatob gulqog'oz yopishtirib degandek. Bir yog'och chorpoya sotib olaman, zo'ridan, chet elnikidan. Yana, samovar olaman – ota-bobodan qolganidan, ikki paqir suv ketadiganidan. Xo'-o'sh, keyin-chi? Ha, jonim aylansin... O'zimga bir juft kastum-shim xarid qilaman – uch tugmaligidan. Ikki juft yozlik poyabzal, ikki juft neylon ko'ylak, yengi uzunidan... Yana nima edi-ya? Ha, tok bilan ishlaydigan dazmol ham kerak, albatta. Xo'sh, radio-chi? Uniyam olaman, tamom. Qolganini omonat g'aznaga eltib qo'yaman. Yo'-o'q, shuncha pulni omonat g'aznaga ishonib bo'ladimi?! Undan ko'ra yiriklab, uyda saqlayman. O'zimga sarflayveraman-da, asta-sekin maydalab. Omin, yo Robbil olamin! Bergan kuningga shukr!

Sabzali tog‘aning ko‘z o‘ngida yap-yangi ta’mirdan chiqqan, qo‘g‘irchoqdek yasatilgan uyi paydo bo‘ldi. Yog‘och chorpoya ham bor... Movses Sergeyevich mehmonga kelganmish, samovar vaqillab qaynab turganmish, ikki oshna chorpoyada chordona qurib u yoq-bu yoqdan hangamalashib o‘tirisharmish. Onda-sonda televizorga ko‘z tashlab qo‘yarmishlar. Tashqarida gupillab qor yog‘ayotganmish. Bay-bay!

Uning bunday xayollarga g‘arq bo‘lishi birinchi marta emas. Qachonki pul haqida gap ochilsa, maydaroq aqcha, deylik, o‘n-o‘n besh manat emas, katta pul, yuz ming, milliondan ko‘p sarmoya to‘g‘risidagi suhbatlardan Sabzali tog‘aning xayollari chalkashib, aqli shoshib qoladi. Boshqa vaqt, kayfi choq bo‘lganda qanchalik tirishmasin, koshki durustroq, odamning ko‘nglini ko‘taradigan biror nima xayoliga kelsa! Go‘yoki umrining yarmiga teng xotiralar, o‘tgan kunlar u bilan toabad shartlashib olgandek: bizni bekor-behuda chaqirib ovora bo‘lma – kelmaymiz...

Movses Sergeyevich hamon og‘zi tinmay javrab yotibdi, qo‘lini peshlab unga nimadir muhim bir gapni tushuntirmoqchi bo‘layotir, Sabzali tog‘a o‘zini eshitib o‘tirganga solsa-da, xayolan allaqachon o‘tmishda kezib yuribdi.

Avvalo, u yoqda – o‘tmishda odamni “*izjog*” qiladigan tuxum sarig‘i yo‘q edi. Yangi so‘yilgan qo‘y eti, sut-qatiq bor edi. Gaz deganlari ham yonmasdi. Quduq yonida, shabada esib turadigan joyda kichkina o‘choqcha bo‘lardi. Havo dim kunlari tutun buruqsib-buralib, qayrag‘och shoxlari orasidan sizib yulduzlarga o‘rlar edi. U yerlarda Movses Sergeyevichning shang‘i ovozi eshitilmasdi, Yaponiya va Karlovar tuzi haqidagi uzundan-uzoq va’zlari ham... Ora-sira bir ovoz quloqqa chalinadi: “Qurbon bo‘lay senga, kirib yot joyingga”. Sal o‘tib boshqa bir ovoz keladi: “Hey, qanaqa ahmoq bolasan, kirib yot deyilmadimi senga!” Sabzali o‘zining gapini ham eshitadi: “Uyqum kelmayapti-da”. Shunda birinchi ovoz “Qo‘ying bolani o‘z holiga, mayli, o‘tiraversin”, deydi. Ana shu shirindan-shirin kalom hali-hanuz Sabzali tog‘aning qulog‘ida jaranglab turadi. Boyagi bir million ikki yuz mingdan taxminan uch yuz mingi ketdi deylik, yana to‘qqiz yuz ming qoladi... Shamol esganda hovuzda aks etgan yulduzlar bir-biriga qorishib ko‘zdan

g‘oyib bo‘lardi. Sabzaliga yulduzlarni hovuzdagi ikki-uchta tillabaliq yutib yuborgan-u shamol tinishi bilan yana suvga qo‘yib yuboradigandek tuyulardi. Hovuz ustida kattakon patnisda onasi doim uzum saqlardi. Sabzali bir shingilini uzib olardi-da, kechki shudring ta’sirida muzdek bo‘lib qolgan uzum donalarini junjika-junjika og‘ziga solardi. Shu vaqt yana onasining ovozi kelardi: “Hoy qo‘zichog‘im, hoy Sabzali, hoy yuragi yongan bola, bor, yotaqol endi!” Ortidan ikkinchi ovoz: “Tez bo‘l, hozir olabo‘ji keladi-da, seni yeydi!” Sabzali bola qo‘llarini og‘ziga karnay qilib baqirardi: “Yemaydi!” Rostdan ham na o‘sha tun, na boshqa tun olabo‘ji uni yedi... Sabzali hovlining narigi boshida yotardi. Kechasi qorong‘ida ham qo‘rqmay u yerga bir o‘zi borardi. O‘tirib oyoqlarini qumga ko‘mardi. Tushdan keyin qum tandirdek qizib ketar, kechqurun quyosh botgach muzdek bo‘lib qolardi. Yoshgina ammasining aytishicha, kechalari go‘lax do‘zax shamlarini o‘chirarmish, shu bois qum sovib qolarmish. Sabzali tog‘a onasidan ham ko‘proq yaxshi ko‘rgan ammasining ovozini har qancha urinmasin, eslay olmadi: bu sas go‘yoki shunday bir joyga yashiringan ediki, uni topmoqqa oz emas, ko‘p emas, ikki millionlar kerak...

Vaqt esa kam, juda kam qoldi. Movses Sergeyevichning yonida o‘tirib, bir million ikki yuz mingni maydalab, rohatlana-rohatlana xotiralarga sarflamoq uchun Sabzali tog‘aning hozir vaqti yo‘q. Sakkiz daqiqadan so‘ng u restoranning nog‘orasimon yumaloq sahnasiga chiqib kontrabasini sozlashi lozim. Soat roppa-rosa yettida badiiy rahbar – klarnetchi Adigo‘zel ishorasi bilan to‘rt kishilik estrada “orkestr”i konsert boshlaydi. Robbimga qurbon bo‘lay, ey, imomi Zuhur! Naqd yigirma uch yildirki, har oqshom kanda qilmay sahnaga chiqish, soat yettidan o‘n birgacha kontrabas ting‘irlatish osonmi va yo mumkinmi? Qachongacha? Keyin nolib o‘tirasan: zarda bo‘lyapman, yuragim o‘ynab ketyapti deb. O‘ynab ketmay nima qilsin bu yurak!.. Tavba, nega dunyoning ishlari bunday telba-teskari ekan-a? Ya’ni, nega Alloh taolo birini hayot, boshqasini zahri og‘u deydi! Qarang, kimgadir hamma narsani mo‘l-ko‘l beradi: moshina, zo‘r amal-u obro‘-e’tibor, guldek bola-chaqa – qandingni ur, o‘zing uchun yasha maza qilib! Boshqasiga esa, “Bor, sen o‘rdak tuxumi yegin, sening qismatingga zarda qaynashi yozilgan.

Bor ana, Movses Sergeyevichning yonida, yo'lakda o'tir-da, Samsun tamakisidan chek, shukr qil – seni chuvalchang qilib yaratmaganimga!" deydi. Qissadan hissa shuki: o'l, o'lib ketaver, hamonki bir kun o'lasan...

Sabzali katta bo'lsam, o'g'limni o'qitib, "narkom" qilaman derdi. Onasi "Alloh buyursa" deb qo'yardi. Birgina buvisi hech nima demasdi. Boshini sarak-sarak qilib, nimadir deya ming'irlab o'tiraverardi. Buvisining "narkom" desa nafrati qo'zirdi. Otasi esa doim bir ishga kirishdingmi – qattiq kirish, odam bolasi ishlab toshdan ham pul yasashi kerak, boshqa nimayam qilardi, derdi. Biroq na otasi aytgani bo'ldi, na onasi. Sabzali hali sakkizga kirib-kirmay bola boshiga kulfat tushdi: oilasiz, sabil qoldi. Ketma-ket: avval buvisi, so'ng otasi, keyin onasidan ayrildi. Keyinchalik, ko'p yillar o'tgach, Sabzali tog'aning hikoya qilishicha, bu ko'rguliklar besh oy ichida ro'y bergan. U ammasining qo'lida qolgan. Kechalari ammasi yig'lasa, u ham qo'shilib yig'lardi, ammasi to'xtasa, u ham to'xtardi. Boshida Sabzali ammasining uyida turgisi kelmay, nuqul meni uyimga olib boring, deya ikki oyog'ini bir etikka tiqar edi. Ammasi esa uni chalg'itish uchun, uyga qaytsang, Azroil keladi, buvingni, onangni, otangni qanday olib ketgan bo'lsa, seni ham shunday olib ketadi, deb qo'rqitardi. Biroq Sabzali o'ylab-o'ylab hech o'yiga yeta olmasdiki, qanday qilib dadasidek pahlavon, devqomat odam Azroilga bo'ysundi... Xo'sh endi, Sabzali tog'a nechuk kontrabas chala boshladi deysizmi? Bu uzun va qahramonimiz eslashni ham xushlamaydigan bir tarix. Shu haqda so'raganlarga u qisqa qilib "Har bir odamning qismati manglayiga bitilgan bo'ladi. Mening peshonamga shu yozilgan... Ya'ni sen kontrabas chalasan deb taqdir etilgan, baski, taqdirga tadbir yo'q", deb qo'yaqoladi.

Aftidan, shu oxirgi gap Movses Sergeyevichning og'zidan chiqdi. Sabzali tog'a hayratdan ko'zlari katta ochilib unga qaraganida jo'rasi boshini sarak-sarak qilib:

– Xo'sh, – dedi, – sening-cha, odam qismatidan qochib qutula oladimi? Menga qara, – u shahodat barmog'i bilan peshonasiga ikki-uch marta nuqidi, – shu sho'rpeshonaga nima yozilgan bo'lsa – ko'ramiz. Qolgan gaplar behuda. Agar bu yoz urush bo'lishi taqdir etilgan esa, demak, urush bo'ladi.

– To‘g‘ri, – deb qo‘ydi Sabzali tog‘a.

Ichida esa “Alloh asrasin, urush bo‘lmasin ilohim, jabr-jabr yoshlarga”, deb qo‘ydi.

So‘nggi urush boshlanganda Sabzali o‘ttiz bir yoshda edi. Qirq ikkinchi yil boshida harbiy komissarlikdan unga chaqiruv xati keldi. Ashqol-dashqolini bir xaltaga joylab, xaltani yelkaga ilib yo‘lga tushdi. Yo‘l-yo‘lakay ikki yo uch daf’a to‘xtab, ortga qaytmoqchi bo‘ldi. Bormasa-chi, qochsa-chi?! Biroq esiga tushdiki, dezertirlarni yigirma to‘rt soat ichida yerning tagidan bo‘lsa-da topib, daraxtga bog‘lab otib tashlaydilar. Qochish fikrini miyasidan haydab, qo‘rqa-pisa, o‘ziga-da, dunyoga-da la’nat o‘qiy-o‘qiy yo‘lida davom etdi. Komissarlikning nimqorong‘i, atrofi yog‘och to‘siq bilan o‘rab tashlangan hovlisiga kirib yana to‘xtab qoldi, u yer-bu yerda, burchak-burchaklarda ikki-uchtadan bo‘lib turgan sochi qirtishlangan yigitlarga qaradi. Qaradi-yu ichiga o‘t tushgandek, nimadir vujudini kuydirayotgandek bo‘ldi. Sabzali ilk marta aynan shu yer – harbiy komissarlikda “*izjog*” bo‘lgan edi.

Bo‘lajak jangchini doktorga yo‘llashdi. Doktorning buyrug‘iga binoan Sabzali onadan tug‘ilgandek qip yalang‘och bo‘ldi. Engashdi, turdi, xomsemiz doktor qornini uning qorniga tekkizib yuragini eshitib ko‘rdi. Karavotga yotqizib, jigarini, talog‘ini tekshirdi, keyin esa yuz-ko‘zini burishtirib, bosh chayqadi: “Sen braksan – yaroqsiz, odam bo‘lmaysan”.

Sabzali xaltasini qo‘ltiqlab uyiga chopdi. Sakkizta tuxumi bor edi, beshtasini o‘sha kuniyoq olib borib Etog‘a tabibga nazr qilib yubordi. Keyin uch kun uydan eshikka chiqmadi. Anovi meshqorin doktorning fikri o‘zgarib qolsa-chi, odam jo‘natib meni yana komissarlikka oldirsa, u yerdan to‘ppa-to‘g‘ri urushga jo‘natib yuborishsa-chi, deb qo‘rqdi. Sabzalining urushga borgisi yo‘q edi, hech ham. Chunki bilardi, amin ediki, ilk kundanoq uni otib o‘ldiradilar. U endi hayotda ikki narsadan qo‘rqadigan bo‘ldi: biri Azroil, ikkinchisi – fashist... Mahallada yurgan gap-so‘zlarga qaraganda, olmonlar qo‘lga tushgan sovet askarini qarab o‘tirmay birma-bir nayzaga tortayotganmish.. “Allohim, bunday ko‘rguliklarni o‘zing mendan yiroq qil, – derdi Sabzali. – Men sho‘rpeshonaning boshimni balo-qazodan asra, yoshlayin qora tuproq ostiga kirib ketmayin”.

Ammo balo-qazo unchalik ham yiroq ketmagan ekan. Qirq uchinchi yilning o'rtalarida Sabzali tutqunlandi. Mirshab kelib uni rayon ma'muriy boshqarmasiga olib ketdi. Bu yerda uni ko'p ushlab turmadilar, bir askarni qo'shib shaharning boshqa bir kunjiga yo'lladilar. Sabzali qurib qolgan tomog'ini ming azobda ho'llab, bazo'r "Meni qayerga olib ketyapsan?" deb so'radi. Askar esa, "Yop og'zingni, tirraqi!" dedi. Sabzali askarning qora etigiga boqa-boqa, kechagi yomg'irdan qolgan irkit ko'lmaklarni bosganda chiqayotgan shalop-shulp tovushga quloq sola-sola ketdi.

Askar Sabzalini ichkari olib kirganida tergovchi stol boshida yastanib o'tirganicha kula-kula telefonda gaplashmoqda edi. Birozdan keyin go'shakni joyiga qo'ydi, qo'llarini qovushtirib iyagiga tiradi va kiprik qoqmay o'ziga tikilib turgan Sabzalini so'roqqa tutdi:

– Xo'sh, kelyapti deysan-da, shundaymi?

– Kim kelyapti? – Sabzalining ovozi xuddi qabrdan chiqqandek past eshitildi.

Tergovchi xoxolab:

– Enangning eri! – dedi. – Kim deganing nimasi? Tog'ajoning-da...

– Mening tog'am yo'q.

Tergovchi ko'zlarini olaytirdi.

– Ey, – dedi, – yolg'on gapirishga uyalmaysanmi? – Keyin stol tortmasidan g'ijimlangan bir surat olib Sabzaliga ko'rsatdi: – Xo'sh, bu kim ekan, tog'ang bo'lmay?

Sabzali tik turgan bo'lsa-da, rasmni ko'rib sapchib tushdi – bu Gitlerning surati edi.

Tergovchi:

– U odam yolg'on gapirmaydi. Sen sovet hukumatini laqillatmoqchisan. Biz hamma gapdan xabardormiz. Demak, sen yo'l poylab o'tiribsan, shundaymi? Odamlar u yoqda, frontda qon kechib muqaddas Vatanimizni himoya qilyapti, sen esa bu yerda vahima tarqatyapsan, shundaymi?

Sabzali gap nimada ekanini tushundi. Birdan tilining turmagi yechildi, hozir gapirishi, o'zini oqlashi zarurligi miyasiga urildi.

– Xudo haqqi, men hech nima demadim. Allohga ont etay, hech nimadan xabarim yo'q. O'sha kuni mahalladagi bola-baqra o'zaro

"Gitler qo'shinini Bokuga olib kelmoqchimish" deb chug'urlashib yotgan ekan. Men ularning og'ziga urdim: "Uyalmaysizlarmi bunday ahmoqona gapni aytishga?" dedim. Gitler masalasiga kelsak, u gapni anovi Karimning o'g'li molga o'xshagan Hasan gapirgan! Vijdonim haqqi! Nima, men ahmoqmanmi, gapni tushunmaymanmi? O'rtoq Stalin o'zi aytgan-ku, kim Bokuni Gitlerga sotsa, tutib otib o'ldirilsin, deb. Agar bilsangiz, shunaqa gaplarni tarqatayotganida bir-ikki marta o'sha molga o'xshagan Hasanning yuziga tupurganman. Butun mahalla, qolaversa, Alloh guvoh, mening boshqa hech gapdan xabarim yo'q. Tog'a nimasi? Xudo urib qo'yganku uni, mening tog'am emish! Turqini ko'rsam aqldan ozay deyman-ku. O'zim necha marotaba urushga ko'ngilli bo'lib ketmoqchi bo'ldim, yubormadilar. Doktorlar ruxsat bermadi. Tog'ang deysiz-a? Qon-qarindoshdan bitta ammam bor edi, u ham yaqinda chin dunyolik bo'lib ketdi. Vijdonim haqqi, rost aytyapman. Hali yili ham o'tmadi. Ona tomondan tog'a-pog'a – hech kimim bo'lmagan. Otamning go'ri haqqi, rost gapiryapman. Gitler olmon, men musulmonman. U qayoqda-yu, men qayoqda! Ko'zi tuproqqa to'lsin iloyim... Odam siyog'i yo'q uning... Men faqat...

Tergovchi qo'l to'lg'ab uning so'zini bo'ldi: zap vaqtida to'xtatdi, chunki Sabzalining aytadigan boshqa gapi qolmagan edi.

– Bas! Gitlerning otasi falonday bo'lsin, seniki pismadonday.

– Bo'lsin, bo'lsin...

– Nima bo'lsin?

– O'ligi xor bo'lsin.

– Hey, sen o'z otangga shuni ravo ko'ryapsanmi?

– Men emas, siz.

– Agar erkak bo'lganingda shu gapim uchun bitta qo'yarding!

– Alloh asrasin.

– Bo'ldi, bas qil.

– Xo'p bo'ladi.

Sabzali boshini quyi soldi. Bir vaqt boshini ko'tarib qarasa, tergovchi mo'ylovini burab o'tiribdi. Uzun dikkaygan mo'ylovi bor edi. Boya anovi askar turtib ichkari kiritganida Sabzali avvaliga meni Budyonniyning yoniga olib kelishdimi deb ham o'yladi. Rostakamiga yuragi taka-puka bo'ldi. So'ng tergovchining telefonda

sof ozari tilida gaplashayotganini eshitib ko'ngli sal joyiga tushdi. "Nima bo'lganda ham o'zimizning musulmon odam-ku, juda unchalik qiynamas meni", dedi ichida.

Tergovchi uni qiynamoqqa qiynamadi-yu, lekin ishni shunday yo'lga burdiki, bir hafta o'tar-o'tmas Sabzali kesilib ketdi: naqd to'rt yilga! Kontrabas chalishni ham u o'sha yerda – qamoqda o'rgangan. Badiiy havaskorlik to'garagida.

Agar ilgari Sabzali Azroil va urushdan qo'rqqan bo'lsa, endi yana bir narsadan qo'rqadigan bo'ldi: qamoqdan. Hibsxonaning suyak-suyakdan o'tib ketadigan sovug'i, mahbuslar orasida har qadamda uchratish mumkin bo'lgan onasiga pichoq tirab bu yerga tushgan modarkushlar, kunda bir marta beriladigan anjir sharbati kabi loyqa xo'rda, daraxt zamburug'i hidi anqib turadigan non va boshqa-boshqa azoblar u yerdagi odam hayotini do'zaxga aylantirardi. Shu g'urbatlar boshiga tushgan Sabzali kundan-kun ozib, oxir-oqibat eti ustixoniga yopishdi-qoldi. Och jo'ja tushida tariq ko'radi deganidek, u ham tushida nuqul qo'y go'shti yer, ayron ichar edi...

Baxti chopganimi bu, hibsga tushganidan olti oylar o'tgach, u yerda o'zi kabi bir musulmon odamni uchratdi. U ham bokulik ekan. Jebroil degan. Birinchi kundanoq u meni Jebi deb chaqir, dedi. Keyin ko'z qisib "Hech g'am yema, toki men shu yerda ekanman, boshingdan bir tola soch ham tushishiga yo'l qo'ymayman. Bilib qo'y, men *blatnoy*man, ichini to'kib tashlayman duch kelganini!" dedi. Alpkelbat, qo'llari gurzidek, tilla tishli odam edi. U qamoqda paydo bo'lgan kundan e'tiboran Sabzali misqol-misqollab et ola boshladi. Lekin juda unaqa semirmadi. Chunki ko'p ishlardi, kam uxlardi, buning ustiga ishdan keyin tillatish Jebining oyoqlarini yuvib qo'yardi. Jebining kayfiyati yaxshi bo'lsa, Sabzaliga "Jonim senga sadqa bo'lsin, yelkangda ketay" derdi.

Qamoqda badiiy havaskorlik to'garagi bor edi, yetti kishidan iborat. Qolgan mahbuslar tong sahar – olaqorong'idan yo'lga otlanardi: daraxt kesib, o'tin yorishga. Ular ishdan qaytgach, safga tizilib marsh chalardi. Kunlarning birida tillatish Jebi orkestr rahbarini yoniga chaqirib, mening inimga, ya'ni Sabzaliga bir ish top, dedi. Kamiga, boshiga bir-ikki musht ham tushirdiki: gapim orkestr

rahbariga tezroq yetsin deb. Musht yegandan so‘ng orkestr rahbari Sabzali bilan et-u tirnoq bo‘ldi-qo‘ydi. Shu kundan Sabzali orkestrda kontrabas chala boshladi. Chunki boshqa asbob yo‘q, kontrabasgina bo‘sh edi. Shunday qilib, Sabzali kunduzlari kontrabas chalishni o‘rgandi, kechqurunlari Jebining oyoqlarini yuvib, uning haqqiga duo o‘qidi. Kechalari chordona qurib o‘tirib u kuylagan qo‘shiqlarni tingladi. Jebining chiroyli ovozi bor edi. Ayniqsa, past tovushda kuylaganda odamning badani jimirlab ketardi.

Bayil qamog‘ida ming besh yuz nafar,
Obketarlar bizni Sibirga taraf.
Qo‘y, yig‘lama, onam, qo‘ygin, yig‘lama,
O‘lmadim, omonman, singlim, yig‘lama.

Uning gurunglari qo‘shiqlaridan-da maroqli edi.

Qop-qorongi zulmat barakda Sabzali namlangan ko‘zlarini Jebining og‘zidagi tamaki misoli cho‘g‘lanib turgan tilla tishlardan uzmay diqqat-la, zavq-la uni tinglardi. Jebi naql etgan voqea-yu hodisalar hech ham bu dunyoda, Sabzali oyoq bosib turgan tuproq ustida bo‘lganga o‘xshamasdi. Bular olis-olislarda, balki butkul boshqa sayyoralarda ro‘y bergandir. Bankdagi otishmalar, o‘ntalik tilla tangalar, Nikolay yuztaliklari, kim bilsin yana nima balolar, xullas, bu yerda gapirilgan gaplar bari Sabzaliga xuddi maroqli ertakdek xush yoqardi.

Shunda jismini yoqimli, suyak-suyaklarigacha qizdirib yuboradigan bir varaja tutardi. Bu suhbatlardan so‘ng u joyiga yotib ko‘rpani boshiga tortganida ham quloqlarida tillatish Jebining ovozi yangrab turardi: Odessa, Batum, Leningrad, Sochi... Ilk marotaba millionlarni, yuz minglarni, quti-quti o‘ntalik tilla tangalarni xotiralarga sarflashni ham Sabzali tog‘a qamoqxonada, odam qulog‘ini shang‘illatib yuboradigan sukunat qo‘ynida xayollarga g‘arq bo‘lganida boshlagan edi. Odessada yuz ming – ammasining ovoziga, Batumda besh yuz ming – buvisining tovushiga, Bokuda bir million – onasining sasiga... Bir safar Jebi shunchalik ko‘p pul sanadiki, Sabzali tushida onasining ko‘kraklarini ko‘rdi, emgan sutining isini tuydi.

Uyqudan uyg'onib to kun yorishguncha tillatish Jebi haqiga duo qildi.

...Movses Sergeyevich:

– Sabzali tog'a, vaqt bo'ldi, – dedi.

Shu vaqt hojatxonaga bir kishi kirdi, ikki chol yonidan xuddi ko'rmagandek o'tib ketdi, birozdan keyin "Ey, mening orzumdagi qiz" deya xirgoyi qilib chiqdi va jo'mraklardan birini ochib qo'l yuvdi. So'ng:

– Usta muallim, qo'limizga odekolondan seping qani, ko'raylik, holimiz nima kecharkan! – dedi.

Movses Sergeyevich odekolonni uning qo'liga pisillatib sepdi, yigirma tiyinni olib oq pinjagining ko'krak cho'ntagiga soldi.

– Alloh barakasini bersin, – deb qo'ydi.

...Restoranning katta, charog'on zali g'ala-g'ovurga to'la, guvillab turardi, xuddi bir gavjum bekatdek. Necha yildirki, Sabzali tog'a shu yerda ishlaydi. Har kuni allaqachon ohori to'kilgan qora paltosini kiyib, moshina-yu avtobuslardan qochib, xilvat ko'chalar oralab, "Jin urgur!" deya-deya shu yerga keladi. Ammo shuncha yildan buyon bu bo'g'iq, kuzgi tumovdek muqarrar g'ala-g'ovurga hech ko'nika olmadi. Beixtiyor uning peshonasi tirishar, asabga tegadigan sas-tovushdan, odamlarning shovqinidan yashirinmoqchi, himoyalanmoqchi bo'lgandek boshini yelkasi ichiga tortib, restoran eshigidan sahnagacha bo'lgan besh-o'n qadam masofani bosib o'tguncha go'yo butun dunyoni ko'rib qaytgandek sezardi o'zini.

Bugun shanba, soat yetti bo'lar-bo'lmas hamma joy band. Bu kun restoranning ham g'aznasi to'ladi, Adigo'zalning ham. Taxminan to'qqiz yarimlardan boshlab dastyorlari Adigo'zalga buyurtma olib keladi: "Shelabiya", "Rayhon", "Dereler", "O, devushka moyey mechti", tango, maqom va shunga o'xshash musiqalarga. Har bir buyurtmaning o'z narxi bor: uch, besh yoki o'n manat. "Bezning ishi besh" deb shuni aytadilar. Adigo'zal to'qqiz yarimdan cho'ntak qappaytirishni boshlaydi, oxirida hammaga besh, o'n manatdan beradi-yu, Sabzali tog'aga bor-yo'g'i ikki manat tegadi. Chunki u yakkaxon ijrochi emas, shunchaki jo'r bo'ladigan bir mashshoq, xolos. Valadi zolimning dini-imoni yo'q. O'zi har yoz xotin-bola-chaqa-

sini Kislovodskka dam olgani jo'natadi, lekin Sabzali tog'a hech narsa yeyolmayapman, tish soldirishga pulim yo'q desa, yelka qisadi. Ayb emas! Yomon kunning umri qisqa bo'ladi! Davring kelibdi – hozircha surib qol. Vaqti yetib bizning ko'chada ham bayram bo'ladi, o'shanda gaplashamiz... Adigo'zalning bir qizi bor, endi o'n to'rtga kirgan, to'qson ikki kilo tosh bosadi zolimning bolasi. Oltmish to'rt yashar Sabzali tog'a esa chiqsa atigi ellik to'qqiz kilo chiqadi. Ayb emas! Hay, men hali otangga ko'rsatib qo'yayki, qarab tur... Ammo Sabzali tog'a yaxshi biladiki, hech kimning otasiga ko'rsatib qo'yolmaydi u. Chunki birovning adabini berish uchun odamning yo zari bo'lishi kerak, yo zo'ri. Ko'rsatgan kuningga shukr, yo Xudovandi olam!

Orkestr chala boshladi – "Yo'l ber bizga, moviy Xazar"ni. Shovqin eshitilmay qoldi: musiqa sasi g'ala-g'ovurning giribonidan oldi.

Sabzali tog'a orqadan Adigo'zalning kal boshiga qaray-qaray, ichida uning go'riga g'isht qalay-qalay shahodat barmog'i bilan kontrabas simlarini tortardi. Orkestr pianinochisi Natan Zelmanovich fortepyanoning nota turadigan joyiga ikki bo'lak pirog qo'yib olibdi. Ham chaladi, ham kavshanadi. "Senga nima yetishmaydi, ey! – deya xayolidan o'tkazadi Sabzali tog'a. – Xuddiki ortingda Amerika turgandek, dunyoni suv bossa, to'pig'ingga chiqmaydi. Bugun ham Adigo'zaldan bitta qizil o'ntalikni shilib uyingga eltasan-da".

Marsh tugadi. Adigo'zal pishillab ortiga o'girildi-da, "Vals", dedi. Orkestr vals chala boshladi.

Urush boshlansa, shu Adigo'zalni olib ketsalar ajabmas. Chunki u endi qirq beshga kirdi. Qorniga nayza sanchsalar, yarmi kirib-kirmay sinib ketsa kerak, vallohi a'lam! Shuncha yog' ichiga nayza qanday kirsin?! Unga faqat atom bombasi bas keladi. Qoq kallasiga tushsa, tamom – miyasining qatig'i chiqadi...

Raqs maydonchasida boyadan beri ikkitasigina raqs tushmoqda. Qiz – Sabzali tog'a hali dahlizda toshoyna yonida ko'rgan qiz, shekilli. O'ng qo'li yigitning yelkasida. Yigit og'zining tanobi qochgancha qizning qulog'iga engashib pichirlagani pichirlagan. "Avrayapti-da", deydi o'zicha Sabzali tog'a. Yigit yettinchi osmonda, xursand. Bo'ladi-da, nega xursand bo'lmasin! Shunday jonon

quchog'ida-ku, hali qarab turing, restorandan chiqqandan keyin qanday oto'yinlar boshlar ekan bu... Sabzali tog'a xayolan qizni quchdi, yumaloq, toshdek siynalarining issiq tafti yuziga tekkanini his etdi: qarasaki, qiz uning uzun, etsiz burnini siynalari orasiga olib siqayotirmish... Qulog'i ostida ot kishnagandek bo'ldi...

Tanaffusda Adigo'zal bilan Natan Zelmanovich o'zaro imlashib bufetga ketdi. Natan Zelmanovich pirogini olishni unutmadi. Gitarachi bilan nog'orachi kursilarini baqamti qo'yib olib futbol haqida gurung boshladi. Gitarachi bor bo'lsa endi 22-23 yoshlarda. Buning ustiga, rosa kelishgan yigit qurmagur. Restoranga kelgan qiz-juvonning bari fursat tug'ildi deguncha yonidagi erkakning yelkasi oshami, yon-veridanmi unga qaraydi. Bu boqishlarga Sabzali tog'a "Kel, meni ol" deb nom qo'ygan. Bu ochiqdan-ochiq "Kel, meni ol"lar Adigo'zalni rosa jin otiga mindiradi – janjal chiqib, mushtlashuv bo'lishidan, orkestrga gap tegishidan o'lgudek qo'rqadi u. Sabzali tog'aning esa aksincha, buni ko'rib ko'zi quvnaydi. Chunki har gal qizlar gitarachiga qaraganida Adigo'zalning bitdek quv ko'zlari g'azabdan yonib ketadi. Asabiylashadi. U asabiylashganda, o'zini bosolmay qolganda har safar klarnet chalishda yanglishib ketadi. Bir gal uning "o'z holiga tashlab qo'yilgan" klarneti shunday xunuk ovoz chiqardiki, mijozlar bari o'girilib sahnaga qaradi va gurra kulgi ko'tarildi. Shu voqeadan keyin Sabzali tog'a uch kun *"izjog"* bo'lmadi.

Sabzali tog'a boya – hali Movses Sergeyevichning yonida o'tirganidayoq birincha tanaffusda bufetga chiqib ellik gramm konyak ichaman deb ko'ngliga tugib qo'ygan edi. Movses Sergeyevichning atom bomba haqidagi suhbatidan so'ng, otasi, buvisi, onasining ovozini eshitgandan keyin konyak ichmasa aslo bo'lmaydi. Odamning nega kayfiyati buziladi? Chunki keksaygan sari tomirlaridagi qon quyuqlashadi va hujayralaridagi harakat susayadi, vujud bo'shashib qoladi. Ba'zan shunday anduhga g'arq bo'lganingda buning jazosi konyak, faqat shu qutqaradi insonni g'amdan. Ko'p emas, atigi ellik grammi. Chunki chaqmoqtoshga ham ko'p yoqilg'i solsangiz – yonmay qoladi.

Adigo'zal ulfati bilan bufetga ketgach, Sabzali tog'a ellik gramm konyak ishtiyoqidan voz kechishga majbur bo'ldi. Bufetda

qo‘y go‘shtidan lo‘lakabob kavshab o‘tirgan Adigo‘zalning qalin malla mo‘ylovi, qizg‘ish lablari, oppoq tishlari va mudom chakchak ter oqib turadigan qavat-qavat bag‘bag‘asi ko‘z oldiga kelib Sabzali tog‘aning birdan qoni qo‘yulib ketdi va hujayralaridagi harakat birdan susaydi. Ellik gramm konyak havasi yuz ellik grammga aylandi.

– Sabzali tog‘a!

Chol shoshilmay chap tarafga o‘girilib qaraganida sahnadan o‘ng tomonda devor tagida o‘tirgan mijozlarga xizmat qilayotgan Valyaga ko‘zi tushdi. Ayolning yana qovog‘i soliq, yana yuzidan zahar tomyapti. Valyani tanigan kunidan beri Sabzali tog‘a uning chehrasi ochilganini ko‘rgan emas. Mudom o‘ychan, mudom asabiy va kamgap. Nigohlari ham yomg‘irda qolgan rezina kalishdek sovuq. Bir gapni takrorlagini takrorlagan: “Ozroq pul jamg‘arib olay, lash-lushumni ko‘tarib Voronejga jo‘nayman, ukamning yoniga, sigir, jo‘ja-tovuq boqaman, o‘zim uchun yashayman!”

Sabzali tog‘a:

– Valya, nima gap? – deb so‘radi.

Valya eringandek qo‘lini bazo‘r ko‘tarib zalning u chekkasi, eshikdan o‘ng tarafdagi stolga ishora qildi.

– O‘sha yerdagilar sizni chaqiryapti.

– Kim ekan?

– Qayoqdan bilay, mijozlar-da.

– Adigo‘zalni so‘rashgan bo‘lsa kerak, yanglish eshitgandirsan.

Valya bosh chayqadi, boyagidek lanj ovozda, lekin balandroq ohangda gapirdi:

– Yanglish eshitmadim, kontrabas chalayotgan odamni chaqirib yubor bu yoqqa, deyishdi.

Yana nimadir so‘ramoqchi bo‘lgan Sabzali tog‘aning gapi og‘zida qoldi, Valya shartta burilib oshxona tomon yurdi.

Sabzali tog‘a yelka qisdi: uni kim chaqirishi mumkin, axir?

Dasturxon atrofida ikki kishi o‘tirardi. Qora pinjak kiygan, bo‘yinbog‘i tugunini biroz bo‘shatib, ko‘ylagi yoqasini ochib olgan, oq yuzli o‘rtayashar odam Sabzali tog‘aning bukchayibgina mayda qadamlar bilan o‘zlari tomon kelayotganini ko‘rib, ko‘mko‘k barra piyoz chaynab, ko‘zini lo‘q qilib o‘tirgan sherigining

qulog'iga nimadir deb pichirladi. Bu hol Sabzali tog'aning nazaridan chetda qolmadi. Bilib turibdi, u haqda gapirdi, gapirganda ham yaxshi gap aytmagani tayin. Lekin Sabzali tog'a hech nima bo'lmagandek ularga yaqinlashib, kamoli ehtirom bilan salomlashdi. Qora pinjakli qo'l cho'zdi, joy ko'rsatdi.

– O'tiring, – dedi. – Xush kelibsiz. – Qo'lini pastga tushirganida lunjlari silkinib ketdi. Sabzali tog'a bu osilgan oq yuzni xamirga o'xshatdi va miyig'ida kulib qo'ydi. O'tirdi. Yon-veriga boqdi: zalda na restoran mudiri, na Adigo'zalni ko'rgach, ovozini pastlatib:

– Xo'sh, xizmat? – dedi.

Bu safar ham qora pinjakli gapirdi. Sherigi go'yo bu yerlarda emas edi. Sabzali tog'aning kelib yonlaridan joy olganini ham payqamadi.

– Xizmat qochmaydi, amaki, – dedi qora pinjakli tomoq qirib, xuddi ashula aytishga chog'lanayotgan xonandadek. – Avval badanni bir qizdirib oling-chi.

Sabzali tog'a sal ortga tisarilib, ikki qo'lini ko'tardi:

– Minnatdorman. Men ichmayman.

– Nega?

– Nima – nega?

– Nega ichmaysiz deyapman?

– Menga ichkilik mumkin emas.

– Nega?

– Nima – nega?

– Nega mumkin emas deyapman?

– Oshqozonim og'riydi...

– Nega?

– Og'riydi-da...

Qora pinjakli:

– E, bunisi bo'lmabdi endi, – dedi.

Sherigi:

– Sendan menga yor bo'lmas, – dedi iyagini qashib.

Sabzali tog'a kulimsirab, dasturxonga nazar tashladi. O'rtada – katta laganda palov, boshqa taqsimchada kabob. Ammo har ikkovlonning oldidagi taqsimchalar bo'sh. Bular bo'kib ichibdi-yu, deyarli hech nima yemabdi.

Shu vaqt Valya ularga yaqinlashdi.

– Kamchilik yo‘qmi?

Qora pinjakli chap qo‘lini kursi suyanchig‘idan orqaga sollab, Valyaga so‘z qotdi:

– Balki siz aytarsiz, bizning bu qo‘nog‘imiz nega otmaydi?

– Uning gastriti bor, – dedi Valya.

Sabzali tog‘a ham darrov bosh silkidi:

– Shunday. Og‘zimdan bir tomchi araq kirsa *“izjog”* bo‘laman.

Qora pinjakli ovozini baralla qo‘yib xoxolab yubordi. Bitko‘zlari battar qisilib ko‘rinmay ketdi: xuddiki bir tog‘ora ko‘pchigan xamirga bir juft qora munchoq botib yo‘qolgandek. Sabzali tog‘a taajjub-la qora pinjakliga boqdi, gunoh qilgan odamdek kipriklarini ayanch bilan pirpiratdi. So‘ng Valyaga:

– Ellik gramm konyak olib kel, – dedi-da, qora pinjakliga o‘girildi: – Menga araq mumkin emas-u, ozroq konyak ichsam bo‘ladi.

Valya ketdi.

Nihoyat, qora pinjakli o‘zini bosib oldi. Sarosimaga tushgandek dastro‘moli bilan shosha-pisha terlarini artdi. Birozdan so‘ng tilga kirdi:

– Maqom eshitish ishqi tushdi ko‘ngilga rosa, amaki, nima qildik shunga?

Sabzali tog‘aning ko‘z oldiga Adigo‘zalning tovoqdek basharasiyu daroz klarneti kelib ketdi.

– Restoranga joylashib olasizlar-da, o‘zlaringcha odam ajratishni boshlaysizlar. Allohning maqomini chalib bersangiz, nima, xanjaringiz tig‘i o‘tmaslashib qoladimi? – dedi qora pinjakli asabiylashgandek.

Sabzali tog‘a istar-istamas:

– Maqom masalasida Adigo‘zal bilan gaplashasiz, klarnetchimiz bilan ya’ni. – Ataylab “klarnetchimiz” deb aytdi, orkestr rahbari demadi. Shu qadar sekin gapirdiki, o‘z ovozini o‘zi zo‘rg‘a eshitdi.

– Boya Segohga o‘xshaganroq bir nima chaldi, o‘shani aytyapsizmi? Hay, bo‘ladigan gapni gapirsangiz-chi!

Sabzali tog‘a jonlandi, stolga yaqin surilib tirsagini qo‘ydi-da, gap boshladi:

– Albatta, maqom qayoqda, Adigo‘zal qayoqda! Bilasizlarmi, ilgari u qayerda ishlagan? – Sabzali tog‘a stolga yanayam engashdi. – Dafn marosimida musiqa chaladigan orkestrda. – Kuldi. – Dunyoning ishi-da buyam! Endi olib kelib bu yerga qo‘ydilar. Boshladi manmansirashni! E-e, maqom qayoqda-yu, Adigo‘zal qayoqda! – U qo‘l siltadi. Chuqur uf tortdi. Keyin: – Maqom sharbat misoli, – dedi. – Chalganda rohatlanasan, zavqlanasan. Shunday chalish kerakki, butun jamoat oyoqqa qalqib seni tomosha qilsin, senga quloq ossin... Bola kezlarim qishlog‘imizga Erondan bir kamonchi keldi. Ey, nima deyin, til ojiz! Qurib ketgur shaytonvachchaning barmog‘ida sehri bor ekanmi, chalgan kuyini tinglaganning ichiga olov tushadi, yonadi. U ketgandan so‘ng butun kent ahli naqd bir hafta telbaga o‘xshab yurdi. So‘z bilan ta’riflab ado qilolmayman, og‘asi. Eh, qani endi maqom chala oladigan, uning qadriga yetadigan odam?

– Oralaringda yomon bir intriga bor shekilli-ya, amaki?

– Nima bor?

– Intriga... Ya’ni, nizo, tortishuv, oyog‘idan chalish degandek.

– Yo‘q, azizim! Menga nima? Men bir keksa odam bo‘lsam, birovga tegib-tegishib nima qilaman? Adigo‘zal kim-u men kimman?!

Valya keltirgan konyakni sipqorgach, Sabzali tog‘a yengillashish o‘rniga battar og‘irlashdi. Eronlik kamonchi haqida gapirmasa bo‘larkan. Chunki yana o‘tmishga qaytdi. Onasi va buvisining ovozlari qolgan o‘tmishga. Bir million ikki yuz mingning oxirgi tiyinini kimga sarflagan edi?.. Shukr ko‘rsatgan kuningga, ey, Xudovandi olam! Ming shukr!

Sabzali tog‘aning dili xira bo‘ldi yana. Oshnasining, Movses Sergeyevichning qoshiga borgisi, oromkursiga yastanib filtrli sigaretidan chekkisi, u yoq-bu yoqdan valaqlashib o‘tirgisi keldi. Unga hatto shunday tuyuldiki, bu yerda u ikki mast-alastning mehmoni emas hozir, balki Movses Sergeyevichning xonasida o‘tiribdi, mana bu suhbat ham kecha bo‘lgan, yoki roppa-rosa besh kun avvalmikan...

Qora pinjakli Sabzali tog‘aning xayollarini to‘zg‘itib yubordi:

– Bu yoqqa qarang, – dedi. – Boya aytganingiz, anovi Adigo‘zalmidi, kim, o‘sha yaxshigina pul ishlab olsa kerag-a?

Yana Sabzali tog‘aning nozik joyidan tutdilar.

– Yaxshigina ishlab olish ham gapmi! Shaytonvachchaning cho'ntagiga har kech bittadan qizil o'ntalik tushadi. Maoshi ham kam emas, yetarli. Uyda televizor, jihoz-pihoz, xotin-bola-chaqasi bor, barcha sharoit badastir...

– Xo'p, nega sizning pul ishlagingiz kelmaydi? – Bu safar qora pinjaklining ozg'in, qoraqosh sherigi tilga kirdi. Sabzali tog'aning taajjub-la boqqanini ko'rib savolini takrorladi: – To'g'ri-da, hamma pul ishlash payida. Nega siz ishlab olmaysiz? Siz kimdan kamsiz?!

– Bilmasam. Mening qo'limdan kelmaydi.

– Ana bo'lmasa! Rahmatlining o'g'li! Qo'limdan kelmaydi deganingiz nimasi? Odamlar toshdan pul qiladi-ku, siz bo'lsangiz qo'limdan kelmaydi deb o'tiribsiz!

Qora pinjakli:

– Keling, siz bizga "Bayoti Sheroz"ni chalib bering, biz ham badalini o'taylik.

– Nimada chalaman?

– Nimada deganingiz nimasi? Haliginda... Siz chaladigan asbobning nomi nima?

– Kontrabas.

– Ha, o'sha kontrabasda.

Sabzali tog'a uni bu yerga, bu dasturxonga nima uchun chaqirganlarini endi angladi. Jahli chiqdi. "*Izjog*"i haddan oshdi. Sapchib turib stolga musht urgisi keldi. Ammo o'zini bosdi. Qarshisida o'tirib unga intiq boqayotgan bu ikkisi restoran mudiriga shikoyat qilishidan, u esa yana "seni haydamasam otamning o'g'li emasman" deyishidan qo'rqdi... Mudirga arz etsalar yaxshi bo'lardi qaytaga. G'azabga minib odamning qo'lini, qovurg'asini sindirishi hech gapmas bular, valloh.

Qora pinjakli qo'lini cho'ntagiga tiqdi. Sabzali tog'a o'ziga kelib ulgurmay, kissasidan ikkita elliktalik chiqarib stolga – Sabzali tog'aning burni tagiga qo'ydi.

– Ota-bobodan qolgan naql: pul bir bizda bor, bir inglizda, – dedi. – Siz "Bayoti Sheroz"ni chaling, bu yuz manat sizga hadya bo'lsin... Xo'sh, durustmi?

Sabzali tog'a indamadi. Boya ichilgan ellik gramm konyak sarxushligi mana shu so'zlardan keyin uni bisyor baxtiyor etdi. U qo'l cho'zib pulni oldi, shoshilmay buklab ko'krak cho'ntagiga soldi.

– Becheshm! (*Menga baribir*) – deb o‘rnidan turdi va sahna tomon yurdi.

Keyin nima bo‘ldi? Yaxshi eslay olmaydi. Faqat shu esidaki, kontrabasdan g‘alati-g‘alati tovushlar chiqdi. Zal avvaliga pashsha uchsa eshitilgudek jim qoldi. Keyin u yer-bu yerdan kulgi eshitildi. Sabzali tog‘a esa to‘xtatmoqni xayoliga ham keltirmadi. Oyog‘idan ko‘z uzmay “Bayoti Sheroz”ni chaldi. Orada boshini bir ko‘tarib qaraganida Adigo‘zalning hayratdan katta ochilgan ko‘zlari-yu restoran eshigida tozi it quyonga boqqan kabi undan ko‘z uzmay turgan Movses Sergeyevichning jikkakkina jussasini ko‘rdi. Sabzali tog‘a uzoq chaldi. Chunki yuz manatga yumaloq-yostiq qilib bo‘lmasdi. Odamga insof kerak-da, axir.

Mijozlar shunaqa gurillab kulardiki, kontrabasdan taralayotgan g‘aroyib g‘ichirlashni faqat Sabzali tog‘aning o‘zi eshitgan bo‘lsa kerak...

***

Yuz manat – ikki dona beli bukilmagan elliktalik ko‘krak cho‘ntagida, sotib olishni orzu qilgani arzon televizor ko‘z o‘ngida, Sabzali tog‘a mayda qadam bosib uyiga qaytayotir.

Yurdi-yurdi, xursandligidan daf’atan boshini shartta ko‘tardi. Ko‘tardiki, qani boqsin, ko‘rsin, osmonda nelar bor, nelar yo‘q!..

Baland-baland imoratlarning qora ko‘lkasi orasidan porlagan yulduzlar qurshovidagi Somon yo‘liga ko‘zi tushdi. Ajablandi. Ellik yillardan ziyod vaqt o‘tibdiki, Somon yo‘lini ko‘rmagan ekan.

To‘xtab, qo‘llari cho‘ntagida, to‘ygunicha tomosha qildi. Birdan Sabzali tog‘aning ko‘ngli yumshab, yig‘lab yubordi. Yig‘ladi, yuragi bo‘shalguncha yig‘ladi...

INJA DARASIDA BAHOR CHOG‘I

Jonlantirish brigadasining boshlig‘i hovlining salqin burchagida o‘tirar, go‘yo hammomdan chiqqanday yuzida quyilib kelayotgan terni artardi. Hammomning parxonasidan chiqqan kabi hansirab nafas olardi. “Yo, tavba, o‘lgan odamni tiriltirib bo‘larkanmi”,

deb o'ylardi Sayali xola. U ro'molchasi bilan yelpinayotgan yuzlari qip-qizil ko'zoynakli semiz do'xtirga umid bilan ko'z tashlab qo'yardi. Sayali xolaga bo'lgan voqyeani – Salaxovning qayin singlisi avtohalokatga uchragani, oqibatda o'lim holatiga kelib qolgani, uni o'ziga keltirish uchun Bokudan vrach chaqirilgani – hammasini qishloq feldsheri aytdi. Qiz o'lgan, ha, ha rostdanam o'lgan, chala o'lik bo'lmaydi-ku, dedi feldsher. Tushundingmi? Bokudan kelgan vrach sirli-sinoatli do'xtir emish. Qishloq feldsheri yana nima deydi deng: bu vrach o'liklarni tiriltiradigan barcha vrachlarning eng kattasi emish. Shunaqa! Demak, u bu yerga shuning uchun kelgan... Alloh madad bersin. Nimalar bo'lyapti o'zi, a? To'g'ri, Salaxov kichkina odam emas. Uni nafaqat qishloq ahli, rayon markazida, hatto Bokuda ham tanishadi. Shunday hurmatli odamning qayin singlisi, palakat bosib, qandaydir bir betayin kimsaning mashinasiga o'tiribdi. U yaramas qizning husniga mahliyo bo'lib mashinani telbalarcha haydabdi, ammo qiz aytgan joyga emas, buloq tomonga, odamlar intim maskan deydigan tarafga buribdi.

Hovliqib haydash oqibatida mashina halokatga uchrabdi. Salaxovning qayin singlisi qayoqqa, nima uchun, kim bilan borgani haqida butun qishloqda shov-shuv tarqaldi, hamma bir-biriga bu haqda pichirlab gapiradi. To'g'ri-da, shunday hurmatli odamning qarindoshi bilan bo'lgan voqeani butun qishloqqa jar solib gapirish yaxshi emas-da. Qishloq feldsheri sho'rlikning qo'lidan nima kelardi, o'zi bir merov bo'lsa, qo'pol qilib aytganda, odamning kasali bilan hayvonning kasalini farqlay olmaydi. Yaxshiyam Bokuga qo'ng'iroq qilib vrach chaqirishdi, keyin manovi ko'zoynakli semiz do'xtir keldi. Bo'lmasa qiz boyoqish ertalabgacha narigi dunyoga jo'nab qolarmidi. Alloh, bizlarga o'zing yordam ber, do'xtirlarga kuch-quvvat ber, qiz sho'rlikni o'zing panohingda asra, hammaga yordam ber, barchasiga odamning rahmi keladi, hammasi odam bolasi-da, axir. Salaxovga ham, uning qayin singlisiga ham, o'lgan odamlarni tiriltiradigan eng katta do'xtirga ham o'zing yordam ber, Allohim!

Sayali xola tong bo'zarganda hovliga tushdi. Shu mahal shundoqqina tepasida guvillagan ovoz eshitildi, xola beixtiyor osmonga qaradi, tonggi siyrak tuman ichida vertolyot ko'rindi. Keyin

qo'shnilaridan bilib oldi – katta do'xtir ana shu vertolyotda kelgan ekan. Feldsher ham aytdi, vertolyotda kelgan oddiy vrach emas, o'lgan odamni tiriltiradigan eng katta do'xtir ekan. Sayali xola bu gapni eshitib xursand bo'ldi, ayni chog'da biroz qo'rqib ketdi. Nahotki shunday bo'lsa? O'lgan odamni tiriltirsa... Bu Allohning irodasiga qarshi borish emasmi. Bunaqa ishlar Yaratganga xush kelmaydi-ku. Allohim, o'zing madad ber, panohingda asra, barchamiz o'zingning gunohkor bandalaringmiz. Bir tomondan qiz bechoraga odamning rahmi keladi, Salaxovning qayin singlisi, shunaqa kelishgan, shunaqa go'zal, unga qaragan kishi ko'zini uzolmay qoladi. Bunaqa yosh qizning o'limi Allohga ham kerakdir-da, bo'lmasa, usiz ham yer ostida qancha yoshlar yotipti-ku. Sayali xola xursand bo'lardi – iloha, shu mo'jiza ro'y bersin-da... Ayni chog'da boshqacha fikr ham keldi xayoliga. Yo'q, bunday fikrni oshkor aytish mumkin emas, Xudo ko'rsatmasin, birdan iloji bo'lmadi, deb qolsa-ya... Ana, uyda yarim yildan beri choli yotipti, kundan kun to'kilib, sarg'ayib, ozib borayotir, unga qarab odamning yurak-bag'ri eziladi. Qishloq feldsheri bir merov bo'lsa... E, nimasini aytasan... Kim ham yordam berardi eriga, nima, Bokudan hurmatli, mashhur do'xtir kelarmidi cholini ko'rgani. Sayali xola qishloq feldsherlik punkti tomon yurdi, balki Bokudan kelgan vrachlar eriga biron bir dori yozib berar, balki ukol qilar.

Feldsher ham hovlida, quyoshning tig'iga dosh berolmay, og'zini kappa-kappa ochib vrachga termulib turardi. Sayali xola sezdiki, feldsher vrachning amrini kutib o'tiribdi: u o'l desa o'ladi, qol desa qoladi. Xola nima qilishini bilmay garangsib turdi: vrachning oldiga borishga jur'ati yetmadi, og'zini yopish esidan chiqib qolgan merov feldsherga biron nima deyishdan foyda yo'q, u butun vujudi bilan vrachning har bir harakatini kuzatib o'tiribdi. Feldsher hurmatli mehmonni kutish maqsadida oq shim, jun ko'ylak kiygan, qo'lida katta, piyolaning og'zicha keladigan soatining millari yaltirab ko'rinadi. Qishloqqa raykom, rayijrokom yoki boshqa idoradan kimdir kelsa feldsher o'z odati bo'yicha shu bayramona oq shimini kiyar, yaltiroq brasletli ulkan soatini albatta taqib olardi. Bu bilan o'zicha qishloq va shahar o'rtasidagi farqni yo'qotmoqchi bo'lardi. Har doim, xuddi hozirgiday, rayondan kelgan odamning

og‘zidan ko‘z uzmaydi, ular nima topshiriq bersa darhol bajarishga shay turadi. Ammo Sayali xolaning choliga yordam berish uning hayoliga ham kelmaydi. Odamlarga turli dorilarni sotadi, lekin bu dorilardan biron kishi shifo topgani yo‘q haligacha, hamma o‘zicha dori-darmon qiladi, vaqti-soati bilan tuzalgan tuzaladi. Bu odamning o‘z fikri, qarashi, bilimi yo‘q, hatto yurish-turishi ham o‘ziniki emas. Hech bo‘lmasa hozir Sayali xolaga bir qarasa-chi... Qara, qara, ey, merov, bir qara kampirga!

Feldsher kampirning qalb nidosini eshitganday sekin Sayali xolaga yuzlandi. Uning og‘zi yumildi, qoshlari tepaga ko‘tarildi, ey, kampir bu yerda nima qilib yuribsiz, deganday bazo‘r bosh irg‘adi. Sayali xola vrach tomonga ishora qildi, so‘ng boshi bilan uyini ko‘rsatdi. Bu bilan choli betobligini, shahardan kelgan katta do‘xtir ko‘rib qo‘yishi mumkinmi, degan ma’noda uyi tomonga qaradi. Shu zahoti ko‘nglidan bir fikr kechdi: “Eh, sen merovning qo‘lingdan nima kelardi. Bor-e...”

Feldsher qo‘rquv ila vrachga qaradi – ishqilib uning biron bir harakatini ko‘zdan qochirmadimmi, degan hadik cho‘chitdi uni. Hayriyatki, vrach xotirjam, ko‘rinishidan hali beri feldsherga topshiriq beradiganga o‘xshamasdi. U astagina Sayali xola tomon yurdi.

– Oldimga kelishga qanday jur’at etding? – dedi Sayali xola sekin pichirlab.

– Siz meni kim deb o‘ylayapsiz? – dedi feldsher kerilib. Salaxovning qayin singlisi rostdanam o‘lgan-u, uni aynan mana shu merov – ikki eshakni bir-biridan ajratolmaydigan galvars tiriltirganday tutardi o‘zini.

– Xudoga shukur! – dedi Sayali xola uni ruhlantirib. – Qurboning bo‘lay, Mahmud, ayt unga, o‘sha hukumat ukolidan bizga ham bir donagina bersin. Ehtimol unda ortiqchasi bordir, a?

Feldsher xolaga hayrat bilan qaradi:

– Qanaqa ukol, kampir?

– Ukol-da, bizning cholimiz uchun.

– Nimalar deyapsiz, esingiz joyidami?

– Jonim qurbon bo‘lsin senga, Mahmud. Sendan o‘tinib so‘rayman. Undan bittagina, tushundingmi, bir donagina ukol ol, iltimos,

men uning hurmatini joyiga qo'yaman, aytganini qilaman, yo'q demayman. Bildingmi, tushundingmi, Mahmud? – Sayali xola unga shunchalar zorlanib termuldiki, feldsher ko'zini olib qochdi.

– Yo Alloh! – deya chuqur xo'rsindi feldsher. – Ey, kampir, nima deyayotganingizni o'zingiz anglayapsizmi...

Vrach ularning yoniga keldi, feldsher gapini to'xtatdi. U Sayali xolaning ro'parasidan chetga o'tdi-da, tezlik bilan kiyimlarini to'g'riladi. Vrach kampirga diqqat bilan razm soldi.

– Qishlog'imizga xush kelibsiz, o'g'lim, – Sayali xola vrachga xushmuomilalik bilan murojaat qildi. – Alloh umringizni uzoq qilsin. Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi-da.

– Onaxon, siz qizning qarindoshimisiz?

– Yo'q, aziz mehmon, qarindosh emasman... Aslida, qishloq joylarda hamma bir-biriga qarindosh bo'ladi. Undan tashqari o'rtoq Salaxov shunday hurmatli odamki, Alloh uni panohida asrasin, uning qayin singlisi ahvolidan qayg'urmaslik gunohi azim. Hatto unga qarindosh bo'lmaganlar ham achinayapti... Ammo hozir gap unda emas, – davom etdi kampir. Uning ovozi hayajondan xirillab qoldi. – Sizning tashvishingiz menga ham yuqdi, o'g'lim, iloho umringiz ziyoda bo'lsin, sira kasal bo'lmang... Bilasizmi, o'g'lim, cholim anchadan beri, o'tgan Navro'z bayramidan buyon kasal, o'rnidan turolmaydi. Mahmudga katta rahmat, qo'lidan kelgan yordamni ayamayapti, lekin hech narsa naf qilmayapti.

Vrach feldsherga qaradi:

– Qanaqa kasal?

– Kasali, – dedi feldsher, – o'pkasida.

– Necha yoshda chol?

– Yetmishdan oshdi, rahmat sizga, o'g'lim. Shu yaramas dard bo'lmaganda... Cholim baquvvat edi. Dard unga juda azob beryapti, – dedi Sayali xola. – Ertalabgacha mijja qoqmay chiqadi. Qurboningiz bo'lay, do'xtirjon, olib kelgan ukollaringizdan bir donagina, mayli, eng kichkinasini bersangiz, cholimga qilsak, sal bo'lsayam orom olarmidi, deyman-da. Savob bo'ladi. Juda qiynalib ketdi bechora, unga qarab ezilib ketaman. U ham davlatga xizmat qilgan, halol, vijdonan ishlagan, kolxoz qurgan, banditlarni tutgan...

– Morfiydan ukol qilyapsizmi? – so'radi vrach feldsherdan.

– Men dori so‘rayverib charchadim. Qayoqlarga yozmadim, natija yo‘q. Oddiy dorilar yo‘q, berishmaydi... Morfiy deysiz...

– Demak, gap bunday, borib hamshiraga meni ayting, ikkita ampula bersin. – Vrach Sayali xolaga yuzlandi. – Sizga ukol beradi, cholga qilinglar, og‘riq bosiladi. Bezovta bo‘lmang, onaxon, hammasi yaxshi bo‘ladi... – Vrach ildam qadamlar bilan bu yerni tark etdi.

Sayali xola quvonchdan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, hayajonlanganidan tili kalimaga kelmasdi. Birozdan so‘ng go‘yo qattiq uyqudan uyg‘ongan kabi o‘ziga keldi va ko‘kragiga ura boshladi.

– Yo, Alloh, mening jonimni ol, o‘lib qo‘ya qolay, nima degan odam bo‘ldim. Bir og‘iz rahmat ham aytolmadim-a. – Feldsherga iltijo bilan qaradi. – Endi nima bo‘ladi, Mahmud?

– Hech narsa bo‘lmaydi, – dedi ensasi qotib Mahmud, – siz uyingizga boring, men shpris olaman-da, orqangizdan yetib boraman.

Sayali xola uyiga go‘yo uchib bordi. U o‘zini g‘oyat yengil his qilar, harakatchan, mayin tabassum, ajib bir nur yuziga yarashib turardi. Yo‘lda uni uchratganlar hayrat bilan qarar, nima balo kampir erga tekkanmi, deb o‘zaro hazillashardi. Sayali xola hech kimga e’tibor bermasdi. Hozir unda juda katta umid, hayotning o‘ziday ulkan umid paydo bo‘lganini, ana shu umid kampirga qanot berganini, ajoyib mayin tabassum hadya etganini ular qayoqdan bilsin. Bunday quvonchli holatini anchadan buyon hech kim ko‘rmagan. Uning yuragi, keksa yuragi shunday gupillab urardiki, go‘yo hozir ko‘ksidan otilib chiqib ketadiganday tuyulardi. U Xudoga iltijo qilardi: “Allohim, o‘zing menga madad ber, uyga eson-omon yetib olishimga ko‘mak ber, Allohim. Yalinaman, yolvoraman senga, Yaratgan egam, menga kuch-qudrat ato et, uyga borib, cholimni xursand qilishimni nasib et”.

U uyiga kirib keldi. Yuragi hamon gupillab urardi. Yuzidan tabassum arimagan, Sayali xolaning yelkasidagi ko‘zga ko‘rinmas qanotlari hanuz uni ko‘tarib turardi. Uyga kirib, cholining ingraganini eshitdi. U yonboshi bilan yotar, qo‘li karavotdan pastga osilgan edi. Sayali xola erining qo‘lini siladi, qo‘l quruqshab qolgan, madorsiz edi. Yaqin-yaqinlargacha bu qo‘llar qanday kuchli, qattiq, baquvvat edi-ya, endi tovuqning panjalariga o‘xshab qopti. Xolaning tomog‘iga nimadir tiqildi. U cholining karavotiga yaqin o‘tirdi.

– Cherkes, o, Cherkes! – dedi baland ovozda.

– Nega baqirasan, – dedi chol sekin, – kar emasman-ku, eshitayapman.

Erining tanish bosiq ovozini eshitib, kampir xursand bo'ldi. Yuragi biroz taskin topdi, qandaydir sog'inch vujudini qopladi. Cholning faqat ovozi oldin qanday bo'lsa shundayligicha qolgan edi.

– Men Bokudan kelgan do'xtir bilan gaplashdim. Sizni tuzataman, dedi. Anavi merov Mahmudga Salaxovning qayinsinglisiga qilgan ukoldan berdi. U ukol o'sha qizni tiriltirgan. Hozir Mahmud keladi. Do'xtir aytdi, o'sha ukoldan sizning cholingizga ham qiladi, keyin o'rnidan turib ketadi, dedi.

– U meni bilarkanmi?

– Bo'lmasam-chi! Otingizni aytishim bilan "Injadaralik Cherkesni kim bilmaydi?!" dedi.

Sayali xola erining qoqsuyak bo'lib qolgan, qoraygan qo'llarini ohista silar ekan, davom etdi:

– Yana aytdiki, sizning kasal bo'lganingizni Bokuda hech kim bilmagan, agar xabar topishganda eng katta do'xtirni allaqachon bu yerga jo'natgan bo'lar ekan. Nimasini aytasiz, o'likni tiriltirgan do'xtir uchun sizning kasalingiz nima bo'pti... Bir zumda tuzatadi-qo'yadi.

Cherkes boshqa hech narsa demadi. Sayali xola keyingi vaqtlarda, aniqrog'i, so'nggi ikki oyda cholining birdan savollar berishdan to'xtab, sukut saqlashiga o'rganib qolgan. Chol savollari bilan go'yo og'riqni biroz unutardi. Og'riq bosilganday bo'lgan onlarda Cherkes savollarini to'xtatardi, Sayali xola uning yonidagi kichkina gilamchaga o'tiradi-da, erining qo'llarini avaylab silay boshlaydi. Bunday paytda Sayali xola erining ohista ingrashiga quloq tutib boshidan kechirgan voqea-hodisalarni eslaydi: quvonchli va tashvishli kunlar, turmush qurishganidan keyingi dastlabki yillardagi qiyinchiliklar, o'zining qizlik yillaridagi voqealar – barchasi birma-bir ko'z o'ngidan o'tadi. Uning butun hayoti kaftidagidek ravshan – oddiy va tushunarli. Faqat bir narsaga hamon aqli yetmas, tushunmas edi. Bu kasal-

lik uning eriga qayoqdan yopishdi, nega aynan Cherkes shunaqa og'ir dardga mubtalo bo'ldi? Kasallikning dastlabki alomatlari sezilganda Cherkes bemalol yurardi, og'riqqa unchalik e'tibor bermasdi. Og'riq kuchaygach, uni shifoxonaga yotqizdi. Ammo og'riq borgan sari kuchaysa kuchaydiki, bosilmadi, chol qiynalib, tobora ozib ketaverdi. Nega aynan u yo'liqdi shu dardga? Cherkes rayon shifoxonasidan uyiga kelgach, feldsher afsus ila qo'llarini yoydi-da, "Bu ko'hna kasal, faqat Allohdan shifo so'rang", dedi. Uning so'zlaridan shunday ma'no chiqdiki, Xudo cholni jazolamoqda. Biz nima qildikki, Yaratgan egamning qahri kelsa? Kimga yomonlik qildik, kimning halol mehnat qilib topgan nonini tortib oldik? Agar hamma qilmishiga yarasha jazolansa, Alloh nega ijroqo'mning sobiq raisiga yubormadi shu dardni? Axir u qancha odamlarni qon qaqshatdi-ku! Anavi merov, savodsiz feldsher bu savollarga javob bera oladimi? Bunga o'xshagan anqovlardan nima kutish mumkin? Ayni paytda Sayali xolaning ichidan bir sado keldi: bir tarafdan feldsher to'g'ri aytayapti, bu Xudoning jazosi, to'g'ri, nima uchunligi noma'lum. Xudoning ishlarini qayoqdan bilamiz. Allohning hukmisiz biron ish bo'larmidi... O'zing panoh ber, Xudoyim...

Sayali xola bir narsani aniq biladi va bunga qat'iy ishonadi. Choli, Cherkesi uni bu dunyoda ushlab turgan yakka-yu yagona suyanchi va tayanchi, Cherkes kampir uchun suv bilan havoday bir gap, agar u bo'lmasa, Sayaliga bu dunyoning qizig'i ham, lazzati ham yo'q...

Feldsher Mahmud keldi. Hali uyga kirmasdan o'shqirdi:

– Nima balo, bu yer muncha qorong'i?

Sayali xola bir narsa deyishga ulgurmay feldsherning ovozidan uyg'onib ketgan Cherkes:

– Qorong'ida og'riq sal bosilganday tuyuladi nazarimda... Shuning uchun pardalarni yopib qo'ygan, – dedi.

– Qanaqa og'riqni aytayapsiz, amaki! Men bir dori olib keldim, bitta ukoldan keyin o'n sakkiz yashar yigitday bo'lib qolasiz... Ishqilib ukoldan so'ng bironta yoshroq jononni olib kelmasangiz, deb qo'rqaman.

Feldsher o‘z hazilidan o‘zi miriqib kuldi. Cherkes mayin jilmaydi. Feldsherning o‘shqirib kelishidan biroz ranjigan Sayali xola ham iljayib qo‘ydi.

– Avval sen oyoqqa turg‘iz, men hamma narsaga roziman, – dedi xola hazillashib.

Mahmud chamadonchasini stolga qo‘ydi. Fokuschilarga o‘xshab avval hafsala bilan qo‘lini, har bir barmog‘ini alohida-alohida artdi, chamadonchani ochdi, undan yaltirab turgan temir qutichani oldi, qutichadan ampulani oldi-da, tepaga ko‘tarib pardaning tirqishidan nay kabi tushib turgan yorug‘likka soldi, go‘yo uning ichidagi dorini tekshirdi. Chol uning harakatlarini diqqat bilan kuzatdi. Mahmud ampulani yorug‘lik naychasiga tutganda, chidab turolmadi:

– Qasam ichaman, Mahmud, men bunaqa dorini umrimda ko‘rmaganman.

Sayali xola Mahmudga yaqin keldi-da, butun vujudini ko‘zga aylantirib ampulaga termuldi.

– Mahmud, – dedi xola shubhali, ishonchsiz ohangda, – buyam Salaxovning qayin singlisiga qilishgan ukoldanmi?

– Bo‘lmasam-chi! – dedi qat’iy ohangda Mahmud. Kampirining shivirlab so‘ragan gapini Cherkes eshitdi. Va o‘zini tutolmadi:

– Hey, Mahmud, ota-bobong ruhi haqqi, to‘g‘risini ayt, keksalarni aldama. Kampirimning aytishicha, qiz bechora o‘lim holatida ekan... Rostdanam uni tiriltirishdimi?

– Bo‘lmasam-chi! – Mahmud cholga yuzlandi. – Bechora qiz o‘lib bo‘lgan ekan. Boshi tanasidan, tanasi oyoqlaridan uzilib ketgan. Do‘xtir keldi-da, hamma a’zolarini ehtiyotlab tozaladi, yuvdi, dizinfeksiya qildi, so‘ngra hammasini joy-joyiga qo‘yib tikdi. Endi yangidan tug‘ilganday bo‘ldi.

– Ukol-chi? – Sayali xola hayajonlanib ketdi.

– Albatta avval ukol qildi-da. – Mahmud gapini yo‘qotmadi. – Ukolsiz ish bo‘larkanmi?

– O‘zingga shukur, Allohim! – Sayali xola hayrat va hayajon ila qo‘llarini tepaga ko‘tardi. – Hamma narsa O‘zingning ixtiyoringda, O‘zing barcha narsaga qodirsan.

Cherkesning kayfiyati ko‘tarildi. Mahmud kelishi bilan og‘riq uni tark etganday edi. U hatto hazil-huzil qila boshladi. Ammo ehtiyot bo‘lish kerak, taqdir bilan hazillashish yaxshi emas. Xudo ko‘rsatmasin, birdan yana og‘rib qolsa nima bo‘ladi...

– Mahmud bu ukoling Sodiqning sigiriga qilgan ukolingdan emasmi ishqilib? Agar shunaqa bo‘lsa, kalimangni keltiraver.

– Ey, inson, nimalar deyapsiz?! – Quloqlariga ishonmay, biroz jahl bilan choliga qaradi Sayali xola. – Yo, Alloh, O‘zing kechir biz gunohkor bandalaringni!

– O‘sha voqea Gachakning o‘g‘lining to‘yidan keyin bo‘lgan edi-da, – dedi bamaylixotir Mahmud. – O‘shanda boshim shunaqa og‘riyotgan ediki... Sigirga qanaqa ukol kerakligini qayoqdan bilibman. Hayvon, tili yo‘q, gapirolmasa, u yerim og‘riyapti, bu yerim og‘riyapti, deyolmasa... Tavakkal qildim-da. Bizning tilimizda buni “be”, “me” deydi, – deb kuldi Mahmud.

– O‘sha voqeadan keyin Sodiq seni rosa tuzladi-ya, – deb so‘zida davom etdi chol. – O‘sha ukolni avval Sodiqning o‘ziga qilmoqchi bo‘lgan ekansan, a, rostmi shu gap?

– Kim kasalligini, nima kasal ekanini men qayoqdan bilay? O‘g‘li yugurib keldi-da, tezda biznikiga boring, dedi. Kim kasal ekanini – Sodiqmi yoki sigirimi, bilganim yo‘q. Borsam, sigiri kasal ekan. Qildim ukol... Yaxshiyam Sodiqning o‘ziga qilmabman.

– O‘ldirarding-da...

– Albatta-da! Sigirining o‘rniga Sodiq o‘lgan bo‘lardi. Tamom.

Cherkes kuldi:

– Masxarabozsan, Mahmud.

Mahmud Sayali xolaga dedi:

– Tog‘ora obkeling, qo‘limni yuvib olay.

Cherkes feldsherning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, har bir so‘ziga e’tibor berar edi. Hozirgi gapini yaxshi eshitolmay qoldi.

– Nima deyapti u, kampir?

– Hech narsa... Qo‘lini yuvmoqchi...

Sayali xola tog‘ora olib keldi. Mahmudning qo‘liga suv quydi. U har bir barmog‘ini alohida-alohida yuvdi, so‘ngra shu tartibda

artdi barmoqlarini. Ampula uchini ehtiyotkorlik bilan sindirdi, qaynayotgan suvda turgan shprisga ampuladagi dorini tortdi. Cholning yoniga keldi.

– O'zing yordam ber, Xudojon. – Sayali xola cholining yengini shimardi.

– Balki bu yerga qilmas, – dedi Cherkes xotiniga. Sayali xola Mahmudga qaradi. U shu yerga degan ma'noda bosh irg'adi.

– Qo'liga, qo'liga... Bu ukol yumshoq joyiga qilinmaydi.

– Albatta-da, – deb uning so'zlarini ma'qulladi xola. – Axir, bu oddiy ukol emas-ku, Salaxovning qayin singlisiga qilingan ukoldan. Qo'liga bo'lmay qayeriga qilsin?

– To'g'ri aytasan, – dedi chol xursand holda.

Chol suyungancha feldsherning harakatlarini kuzatdi. Mahmud ularning quvnoq chehrasiga qaradi, so'ng aftini burishtirdi. Bularni qaranglar... Qariyalar nima-yu, bolalar nima – farqi yo'q... Ularni suyuntirayotgan umidni so'ndirishi mumkin bo'lgan achchiq haqiqatni aytib bo'ladimi, til aylanmaydi-ku.

Mahmud ukol qilib bo'ldi-da, soatiga qaradi. Shprisni avaylabgina yaltiroq temir qutiga, uni esa chamadonchaga joyladi. Shoshilmay chamadonchani yopdi. U ataylab vaqtni cho'zayotgani sezilib turardi. Shu mahal Sayali xolaning titragan, vahimali ovozi eshitildi.

– Mahmud, chol yig'layapti!

Mahmud birdan bemorga qaradi. Chol unga minnatdorlik bilan, hech qanday og'riqni sezmayotganday, sog'lom kishiday mo'ltirab yotardi.

– Xursandligimdan yig'layapman, o'g'lim, – dedi sekin. – Nazarimda rostdanam badanimdan og'riq chiqib ketayotganga o'xshaydi.

Mahmud yana soatiga qaradi. Besh daqiqa ham o'tmagan edi.

– Hali bu hech narsa emas, – dedi – Kechqurun kelib, yana bitta ukol qilaman. Kechasi yosh boladay qotib uxlaysiz.

Feldsher ketishi bilan Cherkes xotiniga dedi:

– Sezdingmi, Mahmud kayfiyati bo'lmay chiqib ketdimi?

– Charchagan bo'lsa kerak. Ertalabdan beri katta do'xtir bilan yuribdi, uning qosh-qovog'iga qarab... O'zi bo'ladimi... Cherkes, ahvolingiz qalay? Og'riq bosildimi?

– Yosharib qolganga o‘xshayman, xotin... Tashqarida qor yog‘-yaptimi?

– Nimalar deyapsiz, azizim! – Sayali xola o‘zining oyog‘iga urib qo‘ydi. – Bu paytda qorga yo‘l bo‘lsin. Injadarasiga bahor kelgan, azizim, bahor, hali qishgacha ancha-a vaqt bor. – Choliga yaqin borib, ustiga ko‘rpani tortib, yaxshilab o‘rab qo‘ydi.

– Choy bo‘lsa ichardim-da, – dedi Cherkes.

– Shirin choy qilaymi? – Sayali xola erining sarg‘aygan, haddan ziyod ozib, qoqsuyak bo‘lib qolgan yuziga umid bilan termuldi. Necha oydirki, choli na biron shirinlik yeydi, na shirin choy ichadi.

– Mayli.

– O‘zingga shukur, Allohim!

Sayali xola xonadan chiqayotganda Cherkes:

– Bilasanmi, hozir nima xayolimga keldi? – dedi. – Sen shu ukoldan hech bo‘lmasa beshta, imkoni topilsa o‘nta olsang, zo‘r bo‘lardi-da. Berarmikan?..

– Qayoqdan bilay? Buncha ko‘p so‘rasam, do‘xtirga yoqmasa-chi.

– Nima, u ukolni tekinga berdimi?

– Bo‘lmasam-chi! – Sayali xolaning yuragi bir sanchdi. Unday qilmaslik lozimligini, ko‘zoynakli do‘xtir bilan bu taxlit gaplashish mumkin emasligini, yaxshi ish qilmaganini endi tushuna boshladi. Bunaqa dori juda noyobdir balki. Eh, Sayali, nimalar qilding, deb o‘zini o‘zi koyiy boshladi.

– Uyda qancha pul bor, xotin?

– Yetmish manat.

– Yigirma manat qoldir-da, ellik manatni o‘sha do‘xtirga eltib ber. Balki oldin Mahmud bilan maslahatlasharsan... Yo‘q, yaxshisi, to‘g‘ri o‘ziga olib borib ber... Meni tanir ekan, dedingmi? – Cherkes xotinining ko‘ziga qaradi. Sayali xola uning qarashiga dosh berolmadi, ko‘zini olib qochdi. Erining shubhadan chalg‘itish uchun birdan gapga tushdi:

– Ha, xuddi shunday. Bokuda Injadaralik Cherkesni tanimaydigan odam yo‘q, dedi. Mendan unga katta salom ayt, dedi...

– Unday bo‘lsa, vaqtni cho‘zma... Tezroq bor...

Sayali xola stol tagidan sandiqqa o‘xshash katta eski chamadonni oldi. Uni ochib ro‘yjoga o‘ralgan pulni oldi-da, ellik manat sanadi – uchta o‘n manatlik va to‘rtta beshtalik.

– Balki oldin sizga choy damlab berarman?

– Yo‘q, kechikma, tezroq bor. Choyni keyin damlaysan.

Xotini ostona hatlaganda:

– Ey, Sayali! – deb chaqirdi.

– Nima? – Sayali erining kasal bo‘lmasdan oldingi ko‘rinishidan asar qolmagan, mutlaqo o‘zgarib ketgan yuziga termuldi.

– Seni ovora qildim... Meni kechir...

Sayali xolaning tomog‘iga nimadir tiqildi. U o‘zini qo‘lga oldi, chuqur xo‘rsindi, ammo eriga bildirmay eshikni yopdi.

Sayali xola butun kuchini to‘plab shoshib borardi. Ammo bu gal unga kuch beradigan umid ham, ruhlantirgan qanot ham yo‘q. Toshlarga qoqilib, yo‘ldagi tikonlar oyog‘ini tilib, ko‘kragidan chiqib ketay-chiqib ketay deb, gupillab urayotgan yuragini changallagancha halloslab borardi. Qora tog‘ning xarsang toshlari uzra o‘tgan yolg‘izoyoq yo‘lga tushdi. Bu yerdan feldsherlik punkti juda yaqin edi. Shu mahal u tepasida tanish guvillagan ovozni eshitdi. Osmonga qaradi, erta tongda ko‘rgani ninachining qanotlariday uzun qanotli vertolyot uchib ketmoqda edi. Agar Qoratog‘ning barcha toshlari Sayali xolaning ustiga ag‘darilganda ham u hozir vertolyotdan qo‘rqqanchalik qo‘rqmas edi. Uning ichida nimadir uzilganday, hatto sekin, iltijoli, qisqagina “dzin” degan tovush eshitilganday bo‘ldi va... Shu topda Sayali xola negadir pulni esladi va uni qo‘liga oldi. Uchta o‘n manatlik va to‘rtta beshtalikni changallab vertolyot ortidan jon holatda yugurdi. U hansirab, chuqur-chuqur nafas olib yugurardi. Vertolyot tobora balandlab kichrayib borardi. Kampir o‘zini vertolyot izidan osmonda uchib borayotganday tasavvur qilib yugurarkan, o‘zicha baqirardi:

– Shoshma, to‘xta, do‘xtir!.. Injadaralik Cherkes o‘lyapti! Yordam ber! U ham davlatga xizmat qilgan! Kolxozlar tashkil qilgan, banditlarni tutgan! To‘xta! Yordam ber!

Uning nafasi bo‘g‘ziga tiqilib quyoshning tafti qizdirgan va ajib bo‘y taratayotgan bahor chechaklari, o‘t-o‘lanlar uzra yiqildi. Ver-

tolyot ko'm-ko'k osmonga ko'tarilib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sayali xola o'tlar ichidagi chigirtkalar ovozini eshitdi va vertolyot allaqachon ketib bo'lganini angladi. Endi yo'q vertolyot. U o'tlar ustida o'tirib, titrayotgan tizzalarini og'ir mehnat va keksalikdan ozib, qorayib ketgan qo'llari bilan quchoqladi. Birdan erining ozg'in, quruq suyak bo'lib qolgan, karavotdan pastga osilib turgan qo'llari ko'z o'ngida paydo bo'ldi. O'zining qo'lida pul – uchta o'ntalik va to'rtta beshtalik pul borligi esiga tushdi. Keksaygan yuzlari uzra issiq yosh miltirab oqayotganini sezdi...

MUNDARIJA

Bobo Ko'ho nidosi *(Muhiddin Rahim)* 3

Roman

Qatl kuni. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 8

Hikoyalar

220-xona. *Muhiddin Rahim tarjimasi* 219
Galaktika. *Nodira Afoqova tarjimasi* 227
Sovuq tosh. *Nodira Afoqova tarjimasi* 240
46-yil o'yinlari. *Muhiddin Rahim tarjimasi* 247
"Foto-fantaziya". *Shohsanam So'fiyeva tarjimasi* 250
Ostona. *Mamatqul Hazratqulov tarjimasi* 260
Bayoti Sheroz. *Shohsanam So'fiyeva tarjimasi* 277
Inja darasida bahor chog'i. *Mamatqul Hazratqulov tarjimasi* 296



YUSUF SAMADO‘G‘LI

67-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 19,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 18,50
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 134-1/22 Buyurtma raqami № 22-350

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)

Yusuf Samado‘g‘li [Matn]: nasr/to‘plovchi Muhiddin Rahim. –Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 312 b.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YUSUF SAMADO'G'LI